

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TALIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Abdullayev U.A.

JAHON TARIXI

(Qadimgi dunyo tarixi)

5120300 – Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)

Toshkent – 2017

Mazkur o‘quv qo‘llanmada Jahon tarixining qadimgi davriga oid ma’lumotlar, ya’ni davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishiga doir masalalar keng yoritib berilgan.

Qo‘llanma oliy o‘quv yurti talabalari, bo‘lajak tarixchilar, Jahon tarixining qadimgi Sharq mamlakatlari tarixi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

tarix fanlari doktori Shodmanova S.B.

tarix fanlari nomzodi Azimov K.S.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2017-yil 24-avgustdagi 603-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya
etilgan.

1-MAVZU. JAHON TARIXI FANIGA KIRISH: YANGI YONDASHUVLAR

REJA:

1. Jahon tarixiga kirish.
2. Tarixchilar va globalizatsiya: kelib chiqish va nazariyalar haqidagi munozara.
3. Yoshlarni qadimgi dunyo tarixi bilan tanishtirish.
4. Samarqand: Dunyo tarixining markazi

Tayanch iboralar: *sivilizatsiya, globalizatsiya, yevrosentrizm, Ptolomey, Al-Idrisi, Toynbi, feodalizm, rekonkista, Uchunchi dunyo nazaryasi, sekai, global tarix, “Yevropadan tashqari sivilizatsiyalar”*

Bu o‘quv qo‘llanma jahon va umumiy tarixni o‘qitish va izlanish tizimi ko‘pincha samarali tarzda birga olib borilmasligini ta’kidlashdan o‘z ishini boshlaydi, shunga qaramay butun oliy ta’lim yurtlarida o‘qitilish tizimi aynan–izlanishga asoslanishi zarur. Nimaga shunday? Qisman bu jahon va umumiy tarixni izohlashdagi qarashlarning turlichaligi sabab bo‘ladi. Ko‘plab atamalar kabi, “jahon” va “umumiy” atamalari ma’nolarini izohlash vaqt, joy va madaniyatga bog‘liq, ya’ni ular bir biriga o‘xshamagan fan tomonidan madaniy aloqalar va aniq shakllangan vaqtga nisbatan izohlanadi, bu esa o‘z o‘rnida ularni tarixni o‘rganish va o‘qitishdagi muhim foydasiga nisbatan turli xil qarashlarni tug‘diradi.

Ingliz tilida bu atamalar turlicha ma’noni anglatadi: umumiy tarix dunyoning turli qismlaridagi aloqalarga o‘z e’tiborini qaratsa va ayniqsa G‘arbning gegemonligi degan tushunchadan o‘zini chetga olsa, jahon tarixi esa yo butun dunyo tarixini, yo o‘z ichiga ko‘proq tarixni olib, umumiy tarix bilan bir xil maqsadni qo‘ygan xolda ta’riflanadi (garchi Yevrosentrizm g‘oyasi birinchi atamada kuchliroq talqin qilinsada). Shunisi qiziqki, Polshada ko‘p tarqalgan iboralar *historia poshszeczna* (umumiy tarix) va *historia śshciata* (jahon tarixi, davrlarga bo‘lingan va asosiy e’tiborni aniq hudud va nuqtai nazarlarga qaratilgan), ikkalasi ham o‘z o‘rnida Yevrosentrik hisoblanadi ammo hozirgi kunda ham butun Yer yuzi tarixini qamragan tarixni yaratish maqsad qilib qo‘yilmoqda va o‘z o‘rnida

an'anaviy davrlashtirish diniy va mahalliy hodisa va noroziliklarga iloji boricha yumshoq munosabatda bo'lishga harakat qilinmoqda. **Historia globalna** (umumiy tarix), boshqa tomondan qaraganda, polyak tilida yangi ixtiro hisoblanadi va kamdan kam holatlarda qo'llaniladi. Yaponiyada tarixchilar jahon tarixini ifodalash uchun ko'proq **sekaishi** atamasini ishlatishadi. Bu yerda **sekai**¹ "jahon" so'zini ekvivalenti hisoblanadi va aslida Buddizm kosmologiyasidan kelib chiqib umumiy degan ma'noni bildiradi, bu yerda "**shi**" "tarix" deganidir. **XIX asrning** o'rtalarigacha umumiy so'z geografik tushuncha **bankokushi** (**bankoku** so'zma so'z tarjima qilinganda "mingta mamlakat" degan ma'noni beradi), bu so'z asta-sekinlik bilan haqiqiy dunyo degan ma'noni berganili uchun **sekai** atamasi bilan almashtiriladi. **1990-yildan** boshlab umumiy tarix Yaponiya ilmiy adabiyotlarida **gurobaru shi** yoki **gurobaru hisutori** fonetik tarjimasi qiyofasida uchraydigan bo'ldi. Bu atamani qo'llovchilar o'zlarining tarixiy murojaatlariga yangicha urg'u berishadi, ayniqsa transmilliy aloqalar va harakatlarga e'tibor beriladi, hamda tarixning dinamikasiga, shu o'rinda ular **sekaishiga** o'zgarmas atama sifatida qarashadi va individual milliy va hududiy tarixni mutloq to'plashni nazarga olishadi.¹

Yevropa universitetlarida tarix o'qitish tizimida jahon tarixi va umumiy tarix qay tariqa tushuntirilganligi va integralashtirilganini bilish uchun, Erasmus Network CLIOHWORLD² ishchi jamoasining hodimlari, o'nlab Yevropa davlatlari tarixchilari va Yaponiya tarixchilari bilan birga bu holatni solishtirishga qaror qilishdi². Ular Yevropa universitetlarida jahon va umumiy tarixlarning qay tariqa o'qitilishi haqida, kasbdoshlariga savolnomalar yuvorishdi, savollariga to'liq tafsilotli javob olish maqsadida, savollardan biri Yevropa tarixi, jahon tarixi va umumiy tarix tushunchalarini qanday tushunishlashlari haqida edi. Yevropa tarix departamentida ishlovchilar bergan javob holatni mutlaq oydinlashtirdi, jahon va

¹ Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005.

Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e-book, Chicago 2008.

² Other copies are kept in Amsterdam, Scheepvaart Museum, and Basel, University Library. A. Taylor, The World of Gerard Mercator, London 2005, p. 201.

umumiy tarixni o'rgatish va turli xil nomlarda ko'rinish berdi, Yevropa tarixi o'rganilmagan davrdan to G'arb sivilizatsiyasigacha; dunyodagi turli xil hududlar va madaniyatlar tarixini birga jamlashdan, umumiy tarix davrilaridagi aniq mavzulargacha masalan, atrof-muhit tarixi, savdo aloqalari va h.k. Balki, kengroq olib qaralganda, bu "o'rgatish uchun judayam kattadek ko'rinar. Oliy ta'lim muassasalaridagi holat, o'rta ta'lim dargohlaridagi holatning aks sadosi hisoblanadi va tarixni o'rganish va o'rgatishdagi Yevrosentrizmning davom etayotganidan darak beradi. Hattoki, o'rta ta'lim dargohlaridagi o'quv rejasiga ko'z qiri bilan tashlangan nazar ham shuni ta'kidlab turibdiki, "jahon tarixi" ni o'rganish, odatga bu tushunchalar davlat yoki hududning mahalliy yoki milliy tarixi bilan bog'liq bo'lgandagina o'rganiladi.

Misol qilib oladigan bo'lsak, yuqori bosqich o'rta maxsus ta'lim dargohlari uchun ishlangan Fin Milliy O'quv dasturi (2003)³ va uning tarix dasrliklari bilan aloqasi. Finlandiya tarixi ma'lum chegaralarga ega bo'lsa ham asosiy urg'u aynan Yevropa tarixiga qaratilgan, shu o'rinda qolgan dunyo "Yevropa bo'lmagan" deb uqturiladi va faqatgina bu hududlarga, Yevropa tarixi bilan aloqali bor joylarigina e'tibor olinadi, Buyuk Geografik kashfiyotlar davri, merkantilizm, imperializm, kolonializm (mustamlakachilik davri), ikkita jahon urushlari, dekolonizatsiya jarayonlari (mustamlakachilikdan ozod bo'lish jarayonlari) va millatlarning hamkorliklari hamda sistemalari (NATO, Varshava pakti, BMT, Yevropa Ittifoqi va boshqalar) shular jumlasidandir.

Bu kabi tushunchalar va ba'zi bir universitetlarda aniqlangan yaxshi amaliyotlardan ilhom olishimiz va o'zimizga, kasbdoshlarimizga, talabalarga hamda boshqa Yevropa bo'ylab qiziqishgan guruhlariga yordam berishimiz uchun dunyo bo'ylab Jahon tarixi hamda umumiy tarixni o'qitish va o'rganish sifatini oshirish uchun bu o'quv qo'llanmani yaratishga turtki berdi.

Globalizatsiya va "madaniy chalkashtirish" davrida, tarixchi talabalar kabi katta tajribaga ega tarixchilar ham tarixiy rivojlanishda dunyo va global jarayonlar bilan yaqindan tanishishgan bo'lishlari zarur. O'z hududi va shaxsini aniq tushunib olish, insoniyat tarixidagi

boshqa davrlardan ko‘ra, hozirgi vaqt ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda, chunki sayohat va aloqa tizimidagi yangi texnologiyalarning mohiyati shundaki biz bir joydan ikkinchi joyga, yangi madaniyatga, atiga bir nech soatda yetib borishga imkon berish, vaholanki dunyo haqidagi barcha ma’lumotlar bizning telefonlarimizda va boshqa elektr tarmoqlarga ega bo‘lmagan gadjet, uskunalarimizda soniyada aylanib yuradi. Bularning barchasi bizni global va “dunyo” atamasining ifodalanishda va umumiy va mahalliy tarix o‘rtasidagi aloqa, o‘zimizning tarixga teng, bu milliy, Yevropa, Osiyo, Yevroosiyo, Amerika, Afrika tarixi yoki umuman boshqasi, hamda dunyodagi boshqa hududlar va dinlar tarixi bo‘lsin bizni shubha bilan qarashga undaydi.

Shu sababli ham jahon va umumiy tarix bo‘yicha yaxshi bilimga ega bo‘lish, bizni tarixdagi aloqalarga murakkab nuqtai nazardan qarashga undash zarur, shuningdek jahon tarixini mahalliy va milliy talqinda sharhlash chuqur tushuncha talab qiladi. Biz bu sohada muvafaqqiyat qozonish uchun, o‘zimizning milliy va diniy tariximizning, jahon tarixi rivojlanishidagi aloqasi hamda keng tarixiy jarayonlar davri o‘rni bo‘yicha mutahassis tayyorlashimiz zarur. Faqat shundagina, biz mahalliy muhitda globalizatsiya davrlari va qanday obyektiv qonunlarga asoslanganligini aniqlashimiz mumkin va o‘z o‘rnida tarixiy adabiyotlardagi o‘ta milliylashishdan o‘zimizni olib qochishimiz mumkin.

Shu kabi kuchli xohishga qaramay, biz ushbu kitobini jahon tarixi va umumiy tarixni o‘rganishning mukammal namunasi deb aytishga haqqimiz yo‘q. Ko‘proq, bu o‘qitish va o‘rganish uchun jamlangan ilmiy maqolalar va o‘rganib chiqish manbalari sifatida qaraladi. Ushbu o‘quv qo‘llanmaga taalluqli keng ochiq internet saytidagi adabiyotlar ro‘yxati hamkor hisoblanadi (<http://www.clioWorld.net>)¹. Biz ishonamizki, bu ikklasi birgalikda shu sohani o‘rganish va o‘qitishga bel bog‘laganlar uchun qiziqarli va yaxshi tayanch manbai bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Thrower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e-book, Chicago 2008.

*Bu kitob **Janny de Jong** tomonidan taqdim etilgan shu sohadagi ikkita muhim muhokamali asosiy tushunchalardan boshlanadi: jahon tarixi va globalizatsiya, tarixchilarning o'rganish obyekti sifatida, ya'ni umumiy tarix. Bundan so'ng dastlabki dunyoviy imperiya haqidagi mavzuli amaliy ish ketadi, unda **Stefan Halikoshski Smith** ilk zamonaviy Portugaliya sistemasi globalizatsiyadan oldingi globalizatsiya bo'lganmi degan savolni olib chiqadi. Undan tashqari an'anaviy Yevrosentrizm (eski atamada ko'zlangandek "**xalqaro tarix**") tuzog'iga jiddiy e'tibor berishga harakat qildik va tanqidiy Yevropa va Amerika tarix o'quv qo'llanmalari va jahon va umumiy tarix bo'yicha ilmiy kitoblar to'plamlarini taqdim etushga qaror qildik. Qimmatbaho yardom Yaponiyadagi kasbdoshlarimiz tomonidan taqdim etildi. **Arakasha Masaharu** dunyo va jahon tarixiga bo'lgan qarashning an'anaviy Xitoycha va **Takenaka Toru** bo'lsa Yaponcha usulini yoritib berishdi. **Klaus** va **Eickellar** umumiy tarixni janubiy Sahroi Kabir Afrikasi nuqtai nazaridan nomayish qiladi va **Sebastian Stride** bo'lsa jahon tarixida O'rta Osiyo nuqtai nazarini himoya qilib chiqadi, Samarqand misolida.*

Yaponiya, Xitoy, Afrika, Samarqand va zamonaviydan oldin hamda zamonaviy Yevropa imperiyalari dunyo tarixini qay tarzda ko'rish mumkinligini hamda turli xil madaniyatlar va millatlar tarixiy salnomalaridagi bahslashuvlar haqidagi namunalar bilan ta'minlab berishdi, biz umumiy va jahon tarixidagi vaziyatni to'g'ri baholay olishimiz uchun, keng madaniy, hududiy va davlatlar tarix salnomasidagi yo'l qo'yilgan xatoliklarni qayta ko'rib chiqishimiz uchun, milliy va madaniy chegaralarni yengib o'tishimiz zarur. Shu sababli ushbu kitob Yevropa milliy tarix solnomasi bilan jahon va umumiy tarixlari o'rtasidagi aloqalar muhokama qiluvchi boblarni o'z ichiga oladi: **Yakov Batista** Rossiya va Sovet tarixi solnomasi haqida, **Halina Parafianoshicz** Amerikaning Sharqiy-Markaziy Yevropadagi g'oyasi, **Andresh Dilley** Britaniya imperiyasi tarixi solnomasiga oid oxirgi bob **Maria Efthymiou** tomonidan yozilgan bo'lib kam o'rganilgan nuqtai nazarni bizga taqdim etadi: yosh o'quvchilar uchun tarixni yozishning ikki harakati, jahon tarixining murakkabligiga urg'u bergan holda, tarixga murojaat qilib, hozirni anglash Ushbu kitobning "Toolbox"(Uskunalar qutisi) - keyingi munozaralarda, o'quv

faoliyatida va umumiy va jahon tarixini o'rganish va o'qitishdagi izlanishlarda, an'anaviy matnlar va tarixiy xaritalar ko'rinishidagi bizning manbaviy ma'lumotlardan foydalanishdagi maqsadimizni aks etadi¹. **“An'anaviy Matnlar”** bo'limi, qadimgi Yunon va Rim, o'rta asrlar Xitoy va Yapon ko'chirmalarini o'z ichiga oladi, shuningdek, qisqa kirish qismlaridan iborat dastlabki zomanaviy Arab, Yapon va Yevropa matnlari ham shular jumlasidandir. **“Dunoviy qarashlar va Xaritalardagi dunyo tarixi”** o'n beshdan ortiq xaritalar va ularga bo'lgan Sharxlar o'z ichiga qamrash orqali hosil qilingan. U **Ptolomey** globusidan **VIII asr** Xitoy xaritashunosligigacha bo'lgan va dunyoqarashning O'rta asr va Xristian nuqta nazari orqali ifodalash, **XII asrdagi** Maroqanda geografi **Al-Idrisning** dunyo xaritasi va **XVI asrning** boshlarida Amerikani xaritalarda nomlanishi, dunyoning turli xil qismlarini tasvirlab beruvchi yangi xaritalarning yaratilishi, davlatlarning asta sekinlik bilan bir biri bilan aloqa o'rnatishiga olib kelishi haqidagi bir talay mavzularni o'z ichiga qamrab oladi.

O'quv qo'llanmani tayyorlash chog'ida biz turli xil darajadagi tarixni o'qitish va o'rganuvchilar yoshining turlichaligi, boshlang'ich ta'limdan o'rta maxsusgacha bo'lgan yo'ldan tortib, ochiq universitetlarga bo'lganlarni hisobga olgan holda, an'anaviy matnlar va xaritalar va ularga berilgan sharhlar hamda kirish qismlari o'rganish samarali bo'lishi uchun boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin degan g'oyani rivojlantirdik. Keyinchalik yangi g'oya va fikrlarni kitobning so'ngi sahifalarida qator ilmiy kitoblar va jurnallar, qayta ko'rib chiqish uchun jahon va umumiy tarixga oid onlayn materiallar ro'yxatini tuzib chiqishga muvaffaq bo'ldik.

Jahon va umumiy tarixni o'qitish va o'rganishda, muallif matnini o'rgangan holda to'plam yaratishga bel bog'lagan tashabbuskor va qiziquvchan tarixchilarsiz bu kitob yaratilmagan bo'lardi. Biz ayniqsa bu kitobning CLIOHWORLD ishchi guruhining hamraisi jahon va umumiy tarix uchun online tizimda adabiyotlar ro'yxatini to'plagan **Gerdhard Dohrn-van Rossumga** o'z minnatdorchiligimizni

¹ J. Osterhammel, Die Verwandlung der Welt: eine Geschichte des 19. Jahrhunderts, Munich 2010, pp. 13-21, 132-148; the five perspectives are elaborated on pp. 1286-1300.

bildirmoqchimiz¹. “Jahon tarixi bo‘yicha ishchi guruh”ning boshqa a‘zolari qo‘shimcha kitoblar, tarixiy xaritalar, an‘anaviy matnlar, mualliflik matnlarini kitish haqidagi maslahatlari bilan qimmatbaho yordam qo‘lini cho‘zishdi undan tashqari, Salzburg, Bochum, Pisa, Oulu va Adanada bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda samarali va g‘ayrat bilan munozaralar olib borishdi. Biz barchamiz turli xil madaniyatlar nuqtai nazaridan yangi narsalarni oldik, tarixni o‘rganish va o‘qitish turli xil millatlar qarashlarni o‘rgandik; umid qilamizki, ko‘plab mamlakatlardagi boshqa tarix o‘qituvchilari va o‘rganuvchilar o‘z maqsadlari uchun ushbu kitobni foydali deb topadilar. Qo‘shimcha tarzda shuni aytmoqchimizki, biz tarixning bu kabi muhim tomonlarini o‘rganish uchun keying hamkorlik va izlanishlarni sabrsizlik bilan kutmoqdamiz. Va nihoyat, muharrirlar CLIOHWORLD koordinatorlari **Kathy Isaacs** va **Gudmundur Halfdanarsonni**, bu kitobni yaratilishini haqiqatga aylantirgan Erasmus electron tizimini yaratib hamda loyihani amalga oshishi uchun tinmay qilgan harakatlari uchun minnatdorlik bildirmoqchilar².

Jahon tarixiga kirish

Kirish qismida **1945-yildan** keyingi dunyo tarixini o‘rganish, o‘rgatish hamda izlanishlar olib borish haqidagi masalalar bayon etilgan. Dunyo tarixi qanday talqin qilinishi kerak hamda qanday metodlar va nazariyalardan foydalanilgan? **1990-yillarda** dunyo tarixi sohasining o‘shishiga shuningdek, bundan oldingi yillardagi farqlarni qayd etishda yangi usullardan foydalanishga bo‘lgan moyillik juda ayanchli darajada edi. Yevrosentrism haqidagi baxs davom etadi: undan halos bo‘lish iloji bormi?

E‘tibor bering!

1997-yil G‘arbiy osiyo va dunyo tarixida deyarli 1000 varoqdan iborat osiyo tarixini o‘rgatish uchun tushunarli qo‘llanma nashriyotchilar tomonidan istar istamaygina chop etildi go‘yoki bu

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011. –p 14

² World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011. –p 15

*uyatli hodisa edi. Institutda o`rganish vositasi sifatida tanishtirilgan "Osiyo" qo`llanmasi ularning qarashlariga ko`ra qandaydir bir tushunilishi oson va sodaroq edi. Dunyo tarixi atamasi o`zgarib ketdi chunki maktab va muassalar **20-asrlar** oxirida bu sohani tegishlich shakllantirdilar, shuningdek, bu G`arbiy sivilizatsiya to`g`risidagi kurslar sarlavhasiga asos bo`ldi. Bundan tashqari bu tarixiy yo`nalish madaniy va ijtimoiy o`zgarishlar ostida o`zini muhim shaklga aylantirdi.*

Bu oddiy misol dunyo tarixidagi ulkan o`zgarishlarni ko`rsatib beradi. Shuningdek, uni faol deya atash umumiy tushunchadir. Ayniqsa **1990-yillar** boshida dunyo tarixi o`zi nima hamda uning metodikasi, nuqtai nazari yuzasidan muhokamalar yangidan tus oldi. Ayni vaqtda "globalashuv" haqidagi chuqur o`rganishlar ham ketmoqda.

O`sha vaqtda globalizatsiya bo`yicha ko`plab ishlar amalga oshirilgan unda turli xil davr sohalaridagi hokimyatchiligi tomonidan qo`llab quvvatlangan. Siyosiy va iqtisodiy texnologik aloqalarni qamrab olgan. Tarixchilar globalashuv jarayonini o`rganish samarali va qiziqarli deb hisoblaganlar. Ushbu yangi yondashuvni "**Global tarix**" hatto "**yangi global**" tarix va umumiy tadqiqotlar kabi atamalar ishlatildi. Chunki jahon tarixi ko`plab dalillarga ega va dastlabki jahon tarixlari g`arb rivojlanishiga asoslangan bo`lib, Global tarix tushunchasi Yevrosentrik qarashlar tufayli buzilgan deb qaraladi. Vaholanki, global holatlarni tushunishda tarixiy nuqtayi nazar bilan o`rganilgan turli xil madaniyatlar qarshiliklarga uchradi degani emas. Masalan: **1994-yilda** AQSh senati yuqori maktablar uchun jahon tarixini o`qitish qo`llanmasiga qarshi ovoz berildi. Bunga sabab g`arb sivilizatsiyasining o`rni tushib ketganligi edi. Bu kitobning ayrim boblarida globalizatsiya tushunchasi, tarixchilarning o`rganish maydoni nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda munozara qilinadi. Bu kirish qismining asosiy maqsadi jahon tarixini o`rganish o`qitish va izlashdagi asosiy manbalarining qisqacha o`rganishdir. Qo`yiladigan birinchi savol bu jahon tarixini qanday ta`riflash kerak va buning uchun qanday metodologiya va qarashlardan foydalib kelingan.

**Jahon tarixida
aniqlik va
yondashuv**

Aniqlash uchun oddiy jahon tarixining global manzarasini o'rganishning markazida esa odamlar va jamoa o'rtasida savdo sotiq, turli boshqa tarmoqlar va jamiyat aloqalari joy oladi. Tarixchi Patrik Manning **2003-yilda** nashr qilingan "*Navigating World History*" kitobi ayni vaqtda jahon tarixini o'rgatish va tadqiq qilish uchun taqriz, tahlil va yo'llanma qilingan kitob muhim hisoblanadi va unda jahon tarixida ochiq global insoniy jamoalar davridagi aloqalari o'rganilgan.

Yaqingacha "aloqalar" tushunchasini sivilizatsiyalarni o'rganishdagi bosh mavzu sifatida ko'rib kelingan. Masalan: **1995-yilda** ikki amerikalik tarixchi globalizatsiya davridagi jahon tarixi tushunchasiga hozirda ham ikkita munosabatni asoslashadi¹. Bunda ular tushunish uchun ancha oson deb qaraladigan sivilizatsiyalarni o'rganishga e'tibor qaratishadi ammo ko'proq dadil munosabat, o'zgaruvchan va mobilizatsiya, diaspora (muhojirlik) ga asoslanmagan muhim mavhumliklar gibridlar va turli tuman shaxslar kabi mavzularga e'tibor qaratiladi. "Aloqalar" atamasini qo'llash orqali bu ikki tushunchani bittaga jamlash mumkin. Bu g'oya 6 ta manbaalar asosida dunyoga kelgan va unda dunyoning turli xil madaniyatlari tenglik asosida qaraladi va ikki tomonlama tushuniladi va dunyoviy tinchlikka erishiladi.

Yodda saqlang!

Taqqoslashning maqsadi yuqori va past darajali madaniyatlarni o'rganish va har bir madaniyatni tarixni o'zgartira olishdagi roli haqida maqtovg'a sazovor bo'lganlarini aniqlash g'oyasidir.

Barcha insonlarning tarixi ham hamma tarixlar singari bir xil emas degan tanqidiy fikr mavjud. Matnlar yaratishning eng oson yo'li ular uchun maxsus imkoniyatlarga ega joy yaratishdir.

Shuningdek "UMUMIY TARIXIY LOYIHA" kitobida Norshestern va Illinois universitetlariga **1957-yilda** asos solinganligi aytib o'tiladi. **L.S.Stavrions** (U *Uchunchi dunyo nazaryasi*

¹ Allardyce G., Toward World History: American Historians and the Coming of the World History Course, in "Journal of World History", 1990, 1, 1, pp. 23-76.

yuksalishi deb atalgan kitobning birinchi asl nusxasini chop ettirgan va bu kitob birnecha marta qayta nashr qilingan va shu kitobning asoschisidir.) Amerikaning oily o'quv yurtlarida tashqi dunyo haqida yetarlicha bilim berilmayotganligi haqida yozgan.

U hududlarni o'rganish haqida yetarlicha asos ko'rsatmagan. Chunki bu Sharq odamlarining *“Ularning o'zini muammosi”* degan iborasidan foydalangan. Shuning uchun Stavrians haqiqiy olam shumul manzarani toppish va uni haddan tashqari rivojlantirishga harakat qilgan.

Jahon tarixi haqida yetarlicha ma'lumotlar mavjudligiga qaramasdan, **Arnold Toynbi** va **Osvald Shpengler** tarixiy hududlar va davriy ma'lumotlar yetarli emas va ular albatta aniq emas deb hisoblagan.

A. Toynbi birinchi marta katta auditoriyar uchun o'ziga xos yuqori instrukturali qiziqarli mavzularni kashf etgan. Ayniqsa **D.C.Samurvillining** 6 tomli **1957-yilda** nashr qilingan *“O'qitishning tarixi”* nomli kitobi **Toynbining** juda ham mashhur qildi. U an'analarning har qanday muammosining har qanday shakliga yuqori darajali ko'rsatmalar beraoladi. Bu usulning qisqartirilgan birinchi dekadasi 300.000 nusxada dastlab Amerika Qo'shma Shtatlarida va Buyuk Britaniyada nashr etilgan. Lekin hali ham izchil bo'lmagan, g'oyib bo'lgan va xato bo'lgan ma'lumotlar va yana jahon tarixiga falsafiy qarashlar tarixchilar, siyosatshunoslar va jamiyatshunoslarning taxminiy tasdig'ini topmagan fikrlari bor.

Jahon tarixining xato ko'lankasi ayrim maktablarda mutlaq xato, puxta o'ylanmagan, va noprofessional shakllari o'rgatilmoqda.

Toynbi va **Shilliam Neilni** o'ziga maftun qilgan kitob *“Sharqning yuksalishi”* kitobidir. Unda o'sha davr zamonasining haqiqiy qiyofasi butun dunyo bo'ylab mahalliy va professional tarixchilar tomonidan o'rganilgan. **Mc Neil** Toynbining global qarashlarini inkor etib, uning aniqlangan sivilizatsiyalarga yaqin bo'lgan yangi ta'limotni taklif etgan.

Toynbining qarashlari asosida **Mc Neil** shuni tushunib yetganki: sivilizatsiyalar madaniyat sari yo'l ochadi¹.

¹ P. Manning, Navigating World History, 1st ed., New York 2003, p. 3; Id., William H. McNeill: Lucretius

Uning muhimligi shundaki jahon tarixida sivilizatsiyalarning o'tginchiligini ochib beradi. U bunda Batrik Manning so'zidan namuna keltiradi, ya'ni: "**botqoqlarning arashlashganligi to'g'risida yani bu aralashma ibora, so'z va hamkorlikdir**". Bu ayniqsa Amerikada **Mc Neilning** g'oyalari Sovuq urush davrida yaxshi samara bergan. **Mc Neil** 25 yil davomida Sharqning yuksalishi tarixi urushdan keyingi Impirialistik kayfiyatlar tasvirlangan.

Sarlavha taqdimotlari paytida **McNeillning** global qarashlari o'tmishni tushunish lekin markaziy va hukmron harakatlanuvchisi kabi g'arb prizmasini bog'ladi. Bu o'sha paytda o'sha yerda boshqa tahlilchi an'analar ham mavjud bo'lganligini bildiradi. Janubiy Osiyo va Britaniya imperiyasi tarixidagi mutaxassis **Tony Ballantyne** manzaraning muqobil mohiyatini taklif qilgan tarixchilar kattaroq hududiy bo'linmalarni o'rganayotganini tasdiqlaydi.

Islomshunoslik bo'yicha nufuzli amerikalik tarixchi Marshall **G.S.Hodgsonning** tadqiqot ishi bu nuqtadagi o'ziga xos muhimlikni ifodalaydi. **Hodgson** dunyo tarixini yevrosentrizmga qarshi chora sifatida tushundi. **McNeillning** ishida o'g'li bilan hamkorlikda yozilgan "**Inson to'ri**" (2005-yil) kitobida joylarda aloqalar bilan madaniyatlar oxir-oqibat almashganligini ekologik tarix bilan tasdiqlaydi. Allaqachon qayd qilinganidek, bu istiqbol endi zamonaviy jahon tarixida asosiy yondashuvlardan birini tashkil etadi. Shubhasiz dunyo tarixchilari faqat bitta misol yoki aniq metodologiyadan foydalanmaydilar. Shunga qaramay bu metodologlar o'rtasida umumiy ziddiyatni keltirib chiqarishi mumkinki, taqqoslashlar va bu yo'naltirilgan aloqalarni yaratadi. O'xshashliklar va farqlarni oydinlashtirish uchun turli xil Sharoitlar yoki muhitlarda paydo bo'lishi ikki va undan ko'proq bo'linmalarni solishtiruvchi metod hududiy, milliy, transmilliy va dunyo tarixi uchun muhim bo'ladi. Qiyosiy tarix **1958-yil** iqtisod tarixchisi **Silviya Trap** tomonidan topilgan "**Jamiyat va tarixdagi qiyosiy ta'limlar**" jurnali kabi doim olamshumul bo'lgan emas. Allaqachon qiyosiy ta'limotlar oila, turmush qurish, oziq-ovqat, dinlar, ba'zi tildagi jinslar va uzun atamali iqtisodiy o'sishni o'z ichiga oluvchi bir qator mavzularda yozilgan. Aloqalar va ta'sirlar namunasi qo'shiluvchi murojaatlarni va taraqqiy

and Moses in World History, in "History and Theory", 2007, 46, 3, pp. 428-425, esp. p. 428.

konsepsiyalarning foydalanishlarini o'z ichiga oladi. Savdo munosabatlarini rivojlantirish va kapitalizm yuksalishi kabi hodisalar tez-tez olamshumul tarixiy o'zgarishlar va trendlarni tushunish uchun ishtirok etiladi. Albatta fransuz "*Annales*" tarixchi **Fernan Brandel** uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni muhimligini ta'kidladi. "*Annales*" turli xil tadqiqot shakli, va oddiy odamlar hayotiy holatlarda qaratilayotgan iqlim, demografik, savdo, qishloq xo'jaligi, transport va fikr kabi mavzulari bilan yozuvchi joriy maktabni rag'batlantirdi. Tahliliy tarix va har xil tartiblar o'rtasidagi to'siqlar sinishida yo'naltirilgan muammoda Brandelning e'tibori dunyo tarixi uchun boshqa murojaatlari bilan aloqasi juda ko'p edi.

Sotsiolog **Emanuel Valeyshteyn** qarashlariga ko'ra, boshqa bir integratsion yondashuvni ilgari surgan bu dunyo tizimi yaratilishida tarixdagi qonuniyat sabab bo'lgan. **Valeyshteyn "Dunyo"** larning tahlil tuzilishiga iqtisodiyotni yo'naltiruvchi g'oya sifatida qabul qilgan edi. Dunyo bir butun deb tasvirlagan va subregionlarga bo'lingan. Xuddi uning o'zagi perefiriyasi va yarim perefiriyalarga bo'lib aniqlashtirishgan. Yevrosentrik g'oya bo'la turib bu ikki xil aloqalar va qarama qarshi masalalar qattiq tanqid qilingan edi. **1980-yillarda** va **90-yillar** boshlarida globalalizatsiya dunyo jarayonlari va rivojlanish bosqichlarini tushunishi uchun ahamiyati sifatida paydo bo'lgan. U shuningdek dunyo tarixiga amaliy ta'sir etgan. Garchi o'sishda "*Global*" konsepsiyasi uzoq ildizga ega. **90-yillarda "global ong"** yanada mustahkamroq bo'lib borayotgandek tuyulgan. Ba'zi ish beruvchilar "*yangi global tarix*" tasavvuri amaldagi vaqt holatini huddi o'zaro tartib metodologiyasi deb ta'kidlashgan. Oldinlari tor fikrlar tushunchasining asosiy qismi edi va ilgarilari dunyo tarixchilari ochiqcha e'tirof etishganki tor fikrlaydigan ahmoqlardan qochishga intilishgan. Bu yevrosentrik dunyoqarash edi. Tarixchi **Obrayn**¹ London iqtisodiyot maktabining global iqtisodiy tarix mutahassisi bo'lib, global tarixni tasvirlagan. "*Kengroq va ishonarliroq iddao yevrosentrizmning shubhali qamrovsiz birgalikda egallashi mumkin*". Bu degani global tarix faqat bir tarafga yon bosadi degani emas, ayniqsa Amerika olimlari dunyo tarixiga hukmron zona

¹ P. O'Brien, *Historiographical Traditions and Modern Imperatives for the Restoration of Global History*, in "Journal of Global History", 2006, 1, 01, pp. 3-39, quote on p. 33.

chiqqanidan beri global tadqiqotning ayblov nuqtasi sifatida tarixning metropolitan shimolga haddan tashqari bo'ysunishini ta'kidlashgan va tashqi ovozlarga ko'zlarini yopadilar.

“Global tarix” jurnalida **Patrik Obraning** qarashlari juda ko'p yangiliklar va global tarixning tuzatuvlarini ta'kidlashgan. Globallashgan dunyo milliy, diniy, hududiy-etnik odatlardan voz kechishga undaydi. Dunyo tarixi va global tarix bo'rttirib yuborilmasligi kerak. **“Dunyo tarixi”** jurnali dunyo tarixi assotsiatsiyasining rasmiy jurnaliga aylanib **90-yillarda** boshlab **“Dunyo tarixining yangi forumi”** deb ijobiy nomlana boshlangan. Dunyo tarixchilari rivojlanib biologiya, geologiya, pomotologiya, arxeologiya ijtimoiy fanlar va lingvistik va adabiyotga oid fanlardan juda keng ilmiy metodologiyalarini qo'llashdi. Sivilizatsiyaga o'xshagan konseptsiyalar qadimiy dunyo tarixida muhim rol o'ynagan bo'lib, lekin haligacha chuqur tadqiq qilinmagan. Yaxshi misol sifatida **Filippe Fermondning** fikricha sivilizatsiyalar atrof muhitning bir turidek o'rganilib, u **“turlar va borliqning qolgan qismi”** o'rtasidagi aloqador deydi.

Dunyoning rivojlanishi **XX-asrning** oxirgi **20-yillarida** dunyo va global tarixi tarixida ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan: rivojlanish jarayonini yangicha ko'rinishda tashkil etilgan tashkilotlar va chop etilgan jurnallarda ko'rish mumkin. **1982-yil** tashkil etilib **1990-yilda** o'z faoliyatini boshlagan Amerika dunyo tarixi tashkilotidan boshqa **2002-yil** tuzilgan Umumyevropa tashkiloti va global tarixi ENIUGH tashkiloti ham bor. ENIUGH¹ korporativ jurnalini nashrdan chiqardi. **2008-yilda** dunyo tarixi Osiyo uyushmasiga asos solingan. Yuqorida aytib o'tilgan **“Dunyo tarixi”** jurnali va global tarix jurnalidan boshqa global tizimlar **“Transmilliy jarayonlar jurnali”**, **“Dunyo tarixi aloqasi”** asoslangan **“Internet”** **2003-2004-yillarda** **“Dunyo tarixi”** uyushmasining rasmiy nashriyoti bo'lib qoldi. **“Globalizatsiya”** (2004-yil) **“Global o'qish”** (2006-yil)lar bo'lgan.

Global va dunyo tarixida qiziqishning o'sishi oddiy muvaqqiyatli voqea emas. Dunyo tarixi kurslari Amerikada mashhurligiga qaramay

¹ ENIUGH is a transformation of the earlier Karl-Lamprecht-Gesellschaft, an affiliate of the World History Association.

unda o'zaro bog'liq biroz tugallangan programmalar mavjud. Hozirgacha dunyo tarixidagi nashriyotlar universitetlar va dastlabki o'qishning dastlabi bosqichlarida ham foydalaniladi. Keyin universitetlar uchun dunyo tarixi rejalariga qarshi AQSh senatidagi saylovlar o'ziga tortishi bilan birga, kamsitishlarni ham yuzaga keltiradi shuningdek tarix ta'limi to'g'risidagi munozaralar ham yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bir tomondan olamshumul vaziyatlarni anglash maqsadi o'ziga xos tarixning muayyan darajasida yo'q bo'lishni anglatuvchi milliy yoki hududiy markazning butunlay yo'q bo'lishidan biroz tashvishlanishga sabab bo'ldi. Boshqa tomondan dunyo tarixidagi tortishuvlar dunyo tarixidagi tortishuvlar dunyo tarixidagi siyosiy ahamiyat va yevropalashish uchun davom etadi. Dunyo tarixidagi noto'g'ri tushunchalarni tanqid qilish koloniyalashtirish nazariyachilari, antropologlar va ijtimoiy izlanishlarini ham befarq qoldirmadi. **Heather Sutherland** Indoneziya tarixi bilimdoni **2007-yilda** dunyo tarixining falsafiy maydoni ustida muzokaralar olib boorish judayam zarurligini ta'kidladi. U aytdiki dunyo tarixchilari koloniyalashtirish g'oyasini ilgari surgan holda mavzu va tushunchalarni ishlatilishi g'arb tarixida xalq davlatchiligiga o'xshab chuqur ildiz otgan. Bu muzokaralar **1950-1960-yillar** boshidagi Osiyo tarixini g'arbiy ilmiy tarixiy an'anaviy ustunligi va mustamlakachi boshliqlar tomondan yozilgan ko'plab noto'g'ri tushunchalar asosida yozish umuman imkonsiz ekanligi haqidagi tortishuvga o'xshab ketadi. Bu esa hamma joyda tarixiy an'ananing umumbashariy yoki xususiyatini va ilmiy mantiq an'analari va na'munalarinining o'sishiga yaratilishiga imkon berdi. Dunyoning tarixiy jurnallarida Xitoy tarixi va kommunistik bo'yicha mutaxassis **Arif Dirlik** dunyo tarixining rivojlanishi tarixchilar tomonidan yozib borilishi zarurligi haqidagi fikrlarni nashr ettirdi¹. Dunyo tarixi taraqqiyotning umumiy rivojlanishini va farqlarini, birdamlik va tarqoqlik, bir biriga o'xshash va kelib chiqishi jihatidan har xil odatlarni tushuntirishi zarur. Balki oxirida qisqacha xulosa bilan nemiz tarixchisi **Jurgan Osterhamelning** Xitoy tarixidan ham dunyo mustamlakachilik va

¹ A. Dirlik, Performing the World: Reality and Representation in the Making of World Histor(ies), in "Journal of World History", 2006, 16, 4, pp. 391-410.

dunyo miqyosidagi qarashlarini aytib o‘tish mumkin. Uning **XIX-asrda yozilgan** monografiyasini xursandchilik bilan qarshi olishdi. (*Dunyoning qayta tuzilishi, 19-asrning tarixi.*) u **19-asrning** uzoq davom etgan birlashgan istiqbolli foydalarini tahlil qildi:

1. Samaradorlikning assimetrik oshib borishi
2. O‘zgaruvchanlik
3. Assimetrik ma’lumotlarni siqish
4. Teng huquqlilik orasidagi keskinlik va iyerarxiya
5. Ozod qilish.

Bular hammasi kelajagimizni qurshab olgan odatda oldingi davrdagi tarixni tasvirlash birinchi o‘ringa qo‘yiladi, qaysiki sanoatlashtirish, urbanizatsiya jarayonlari, milliy davlat va imperiyalarning bumyod etilishi kabi...

Globalizatsiya Globalizatsiya atamasi **1980-yillar** ohiri **1990-yil** tarixchilar uchun boshlarida dolzarb mavzuga aylandi. Ko‘pgina o‘rganish tarixchilarning ta’kidlashicha, dunyo miqyosida maydoni uning paydo bo‘lishi bir qancha oldinroqqa borib taqaladi. Keyingi bobda tarixchilarning globalizatsiya bo‘yicha qarashlari tahlil qilinadi. Xo‘sh bu baxslar tarix fani uchun qay darajada ta’sir ko‘rsatgan? E’tibor ikki masalaga qaratiladi: birinchidan, tarixchilarning tabiat haqidagi va undagi jarayonlarning fikrlarining tarixdagi ro‘li. Ikkinchidan global o‘zgarishning tarix uchun axamiyati va aksincha tarixchilarning globallashuvdagi vazifasi nimadan iborat ekanligi. Globallashuvni taxlil qilish yangi tarixiy izlanishlar qilishga olib keldi. Shuningdek, izlanishlar davrida mavjud sxemalar yuzasidan ikkilanishlar yuzaga kela boshladi. Tarixchilarning ushbu global o‘zgarishlar haqidagi nazariyalari hamda madaniyatlararo aloqalar haqidagi fikrlari muhokama qilinishi va o‘rganib borilishi lozim.

“Globalizatsiya” so‘zini “World cat.org” dunyodagi eng katta raqamli kutubxona katalogiga kiritsangiz, izlashlar natijasi 131-534 raqamlarini ko‘rsatadi. Britaniyaliklarning fikricha inglizcha **“globalizatsiya”** 170 dan 332 reyting ko‘rsatkichlariga yetgan. Bugungi kunda Globalizatsiyaning avvaldan mavjud bo‘lganligini

faktlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Uning dunyo miqyosida **80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida** tarqalganligini bilamiz. Globalizatsiyani avvaldan mavjudligini tasavvur qilmasakda u mavjud edi. Bugun globalizatsiya ommaviy axborot vositalarida: gazeta, jurnal, kino, kitob va internet saytlarda dolzarb mavzuga to'g'rirog'i u **“ahamiyatli darajaga”** aylandi va bu termin ommaga tez yoyildi.

Globalizatsiya jarayonida undan ko'p jihatlar va tahlillar kelib chiqadi. Shuning uchun u haqida birgina tahlil tizimida fikrlash yaramaydi. Globalizatsiya tushunchasidagi dolzarb masalalardan biri davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish va turli darajadagi xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish. Xozirga qadar ushbu tajribaga turlicha qarashlar va tahlillar bo'lgan. Jahondagi va davrlardagi ijtimoiy o'sishlarni, siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalardagi o'zaro bog'liqliklarni misli ko'rilmagan darajada qisqartirib ko'rsatilgan. Yozuvchi bu holatlarni normal deb hisoblagani bilan, dunyoning ba'zi nuqtalaridagi insonlar globalizatsiya haqidagi bu qarashlar turlicha fikr yuritishga undaydi deb hisoblaydi. Ayniqsa globalizatsiyani uyushmalar erkin g'oyalar va qadryatlar haqida emas e'tiroz berishadi.

Sotsiolog **Malkolm Uoters**¹ning **1995-yil** globalizatsiya haqidagi chop etga kitobida globalizatsiya ijtimoiy jarayon sifatida fikr bildirgan: ya'ni globalizatsiyaning asosiy elementlari bu insonlarning ongli o'sishi bo'ldi. Uning fikricha insonlarning ongi ijobiy va salbiy bo'lishi mumkun. Masalan pessimistlar bir madaniyat bn boshqasi qo'shili natijasida ikki madaniyat ham yo'qolib ketishidan qo'rqishsa, optimistlar buni o'zgacha baholashadi. Ya'ni madaniyatlarning qorishishi xalqlarning rivojlanishiga, gullab-yashnashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylashadi. Kimning qanday qarashidan qat'iy nazar globalizatsiya butun dunyodagi insonlarning bugungi hayotida turli jarayonlarda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. **2007-yil may** oyidan **2010-yil mart** oralig'ida ushbu video portalga 166 milliondan ortiq videolar yuklanganligi ta'kidlanadi. Sport va san'at sohasidagi yangiliklar internet bo'ylab tarqalishini shubxasiz aytish mumkin. Bu ko'rinishdagi ommaviy axborot vositasining raqamli tarqalishi hayotning barcha jabhalarida o'z aksini ko'rsatmoqda. Shuningdek, tarixiy izlanishlarga, internerda mavjud manbalarning o'ishiga,

¹ M. Waters, Globalization, London 1995, p. 5.

izlanishlar uchun kerakli forumlar olishda, intellektual fikr almashishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Xo'sh hozirgi kunda globalizatsiyaning imkoniyatlari cheklanganmi? Yo'q, bugungi zamonaviy globalizatsiyani ilgari aloqa modeli bilan taqqoslash mumkin, undan tashqari butun dunyoni anglash yangilik emas. **1924-yil** Millatlar Ligasining kotibi **Maksvell Garnettning** yonganidek¹ **“telefon, samolyot va simsiz tarmoqlar”, “kavsharlangan dunyo”** ya'ni butun dunyoni bog'lovchi vositadir. Aynan shu yerda ish sifati va jarayoni aniq bo'lmasa ham tarixchilar globalizatsiyani o'rganishda katta hissa qo'shdilar.

Kelajakda globalizatsiya jarayonlarini muhokama qilish vaqtida tarixchilarni fikrlari va roli tahlil qilinadi. Bu muzokaralar tarix faniga qanday ta'sir ko'rsatadi? Ushbu bobning qo'llanish ko'lami chegaralangan uchun bu yerda diqqat ikki masalaga qaratiladi: Birinchidan, tarixchilarning tabiat haqidagi va undagi jarayonlarning tezlashuvi haqidagi fikrlarining roli, ikkinchidan, global o'zgarishni tarix uchun ahamiyati va aksincha tarixchilarning globallashtirishdagi vazifasi nimadan iborat ekanligini aniqlashdan iborat.

Tarixchilar va globalizatsiya: kelib chiqish va nazariyalar haqidagi munozara.

Afrika tarixi bo'yicha mutahassis Frederik Kuper global tushuncha haqidagi konsepsiyani axlat qutisiga tashlashni hohlardim deydi, ammo u o'zining “kollonialashtirish” haqidagi kitobida globallashtirish tushunchasida ikki muammo bor deydi: **“global”-keng, “zatsiya”-qamrovli** ligidadr. **Kuper²**ning bu tanqidi avvaliga o'ta ekstremal qarash bo'lib, bizga **Keyt Xenkonning 1940-yildagi** imperializmning noaniq tizimlariga qarshi fikrlarini eslatadi. Xenkonning tanqidlari behuda bo'ldi, va bu tanqidlar turli tortushuvlarga sabab bo'ldi. Tortishuvlarga qaramasdan **XX asrning** ikkinchi yarmida imperialism atamasi ilmiy lug'atlar ichida qolaverdi. Garchi **Kuper** globalizatsiya tushunchasiga qarshi bo'lsa ham, u

¹ Quoted in M. Cuddy-Keane, *Modernism, Geopolitics, Globalization*, in “*Modernism/modernity*”, 2003, 10, 3, pp. 539-558.

² F. Cooper, *Colonialism in Question. Theory, Knowledge, History*, Berkeley 2005, p. 91.

o‘zining qarashlaridan kelib chiqib, globalizatsiya tahliliy jarayon va rivojlanish Sharoitlarini talab qiladi. Globallashuv deganda mavjud avtonom tushunchasi bilan cheklanish kerak emas. Shuningdek u muayyan tanqid mavzulari ichida bitta emas.

Kolin Xey “*globalizatsiya*”sida uni “*obyekt yoki buyum*” emas deb yozadi. Bu fikr o‘zini o‘zi oqlay olmadi. **Kuperning** globalizatsiya haqidagi tanqidlaridan biri butun dunyo bo‘ylab muhim masalalarning e‘tibordan chetda qolayotganligidir. Masalan o‘zaro tarkibiy aloqalardagi sarmoya bozorlarining yopiqligicha qolayotganligi. Afrika hududidagi tarixiy jarayon bosqichma bosqich izolyatsiya holatida emas balki har xil tarqoq holatlarda kechgan. Boshqa so‘z bilan aytganda transchegaraviy aloqalar shuningdek insonlarning va kapitalning rivojlanishi bir tekisda ketmaydi. Bundan tashqari hozirda mavjud tijorat tarmoqlari ilgaridan amalda bo‘lganligi ta’kidlanadi, masalan Gollandiya Ost-Indiya kompaniyasining **XV asrdagi** Osiyo, Yevropa, Janubiy Afrikada mavjud aloqasi kabilar.

Globalizatsiyaning rivojlanishidagi bu turli qarashlar ayniqsa tarixchilar orasida keng tarqalgan. Tarixchilarning globalizatsiya jarayonlarini chuqur o‘rganishlari tarixni rivojlanishiga sabab bo‘ldi va globalizatsiya jarayoni uzoq tarixiy jarayon ekanligi isbotlandi lekin uning ko‘pgina qirralari hali ochilmagan. Globalizatsiyaning turli ko‘rinishlari (siyosiy, iqtisodiy, madaniy) mavjud bo‘lib u olimlar tomonidan turlicha o‘rganiladi. Turli nuqtai nazar natijasida globalizatsiya rivojlanadi beqarorlashtiradi, tengsizlikka olib keladi. Tarixchilarning havotiriga ko‘ra globalizatsiyaning tez rivojlanishiga qaraganda uning kuchi yolg‘iz emas.

Birinchi globalizatsiya oqimi (globalistlar) ni milliy davlat, milliy madaniyat, milliy iqtisodga tenglashtirib ta’kidlashsalar ham, u o‘z mazmunini yo‘qotgan emas. Bu yo‘nalish “*postsceptik*” sifatida ma’lumdir. Tarixchilarga esa ikkinchi va uchinchi oqim yo‘nalishlari ma’qul keladi. Bu borada tarixchi **Robbi Boberdson** ham ajoyib izlanishlar olib bordi, u “*oqim*” so‘zini metafora sifatida ishlatib globalizatsiyani davrlarga bo‘lib o‘rgangan. **Roberdsonning** o‘rganish davrlari **1750, 1850** va **XX asrning** oxirini o‘z ichiga oladi.

Tarixchi **Peter Sterns** o'zining *“Jahon tarixidagi asosiy globalizatsiya”* asari¹da globalizatsiyaga yanada ilgari davrlarga borib taqaladi. Izlanishlar 1000, 1500, 1850 va oxirgi o'n yilliklarni o'z ichiga oladi. Lekin globalizatsiyaning kelib chiqish davri bizning eramizdan avvalgi 3500, 2000 yillarda boshlangan degan tahminlar ham bor.

Xitoyshunos, jahon tarixi bo'yicha Yurgan Osterxamel va imperiya tarixi olimi **Nils Petersonlar** bugungi kunda globalizatsiyaga uzoq davom etuvchi o'zgarishlar jarayoni sifatida qarash kerak ekanligini ta'kidlashadi. Ular globalizatsiya davlatlar orasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy ijtimoiy sohalarda rivojlanib boradi-deb aytishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning xalqaro ijtimoiy aloqalarda qo'llamlayotgani sababli vaqt o'tgan sari unga qiziqish, ortib bormoqda mualliflar bu borada aloqa terminining originalligiga va aloqa metodlarining analizlariga da'vo qilishmayapti. Ular ijtimoiy kategoriyaning fazoviy o'lchovlar bilan birlashuviga va uning shiddatli o'sishiga befarq emas.

Globalizatsiyaning kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqalishini terminlar bilan aniqlash yo'li bilan, tarixchilar tadqiqotlarinig guvohlik berish bilan aniqlash mumkin deydi afrika va Britaniya imperializmining tarixchisi Anthony Hopkins.

2002-yil Hopkins maqolalar to'plamida tarixiy manbalarga asoslanib, din, savdo tarmoqlari sistemasining o'rganib chiqqani haqida yozdi. Shu bilan bir qatorda Hopkins globalizatsiya dastlab G'arbda paydo bo'lgan degan qarashni ilgari suradi. Bu esa tarixchilarning globalizatsiyani o'rganishdagi qo'shgan hissasi. Globalizatsiya va tarix jarayoni tarixchilar uchun katta o'rganish obyekti hisoblanadi

¹ P.N. Stearns, *Globalization in World History*, London 2010, pp. 4-5; R. Robertson, *The Three Waves of Globalization: A History of a Developing Global Consciousness*, London 2003; K. Moore, D. Lewis (eds.), *The Origins of Globalization*, New York 2009.

Globalizatsiya bo'yicha oldingi va hozirgi izlanishlar Globalizatsiya erkin bozor iqtisodini tantanasi deya ta'riflanadi. Amerika qo'shma shtatlarida globalizatsiya butun dunyoda bozor iqtisodiyotini rivojlanishiga katta sharoit yaratdi deb hisoblanadi. Birinchidan, Amerikalik **Tomas Fridman** "*New York Times*" gazetasining **Fast World** manifestida globalizatsiyaamerika manfaatlarini uchun xizmat qilishini yoritadi. Ikkinchidan, u harbiy kuchning kerakligini, "*berk musht*" orqali iqtisodga ta'sir korsatadi deydi.

Fridmanning fikricha AQSh eng katta davlat bo'lsa ham, tinchlikni saqlash uning vazifasi hisoblanadi. AQSh bugungi kunda mudofaa va tashqi siyosatni muvaffaqilashtirishni xohlaydi, deydi Fridman.

Djef Eleyning fikricha, siyosiy globalizatsiya tushunchasi faqatgina bo'lib o'tgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tarixchilar uchun eng muhim maydon bugungi kundagi globalizatsiyaning rivojlanish jarayonidir.

Globalizatsiya jarayoni bir davr bilan chegaralanib qolishi kerak emas, balki, u qulchilik, ko'chish jarayoni va transmilliy mehnat bozorini ham o'z ichiga olishi kerak.

Rostou Stadining iqtisodiy o'sish bo'yicha izlanishlarida **1960-yilda** chiqqan komunistda bo'lmagan Monifestida amerikacha rivojlanish yoqlab chiqib, undan andoza olib rivojlanish kerakligini maqullagan. Vaqtlar o'tishi bilan **Ayzen Shtatning** moderinizatsiya izlanishlarida oldingilardan farqli o'laroq, **1960-yildagi** moderinizatsiya teoriyasi asoslanmagan degan xulosaga kelindi. Chunki moderinizatsiya teoriyasi demokratik institutlar oldida buyruqbozlik tizimi ustun kelganini isbotladi.

Xozirgi zamon tarixi umumiy madaniy mamlakatlararo aloqalarni o'sishini o'rganishi kerak. Tarixchilar fikricha g'arbning barcha o'sishlarini bir tomonlama yoritmasdan boshqa mamlakatlarning ham yangi zamon globalizatsiyasini o'rganishi kerak.

Yevropada juda ko'p regionlar va xalqlar mustamlakachilik siyosatini qo'llab quvvatlaydi.

S.A. Beylining aytishicha globalizatsiyaning rivojlanishi faqatgina yevropada emas, balki butun dunyoda sodir bo'lgan. **Andre Gyunder Frank** esa quyidagi qarashni isbotladi. Uning fikricha,

butun Yevroosiyo iqtisodiyoti bo'yicha yevropa emas balki Xitoy uzoq vaqt oldinda bo'lgan. Uning fikricha, yevropada uyg'onish davri **XIX asrdagina** boshlangan.

A. **Frankning** dunyo iqtisodidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Dunyo kapitalistik va kollonializm tuzumiga tanqidiy qarashlari bn alohida ahamiyatga ega. U o'z tadqiqotlarida Yevropa va Lotin amerikasi aloqalarini noto'g'ri deb aytadi.

Butun dunyo nazariyasiga asoslangan holda Marksizm nazariyasi ham savdo va iqtisodiyotni rivojlantirishga asoslangan bo'lgan. Olimlarning nogohi faqat g'arb kapitalizmining kelib chiqishiga emas balki Sharqda **1970-yil** paydo bo'lgan qaram izlanishlarda zodagonlar o'rtasidagi uzulishga qaratilgan.

Globalizatsiya jarayoni faqat tarix varaqalarida yozilgan jarayonlarni o'z ichiga olmasdan, boshqa jamoa tashkilotlarning davlatlararo aloqalarida tezlashganligini ko'rishimiz mumkin.

Xo'sh globalizatsiyani tarixchilar uchun tadqiqot maydoni deb atash mumkinmi?

Dunyo tarixini o'rganishda juda ko'p tarixiy manbalarga murojaat qilingan, bu esa yangi izlanishlar uchun imkoniyat yaratgan. Tarixchilar o'z tadqiqotlarida turli nazariyalarni asosli deb hisoblamasdan, empirik tadqiqotlarni yoqlashgan. Sunga qaramasdan dunyo tarixchilari, georafik va iqtisodiy tadqiqotlardan o'zlari uchun qarashlar va tushunchalarni asos qilib olishgan.

Globallashuv jarayonlari aniq siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy kontekstlarda o'rganilishi lozim. Tarixiy savollar xalqlar orasidagi o'zgarishlarni vaqt va maydon orqali aniqlashni o'rganishda katta rol o'ynaydi. Bu tadqiqotlarda solishtirma yondashuv, madaniyatlararo tarixiy aloqalar o'rganiladi.

Global jarayonlarni o'rganishda aniq tarixiy bo'lim, aniq vaqt va joy, tematik izlanishlar va siyosiy nozik masalalar tarixiy izlanishlar uchun asos bo'la oladi.

Yoshlarni qadimgi dunyo tarixi bilan tanishtirish.

Bu bob **XX asr** o'rtalarida nashr etilgan nufuzli jahon tarixi darsliklar bilan solishtirilgan va maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan. **1930-yilning** oxirida mashhur fransuz **F. Braudel** fransuz maktablari yoshlar e'tiborini jahon tarixining eng ajoyib va

yorqin manzaralarini aks ettirishga qaratilgan kitob yaratgan edi. Xaritalar yordamida **Braudel**¹ o'zining "*Le Monde Aktlari*"da O'tmishda dunyo tarixida turli xil sivilizatsiyalar mavjud bo'lganki, biz ularni "*Yevropadan tashqari sivilizatsiyalar*" va "*Yevropa sivilizatsiyalari*" (bunga Kolumbdan keyingi amerikaliklar va ingliz tilida so'zlashuvchilar, shuningdek, AQSh va Kanada) ga bo'lishimiz mumkin. Bu kitobdagi boy va turfa xil ma'lumotlar fransuz o'qituvchilar tomonidan yaxshi kutib olinmadi, va nihoyat, Fransuz xalq ta'limi dasturidan chiqarildi. Keyinchalik, ushbu kitob ingliz tiliga "*Sivilizatsiyalar tarixi*" nomi bilan nashr etilib, eng ko'p sotilgan kitobga aylandi. Ayni shu vaqtda, mashhur avstriyalik tarixchi **Ernest Gombrich** "*Eine kurtze Sheltgeschichte für junge Leser*" ("*Yosh o'quvchilar uchun qisqacha jahon tarixi*")ni **1930-yilda** yozdi va 10 xil tilda nashr qilindi. Ushbu kitob dunyoning barcha hududlari o'quvchilari tomonidan iliq kutib olindi.

Urushdan keyingi davrdagi eng mashhur fransuz tarixchisi **Fernand Braudel (1902-1985-yillar)** va avstriyalik taniqli san'at tarixchisi **Ernest Gombrich (1909-2001-yillar)** birgalikda yosh o'quvchilar uchun **Gombrich 1930-yilda**, Braudel **1960-yilda** dunyo tarixi kitoblarini nashr ettirdilar. Bu ikkila kitob ham o'zining yangiliklarga to'laligi va ajoyibligi kitob mualliflarining taqdiriga o'zgarish kiritdi. **Braudelning** kitobi yaxshi kutib olinmadi, eng muhimi boshlandi, **Gombrichning** kitobi esa yaxshi kutib olindi va yosh o'quvchilar orasida mashhur bo'ldi. Ushbu kitoblarning yaratilish tarixida yozuvchi tarixchilar bir qancha turli xil qiziqarli narsa va voqealarga duch kelishini ko'rishimiz mumkin.

1936-yilning sentabr oyida **Braudel Sao Paolo** institutida "*Tarixni o'qitish*" mavzusida ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzadan keyin u qanday qilib "*ta'limiy hikoya*"ni "*sarguzasht ertak*"ga aylantirish haqida chuqur o'ygana oldi. U shunday bir sir aniqladi, ya'ni mavhum

¹ S.N. Eisenstadt, Breakdowns of Modernization, in "Economic Development and Cultural Change" 1964, 12, 4, pp. 345-367; Id., Multiple Modernities, in "Daedalus", 2000, 129, 1, pp. 1-29; Id., Multiple Modernities in an Age of Globalization, in "The Canadian Journal of Sociology / Cahiers Canadiens de Sociologie" 1999, 24, 2, pp. 283-295.

atamalardan qochishga harakat qildi. Tarixni *“dramatik qiziqish”* sifatida o‘qitishni angladi va oddiy g‘oyaviy qurol sifatida o‘qitish kerakligini bildi. Sivilizatsiyalar tomon kalitni aniqladi. Gretsiya Afina sivilizatsiyasidan Kritgacha bo‘lgan hududida bo‘lganligini (Bolqon orolida emas), Misr esa Nil daryosi bo‘yida paydo bo‘lganligini ta’kidlagan.

XX asrning 20-yillaridan keyin **Braudel** o‘z nazariyalari Fransiya ta’lim vazirligiga olib keldi va o‘rta ta’lim tarix fanini o‘zgartirish kerakligini aytdi. Uning ta’lim dasturida tarix bilan bir qatorda boshqa ijtimoiy fanlar geografiya, demografiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, antropologiya va psixologiya fanlarini o‘qitish, shuningdek, o‘sha davr bilan zamondosh sivilizatsiyalar va bugungi kunning bosh muammolarini ham o‘qitish ko‘zda tutilgan edi.

Braudel ishga borishni nihoyatda muhim hisoblardi. Shuning natijasida u jamoasi **Suzanna Belli** va **Robert Fillip** bilan birgalikda *“Le Monde Aklari”*, *“Sivilizatsiyalar tarixi”* (*“Librairie Classique Eugène Belin”* 1963-yil Parij) kitobini yozdi. **20-yildan** keyin, **1987-yilda** Fransiyada **Les Edition Arthaud** tomonidan mustaqil kitob *“Grammaire des civilizations”* nomi ostida va muqaddimasi **Mauris Aymart** tomonidan yozilgan kitob nashrdan chiqdi¹.

1993-yilda ushbu kitob ingliz tiliga tarjima qilinib, **Penguin Books** nashriyatida *“Sivilizatsiyalar tarixi”* nomi bilan nashr etildi. Uning muqaddimasi Braudel tomonidan yozilgan edi.

Bu muqaddimada **Braudel** tarixni o‘qitishda yosh o‘quvchilarni turli xil yosh davrlarida bo‘lib o‘qitish kerakligini aytib o‘tgan. Bu savolga qanday qilib turli xil maktab yoshlari orasida muvaffaqiyatli o‘qitildi. *“Eng boshida o‘quvchilar bolalar va oxirida ular qariyalardir”*. O‘quv kurslarini: rejalarni talab qilish, ustunlik va muhtojliklar imkoniyati va aql-zakovat sari yo‘naltirish kabilarga bo‘linadi. Bolalar uchun, men doimo oddiy hikoyalarim, rasmlar, teleseriallar va filmlar hamda boshqa so‘zlar, an’anaviy tarixni yaxshilaydigan medialarni tavsiya qilaman. Asosiy muammo, ularga yordam berishdir, ushbu jarayonda hissiyotni loyihalashni kashf etish,

¹ Compare the plea for ‘ Ecumenical’ history in D. Sachsenberg, World History as Ecumenical History?, in “Journal of World History”, 2008, 18, 4, pp. 465-489, esp. p. 485.

o'tmishni real ko'ra olish qobiliyatini shakllantirish muvaffaqiyat beradigan birinchi omildir. Xronologiya uchun hissiyot asta sekin o'zini qo'lga olish va sarosimalikni tarqatib yuborishga yordam beradi. Shunday qilib o'quvchilarga tushuntirish payti kelib, ular lug'atlarni o'rganishga muhtoj bo'ladilar, shunda ularga so'zlar, fikrlar va narsalar aniq bo'la boshlaydi. Yana ba'zi qo'shimcha kalit tushunchalar "**jamiyat, shtat, iqtisod, sivilizatsiya**" lardir. Shularning barchasini oddiygina qilib tushuntirish mumkin. Biz hozir davr chizig'ini kesib o'tayotgan yoshlar bilan har kun to'qnashamiz. Ular bilim o'rganishga uncha qiziqmasligi, bitob o'qishni xohlamasligi mumkin, lekin ular aynan shu yoshda bilimli, zakovatli bo'lishlari mumkin. Biz ularga tarixning qanchasini o'qita bera olyapmiz.

U o'zining "Sivilizatsiyalar tarixi" kitobida tarixni qancha qismini o'rganishni haqiqatdan ham ta'minlab bera olgan. Uning ochilish bobida, Braudel lug'atning o'zgarishi muhokama qilgan. U ushbu qismda turli xil so'zlar ma'nolari va har xil sivilizatsiyalarning kalit so'zlarini tushuntirib berishga harakat qilgan. Barcha so'zlar yuragi kitobning 2-bobi Barcha ijtimoiy fanlarni sivilizatsiyalarni o'rganishga jalb qilish deb nomlanib uning qo'shimcha boblari geografik mintaqalardagi sivilizatsiyalar, Jamiyatdagi sivilizatsiyalar, iqtisodiyotdagi sivilizatsiyalar, G'oyalar sivilizatsiyasi. Birinchi 2 bob birgalikda 3-bobni Sivilizatsiyalarning davomiyligi ni tashkil etib, ushbu bob eng katta va uzun kitobdir, deyarli 600 sahifadan iborat. Keyingi ikki qism dunyodagi barcha sivilizatsiyalarni 2 qismga bo'ladi Yevropadan tashqari sivilizatsiyalar va Yevropadagi sivilizatsiyalar. Oxirgi qismda Kolumbdan keyingi Amerika va ingliz tilida gapiruvchilar va AQSh va Kanada tarixiga bag'ishlangan. Bu kitob o'zining matnlari va rasmlar va sur'atlarining yo'qligi sababli o'rganish qiyin edi. Garchi kitobdagi 23 ta xarita o'quvchi uchun insoniyat tarixini geografik rivojlanishini bilishga yordam berardi. Rasmlar va sur'atlar yetishmovchiligi va matnlarda muhokama qilingan mavzularning kamchiliklari bor edi. **Braudel** yosh o'quvchilarning o'qituvchilarning eng muhim quroli nutqdan foydalanishlarini xohladi. U shubhasiz o'smirlar o'quvchilarni o'z kitobida yetarli darajada qiziqтира oladigan va dunyoni tushuntirishga yordam bera oladigan ajoyib hikoyalar, sana, matnlar, manbalar, xotiralar, fikrlar va taqqoslashlar bor deb hisoblagan. **Braudel** ushbu

hikoyalarni keng sur'atda va mavzuga oid ravishda yozgan¹. Misol uchun, u turk xammomlari matnida Fors podsholigi va boshqa joylarga olib borilgan Arab bosqinlari natijasida qadimgi rim xammomlarini saqlanib qolinishiga olib kelgan degan.

Efiopiyani tadqiq qilar ekan, dunyoning muhim qismi, insoniyat sivilizatsiyasi, Xristian dini, mil.avv. **350-yil** qishloq xo'jalik madaniyati, chorvachilik va omoch bilan yer haydash, bug'doy va uzumchilik rivojlanganligi aytib o'tgan.

Xitoy aholisining vegetarian madaniyati haqida aytib kaloriyaning 98 foizi ular iste'mol qiladigan sabzavot manbalari natijasidir. ular saryog', pishloq yoki sut va oz miqdorda baliq yoki go'sht iste'mol qiladilar.

Xristianlik, Gumanizm va ilmiy qarashlarlar majmuasi Yevropada aralashganini turli yo'llar orqali aks ettirgan.

Braudel o'z hikoyalarini xronologik tartibda bermagan yoki biror bir aniq narsa haqida hikoya qilmagan. U o'zining Tarixni o'qitish ma'ruzasida ta'limiy hikoyani sarguzasht ertakka aylantirishni xohlardi, chunki tarixda dramatik qiziqishlar bor deb hisoblardi. Natijada okeanning boy va xilma-xil ma'lumotlar o'quvchilar qarshisida turardi. Geografiyaning yordam berishi **Braudel** uchun insoniyat tarixini tushunishning ustunidir.

Natija ajoyib, ta'siri muhim emas o'quvchilarning nishoni aqliy va hayajonga soladigan dunyoga bog'liq bo'lganligigadir. Kitob juda uzun, matnlar juda zich va ma'lumotlar ham juda boy, bu ham o'quvchilar yutug'i bo'lib tuyuladi. Shunga qaramasdan, balki bu **Braudelning** haqiqatdan ham o'rta maktablar kurashda yo'qotganidir. O'quvchilar kengashi tomonidan bu kitob talabalar uchun juda qiyin hisobladilar. Ta'lim vazirligi haqiqatdan ham sivilizatsiyalar dasturidan chiqarildi. Nihoyat **1970-yilda Braudelning** kitobi sotuvga chiqarildi.

Agar **Braudelning** "*Sivilizatsiyalar tarixi*" maktab darsligi sifatida qiyinchilik bilan qabul qilingan bo'lsa, **Ernest Gombrichning** "*Eine kurze Sheltgeschichte für junge Leser*" ("*Yosh o'quvchilar uchun dunyoning qisqacha tarixi*") xalq tomonidan oson va iliq kutib olingan edi. Kitob **1935-yilda** bir yil ilgari **Braudelning** Sao Paolo institutdagi "*Tarixni o'qitish*" ma'ruzasi Gombrich tomonidan 26

¹ F. Braudel, On History, Chicago 1990, p. 13.

yoshida amalga oshirildi¹. Vena universitetining san'at tarixi doktoranturasida yosh Gombrich yosh o'quvchilar uchun dunyo tarixini o'qitishni taklif etdi. U ushbu topshiriqni 6 haftada yozib tugatdi. Bu kitob 1-marta **1936-yilda** ko'zga ko'rindi va tezda 5 tilda tarjima qilindi. Urush yaqinlashganidayoq, yosh **Gombrich** boshpana izlab Angliyaga ketdi. Urush yakunlashib qolgach, u kitobini yana qayta ishlab, ma'lumotlar va topilmalar qo'shib, 2 marta nemis tilida nashr etildi. **2005-yilda** ingliz tilida 1-marta nashr qilindi. Bu kitob hozirgacha 25 tilda nashr etilgan.

Dunyo bo'ylab mashhur bo'lgan ushbu kitobning ingliz tilidagi nashrida *“40 ta qisqacha bobda Gombrich insoniyat tarixini tosh davridan to atom bombasi davrigacha yoritib berdi. Voqealar o'rtasida xilma xil urushlar va g'alabalar rasmlari, rassomchilikning buyuk namunalari va ilmning yuksalishiga chek qo'yish hodisalarini bayon etgan. Bu kitobda sanalar va faktlarga e'tibor qaratilmagan, balki insoniyatning asrlar davomida to'plagan tajribasi, insoniyatning yutuqlari va o'tkir qobiliyatiga guvoh bo'lingan.”*

Braudelning *“Sivilizatsiyalar tarixi”* va Gombrichning *“Eine kurze Sheltgeschichte für junge Leser”* taqqoslaganda, bu ikkala kitobning ham maktab darsliklariga aloqasi yo'qligini bilishimiz mumkin. Gombrichning nabirasi **Leoni Gombrich** English edition nashriyotida chiqqan kitobning muqaddimasini yozgan. Unda aytilishicha, Gombrich kitobni o'quvchilar hordiq olishlari, hikoyalarni, ba'zi sanalar va nomlarni o'z xotiralarida saqlashlarini xohlagan. U kitobini o'qib chiqqanlarni tekshirishni hech qachon xohlamagan.

Gombrichning ushbu yozgan asarini hech qachon uning yosh o'quvchilari unutmaydilar. Shunday qilib, kitobning 1-bobi *“Qadim o'tgan zamonda”* deb nomlanadi, u bu bobda Braudel kabi juda yosh odamlarga tarixdan saboq berish haqida so'z yuritgan. U o'quvchilariga *“Xronologiyani his etish”* tizimini *“vaqtni tushunish”* shuningdek, *“lug'at so'zlar, fikrlar va narsalar haqida aniq ma'lumotlar beradi”*. Shunday qilib tarixda yozilganlar *“mo'jizaviy chiroqlar”*dir. Barcha hikoyalarning boshlanishi *“Qadim o'tgan zamonda”* dir. Bu hikoyalarning barchasida nima bo'lganligi to'liq

¹ F. Braudel, On History, Chicago 1990, p. 18.

aytilib, qadim o'tgan zamonda deb boshlanadi. Bolaligingizga ilk bora onangiz qo'lini tutganingizni eslay olasizmi sizning otangiz va onangiz bola bo'lgani kabi buvingiz va bobongiz ham uzoq vaqt davomida bola bo'lishgan. Shunday qilib vaqt o'tavergan va orqaga qaytmagan.

Gombrichning asosiy e'tibori yosh o'quvchilar e'tiborini faqatgina 1-bobning nomi bilan emas, balki ularni kitobning eng yakuniy bobi "*Barcha davrlarning eng buyuk kashfiyotchilari*"ga qaratgan. Ushbu bobda tarixdan oldingiu davrda bo'lgan kashfiyotlarga to'laligi bilan ajralib turadi¹. "*Men o'qiy olaman*" bu so'z ixtirolar alifbosini markazidir. "*Omadsiz va omadli qirol*" nomi bilan atalgan ayni paytdagi angliya qiroli **Charliz I** va fransuz qiroli **Luiz XIV** bilan to'ladir. Ushbu kitobning Eng yakuniy qismi men yashagan vaqtni ortga qaytish nomi ostida yarim avtobiografiya tarzida yozilgan. Kitoblar orqali tarixni o'rganish eng muhim narsalardan biri hisoblab, o'zi uchun tajriba to'plashi lozim bo'lgan. Yana shuni aytish lozimki, agar siz insoniyat o'tmishni yaltirab turgan manzaradan iborat deb o'ylasangiz, hozirda buyuk balandliklarni zabt eta olmagan bo'lar edingiz derdi u. Mening yakuniy bobimda men sizga kichik bo'lsa ham tajriba haqida gapirdim. Siz bu haqida ko'proq o'ylang va uni his eting.

Gombrich uni kitobini o'qigan har bir insonni haqiqiy inson, nozik va bilimning saxiy do'sti bo'lishini istardi. Bularning barchasi ajoyib va hozirgi kunda ham oz bo'lsada shularni uchratishimiz mumkin. Mening bobom hali tirik paytida menga o'tmish haqida gapirib bergan edi. Uning aytishicha italiyaa yaqinida bir orol, tog'lar, quyosh va kambag'al diyo Korsika bor ekan.

Bu kitobda **Gombrich** ehtiyotkorlik bilan o'z hikoyalarini yaratgan. U doimo o'tmoish haqida gapirib, hikoya isktirokchilari yumshoqlik bilan kechgan voqealar va hodisalar, fikrlar va harakatlar haqida eslatib turgan. Va u sivilizatsiya jarayonida bo'lgan oddiy hodisalarni yosh o'quvchilarga yetkazib berishga harakat qilgan. U bobni tugatishda Arablarning markazlashuvi, ularning ishonchi bosqinlari va yutuqlari va eng muhimi arab raqamlari bilan tanishtirgan. Siz eng foydali kashfiyot qayerda yaratilganini bilasizmi

¹ L. Gombrich, Preface, in E. Gombrich, A Little History of the World, London 2005, pp. xv-xviii.

Men albatta bilaqmayman,. Biz arablardan, arablar esa hindlardan minnatdor bo'lishlari lozim va mening fikrimcha yana bir muhim kashfiyot 1001 kechadir. Balki, **Charliz Martil 732-yilda** arablardan yengilgani yaxshi bo'lgandir. Yana bir yomon narsa shuki, arablar buyuk imperiya yarqtishgan chunki bu orqali o'z bosqinlarini Forslar, greklar, hindlar va qisman xitoylarga qaratishgan.

Insoniyat uchun markazlashuv insoniyatning ko'p yillik uzoq sayohati, go'zal va muhim voqea va hodisalarni turfa xil usullar orqali yosh o'quvchilarga yetkazish **Braudel** va **Gombrich** tomonidan amalga oshirilgan. bir biridan farqli ravishda turli yosh o'quvchilar uchun yaraqilgan kitoblar o'zining o'lchami hajmi shakllantirishi fanlari bilan farq qilgan. **Gombrich** tomonidam yartilgan kitob o'zining oddiyligi va dunyo taroixini haqqoniy tasviraganligi bilan muvaffaqiyatga erishgan. Aynan bu asar bilan zamondosh yaratilgan **Braudelning** kitobi ham o'zining ajoyib voqealarga boyligi va o'quvchini o'smir paytidan boshlab chuqurroq tarihya berish kabi masalalari juda muhimdir. Bu ikki tarixchining asarlari turli vaqtlarda yaratildi. **Gombrich 1930-yilda** kitobni boshlagan bo'lsa II jahon urushi oxiri va qyni qora bulutlar kela boshlagan paytda yakunladi¹. Braudel bo'lsa o'z kitobini urushdan oldin boshlab sovuq urush yillarida nihoyasiga yetkazdi. Bu ikki kitobning hech birida **XX asr** voqealari keltirilmagan bo'lsada, o'sha davrdagi zulm va adolatsizliklarga yomon munosabatlar bildirilgan.

Samarqand: Dunyo tarixining markazi

Afrika va Yevrosiyoning buyuk sivilizatsiyalari uchun Samarqand dunyolarni bog'lab turuvchi shahar sivatida mashhurdir.

Afsonaviy Samarqand Buyuk ipak yo'lining mukammallik, yetuklik timsoli bo'lib, dunyo tarixining ajralmas qismidir. Bu bobda ko'plab misollar yordamida Samarqand va umuman Markaziy Osiyoning dunyo tarixida tutgan o'ziga xos o'rni barcha tarixiy davrlar uchun o'ziga xos markaz bo'lgani haqida gap boradi.

Men yaxshi ko'rgan tut daraxtining tagida hayol surib, o'zimni qandaydir markazda o'tirgandek his qilaman. Buning ajablanarli ham yo'q chunki O'zbekistonda joylashgan Samarqand behsta istob deb

¹ L. Gombrich, Preface, in E. Gombrich, A Little History of the World, London 2005, pp. 145-146

tugaydigan davlatlarining markazida dengiz yo‘llaridan uzoqda joylashgan. Shahar bugungi kunda markaziy Osiyo, Turkiston, turk-eron dunyosi, Transoksiana kabi nomlar bilan atalgan mintaqada joylashgan. Bu nomlarning barchasi goeografik, tarixiy-madaniy jihatdan Samarqand va uning atrofidagi hududlardan tashqari juda katta mintaqani o‘z ichiga oladi. Lekin olimlar bir narsada yakdil Markaziy Osiyo Moskva, Bag‘dod, Dehli, Pekin o‘rtasida muhim aloqa vositasini o‘tagan. Tarixning ba’zi davrlarida ular bu mintaqaga ta’sir o‘tkazgan bo‘lsa, ba’zi davrlarda Markaziy Osiyo ularga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Afsonaviy shahar nomiga Samarqand o‘zining dunyoga mashhur noz-ne‘matlari, bog‘lari, ajoyib mevalari bilan erishdi¹. Xitoy imperatorlarini lol qoldirgan mashxur Samarqand mevalari. Butun Hindistonni birgina Samarqand bog‘lariga almashishga tayyor **Bobur Mirzo** Samarqand odamlar uchun orzudagi shaharga aylandi.

Lekin orzu qilish bilan Samarqand tarixi yoki Markaziy Osiyo tarixini yozish oson emas. Rim yoki Chanan shaharlaridan farqli o‘laroq bu shaharlar tarixiga oid lotin va xitoy tilida manbalar juda ko‘p, (Samarqand yoki Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalar barcha tillarda yozilgan (arab, arman, baqtriy, turk, xitoy, yapon, lotin, fors, so‘g‘d, ispan, oromiy, tibet va boshqalar). Undan tashqari dengiz yo‘llaridan uzoqlik keyingi davrlarda bu mashaqqatli o‘rganishga ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirdi. Bu bob o‘quvchiga Markaziy Osiyoning yangi tarixini bayon etish yoki Markaziy Osiyoni dunyo tarixida tutgan o‘rnini yangicha bayon etishdan iborat emas, bir necha aniq misollar orqali bu mintaqaning “Buyuk Ipak yo‘li” deb atalgan transkontinental yo‘lda tutgan o‘rnini aniqlashda arxeolog va tarixchi olimlar mumtoz qadimiyat yodgorliklarini o‘rganish natijasida Markaziy Osiyo dunyo tarixida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatishdan iborat.

¹ An excellent example of this is provided by the ongoing discussion on the nomination of the Silk Roads as part of the World Heritage List. In recent meetings held in Turfan and Samarkand, both Kazakhs and Chinese refused to budge.

Klassik arxeologiya va Farnsuz arxeologlari birinchi bor Markaziy Osiyo Samarqandda **1987-yilda** hali sovet davlari mavjud davrda qazish ioshlarini olib bordilar¹. Arxeolog **P.Berner** boshchiligidagi arxeologlar u shimoliy-Sharqiy Afgʻonistonda joylashgan mashhur **Oy-Xonum** ellin davri shahrining oʻrganish ishlarida direktor boʻlgan, toki bu ish sovet qoʻshinlarining Afgʻonistonga bostirib kirishi bilan tugadi. Bu ishlarning katta qismi lotin va yunon tillarini bilgan va **“Iskandar izidan”** brogan Sharqshunoslar tomonidan amalga oshirilgan.

Uzoq qadimiyat chegarasi (**Aleksandr yoki Iskandar qurdirgan Aleksandriya Esxata, Chekka Aleksandriya**)ni koʻrganlari va tadqiq etganlari bilan farlanganlar. Afgʻonistondagi ishlar tugagandan keyin ham olimlar erkin davri shaharlari chegaralarini saqlashda va u bu yerdagi nodir arxeologik topilmalarni taqqoslashda erkin dunyosi va klassik qadimgi dunyo bir-biri bilan bogʻliqligiga ishonch hosil qilishgan. Ular ilmiy izlanishlar va maqsadlarini saqlash qiyin emas. Erkin dunyosi chegaralarini tadqiq qilar ekan fransuz arxeologlari Fransiya Qadimgi Yunonistonning Yevropadagi qalbi davomchisi Yevropa sivilizatsiyasining targʻibotchisi degan gʻoyani ilgari surishga oʻrganishgan². **Napoleon Bonapart** Misrga ilmiy ekskursiya bilan hujum qilgani kabi fransuz ekspeditsiyalari Farnsiya tashqi ishlar vazirligi moliyalashtirgan. **Napoleon Bonapart** oʻz davrida ikkinchi Iskandar boʻlishni orzu qilgan. Uning olimlari ham siyosiy maqsadlarni koʻzlamalarda, baʼzi xato gʻoyalari bugungi kunda haqiqatdek tushuniladi, ilgari surishgan. Bunga yaqqol misol Iskandarni gʻarbiy Yevropa tomonidan bizniki deya eʼtirof etishidir.

¹ The best general introduction to the history of Central Asia is probably the History of civilizations of Central Asia published by UNESCO; for the Yuezhi and Kushan periods see B.A. Litvinsky (ed.), vol. III, The crossroads of civilizations: A.D. 250 to 750, Paris 1996. The quality of the articles is however quite variable.

² P.L. Kohl, The Making of Bronze Age Eurasia, Cambridge 2007, for a detailed analysis; Wallerstein himself seems now to accept an earlier date, I. Wallerstein, World-Systems Analysis: An Introduction, Durham NC 2004.

Iskandar yangi imperiya tuzmagan. U shu davrda mavjud Axamoniylar imperiyasi bosib olgan, soʻngra barcha uzurpatorlarga qarshi boʻlgandek oʻziga qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻolonlarni bostirishga harakat qilgan va imperiyaning turli qismlarida qoʻshimcha boshchilik qilishga majbur boʻlgan. Uning va vazirlarining boshqaruv davrlaridagi oʻzgarishlar natijasida uning nomi Markaziy Osiyo va Eronda juda mashhur boʻlib keltdi. (*Yuzlab toponimlar uning nomi bilan bogʻliq (koʻllar, koʻpriklar, togʻlar, shaharlar)*) afsona va rivoyatlarda uning nomi koʻplab oʻrganildi. (*Xatto uning nomi ikki bor Qurʻoni Karimda ham uchraydi*). **19-asrdan** boshlangan Gʻarb hukmronligi tarixchi va siyosatchilar tomonidan, soʻngra ommaviy axborotni targʻib qiluvchi mashhur kino rejissor **Oliver Stoun** tomonidan suratga olingan film tufayli Eron va Markaziy Osiyo aholisi ham Iskandarni Gʻarbiy Yevropadan kelgan buyuk fotix deb eʼtirof etilishiga olib keldi, vaholanki u tuzgan imperiya Kir davlati tuzib boʻlgan edi. U bosib olgan hududlarning birortasi Gʻarbiy Yevropa bilan oʻsh davrda aloqa qilmagan. Gʻarbiy Yevropaning koʻpgina maktablarida uning tarixi oʻqitilmaydi. Ammo buyuk imperiya asoschisi deb eʼtirof etiladi.

Qizigʻi shundaki, fransuz arxeologlarining qarashlari, rus arxeologlarining (*revoluysiyachi*) qarashlari bilan oʻxshash oʻzlarini uchinchi Rim Vizantiyaning davlatchisi hisoblovchi olimlar issiq dengizlarni qidirayotgan imperiya ildizlarini klassik qadriyatlarini qidirdi va oʻz atrofida uni toʻpladi. Qora dengiz va Markaziy Osiyo mintaqalaridagi arxeologik izlanishlardagi sovet arxeologlari ham katta rol oʻynadi. Ular bu mintaqada **Mark** gʻoyalaridan kelib chiqib qadimiyatdan koʻra oʻrta asrlar muhimroq boʻlgan degan gʻoyani ilgari surdilar. **XX asrning 60-70** yillarida fransuz va sovet arxeologlari Afgʻonistondagi ekspeditsiyalar davrida yaqinlashishdi va oʻzaro ekspeditsiyalar natijalarini konferensiyalarda eʼlin ham qilishdi. Qarashlardagi oʻxshashliklarga qaramay sovet arxeologlari Markaziy Osiyoning maxsus oʻziga xoslikka ega degan gʻoyani ilgari surganlar. Buning asosiy sababi sobiq ittifoqda tarixiy evolutsiya sinflar orasidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi tashqi faktorlar tufayli emas degan fikr hukmron edi. Madaniyatlarning uzviy bogʻliqligi toʻliq faktorlar taʼsiri boʻlgani bilan bu mintaqadagi tarixiy jarayonlar loqal xarakatlarga ega degan qarash ustuvor boʻlgan.

Ikkinchidan rus Turkistonning tugatilishi va uning o‘rnida **1924-1936 yillarda** Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, O‘zbekiston Respublikalarining tuzilish natijasida arxeolog va bu respublikalarining tuzilishi natijasida arxeolog va tarixchilar bu respublikaning yangi tarixini har biriga boshqacha yaratishga harakat qilingan. Shu maqsadda har bir respublikada o‘z fanlar akademiyalari va arxeologiya va tarix institutlari tuzilishi bo‘yicha asosiy maqsadi dogmatic markscha interpretatsiyadagi tarixiy evolutsiyaga xizmat qilish edi. Lekin milliy tarixning yaratilishi g‘oya tarafdorlariga qarshi samara berdi. Milliy interpretatsiya Rossovet respublikalarida ularning arxeolog va tarixchilarning dunyodan uzib qo‘yadi va milliy ongini uyg‘otishga xizmat qiladi. **Pyagchenkova** va uning hamkasblari tez orada Markaziy Osiyoga oid arxeologik manbalar ellin qatlamida ko‘plab to‘planadi, Markaziy Osiyoning undan qadimiyroq bo‘lgan Kushon davriga oid buddaviy yodgorliklarni ham katta qimmatga ega ekanligi aniqlandi. Bu borada endi mustaqillik davrida yapon mutahassislarining o‘rni ko‘rindi. Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib arxeologik tadqiqot olib borgan Soko universiteti professori yapon olimi **K.Kato** nihoyatda g‘arobiy taqdirga ega edi¹. U harbiy asirlikda bo‘lib Sibir GULAKlarida rus tilini o‘rgangan edi. Soko universiteti xususiy universitet bo‘lib, u yerda Yaponiyaning eng yirik buddaviylikni targ‘ib qilish markazi mavjud. **K.Kato** va boshqa yapon arxeologlari masalan: **K.Tanobelar** bu mintaqada buddaviylik markazini aniqlagandan va uning Hindiston, Markaziy Osiyo, Xitoy, Yaponiyaga tarqalishini chuqur o‘rganishdan manfaatdor edilar. Ular bu jarayonni tadqiq qilishda **B.Staviskiy, T.Mkrtichevlu** asarlarida keng foydalanishgan. Ularning tadqiqotlari natijasida Markaziy Osiyoning buddaviy markazlari dunyo tarixshunosligida o‘z o‘rnini topdi. Shu o‘rinda boshqa davlatlar bilan ham mintaqa tarixini o‘rganishda o‘z davlatlari materiallari bilan kelib chiqish texnologiyasini davom ettirganlar. Xususan **1998-yil** Toshkentdagi Hindiston elchixonasi *“Islomgacha bo‘lgan davrda Hindiston*

¹ I was myself the victim of this episode, which took place despite me being officially employed as a junior scholar of the Uzbek Academy of Arts, in the team of the director of the conference.

Markaziy Osiyo aloqalari” mavzusida konferensiya o‘tkazdi¹. Unda Rossiya va Hindiston olimlari ham ishtirok etishdi. Ular o‘z navbatida Hindistonga yo‘naltirilgan tarixiy ildizlarni ilgari surishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishgan edi. Yaqin davrdan boshlab Xitoy arxeologlari ham bu mintaqada faol ishlar boshlab yubordi. Ehtimol ular ham bu yerdan *(7-asrda Samarqandning podsholari Tan imperatoriga sovg‘a-salomlar jo‘natgan)*. Xitoy ildizlarini ildizlarini qidirish mumkin. Ular bu yo‘ldan borib Xan davlatida tuzilgan **Chjan Yan** sayoxati bilan bog‘liq faktlardan o‘z yo‘lida foydalanganlar va bu yerda uyg‘ur elementi ustun bo‘lishiga qaramay, Xitoy ildizlarini qidirganlar. Yevropa, Hind, Yapon, Sobiq ittifoq va yangi mustaqil davlatlar olimlari o‘z milliy davlatchiligi va davlat tarixini o‘rganishga zo‘r berib harakat qilganlar. Ammo bir etnik birlik misolida Markaziy osiyo tarixini to‘g‘ri tanqid qilish juda mushkuldir. Chunki etnik birliklarga bo‘lib etnik tarixni yaratish Sovet davri tarixshunosligining ixtirosidir. Shu o‘rinda Markaziy Osiyodagi har bir davlat o‘zlari uchun umumiy bo‘lgan tarixlarni ajratish tendensiyasi paydo bo‘ldi. O‘zbeklar o‘zlarining turklar va buyuk Temur davlati bilan bog‘ladilar. Tojiklar esa Somoniylar davlati bilan o‘zlarini uzviy bog‘lash yo‘lidan bordilar. Qozoq va qirg‘iz tarixchilari o‘z ko‘chmanchiligi va buyuk dasht tushunchasiga katta urg‘u berdilar. Shu o‘rinda Samarqand tarixiga qaytsak, **1970-yilda** 2500 yilligini nishonlagan shahar **2007-yilda** shaharning 2750 yilligini nishonladi. Bu davrga kelib shaharning tarixiga oid yangidan-yangi ma‘lumotlar topildi. Dunyo arxeologiya va tarix orasida ajoyib maqolalar dunyo yuzini ko‘rdi. Ammo ko‘p hollarda yapon va fransuz arxeologlari kabi ajoyib topilmalar va maqolalar yozib o‘z moliyaviy ta‘sischilaridan tanqidga uchrayaptilar. Bu fikrlarning birontasi ham obyektiv tarixiy yondashuvga xalaqit bermasa, salbiy oqibatlariga olib kelmaydi.

¹ I start with the example of French archaeologists in Central Asia, simply because I have spent most of my academic career working in this framework and this criticism can therefore directly be addressed at myself. Interestingly enough, a French archaeologist, naturalised as a Russian (Joseph-Antoine Castagné) had already dug in Samarkand in the early 20th century. Of course, French excavations in surrounding countries such as Afghanistan started much earlier.

Arxeolog va tarixchilar Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda xolis yo'ldan boradilar.

Samarqand va Markaziy Osiyo mutaxassisleri albatta biz Markaziy Osiyo yuqorida ta'riflagan vaziyatdan yaxshi xabardorlar va ular boshqa sohalar bilan taqqoslaganda katta ustunlikka ega: ular kamchilikni tashkil qiladi hamda ular turli an'anadagi ilmiy maktablarda shakllanganlar. Natijada turli mamlakatlarning olimlari birga faoliyat ko'rsatib, o'zlarining Markaziy Osiyo haqidagi dunyoqarashlarini bir-biriga qarama qarshi qo'yishga urinadilar. Ularning ba'zilari ayniqsa ilmiy asoslarga tayanishni maqbul ko'rsalar-da, yagona qarashni qo'llab-quvvatlash Markaziy Osiyo haqidagi bilimlarni tizimli konsepsiyani yaratish zaruriyatidan yuzaga keldi, shuningdek, mutaxassislar qaysi davrni o'rganishidan qati'y nazar masalaga yevropacha yondashuv doimo zarurdir. Antik tarixdan misol keltiramiz: taxminan miloddan avvalgi **140-yilda** Yunon-Baqtriya davlati ko'chmanchi yuechjilar (G'arbiy va Markaziy Xitoydan **2-mingyillikda** quvilgan xunlar) tomonidan bosib olindi. Ular haqida yunon-rim tarixiy manbalarida, shuningdek, **130-yilda** xunlarga qarshi ittifoqchi topish maqsadida Markaziy Osiyoga yuborilgan **Chjan Syan** estaliklarida eslab o'tilgan¹. Keyinchalik ular Shimoliy Hindistonni egallab, Xan imperiyasi yuborgan josuslar ma'lumotiga ko'ra, **III asrda** Kushon nomli imperiya tuzganliklari haqida ma'lumotlar qolgan. Gandxarada gullab-yashnagan hind-yunon san'ati va Xitoyda ilk bor buddizm yoyilgan bir vaqtda yunonlar ta'sirida ularning yozuvlari baqtriya yozuvi shaklida bo'lgan. Na mahalliy tuzilmalar, na hind, na xitoy va O'rtayer dengizi mintaqasi manbalari yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarni to'laqonli tahlil qilish imkonini bermaydi, bu Markaziy Osiyo tarixini yozishdan ko'ra Yevrosiyoni tarixiy-madaniy blok sifatida bir butunlikda o'rganishni anglatadi.

Ipak yo'li Sharqiy Yevrosiyo (asosan Xitoy) bilan G'arbiy Yevrosiyo (O'rta yer dengizi)ni bog'lovchi va Janubiy Yevrosiyo (Hindiston) hamda to Janubi-Sharqiy Osiyo (Indoneziya) va Sharqiy Afrikagacha kengaygan savdo yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zan

¹ Some of her most famous and influential books are entitled: The Art History of Uzbekistan, The Architectural History of Uzbekistan, The History of Uzbekistan, etc.

ular yana uchta yoʻnalishga boʻlinadi: (1) Choʻl yoʻnalishi (Pekindan Budapeshtgacha), (2) Hind okeani qirgʻoqlari boʻylabyoʻnalgan dengiz yoʻnalishi va (3) Oʻrtayer dengizi sohillarini markaziy Xitoy bilan Samarqand kabi vohalar orqali bogʻlab turuvchi voha (oasis) yoki Ipak yoʻli yoʻnalishi.

Ushbu yoʻllar qachon ishga tushgani haqida olimlar va siyosatchilar turli munozaralar qiladilar. Qozoqlar Ipak yoʻli eramizdan avvalgi **1-mingyillikning** birinchi yarmidan yoki undan avvalroq Yevrosiyo dashtlari koʻchmanchi qabilalari tomonidan ochilgan deya taʼkidlaydilar. Xitoyliklar Ipak yoʻli eramizdan avvalgi **130-yildagi Chjan Syanning** sayohatidan avvalroq paydo boʻlgan degan fikrni inkor qiladilar. Bu keltirilgan ikki qarash dunyo tarixigiki xil yondashuv boʻlib, bir tomondan aloqalarning organik va uzilmas xususiyatlarini taʼkidlasa, boshqa tomondan davlatlar oʻrtasidagi institutsional munosabatlar muhimligini koʻrsadati. Yana hech kim inkor etmaydiki, agar aloqlar mavjud boʻlgan boʻlsa, bu aloqlar muhim boʻlgan deb boʻlmadi. Bundan tashqari, bu aloqlar ahamiyati ular soni bilan emas (Markaziy Osiyo arxeologik yodgorliklarida juda kam Rim va Xan madaniyatiga oid buyumlar topilgan) balki ularning sanʼat, urbanizatsiya, din, shuningdek, Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalari asosiga taʼsiri bilan oʻlchanadi. Bu fikr bu bobda muhokama qilingan davrdan qoʻra koʻproq Samarqandlik savdogarlar Changan (Changʻan) va Konstantinopol oʻrtasidagi yoʻllarni ochgan oʻrta asrlar uchun va ayni paytda eramizdan avvalgi **3-mingyillikda** Yevrosiyo choʻllari kashf etilgach, Gretsiya va Xitoygacha urush olovi tarqalgan eramizdan avvalgi **2-mingyillik** oxiri uchun toʻgʻri boʻladi.

Samarqanddan nazar tashlaganda, yaxlit jahon tizimi **XVI-asrga** kelibgina paydo boʻlgan degan fikr kulguli tuyuladi: **Abu Lufod**¹ (Abu Lughod) ning avvalroq davrga borib taqaladigan aniq dalillari, hatto **Andre Gunder** Frankning jahon tizimi miloddan avvalgi **4-mingyillikka** borib taqaladi degan daʼvo koʻproq qimmatga egadek tuyuladi. Darhaqiqat, masshtab turlicha. Biroq masshtab va intensivlik antik va ilk oʻrta asrlar davri oraliqʻida hamda **19 - va 20 - asr** oraliqʻida oʻzgarganligi ham bor haqiqatdir. Darhaqiqat, turli tizimlar

¹ Abu-Lughod J., Before European Hegemony: The World System A.D. 1250-1350, New York 1989.

bir paytda mavjud bo‘lgan, ular avval ham, hozir ham shunday, biroq bu dunyo tizimi **16-asrdan** avvalroq mavjud bo‘lmagan degani emas.

Aslida biz boshqa fikrni yoqlasakda, to‘g‘risiki shuki, Samarqandni Bag‘dod, Changan va Rim bilan taqqoslab (tenglashtirib) bo‘lmaydi¹. U kichik vohadagi kichik shahar sifatida bir necha qaydnomalarda tilga olinadi. Bugungi kunda u yerda yarim million aholi istiqomat qilsa, qadimda bu sonning yarimicha aholi bu joyda yashagan bo‘lsa ehtimol (bu fikrni rad etuvchi qarashlar ham talaygina). Bu holatdan hayron qolmasa ham bo‘ladi, Markaziy Osiyo hech bir joyning markazida joylashmagan, u cho‘llar, dashtlar va tog‘lar ajratib turuvchi vohalardan iborat, 60 million aholi bor zamindir. Tarixchilar uchun bu sferada ishlashning yana ko‘proq afzalligi bor. Ya'ni bunda ilmiy an'analarning biror biri yaqqol ustunlik qilmaydi, doimo turli tadqiqotlardagi qarashlarni qarama-qarshi qo‘yishga to‘g‘ri keladi, har bir voqeya va ob'yektning tahlili Yevrosiyo nuqtai-nazaridan global yondashuvni taqozo qiladi. Bu tarixni istofoda etishning yagona yo‘li. Samarqandning tut daraxtlari Parij yoki Tokio ko‘chalaridan ancha uzoq bo‘lishi mumkin, biroq bu maskan umumiy tarixni yaratishimiz uchun ajoyib joydir.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Yoshlarni dunyo tarixi bilan tanishtirishda dunyo olimlari qanday usullardan foydalanishadi?
2. Samarkand: Dunyo tarixining markazi?
3. Jahon tarixiga yaponlarning g‘oyaviy yondashuvlari qanday?
4. Fridrix Shiller: Umumiy tarix nima va nima uchun biz umumiy tarixni o‘rganamiz?

¹ Central Asia can include the 5 former Soviet Republics, the Chinese Autonomous Republic of Xinjiang, Afghanistan and Eastern Iran, or even the Caucasus, the Turkic Republics of the Russian Federation, Tibet, Mongolia, North-West Pakistan, and a long etc.

2-mavzu. Jahon tarixi xaritalarda.

Reja:

1. Ptolemey: Dunyoni xaritalashtirish.
2. Osma Beatusning xaritasi: O'rta asr va xristian dunyo qarashi.
3. Al-Idrisi va uning jahon xaritasi.
4. Hereford dunyo xaritasi: O'rta asr ensiklopediyasi va diniy tasavvurlar
5. Bo'lingan dunyo: Tordesillas Shartnomasi Kantinoning jahon xaritasi.
6. Amerika nomidagi Valdshimyuller xaritasi.
7. Merkatorning jahon xaritasi.

Tayanch atama va iboralar: *Hiphejesis, Jakob Angelus, Nikolaus Germanus, Jeyms Kuk, "Ptolomey ta'kidlagan noma'lum yer", Heian Period, yashirn zamin, l Dieppe dengizi, Kosmografiya, "Toichiranto", "Noruviki"*

Ptolomey mashhur yunon astronomi, matematigi va geografi bo'lib, u **mil.avv.II asrda** Aleksandriya, Misrda yashagan. Uning astronomiyaga oid ishi **Magiste** sarlavhasi ostida ko'pchilikka ma'lum bo'lgan yunon matematikasi kitobida saqlangan. Magiste 13 ta kitobga bo'lingan¹. Bu kitoblarda Ptolomey Gippakrad, boshqa muhim yunon astronomining nazariyalarini davom ettirdi va Yer borliq markazidagi o'zgaraydigan sayyora degan qarashga ko'ra o'zining geosentrik tizimini bildirdi. Geografshunos sifatida Ptolomey yunon geografiyasida **14 asrdan** ko'proq vaqtda kartografiyada yagona mufassal kitobni yozdi. Uning Hiphejesis asari dunyo va uning asosiy rayonlari xaritalarini chizish uchun foydalanilgan vertikal uzunliklar va gorizontal kengliklarning bir xil koordinatasi, uning koordinatsiyalar o'lchami yoki hisoblangan chegarasi bilan 6400 ta joyda ro'yhatga olingan Yevropa, Osiyo va Afrikada 8000 ta

¹ Rojo Orcajo T., *Catálogo descriptivo de los códices que se conservan en la Santa Iglesia Catedral de Burgo de Osma*, in "Boletín de la real Academia de la Historia", 1929, 94, pp. 655-792.

toponimlar nazariyasini ifodalaydi¹. Ushbu matn o'sha paytda Kanareya orollaridan Xitoygacha, Shotlandiya va janubiy Skandinaviyadan Markaziy Afrika va Indoneziyagacha bo'lgan hududda istiqomat qilinganligi haqidagi ma'lumotni qamrab oladi. **Mil.avv. III asrda Sirine Eratozes**, boshqa yunon astronomi tomonidan aniq hisoblangan yerning aylana uzunligining haqiqiy o'lchamining qisqa shakli 25% ga taxmin qilinadi. **Ptolomeyning** Oykumenasi 3 ta materikni qamrab oladi va u o'z davridagi bilim doirasiga ko'ra noaniq kengaytirilgan dunyoning ko'pgina hududini aniqlaydi. Uning geografiyaga oid ma'lumotlari ko'pdan ko'p xatoliklarni o'zgartiradi, bundan tashqari ular dunyoning yaxshi ma'lum bo'lgan qismlariga jo'nashadi. Osiyoning Sharqiy sohili janub va g'arbga burildi, shu sababli Hind okeani bitta ko'l bo'ldi. Ptolomey tomonidan janubning noma'lum yeri bo'lgan terra australisinkognitaning mavjudligi aytiladi. Uning mavjudligi axiyri britaniyalik kapitan **Jeyms Kukning 1772-1775-yillar** Tinch okeaniga qilgan ikkinchi sayohati davomida noto'g'riligi isbot qilindi. Ptolomey tekislik va sharsimon yuzada chizilgan xaritalar metodini taklif qildi. Tekis yuzada dumaloq yerni aks ettirib, tomoshabin katta masofadan globusga qarayotganini tasvirlashiga to'g'ri keldi. Dunyo xaritasi shuni ko'rsatadiki, masofalar proporsiyasini saqlash, rejalashtirish uchun bog'liq bo'lgan joylar huquq normalariga bo'ysunishga to'g'ri keldi. Ptolomey bir silindrsimon va ikki konusni muhokama qiladi. Ptolomey shuningdek, o'ngda Sharqda xaritaning shimoliy okrugi oriyentatsiyasini standartlashtirdi, buning vositasida chapda joylashgan ma'lum hududda bugungacha qoldiqlar saqlangan. Shunga qaramay bir marta qarshi chiqdiki, biz hozir Ptolomeyning matnlari dunyo xaritasi va 26 ta hudud xaritasidan iborat bo'lgan atlasga qo'shilganligiga ishonamiz. Afsuski bu qadimiy xaritalar yo'qotilgan. O'rta asrlar davomida geografiya fani kamdan kam aytib o'tilgan.

IX asrdan keyin islomshunos kartograflar islom dunyosining hududiy xaritalarini chizish uchun Hiphejesis tarjimalarinidan foydalandi. **Al-Idrisning** Atlasi bu an'anaga tegishlidir. **1300-yillar**

¹ Berggren J.L., Jones A., Ptolemy's Geography: An Annotated Translation of the Theoretical Chapters, Princeton 2000.

atrofida vizantiyalik monax Maksimos Planudes xaritalar bilan to‘la bo‘lgan geografiya fanining ajoyib qo‘lyozmasini o‘rgandi va imperator Andronikos II Palaiyos ko‘chirtirishni tartibga oldi. Bundan oldin g‘arbiy Latinda yunon qo‘lyozma nusxalari Ptolomey uyg‘onish davrini boshladi, **1393-yil** vizantiyalik diplomat **Manuel Xrisalaros** Italiyaga boshqa yunon qo‘lyozmalari orasida geografiyaning bir nusxasini olib keldi. U o‘quvchisi **Jakob Angelus** tomonidan **1406-yilda** to‘ldirilgan Latin tarjimasini boshlab berdi. Yangi kosmagrafiya sarlavhasi ostidagi ish ulkan omad edi. Biz 80 ta qo‘lyozmalarni, saroy kutubxonalarida oxiriga yetkazilgan ajoyib xaritalarning ko‘pchiligini bilamiz. Ptolomeyning matn va xaritalaridagi xatolar tezda to‘g‘rilandi¹. Odamlar janubga ochilgan Hind okeanini o‘rgandi lekin yana Osiyo Yevropa yaqinroq ekanligiga ishontirish uchun Ptolomey tomonidan Kolumb rahbarlik qilinadi. Italiya, Skandinaviya, Gaul, Ispaniyaning boshqa hududlari bo‘yicha zamonaviy xaritalar va hatto shahar xaritalari atlaslarga qo‘shildi. O‘sha paytda u samarasiz bo‘ldi, klassik matnga asta-sekin e‘tibor qisqartirilgan lekin Ptolomeyning kartografik asboblari keng xarita chizishni ayniqsa yangi kashfiyotlarni kuchaytirdi. Muhrlangan nusxalar **1477-yilda** paydo bo‘lgan Ptolomeyning Geografiyasini yozishga yordam berdi. Bu yerda bo‘laklangan yog‘och xarita ko‘rsatilgan, **1482/86-yillarda** Ulmda nashr qilingan, taxminan **1460-yil Nikolaus Germanus** tomonidan ishlab chiqilgan qo‘lyozmani kuzatishdi. Yana faqat 180 ga uzaytirilgan globus darajalari berkitilgan. Uyerda Afrikaning yonma-yon g‘arbiy sohillari kashfiyotlari yo‘q; globusning janubiy qismi hali ham **“Ptolomey ta’kidlagan noma’lum yer”** va Hind okeani ko‘l bo‘lib qoladi². Yevroosiyo tekshiriladi lekin zamonaviy ro‘yxatlarga Skandinaviya va Yashil dunyo qo‘shilgan.

¹ Dalché P.G., *La Géographie de Ptolémée en Occident (IVe-XVIe siècle)*, Turnhout 2009.

² Dalché P.G., *The Reception of Ptolemy’s Geography (End of the Fourteenth to Beginning of the Sixteenth Century)*, in Woodward D. (ed.), *The History of Cartography*, vol. 3, Chicago 2007, pp. 285-364.

Osma Beatusning xaritasi: O‘rta asr va xristian dunyo qarashi (1086)

*“Beutes Xaritalar”*i o‘rta asrlardagi maxsus namuna hisoblanib uning Mapundi qo‘lyozmalari Warhi yani apokalipsis diniy qo‘lyozmalari Warhi **1086-yilda** yozilgan va hozirda Ispaniyaning Osma burg qalasidagi bosh cherkov kutubxonasida saqlanadi.

D. Shoodvard shunday yozadi.

Million yillardan beri qadimiyluk va zamonaviy dunyolar o‘rtasidagi aloqalarni tiklab kelayotgan jahon xaritalari janri yoki xarita chizish san‘ati klassik an‘anaviyluk sifatida **V-XV asrlarda** xristian dinidan keyin rivojlandi va milliy an‘ana sifatida aynan xristian cherkovlarida yuksaldi. Dastavval bu *mapumundilarning* maqsadi xristianlar tarixida sodir bo‘lgan eng muhim hodisalar haqida vijdonan va tezroq malumot berish maqsadida tuzilgan va ularda hodisalar yuz bergan joylarning o‘rni ham aniq ko‘rsatilgan.

Ular o‘rta asrlarning xaritalarida dunyoning nafaqat geografik va tarixiy ko‘rinishlarini balki eng hayratlanarli bilimlarining turli xil ko‘rinishlarini o‘zida namoyon qildi. Mapumundida shuningdek o‘rta asrlar jamiyatlarida pragmatic tarzida foydalanildi. O‘rta asrlar tarixiy matnlariga tasviriy o‘xshashliklar singari xarakterlarga ega bo‘lgan, lekin ular to‘g‘rida to‘g‘ri siyosiy kuch vazifasini bajara olmagan. U xaritalar ditaktik g‘oyasi va falsafiy qarashlari G‘arbiy Yevropa jamiyatidagi nuqtayi nazari hamda tilning metaforik xususiyatlarini aniq ko‘rsatib beradi.

Simantik va rasmlil namoyishli ko‘rinishlariga qaramasda *“Xristian yerlari”* nomli xaritaga ishinishgan ammo beutes xaritalariga ishonilmaganligi sabali qo‘llanilmagan¹. Ular juda ham noyob miniature va qo‘lyozma nusxalari keltirilgan avliyo Jonning apokalipsis diniy maxsus nomi ostida 26 ta miniaturali 35 ta nusxasi hozirgacha saqlanib qolgan, qaysiki ular Kastiliya, Libana, Sagun, Kantabriya monastirlaridagi erkak rohiblar tomonidan 8 asr davomida yozilgan. Saqlanib qolingani ko‘plab Libana qo‘lyozma nusxalari xristian dunyosi xaritalarini va jami Apokalipsis qo‘lyozma nusxalarining eng nodir namunalarini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun

¹ Ptolemaios, Handbuch der Geographie [griechisch-deutsch], 2 vols., ed. Alfred Stückelberger, Gerd Graßhoff, 2 vols. and CD-ROM, Basel 2006, (scholarly edition).

ham ular oʻrta asrlarning eng muhim tarixiy hujjatlari sifatida saqlanadi.

“*Beutes Osma*” xaritasi¹ning har bir qoʻlyozmasi injil anʼanalariga koʻra Apostollar (Isoning shogirdlari) ni turli regionlarga yuborish orqali jamlangan. *Beutes Mapumundining* hamma nusxasi albatta juda qiziqarli chunki ularda oʻrta asr xristian oykumenalari haqidagi fikrlar aniqlik nuqtayi nazaridan ifodalangan. Sharqiy okruglardagi soʻlim tepaliklarga qaralsa Sharqda cherkovlarning gʻarbdagi nusxasi qurilayotganligini koʻrish mumkin. Xaritalarning asosiy qismida qurulishning yer sathini toʻrtidan birini qoplagan qurulish strukturasi koʻrish mumkin. Hozirgi paytda bu 3ta mintaqada koʻzga yaqqol tashlanadi, bular: Yevropa, Osiyo va Afrikadir. **Burgo Osma** xaritasida yerni toʻrt qismidan ocean orab turishi koʻrsatilgan, shu sababdan u *yashirn zamin* deb atalgan. Bu toʻrt qisimli xarita 12 ta apostollar tomonidan qilingan ishlarni aniqligini koʻrsatishga xizmat qiladi, qaysiki bu apostollar injil rivoyatlariga

koʻra dunyoning toʻrtta turli xil qismlariga yuborilgan. Baʼzi apostollar oʻz ibodatxonalariga yoki geografik mashgʻulotlariga xos vakil boʻlishgan, shuning uchun bu xaritada oʻrt asr Xristianlarning muqaddas joylarining geografik hududlarini kengaytirish maqsadi boʻlgan, masalan: Ispaniyadagi Avliyo jaks ibodatxonasi. Bu xarita turli xil arabik koʻrinishlarini koʻrsatmasa ham Islom dini madaniyati va sanʼatiga katta tasir koʻrsatadi. Ushbu xarita va qoʻlyozmalardan koʻrinib turibdiki ularning asosiy maqsadi oʻrta asr jamiyatlarining gʻoyasini dunyoviy nuqtai nazarda martabasini koʻtarish boʻlgan va bu goʻya Avliyo Avgustinning **Xudoning Uyi**² ibodatxonasida yaxshi taʼsis etilgan. Bu gʻoya yerda hayot tugasa bir biriga hamohang tarzda hayot samoda davom etadi degan maʼnoni anglatadi.

¹ Id., *Th Illustrated Beatus. A Corpus of the Illustration of Th Commentary on the Apocalypse*, 5 vols., London 1994-2003.

² Rojo Orcajo T., *Catálogo descriptivo de los códices que se conservan en la Santa Iglesia Catedral de Burgo de Osma*, in “Boletín de la real Academia de la Historia”, 1929, 94, pp. 655-792.

Xaritali qo‘lyozmalar Osma Burgidagi bosh cherkovda saqlanadi¹. Ushbu qo‘lyozmalar XIX asr va va turli xil davrlardagi **1920-yillargacha** uzoq muddatli jim-jitlikdan keyin **1920-yillarda** birinchi marta esga olindi. **“Osma Beutes”** qo‘lyozmalari **1929-yilga** yaxshilab qaytadan o‘rganildi va **1992-yilda** qo‘lyozmaning asl nusxasi nashr qilindi.

Al-Idrisi va uning jahon xaritasi (1154)

Sitsiliyalik norman qiroli rodjer 2 *Gayskard* (giskard) xomiyligida 18 dan buyon ishlagan. Rodjer palermodagi saroyida kop viloyatlardan olimlarni toplaydi. Morokkolik geograf **Al Idrisi 1154 yilda** dunyoning atlsini va tavsifini tugallaydi.rasman bu dunyoni kashf qilishni xoxlovchilar uchun ermak (uzoq yerlarga sayr qilishni xoxlovchi erkak uchun ermak). Bu kitob Rodjerning kitobi va **Tabula Rodgeriana** ning xaritalari sifatida tanilgan. Zamonaviy andozalarga muofiq, eng yaxshi kartografik ish edi shuningdek orta asrlar davomida ishlab ciqarilgan eng boy geografik malumotning manbai edi.

Muhammad Al Idrisi² (abu abd allah Muhammad al idrisi al qurtubi al hasani al sabti yoki oddiy qilib al idrisi. **1100-1156**) taxminan Seutada o‘sha vaqtdagi almoravidlar imperiyasida, tugulgan. Va kordobada taxsil olgan. Norman qirollar boshqaruvi ostida sitsiliya O‘rta yer dengizida vizantiya, islom va g‘arbiy xristian madaniyatlari orasida markaziy pozitsiyani ushlaydi. Palermoning poytaxt shahri ko‘p millatlardan kelgan dengizchilar, savdogarlar, ziyoratchilar, salib yurishi qatnashchilari uchun engi yaxshi uchrashadigan joylardan biri bo‘lgan.

Qirol rodjerning buyrug‘iga binoan yozilgan. Xaritada yo‘q narsalar xam qamrab olinadi: mamlakatlar va quruqliklarning xolati, ularning

¹ Rojo Orcajo T., *Catálogo descriptivo de los códices que se conservan en la Santa Iglesia Catedral de Burgo de Osma*, in “Boletín de la real Academia de la Historia”, 1929, 94, pp. 655-792.

² *The Encyclopaedia of Islam*, new edn., vol. 3, Leiden, p. 1038 (online). Maqbul Ahmad S., *Cartography of Al-Sharif al-Idrisi*, in Harley J.B., Woodward D. (eds.), *The History of Cartography*, vol. 2, book 1, *Cartography in the traditional Islamic and South Asian societies*, Chicago 1992. pp. 156-173.

odamlari va ularning mol mulki, joylar, va ularning o'xshashliklari, dengizlari, tog'lari va o'lchamlari, ularning ekin donlari va daromadlari, xamma binolar turlari, mol mulklar. Ular ishlab ciqargan mahsulotlar. Ularning iqtisodi va tovar ayirboshlash, eksport va import. Unga bogliq bolgan barca ajoyib narsalar. Shuningdek yetti iqlimga xurmatda bolishgan va shuningdek odamlarining tavsifi va ularning urf odatlari, tashqi korinishi, kiyimlari va tillari xaqida aytiladi.

Yirik kitob 70 ta xududiy xaritalar toplami bilan toldiriladi¹. Xammasi janub tomonga yonaltirilgan. Bir necha asr dan buyon eng togri xarita bolgan. Bugungi kundagi 10 ta qo'lyozmaning 8 tasi oz ichiga xaritalarni qamrab oladi. **Al-idrisining** geografiyasi musulmonlarning mavhum narsalarni chizish an'anasini to'xtatgan va u matematik kardinatalarsz islim dunyosining xududiy xaritalarini tasvirlagan. U grek matematigi va geografigi ptolamey izidan borgan. Yolg'iz manzilgohlarnig geografik kordinatalarini berish orqali butun dunyoni tasvirlagan. Ptolamey an'anasiga muofiq, u dunyoni globus shaklida tasvirlaydi. Aylana uzunligida 22 900 mil bolishini xisoblaydi. fazoda tuxum sarigi kabi bir xil turushini aytadi. Ptolamey kabi u kengliklarga kora yerni 7 ta iqlimga boladi². Xar bir iqlim suniy ravishda 10 ta bo'lim ichidagi uzun ciziqqlar orqali bolinadi. Dunyoni afrikaning garbiy qirgoqlaridan osiyoning Sharqiy qirgoqlarigacha deb tasvirlaydi. Natijasi tortburchakli xaritalar bn deyarli bir xil natija aks etadi.

Ptolameyning geografik ishi orta asr yevropasida deyarli yog bolib ketadi ammo 9 ci asr da arab tarjimalarida saqlanib qolingan. idrisi andalusiyalik astranom al zarqalining ishidan xam fodalanadi. Shuningdek garbiy ortayer dengizidagi bogliq bolgan joylardagi ptolameyning tuzatishlaridan xam foydalanadi. U ulkan sayoxatlaridagi mumotlaridan va boshqa sayohatchi va savdogarlarning malumotlarini topaydi. U shuningdek turli xil

¹ Martinez-Gros G., *La division du monde selon Idrīsī*, in Balard M., Ducellier A. (eds.), *Le partage du monde. Échanges et colonisation dans la Méditerranée médiévale*, Paris 1998, pp. 315-334.

² Martinez-Gros G., *La division du monde selon Idrīsī*, in Balard M., Ducellier A. (eds.), *Le partage du monde. Échanges et colonisation dans la Méditerranée médiévale*, Paris 1998, pp. 315-334.

madaniyatga oid ananalardan tarixiy va afsonaviy faktlardan foydalanadi. Dunyo xaritasining pasti chap birchagida uzoq Sharqi osiyodagi yopiq ulkan darvozalar ortidagi yajuch majuch (gog and magog) larning yerini koramiz. Yajuch majuchlar bibliyada, mashhur qadimiy kitoblarda **3** asrdagi rimlik aleksandr yoki Qur'an kabi kitoblarda paydo bolgan.

Al idrisi islom geograflari ibn battuta, ibn haldun, piri rais va yevropalik dandizchilar xristafor kolumb, vasko da gama larni ilhomlantiradi. Biroq bahsli bolishiga qaramasdan uning yevropadagi tasiri kam bolgan.

Xozirda Rodjer kitobining 10 ta qolyozma nusxasi bor. Eng eskisi **1325-yilga** taluqli. Ularning 5 tasi toliq kitob. 8 tasida xaritalar bor. Oltitasi juda rivojlangan dunyoning aylana shaklidagi xaritalarni o'z ichiga oladi. Eng toliq qolyozma istanbulda saqlanadi u dunyoning xaritasi va barcha 70 ta bo'limli xaritalarni oz iciga oladi. Aylana shaklidagi xarita xaqidagi tasavvurimiz **1456 yil** kairoda ali ibn hasan al hufu al qasimi tomomidan kochirilgan qo'lyozmadan. Xozirda u oksforddagi Bodlien kutubxonasi saqlanadi.

Konrad miller turli xil qo'lyozmalardan kocirilgan barca xududiy xaritalarning mexanizmi va transkripsiyasini ishlab ciqadi.

Hereford dunyo xaritasi: O'rta asr ensiklopediyasi va diniy tasavvurlar

XIII asrning eng ajoyib xususiyatlari orasida Hereford dunyo xaritasi o'zining o'lchami va o'ziga xos jihati bilan o'rta asr xaritashunosligining shoh asari hisoblanadi. Hozirgi kunda, Hereford dunyo xaritasi, saqlanib qolingani yagona katta hajmdagi *mappamundi* (o'rta asr xaritashunosligining yagona namunasi) hisoblanadi. Qadimda undan kattaroq ikkita xarita mavjud bo'lgan, ammo **XIII asr Chelivoy-Milon** xaritasi **1885-yilda** yo'q qilingan va Ebstorfning dunyo xaritasi(huddi shu asrga ta'luqli) **1943-yilda** Gannover¹da

¹ *Die Ebstorfer Weltkarte*. Kommentierte Neuausgabe in zwei Bänden. Bd. 1: Atlas. Bd. 2: Untersuchungen und Kommentar, Text- und Tafelband, hg. v Hartmut Kugler et al., Berlin 2007. Edson E., *The World Map, 1300–1492. The Persistence of Tradition and Transformation*, Baltimore 2007.

bo‘lib o‘tgan havo hujumi paytida yo‘q qilingan ammo keyinchalik qayta tiklangan.

Bir dona pergamentga chizilgan Herford xaritasining o‘lchami 1.50 ga 1.30 metr bo‘lib, o‘z ichiga 1000 dan ortiq yozuvni qamrab oladi. Uning tasviriy rasmlari bir qancha ta’sirli hayvonlar, g‘alati va dahshatli mavjudotlar, shaharlar, yo‘nalishlar, ko‘chib yuruvchilar va geografik tasvirlarni aks etadi. Barcha o‘rta asrlar ko‘rinishlari kabi Hereford xaritasi ham ma’lum bo‘lgan uchta qit‘aning (Osiyo, Afrika va Yevropa) sur‘atlarini ko‘rsatadi va tasvirlar tekis disk ichida chizilgan bo‘lib u dunyo chegarasini ko‘rsatib turuvchi ramz ma’nosiga ega. Hereford xaritasida, doira shaklidagi disk faqatgina dengiz bilan o‘ralib qolmay balki, yuqori qismida ulug‘vorlik bilan Iso Masixning surati tasviriy romlar bilan bezatilgan, bunga o‘z o‘rnida uning Oxirgi Hukmga raislik qilayotgan holati sifatida qaraladi. Past qismining chap burchagida, Sezar Avgust tominidan dunyoni tekshirish kerakligi haqidagi buyrug‘I yozilgan: “butun dunyo tomon olg‘a bor va uning... barcha qismlarini yozib qoldir”. (Luke 2,1) (Avgustning geografik tushdagi buyruqlari tortishuvlarga sabab bo‘lgan, hozirgi kunda unga ko‘proq soliq to‘lovini tekshirish ma’nosida qaraladi). Nihoyat, past qismining o‘ng burchagidagi tashqi tasviriy romda, bir kishining ov qilayotgan holati ko‘rsatilgan, bu o‘z o‘rinda o‘rta asrlar hayot tarsi va mashg‘ulotining belgisi hisoblanadi. Hereford xaritasidagi shamollar nomlari-o‘rta asrlarga xos-pereferal iboralar va qisqa ta’riflar, o‘sha davrda Ingliz zodagonlari tomonidan qo‘llanilgan Ingliz-Norman tilida¹ yozilgan.

Hereford xaritasidagi yerning ko‘rinishi Yunon an‘analariga asoslangan bo‘lib, unda doira shaklidagi diskni dengiz o‘rab turadi va o‘z o‘rnida xarita o‘z ichiga juda boy geografik, zoologik va botanik ma’lumotlarni qamrab oladi. U yerda Ingliz shaharlari haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, masalan, Hereford shahrining Uay daryosi bo‘yida joylashganligi undan tashqari xarita Muqaddas Yerlarni ham o‘z ichiga oladi, bunga xaritaning doira qismining ichki burchagida joylashgan Quddusning zamonaviylashtirilgan lohiyasini hamda

¹ *Die Ebstorfer Weltkarte*. Kommentierte Neuausgabe in zwei Bänden. Bd. 1: Atlas. Bd. 2: Untersuchungen und Kommentar, Text- und Tafelband, hg. v Hartmut Kugler et al., Berlin 2007. Edson E., *The World Map, 1300–1492. The Persistence of Tradition and Transformation*, Baltimore 2007.

“dunyo shohi” deb ta’riflagan Rim loyihasini misol qilib keltirish mumkin. Xarita yana Nil daryosining delta qismi sxemasi va Aleksandr mayog‘i haqida undan tashqari Qizil dengiz va O‘rta Yer dengizi, Konstantinopal va Tuna daryosi haqida batafsil ma’lumotlar mavjud. Xaritada ajoyib mavjudotlar tasvirlaridan keng foydalanilgan, yarimi inson-yarmi ot, kentavrlar va afsonaviy bir shohli ot shiral jumlasidandir. Undan tashqari xaritada tulki, quyon, tipratikon va o‘rta asrlar rassomchiligiga xos boshqa hayvonlar tasviri ham uchraydi, tuya, fil va karkidon kabi hayvonlarga Sharqiy Yevropa nuqtai nazaridan qaralganda ular ko‘proq ekzotik turdagi hayvonlar hisoblanadi. Shunga qaramay, xaritadagi barcha raqamlar Bestiariy yozuvi tarkibidagi matnlar va obrazli tillar orasida yaqin va parallel aloqalar borligini ifodalaydi. Xaritaning tashqi qismida yozilgan gaplarga qaramasdan, cheksiz raqamlar va tasvirlar Lotin tilida yozilgan.

San’at tarixi va Xaritashunoslik tarixi mutaxassisleri **Hereford xaritasining** yaqinda topilgan gotika yog‘ochli triptixining markazi bo‘lganligiga ishonishadi, o‘z o‘rnida uning yon panelini tasvirlashda Jabroil va Maryamlarning tasvirlaridan foydalanilgan. Bilinishicha triptix **Hereforda** joylashgan Muqaddas Maryam soborining va Muqaddas Eitelbergdagi butxona yonida joylashtirilgan, u yerda xarita hozirgi kunga qadar yaxshi holatda saqlanib kelinmoqda.

Hereford dunyo xaritasini to‘g‘ri talqin qilish ancha qiyin masala hisoblanadi. Xaritaning entiklopedik xususiyatlari mutaxassislar tomonidan tahlil qilingan va qayd etilgan, tahlil qilish davomida ular xaritashunoslik tomonidan yoki o‘quvchi talabiga qarab ijtimoiy va madaniy jihatini o‘rganishga e’tibor berishadi. Hereford xaritasining asosiy maqsadi avvaliridek butun dunyodagi o‘n ikkita Apostallar diffuziyasi haqidagi gaplar bo‘lmasa ham, xarita o‘rta asrlar mashhur qo‘lyozmalari safiga kiritiladi. Shuning uchun ham Beatus deb nomlangan xaritalar bilan yuqori masshtabli ma’lumotlarga ega Hereford xaritasi o‘rtasida aniq farq mavjud. Xaritalarning ikki turi ham Hudo shahriga yoki dunyoning diniy nuqtai nazariga ta’luqli hisoblanadi. Shunga qaramay Beatus xaritasining asosiy ideologik maqsadi yahudiylashtirish bo‘lgan, ammo **Hereford xaritashunoslarining** asosiy maqsadi- o‘rta asrlar vaqtida- Hudoning yaratuvchi ekanligini ko‘rsatish bo‘lgan. Evelin Edson ta’kidlab

o'tganidek, xaritaning "geografik elementlari" qolgan axborotlar tizimini aniqlashga xizmat qiladi. Hudoni yaratuvchi sifatidagi tasviri, Edson va Rid Klaynlar ta'kidlaganidek o'rta asr san'at soxasida keng qo'llanilgan, bu tasvir Hereford xaritasida geografik, zoologik va botanik rasmlar bilan birga qo'llaniladi. Xaritaning diniy qarashlari faqatgina dunyoning yaralishi yoki paydo bo'lishi haqida emas. Butun loyihaning ma'lumot manbai shuni ko'rsatib turibdiki, **Hereford xaritasi** Bobildan Rim imperiyasigacha bo'lgan joylar va davr tarixini o'z ichiga qamrab oladi. Va unda yana dindan xoli va ijtimoiy o'rta asrlar faoliyatlari va faktlariga aniq ishoralar mavjud, masalan, yangi qo'rg'on va saroylar qurilishi- Konvi va Kaernarvon-, shaharlarning podevorlari-masalan Praga va Vorm hamda faol jun sotish yarmarkalari tizimi-Flandriya.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Hereford dunyo xaritasi Hudoni yaratuvchi sifatidagi rolini ko'rsatuvchi o'rta asrlar qomusiy va diniy ilmi, shu bilan birga insoniyatning faoliyatlarini va ijtimoiy hodisalarni xristian diniga bog'lab ko'rsatuvchi qisqa ma'lumotnoma bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lingan dunyo: Tordesillas Shartnomasi (1494) Kantonning jahon xaritasi (1502)

Mashhur Contino xaritasi Ispaniya va Portugaliya o'rtasidagi chegaralarni belgilash to'g'risidagi bitim **Tordesillesning** davlatlararo yozma kelishuvida **Pope** tomonidan to'g'ri deb topilgan. Hindistonning katta miqdordagi boyliklari to'g'risidagi taassurotlar bu ikki millat o'rtasida raqobat bo'lishiga sabab bo'lgan. Kelishuvga binoan yer Sharini bo'lib olishga qaror qilgan bu 2 davlat Atlantikani bilgan va unga alohida qiziqqan. Buni dastlab Osiyoning Sharqiy qismida deb ishonishgan, Shuning uchun ham xaritaga nazar solsak Afrika va Brazilya hududlari bo'ylab Portugaliyaliklar kashfiyoti va yangi dunyodagi Ispaniyaliklar kashfiyotini ko'ramiz. **Alberto Cantino¹ 1501-1502-yillarda** Hindiston qirg'oqlaridan Italiyaga ya'ni Lissabonga olib kelingan Ferraraning hokimi **Ercole 1** ning agenti edi.

¹ Albuquerque L. de, *O Tratado de Tordesilhas e as dificuldades tecnicas da sua aplicão rigorosa*, in *El tratado de Tordesillas y su proyeccion*, vol. 1, Valladolid 1973, pp. 119-136.

U yana suzuvchi, yer sharini tuzuvchi ham boʻlgan. U globusni rejasini ham tuzgan. U Hindiston qirgʻoqlaridagi maʼlumotlar va qiziqarli xaritalarni yigʻib Portugaliyaliklarga tushuntirib bergan, u keyinchalik Padrao Real tarkibiga kirgan, extimol Cantino xaritalaridan koʻchirma nusxa olib yashirin ravishda puxta oʻrgangan. Italiyaliklar xaritaning orqasiga yozilgan yozuvni oʻqishgan “Charta del navichare per le isole novamente trovate in la parte del’ India¹”. Cantino koʻrsatib bergan xaritada atirgul kompisini koʻrish mumkin va bevosita kesishib oʻtgan chiziqlar yani dengiz compisining yoʻnalishi bilan bir xil. Xar qanday holatda xaritadan yoʻnalishni aniqlash mumkin. Dengiz ortidagi hududlarni kashf etiganligi haqida maʼlum darajada Italiyaliklar maʼlumot bergan. Xaritadan oʻrta asrdagi andazalardan olib kartografik anʼanalarni, Gog va Magogning yerni eschatologik fiuresini va olisdagi osiyo hududini ham koʻrish mumkin. Maʼlum bir qirgoq boʻyi hududlarining qiziqarli maydon roʻyhati diqqatni tortadi. Capricorn va Cancer 2-ta gorizontal qizil chizikli Tropik maydon. Qora chiziq ekuator oʻrtasida. Tordesillasning yozuvuga asosan vertical chiziq qizilda chizilgan yozuv. “este he o marCo mantre Castella y PortuGall” Uning aytishicha Portugaliya qirol **Jon II** Kolumbga Gʻarbiy Hindistondan orqaga qaytishini xabar bergan va uni kashfiyotlari toʻgʻrisida bundan tashqari qirol Ispanlarni *Alcacovas* bitimini oyoq osti qilayotganligi toʻgʻrisida kechiktirmasdan katolik monarxlariga norozilik bildiradi. Portugaliyaliklar esa zaruriy narsalarni olib Afrika qirgʻoqlari va yangi ochilgan yerlar tomonlarini, foydalanilmagan tizgʻin joylarni tadbiq qilishadi va yana orollarni kashf qilishadi. Ehtimol hozirgi Gvineya tomonidagi Canaries orollari topib boʻysundirilgan. Canariesda Castilyaning cheklanmagan hokimiyati oʻrnatilgan. Doiralarning Atlantikani nazorat qilishdagi kelishuvi **1481-yil** Aeterni tomonidan roʻyhatga olingan. Mustamlakachilikni tarixda koʻzga tashlanadigan nuqtasi unda nafaqat injil mukammal shaklda toʻgʻirlandi mahalliy millatlarga ham yetkazildi. Columbning dengiz safarida aylanib oʻtish harakati natijasida Portugaliyaliklar zirovorli orollar va Osiyo boʻylab nazorat qilish maqsadiga erishdi. Birinchi boʻlib Papa tomonidan butun bir kashf qilingan gʻarbiy Atlantik

¹ Schneider U., *Tordesillas 1494: Der Beginn einer globalen Weltstcht*, in “Saeculum”, 2003, 54, pp. 39-62.

hududlarni boshqarish huquqi Ispanlarga berildi. Shuningdek shimoli janubi hududlarga demokratik yo‘l taklif qilindi. Papa injilga muvofiq ularni hammasini majusiy deb nazarda tutgan, xudo tomonidan yuqori palataga tartib qoida asosida umumiy harakat qilish to‘g‘risida vakolat bergan, u homiylik huquqini dindan holi qirollarga jo‘natadi. Shu taqlid coloniyalarda ishlab chiqarishni qonunga muvofiq idora qiladi. Tordesillsning kelishuvida Alcacovas bitimini Ispaniya qaytadan ko‘rib chiqishni tanlaydi. Yangi to‘g‘ri chiziqlardan erkinlik his qilingan. Qutbdan qutbga canary orollarining g‘arbida 370 dengiz yo‘lida 46 0 harakatlanilgan. G‘arb aniq hamma chiziqlarning millati ustidan hukmronlik qilgan. Ispanlar borib kashf qilgan joyida dengiz xo‘jayini bo‘lgan. Portugaliya bu chiziqlarning biroz qismiga aloqador bo‘lgan. Natijada shuncha narsaga qaramasdan Ispaniya amerikasi ko‘p qismiga davo qiladi. Portugaliya Sharqiy Hindiston va brazilyani nazorat qiladi. Contino Portugaliyaliklar kartografiyasini aniq ravshan ishlagan, keyingi davrda malum bo‘lishicha Brazilya qismida biroz o‘zgarish yasalgani yozib o‘tiladi. Dastlab hujjatlar ochiq oydin ko‘rsatilmagan shuningdek yer Shari atrofidagi qismlar yoki dunyoni taqsimlash ham. Portugaliyaliklarning **1512-yil** Moluccas¹ga bo‘lgan sayohati juda katta ahamiyatga ega. Ispanlar **1518-yil** Tordesills kelishuvi²ga yani yer yuzini teng barobardan yarim sharga bo‘linishiga sabab bo‘lgan. **1529-yil** Zaragoza kelishuvi Castilia Cortesning orzusi ekani tariflangan. Imperator Charlz V kelishuvda Portugaliyaning hamma kema ho‘jayinlari va Moluccasda savdo bilan shug‘ullanuvchilar, hamma joylarda Sharqiy okruglarda dengizlarda 350.000 to‘lov evaziga ishga qaytish topshirilgan. Bularning hammasi Shartnoma uchun katta tafsilot bo‘lgan, lekin shunga qaramasdan ketma ket yillar davomida ko‘pgina muzokaralar amalga oshmay qoldi. Ikkita qudratli davlat yillar davomida ketma ketlikdagi kelishuvlari bugungi kunda dengiz xaritalarida xotirlanadi. Fransuz qiroli **Francus II** doimo Ispaniya va Portugaliya o‘rtasida dunyoni bo‘lish munosabati bo‘lganini aytgan. Tordessillas kelishuvi ikki

¹ Dalché P.G., The Reception of Ptolemy’s Geography (End of the Fourteenth to Beginning of the Sixteenth Century), in Woodward D. (ed.), The History of Cartography, vol. 3, Chicago 2007, pp. 285-364.

² Fonseca L. Adão de, Ruiz Asenico J.M. (eds.), *Corpus Documental del Tratado de Tordesillas*, Valladolid 1995.

hokimiyat o'rtasidagi doimiy ochiq urushlar bo'lganligi Davlatlarning 3-qism sifatidagi davosini tan olishmagan Fransiya, Angliya va Niderlandiyaning dengizdagi va savdodagi erkinliklarini tadbiq qilish oxirida muvaffaqiyat bilan tugagan. Contino xaritasi mustamlaka hududlarni tasavvur qilishni o'rgatgan va shu bilan birga xarita tez eskirgan. Shuni nazarda tutish kerakki geografiya va tarixga oid ma'lumotlar juda foydali ekanini Ispanlar va Portugallar bilishgan. **Anthilles** bu nom dastlab vujudga kelganida quyidagi ma'nolarni bildirgan – bu nom Kastilya qirolining g'arbiy Hindistoni, **Admiral Kolumb** tomonidan kashf qilingan bu orollarda quratli qirol don Fernandoning kuchli nazorati o'rnatilgan. Bu hududga o'rta atlantika deb nom berilgan, g'arbiy graflikdagi bu hududda yangi kashf qilingan yerlarni va labradorlarni vakillar boshqargan.

Diogo Cao, Bartolomeu Dias, Vasco da Gama va Pedro Alvares Cabrallarni malumotlarini sinchiklab o'rgansak¹ o'sha davr mol mulkiga davo qilish shakli va bazi hududlarning tabiati va siyosiy tarixini ko'rish mumkin. oltin Afrikaning g'arbiy sohili yuzasidan olingan, Portugaliyalik **Cao va Dias**² chegaralarni o'rganib o'rni o'ziga xos tarzda joylashtiradi. Qadimgi yirik hajmdagi dunyo xaritalari Cantino tomonidan 3 xil rangdagi yelimlangan teri varaqlariga chizilgan. O'lchami 85.8+40.2. U Yangi Dunyo tasvirlangan ikkinchi dunyo xaritasi edi. Juan de la Cosa xaritani nomlashni taklif qilgan 1500 **Jean de Dintivella** Fransiya qirol **Francis I** ning elchisi Londonda qirol e'tiborini qozongan va Lavaurning o'qimishli yepiskopi **Georges de Selve** va imperator **Charlizing** elchisi va mashhur elchilarning bosh suyagini anampomic tasvirlash uchun, ta'svirlarni bo'yash bugungi kunda London milliy galeriyasi zimmasiga topshirilgan. Ko'p vaziyatlarda hukumat san'at va ilm-fanda mahsus asboblar yordamida bo'yashga ruhsat beradi, bu ma'lum darajada foydali. Globusga stol ostida qaralsa Yangi Dunyo va Tordisellsning qizil chiziqlarini ko'ramiz. Bu

¹ Schneider U., *Tordesillas 1494: Der Beginn einer globalen Weltsticht*, in "Saeculum", 2003, 54, pp. 39-62.

² Cortesão A., Teixeira de la Mota A., *History of Portuguese Cartography*, 2 vols., Lisbon 1969-1971.

Johann Schonerning 1523-yilda yasagan globusi¹ga juda o‘xshash. Magellanning yo‘nalishi dunyoda mahsulotlar ishlab chiqarish orqali boylik va faravonlikda yashash lekin xristianlarning boshqa bir qismi idora qilishning bunday shaklini o‘shini ko‘rolmaydi. Bunday holatda ularning imperator **Charliz V** bilan munosabatlaridagi ko‘rinish ajablanarli bo‘lmagan. **Francois I Dieppe dengizi**²ni boshqarish huquqini olganda faqatgina suvlarni o‘rganishni taqiqlamagan lekin ispan kemalariga qarshi yaxshi hujum qilgan. Ispaniya va portugaliya mamlakatlari o‘rtasida muhim hodisa ro‘y bergan, Francois Portugaliya kemalariga qarshi hujumga ruxsat bedi. Portugaliyadan elchihonaga tezda kelgan Francois I murosa yo‘lini olib borgan³. Boshqa so‘z bilan aytganda Tordisellas kelishuvga ishora berdi, Dintevillening farazicha savollar Shart emas edi, lekin u ingliz eshittirishlarida murakkab siyosiy muommolar boshlanganini aytgan. Shunga qaramasdan **Tordesillas** kelishuvi **1494-yil 7-iyunda** Ispaniya va Portugaliya monarxlari vakilligida imzolandi, qirol **Ferdinand** va qirolicha **Izabella** tomonidan **2-iyulda** va Portugaliya qiroli John II tomonidan **5-sentabrda** imzolandi. Bu ikki davlatni o‘rtasida chegaralarini belgilash uchun, keyingi bo‘ladigan urushlarni oldini olish va janjallar orqali bir biriga ziyon yetkazmaslik uchun ham Shartnoma imzolangan. Kelishuv rasmiyligi sababli, ko‘pchilikni bosh tortishiga qaramay, xalqaro sistemada **15-asr** oxiridagi eng foydali diplomatik faoliyat namunasidir.

Amerika nomidagi Valdshimyuller xaritasi (1507)

Valdzemyullerning 1507-yildagi mashhur dunyo xaritasida Amerika ilk bor Atlantika va Tinch okeani o‘rtasidagi alohida qi‘ta sifatida ko‘rsatilgan, uni ba’zida Amerikaning tug‘ilganligi haqidagi guvohnoma deb ham atashadi. Amerika nomi xaritaning pastki

¹ Sicilia F. (ed.), *Alla scoperta del mondo. L’arte della cartografi da Tolomeo a Mercatore* [The art of cartography. From Ptolemy to Mercator], in “Il giardino delle Esperidi”, 9, Modena 2001.

² Schneider U., *Tordesillas 1494: Der Beginn einer globalen Weltsicht*, in “Saeculum”, 2003, 54, pp. 39-62.

³ Woodward D. (ed.), *The History of Cartography*, vol. 3, *Cartography in the European Renaissance*, Chicago 2007 (vol. I, pp. 992 with Adabyotlar, pp. 1030f, n. 299, 1104, 1108-1109).

qismida Janubiy Amerikaning kichkina silueti yonida joylashgan. Tadqiqotchilar vikricha bu xaritaga manba bo'lib maxfiy portugal xaritalari xizmat qilgan bo'lsa kerak, lekin bu fikr fanda o'z isbotini aniq topgani yo'q. Yevropaliklardan Tinch okeanini birinchi bo'lib **1513-yilda Vasko Nunes de Balboa** Panama bo'ynida ko'rdi. Atlantika va Tinch okeani tutashgan joy **1520-yilda** dunyo bo'ylab birinchi sayyohat uyushtirgan Magelan Gorn burnidan o'tdi va bu yerga uning Sharafiga magelan bo'g'ozi deb nom qo'yildi.

Xarita muallifi **Martin Valdzemyuller (1475-1520)** Fraysburg universitetida, so'ngra Voysgens gimnaziyasida tahsil oldi. Bu yerda **Lotaringiya gersogi Rene** homiyliligida intellektuallar klubi tashkil topdi. Gimnaziya qoshida **1507-yilda** bosmaxona tashkil etilib u yerda **Valdzemyuller** ilk bor o'zining devoriy xaritasini bosib chiqardi. Xarita Universalis *Cosmographie Descriptio*¹ nomi bilan 12 varaqda 137 243 sm xajimda chop etildi. Xaritaning tepa qismida Ptolomeyning rasmi bo'lib u o'z nigohini Sharqiy yarim Sharga Yevropa, Osiyo, Afrikaga qaratgan. Afrikaning Janubiy qismida biz **Ptolomeyga** no'malum yerlar degan yozuvni ko'ramiz. Ptolomeyning to'g'risida Amerika Vespuchining surati bo'lib, u o'z nigohini g'arbiy yarim Sharga, "yangi dunyoga qaratgan"². (Ma'nosi qadimgilar daxosi yoshlarni yangilikka ergashtiradi). Xarita imperator **Maksimilian I** bag'ishlangan. Gabsburglar gerbi xaritaning eng ko'rinarli qismida O'rta yer dengizining g'arbiy qismida joylashgan. **Maksimilian** vorislari davrida Ispaniya global imperiya darajasiga chiqdi va "*quyoshi mangu botmas*" degan nom oldi. Xarita va gerbga qararak, undagi ikki boshli burgut Yangi Dunyo va Uzoq Sharq Eski Dunyodan yuqoriga chiqib turishi va qanotlari Sharqda Ptolomey va g'arbda **Vespuchchiga** ishora qilib turibdi.

Yer globusiga 360 gradusda qaraganda uning qurilishi Ptolomeyning ikkinchi konusli proeksiyasi asosida kengaytirilgan zonadagi periferiyada va sayohatchilarning xikoyalari asosida portugal

¹ Fischer P.J., Wieser R. von, *Die älteste Karte mit dem Namen Amerika aus dem Jahre 1507 und die Carta Marina aus dem Jahre 1516 des M. Waldseemüller*, (Ilacomilus) in Faksimiledruck, Innsbruck 1903, repr. Amsterdam 1968.

² Lester T., *Th Fourth Part of the World: Th Race to the Ends of the Earth, and the Epic Story of the Map Tht Gave America Its Name*, New York 2009.

yo'l ko'rsatuvchilari haritasiga tushirilganligini ko'rishimiz mumkin. Karib dengizini **Kolumb** tomonidan ochilishi Yangi Dunyoga Ispaniya va Portugaliya qirollari o'rtasida bo'lib olingan holda ko'rsatilgan edi.

Atlantika orollari va Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari joylashuvi haritada **Tordellis** chizig'idan Sharq tomon portugallar ta'sir doiralari chegarasi tomon siljirilgan holda to'g'rilangan shaklda qilingani ehtimoli mavjud. Ochiq Hind okeani esa Yaxshi Niyat burni bilan portugal ta'sir doiralari bilan ajratib ko'rsatilgan.

Martin Valdzemyuller va **Matias Ringmann** asl nashrlari, kichik haritalar kichik bir Sharga joylanganligi haqida "Kosmografiyaga kirish" kitobi¹da jamlandi. Mualliflar nashrning kirish qismida go'yoki juda oshirib yuborilgan, hech kimga keragi yo'q deb o'zgartirilgan **Amerigo Vespuchchining "suv bilan o'ralgan boshqa bir Yangi Dunyo – to'rtinchi qit'ani borligini aniqlaganligi haqidagi"** lotincha tarjimadagi maktubini kiritishadi. Shuning uchun, Ringsmann ushbu muqaddimada bu yangi ochilgan qit'a iqrorini haq ekanligini kiritgan:

Dunyoning to'rtinchi qit'asi Amerigo Vespuchchi tomonidan aniqlandi. Amerigo yoki Amerika Yerning bu qismini aniqlangan aql sohibi Amerigo ochgan bo'lsada, undan keyingilar bu yerga nega nom berishga haqlari bor ekanligini hech tushunmayman. Ahir Yevropa va Osiyo qit'alari ayol nomlarini olgan bo'lsa, nega Amerigo yeri Amerika deb atalmasin.

1492-yilda bu Karib orollariga ilk bor qadam qo'ygan Kolumb bu (Las India deb atalgan) noma'lum hududlarni Yangi Dunyo ekanligini bilmagan va faqatgina **Amerigo Vespuchchi** bu Yangi Dunyoning qirralarini tasdiqlab berdi. **Valdzemyullerning** oldingi haritalarida Kolumbni Yangi Dunyoning ilk kashfiyoti vakili sifatida ko'rsatilib, Amerigo nomi olib tashlangan edi. "**Kosmografiya**"²ning keng yoyilishi natijasida "**Amerika**" nomi Yangi Dunyo nomida aks ettirilishiga sabab bo'ldi.

¹ O'Gorman E., *The Invention of America: an inquiry into the historical nature of the New World and the meaning of its history*, Bloomington 1961.

² Lester T., *The Fourth Part of the World: The Race to the Ends of the Earth, and the Epic Story of the Map That Gave America Its Name*, New York 2009.

Valdzemyullarning haritasining zamonaviy qiyofaga ega bo'lsada, unda qadim dunyo afsonalari va qissalari, o'rta asr kartografiyasi an'analari aks etgan: Iskandar Zulqarnayn yurishlari, Ioanning Sharqiy saltanati qissalari, Topraban (Shri - Lanka) qimmatbaho toshlari, Gerakl qahramonliklari, dahshatli hayvonlar, Efiopiya odamxo'rlari, Avliyo Fomaning Hindistonda o'ldirilishi kabilar.

Harita ming nusxada chop etilgan va faqat birgina nusxasi Germaniya Vyurtembergda Valdburg-Valfegga Valdzee shahzodasi qasri kutubxonasi topib olingan. Keyinchalik **Jon Fisher** haritani chop etishi sensatsiyaga olib keldi¹. **2001-yil** Vashingtondagi AQSh Kongressi kutubxonasi Germaniya hukumatidan maxsus eksport ruxsatnomasi bilan o'n million dollarga sotib oldi va kutubxonaning Xazinalar galereyasida saqlanmoqda.

Merkatorning jahon xaritasi (1569)

Gerard Merkator (Gerard Kremer, 1512-1594-yillar) tomonidan **1569-yilda** chop etilgan dunyo xaritasi katta ahamiyatga ega inqilobiy kashfiyot edi. *Merkator proyeksiyasi*² (odatda uni shunday atashadi) dengizdagi aniq va xavfsiz bo'lgan marshrutlar grafiklarini tuzish uchun olg'a tashlangan qadam bo'ldi. Biroq uning xaritasi shunchaki yo'l qidiruvchilar (navigatorlar)ga mo'ljallagandan ancha katta ahamiyat kasb etadi. **Merkator** dengiz sayohatchilari va ilk kashshof (kashfiyotchi)lar Yevropa keltirgan barcha yangi btlimlarni aks ettirishga harakat qildi. Uning xaritasi Yevropaga ma'lum dunyoni aks ettirardi. Tabiiyki, u Yevropani xarita markaziga joylashtirdi. Ayni paytda bu qit'a yevropalik geograflar va kartograflarga juda tanish edi.

Boshqa har qanday ikki o'lchamli ko'rinishdagi uch o'lchamli ob'yektlar tasviri kabi uning xaritasi voqyeilikni bo'rttirib ko'rsatadi. Proyeksiya effekti natijasida Yevropaning xaritadagi hajmi katta, aksincha Janubiy Amerika va Afrika esa kichrayib qolgan. Bu holat

¹ Laubenberger F., Rowan S., *Th Naming of America*, in "Th Sixteenth Century Journal", 1982, 13, 4, pp. 91-113.

² Mercator Projection, *Encyclopædia Britannica Online*, <http://www.britannica.com>, accessed 11 January 2011.

XX asrning bahsli mavzusiga aylanib, yevrotsentrik qarashni shubha ostiga qo‘ydi.

1569-yilga kelib Merkator da gobus va xaritalar ishlab chiqaruvchisi sifatida katta tajriba to‘plandi. Merkator *Antverpendan* uzoq bo‘lmagan shaharchada tug‘ildi. U umumiy ta‘limni aka-ukalari bilan **Xertogenboshda** oldi. **1530-yilda** Leven universitetiga o‘qishga kirdi. U yerda u **Gemma, Frizius Renyer** va mamlakatning yetakchi nazariyotchi matematigi hamda mashhur kosmografa Benilyuksdan ta‘lim oladi. Friziusning ilmiy ustaxonasiga ishga kirib, **1535-yilda** unga globas yasashda ko‘maklashadi. **Merkator** keyinchalik graver va ishlab chiqaruvchi sifatida biznesini boshlaydi. **1537-yilda** o‘zining birinchi xaritasida Muqaddas Yerni tasvirlaydi. Bir yil o‘tgach, u janub va shimol yarim sharlarini ikkita yurak ko‘rinishida tasvirlangan dunyo xaritasini yaratadi. **1541-yilda** u globus yasadi, 10 yil o‘tgach esa, samoviy yer Sharini (tungi osmonda yulduzlarni aks ettiruvchi) yaratdi. **1544-yil** anduhli kechdi. Shu yili **Merkator** inkvizitsiya aybloviga ko‘ra hibsga olinib, 7 oy qamoq jazosiga hukm qilindi. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, **1541 Levendan Kleva** gersogligiga qarashli Duysburgga ketadi. **1564-yilda** gersog **Vilgelm Klevening** bosh kosmografi etib tayinlanadi¹.

Merkator turlicha xaritalarni nashr qilgan. Masalan, **1554-yilda** u Yevropa ta‘siri ostidagi hududlarni tasvirlovchi xarita yaratadi. **Merkator** olim inson edi, uning orzusi borliq haqida jo‘g‘rofiy bilimlar beruvchi ish yaratish, shuningdek, jo‘g‘rofiy fanlar tarixini yaratish edi. Uning bu orzusi ushalmay qoldi, biroq **1569-yildan 1568-yilgacha** bo‘lgan jahon xronologiyasini chop ettirdi (*Chronologia*, **1569**). **1585-1595-yillarda** 51 xaritadan iborat atlasning birinchi qismi nashr qilindi. Merkator vafotidan so‘ng uning o‘g‘li **Rumold 1602-yilda** 34 xarita bilan atlasni yakuniga yetkazdi². Merkator shunday xaritalar to‘plami uchun ilk bor “*atlas*” atamasini qo‘llagan bo‘lsa-da, u atlasni chop ettirgan dastlabki olim emas. Undan oldin **1570-yilda Avraam Orteliy Antverpen** shunday xaritalar to‘plamini chop ettirgan edi. **1604-yilda** xaritashunos

¹ N.J.W. Thower, *Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society*, 3rd edn., e-book, Chicago 2008, p. 80.

² Mercator Projection, *Encyclopædia Britannica Online*, <http://www.britannica.com>, accessed 11 January 2011.

(kartograf) Yodokus Xondius Merkatosning asl nusxalarini sotib oladi va 2 yil o'tgach, atlasning tuzatilgan nashrini yangi xaritalar bilan birgalikda chop ettiradi.

Merkator yaratgan atlas juda muhim bo'lsa-da, uning **1569-yilda** tuzgan xaritasi zamonaviy jo'g'rofiya tarixida muhim burilish yasadi. Ushbu xarita 18 ta alohida sahifa (varaq)dan iborat bo'lib, ularning jami 134 smga 212 smni tashkil qiladi. Bugungi kunda to'liq holdagi xaritaning yagona ekzemplyari Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanmoqda. Qolgan 2 nusxasi Amsterdam va Bazelda saqlanadi.

Albatta, **Merkator** xaritasida noaniqliklar bor. Har bir xarita dumaloq (Shar) shaklga ega. Shunday bo'lsa ham, u yaratgan xarita yo'nalishni topish muammosini hal qilgani bois, navigatsiya (yo'l topish)ga mo'ljallangan yer Shari globusiga qaraganda foydaliroqdir. Dunyo xaritasi butun marshrutning to'liq ko'rinishini namoyon etardi, ayni paytda uni yer globusi kabi o'qi atrofida aylantirishga to'g'ri keladi. Xaritaning o'ziga xosligi shundaki, unda barcha **loksodrom** (loskodromiya)lar (meridianani kesuvchi egri chiziqlar) to'g'ri chiziqlar bilan ifodalangan. Bu dengizda marshrutni to'g'ri chiziq bo'ylab aniqlash imkonini beradi. Masalan, A punktdan B punktga harakatlanishda xaritada to'g'ri chiziq chizib, kompas orqali to'g'ri ma'lumotlarni aniqlab olish mumkin.

Merkatorning yorqin kashfiyoti shunda ediki, u meridianalarni bir-biriga parallel to'g'ri chiziqlar sifatida tasvirlaydi. **Merkator** o'zining silindr shakllari bo'yicha ilk ishlari bilan mashhur edi¹. U bu ishlari asosida yer Sharining to'g'rilangan meridianalarini yaratdiyu Meridianalar bir xil uzoqlikda vertikal chiziqlar etib tasvirlangan. Bu shuni anglatadiki, Janubiy va Shimoliy qutblarni xaritada ifodalab bo'lmasdi. **Merkatorning** o'zi bu holatni mening xaritamning oxiri cheksizlikdir, deya izohlagan. Xaritadagi yana bir muhim yangilik bu gorizontallarning oralig'i kengaytirilganidir. Ular bir-biridan bir xil uzoqlikda ekvatorga qadar masofada kattalashtirib tasqirlangan.

Xaritadagi noaniqlik ekvatoridan uzoqlashgan sari yanada ortib boradi. Masalan, Grenlandiya aslida Lotin Amerikasining sakkizdan bir qismiga to'g'ri kelsa-da, u haritada xuddi shu qit'a hajmida

¹ Other copies are kept in Amsterdam, Scheepvaart Museum, and Basel, University Library. A. Taylor, *The World of Gerard Mercator*, London 2005, p. 201.

tasvirlangan. Navigatsiya uchun yoʻnalish toʻgʻriligi asosiy omil boʻlgani uchun, bu holat muammo hisoblanmaydi.

Merkatorning xaritasi jahonning ishonchli xaritasini yaratishdek qadimdan davom etib kelayotgan muaamoning yechimi edi. “Ptolemey davridan boshlab asrlar davomida dunyo xaritasini yaratish bilan kurashib kelgan har qanday xaritashunos xuddi shu ishni amalga oshirishi mumkin edi”, deb yozadi Merkatorning biograflaridan biri. Bu tasodifiy holat emas edi, chunki xaritaning shunday koʻrinishi yangi joylarni kashf etish uchun koʻplab sayohatlar qilinayotgan davrda yaratildi. Bundan tashqari, oʻsha paytda boʻlmasdan bir ishonchli jahon xaritasi mavjud emas edi.

Xaritada Yevropa markazda joylashtirilgan. Lekin har doim ham shunday boʻlib kelgan deb boʻlmaydi. Oʻrta asrning sxematik koʻrinishdagi ilk dunyo xaritalarining aksariyati uchtomonlama shaklga ega edi. Yer dumaloq O shaklda ifodalanib, u Yevropa, Osiyo va Afrikadan iborat uch qism T koʻrinishda ga boʻlingan. Odatda T-O xaritalarda Osiyo yuqorida boʻlib, Iyerusalim (Quddus) markazda joylashtirilgan. Bu nasroniylik (xristianlik)ning ahamiyatini bildirib turgan¹.

Endilikda shubhasiz, Yevropa dunyo xaritasining markaziy elementiga aylangandi. Hatto, Iyerusalim nomi toʻligʻicha yozilmay, “**IRLM**” deb qisqartirildi². Merkatorning xaritasi ispan va portugal tadqiqotchilarining Janubiy va Markaziy Amerikaga uyushtirgan sayohatlari natijasida hosil boʻlgan bilimlarni oʻzida aks ettiradi. Biroq, Shimoliy Amerikaning katta qismi xaritani tugallaydi. Balki shu orqali Osiyoga shimoli-gʻarbiy yoʻl mavjud degan savoldan qochishga harakat qilingandir. Albatta, koʻplab joʻgʻrofiy bilimlar hozirga qadar mavhum, masalan, Lotin Amerikasidagi daryolar haqidagi bilimlar. Bundan tashqari, Janubiy dengiz hududidagi katta kontinent Terra Australis xaritada mavjud emas edi.

¹ Other copies are kept in Amsterdam, Scheepvaart Museum, and Basel, University Library. A. Taylor, *The World of Gerard Mercator*, London 2005, p. 201

² Mercator Projection, *Encyclopædia Britannica Online*, <http://www.britannica.com>, accessed 11 January 2011.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ptolemey: Dunyoni xaritalashtirish
2. Osma Beatusning xaritasi: Oʻrta asr va xristian dunyo qarashi (**1086**)
3. Al-Idrisi va uning jahon xaritasi haqida nimalarni bilib oldiz?
4. Hereford dunyo xaritasi: Oʻrta asr ensiklopediyasi va diniy tasavvurlar.
5. Merkatorning jahon xaritasi dunyo qanday tasvirlangan.

3-mavzu. Qadimgi Misrdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi. Podsholiklar davri tarixi

Reja:

1. Qadimgi Misr tabiiy Sharoiti va aholisi.
2. Davlat hokimiyati.
3. Iqtisod va ijtimoiy tuzum.
4. Sais hokimlarining Misrni birlashtirishi.

Tayanch iboralar: *“Qora tuproq”, semit tili, iyeroglif yozuvi, “tegirmon mudiri”, hoqon, “podshoning do‘stlari”, “kumushxona”, “Oq devor”, nomlar, nomarx, megamet me'morchiligi, semit tili, gigsoslar, som, barbar, kushit, punt mamlakati, Ta-Kemet, Navsera, Xetep - Xores, Kebe, jajat, kenbet, iuntiuni, “Oltita urug‘ uy”, mag‘xara qoyalari, «Palermo toshi», «Ra o‘g‘li», «Ipuser nasihatnomasi», Hammamat, papirus, giksoslar, labirint, nomlar. Govard Karter, “tirik asirlar”, shaduf, “Exnaton”, «Axetaton», Sais sulolasi, sarkofag, “1000 musriy”, dadekarxiya, filellin, Xejetep.*

Tabiiy Misrning serunum yerlari, asosan, Nil daryosi oqizib Sharoitlari keltirgan tuproqdan vujudga kelganligini grek tarixchi va geograflari - **Gerodot** hamda Strabon ta'kidlab o‘tgan edilar. Nil daryosining toshishi natijasida yaxshi sug‘oriladigan Misr yerlari Shimoliy va Sharqiy Afrikaning keng cho‘llari o‘rtasida qolgan buyuk vohaga o‘xshaydi. Misr g‘arbda va Sharqda qoyali tog‘lar, o‘tish qiyin bo‘lgan cho‘llar, janubda esa, Nil daryosi bo‘sag‘alari tufayli qo‘shni mamlakatlardan ajralib, yakkalanib qolgan edi.

Qadimgi Misr hududi

Misrliklar doimo o‘zlarining serhosil va rohatbaxsh yerlarini tabiati ko‘rimsiz va yovvoyi qo‘shni mamlakatlarning yerlariga qarama-qarshi qo‘yib kelganlar. Misrliklar o‘z mamlakatini tasviriy iyeroglif yordamida tekis yer shaklida tasvirlab, ba'zida tekis yerni ariq va kanallar bilan bir qancha qismlarga bo‘lib ko‘rsatganlar va Misrni obrazli qilib **“Qora tuproq”** (Ta-Kemet) deb ataganlar.

Aholisi. Misrliklar boshqa ko‘pgina qadimgi Sharq xalqlari singari bir qancha qabilalarning sekin-asta aralashib ketishi

natijasida, ya'ni qadimgi Misr xalqi Shimoliy va Sharqiy Afrikaning mahalliy qabilalaridan tashkil topgan. Misrdagi qadimgi davrga oid kishilarning o'ziga xos haykalchalari hamda *Negadadagi* qadim mozorlardan topilgan bosh suyaklarini o'lchash natijalari, shuningdek, Qadimgi Misr tilining galla, somali va boshqa qabilalar tiliga yaqinligi eng qadimgi misrliklarning tropik Sharqiy Afrika qabilalari bilan qardoshligini ko'rsatadi. Qadimgi Misr tavsiflariga ko'ra, Sharqiy Afrikada (*Punt mamlakatida*) yashagan eng qadimgi qabila vakillarining tashqi qiyofalari misrliklarga juda o'xshab ketadi.

Bundan tashqari, eng qadimgi Misr qabilalari Shimoliy Afrikaning liviya qabilalari bilan ham juda yaqin qarindosh bo'lgan. Qadimgi Misr tili o'zining ba'zi jihatlari bilan Shimoliy Afrikadagi barbar tillarini eslatadi. Misrda va Nil vodiysini o'rab turgan baland tog'liklarda o'tkazilgan qazilmalar Misr madaniyatini vujudga keltirgan qabilalar qadimgi tosh asridan buyon Shimoliy-Sharqiy Afrikada yashaganliklarini ko'rsatadi. Misrliklar mis qazib topishni ham bilganlar¹.

Qadimgi Misr tilining asosiy lug'at fondi va ba'zi o'ziga xos xususiyatlari, taxminan milodiy **1 asr**, ya'ni - *feodalizm tuzumi* vujudga kelgan vaqtga qadar, va hatto, aytish mumkinki, bir qadar keyingi zamonlargacha ham saqlanib kelgan. Qadimgi misrliklar tilining *qadimgi semit* (finikiyaliklar, aqqodliklar, ossuriy va qadimgi yahudiy) tillariga birmuncha yaqinligining sababi, qisman, Misr bilan Old Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy va madaniy aloqalar tufayli, ularning o'zaro ko'rsatgan ta'siridandir. Qadimgi misrliklar tili miloddan avvalgi I va II ming yilliklarda Misrga bostirib kirgan chet el istilochilari-*giksoslar*, liviyaliklar, habashlar va boshqalarning tillari bilan chatishib ketgan, pirovard natijada qadimgi misrliklar tili doimo ustunlik qilgan.

¹ Miller K., Mappae Arabicae. Arabische Welt- und Länderkarten des 9.-13. Jahrhunderts in arabischer Ur-schrift, lateinischer Transkription und Übertragung in neuzeitliche Kartenskizzen, vol. VI, Stuttgart 1927.

Photographic reproduction of world maps from four manuscripts and 336 regional maps; reprint Universität Frankfurt Inst. f. Geschichte d. Arabisch-Islamischen Wissenschaften 1994.

Eng qadimgi sinfiy jamiyatning paydo bo‘lishi. Misrda odamlar paleolit davridan yashay boshlaganlar. **Miloddan avvalgi X - VI ming yillikda** Nil atrofidagi cho‘llarda tarqoq holda yashagan qabilalar terib-termaglash, ovchilik, keyinroq esa, baliq ovlash bilan shug‘ullanishgan. Qadimgi som xalqlariga mansub ushbu qabila, barbar va kushitlarning o‘zaro aralashib ketishi tufayli **miloddan avvalgi IV ming yillikda** Misr xalqi paydo bo‘lgan. Aholi nufuzining ortishi chorvachilik va dehqonchilikka o‘tishni tezlashtirgan, bu esa hududiy jamoalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Dehqonchilik qilish uchun, tabiiyki, kanal, to‘g‘on qurish lozim bo‘lgan, shu maqsadda o‘zaro urushlarda asir tushgan qullar mehnatidan foydalanilgan. Natijada, jamoada ijtimoiy tabaqalanish ro‘y berib, urug‘ zodagonlari ajralib chiqqan, qabila sardorlari esa, mahalliy podshohlarga aylangan. Shu tariqa bir qancha mayda quldorlik davlatlari vujudga kelgan. Keyinchalik ular o‘rtasidagi kurash natijasida shimolda Quyi Misr, janubda Yuqori Misr podsholiklari barpo bo‘lgan. **Miloddan avvalgi taxminan III ming yillikda** ikkala podsholik birlashib, yagona davlat barpo bo‘lgan.

Eng qadimgi Misr yozuvlari, qadimgi Podsholik yilnomasi, Misr fir'avnlarning so‘nggi davrga oid shajarasi va Manefon tuzgan podsholar ro‘yxati hamda birinchi va ikkinchi suloladagi Misr davlati haqiqatdan ham tarixda bo‘lganligini Negad va Abidodan qazib olingan, ulkan podsho maqbaralaridan topilgan yodgorliklar ham bir qadar tasdiqlaydi. Amelino - de Morgan va Flindres Petrilar bu yerdan ko‘p va turli-tuman qazilma buyumlari hamda oldingi ikki sulola fir'avnlarning nomlari yozilgan eng qadimgi iyeroglif yozuvlarini topdilar¹. Suloladan avvalgi davr yodgorliklari, shuningdek, dastlabki ikki sulolaga oid buyumlar va yozuvlar **miloddan avvalgi IV ming yillikning** oxirlarida deltada va Nil vodiysida eng qadimgi sinfiy jamiyat paydo bo‘lganligi haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

¹ The only complete translation: Al-Idrīsī, Livre de la récréation de l’homme désireux de connaître les pays, trad. complète par Pierre Amédée Jaubert, 2 vols., Paris 1836-1840; new rev. edition: La première géographie de l’Occident, par Henri Bresc et Annliese Nef, Paris 1999.

Misr aholisi bu davrda alohida kichik-kichik jamoalarga bo‘linib yashar, jamoalar boshida jamoa kengashi va oqsoqollar turardi. Dehqonchilik, mavjud tabiiy Sharoitga ko‘ra, sug‘orib ekin ekish shakliga kirib borgan. Har yili Nil daryosining toshishi aholidan toshqin suvlarining bir joyda to‘planmay, butun mamlakatga bir tekisda yoyilishini ta‘minlash yuzasidan bir qancha choralar ko‘rishni talab qilgan. Sun‘iy sug‘orish ishlari Mesopotamiyaning janubiy qismi uchun qay darajada zarur bo‘lsa, Misrga ham shunday muhim bo‘lgan. Shuning uchun irrigatsiya shahobchalarini barpo qilish, ularni asrash va kengaytirib borish vazifasini eng qadimgi davrlardayoq, dastlab jamoalar, keyin esa, davlat hokimiyati bajarib kelgan. Eng qadimgi dehqonchilik jamoalari hayoti uchun zarur sun‘iy sug‘orish ishlarining bu kabi katta ahamiyati iyeroglif shakllar bilan yozilgan *”viloyat”*, *“o‘lka”* va *“viloyat boshlig‘i”*¹ so‘zlarida o‘z aksini topgan.

Arxaik davrdayoq qishloq xo‘jaligi bilan birga turli hunar - kasblar ham rivojlangan. Arxaik davrdan boshlab keng tarqalgan va yuksak darajaga yetib takomillashgan eng qadimgi kasb-hunar turlaridan biri toshdan har xil asboblari yasashdir. Misrliklar qadim zamonlardan bo‘yon toshdan asbob va qurol-aslahalar, xususan, *o‘roq, arra, pichoq, bolta, belkurak, nayza va o‘q-yoy uchlari, xanjar*, shuningdek, *bazalt, porfir va serpantin* kabi chiroyli toshlardan mahorat bilan turli-tuman idishlar yasaganlar. Birinchi sulola davridan boshlab katta-katta tosh parchalari va plitalar ishlatilgan. Chunonchi, ushbu sulola podshosi *Usefey maqbarasining* pastgi qismiga granit plitalar yotqizilgan. II sulola fir‘avni *Xasexemui* maqbarasining kichik sag‘anasi yo‘nilgan ohaktosh plitalaridan yasalgan. Bunday yirik tosh parchalarini ishlatish texnikasi Shimoliy Afrikaning mezolit me‘morchiligi texnikasini eslatadi.

Qadimgi misrliklarga qo‘rg‘oshin, mis, oltin, keyinchalik esa temir kabi metallar ma‘lum bo‘lgan. Qo‘rg‘oshin Qizil dengiz qirg‘oqlarida, *Koseyr* hamda *Asuvoan* yaqinida qazib olingan. Miloddan oldingi davrlarga oid qabrlardan juda ko‘p qo‘rg‘oshin

¹ A. Pankratova, Konferentsiya chitatelei zhurnala “Voprosty istorii”, 1956, vi, 2, p. 213; quoted in R.D.

Markwick, *Rewriting History in Soviet Russia. The Politics of revisionist Historiography, 1956-1874*, Basingstoke 2001, p. 4.

buyumlari topilgan. Sinay yarim oroli va Sharqiy choʻldan qazib olingan mis, ayniqsa, keng tarqalgan. Birinchi sulola zamonidayoq, mis qazib olinganligi va misdan har xil qadimgi asboblari yasalganligidan dalolat beradigan buyum Sinay yarim orolining janubiy- gʻarbiy qismida, *Vadi-Magʻxarada* va *Serobital-Xodimdan* topilgan edi. Bu yerdan mis rudasi, maʼdan chiqindilari, temirchilik oʻchoqlari hamda metall eritish pechining qoldiqlari, quyilma va tigʻlarning qoliplari, nihoyat, mis eritadigan qozon siniqlari topilgan. Oʻsha davrda Sharqiy choʻl va Nubiyada oltin qazib chiqarilganligi ham maʼlum. Birinchi sulolalar zamonidagi qabrlardan oltindan yasalgan gʻoyat goʻzal zeb-ziynat buyumlari topilganligi bu yerda zargarlik yuksak darajada rivojlanganligini koʻrsatadi. Qadimgi Misrda temir **miloddan avvalgi 1 ming yillikka** qadar juda kam ishlatilgan. Temirga ishlov berish arxaik davrdayoq, muhim kasb hisoblangan. Podsho saroyida maxsus temirchilik ustaxonalari boʻlib, bu ustaxonalarni maxsus amaldor idora qilgan, arxaik davridagi muhrlarning nusxalarida *“podsho saroyidagi temir quyuvchilar boshligʻi”* degan unvon uchraydi. Ammo temirchilik Misrda asta-sekin rivojlangan. Misrliklar anchagina ilgʻor metall qurollari bilan birga toshdan yasalgan qurollardan ham foydalanganlar.

Suloladan oldingi ikkinchi davrga oid maqbaralardan Falastinga xos jimjimador dastali sopol idishlar topilishi Misrning Falastin va Suriya bilan ayirboshlash savdo olib borganligidan darak beradi. Bu idishlar ichidan qotib qolgan yogʻ yuqi ham chiqqan, bu Falastin yoki Suriyadan keltirilgan boʻlsa ajab emas. Qadimgi Finikiya shahri Bibldagi qazish ishlarida Misrga oid buyumlar, chaqmoq toshdan yasalgan pichoq va belkuraklar, boʻyoq uchun ishlatiladigan shifer taxtalar, oniks, billur, yashma va oltindan yasalgan munchoqlar, loydan yasalgan hayvon suratlari chiqqan. Birinchi sulolalar davri podsholarining maqbaralaridan Egeyga atab yasalgan sopol idishlarning siniqlari topilgan.

¹ A. Pankratova, Konferentsiya chitatelei zhurnala “Voprosty istorii”, 1956, vi, 2, p. 213; quoted in R.D.

Markwick, *Rewriting History in Soviet Russia. The Politics of revisionist Historiography, 1956-1874*, Basingstoke 2001, p. 4.

Yer fondining davlat qoʻlida toʻplanishi va butun sunʼiy sugʻorish tizimini boshqarish zarurati tufayli, sekin-asta moliya va xoʻjalik ishlarini idora qiluvchi mahkamalar tashkil topdi. Podsho xazinasi **“kumushxona”** deb atalgan. Butun mamlakatdan yigʻiladigan natura soligʻi shu xazinaga toʻplangan. Shu bilan birga oziq-ovqat taʼminoti, tegirmonchilik, chorva xoʻjaligi, tokchilik va vinochilik ishlariga qaraydigan ayrim muassasalar ham boʻlgan. **Podshoning xususiy xoʻjaligi** (podsho uyi) alohida ajratib olingan va uni boshqarish uchun alohida mansabdorlar tayinlangan.

Davlat ayrim viloyatlar - (**nomlar**)ga boʻlingan va bu viloyatlarni koʻproq zodagonlardan boʻlgan nomarxlar, mahalliy hokimlar boshqargan. Qadim zamonlardan oq sunʼiy sugʻorish ishlarini idora qilish vazifasi mahalliy amaldorlar zimmasiga yuklatilgan.

Qadimgi Misr tarixi davomida firʼavnning **“ikki mamlakat sultoni”** hamda **“Yuqori va Quyi Misrning podshosi”** unvonlari, mamlakat qadimda Shimol va Janubga boʻlinishi sababli, davlat boshqaruvining ikki qismdan iborat boʻlishi ham avvallari Yuqori va Quyi Misrning uzoq vaqt ikki mustaqil davlat boʻlganligini koʻrsatadi.

Yunon yozuvlarida dastlabki Misr podshosi va mamlakatni birlashtiruvchi deb hisoblangan qadimgi firʼavn **Menes** (Mina) nomi saqlanib qolgan. Tarixiy davrning Misr firʼavnlari shajaralarida firʼavn Minaning nomi birinchi boʻlib keltirilgan. Negadada katta podsho maqbarasidan topilgan lavhada ham Mina nomi tilga olinadi. Mina Abidos yaqinidagi **Tin** degan joydan kelib chiqqan boʻlib, deltani bosib olgan va yagona Misr davlatini barpo qilgan. Mina deltadan vodiya chiqadigan yerda, yaʼni qulay va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega boʻlgan yerda poytaxt - oʻz istehkomini qurgan va unga **“Oq devor”** deb nom bergan. Keyinchalik, bu yerda Qadimgi Podsholikning poytaxti boʻlgan Memfis shahri qad koʻtardi. Firʼavn **Usefay** Sinay yarim orolida yashovchi Sharqiy qabilalar bilan kurash olib bordi. Shunday qilib, dastlabki sulola firʼavnlari Misr iqtisodiyotining rivoji uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan boy mis konlarini bosib olish maqsadida, Sinay yarim oroliga hujum qilganlar.

Misr Qadimgi Ilk podsholik davrida hukmronlik qilgan I - II sulola podsholik firʼavnlari Misrni birlashtirishga asos solganlar. III - davrida X sulola firʼavnlari podsholik qilgan davr Qadimgi Misr Podsholigi davri deb atalib, **miloddan avvalgi XXVIII-XXIII**

asrlarni o‘z ichiga olgan. Xuddi shu davrda markazlashgan, kuchli quldorlik davlati tuzilgan bo‘lib, nisbatan madaniyat yuksalgan.

Quyosh xudosi Navserra ibodatxonasida bayramlarda qurbonlikka minglab g‘ozlar so‘yilgan. Xuddi shu ibodatxonada asalari boqish, asal olish bilan bog‘liq manzaralar ham saqlanib qolgan. Bu o‘sha davrda asalarichilik mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Yangi boshoqli ekinlar kelib chiqqanligi ham Quyi va Yuqori Misrda dehqonchilik taraqqiy etganini ko‘rsatadi (meva va poliz ekinchiligi, shu jumladan, uzumchilik, zig‘ir va zaytun yog‘i ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan).

Bu davrda hunarmandchilik, xususan, yog‘ochsozlik, tosh-taroshlik, metallsozlik, kulolchilik, papirus ishlab chiqarish, to‘qimachilik kabilarning rivojlanganligini ko‘rsatadi. Yog‘ochsozlikda ishlatish uchun xom ashyo Suriya va Nubiyadan keltirilgan. Tosh kesish va toshdan buyumlar yasash ancha rivojlangan. Metallurgiya mamlakat xo‘jaligining muhim tarmog‘iga aylanib, ayniqsa, Qadimgi Podsholik davrida taraqqiy topdi. Podsholik davridayoq, misrliklar temirdan keng foydalanishgan deyishga asos bor. Temir nodir metall hisoblanib, zargarlikda keng qo‘llanilgan. **Malika Xetep-Xores** maqbarasidan topilgan ko‘plab zargarlik buyumlari ana shundan dalolat beradi. Kulolchilik, papirus tayyorlash va to‘qimachilik ham taraqqiy etib borgan.

Qishloq jamoalari va patriarxal oila Misr jamiyatining asosini tashkil etgan. Meros otadan katta o‘g‘ilga o‘tishi kerak bo‘lgan. Ko‘plab meros tortishuvlari haqida yozma xujjatlar saqlanib qolgan. Jamoa xo‘jaligi **“jajat”** va **“kenbet”** deb atalgan. **“Kenbetlar”** asosan oila huquqi, merosxo‘rlik masalalarini hal qilgan. Joylarda sud, xo‘jalik va ma‘muriy hokimiyat mavjud bo‘lib, ular oldi-sotdi ishlarini hal qilgan, hamda amaldorlarni kuzatib turgan, sun‘iy sug‘orish tarmoqlarini nazorat qilgan. Jamoa boshliqlari keyinchalik davlat amaldorlariga aylangan.

III va IV sulola fir‘avnlari davrida Misr	Xo‘jalik va savdo-sotiqning taraqqiy etishi, quldorlik kuchayishi, bosqinchilik urushlari, harbiy yurishlar mulkiy tabaqalanishni yanada tezlashuviga olib keldi. Urushda olingan o‘ljalarning katta qismi fir‘avn va amaldorlar qo‘lida to‘plangan. Bu
---	---

davrda **Gerodot** ma'lumotiga ko'ra, *“ehromlar qurilishida minglab qullar va kambag'allar ishlagan”*.

III va IV sulola fir'avnlari Qadimgi Misr tarixida katta o'rin tutgan. Ular davrida Misr qudratli markazlashgan davlatga aylangan. III sulolaning birinchi fir'avni **Joser** o'z podsholigi davrida Misrning shimoliy-Sharqiy va janubiy hududlarida urushlar olib borgan. Sinay yarim orolidagi qadimgi mis konlari yaqinida **Joserning** bu yerda yashagan qabilalar ustidan qozongan g'alabasini tasvirlovchi suratlar saqlanib qolgan. Nubiyani bosib olish biroz qiyin kechgan. Shu sababli **Joser** Misrning janubiy viloyatlarini mustahkamlash maqsadida Asvondan tortib to Filagacha devor qurishga majbur bo'lgan.

Fir'avn **Snofru** ham istilochilik siyosatini yuritishi natijasida Sinay yarim orolidagi mis konlari batamom Misr tasarrufiga o'tgan. Uning bu g'alabasi *Vodi-Mag'xaradagi qoyalarda* saqlanib qolgan suratlarda aks etgan. Janubdagi urushlarda ham **Snofru** muvaffaqiyatga erishib, uning «Palermo toshidagi» davlat yilnomasida Nubiyadan **7 ming asr** va 200 ming qoramol va qo'y-echki keltirganligi aytiladi.

IV sulola fir'avni **Xufuning** g'alaba relyefi saqlanib qolgan. Quyidagi qisqa yozuv buning siyosiy ma'nosini aniq ifodalab beradi: *“Xnum-Xufu”*. Sinay va Nubiyadan Misrga ko'plab qullar keltirilgan. III va IV sulola fir'avnlari qurdirgan ehromlar davlatning yuksak qudrati ifodasidir.

Birinchi yirik ehrom Joser tomonidan uzun zinapoyasimon shaklda qurilgan bo'lib, balandligi 60 metrni tashkil etadi. Bu maqbara atrofida olib borilgan qazilmalar natijasida bu yerdan murakkab me'morlik inshooti topilgan. Bezatilgan ustunlar ajoyib va o'ziga xos. Joser haykali xarobalari ichidan topilgan yozuvlarda o'sha davrning bosh me'mori, oliy amaldor Imxotebning nomi ko'plab uchraydi. Butun bir qoyadan tarashlab yasalgan ulkan sfinks, **Xufru, Xafra va Menkavr ehromlari** III va IV sulola fir'avnlarning qudratini hozirgi avlodlarga ham namoyon etib turibdi.

V va VI sulolalar
davrida Misr

V sulolaning dastlabki III fir'avni **quyosh xudosi Raning** nikohi natijasida mo'jizaviy tug'ilganliklari, bu fir'avnlarni quyosh

xudosining avlodi sifatida soʻzsiz podsholik taxtiga oʻtirish huquqiga ega boʻlganliklarini ifodalaydi. Bu afsona va shu davrga oid yozuvlarning asl nusxasi ham IV sulola davridayoq, quyosh xudosi Raga eʼtiqod kuchaya boshlaganini koʻrsatadi. V sulola firʼavnlari davrida Ra Misrning bosh davlat xudosiga aylantirilgan. Firʼavnlari **“Ra oʻgʻli”** degan yangi unvon olganlar. Memfis yaqinida V sulola firʼavnlari qurdirgan ibodatxona xarobalari, ayniqsa, Raga gisbatan eʼtiqod ayniqsa kuchayganini koʻrsatadi.

V va VI sulola firʼavnlari ham istilochilik siyosatini davom ettirganlar. Ular Liviya va Nubiyada urush harakatlari olib borganlar. Bu urushlar oddiy halq yelkasiga ogʻir yuk boʻlib tushgan. VI sulola firʼavnlari - **Pepi I** va **Pepi II** davrida Nubiyaga qarshi muvaffaqiyatli urush olib borilgan. VI sulola davrida yashagan amaldor maqbarasida Falastinga qilingan harbiy yurish haqida maʼlumotlar saqlanib qolgan.

Davlat hokimiyati Bosqinchilik siyosati quldorlar va yirik zodagonlar yanada boyishi hamda kuchayishiga olib keldi. Ijtimoiy ziddiyatlar ogʻirlashdi. Shu bilan birga idora ishlari markazlashib, nufuzli amaldorlar koʻpaydi, podsho va uning hokimiyatini ilohiylashtirishga qaratilgan puxta ishlangan mafkura yordamida firʼavnlari mavqeyi mustahkamlandi.

Sud idoralari rivoj topib, qadimgi jamoa sudlari oʻrnini podsho sudlari, podsho hakamlari egallagan. Hakam vazifasini koʻp hollarda mahalliy hokim - nomarxlar ado etgan. **“Oltita urugʻ uy”** nomi bilan mashhur boʻlgan oliy sud poytaxtda joylashgan. Oliy hakam mamlakatni idora qilishda birinchi yordamchi boʻlgan.

Qadimgi Podsholik davridagi yozuvlar maxsus harbiy mahkamaning tuzilishi va faoliyatiga oid oʻziga xos xususiyatlarni tasavvur qilish imkonini beradi. Mamlakatning harbiy kuchlariga qoʻmondonlik qilish firʼavn oilasiga qarashli kishilardan biriga topshirilgan.

Misrning nomlarga boʻlinib ketishi. Qadimgi Podsholik davrining oxirlariga kelib, ayrim nomlarda hukmdor nomarxlar butun hokimiyatni qoʻllariga olib, mustaqil siyosat yurita boshladilar. **Nomarxlar** firʼavn hokimiyati vasiyligidan chiqib boshladilar. Bularning bari firʼavn hokimiyatining zaiflashishi va markazlashgan tizimning yoʻqola borishiga sabab boʻlgan.

Nomlarda kohinlar juda katta kuch-e'tiborga ega bo'lgan. Har bir nomning o'z xudolari bo'lib, shu yo'l bilan kohinlar fir'avnga qarshi siyosat yuritganlar. Joylarda fir'avnni ilohiylashtirishga qarshi chiqib, ular mahalliy xudolar obrazini iloji boricha yuksaltirishgan. Bu intilishga mahalliy nomarlar ham qarshilik qilmaganlar, chunki markaziy hokimiyatning zaiflashuvi ularning manfaatlariga xizmat qilar edi. Iqtisodiy va siyosiy sohada markaziy hokimiyatning inqirozi natijasida Qadimgi Misr podsholigi parchalanib ketdi.

Misr o'rta podsholik davrida (**miloddan avvalgi 2250 -1750 yillar**). Markazlashgan davlatning inqirozga uchrab, parchalanishidan g'arbdagi qo'shni liviyalik qabilalar va Sharqdagi ko'chmanchilar foydalandilar. Ular Misrga bostirib kirib, uning boyliklarini talon-taroj qildilar. Qadimgi podsholikning markaziy shahri - Memfis ham inqirozga yuz tutdi. Unda hukmronlik qilayotgan VIII-sulola vakillari mamlakatni birlashtirishning uddasidan chiqa olmadilar. Yuqoridagi sabablar mamlakatning siyosiy jihatdan qaytadan birlashtirilishini taqozo qilardi, natijada, Misrning kuchli viloyatlari o'rtasida davlatning birligini tiklash uchun kurash boshlandi¹.

Geliopol va Bu shaharlar jug'rofiy jihatdan qulay Fiva o'rtasidagi joylashganligi uchun ham, mamlakatning kurash iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. Misrdagi siyosiy va iqtisodiy voqyealar mamlakatni qayta tiklash zaruratini yuzaga keltirdi. Misrni qaytadan birlashtirish uchun ham shimolda, ham janubda kurash boshlandi. Geliopol va Fiva shahri hokimlari Misrda ustun kelish va unga hukmronlik qilish uchun **miloddan avvalgi III ming yillik** o'rtalarida kurash boshlab, ertami - kechmi o'zaro to'qnashishi muqarrar edi.

Dastlab, siyosiy kurashni Geliopol hokimligi boshlab berdi. Misr bo'linib borayotgan davrda markaziy hokimiyat zaiflashgan sari Geliopol hokimlari butun Misrni o'z tasarrufiga olishga intildi. **Xeti-Meri-ib-Ra** Misrni qaytadan birlashtirib, Misr fir'avnlarning Geliopol (umumiy hisobda to'qqizinchi) sulolasiga asos solgan **Xeti 1** (Axtoy)

¹ A. Pankratova, Konferentsiya chitatelei zhurnala "Voprosty istorii", 1956, vi, 2, p. 213; quoted in R.D.

Markwick, Rewriting History in Soviet Russia. The Politics of revisionist Historiography, 1956-1874, Basingstoke 2001, p. 4.

Misrni birlashtiribgina qolmasdan, balki Qadimgi Podsholik fir'avnlarning istilochilik siyosatini tiklashga ham urindi. Geliopol podsholari shimoldagi nomlarni birlashtirib, liviyaliklarni va Osiyo ko'chmanchilarini mamlakatdan surib chiqardilar. Ular o'zlarini Yuqori va Quyi Misr hukmdorlari deb e'lon qildilar. Biroq IX-X sulola vakillari bo'lmish Geliopol podsholari hokimiyati mustahkam emas edi.

Geliopol va Fiva hukmdorlari o'rtasidagi kurashda oxir-oqibat Fiva hokimiyati ustunlik qildi. Kuchli Fiva hokimlari Nubiyaning moddiy boyligi va ishchi kuchidan foydalanib, janubiy Misrni o'z atroflariga birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu kurashda Fiva podshosi Mentuxatep uzil-kesil g'alaba qozonib, yagona Misr davlatini qayta tikladi. Natijada, **Mentuxatep** Misr fir'avnlarning XI-sulolasiga asos soldi¹. Shu tariqa miloddan avvalgi **2250 yildan 1750 yilgacha** davom etgan umummamlakat miqyosidagi O'rta Podsholikka asos solinib, bu davrda 11, 12 va 13-sulola firdavilari podsholik qildi.

O'rta podsholik davrida xo'jalik va ichki hayot. Misrda 11 va 12 sulola fir'avnlari davrida yana qaytadan qudratli, markazlashgan davlat vujudga keldi. Bu davlat Shimoliy-Sharqiy Afrikada hukmron bo'lishga va qo'shni mamlakatlarga o'z ta'sirini kuchaytirishga intildi. 12 sulolaning qudratli fir'avnlari zamonida Misr yana katta va kuchli davlat bo'lib birlashganidan so'ng, xususan, **Amenemxet III** davriga kelib, sun'iy sug'orish tarmoqlari ancha kengaytirilgan va mukammallashtirilgan. O'rta Podsholik davrida **Fayum vohasida**, ayniqsa, irrigatsiya sohasida katta ishlar amalga oshirildi. Bu vohada Yunonlar Marida ko'li deb atagan va alohida kanal vositasi bilan Nilga tutashtirilgan katta suv ombori mavjud bo'lgan. Irrigatsiya sohasida olib borilgan bu ishlar natijasida Fayum vohasida dehqonchilik rivoj topdi.

Savdo-sotiqning O'rta Podsholik davrida mamlakatda ichki rivojlanishi savdo-sotiq rivojlanishi bilan bir qatorda, tashqi savdo aloqalari ham taraqqiy etdi. Misr shimoliy-Sharqda Finikiya, Falastin, Ikki daryo oralig'i va Kichik Osiyo bilan savdo aloqalarini olib bordi. U tomonlardan Misrga qora

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

yog‘och, qo‘rg‘oshin, kumush, qimmatbaho toshlar, Kritdan esa dengiz kemalarida mis keltirilar edi.

Misr savdogarlari janubda Nubiya va Punt o‘lkasigacha borganlar. Ular u yerdan oltin, fil suyagi va boshqa qimmatbaho buyumlar olib kelganlar. Savdo-sotiq suv yo‘li - Nil daryosi va Qizil dengiz orqali olib borilgan. Shunday qilib, 12 sulola fir'avnlari davrida Misr Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylandi.

Kambag‘allar va qullar qo‘zg‘olonlari. Misrda kambag‘allar va qullar ko‘targan qo‘zg‘olonlar haqida bizga turli manbalardan ma'lum. Olag‘ovur yillarda shaharlarda tez-tez qo‘zg‘olonlar ko‘tarilib, ularda quyi tabaqa aholisi ishtirok etgan. Shaharda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar haqida o‘sha zamon adabiy yodgorliklarida aytib o‘tiladi. Masalan, papirus yozuvlardan birida qo‘zg‘olondan “xarob bo‘lgan” bir shahar to‘g‘risida so‘z boradi.

Fir'avn, kohin, amaldorlarning obro‘yi, oddiy xalq va qullar mehnati hisobiga oshib borgan. Mamlakatdagi ichki nizolar va fir'avnlarning bosqinchilik siyosati xalq ommasini va qullar ahvolidan yomonlashuviga olib kelgan. Xuddi ana shu davrda fir'avn va mahalliy amaldorlar jabr-zulmidan bezgan xalq mavjud tuzumga qarshi bosh ko‘targan. Bu qo‘zg‘olon **miloddan avvalgi 1750 yilda** sodir bo‘lib, unda oddiy xalq bilan birga qullar ham faol ishtirok etganlar.

Misrdagi bu voqyealar o‘sha davrga oid ikki asarda: **“Ipuser nasihatnomasi”** (344 - sonli Leyden papirusi matni) va Sankt - Peterburgdagi Ermitajda saqlanayotgan **“Noferrexu nasihatnomasi”**da o‘zining yorqin ifodasini topgan. **“Ipuser nasihatnomasi”** asarining muallifi yirik mansabdor kishi bo‘lib, u xalq ommasining harakatiga nafrat va salbiy nazar bilan qaragan.

E’tibor bering!

Ipuserdagi ma'lumotlarga qaraganda kambag‘al va qullar zodagon va a'yonlarga qarshi bosh ko‘targanlar. Quyida undan bir parcha keltirilgan: “Nasl-nasabi bo‘lmagan kishilar endi zodagonlardan farq qilmaydilar. Hokimlarning bolalari qo‘zg‘olonchilar qo‘liga asir tushgan. Ularni urib kaltaklaganlar va boshlarini devorga urib majaqlaganlar. Podsho va badavlat kishilarning mol-mulklari batamom taqsimlangan. Yer haydashga ho‘kizi va omochi bo‘lmagan dehqon endilikda butun bir podaga,

boshpanasi bo'lmagan kishilar hashamatli turar joylarga ega bo'lgan. Bitta ham qayig'i bo'lmagan kishilar butun bir kemalar flotiga egalik qilgan. Bir vaqtlar bashang kiyingan kishilar endilikda juldur kiyimda yuradigan bo'lgan. Cho'rilar bo'yinlariga oltin, kumush va asl toshlardan ishlangan zeb-ziynat buyumlarini taqib olgan, zodagon ayollar esa och yurgan. Qo'zg'olonchilar sud idorasi va mahkamalarga bostirib kirib, unda saqlanayotgan hujjatlar, soliq ro'yxatlarini ko'chalarga uloqtirib, mayda-mayda qilib yirtib tashlaganlar. Ular podsho saroyiga hujum qilib, podshoni ko'chaga haydab yuborganlar. Mamlakat boshliqlari qochib jon saqlaganlar, amaldorlar esa o'ldirilgan. Qullar quldorlarga aylangan. Bu baxtsizlik qalbimni tilka-pora qilmoqda. Oh, bu zamonning azob-uqubatlari men uchun naqadar qayg'uli". Ipuser qo'zg'olonning qancha vaqt davom etgani va qanday bostirilgani haqida ma'lumot keltirmagan. Ipuser qo'zg'oloni tasvirlar ekan, shunday deydi, - "Mansablar endi yo'q. Odamlar cho'ponsiz hurkigan podaga o'xshaydi."

Giksoslarning Qabila nomi bo'lmish **"giksos"** so'zi cho'l Misrga bostirib mamlakatlarining **"hukmdorlari"** (**"xekau kirishi xasut"**) degan misrcha so'zning buzib aytilishi, deb ta'riflanadi. Miloddan avvalgi XVIII asrning ikkinchi yarmida ular o'zlarining ot qo'shilgan jangovar aravalarida Shimoliy Misrga bostirib kirib, uni egallaganlar. Ular deltada Avaris (**"Xat - uarit" - misrcha, cho'llar va ajnabiy mamlakatlar xudosi Setuga bag'ishlangan shahar**) shahrini qurib, poytaxtga aylantirdilar va yuz yildan ortiq davr mobaynida Misrda hukmronlik qildilar.

Giksos hukmdorlari 15-16 sulola namoyandalari edilar. Ular shimolda Misr, Falastin, Sinay yarim oroli, Arabistonning shimoliy qismi ustidan hukmronlik qilganlar, ammo Misrning janubiy viloyatlarida Fiva hukmron bo'lib qolaverdi.

Giksoslarning Misrdan haydab chiqarilishi. **Giksos** podsholari Misrda taxminan miloddan avvalgi **XVII asrdan to 1580-yilgacha** hukmronlik qilganlar¹. Chet elliklarning hukmronlik qilishi mustaqil Misr davlatini tiklashga intilgan yerli aholining qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Bundan avvalgi davrda bo'lgani kabi,

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

mamlakatni birlashtirish uchun kurash Yuqori Misrdan boshlangan, chunki mamlakatning bu qismi doimo o'zining mustaqilligini bir qadar saqlab kelgan. Giksoslarga qarshi kurash Fiva podshosi Kamesu vaqtida kuchayib, begonalar hukmronligiga qarshi ozodlik urushiga aylanib ketdi.

Kamesudan keyingi Fiva podsholaridan biri **Yaxmos I** giksoslar ustidan uzil - kesil g'alaba qozonib, XVIII Fiva sulolasiga asos solgan. **Yaxmos I** ning harbiy faoliyati uning katta mansabdorlaridan biri Yaxmos Iabana o'g'lining bizning zamonamizgacha saqlangan tarjimai holidan ma'lum. Bu tarixiy hujjatda **Yaxmos I** ning chet elliklar bilan olib borgan urushi davrlarga bo'lib ta'riflangan. Misr qo'shinlari giksoslarning deltadagi asosiy tayanch punkti Avaris shahrini qamal qiladilar. Giksoslarning qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, misrliklar ularning qo'shinlarini tor-mor qilib, Misrdan haydab chiqarishga muvaffaq bo'ladilar. Misr qo'shinlari giksoslarni ta'qib etib, Osiyoga ham kirib borib, giksoslarning Old Osiyodagi hokimiyat markazlarini egallab olishga intilganlar.

O'sha vaqtdan qolgan yozuvlarga qaraganda, Misr qo'shinlari to Finikiya va Suriya viloyatlarigacha kirib borganlar. **Yaxmos I**, ayniqsa, Nubiyada katta muvaffaqiyat qozongan. U Nubiyaning ilgari Misr podsholari qo'l ostida bo'lgan viloyatlarini yana qaytadan istilo qilgan.

U davrda katta ibodatxonalarga qarashli yirik hunarmandchilik ustaxonalari ko'p edi. **Nofer Ronpet maqbarasi** devorlarida (19 sulola davri) 20 dan ortiq kishi ishlayogan Amon ibodatxonasi ustaxonasi tasvirlangan¹. Ayniqsa, vazir Rexmer maqbarasi devorlarida saqlangan tasvirlar muhim ahamiyatga ega. Bu hunarmandlar orasida chet ellik qullar ham bo'lgan. Bunga **Rexmer maqbarasidagi** tasvirlar va yozuvlardan ishonch hosil qilish mumkin. **Tutmos III** podsholik qilgan davrda vazir, poytaxt boshlig'i va oliy hakam mansablarini egallagan bu oliy amaldor ayni paytda "**Amon ibodatxonasi boshlig'i**" hamda "**Amonning Fivadagi barcha ishlari mudiri**" vazifasini ham ado etgan. Shuning uchun Amon ibodatxonasidagi barcha ustaxonalar unga bo'ysungan va shu sababdan bu ustaxonalar uning maqbarasi devorlarida juda batafsil tasvirlangan.

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

Savdo Bu davrda misrliklar bir qator yangi mamlakatlar, chunonchi, Kipr, Kichik Osiyo va Mesopotamiyaga savdo ekspeditsiyalari va istilochilik niyatida qo‘shin yuborganlar. Bu vaqtga kelib Sinaydagi mis konlari zahirasi deyarli tugab qolganligi sababli, misrliklar o‘zlariga zarur misning yangi manbalarini qidirishga majbur edilar. Yangi Podsholik davrida, ayniqsa, Kipr orolidan ko‘p mis keltirilar edi.

Bu davrda Misrga Kichik Osiyodan, xususan, uning **xetlar** yashagan Sharqiy viloyatlaridan temir keltirilgan. Temir o‘sha davrda Misr uchun nodir metall hisoblangan. XVIII sulola fir‘avni Tutankhamon maqbarasidan atigi bir necha dona temir buyum topilgan. Misr savdosi yana shimoliy-Sharqqa, Mesopotamiya viloyatlari tomon rivoj topa bordi. Ikki daryo oralig‘ining shimoliy-g‘arbida joylashgan Mitanni davlatidan bronza, lojuvard, gazmol, kiyim-kechak, yog‘, jang aravalari, otlar va qullar keltirilsa, Bobildan kumush, yog‘ochdan yasali oltin va fil suyagi bilan bezatilgan qimmatbaho buyumlar olib kelingan. Misr va Ossuriya o‘rtasida ham savdo aloqalari o‘rnatilgan. Yozma manbalardagi ma‘lumotlarga qaraganda, misrliklar Ossuriyadan jang aravalari, otlar va lojuvard keltirganlar.

Yangi Podsholik davriga xos xususiyatlar. Yangi Podsholik davrida davlatni idora qilishning murakkab tizimi tarkib topdi. Markazlashtirilgan idora tizimi tobora kuchayib bordi. Mamlakat Shimoliy va Janubiy Misrni o‘z ichiga olgan ikkita katta ma‘muriy viloyatga bo‘lindi: viloyatga fir‘avning maxsus hokimi tayinlanib, bu idora qilish ishini yanada markazlashtirish imkonini berdi. Mamlakatni idora qilish ishi to‘liq podsho amaldorlari qo‘liga o‘tdi.

XVIII sulola hokimiyatining oxirida Misr qo‘shini ikki qismga bo‘linib: bir qismi - janubda, ikkinchisi - shimolda joylashgan edi. XIX sulola davrida esa, qo‘shin va harbiy qismlar bir necha bo‘limlardan iborat bo‘lgan. Harbiy qismlarga o‘sha davrdagi bosh xudolar ismlari berilgan.

XVIII, XIX hamda XX sulola fir‘avnlari xukmronlik qilgan davrni o‘z ichiga olgan Yangi Podsholik davrida (**miloddan avvalgi XVI - XI asrlar**) Misrda xo‘jalik sohasi yanada taraqqiy etib bordi. XVIII sulola davridan e‘tiboran texnika sohasida birqadar taraqqiyot ko‘zga tashlana boshlaydi. XVIII sulola davridagi hunarmandchilik

to'g'risida Karnakdagi Tutmos III ibodatxonasidan chiqqan hamda shu podshoning nomi yozilgan bolta, poytesha va kesish asboblari aniq tasavvur beradi.

Yangi Podsholik davrining dastlabki podshosi **Yaxmes (Amasis) I** giksoslar ustidan uzil-kesil g'alaba qozongan. **Yaxmos I** XVIII Fiva sulolasiga asos solgan podsho hisoblanadi. **Yaxmos I** ning harbiy faoliyati bizga uning yirik mansabdorlaridan biri - (Yaxmes) Iabana o'g'lining zamonamizga qadar yetib kelgan tarjimai holidan ma'lum. **Yaxmos I** dan keyingi podsholar Falastin va Suriyaga muttasil bosqinchilik yurishlar qila boshlaganlar. Ayniqsa, **Tutmos III (miloddan avvalgi 1525-1491 yillar)** katta istilochilik urushlari olib borib, uzoq davom etgan podsholigi davrida Suriyaga ko'p marta qo'shin tortgan. **Tutmos III** qattiq kurash natijasida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Suriya, Finikiya va boshqa yerlarni egallab, Misr hukmronligini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. **Tutmos III** olib borgan bu istilochilik urushlari Osiyoda Misr ta'sirini shu qadar kuchaytirib yubordiki, Bobil, Ossuriya va Xett kabi Osiyoning bir qancha podsholari Misrga xiroj to'lay boshladilar.

XVIII sulola fir'avnlari ichida so'nggi istilochilardan biri **Amenxotep II (miloddan avvalgi 1491-1465 yillar)** edi va u Suriya, Falastinga yurishlar qilib, ko'plab oltin, mis, yilqi va jang aravalarini qo'lga kiritgan.

XVIII sulola fir'avnlari ichida so'nggi istilochilardan biri **Amenxotep II (miloddan avvalgi 1491-1465 yillar)** edi va u Suriya, Falastinga yurishlar qilib, ko'plab oltin, mis, yilqi va jang aravalarini qo'lga kiritgan.

Misr fir'avnlari Nubiyani ham Nilning to'rtinchi ostonasiga qadar bosib olganlar, shu bilan birga, bu yerda **Tutmos III** ko'proq faollik ko'rsatgan.

Bosqinchilik siyosatidan voz kechish fir'avn **Amenxotep IV** hukmronligi davrida ifodasini topdi; u o'z faoliyatini Misr aholisining keng tabaqalariga suyanagan holda yuritgan.

Sulolaning 10 fir'avni - **Exnaton, Amenxotep III** va **malika Tining** o'g'li bo'lib, **Amenxotep IV** nomi bilan ham ma'lum va mashhur. Amenxotep IVning dinni isloh qilishi Misr tarixida ro'y bergan yirik voqyeadir. Bu islohotni amalga oshirishdan maqsad, ko'p

xudolarga sig‘inishdan iborat qadimgi an‘anaviy din shaklini yagona quyosh xudosi sig‘inish bilan almashtirishdan iborat edi.

XVIII sulola fir‘avnlari olib borgan istilochilik urushlari bir guruh saroy zodagonlarining boyishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, ibodatxonalar va Amon kohinlari katta boylik orttirdilar. Taxt boshiga **Amenxotep IV** kelganidan keyin u Fiva kohinlarining Yuqori tabaqalariga qarshi kurash boshladi. U bunda Geliopol va Memfis kohinlariga suyanishga majbur edi, chunki bu yerlarda qadimdan yagona va oliy quyosh xudosi topinish rivoj topib kelgan. **Amenxotep IV** Geliopol xudosi Ra-Goraxtaga ibodat qilishni xudo Amonga sajda qilishga qarama-qarshi qo‘ygan¹. **Amenxotep IV** hatto shunga bordiki, o‘z otasining ismini ham yodgorliklardan oldirib tashladi. **Amenxotep IV** yagona va oliy xudo - quyosh xudosi Atonga sig‘inishni amr etdi. Bu narsa podshoning o‘z nomini o‘zgartirishida ham o‘z ifodasini topdi. Fir‘avn *“Aton shu‘lasi”* ma‘nosini anglatuvchi *“Exnaton”* degan nom oldi. **Exnaton** hozirgi *Al-Amarna* degan joyda yangi poytaxt - *“Axetaton”* - *“Aton ufqi”*ni qurdirtdi.

Pirovardida diniy islohat natija bermadi. **Exnatondan** keyin taxtga o‘tirgan **Tutanxamon** Fiva kohinlariga yon berib, Amonga sajda qilishni qaytadan tikladi va hatto o‘z ismini o‘zgartirib *“Tutanxamon”* deb atashga majbur bo‘ldi. Fiva yaqinidagi *«podsho maqbaralari vodiysi»* nomini olgan vodiya **1922-yilda** ingliz arxeologi **Govard Karter** tomonidan topilgan Tutanxamon maqbarasidan naqshinkor va go‘zal ishlangan ko‘plab buyum va rasmlar topilgan.

Ramzes I (Ria-masesa) Misr qo‘shinini qaytadan tuzish va uni mustahkamlashga qaratilgan bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. Katta harbiy yurishlarga **Ramzes I** dan keyingi fir‘avn **Seti I** qo‘l urdi. U Suriyaga yirik qo‘shin tortib borgan va Megiddo tekisligiga qadar bostirib kirib, muhim yerlarni ishg‘ol qilishga muvaffaq bo‘lgan. Misr qo‘shinlari Suriya qirg‘oqlariga mustahkam o‘rnashib olishga erishgan, shubhasiz, bu hol Misrning Osiyodagi ta‘sirini kuchaytirgan.

Seti I dan keyin taxtni egallagan **Ramzes II (miloddan avvalgi XIV asr oxiri - XIII asr boshlari)** istilochilik siyosatini kengaytirdi. Urushdan maqsad Suriya ixtiyoriga o‘tgan ilgarigi Misr yerlarini

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

qaytarib olish va mamlakatning Osiyodagi avvalgi nufuzini tiklash edi. Buning uchun **Ramzes II** xetlarning Falastin, Finikiya va Suriyada joylashgan asosiy harbiy kuchlar qarshiligini sindirishi lozim bo'lgan¹.

Misr So'nggi podsholik davrida (**miloddan avvalgi 1125-525 yillar**). XIX sulola fir'avnlarning Kichik Osiyoda olib borgan davomli urushlari, xususan, xetlar bilan bo'lgan urush Misr aholisi va moddiy boyliklarini ancha kamaytirib yubordi. Misr tez orada chet el istilochilari, liviyaliklarga tobe bo'ldi. Liviyaliklar dastlab Misr qo'shiniga yollanma askar sifatida kelib qo'shilgan edilar, so'ng ularning lashkarboshilari podsho hokimiyatini qo'lga olib, XXII sulolaga asos soldilar (**miloddan avvalgi 941-821 y.**).

Iqtisodiy va Temirchilik texnikasi sohasida bir qancha ijtimoiy tuzum yutuqlarga erishdilar. Misrliklar bronzadan turli buyumlar, jumladan, nafis haykalchalarni mohirlik bilan ishlay olganlar. Bu haykalchalar kumush yoki oltin tolalar bilan jimjimador qilib bezalgan. Takushiy nomli misrlik ayolning Efiopiya - Sais davriga oid haykalchasi ana shunday texnikaning noyob namunasi bo'la oladi. Podsho **Gasebxanning** Tanisdan topilgan kumush *sarkofagi* (tobuti) metallga badiiy ishlov berish sohasida ajoyib yutuqlarga erishilganini ko'rsatadi. Temirchilik tosh yo'nish o'rnini tobora ko'proq egallay boshladi. Miloddan avvalgi VII asrga oid Dafna va Navkratis xarobalaridan: pichoq, bolta, iskana, chopqi, qirg'ich va o'q uchi kabi temir asboblar va qurol-yarog'lar topilgan. Tait nomli To'qimachilik ma'budasi va O'rta Misrda *Xejxetep ("Poki rahmat")* nomini olgan to'qimachilik kasbi xudosi bo'lib, ularga sig'inganlar².

Misr fir'avnlari o'zlaridan avvalgi XVIII - XIX sulola fir'avnlari kabi istilochilik urushlari olib borishga noqodir bo'lib qolganlari tufayli, shu sababli bu davrda qul keltirish ancha kamayib, qullar narxi oshib ketgan. XIX sulola davrida bir cho'ri 4 deben 1 kite (373,1 gramm) kumushga sotilgan bo'lsa, XXI sulola davriga kelib qul bahosi 20 deben (1820 gramm) kumushga teng bo'lgan.

¹ History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006 –p; 15-16

² Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005. Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

Ibodatxonalar, kohinlar, katta amaldorlar va savdogarlar katta-katta yerlarni egallab olganlar. Boylar dehqonlarni sotib ola boshlaganlar.

Tarixchilarning asarlarida podsho **Bakxoris** (misrcha nomi Baknerenf, **miloddan avvalgi 732 - 726 yillar**) to'g'risida xotiralar saqlangan. Ushbu podsho ayrim shaxslar tomonidan misrlik qarzdor kambag'allarni qullikka solishni ma'n qilgan va yer sotishga ruxsat bergan. **Gerodotning** so'ziga qaraganda, Misr podshosi **Yaxmos II** *“misrliklar uchun bir qonun chiqargan; bu qonunga muvofiq Misrning har bir fuqarosi o'z mablag'lari haqida har yili viloyat boshlig'iga hisobot berishga majbur bo'lgan; buni qilmagan yoki qonuniy yo'l bilan topilgan mablag' hisobiga yashayotganini isbot qila olmagan shaxsga o'lim jazosi berilgan.”* Shuningdek, Gerodot grek islohatchisi **Solon** misrliklarning ushbu qonunini ko'chirib olgani va *“Misr (shu vaqtda) g'oyat farovon yashaganligini”* ko'rsatib o'tadi. XX va XXI sulolalar zamonida liviyaliklar Misrga ko'plab ko'chib kela boshladilar. Liviya zodagonlaridan ba'zilar Misrda katta harbiy va kohinlik mansablarini egallaganlar. Harbiy qo'mondon va Gerakleopoldagi **Xershefn xudoning** bosh ruhoniysi bo'lgan liviyalik shaxsga tegishli yozuvlarda uning o'n besh avlodi shu yerda yashab o'tganligi aytiladi. Bu yodgorliklardagi yozuvga ko'ra uning ajdodi *“liviyalik Byuvava”* taxminan XXI kohinlik sulolasi zamonida Gerakleopolga ko'chib kelgan.

Liviyalik mazkur zodagonlar urug'idan biri podsho oilasi bilan qarindosh-urug' ham bo'lgan. Ulardan biri Sheshonk podsholik taxtini qo'lga olib, XXII sulolaga asos solgan. Liviyaliklar sulolasidan chiqqan podsholar Fiva kohinlari bilan hisoblashibgina qolmay, balki ko'pincha ularga tayanib ish ko'rishga majbur bo'lganlar.

Yangi sulola hukmdorlari avvalgi podsho xonadoni bilan qarindosh bo'lib, ularning farzandlari Fiva ibodatxonalarida bosh ruhoniylar lavozimlarini egallagan. Liviyaliklar sulolasiga asos solgan Sheshonk I o'zini XVIII - XIX sulolalarga oid buyuk istilochi fir'avnlarning davomchisi qilib ko'rsatib, **Karnakdagi ibodatxona** yonida *“Bubastislar hovlisi”* va katta minorani qurdirgan¹. Bu yerda saqlanib qolgan o'ymakor naqshlarda Sheshonkning Falastinda qozongan g'alabalari tasvirlangan. Ayniqsa, 156 ta osiyolik asirlarni

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

arqonda olib ketayotgan **Amon xudosining** ulkan tasviri diqqatga sazovor, bu asirlar, chamasi, Misr qo'shinlari ishg'ol qilgan Falastin shaharlarining ramzi hisoblanadi. Qadimgi Falastin shaharlarining ro'yxatida bir necha mashhur shaharlar nomi (xususan, Taanaxa, Shunema, Bet - Bana va Megiddo) saqlanib qolgan. Sheshonk I o'z sulolasini mavqeyini mustahkamlash uchun deltadagi Bubastis shahrini davlat poytaxtiga aylantiradi. Shu sababli u asos solgan sulola Bubastislar sulolasi deb yuritiladi.

Sais hokimlarining **626-yildan** boshlab Saisni **Psamtik** idora Misrni birlashtirishi qilgan. **Ashshurbanipal** yordamiga tayanib ish ko'rgan va Ossuriyaliklarning sodiq ittifoqchisi bo'lgan Psamtik butun Misrni o'z qo'li ostida birlashtirib, yangi XXVI sulolaga asos soladi va bu sulola tarixda Sais sulolasi nomini oladi. Mazkur sulola fir'avnlari zamonida Misr bir qadar ravnaq topgan. umuman, bu davr Misr davlati va madaniyatining inqirozga yuz tutgan davri hisoblanadi.

Bu vaqtga kelib Misr tashqi savdosi ancha taraqqiy etgan. Fir'avn **Nexo** davrida Nil daryosini Qizil dengiz bilan tutashtiradigan kanal qurish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borilgan. Bu kanal qurilishi bilan Misrdan Nubiyaga va xatto undan naridagi Puntga to'g'ridan-to'g'ri boradigan suv yo'li ochilar edi. Sais fir'avnlari ko'p jihatdan Kichik Osiyo va Gretsiyadan yollanib keltirilgan askarlarga tayanib ish ko'rishga majbur edilar; bu yollanma askar Misr qo'shinlarining asosini tashkil qilgan bo'lsa ajab emas.

Nexoning vorisi **Psamtik II (miloddan avvalgi 595 - 589 y.)** ajdodlariga xos bo'lgan filellin (ya'ni ellinchilik) siyosatini davom ettirdi. Uning zamonida Misrning Gretsiya bilan o'zaro aloqalari avvalgidan ham mustahkamlandi. Sais davrining so'nggi podshosi - **Uax-ib-Ra (Apriy)** ushbu siyosatni davomchisi bo'ldi. Bu podshoning greklarga moyillik siyosati Misr aholisi o'rtasida ko'plab noroziliklar paydo qildi. Uning podsholik davrida lashkarboshilardan biri-**Yaxmos (Amazis)** boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilib, podsho **Uax-ib-Raning**, asosan, grek yollanma askarlaridan iborat bo'lgan qo'shinlari tor-mor keltirilgan. Hokimiyatni qo'lga olgan **Yaxmos II** kirenalik grek qiziga uylanib, Samos mustabid hokimi **Polikrat** hamda Liviya

podshosi **Krez** bilan juda yaqin munosabatda bo'lgan¹. **Yaxmos II** grek ibodatxonalariga mo'l-ko'l in'omlar yo'llab, greklarni o'z tomoniga og'dirgan va ularning o'zini qo'llab-quvvatlashiga erishgan. **Yaxmos II** ning faol tashqi siyosati Babil yozuvlaridan birida aks etgan. Unda Misr qo'shinlarining hujumlari haqida qayd etilib, "**Amasu**" ismli shaxs tilga olinadi.

Lekin bu davr mustaqil Misr davlatining so'nggi yillari edi. Sharqda Eron davlati ravnaq topib, butun qadimgi Sharq dunyosini o'z hukmronligi ostida birlashtirishga harakat qilardi. Eronning juda yirik qo'shini hujumini qaytarish uchun Misrda yetarlicha kuch yo'q edi, mamlakat ancha zaiflashib qolgandi. **Yaxmos II** vafotidan so'ng, oradan ko'p o'tmay, **525 yilda**, Eron podshosi Qo'mbiz Misr yerlariga bostirib kirib, **Peluziya** yonidagi jangda Misr qo'shinlarini tor-mor keltirdi va **Psamtik III** ni taxtdan ag'dardi. Shunday qilib, bir vaqtlar shon-shuhratga burkangan, lekin tanazzulga yuz tutgan qadimgi fir'avnlr podsholigi Eron tomonidan istilo qilinadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Misr paydo bo'lishida uning geografik mavqei qanday rol o'ynagan?
2. Qadimgi Misrda siyosiy-ijtimoiy tizim qanday ko'rinishda bo'lgan?
3. Qadimgi Misrda siyosiy - ijtimoiy tuzum qanday ko'rinishda bo'lgan?
4. Ehromlar qurilishi tarixidagi muammolar
5. Qadimgi Misrda O'rta podsholik inqirozga uchrashining qanday sabablari bor?
6. Xo'jalikdagi qaysi o'zgarishlar Yangi Podsholik davrida ro'y berdi?
7. Misrning zaiflashuvi va eronliklar tomonidan bosib olinishiga nimalar sabab bo'ldi?

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002 —стр: 14-18.

4-mavzu. Qadimgi Misr manbalari va tarixnavisligi. Qadimgi misr madaniyati

Reja:

1. Qadimgi misr manbalari va tarixnavisligi.
2. Misrshunoslikning rivojlanishi.
3. Qadimgi Misr madaniyati.
4. Diniy va diniy-falsafiy she'riyat.
5. Ilmiy bilimlar.

Tayanch iboralar: *Aton, "Rozett toshi", Axetaton, "Nekropol", "Indamaslar shahri", "O'lik shaharlar", sarkofag, Lepsius, Kohinlar, O'liklar kitobi, Izida, Iba, O'liklar shahri*

Qadimgi Misr tarixi, madaniyati, turmush tarzi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini o'rganishda antik mualliflarning tarixiy asarlari, arxeologik qazilmalar, misr yozma yodgorliklari, toshlardagi bitiklar, moddiy-madaniy yodgorliklar va boshqa manbalar muhim ahamiyatga ega.

Qadimgi Misr tarixiga oid manbalarni asosan to'rt guruhga bo'lish mumkin:

1. Antik mualliflarning tarixiy asarlari
2. Arxeologik qazilmalar.
3. Misr yozma yodgorliklari.
4. Moddiy-madaniy yodgorliklar.

Miloddan avvalgi **VII asrda** Yunon savdogarlari, yollanma kishilar turli yo'llar bilan Misrga kelib, Nil daryosi vohasida (Nil daryosi quyi o'zanlarida) jamoa-jamoa bo'lib joylashganlar. Ayni vaqtda XXVI sulolalar davrida hukmronlik qilgan Misr fir'avnlari Misr qo'shiniga ko'plab yunonlarni jalb etganlar. Yuqorida aytilganidek, ko'plab yunon savdogarlarining Misrga kelishi, savdo aloqalarining rivojlanishiga, hamda Misrda yunon koloniyalarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Qadimgi yunon faylasuf va siyosiy arboblari - **Fales, Anaksimandr, Demokrit, Solon** va boshqalar Misr xalqining qadimiy tarixi, madaniyati, ilm-fanda erishgan yutuqlari bilan yaqindan tanishish maqsadida Misr bo'ylab sayohat qilishgan. Yunon

tarixchi va geograflari asarlarida Qadimgi Misr tarixiga oid ko‘plab qiziq ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Miloddan avvalgi **V asrda** yunon tarixchisi **Gerodot** butun Misr bo‘ylab sayohatga chiqib, ko‘rganlari, bilganlari hamda eshitganlari asosida yirik tarixiy asar yozdi.

Qadimgi Misr dinini o‘rganishga **Xeroneyalik Plutarx** ulkan hissa qo‘shgan. Plutarx (**milodiy 50-125 yillar**)ning *“Izida va Oziris”* to‘g‘risidagi kitobida Misrda butun antik dunyoda keng tarqalgan xudoga ishonish haqidagi afsonalar o‘z ifodasini topgan. **Plutarx** kitobidagi ma'lumotlar Misr manbalari tomonidan ko‘p jihatdan o‘z tasdig‘ini topadi. Masalan, **Plutarx** Misr manbalariga asoslangan holda Ozirisni Nilga namlik, suv bergan va uni o‘zida mujassamlashtirgan Allohdir deydi. Uning so‘ziga ko‘ra *“donishmand kohinlar Nilni nafaqat Oziris, balki Tifon dengizi deb ham atashgan”*.

Qadimgi Misr haqida yozgan antik mualliflar ichida tarixchi **Manefon (miloddan avvalgi IV - III asrlarda yashagan)** alohida o‘rin tutadi. **Manefon** Misrning birinchi ruhoniylarini bo‘lib, **Ptolomey 1, Soter va Ptolomey II Filadelf** podsholigi davrida yashab o‘tgan.

XVIII asrning o‘rtalarida **Pokok, Norden va Bryus** kabi Yevropa olimlari Misrga yo‘l olib, Fiva vodiysidagi qadimiy ehromlar, podshohlar qabrlari haqida yozib qoldirishgan¹. Biroq G‘arbiy Yevropa ilmiy doiralari birinchi marta, Misr madaniyati bilan **1798-yilda Napoleon Bonapartning** Misrga ekspeditsiyasi tufayli ozmi - ko‘pmi yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘lishgan.

Napoleon Bonapart ekspeditsiyasi tarkibida turli olimlar, arxeologlar bor edi. Ushbu ekspeditsiyaning ilmiy natijasi sifatida Misr tarixiga bag‘ishlangan 24 tomdan iborat bo‘lgan qadimgi ibodatxona vayronalari, ayrim manbalar (tosh, suyak, yog‘och va h.k.) ustiga bitilgan yozuvlar nusxasini o‘zida aks ettirgan rasmlar, jadvallar, qadimgi Misr yodgorliklari nashr etilgan. **Fransua Shampolon (1790-1832-yil)** edi. U yunon, lotin, kopt tillarini yaxshi bilar, arab tilida erkin so‘zlashar va yozardi. 20 yoshida til bo‘yicha doktorlik ilmiy darajasini olishga muvassar bo‘lgan edi.

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

F. Shampolon Napoleon ekspeditsiyasi olimlari ishini davom ettirish maqsadida **1828-yilda** Misrga arxeologik ekspeditsiya uyushtirdi. U Misrda bir yarim yilcha ishlab, arxeologik qazilmalar olib bordi, turli qadimiy yozuvlardan nusxalar ko'chirdi. Iqtidorli olimning fidokorona mehnati tufayli "Misr va Nubiya yodgorliklari"¹ deb nomlangan qator qimmatli albomlar yaratildi.

Arxeologik qazilmalar va qidiruvlar natijasida **Lepsius "Misr va Nubiya yodgorliklari"** nomi bilan noyob, monumental albomlarni nashr etdi.

Tashabbuskor, jasoratli olim Marriet butun hayotini Misrdagi arxeologik tadqiqotlarga bag'ishladi. U birinchi bo'lib Misr hududida yalpi arxeologik qazilmalarni amalga oshirishga kirishadi. Marriet Memfis yaqinidagi muqaddas buqalar - opislar mozorida, Sakkaradagi qadimgi podsholik davridagi qabrlarda, Abidos va Fivadagi XIX sulola davriga oid ibodatxonalar (ehromlar)da qazish ishlarini amalga oshirdi. Shampolon va Marrietning arxeologik ishlarini fransuz misrshunosi **Gaston Maspero (1846 - 1916 yillar)** davom ettirdi. U V - VI sulolalar davrida barpo etilgan **Sakkara ehromlarini** sinchiklab o'rganib chiqdi. Piramidalar ichidagi qabrlar ustiga bitilgan g'aroyib diniy matnlarni topdi. Ularni "Sakkara piramidalaridagi yozuvlar" nomi bilan nashr etdi.

Fiva yaqinidagi Dayr - al-Bahrida joylashgan maxfiy yerlarda Yangi Podsholik davridagi mashhur fir'avnlarning o'ttizga yaqin mo'miyolangan jasadlarini topdi. Maspero Misrning turli joylarida ko'plab arxeologik qazilma ishlarini amalga oshirdi Misr qadimiy yodgorliklarini o'rganish, nashr etish va ularni muhofaza qilish ishlarini tashkil etdi. **XIX asr oxirida "Misrni tadqiq etish fondi"** tashkil topdi.

Ayni paytda Misrda ancha yirik arxeologik qazilmalarni amalga oshirgan de Morgan arxaik davri yodgorliklarini kashf etdi. Nevill ismli olim Malika Xatshepsut ibodatxonasini sinchiklab o'rgandi.

¹ Sezgin F., Mathematical Geography and Cartography in Islam and their Continuation in the Occident III (volume of Maps), being an English version of vol. XII, Geschichte der arabischen Wissenschaften, Frankfurt am Main 2000.

Ingliz qadimshunosi Flinders Petri ham butun umrini (**1853-1942-yillar**) arxeologik izlanishlarga bag'ishladi. Amerikalik misrshunos Reysner¹ esa Xufu piramidasi atrofida joylashgan qabrlarni o'rganib, shu jumladan qadimgi Misr podsholigi davrida yashagan ayol podsho qabrini ham tadqiq etdi.

XVII asrda Kirxer qator ilmiy asarlar yaratib, o'z asarlarida qadimgi Misr yozuvlari ma'nosini noto'g'ri izohlaydi. Ushbu yozuvlardagi har bir belgi butun so'z yoki tushunchani bildiradi, deb tushuntiradi. Uning xizmati shundaki, Kirxer kopt tilini qadimgi Misr tilining avlodi deb to'g'ri e'tirof etgan. Tomas Yung Misr yozuvida fonetik belgilar borligini aniqlab, hatto bir nechta nomlarni aniqlashga ham erishdi.

Misr iyerogliflari sirining uzil-kesil ochilishi fransuz olimi **Fransua Shampolon** nomi bilan uzviy bog'liq. **Napoleon Bonapartning** Misrga qilgan ekspeditsiyasida ishtirok etgan askarlar chuqur qazib turib, toshga duch kelishadi. Ular toshni xazina solingan sandiq bo'lsa kerak, deb o'ylashadi... Olimlar plitaning quyi qismida bitilgan yozuvlarni osonlikcha o'qishadi. Matnning bir qismi yunon tilida yozilgan bo'lib, plita qo'yilgan yerga nisbat berilib "**Rozett toshi**" deb atalgan. Rozett toshiga o'yib yozilgan yozuv miloddan avvalgi **203-yilda** taxtga o'tirgan **Ptolomey V** ning sha'niga yozilgan edi.

1808-yili Shampolon Rozett toshiga bitilgan yozuvni o'qishga kirishdi. Uzoq davom etgan mashaqqatlar, izlanishlar natijasi o'laroq, olim **1822-yili 17-sentyabrda** Parij Fanlar Akademiyasi majlisida "**Rozett toshi**" yozuvlari haqida ilmiy ma'ruza qildi².

Misrning tarixiy xronologiyasini aniqlashda «**Turin podsho papirusi**» nomini olgan yozma manba katta ahamiyatga ega. Chunki bunda XVIII sulolagacha bo'lgan davrlarda fir'avnlarning hukmronlik qilgan yili, oyi va kunlariga qadar aniq ko'rsatilgan. Misr hukumatining XVIII sulola davridagi muvaffaqiyatli tashqi siyosati Misr poytaxti **Axetaton** davlat arxividan topilgan mixxat hujjatlarida

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

² World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

o'z aksini topgan. Tarixdan **Axetaton** arxivi fir'avn Exnaton tomonidan barpo qilinganligi ma'lum.

Bu hujjatlarda Misr fir'avnlari Old Osiyo davlatlari podsholari Suriya, Falastin hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalariga oid matnlar aks ettirilgan. Misrning XIX sulola davri diplomatiyasi tarixini o'rganishda Ramzes II ning Xett davlati podshosi **Xattushil** bilan tuzgan sulh Shartnomasi jiddiy ahamiyatga molik.

Misrshunoslikning Misrshunoslikning rivojlanishiga G'arb olimlari, rivojlanishi chunonchi nemis olimlari **G. Brugsh, R. Lepsius**, fransuz olimlari **F.Shampolon, Deveria, de-Ruje** va **Shaba**, italiyalik olim **Rozellini**, ingliz olimi **Berch** katta hissa qo'shdi. Fransuz olimi **G.Maspero** ham misrshunoslik rivojiga ulkan hissa qo'shdi. U misrshunoslikda tarix, filologiya va arxeologiya ilmlarini birga qo'shib olib bordi. Maspero o'zining *"Klassik Sharq xalqlarining qadimgi tarixi"* fundamental asarida birinchi bo'lib, qadimgi Misr tarixi va madaniyatini hamda klassik Sharq xalqlari, ya'ni Shimoliy-Sharqiy Afrika va Old Osiyo xalqlari tarixiy taraqqiyotini keng doirada uzviy bog'liq tarzda o'rgandi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Erman va Zete qadimgi misr tili muammosiga bag'ishlangan qator ilmiy asarlar yaratgan bo'lsalar, **Erman** va **Ranki** ushbu tilga oid besh tomlik fundamental asar chop etishdi. Angliyalik misrshunos **A.Gardner** misr tili grammatikasini ishlab chiqdi.

Rus misrshunosligiga asos solgan yirik olim, akademik **B.A.Turayev (1868 - 1920 yillar)** ko'plab hujjatlarga tayanib *"Qadimgi Sharq tarixi"*ni yozdi. **B.A.Turayev** ilmiy faoliyatining eng katta yutug'i shundaki, u butun Sharq olamini yaxlit - yagona madaniy-tarixiy jarayon sifatida o'rgandi. **V.S. Golenishyev (1856 - 1947 yillar)** Misr bo'ylab bir necha marta sayohat qilib, ko'plab arxeologik qazilmalarni amalga oshirdi, qadimgi Misrga oid talaygina qimmatli kolleksiyalarni izlab topdi. Bu kolleksiyalar keyinchalik Moskva tasviriy san'ati muzeyida qadimgi Sharq yodgorliklari bo'limining asosini tashkil etdi.

Keyingi yillarda misrshunoslik fani rivojiga **V.V.Struve, V.I.Avdiev, R.I.Rubinshteyn, D.G.Redder, M.E.Matye,**

I.M.Dyakonov kabi qator ulkan misrshunos olimlar katta hissa qo‘shishdi.

Misrda madaniyatning rivojlanishi. Qadimgi podsholik davrida Misr madaniyati juda katta yo‘lni bosib o‘tdi. Misrliklar qudratli ilohiy fir‘avnlr va betakror buyuk donishmandlar: Imxoteb, Kagemni va Ptaxxoteblar davri Misr madaniyatining oltin asri nomini olgan.

Quyoshga topinish. Misrliklar juda qadimdan quyoshga sig‘inganlar. Quyoshga topingan eng qadimgi shahar markazi Iunu bo‘lib, greklar uni **“Quyosh shahri”** - Geliopol deb ataganlar.

Podshoni ilohiylashtirish. Podshoni ilohiylashtirish qadimgi podsholik davrida o‘zining aniq ifodasini topdi. Juda katta maqbaralar - piramidalar qurilib, ular xudoga tenglashtirilgan fir‘avning kuch-qudratini namoyish qilgan.

Qadimgi Misr Misrda me'morchilik juda erta taraqqiy etgan. me'morchiligi Qadimgi podsholik davrida fir‘avnlr va katta zodagonlar o‘zlari uchun maqbara, saroy va ibodatxonalar qurdirganlar. Ular ichida, ayniqsa, Misr ehromlari diqqatga sazovor. Sakkaradagi Joser maqbara ehromi ular ichida eng qadimgisi bo‘lib, zinasimon shaklda qurilgan.

Yozuv. **M.A.Garyayev** o‘zining **“Еноху в зеркале нисм”** nomli kitobida ta'kidlashicha, papirus tarixi ming yillardan uzoqroq, ya'ni qadimgi Misr podsholik davriga taqaladi.

Papirus xuddi nilufar guli kabi Misr timsoli bo‘lgan. Papirus o‘simligining bir-biriga chirmashib ketgan poyalari Yuqori va Quyi Misr birligini ifodalagan.

Effu ibodatxonasining **Ramzes II** ibodatxonasi ostidagi maqbaradan **“Kitoblar ro‘yxati solingan qutilar”** topilgan. Oddiy papiruslarning eni 20-25 sm bo‘lgan. YOg‘och quti ichidan papirus hamda qamish bog‘lamlari chiqqan. Papiruslarning navlari turli - tuman bo‘lib, ular yozishdan tashqari turli buyumlarni o‘rash uchun ham ishlatilgan. Shuningdek kartonga o‘xshash qog‘ozlar bo‘lgan.

Misrda tashqi ko‘rinishi o‘xshash bo‘lmagan ikki xil yozuv: **iyeratik** (ish, hisobot va hujjatlar uchun) va **iyeroglifik** - (tantana va marosimlar uchun) yozuvlar ishlatilgan.

Motam-ma'raka marosimlari. Kohinlar marhumning go‘yo **“narigi dunyoda o‘z oilasi bilan qovushishi”**, **“oxiratning noz-ne'matlaridan bahramand bo‘lishi”** va unda **“Xudoning azobiga**

duchor bo‘lmaslik” imkonini ta'minlovchi maxsus duo va sehrlar o‘ylab chiqarganlar. O‘rta podsholik davrida jasad solingan yog‘och tobutlardagi duo va madhiyalar yangi podsholik davrida va keyingi zamonlarda ham papirus o‘ramlariga yoziladigan bo‘lib, oxir-oqibatda *“O‘liklar kitobi”* barpo bo‘ldi¹. Ammo buni *“O‘liklar kitobi”* emas, balki *“Tirilish kitobi”* (mahshar - per - yem - xeru) deb atash to‘g‘riroq bo‘lardi. *“O‘liklar kitobi”* da hamda bu davrdagi boshqa bir qancha diniy to‘plamlar va matnlarda juda ko‘p duolar, xudolar sha'niga aytilgan madhiyalar, narigi dunyo va insonning vafotidan keyingi qismati ham bayon etilgan². O‘rta podsholik zamonidagi *“Sarkofag matnlari”* Shartli nomini olgan diniy to‘plam vujudga kelgan. Bu matnlardan asta-sekin *“O‘liklar kitobi”* yuzaga kelgan. *“O‘liklar kitobi”* ning tarkibiy qismlari va mazmuni o‘zaro nomuvofiq bo‘lib, ketma-ket kelgan ayrim boblar bir-biri bilan mantiqan bog‘lanmagan. Ya'ni mazkur diniy to‘plam betartib joylashgan turli duo, munojot, madhiya, alqov qo‘shiqlari, afsun va sehrlar yig‘indisidan iborat.

Adabiyot Misr xalqi boy badiiy ijodga egadir. O‘rta Podsholik davri mumtoz Misr adabiyotining eng rivoj topgan davri hisoblanadi. Podsho saroyidagi mashhur jodugarlar mo‘jizalari haqida to‘qilgan ertaklar to‘plamidan iborat Vestkar papirusi matni O‘rta podsholik davri oxirlariga oid. Muallif xalq ertaklari uchun xarakterli bo‘lgan afsonalardan ustalik bilan foydalanadi. Ertakdagi jodugar tirik g‘ozning bo‘ynini uzib oladi-da, so‘ng uni joyiga ulab tiriltiradi. Ertaklar to‘plami O‘rta podsholik davrida tahrir qilingan.

Sayohatmonalar Yangi adabiy janr, sayohatnoma janri, ya'ni sarguzasht romanlarining dastlabki o‘tmishdagi namunalari yuzaga keladi. *“Halokatga uchragan kema haqida hikoya”* da (Sankt-Pereburg ermitajidagi 1115 - papirus) Sharq ertaklariga xos bo‘lgan qadimgi fantastika elementlari ham saqlangan. Hikoya qahramoni o‘sha zamonning o‘rta vakili bo‘lib, u *“Podsho*

¹ Schiller F., Was heißt und zu welchem Ende studiert man Universalgeschichte? Eine akademische Antrittsrede, in “Der Teutsche Merkur”, vol. 4, pp. 105-135 (available online at de.wikisource.org; cf. p. 165-170 in this reader).

² История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

konlari” ga qilgan sayohati to‘g‘risida so‘zlaydi. Shuningdek, saroydagi fitnaga aralashib qolishdan qo‘rqib, Suriyaga qochib ketgan yirik mansabdorning *“Sinuxet hikoyasi”*¹ ham hayotiy detallarga boy hisoblanadi. Hikoya muallifi Sinuxetning safar sargardonligi va mashaqqatlarini g‘oyat go‘zal tarzda ifoda etadi.

Misr aholisi orasida yuzaga kelgan norozilik asta-sekin afsona va badiiy adabiyotga kirib kelgan. Ba'zi she'riy asarlarda narigi dunyoga ishonmaslikka, bu dunyoning butun noz-ne'matlaridan bahramand bo‘lishga chaqirilgan:

Kuningni shodlikda o‘tkaz, ey kohin
Anbardan bahra olib, tanga orom ber...
Barcha yomonlik ortingda qolsin
Jimjitlik, sukunat hukm surgan o‘lka,
Bir kuni sening ham yotog‘ing bo‘lgay.
O‘shal kun kelguncha o‘ynagil - kulgil
Ishrat qil hamisha, ko‘ngling shod o‘lgay

Tasviriy san‘at Misr san'atining eng qadimgi shakllari arxaik davrda (**miloddan avvalgi V ming yillikda**)

paydo bo‘lib, bu san‘at Misr madaniyati tushkunlikka uchragan, Misr rimliklar hukmronligi ostiga tushib qolgan keyingi davrlargacha taraqqiy etib kelgan. Arxaik davrning oxirlaridayoq, Misr san'atining o‘ziga xos xususiyatlari: ulug‘vorlik va muhtashamlilik, jiddiylik va aniqlik, deyarli geometrik konstruktivlik hamda frontallik namoyon bo‘la boshlagan. Misr san'atining bu jihatlari, ayniqsa, portretlar tasvirida realistik an'analar bilan birga qo‘shilgan.

Haykaltaroshlik ham rivojlandi. **Mentuxotep** haykali **Senusert III** ning bahaybat boshi va **Amenemxetning** bir qancha haykallari buning dalilidir. O‘rta podsholik davridagi bo‘rtma rasm va suratlar go‘yo o‘tgan va keyingi davrni o‘zaro bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib, ular Qadimgi podsholik san'atiga xos naturalizmni ham o‘zida mujassamlashtirgan. Shu bilan birga, **Medumdagi** bo‘rtma rasmlar va **Bani-Hasan** maqbarasida odamlar va hayvonlar hayotidan olingan turli voqyealar tasvirlangan suratlarda rassomlarning tabiatga bevosita taqlid qilganligi, tabiatni va odamlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha tasvirlashga intilganligi seziladi.

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

Ilmiy bilimlar Dinning tanho hukmronligi erkin kishining erkin fikrini tamomila bo'g'ib tashlay olmagan. Inson tabiat sirlarini bilishga intilgan. *“Nasihatnoma”* asari muallifi bunday deydi: *“Agar bilimdon odam bo'lsang, aytganing - aytgan, deganing - degan bo'ladi. Yozish-o'qishni chuqur egallab, ko'nglingga mahkam jo qilib ol, ana shunda har bir aytgan gaping hammaga manzur bo'ladi. Mirza qanday lavozimda bo'lmasin, u har vaqt kitob bilan ish ko'radi”*. Yana bir *“Nasihatnoma”* muallifi bunday deydi¹: *“Ey mirza, dangasalik qilma, yo'qsa qattiq jazoga duchor bo'lasan. Takasaltanglikni odat qilma, yuz tuban ketasan. Qo'lingda doim kitob bo'lsin, uni ovoz bilan o'qi va o'zingdan ko'p biladiganlar bilan maslahat qilib ish tut. O'z sohasini besh qo'ldek bilgan mirza baxtlidir... Bir kunni ham yalqovlik qilib o'tkazma, yo'qsa kaltak yeysan. Axir bolaning qulog'i yelkasida bo'ladi, qachon ursang, shunda qulog'iga gap kiradi. Doim maslahat bilan ish qil va buni esingdan chiqarma. Yoz va yozishdan sira zerikma”*.

Matematika sohasidagi eng qadimgi bilimlar turmushdagi amaliy ishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tanobchi va binokorlarning ishini osonlashtirishga xizmat qilgan. Matematika masalalarining mazmuniga qaraganda, arifmetika va geometriyaga oid bilimlardan yer maydonini aniqlash, g'alla uyumining qancha chiqishini yoki don saqlanadigan ombor sig'imini aniqlash uchun foydalanilgan. Nihoyat, misrliklar matematika sohasida orttirgan bilimlari tufayli, joyning sxemali xaritasini va oddiy chizmalar chizishni bilganlar. Misr yozuvida 1, 10, 100, 1000, 10000 va 100000 va hatto millionni ham bildiruvchi alohida alomatlar bo'lgan; hayron bo'lib qo'l ko'tarib turgan kishi surati millionni anglatgan. Astronomiya sohasida ham qadimgi misrliklar muayyan bilimga ega bo'lganlar. Osmondagi yulduzlarni muntazam kuzatish natijasida, sayyoralarni yulduzlardan ajratib, hatto yulduzlar xaritasini ham tuzganlar.

Tabobat Misrda tibbiyot ancha rivoj topgan. O'rta podsholik davriga oid bir qancha matnlarda turli kasalliklarni davolash uchun retseptlar ro'yxati berilgan. Biroq, kuzatib hosil

¹ Crawford N.C., *Argument and Change in World Politics. Ethics, Decolonization, and Humanitarian Intervention*, Cambridge 2002.

qilingan tajribalardan foydalangan Misr tabiblari hali qadimgi duofunlardan tamomila qutula olmagan.

Rossiyalik san'atshunos **M.N.Mersalovanning** *“Turli davr va xalqlar kiyimlari”* kitobida qadimgi xalqlar ust-boshiga oid noyob ma'lumotlar bor. Ushbu ma'lumotlar o'rganilayotgan davrni to'liqroq aks ettirish, uning “kengroq” tasvirini ko'rish imkoniyatini beradi. Ushbu kitobda Qadimgi va O'rta podsholik davridagi misrliklar kiyimiga alohida o'rin ajratilgan. Masalan, **M.N.Mersalova** ma'lumotlariga ko'ra, Qadimgi podsholik davrida misrliklarning asosiy kiyimi belga o'rab kamar bilan bog'langan, eni keng bo'lmagan peshband bo'lib, *“sxenti”* deb nomlangan. U davrda hamma tabaqalar kiyimining shakli bir xil bo'lib, ular faqat mato sifati bilan farqlangan.

M.N.Mersalova misrliklar kiyimining keyingi tarixini o'simlik bo'yoqlari paydo bo'lishi bilan bog'laydi. Bu paytdan boshlab rangli: sariq, havorang, jigarrang kiyimlarni faqat Yuqori tabaqadagilar - yirik yer egalari, kohinlar, fir'avnning yaqinlari kiygan. Soch turmagi, bosh va oyoq kiyimlariga qarab ham farqni aniq belgilab olish mumkin bo'lgan. O'rta Podsholik davrida qadimgi misrliklar kiyimi anchagina o'zgardi. O'rta podsholikning so'nggi davriga mansub ba'zi yodgorliklarda yopinchiq yopingan ayollar tasvirlangan. Ayollarning asosiy qismi eski shakldagi kalaziris kiyishgan. Bu davrdagi yana bir yangilik - ayollarning kalta ulama sochi. Uni faqat oliy zodagon ayollar kiyish huquqiga ega bo'lganlar.

Din Diniy matnlarda Qadimgi podsholik davridagi piramidalardan olingan matn parchalari uchraydi. Misrda qadimgi - **Izida** va **Oziris** xudolariga sig'inish keng tarqalgan. Ayol podsho **Neytikertning** (XXVI sulola) saroy arboblardan bo'lgan **Iba** ismli kohin Oziris Sharafiga ibodatxona qurilishidagi mehnatini tasvirlab qoldiradi. **Yaxmos II** zamonida bir necha Yuqori mansab egasi bo'lgan Pefnefdineyt bir yirik mansabdorning Abidosdagi Oziris ibodatxonasini tiklash va uni kengaytirishda ko'rsatgan xizmatlarini batafsil bayon etadi. Bu odam “xarob bo'lgan muqaddas yozuvlar uyini qaytadan tikladim va Oziris Sharafiga qilinadigan nazr-niyozlar ro'yxatini tuzib, barcha yozuvlarni tartibga soldim” deb g'urur bilan qayd etadi. Ammo Misrda turli hayvonlarga topinish, jumladan, Bubastisda e'zozlangan ma'buda **Bastetga** bag'ishlangan muqaddas ho'kiz (*Apis*)lar bilan muqaddas mushuklarga e'tiqod qilish so'nggi

vaqtlarda keng tarqalgan. Sehrgarlik yangidan-yangi xudolarga sigʻinish (*sinkretizm va panteizm*) bilan birga rivojlanib borgan. Adabiy asarlarning syujetlari qadimgi

podsholar, jumladan, **Ramzes II** ning obrazlari bilan bogʻlanadi. Rivoyatlarga qaraganda¹, Osiyodagi bir podshoning kasal yotgan qizini davolash uchun **Ramzes II** xudo **Xensu** haykalini yuborgan emish.

Misrning Giza va Sakkar mavzellarida qadimiy podsholik davrida barpo etilgan podsholar piramidasi yaqinida juda katta “*Oʻliklar shahri*”² topilgan. Bu joyda podshohning koʻplab qarindosh - urugʻlari, xizmatchilari va amaldorlarining qabrlari mavjud boʻlgan. Ayni vaqtda ibodatxona, maqbara, qabr, saroy xarobalari hamda odamlar yashaydigan uylar qadimgi Misrning ajoyib me'morchiligini mufassal oʻrganish imkonini beradi. Ammo Misr davlatining mustaqilligi va oʻziga xosligini saqlab qolish yoʻlidagi soʻnggi urinishlar ham zoye ketdi. Misr davlati Eron istilochilarining zarbalari ostida quladi. Biroq Misr madaniyati butunlay yoʻq boʻlib ketmadi. Aksincha, keyinchalik qoʻshni xalqlar, asosan, yunonlarning madaniy taraqqiyotiga kuchli taʼsir koʻrsatdi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Misr tarixi va madaniyatini oʻrganishda qaysi manbalar ustuvor ahamiyatga ega?
2. Qadimgi Misr tarixi va madaniyatini oʻrganishda yozma manbalar bilan madaniy yodgorliklarning nisbati qanday?
3. Qadimgi Misr madaniyatini oʻrganishda qaysi manbalar ustuvor ahamiyatga ega?
4. Qadimgi Misr madaniyatini oʻrganishda yozma manbalar bilan madaniy yodgorliklarning nisbati qanday?
5. Qadimgi Misr madaniyatining oʻziga hos jihatlari nimalarda namoyon boʻladi?

¹ Crawford N.C., *Argument and Change in World Politics. Ethics, Decolonization, and Humanitarian Intervention*, Cambridge 2002.

² Немировский А.И. *История Древнего мира. В 2-х частях. Античность*. М., «Владос», 2000.

5-mavzu. Qadimgi Mesopotamiyada davlatchilikning shakllanishi. Shumer, Akkad va Qadimgi Babil podsholigi

Reja:

1. Qadimgi Mesopotamiyada Tabiiy Sharoit. Aholi.
2. Qadimgi Mesopotamiyada Dehqonchilikning rivojlanishi.
3. Qadimgi Mesopotamiyada Shahar-davlatlarning vujudga kelishi.
4. Hammurapi qonunlari. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
5. Qulchilikning rivojlanishi. Yer egaligi.

Tayanch iboralar: *Enn, Dajla, Frot, Mesopotamiya, Arzirum, piktografika, "hayot daraxti", ardu, sag, reshu, lugal. memkim, galuku, "Sharru -Kin", gedyu, gutiylar, nubada, damkor, duggur, semit, Sargon, Magan o'lkasi, Hammurapi qonunlari, Ablianum, Sinmagir, damkarlar, qo'y maydoni, ota uyi, talion huquqi, shakkanakku, rabianum, qo'shnilar, qudurular, kassitlar, Karduniash, bitu, bel-bit, redu, bairu, kodeks, Tavrot, bit-abia, bel-ashshatim, «qo'y maydoni», gur, min, shekel.*

Tabiiy Sharoit Old Osiyodagi mamlakatlar orasida qishloq xo'jaligi keng ravnaq topishi uchun eng qulay mamlakat **Dajla** (Tigr) bilan **Frot** (Yefrat) daryolari o'rtasida joylashgan bo'lib, uni qadimgi yunonlar **Mesopotamiya** (ikki daryo oralig'i) deb ataganlar. Bu mamlakat shimolda Armaniston tog'laridan boshlanib, janubda to Fors qo'ltig'igacha cho'zilgan. U g'arbda - Suriya-Mesopotamiya dashti bilan, Sharqda esa G'arbiy Eron tog' tizmalari bilan chegaralangan. Mesopotamiyaning o'rta va janubiy qismi tekislik bo'lib, u vaqt-vaqti bilan toshib yerlarni o'g'itlovchi Dajla va Frot daryolari keltirgan yotqiziqlar (o'g'itbop allyuviylar)dan iborat. Dajla daryosi Van ko'lidan janubroqda Armaniston tog'laridan, Frot esa **Arzirumning** (Turkiya) Sharqida dengiz yuzasidan 2 ming metr balandlikdan boshlanadi. Dajla tezoqar daryo bo'lib, Frotdan 750 km qisqaroq, lekin Frotga nisbatan ikki baravar ortiq suv keltiradi. Uzunligi 2500 km ga yetadigan Frot esa vazmin oqadi.

Frot qirg'oqlari Dajlanikiga qaraganda pastroq bo'lganligi sababli, Frot daryosi toshganida Dajlaga nisbatan ko'proq hududni suv

bosadi va toshqin uzoq vaqt davom etadi. Har ikkala daryoning oʻzani besh ming yil ichida oʻzgarib ketgan. Shumer va Aqqodning qadimiy shaharlari Sippar, Kish, Nippur, Shuruppak, Uruk va Larsa kabilar Frot daryosi boʻyida joylashgan¹. Ikki daryo oraligʻining janubidagi Shumer va mamlakatning oʻrta qismini egallagan Aqqod iqlim jihatidan bir-biridan bir muncha farq qilgan. Shumerda boshqa joylarga qaraganda qish iliqroq boʻlgani uchun xurmo daraxti yovvoyi holda oʻsgan. Aqqod esa iqlim jihatidan qishi qorli boʻlib, yovvoyi xurmo oʻsmaydigan Ossuriyaga yaqin boʻlgan.

Aholi Mesopotamiyaning oʻrta qismi hududidagi eng qadimgi manzillar soʻnggi neolit davrida vujudga kelgan. Mamlakatning oʻta qadimiy qabilalari botqoqliklardagi tepalik-orollarda yashagan. Ular tuproqdan maskanlar qurganlar. Atrofdagi botqoqliklarni quritib, eng qadimgi sunʼiy sugʻorish tizimini vujudga keltirganlar.

Dehqonchilikning rivojlanishi. Eng qadimgi davrlarda vujudga kelib, miloddan avvalgi **III ming yillikda** yanada rivojlangan qishloq xoʻjaligi yetakchi rol oʻynagan. Quyi Mesopotamiyaning baʼzi joylarida hosildor yerlar boʻlib, bu vaqtda ancha ishlangan va koʻp sonli aholi undan olingan mahsulot bilan taʼminlangan. Larsa va Uruk kabi yirik shahar xarobalarining **orasi atigi 24 km ekanligi**, aholi juda zich yashaganligidan dalolat beradi². Frotning gʻarbidagi bepoyon oʻtloq va dashtlar chorvachilik bilan shugʻullanish imkonini bergan. Oʻtloqlarda uzun va kalta shoxli hoʻkizlar boqilgan. Ekinni sugʻorishda, haydash va gʻalla yanchishda, shuningdek, yuk tashishda uy hayvonlaridan foydalanilgan.

Quldorlikning shakllanishi (**miloddan avvalgi III ming yillik**). Qishloq xoʻjaligining rivojlanishi, temirchilikning paydo boʻlishi va ayirboshlash savdosining yoyilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirib, ish kuchiga boʻlgan extiyojni oshirdi. Buning natijasida qadimgi urugʻchilik jamoa tuzumi yemirilib, uning xarobalarida eng qadimgi quldorlik davlatlari paydo boʻldi. **Miloddan avvalgi III ming yillikka** oid Shumer hamda Aqqod shaharlari xarobalaridan

¹ Berlinerblau J., Heresy in the University: the Black Athena Controversy and the Responsibilities of American Intellectuals, New Brunswick 1999.

² Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г

topilgan ko‘plab ma'lumotlar va moddiy yodgorliklar ushbu fikrimiz tasdig‘i bo‘la oladi.

Eski qishloq jamoalari yemirila borishi bilan mamlakatda qullar soni ko‘payib bordi. Ayni zamonda urushlarda qo‘lga tushgan asirlar qulga aylantirilgan. Qishloq xo‘jaligida qullar mehnatidan foydalana boshlandi. Qulchilik o‘sib borgani sari, xo‘jalikda qullar sonini ko‘paytirish mumkin bo‘ldi. Shumer va Aqqod jamiyatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi hamda mehnat unumi o‘sishi natijasida qo‘shimcha maxsulot, shu bilan birga, qulchilik ko‘rinishida odamning odam tomonidan ekspluatatsiya qilinishi paydo bo‘ldi. Shumer va Aqqoddan topilgan bir qancha hujjatlar, qulchilik dastlab, oilada yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Shumer qonunlari majmuida otaga o‘z bolalarini qul qilib sotish huquqi berilgan. Hujjatlarda ko‘p uchraydigan “ayol narxi” iborasi qizlar ham qul qilib sotilganidan dalolat beradi.

Shahar-davlatlarning Shumer va Aqqod hududida **miloddan vujudga kelishi** **avvalgi IV ming yillikdayoq** eng qadimgi shaharlar vujudga keldi. Bu shaharlar ayrim mayda davlatlarning xo‘jalik, siyosiy va madaniy markazlari bo‘lgan. Mamlakatning janubida, Fors qo‘ltig‘i sohilida Eridu shahri mavjud bo‘lgan. Ur shahri qudratli bir davlatning markazi bo‘lishi bilan katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Butun Shumerning diniy va madaniy markazi bo‘lgan Nippurda xudo **Enlilning** umumshumer ziyoratgohi-ibodatxonasi joylashgan. Boshqa shumer shaharlari orasida qo‘shni Umma bilan doim kurash olib borgan Lagash va Uruk shaharlari katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikning o‘rtalarida (miloddan avvalgi 2540 – 2370 yillarda) Lagash shahri boshida bir necha qo‘shni viloyatlarni hokimiyati ostida birlashtirgan zo‘r hokimlar turgan. Lagashning qo‘shni shaharlar bilan olib borgan kurashi viloyatlarni bir markaz atrofida imkon qadar jipslashtirishni ko‘zda tutgan. Lagashning iqtisodiy va siyosiy qudratiga Ur – **nanshe** hokimligi davrida asos solindi¹. Binobarin, Ur – **nansheni** dastlabki tarixiy Lagash sulolasining asoschisi, deb hisoblash mumkin.

¹ Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г

Podsho **Eannatum** zamonida Lagashning qudrati yanada ortdi. U Aqqod davlatini Lagashga qo‘shib olganidan so‘ng, Urni ham bo‘ysundirdi. Bu bilan Urning dastlabki sulolasidan bo‘lgan podsholarning hukmronligi barham topdi. Nihoyat, Eannatum Uruk, Larsa hamda Eriduni Lagashga bo‘ysundirib, shu orqali Mesopotamiyaning butun janubiy qismini egalladi. Umma hokimi **Ush, Opis** va **Kish** podsholari yordamida Lagashga hujum qildi, ammo mag‘lubiyatga uchradi. Eannatum keyinroq Elam hokimlari ustidan ham g‘alaba qozondi. Shunday qilib, bu davrda Shumerning ta'siri o‘rta Mesopotamiya viloyatlarida juda katta bo‘lgan.

Dajla va Frot daryosi irmoqlaridan bundan 70-80 ming yil ilgari yashagan odamlarning manzilgohlari topilgan. O‘rta va quyi Mesopotamiya hududida topilgan arxaik davr yodgorliklarini uch madaniy davrga: Shumerda *Al-Obid*, *Uruk madaniyati* xamda Aqqodda *Jamdat-Nasr* (Kish yaqinida) *madaniyatlariga* bo‘lish rasm bo‘lgan. Bu uch madaniyat davri **miloddan avvalgi IV ming yillikni** o‘z ichiga olgan. Bu madaniy davrlar Janubiy Mesopotamiyada eng qadimgi zamonlarda tashkil topgan davlatlardan oldin o‘tgan.

Mesopotamiya xalqlari ko‘plab qabilalar aralashuvi natijasida paydo bo‘lgan. Qadimda mamlakat janubidagi Shumer aholisini shumerlar, Shimoldagi Aqqod aholisini aqqodlar deb atashgan.

Miloddan avvalgi VIII - V ming yilliklarda Mesopotamiya aholisi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Bu davrning boshlarida urug‘ jamoada ularning mavqeyi baland bo‘lib, izzat - hurmatga sazovor edilar.

Mesopotamiyada temir **miloddan avvalgi III ming yillik o‘rtalarida** paydo bo‘lganiga qaramay, u juda noyob metall bo‘lgan. Temir Kavkaz orti va Kichik Osiyodan keltirilgan deb taxmin qilinadi.

Taxminan **miloddan avvalgi 2400-yilda** Urukagina davrida soliqlar qo‘y, qo‘zi, baliq bilan olinib, jun teri bilan hisob-kitob qilingan. Mahsulot ayirboshlash savdosi vujudga kelgan. Qul, uy-joy, ekinzor, uy hayvonlari va qimmatbaho metallar savdosiga oid saqlanib qolgan Shartnoma matnlari ham shundan dalolat beradi. Xom ashyoga bo‘lgan ehtiyoj tufayli tashqi savdo biroz rivojlandi. Shumeriylar misni Elam, Eron va Ossuriyadan, yog‘ochni shimoldan keltirganlar. G‘alla va qoramol ekvivalent vazifasini, keyinchalik quyma metall bo‘laklari pul vazifasini o‘tagan. Savdo-sotiq rivojlanishi bilan birga

kema qatnovi va kemasozlik rivoj topdi. Karvon yo‘llarida ham savdo taraqqiy eta bordi. Urdan ko‘plab arava tasvirlari topilgan.

Shumer va Aqqod jamiyatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivoji, mehnat unumdorligining o‘sishi natijasida qo‘shimcha mahsulot ko‘payib, qulchilik rivojlandi. Qullar dastlab oilada paydo bo‘ldi. Shumerda topilgan yozma hujjatlarda ota o‘z farzandlarini qul qilishi mumkinligi haqida aytiladi. Xotin-qizlar teng huquqlarga ega bo‘lmaganligi Mesopotamiyada patriarxal tuzum hukmron bo‘lganligini ko‘rsatadi. Lekin qullarning asosiy qismi asirlar bo‘lgan. Shumerda qullarni *“sag”* (bir dona), Aqqodda *“ardu”* (xarob odam) yoki *“reshu”* (bosh) deb ataganlar. Mesopotamiyada **miloddan avvalgi III ming yillikka** kelib, qulchilik shakllari ancha shakllanib ulgurgan edi.

Shumer va Aqqod hududida **miloddan avvalgi IV ming yillikdayoq**, eng qadimgi shahar-davlatlar vujudga kelgan. Bu shaharlar xo‘jalik, siyosat va madaniyat markazlari bo‘lib, Eridu, Ur, Nippur, Umma, Lagash, Uruk shular jumlasidan hisoblanadi. Topilgan ko‘plab hujjat va moddiy manbalar ular bir qadar rivoj topganidan dalolat beradi. Dastlab quyi Mesopotamiyada Ur kuchli davlat bo‘lgan bo‘lsa, so‘ng **miloddan avvalgi 2540 - 2370 yillarda** Lagash davlati qudrati ortdi. Uning iqtisodiy va siyosiy qudratiga Ur - **nanshe** hokimligi davrida asos solindi. **Ur-nanshe** Lagash sulolasining asoschisi hisoblanib, uning vorisi - **Eannatum** zamonida Lagashning qudrati yanada ortdi. U Aqqod, Kish, Urni bo‘ysundirib, Urning I sulolasi hukmronligini tugatdi va Uruk, Larsa, Eriduni ham qo‘lga kiritdi. Ayniqsa, Umma shahri uchun shiddatli janglar kechdi. **Eannatum** Um, Opis va Kish podsholari yordamida Lagashga hujum qildi. Bu jangda Umma mag‘lubiyatga uchradi. **Eannatumning** bu g‘alabasi *“Kalxatlar lavhasi”*¹ deb atalgan yodgorlik orqali bizga qadar yetib kelgan. Yozuvlarda Eannatum Kish va Opis podsholari, shuningdek, Elamni bosib olganligi qayd etiladi. Shunday qilib, shumerlar ta’siri quyi va o‘rta Mesopotamiya va Elamda kuchayib, kengroq tarqaldi.

Entemena - Eannatumning harbiy siyosatini davom ettirdi va Umma, Ur, Eridu, Nippurda Lagash hukmronligini mustahkamlash va

¹ Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г

Elam hujumini daf etishga muvaffaq bo'ldi. O'sha zamonga oid tarixiy hujjat - Entemena yozuvi o'ta muhim ahamiyat kasb etib, bu hujjatda dastlabki diplomatik munosabatlar, Lagash va Umma o'rtasidagi urushlar obrazli tasvirlanadi. Hujjatda Entemenaning Umma ustidan qozongan g'alabasidan so'ng tuzilgan sulh Shartlari bayon etilib, hududiy chegaralar ko'rsatib o'tilgan. Shartnoma ummaliklar tomonidan buzilgan taqdirda ularga qattiq jazo berilishi ko'rsatilgan.

Qadimgi Shumer yozuvlarida uchraydigan semit so'zi shumerliklarning semitlar bilan qadimdan aloqada bo'lganidan dalolat beradi. Keyinchalik semitlar shumerlarga tegishli hududlarda paydo bo'ldilar. **III ming yillikning o'rtalaridan** boshlab esa, ular Ikkidaryo oralig'ining shimolida Shumer madaniyatining davomchisi bo'lib qoldilar. Semitlar bunyod etgan eng qadimgi shahar Frot bo'yidagi Aqqod Ikkidaryo bo'yini birlashtirgan poytaxt edi. Aqqod shahrining ulkan o'rni shundaki, Aqqod davlati yemirilgandan keyin ham shimoliy Ikkidaryo oralig'ida Aqqod nomi saqlanib qoldi, janub esa Shumer nomini oldi. Shuningdek, Nippur shahri yaqinidagi Isim shahri ham semitlar tomonidan bunyod etilgan. Lekin shaharlar ichida eng yoshi- Babil mamlakat tarixida eng muhim o'rin tutadi. **Miloddan avvalgi II - I ming yilliklarda** Babil Ikkidaryo oralig'ining madaniy, siyosiy hamda iqtisodiy markaziga aylandi.

Urukagina podsholigining yettinchi yilida Umma hokimi **Lugal - Zagisi** Lagashga bostirib kirib, shaharni vayron qildi. **Lugal - Zagisi** Lagash bilan cheklanmay, o'ziga butun Shumer va Aqqodni bo'ysundirishni maqsad qilgan edi. Yozuvlarda aytilishicha, u Uruk, Ur, Larsa va Adabni bosib olgan. Shumerning diniy markazi - Nippur ham **Lugal - Zagisi** qo'l ostida qoldi. U o'zini Uruk va Urning podshosi hamda bu shaharlarni Shumerning poytaxtlari deb e'lon qildi. Yozuvlarda Lugal - Zagisi *“Urukni yashnatib yuborganligi, Urni xursand qilib, boshini osmonga yetkazganligi, Bebbarning sevimli shahri Larsani shod-xurramlik suviga serob qilganligi, xudoning sevimli shahri Ummani baland qudratga erishtirganligi”* haqida faxr bilan qayd etiladi.

Shumer **Lugal - Zagisining** 25 yillik podsholigi davrida ancha rivojlangan. Bu orada Aqqod ham ancha taraqqiy etdi. Ular o'rtasidagi kurashda Aqqod g'olib chiqib, natijada Shumer - Aqqod podsholigi

tarkib topdi. Bizga qadar yetib kelgan ma'lumotlarga qaraganda **“Ma'buda Ishtar”** juda katta siyosiy arbob **Sargon I** ni Aqqod podshosi darajasiga ko'targan. **“Sargon”** so'zi **“Sharru - Kin”** - ya'ni **“haqiqiy podsho”** ma'nosini anglatadi. Shumer va Aqqodning birlashuvi mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy rivoji yo'lida turtki bo'ldi.

Sargon I o'zining 55 yillik hukmronligi davrida beto'xtov urushlar olib borib, juda ulkan imperiyaga asos soldi va o'zini **“to'rt iqlim podshosi”** deb e'lon qiladi. Lekin bu imperiya juda zaif edi. Uning o'g'li Rimush (**miloddan avvalgi 2315 - 2305 yillar**) o'zi hukmronlik qilgan dastlabki davrda Shumer va Elam qo'zg'olonlarini bostirdi. Rimush o'zini **“Kish podshosi, Elam xo'jasi”** deb atadi. U otasining siyosatini davom ettirdi. Rimushga qarshi uning “o'z xizmatkorlari” qo'zg'olon ko'tarib, urib o'ldirdilar. Hokimiyat Manishtusu qo'lga o'tadi (**miloddan avvalgi 2305 - 2291 yillar**). U Elamga qo'shin tortib, Anshan va Shiruxum viloyatlarini qo'lga kiritadi. U Eronning janubiy-g'arbiy qismini ham bosib oladi. Ichki siyosatda davlatni boshqarishda yirik zodagon hamda kohinlarga suyangan. Manishtusu Shumer kohinlarini o'z tarafiga og'dirish maqsadida ularga katta imtiyozlar beradi. Naramsin (**miloddan avvalgi 2290 - 2254 yillar**) Aqqod chegaralarini yanada kengaytirdi. Uning hukmronligi ostida Aqqod podsholigi o'z ravnaqining yuksak cho'qqisiga erishdi. Naramsin hukmronligining dastlabki yillari Uruk, Umma va Nippur g'alayonlarini bostirdi. U Suriyani egallab, to O'rta yer dengiziga qadar chiqqan. Shimolga yurish qilib, Yuqori Dajlaning ichkarisiga kirib borgan. **Naramsinning** Diyorbokr shimoliy-Sharqiy qismidan topilgan surati ham shundan darak beradi. Unga **“ilohiy Naramsin, Aqqodning qodir xudosi”** degan dabdabali nom berilgan. Shuningdek, yozuvlarda Naramsinga **“To'rt iqlim mamlakatlarining bari uni oldida bosh egadi”** deyilgan.

Sargon sulolasining so'nggi hukmdori **Sharkam - Shari** (**miloddan avvalgi 2253 - 2230 yillar**) o'zidan oldin o'tgan podsholar egallagan yerlarni saqlab qolish maqsadida kurashlar olib bordi. Yozuvlarda Shumerdagi qo'zg'olonlar, shu bilan birga, amoriylar va elamliliklar ustidan qozonilgan g'alabalar haqida aytiladi. Lekin shimoliy-Sharqda paydo bo'lgan yangi kuch **Gutiylar** istilosining oldini ololmadi (**miloddan avvalgi 2280 - 2104 yillar**). **Gutiylar** tez

orada butun Mesopotamiyani bo'ysundirdilar. Yozuvlarda "qizlari gutiylar zulmidan yig'lagan¹" shaharlarning uzundan -uzoq ro'yxati keltirilgan.

Gutiylar Mesopotamiyada 125 yil hukmronlik qilganlar. Ular qoloq bo'lgan bu mamlakatni davr oxiriga kelib madaniy jihatdan taraqqiy ettirganlar. Ular o'z yozuvlarida Aqqod tilidan foydalanganlar. Urning III sulolasi vakillari butun Old Osiyoda qudratli Shumer va Aqqod podsholigining hukmronligini o'rnatish maqsadida istilochilik siyosatini yuritganlar. Ayniqsa, bu sulola Shulgi davrida (**miloddan avvalgi 2100-2042 yillar**) o'zining eng yuksak taraqqiyotiga erishdi, Mesopotamiya shimolida, Suriya hamda Elamda urushlar olib borib, muvaffaqiyatlar qozondi. Ur podsholari hatto o'zlarini xudo deb e'lon qilganlar. Urning ilohiy hukmdori Ginelsin Sharafiga butun Mesopotamiya bo'ylab marosimlar o'tkazilgan.

Ur hukmronligi so'ngida g'arbdan yangi ko'chmanchi-amoriy qabilalari Mesopotamiyaga bostirib kirdilar. Sharqdan Elam va g'arbdan amoriylar xurujini Ur hukmdorlari qaytara olmadilar. **Miloddan avvalgi 2007-yilda** so'nggi Ur podshohi Ibi-sin Mari elamliliklarga yengilib, asir tushadi va shu bilan Ur podsholigi tugaydi.

Biroq Ur hukmronligi Old Osiyo xalqlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatdi. Yuksak taraqqiy etgan Shumer va Aqqod madaniyati bu xalqlarning madaniy rivojiga xizmat qildi.

Bobil Mesopotamiyaning o'rtasida - Dajla va Frot daryolari oralig'ida joylashgan bo'lib, Kichik Osiyo va Kavkazortidan Fors qo'ltig'iga va Suriya qirg'oqlaridan Eronning yassi tog'lig'iga o'tadigan muhim savdo yo'llari tutashgan yerda joylashgan. Bobil g'oyat qudratli davlat poytaxti bo'lib, Old Osiyoning eng katta savdo, siyosiy va madaniy markaziga aylangan. Bobil deyarli ikki ming yil davomida o'zining bu ahamiyatini saqlab qolgan. Bobilning qulay jo'g'rofiy joylashishi ham uning shunday mavqyega ega bo'lishiga xizmat qilgan.

Miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida amoriylarning ko'pdan - ko'p ko'chmanchi semit qabilalari Mesopotamiyaga kirib, Aqqod mamlakatiga qarashli ko'p yerlarni bosib oldilar va qudratli

¹ Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г

davlat barpo etib, Bobilni uning markaziga aylantirdilar. Taxminan, o'sha davrda tog'li joylarda yashovchi Elam qabilalari Sharqdan Mesopotamiyaga bostirib kirdilar va Larsani o'zlarining asosiy tayanch punktlaridan biriga aylantirib, Shumerda mustahkam o'rnatib oldilar. Kelgindi istilochilar bosib olingan mamlakatni o'zaro taqsimlay olmay qoldilar. Amoriylar bilan Elam qabilalari o'rtasida raqobat yuzaga kelib, Mesopotamiyada hukmron bo'lish uchun kurash avj oldi. Kurashda Bobil hukmdorlari g'olib chiqib, amoriylar sulolasi (**miloddan avvalgi 1894 - 1595 yillar**) vakillari taxtga o'tirdilar. Bobil - amoriy podsholigi Xammurapi davrida (**miloddan avvalgi 1792 - 1750 yillar**) gullab yashnadi. Xammurapi butun Ikkidaryo oralig'ini o'z qo'li ostida birlashtirib, yirik va kuchli davlat tuzdi. Hammurapi o'z hukmronligi boshida Shumer shaharlari Isin, Uruk va Urni qo'lga kiritdi. So'ngra ittifoqdoshi **Zimrilim** roziligi bilan O'rta Mesopotamiyada o'z hokimiyatini mustahkamlab oldi. **Zimrilimning Hammurapiga** Aqqodda bemalol harakat qilishiga rozilik berib yozgan diplomatik maktublaridan birida quyidagi so'zlar bitilgan: *“Eshnunna hukmdorlari seni tan olsalar, mamlakat podshosi bo'lib, unda hukmronlik qil. Agarda ular seni tan olmasalar, o'zingdagini ... o'tqaz, mamlakatga u podsholik qilsin”*.

U o'z hukmronligining o'ttiz birinchi yilida “Anu va Enlil xudolari ko'magida Emutbal mamlakatini va hukmdor Rimsinni tormor keltirgan¹” hamda uni mamlakatni tashlab ketishga majbur qilib, Shumerni o'z podsholigiga qo'shib olgan. Shu bilan birga Hammurapi Mari podshosining harbiy yordamiga tayanib, Shimoliy Mesopotamiyaga kirishga, Dajla atroflari va Frotning o'rta oqimida o'rnatib olishga harakat qilgan. Shimoliy Mesopotamiya Bobil, Mari uchun iqtisodiy va strategik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shimoliy Mesopotamiyadan yog'och, ruda, shuningdek, turli boshqa mahsulotlar olib ketilgan. Sharqqa, shimolga, Karxemish orqali g'arbga, Suriya shaharlari hamda O'rta yer dengizi portlariga boradigan muhim savdo yo'llari aynan Shimoliy Mesopotamiyadan boshlangan. Mari shahri arxividan topilgan yozuvlarda Zimrilim

¹ Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005.

Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

o'ziga itoatkor hokimlar orqali Shimoliy Mesopotamiyadagi voqyealarni diqqat bilan kuzatib borganligi, o'zini bu mamlakatning hokimi deb hisoblaganligi va hatto *“Yuqori mamlakatlar xoni¹”* deb ataganligi bayon etiladi. Biroq, o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida qo'shından foydalanishga, ba'zan qurol ishlatishga majbur bo'lgan. **Zimrilim** kabi **Hammurapi** ham **Subartu** qabilalari ustiga qo'shin tortib, Mesopotamiya shimolida ba'zi hollarda birgalikda harbiy harakat qilganlar. **Zimrilim Subartuga** qarshi kurashgan chog'ida Hammurapi uning ixtiyoriga 3 ming askardan iborat yordamchi qo'shin yuborgan. Zimrilim Bobil hukumdoriga xat yozib, yordamga ko'proq askar yuborishini, *“Yuqori mamlakat podshosi”* ga qarshi kurashish uchun katta qo'shin zarurligini bayon qilgan. Lekin bunday birgalikdagi harbiy harakatlar Bobilning yanada kuchayishiga olib keldi, xolos. Hammurapi Shimoliy Mesopotamiyada joylashib olgach, o'z ittifoqchisi - Mari davlatiga qarshi yurish boshlaydi. Hammurapi hukmronligining o'ttiz uchinchi va o'ttiz beshinchi yillarida ikki marta hujum qilib, bir paytlar qudratli va boy podsholikning poytaxtini bosib olib, vayron qiladi. Taxminan ana shu vaqtda Hammurapi **Eshnunna** viloyatining Diala daryosi bo'ylaridagi yerlarda ham mustahkam o'rnatib olgan. Bundan tashqari, Hammurapi bir necha marta Bobil bilan Mari hukumdori orqali Suriya savdo shaharlari bilan iqtisodiy aloqa o'rnatishga harakat qiladi. Maridan topilgan diplomatik hujjatlarda aytilishicha, Bobil bilan hozirgi Shimoliy Suriyadagi Ugarit davlati o'rtasida diplomatik munosabatlar mavjud bo'lgan. Masalan, o'sha davrga oid bir hujjatda shunday deyiladi: *“Zimrilimga (Mari podshosi) ayt: Sening birodaring Hammurapi bunday deydi: Ugaritning odami menga hozirgina quyidagilarni yozib yo'lladi: Menga Zimrilimning qarorgohini ko'rsat. Men bu qarorgohni ko'rmoqchiman. Hozir senga ana shu chopar bilan uning o'g'lini yuboryapman”*.

Xammurapi Bazalt ustunga mixxat usulida yozilgan Hammurapining **qonunlari** mashhur qonunlar to'plami Bobil podsholigining xo'jalik va ijtimoiy tuzumini o'rganishda eng muhim manba hisoblanadi. Ustunning Yuqori qismida taxtda o'tirgan quyosh xudosi Shamash oldida tantanavor suratdagi podsho Hammurapi

¹ Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г

tasvirlangan. Ustunning boshqa barcha yeri 282 moddadan iborat qonunlar to'plamining mixxat usulida yozilgan matni bilan band. 35 modda yozilgan beshta ustunchadagi matn qirib tashlangan. Bu qonunlar majmuasining boshqa nusxalari ham topilganligi tufayli yo'q qilingan matnni ham tiklash mumkin. Qadimgi Bobildagi mirzalar va hakamlar (sudyalar) boshqalarni o'qitish maqsadida, shuningdek sud ishlarida kodeksning ana shu nusxalaridan foydalanganlar.

Mazkur to'plam uch qismga bo'lingan: 1) kirish; 2) qonunlar; 3) hulosa. Kirish qismida aytilishicha, majmuani chop etishdan maqsad mamlakatda haqqoniyat o'rnatishdir. To'plamning xulosa qismida podsho xalq oldidagi xizmatlarini sanab, o'zidan keyin uning qonunlarini ado etuvchi hukmdorlarga oq fotiha bergan va bu qonunlarga rioya etmaydigan yoki uni bekor qilishga jur'at etganlarni la'natlaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar Hammurapi zamoniga oid hujjatlar va asosan uning qonunlar to'plami mamlakat xo'jalik hayotining umumiy manzarasini bir qadar tiklash imkonini beradi. Katta va markazlashgan davlatda oliy hokimiyat hukmdorning o'z qo'lida to'planganligi tufayli u yer fondiga tayanib, mamlakat xo'jalik hayotiga aralashgan va uning rivojlanishini yo'lga solishga uringan. Qurilish materiallariga ehtiyoj doimo katta bo'lganligidan, hukmdor o'rmonlarni qo'riqlash yuzasidan bir qancha tadbirlarni amalga oshirgan. O'rmonlar alohida **“o'rmonlarga”** bo'linib, ular o'rmon xo'jaligining bosh mudiriga bo'ysunuvchi **“maxsus mudirlar”** qaramog'ida bo'lgan. Saqlanib qolgan bu hujjatda, podsho o'rmon xo'jaligining bosh mudiri Ablianum va Sinmagir qaramog'idagi o'rmonlardan o'g'rincha kesib ketilgan daraxtlar masalasini tekshirishni, shuningdek, daraxtlarni kim: o'rmon mudirlarining o'zi yoki **“begona qo'l”** (ya'ni jinoyatchimi) kesib ketganligini aniqlashni buyurgan. **“O'rmon mudirlari”** daraxtlar butunligi uchun javobgar hisoblangan. O'z mansablarini suiste'mol qilgan **“O'rmon mudirlari”** qatl etilgan.

Hammurapi buyrug'i bilan Nar-Hammurapi kanali qazilgan. U **“Shumer va Aqqodni suv bilan ta'minlaydigan, o'z qirg'oqlarini ekin maydonlariga aylantiradigan, tog'-tog' g'alla yetishtirib beradigan hamda aholini doimo suvga to'ydiradigan xalq boyligidir.”**

G'allachilik, chorvachilik bilan birga bog'dorchilik xo'jaligi ham keng taraqqiy etgan. Qadimgi Mesopotamiyaning gullagan bog' va ajoyib mevali daraxtlar o'sgan jannat bog'i haqidagi afsonaning aynan shu mamlakatdan kelib chiqqani bejiz emas. Yer mulkdorlari manfaatini himoya qilgan davlat bog' egalari manfaatlarini yoqlashni ham zimmasiga olgan. Hammurapi qonunlarining bir moddasida aytilishicha, birovning bog'idan beijozat kesilgan daraxt uchun aybdor katta jarima: yarim mina (252,5 grammga yaqin) kumush to'lashi kerak edi¹.

Savdo Bobil jug'rofiy jihatdan qulay joylashganligi rivojlanishiga qo'l kelgan. Tashqi savdo muhim o'rin tutgan. Muhim savdo markazlari - ikki eng yirik shahar, ya'ni Bobil va Sippardan qo'shni mamlakatlarga ko'plab turli mahsulotlar chiqarilgan. **Sippar** o'z davrining jun gazlama ishlab chiqarish markazi edi. Bu shahardan gazlama bilan bir qatorda, xususan, Elamga xurmo, moy va don jo'natilgan bo'lsa, Elamdan Bobilga metall rudalar (mis, kumush) olib kelingan. Bobil shaharlari Ossuriya bilan qizg'in savdo ishlari yuritib, shu bilan birga Ossuriyadan Bobilga, asosan, qo'rg'oshin va boshqa metallar keltirilgan. Krit xarobalaridan Bobilning silindr shaklidagi muhri topilgan.

Urug'chilik tuzumining alomatlaridan yana biri ijaraga yashagan odam ijara haqiga 1/2 shekel kumush qo'shib berishi lozim bo'lgan. Bu qo'shimcha haq g'alati nom bilan - "*qo'y maydoni*" deb atalgan. Bu qo'shimcha haq mol-mulk boshqa urug'ga berilganida urug' homiylari foydasiga ota-bobolar ruhiga atab berilgan bo'lsa kerak. Bu nomning o'zi ham ushbu odat pul o'rnida qoramol ishlatilgan eng qadim zamonlardan saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Qulchilikning Xufya (yashirin) qullikning eng qadimgi **rivojlanishi** ko'rinishlari tarkib topgan patriarxal oila hali o'sha vaqtda katta ahamiyatga ega bo'lgan hamda shunga bog'liq ravishda zulm qilish va hukmronlikning eng qadimgi shakllari vujudga kelgan. Patriarxal oilada ota va er xo'jayin hisoblanib, oilaning barcha a'zolari unga so'zsiz itoat qilganlar. Ham ota, ham er o'z oilasi a'zolariga nisbatan quldor huquqiga ega bo'lgan. Ko'p xotinlilik ayolni oyoqosti qilgan.

¹ Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г

Hammurapi qonunining 129 - moddasiga ko'ra¹, er - *“xo'jayin” (bel ashshatim)* bo'lib, xotin erining izmida edi. Er xotin olishda qaynataga ma'lum haq to'lagan va ayol erining cho'risi hisoblangan. Bu qonunga ko'ra, er-xotindan biri bevafoqlik qilganida, erga bir jazo, xotiniga esa boshqacha jazo tayinlangan. Er vafo qilmasa, xotin sepini olib otasining uyiga ketishi mumkin bo'lgan, ammo bevafoqlik qilgan ayolni suvga tashlash lozim bo'lgan. Nikoh ahdida aytilishicha, o'z eridan yuz o'g'irgan xotiniga eri qullik tamg'asini bosib, sotib yuborish huquqiga ega bo'lgan. Ayolning mol-mulk huquqi cheklab qo'yilgan. Beva ayol mol - mulkiga o'zi to'la-to'kis egalik qila olmagan. Qonun chiqaruvchi turli yo'llar bilan oila mulkini imkon qadar bir oila qo'lida saqlab qolishga uringan.

Bola otasining mulki hisoblangan. Hammurapi qonunining 14 - moddasiga ko'ra, ozod odamning yosh bolasini o'g'irlab ketgan kishi qatl qilingan.

Yer egaligi Bobilda asta-sekin parchalanib ketayotgan jamoa yer egaligi bilan bir qatorda yirik podsho yer egaligi ham mavjud edi. Vorissiz qolgan yerlarga egalik qilish huquqi yerlarning kengaytirish imkonini bergan. O'sha davrga oid hujjatlardan birida shunday deyiladi: *“Bu odam vafot etdi. Uning yerlarini Shamashxasirga (Larsada podsho yerlarini boshqaruvchi kishiga) topshiring”*. Hukmdorning ulkan yer-mulklaridan, asosan, qullarni ishlatuvchi podsho saroy boshqarmasi bilan birga, bu yerlarning bir qismini ijaraga olganlar foydalangan. Ijarachi, ijara hujjati, ijaraga olingan yer, ijara haqqi kabi tushunchalarni anglatgan maxsus atamalar mavjudligi yerni ijaraga berish keng tarqalganligini ko'rsatadi. Quruq yer ijaraga olinsa, bunda juda oz ijara haqi, shunda ham ikkinchi yili to'langan. Ba'zan bir necha kishi sherik bo'lib ijaraga yer olgan, bu yerni birgalikda ishlab, ijara haqi va boshqa xarajatlar to'langanidan keyin qolgan hosil o'rtada teng taqsimlangan. Ana shunday guruh bo'lib ijaraga yer olish, kambag'allar soni ortib borayotganligi va aholi keskin ijtimoiy tabaqalanganini ko'rsatadi.

Huquq va sud Hammurapi qonuni va bu davrga oid rasmiy hujjatlardan I Bobil sulolasi davri qonunlari va ma'muriyatining sinfiy

¹ Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005.

Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

ko‘rinishga egaligi ochiq-oydin ko‘rinib turadi. Qonun chiqaruvchi va davlat hokimiyati hukmron quldorlar sinfi manfaatlarini himoya qilgan. Xususiy mulkni qo‘riqlash eng muhim masala bo‘lgan. Hammurapi qonuniga ko‘ra, o‘g‘irlik bilan qo‘lga tushgan, shuningdek, o‘g‘irlangan buyumlarni sotgan yoki sotib olgan kishiga o‘lim jazosi berilgan. Qonunga ko‘ra, erkin kishini, ayniqsa, “Yuqori martabali shaxsni” haqorat qilgan odam qattiq jazolangan. **“Talion huquqi”** (**“qonga-qon, jonga-jon huquqi”**) nomini olgan qasos qonunining ayrim belgilari Hammurapi qonunida saqlanib qolgan. Bu ham urug‘chilik tuzumidan qolgan eski huquq qoldiqlaridan biridir. Chunonchi, boshqa odamning suyagini sindirgan odamning ham biror joyi sindirilgan. Qonunning bu moddalari qadimgi yahudiylarning **“mayib qilganni mayib qil”**, **“qonga-qon, jonga-jon”** shiorlariga aynan o‘xshashdir. Hammurapi qonunining boshqa moddalarida qadimgi urf-odat huquqining qoldiqlari quldorlik davridagi huquq qoidalari bilan uyqash bo‘lib ketgan. Quldorlik davrining yangi huquqi bir qancha moddalardan iborat bo‘lib, bu moddalar **“qonunlar to‘plami”**da keltirilgan, so‘ng ma‘lum tartibga solinib, “kodeks” shaklini olgan. Babil podshosi Hammurapining **“kodeksi”** bizga ma‘lum bo‘lgan eng qadimgi qonunlar to‘plami bo‘lib, u boshqa qadimgi Sharq xalqlarining keyingi qonunlari, xususan, Tavrotda saqlanib qolgan qadimgi yahudiy qonunlariga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Sud ishlarini maxsus amaldorlar yuritganlar. Sud qilish vazifasi shakkanakku va rabianumlar, ya‘ni viloyat sudyalari hamda **“shahar oqsoqollari va atoqli kishilari”**dan iborat maxsus shaxslarga yuklatilgan. Ibodatxona xizmatchilari hukmronlikni tobora qo‘ldan chiqarib, ibodatxonada odamlarning xudo haykali oldida ichgan qasamlariga guvoh bo‘lish bilan cheklanib qola boshladilar. Podsho hokimiyatini xudo o‘rnatganligi va bu hokimiyat ilohiy ekanligi to‘g‘risidagi bu tasavvurlar shumeriylarning bir madhiyasida yaqqol ifoda etilgan. Ushbu madhiya Babil podshosi va Hammurapining vorisi - Samsuilunga bag‘ishlangan. Unda quyidagi so‘zlar bitilgan:

“Egam Enki taxtu tojing abad qilsin,
Shoh hassasin etib tortiq, necha kunlar va

¹ Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005.

Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

yillarga ravo qilsin!
... Saltanating yeru ko'kdek mahkam tursin!
Sen elu yurt, fuqarolar shohidursan!
Sen xalqingga muruvvatli bosh panohsan!
Sen ayovsiz dovul kabi, hamma dushman elin bossang,
Boshing yetgay samolarga, mardonavor qo'shin tortsang,
"Ilohiy kuch" shahri Bobil bino qilgan xudoyim Sin,
Charaqlagan quyosh kabi, anda noming ulug' qil sen...
Pok, muqaddas yurting ichra hamma narsa muhayyo qib,
Saltanatda rasulliging salobatla"ado qilg'il...
Porloq kundek, har tomon sen nuring sochsang,
Xudo Anu va Enlil ham buyuk tole ravo qilsin".

Bobilning Hammurapi vafotidan keyin Bobil asta-sekin **Kassitlar** tushkunlikka yuz tutdi. Vorislari dastlab uning **tomonidan** ishlarini davom ettirishga intildilar. Hammurapining **istilo qilinishi** o'g'li Samsuilun (**miloddan avvalgi 1749-1712 yillar**) ikki yangi kanal qazdirgan hamda ibodatxonalarga katta hadyalar berib turgan. Ammo tez orada siyosiy maydonda yangi-yangi xavflar yuzaga kela boshlagan. Mesopotamiya hukmdori Rimsin (**miloddan avvalgi XVIII asr**) Bobilning zaiflashganidan foydalanib, Mesopotamiyaga bostirib kiradi va Shumerning bir qismini bosib oladi. Lekin bu vaqtda Bobil podshosi hali qudratini butkul yo'qotmagan edi. **Samsuilun Rimsinni** mag'lub qiladi, ya'ni **Rimsin** o'z saroyida yong'in vaqtida halok bo'ladi. **Samsuilun** Ur va Uruk devorlarini buzib tashlab, Shumerni yana o'ziga bo'ysundirib oladi. Lekin bu vaqtda yangi dushmanlar bosh ko'taradilar. Isin shohi Ilumailu Shumerning janubida mustaqil shohlik yaratib, Bobilga qarshi qattiq kurash olib boradi va Shumer podsholarining yangi sulolasiga asos soladi. Sharqdan Bobilga tog'lik qabilalar - kassitlar bostirib kiradi.

Dajla daryosining Sharqida yashagan kassitlar ilgari ham Mesopotamiyaga tashrif buyurganlar, lekin u vaqtda ijarador va yollanma ishchi sifatida kelgan edilar. Taxminan **miloddan avvalgi 1750-yilda** kassit qo'shinlari o'z yo'l boshchisi **Gandash** rahbarligida Mesopotamiyaga bostirib kirib, bu yerda Kassit davlatini barpo qiladilar. Hammurapi vorislari, Bobil I sulolasi hukmdorlari

Mesopotamiya ustidan o‘z hokimiyatlarini o‘rnatish uchun 155 yil davomida kurash olib bordilar. Kassitlar bosqinidan so‘ng zaiflashgan va ayrim qismlarga bo‘linib ketgan bu mamlakat istilochilarning diqqatini o‘ziga jalb qila boshladi. Babil I sulolasining so‘nggi shohi Samsuditan hukmronligi davrida (**miloddan avvalgi 1625–1595-yillar**) Bobilga xetlar bostirib kiradi. Lekin kassitlar tobora ko‘proq muvaffaqiyatga erishib, qizg‘in kurashlardan so‘ng, Dengizbo‘yi mamlakatini bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ladilar. Shoh Agum II (**miloddan avvalgi 1593–1574-yillar**) o‘zini kassitlar va Aqqod shohi va “dunyodagi to‘rt iqlimning podshosi” deb atagan.

Kassitlar Bobil shohligining qudratini qisman bo‘lsa-da tiklay olmaganlariga qaramay, har holda kassit shohi **Agum II** davrida Bobil birmuncha kuchaydi. **Agum II** Yuqori Frot mamlakatlariga qo‘shin tortib borib, Mesopotamiya dashtining bir qismini o‘ziga bo‘ysundirdi. Ushbu hukmdor o‘z yozuvlarida Xana mamlakatidan **Marduk** va **Sarpanit** haykallarini keltirib, ularni zarbof kiyimlar, qimmatbaho zeb-ziynatlar va dabdabali tojlar bilan bezatganini hamda ularni Bobildagi E-sagil¹ ibodatxonasida o‘rnatganligini faxr bilan aytadi. **Agum II** o‘zini *“Kashshu va Aqqod shohi, keng ko‘lamli Bobil mamlakati shohi, ko‘plab odamlarni Ashnunnakka ko‘chirgan shoh, Padan va Alman shohi, Guti mamlakatining shohi”* deb atagan.

Bobilda 500 yildan ortiq hukmronlik qilgan kassitlar qadimgi Shumer - Bobil madaniyati, dini, yozuvi va hatto bo‘ysundirilgan xalq tilini ham ko‘p jihatdan o‘zlashtirib olganlar. Kassit shohlari o‘zlarini *“Marduk arzandasi”* deb ataganlar. Ular Bobil va Shumer kohinlarini kuchaytirish choralarini ko‘rib, Marduk xudosi - *“mamlakatlar hukmdori”*ga bo‘lgan e‘tiqodini mustahkamlab, Nippur ibodatxonasiga g‘alla, moy, xurmo, un va qoramollardan iborat o‘lpon to‘laganlar. Zamonlar o‘tishi bilan kassit hukmdorlari, ko‘proq, Bobil madaniyati ta‘sirida qolganlar. Masalan, podsho Karaindash o‘zini *“qudratli hukmdor, Bobil podshohi, Shumer va Aqqod shohi, Kashshu (kassitlar) va Karduniash (Bobil) shohi”* deb atagan. Lekin Karaindashning vorislari butkul qadimgi Bobil madaniyatiga

¹ Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005.

Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

berilib, unvonlaridan **“Kashshu”** nomini tushirib qoldirganlar¹. Madaniyat sohasida erishilgan kichik muvaffaqiyatlar, asosan, harbiy ishda otdan foydalanish, yangi va yengil vaqt hisobini, ya'ni mamlakatni boshqarayotgan shohning hukmronlik yillari bo'yicha yil hisobini joriy qilishdan iborat bo'lgan. Bu tushkunlik **miloddan avvalgi VII asrgacha**, ya'ni qudratli Yangi Babil shohligi tashkil topguniga qadar davom etdi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Mesopotamiyaning iqtisodiy rivojida mamlakatning tabiiy Sharoiti qanday rol o'ynagan?
2. Qadimgi Mesopotamiya davlat tizimida dehqonchilikning o'rni va ahamiyati qanday bo'lgan?
3. Shumer va Aqqod hududidagi qadimgi shahar - davlatlarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishiga qaysi omillar sabab bo'ldi?
4. Sargon I va uning harbiy yurishlari haqida ma'lumot bering.
5. Sud-huquq tizimi qanday edi?
6. Hammurapi qonunlarining qadimgi Babil jamiyati rivojlanishidagi o'rni qanday bo'lgan?
7. Kassitlar bosqini oqibatlari qanday bo'ldi?

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

6-mavzu. Ossuriya davlatining tashkil topishi. Yangi Bobil podsholigi

Reja:

1. Ossuriyaning tabiiy Sharoiti.
2. Oʻrta Ossuriya davri.
3. Yangi Ossuriya davri.
4. Iqtisodiyot va ijtimoiy tuzum.
5. Yangi Bobil shohligining taraqqiy etishi.

Tayanch iboralar: «*Koʻplar shohi*», *shahar xonasi, quyosh xudosining oʻgʻli ilohiy hoʻkiz, qonuniy shoh Sharruken, patesi, «Ulugʻdengiz», Laban, shakkum, xun, nasaxu, Nabopalasar, Navuxodonosor, Nineviya, Ishtuvegu, Uax - ib - Ra, Ioakim Ishtuvega, «ummanmand»*,

Ossuriyaning Qadim zamonlarda Dajla daryosining Yuqori oqimi tabiiy sharoiti boʻylab, oʻrta qismini egallagan joylar Ossuriya deb atalgan. Hozirgi paytda bu yerlar Iroq davlatining shimoliy-Sharqiy qismiga toʻgʻri keladi. Uning hududi shimoliy-Sharqda Zagr togʻlari bilan chegaralanib, janubiy-Sharqda - Dajla daryosining quyi oqimi, ya'ni quyi Zab boʻylarigacha boʻlgan yerlarni egallagan. Ossuriyaning gʻarbini bepoyon Suriya-Mesopotamiya choʻli kesib oʻtgan.

Ashshur shahar - davlati va Ossuriya davlatining tashkil topishi. Ossuriya tarixi uch asosiy bosqichga boʻlinadi: Qadimgi Ossuriya davri (**miloddan avvalgi XX-XVI asrlar**), Oʻrta Ossuriya davri (**miloddan avvalgi XV-XI asrlar**) va Yangi Ossuriya davri (**miloddan avvalgi X-VII asrlar**).

Eng qadimgi ossur yozuvlariga koʻra, **miloddan avvalgi XV asrga** qadar "**Ossuriya**" tushunchasi mavjud boʻlmagan. Ossuriyaning eng yirik shaharlari: shimolda - Nineviya, Sharqda - **Arbaimu (Urbillum)**, janubda - **Ashur va Karana (Tell - ar - Rimax)**, gʻarbda - siyosiy va etnik jihatdan qorishiq boʻlgan. Keyinchalik ushbu shaharlar Ossuriya davlati uchun asos boʻlgan. Nineviya Ossuriyaning eng yirik shahrigina boʻlib qolmay, balki juda qadim tarixga ega edi.

“*Nineviya*” so‘zi xurritlar tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa, ajab emas. “*Ashshur*” esa som tillariga mansub deb faraz qilinadi¹.

Ossuriya shohi Shamshiadad I (**miloddan avvalgi 1813-1781 yillar**) erkin xalq ommasining manfaatlarini bir qadar himoya qilganligi ma'lum bo‘lib, binobarin hokimiyatni ham keng xalq harakati oqibatida qo‘lga kiritgan bo‘lsa, ajab emas. Shamshiadad o‘rta tabaqa erkin aholiga tayanib, Ossuriyani bir qadar mustahkamlashga erishdi. Shamshiadad Ossuriyaning shimol va Sharqidagi Tukrish hamda Kipr mamlakati shohlaridan xiroj olib turdi, “*Ulug‘ dengiz*” (*O‘rta dengiz*) dagi *Laban (Livan)* mamlakatida haykal o‘rnatdi. Shamshiadad Dagan xudosiga e‘tiqod qilgan, bu hol uning nafaqat Ossuriyaga, balki Xana mamlakatiga ham hokimlik qilganligidan dalolat beradi. Shamshiadad o‘zining Iasmxadad ismli o‘g‘lini Mari mamlakatiga shoh etib tayinlaydi va shu orqali Bobilga raqib bo‘lib oladi. Ossuriyaga qo‘shni bo‘lgan hududlarda kuchli Mitanni shohligi yuzaga kelib, u Misrning yordami bilan tez orada bir qancha qo‘shni o‘lkalar, shu jumladan, Ossuriyani ham istilo qiladi. Ossuriya **miloddan avvalgi XV asrda** Mitanni shohlariga qaram edi.

O‘rta Misr va Ossuriya davlatlarining siyosiy, iqtisodiy Ossuriya aloqalari Misr fir‘avnlari **Amenxotep III, Exnaton** davri hamda **Ashshur** podsholari **Ashshur - nadin - axxe II, Ashshurballit I (miloddan avvalgi XV asr oxiri - XIV asr boshlarida)** davrida keng rivojlangan. **Miloddan avvalgi II ming yillikda** Ossuriya Misr yordamida asta-sekin xalqaro maydonga chiqa boshladi. **Ashshurballit** Bobilga qo‘shin tortib, o‘z qarindoshi **Kurigalza III** ni Bobil taxtiga o‘tqizish va bu bilan Ikkidaryo oralig‘ining shimoliy-g‘arbida hamda shimolida Ossuriya ta‘sirini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldi.

Yuz yil davomida, ya‘ni **Adad - Nirari I, Salmanasar I va Tukulti - Ninurta I (miloddan avvalgi 1307-1208 yillar)** davrida Ossuriya shohligi yuksalishga erishdi. Istilochilik urushlari tufayli Ossuriya hududlari kengayib, harbiy-siyosiy qudrati kuchaydi.

Adad - Nirari I qo‘shni davlat qo‘shinlari ustidan bir necha marta g‘alaba qozondi. U Zagr viloyatlarida kassitlar Bobiliga qattiq

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

zarba berib, va bir necha shaharni qo‘lga kiritdi. So‘ngra g‘arbga yo‘l oldi, ya‘ni Mitanni shaharlarini, qolaversa, Suriyagacha kirib borib, Xarrandan tortib to Karxemishgacha cho‘zilgan keng hududni istilo etdi. Shunday qilib, O‘rta dengizning osur qirg‘oqlariga chiqib boradigan eng muhim savdo yo‘llarini qo‘lga kiritdi. **Adad-Nirari** istilochilik siyosatining keng quloch yoyganligiga urg‘u berish maqsadida *“ko‘plar shohi”* unvoni¹ni oldi.

Miloddan avvalgi XIII asrning 1 yarmida hukmdorlik qilgan **Salmanasar I** katta harbiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. U Uruatri (keyingi Urartu) shimolidagi sakkiz mamlakatni ishg‘ol qilish bilan birga, Ossuriyaning ta‘sirini yanada keng yoyish uchun shimoliy mamlakatlarda bir qancha koloniyalar barpo etdi. **Tukulti - Ninurta** istilochilik siyosatiga yanada zo‘r berdi. **Miloddan avvalgi XII asr** Ossuriyaning tashqi siyosatida Bobil va shimoliy yo‘nalishlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. **Tukulti - Ninurta** Elam o‘lkalari, Shimoliy Suriya, Van ko‘lining g‘arbidagi Nairi tog‘li mamlakati²ga harbiy yurishlar qildi.

Ossur hukmdorlarining barcha qo‘shni mamlakatlarga qarshi olib borgan davomli va qattiq urushlari Ossuriyani xiyla zaiflashtirib qo‘yadi va hatto ular vaqtincha bobilliklar ta‘siriga tushib qoladilar. (IV Bobil sulolasiga asos solgan shijoatli **Navuxodonosor I** davrida). **Miloddan avvalgi XII asr oxiridagina** hukmdor Tiglatpalasar (**miloddan avvalgi 1115-1077 yillar**) Ossuriyaning avvalgi qudratini tiklay oldi. Uning shimoldagi Nairiga g‘olibona yurishi hamda u yerda ko‘p va qimmatli o‘ljalarni qo‘lga kiritgani xususida topilma yozuvlarda batafsil bayon qilingan. Ossuriya shohi Suriyaga yurish qilib, Finikiya qirg‘og‘idagi Bibl, Sidon, Arvad kabi muhim savdo shaharlarini qo‘lga kiritadi, hatto uzoq Misr ham Ossuriya hukmdorining qudratini tan olishga majbur bo‘ladi. **Tiglatpalasar I** Aqqodga bir necha bor bostirib kirib, Sippar va Bobil shaharlarini bosib oladi. Ossuriya o‘zining eng xavfli dushmanlarini Dajlaning g‘arbidagi bepoyon cho‘llarga, asosan, Frot daryosining g‘arbiy

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

² Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005.

Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

qirg'og'iga uloqtirib tashlashga muvaffaq bo'lgan. Biroq uzoq davom etgan urushlar tufayli zaiflashgan Ossuriya ko'chmanchilarga yetarli qarshilik ko'rsata olmay tanazzulga yuz tutadi.

Miloddan avvalgi XIV asrga oid qonunlar to'plami qadimgi urf-odatlariga asoslangan huquq majmuasi tuzilganligidan dalolat beradi. Guvohlar o'z so'zlarining to'g'riligini tasdiqlash uchun "*quyosh xudosining o'g'li - ilohiy ho'kiz*" nomi bilan qasamyod qilganlar¹. Oliy sud majlislari esa, odatda shoh saroyida o'tkazilgan.

Qullikning bunday shakllari haqida Ossuriyaning **miloddan avvalgi XIV asrga** oid qonunlari aks etgan yozuvlardan ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Yangi Buyuk Ossuriya harbiy davlati (**miloddan avvalgi 1 ming Ossuriya yillik**). Bu davrga doir juda kam yozuv va yodgorliklar davri saqlanib qolgan. Ma'lumki, Old Osiyo shimolida **miloddan avvalgi II ming yillik oxirida** temir ishlatila boshlangan. Va hatto vaqt o'tishi bilan temir bronzani tobora siqib chiqargan. **Miloddan avvalgi XIII asrga** kelib, ibodatxona poydevorlarini qurishda temir buyumlar ishlatilgan. Ossuriya shohlari o'z qo'l ostidagi xalqlardan xirojni temir bilan to'lashni talab qilganlar.

Ossur shohi Ashshurnazirpal II (**miloddan avvalgi 884-859 yillar**) o'z hukmdorligining boshidan oxiriga qadar bosqinchilik siyosati yuritib, Ossuriyaning harbiy qudratiga asos soldi. Ashshurnazirpal oromiy qabilalarni o'ziga bo'ysundirganidan so'ng, bu qabilalar ossur shohiga xiroj to'lay boshladilar. Ayni paytda Ossuriya *Nairi qabilalari* orasida ham o'z ta'sirini tikladi. Uning G'arbda olib borgan urushlari muhim ahamiyatga ega edi. Ashshurnazirpal harbiy harakatlar natijasida O'rta dengizga yo'l ochib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Uning qo'shinlari Oront vodiysini kesib o'tib, Aman tog'larigacha borib yetgan va Ossuriya shohi qimmatbaho yog'och turlarini shu yerdan olgan. Finikiya shaharlari Ossuriyaga xiroj to'lab turgan. **Ashshurnazirpal** yangi poytaxt *Kalax shahrida* qurdirgan hashamatli saroy qoldiqlari hali ham bor.

Miloddan avvalgi IX asrda Salmanasar III (**miloddan avvalgi 859-824 yillar**) hukmronligi davrida o'ttiz ikkita harbiy yurish qilgan. **Miloddan avvalgi 856-yili** Salmanasar III Bit - Adinini o'ziga

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

bo'ysundirgan, oromiy shohligi poytaxti Til - *Barsibni* egallab, hashamatli saroy qurdirgan. **1929-1931-yillarda** ana shu shahardagi qazilmalar vaqtida saroy xarobalari topilgan. Ossur shohi bu shaharga siyosiy jihatdan katta e'tibor bergan, chunki Til - Barsib orqali muhim harbiy savdo yo'li o'tgan. **Salmanasar III** Suriya tomon yo'l olib, eng muhim shaharlarni qo'lga kiritish hamda O'rta yer dengiziga savdo yo'llari ochishni maqsad qilgan. Biroq, Damashqning shiddatli qarshiligiga duch kelgan. Oron bo'yidagi Karkara yonida, Xamatdan shimolroqda ikkala qo'shin to'qnash keldi. Qonli jangda (**miloddan avvalgi 854-yili**) **Salmanasar III** Suriya va Finikiya, shuningdek, Falastinni o'z ittifoqchilariga aylantirib, hatto arab qabilalari bu ittifoqqa qo'shilgan Damashq kuchlarini yenga olmadi. Faqat **miloddan avvalgi 840-yili** o'n olti harbiy yurishdan so'ng, Ossuriya hukmdori g'alabaga erishishga muvaffaq bo'ldi. Isroil, Tir, Sidon unga bo'ysunib, xiroj to'lay boshladilar. Ossuriya Urartu shimolidagi qabilalar bilan ham qattiq kurash olib borishga majbur bo'lgan. Ossur askarlari garchi Urartu tuprog'iga bostirib kirgan bo'lishlariga qaramay, Urartu davlatini mag'lub eta olmadilar.

Miloddan avvalgi VIII asrda xalqaro vaziyatning o'zgarishi Ossuriya davlatining orqaga qarab ketishiga sabab bo'ldi. Old Osiyoning shimoliy qismida endi Urartu davlati hukmronlik vaziyatiga ega bo'ldi.

Ossuriyaning Ossuriya davlatining tiklanishi. **Miloddan avvalgi uchinchi VIII asr o'rtalarida** Ossuriya yana kuchaydi. **yuksalishi Tiglatpalasar III (miloddan avvalgi 745 - 727 yillar)** o'zidan avvalgi shohlarning istilochilik siyosatini davom ettirdi. **Tiglatpalasar III** Urartuga ilk muvaffaqiyatli yurishlar qildi. Tiglatpalasar Urartu podsholigini bo'yin egdira olmagan bo'lsa-da, uni bir muncha kuchsizlantirdi. Old Osiyoning shimoliy-g'arbiy qismida Ossuriyaning avvalgi qudratini qayta tiklagan Tiglatpalasar **miloddan avvalgi 729-yilda** Bobilga yurish qilib, o'ziga qo'shib oladi va buni Bobil kohinlari ham qo'llab-quvvatlaydilar.

Tiglatpalasar III shohligi davrida muhim islohotlarni amalga oshirdi. Islohotlar ma'muriy va harbiy sohalarga taalluqli bo'lgan. **Tiglatpalasar III** dan keyin uning o'g'li **Salmanasar V** taxtga o'tirib (**miloddan avvalgi 727-722-yillar**), besh yil mobaynida bir qancha yurishlar qilgan va muhim islohot o'tqazgan. Haddan tashqari

keskinlashib borgan sinfiy ziddiyatlarni bir qadar yumshatish maqsadida, **Salmanasar V** Ossuriya va Bobilning Ashshur, Nippur, Sippar, Bobil kabi qadimgi shaharlariga berilgan moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlar hamda soliqlarga oid yengilliklarni bekor qildi¹.

Sargon II (miloddan avvalgi 722-705 yili) “*qonuniy shoh-Sharruken*” deb nom olgan hokimiyat tepasiga zoʻrlik bilan kelganligini koʻrsatadi. Misr yordamida koʻtarilgan qoʻzgʻolonlarini bostirish uchun Sargon II Suriyaga yana qoʻshin tortib borishga majbur boʻladi. Bu urush natijasida Sargon II Isroilni tor-mor keltirib, Samariyani ishgʻol qiladi va 25 ming kishini asir oladi.

Sargon II hukmdorligining 7 va 8 yillarida Urartu ustidan yirik gʻalaba qozondi. Elam mamlakati qoʻllab - quvvatlagan Bobilga qarshi kurash **Sargon II** uchun oʻta mashaqqatli kechdi. Shoh Urartu ustidan qozongan gʻalabasidan soʻng, lidiyaliklar bilan eronliklar yashaydigan oʻlkalarda oʻz taʼsirini kuchaytirish imkoniga ega boʻldi. **Sargon II** yangi poytaxt - Dur - Sharrukin shahri²ni barpo qildi.

Sargon II oʻgʻli **Sinaxxerib (miloddan avvalgi 705-681-yillar)** davlati u qadar kuchli boʻlmay, unga xavf solgan yangi ittifoqlar yuzaga keladi. Suriya, Finikiya va Falastindagi kichik shohliklar qaytadan birlashdilar. Tir va YAhudiya shaharlari Ossuriyaga qarshi qoʻzgʻolon koʻtaradilar. Ossuriya hukmdori diplomatiya yoʻli bilan ish koʻrishga majbur boʻladi.

Miloddan avvalgi 679-678-yillarda Assarxaddon Bobilni qayta tiklashga muvaffaq boʻldi. Ossuriya davlatining inqirozga yuz tutishi. Ossuriya davlatining soʻnggi kuchli hukmdori - **Ashshurbanipal (miloddan avvalgi 669-635/627-yillar)** hukmronligining soʻngiga qadar bu ulkan davlatning birligi va harbiy-siyosiy qudratini mashaqqat bilan saqlab keldi.

Ossurlar boʻysundirgan xalqlar ezuvchilariga qarshi kurashni davom ettirish bilan cheklanmay, Ossuriyaga qarshi ittifoq tuzadilar. Shu tariqa Ossuriyaga qarshi juda qudratli ittifoqqa Aqqod, Xaldeya oromiylari, Elam, Gutium va Misr qoʻshiladi.

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

² Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005.

Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

Ashshurbanipal Misrga qarshi qo'shin yo'llaydi-yu, ammo maqsadiga erisha olmaydi. Fir'avn **Nexoning** o'g'li **Psametik** Ossuriyaning ichki muammolaridan foydalanib, undan ajralib chiqadi va mustaqil Misr hoqonligini barpo etadi. **Ashshurbanipal** Finikiya bilan Suriya ustidagi o'z nazoratini saqlash uchun ancha kuch sarflashga majbur bo'ldi.

Ossuriya davlati asta-sekin kuchsizlanib borayotgan bir paytda uning shimol va Sharqida yashovchi ko'p sonli ko'chmanchi qabilalar, xususan, kimmeriyalar, skiflar, lidiyaliklar va forslar Ossuriyaga xavf sola boshlaydilar.

Shunday qilib, jahonda juda katta kuch-qudratga ega bo'lgan hamda 150 yil mobaynida Old Osiyoni birlashtirib turgan Ossuriya davlati barbod bo'ldi.

Bobil kassitlar istilosidan keyin zaiflashib, Mesopotamiyaning eng muhim iqtisodiy markazi sifatidagi ahamiyatini yo'qotdi. **Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlarida** Mesopotamiyaning janubiy qismida xaldeylardan bo'lgan semit qabilasi paydo bo'ldi.

Yangi Bobil podsholigi Bobil **Ashshurbanipal (miloddan avvalgi 626-yili)** vafotidan so'ng Ossuriyaning kuchsizlanib qolganidan foydalanib, Midiya bilan ittifoq tuzdi. Xald urug'i vakili bo'lgan va Bobilga yuborilgan lashkarboshi **Nabopalasar (miloddan avvalgi 626 - 604 yili)** o'zini Bobil shohi deb e'lon qiladi va Bobil hukmdorlarining yangi sulolasiga asos soladi. Bobil kohinlari, zodagonlar hamda Midiya shohi **Kiaksar** bilan tuzilgan harbiy ittifoqqa tayangan **Nabopalasar** Ossuriyaga qaqshatqich zarba berdi. Ossur shohlarining hashamatli va obod poytaxti Nineviya **miloddan avvalgi 612-yilda** batamom vayron qilindi. Ossuriya shohligi vayronalari ustida keyinroq yangi Bobil - Xaldeya davlati qad ko'tardi¹.

Iqtisodiyot va ijtimoiy tuzum. Bobil ilgarigi davrdagidek, asosan, qishloq xo'jaligi mamlakati bo'lib, ko'plab daryolari, o'tloq va daryo vodiylariga tutashgan keng dalalari chorvachilikni taraqqiy ettirish imkonini bergan. Mulkiy jihatdan keskin tabaqalanish, quldorlik xo'jaligi taraqqiy etishi va o'sishi chorvaning boylar qo'lida to'planishiga olib keldi. Sug'orish tizimiga asoslangan dehqonchilik

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

mamlakat xo‘jalik hayotida shu qadar katta rol o‘ynaganki, o‘sha zamon qonunlariga maxsus moddalar kiritilib, unda yerga sifatli ishlov berilishi hamda sug‘orish tarmoqlarini batartib saqlashga alohida urg‘u berilgan.

Yangi Bobil **Miloddan avvalgi VII asr boshlarida** Bobil Podshohligining quldor zodagonlari katta nufuzga ega bo‘lganlar. taraqqiy etishi Katta ibodatxonalarning bosh koinlari shular tarkibiga kirgan. Bobil podshohligining chegaralarini mustahkamlash muhim siyosiy vazifalardan biri bo‘lgan. Bobil uchun ikki daryo oralig‘ining shimoliy-g‘arbiy qismida mustahkamlanib olish zarur edi. Ossuriyaning kuchsizlanganidan foydalangan **Psantik** Misrning Falastinga bo‘lgan siyosiy ta'sirini qaytadan tiklash maqsadida **miloddan avvalgi VII asr oxirida** bu yerga bostirib kiradi. Misrning navbatdagi fir'avni **Nexo** nafaqat Falastinni, balki Finikiya bilan Suriyani ham bosib olish maqsadida ishga kirishadi. Misr fir'avni Megiddo yaqinidagi jangda yahudiy qo‘shinlarini tor-mor keltirib, Quddusga xiroj solib, Finikiya shaharlarini qo‘lga kiritadi. U Sidon shahrida zafarnomasini yozib qoldirgan.

Harbiy kuchlari yetarli bo‘lmagan **Nexo** butkul mag‘lub bo‘lib, shoshilinch ortga chekinishga majbur bo‘lgan. **Navuxodonosor II (miloddan avvalgi 605-562-yillar)** harbiy muvaffaqiyatlaridan to‘la ravishda foydalangan. U Nil daryosi deltasigacha yetib borib, Suriyani egallab, misrliklarni Old Osiyodan batamom siqib chiqaradi. **Navuxodonosor** g‘oyat ehtiyotkor hukmdor bo‘lganligi sababli, ana shu erishgan yutuqlari bilan cheklangan.

Misr tarafdorlari anchagina ko‘p edi, shu jumladan, YAhudiya shohi Ioakim ham Misrni qo‘llab-quvvatlagan. Yahudiyaning Bobildan ajralib chiqib, Bobilga xiroj to‘lashdan bosh tortishi yangidan urush boshlanib ketishiga bahona bo‘ldi. **Navuxodonosor** Yahudiya ustiga qo‘shin tortib, Quddus shahrini qamal qiladi. Bobil qo‘shinlari qal'a devorlari bilan o‘rab olingan bu poytaxt shaharni uch oy qamaldan so‘ng, oxiri **miloddan avvalgi 597-yilda** egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Fir'avn **Uax - ib -Ra** (Airiy) Suriya sohillarini egallash va shu orqali siyosiy hukmronlik qilish uchun zarur asosiy hududlarni qo‘lga kiritish maqsadida, qo‘shin va harbiy flotga bosh bo‘lib, Osiyo tomon otladi.

Yahudiylar shiddatli va qonli janglarda Yahudiya davlatining hayot-mamoti uchun, poytaxtlarini qattiq turib, qahramonlarcha mudofaa qiladilar. Biroq baribir yahudiylar qarshiligi sindiriladi. Babil qo‘shinlari Quddusni shijoat bilan qo‘lga kiritib, shaharni vayron hamda talon-taroj qilib, unga o‘t qo‘yib yuborganlar (**miloddan avvalgi 586-yil**).

Babil shohi isyonchilarni qattiq jazoladi. Yahudiya hukmdori Sidkiya qolgan-qutgan qo‘shini bilan birga Iyerixon tekisligida qo‘lga tushadi va ko‘zi o‘yilib, ko‘r qilinadi. Yahudiya shahzodalari esa qatl qilinadi. Ko‘plab yahudiylar asir olinib, Babilga haydab olib ketiladi. **Miloddan avvalgi 586-yilda** vayron qilingan Quddus yong‘ini¹da yahudiylarning erkin va mustaqil davlat haqidagi orzulari batamom puchga chiqdi. Babil shohi Suriyada o‘z hokimiyatini mustahkamlab, Falastinga egalik qila boshladi. Ammo **Navuxodonosor** Suriyani o‘ziga tobe qilish uchun Finikiya shaharlarini uzil-kesil bo‘ysundirishi kerak edi. Finikiya davlatining qadimgi poytaxti - boy va qudratli Tir - savdo markazi bo‘lib, shaharlar orasida yetakchi o‘rinlardan birida turardi. Tir aholisi o‘z mustaqilligini mardlarcha himoya qildi.

Yaxmos II bu bilan Babilning O‘rta dengiz Sharqidagi yerlarini egallashida qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Babil hukmdori Mesopotamiya, Suriya, Finikiya va Falastinni istilo qilgan bo‘lishiga qaramay, shoshilinch bunyod etilgan saltanatning u qadar mustahkam emasligini o‘zi ham bilardi. Nahrilqalb daryosi buyidagi qoyalarda Misr fir'avnlari va Ossuriya istilochilarining tantanali g‘alabalariga oid ma'lumotlar mavjud. Ammo Navuxodonosor haqidagi yozuvlarda Yuqoridagi g‘alabalar haqida hech narsa aytilmagan.

Navuxodonosor miloddan avvalgi 562-yilda vafot etdi. Uning 43 yillik hukmdorligi davrida Yangi Babil podsholigi yuksak taraqqiyotga erishdi. **Miloddan avvalgi 555-yildagi** davlat to‘ntarishidan keyin Babil taxtiga o‘tirgan **Nabonid Navuxodonosor II** ishini davom ettirish niyatida bo‘lib, **Navuxodosorni** o‘z yozuvlarida homiysi sifatida ko‘p bora hurmat bilan tilga oladi².

¹ Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005. Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

² История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

Nabonid 17 yillik (**miloddan avvalgi 555-538-yillar**) hukmdorligi davrida mamlakat butunligini saqlash uchun qattiq kurash olib borgan. U shohligining dastlabki yillari shimoliy Suriyada ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirib, **Xamat** hamda **Amurru** mamlakatiga qo'shin tortib, to Edemning janubigacha yetib boradi. Ammo Babil uchun asosiy xavf uyasi bu yerda emas edi. Suriya bilan Falastin bostirilgan, shuningdek, kuchsizlanib qolgan Misrdan yordam kuta olmasdilar. Tir shahrini **Nabonid** podsho qilib ko'targan **Xiram II** idora qilar edi. Mesopotamiyaning shimoliy qismida Babil uchun ancha mushkul ahvol yuzaga keladi. Midiya hukmdori **Astiag (Ishtuvegu)** Shimoliy Mesopotamiyaga yurib, Xarran o'lkasiga kirib boradi. Yozuvlardan ma'lum bo'lishicha, **Nabonid "ummanmand"larga (midiyaliklarga)** qarshi chiqadi-yu, lekin midiyaliklarni undan avval **Anshana** shohi **Kayxisrav** tor-mor keltiradi. Midiya hukmdorligining yemirilib, Eron yuksalayotganini ko'rgan **Nabonid** o'zining shimoliy-g'arbiy chegaralarini mustahkamlashga qaror qilgan va shu sababli, o'z so'zlariga ko'ra, **Xarranda** bu yerga midiyaliklarning xurujidan katta zarar ko'rgan muqaddas qadamjolarini tiklashga alohida e'tibor bergan.

Eron bosqini xavfini avvaldan sezgan **Nabonid** Arabiston bilan aloqalarini mustahkamlash niyatida Teymaga lashkar tortib, uni bosib olib, o'z qarorgohiga aylantiradi. **Nabonid** Teymada o'zini bir qadar tinch sezardi. Siyosat maydonidagi vaziyat Babil saltanati uchun tobora xavfli bo'lib bordi. Eron shohi **Kayxisrav miloddan avvalgi 550-yilda** Midiyani bo'ysundirib, Lidiyaga qarshi o'tlanadi. Lidiya saltanatini egallab, shu orqali Mesopotamiyani Sharq va shimoldan o'ziga qarashli yerlari bilan o'rab oladi. Eron shohining barcha yutuqlari Babil qaydlarida batafsil ko'rsatilgan. Qaydnomaning **miloddan avvalgi 546-yilga** oid bobida elamiylar (forslar yoki ularning Elamdagi ittifoqchilari deb taxmin qilinadi) Aqqodga bostirib kirganligi va Urukka Elam hokimi tayinlanganligi aytiladi. Forslar Dajla daryosining Sharqida Quyi Zab, Dajla daryosi vohasidagi Gutium o'lkasini bosib oladilar. Kayxisrav **miloddan avvalgi 539-yilda** Mesopotamiyaga bostirib kirib, Opis yonida Babil qo'shinlarini tor-mor keltirgan. **Miloddan avvalgi 538-yilda Kayxisrav** Sipparni ishg'ol qilib, Babil chegaralariga yaqinlashadi. Nabonidning xudojo'y va olimligi ham, butun mamlakatdan keltirilgan xudo haykallari ham

(Nabonid ularni yig'ib, Bobilni g'oyat katta qadimgi diniy yodgorliklar muzeyiga aylantirgan¹) uni qutqarib qololmadi. Kayxisrav **miloddan avvalgi 538-yilning** kuzida Bobilga kirib, **Nabonidni** taxtdan chetlashtiradi va Bobilni qudratli Eron davlati tarkibiga qo'shib oladi.

Bobil Old Osiyoning eng katta savdo markazi hamda nafaqat qadimgi Sharq, balki butun qadimgi dunyo madaniy hayot taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan madaniyat markazi sifatida o'z ahamiyatini muayyan muddat saqlab qoladi.

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

7-mavzu. Mesopotamiya davri bo'yicha manbalar va tarixnavislik. Ossuriya va yangi bobil podsholigi davrida madaniyat.

Reja:

1. Qadimgi Mesopotamiya tarixi va manbashunosligi.
2. Yozma hujjatlar.
3. Diplomatik hujjatlar.
4. Tarixiy yozuvlar - solnomalar.
5. Antik mualliflarning asarlari.

Tayanch iboralar: *sivilizatsiya, mixxat, manbashunoslik, tarixnavislik, kolleksiya, solnoma, ekspeditsiya, antik dunyo, deshifrovka, shumershunoslik, ossurshunoslik, piktografiya, «Kir manifesti», «Rassam Silindri», «Osma bog'lar», “suv tubining chin o'g'li”, Marduk, patesi, piktografiya, mixxat tizimi, Ea, Sin Utu, Shamash, Ishtar, lugal, Gilgamesh, pretsessiya, Xammurapi, Gerakl, Gerodot, Aqida, epik poema, mirza (kotib), solnoma, monument, relyef.*

Mesopotamiya - yunoncha «*Ikki daryo oralig'i*» degan ma'noni anglatadi. Frot (uzunligi 2700 km) va Dajla (uzunligi 1900 km) daryolari shimolda Armaniston tog'laridan boshlanib, janubda ular Fors ko'rfaziga quyiladi. Bir necha ming yillar avval bu ikki daryo alohida-alohida Fors ko'rfaziga quyilgan, keyinchalik ming yillar o'tishi bilan ular Shatt-al-arab deltasida birlashib, hozirgidek Fors ko'rfaziga qo'yiladigan bo'lgan.

Bundan olti ming yil ilgari Frot va Dajla daryolari vodiylarining janubiy qismiga shumerliklar, shimoliy qismiga esa yirik ko'chmanchi qabilalar - aqqodlar kelib joylashgan. Bu vodiylarda qadimgi Shumer va Aqqod sivilizatsiyalari vujudga kelgan.

Mesopotamiya (asosan, hozirgi Iroq respublikasi hududi) Yaqin Sharq markazida joylashgan bo'lib, qadimdan bu mintaqa orqali ko'plab savdo yo'llari g'arbdan Sharqqa, shimoldan janubga tomon o'tgan.

Arxeologik qazilmalar Mesopotamiyada arxeologik qazilmalar **XIX asrning o‘rtalaridan** boshlandi. Bu ishlarni amalga oshirish, umuman, Mesopotamiya tarixini o‘rganishda Yevropa, Amerika arxeologlarining xizmati katta. Birinchi arxeologik kashfiyotlar **1842-yilda** Mesopotamiyaning shimoliy qismida fransiyalik diplomat, tibbiyot mutaxassisi **E.P.Botta** tomonidan amalga oshirildi¹. U, avval, Kuyunjik tepaligida qazish ishlarini olib borib, so‘ng o‘z ishini Xorsobod qishlog‘ida davom ettirdi. **1843-yilda E.P.Botta** bu yerdan Ossuriya podshosi **Sargon II** ning qimmatli saroy xarobalarini topdi.

1845-1847-yillarda ingliz diplomati **G.A. Leyyard** Nimrud tepaligida arxeologik qazishlarni amalga oshirdi. Bu mutaxassis Sharq tillarini yaxshi bilib, YAqin Sharq bo‘ylab ko‘p sayohat qilgan edi.

G.A. Leyyard Nimrud tepaligi ostida saqlanib qolgan Ossuriya shahri - *Kalxu xarobalarini* kashf etdi. Bu shaharda podsholar saroylari, qasrlar, insu jinlardan saqlaydigan ho‘kiz-odam, sher-odam tasvirlari tushirilgan yirik haykallar, turli manzaralarni aks ettirgan relyeflar va boshqa madaniy yodgorlik qoldiqlari topilgan.

1847-yilda G.A. Leyyard yana bir ajoyib kashfiyot qildi. U Kuyunjik tepaligida qazish ishlarini olib borib (**E.P.Botta «bu tepalikda qazish ishlarini amalga oshirish natija bermaydi»**, deb aytgan), Ossuriyaning dushmanlar tomonidan yondirilgan va vayron qilingan poytaxti - Nineviya shahri, shu bilan birga **miloddan avvalgi VII asrda** yashagan podsho Sinaxerib hamda nevarasi Ashshurbanipal saroyi va kutubxonasini topdi. Kutubxonadan loydan ishlangan mixxatli yozuvlar topildi. Mutaxassislarning fikricha, Ashshurbanipal kutubxonasi saroyning ikkinchi qavatida joylashgan bo‘lib, yong‘in chog‘ida qulab tushgan. Mixxatli jadvallar katalogida o‘sha vaqtdagi asarlar ro‘yxati berilgan. Har bir jadvalga **“Ashshurbanipal saroyi”** degan muhr o‘yib bosilgan.

Leyyard topgan qazilmalar, keyinchalik, Londondagi Britaniya muzeyining qadimgi Sharq kolleksiyalari asosini tashkil qildi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Mesopotamiyadagi arxeologik qazish ishlarining yangi bosqichi boshlandi. Bu vaqtda Dajla va Frot daryolari vodiylaridan ko‘plab

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

shaharlarning vayronalari topildi. **Leyyard - O. Rassam** xodimlari Kuyunjik tepaligini tadqiq qilishda davom etdilar va Ossuriya podshosi Ashshurbanipal saroyi, ov, harbiy sahnalarni aks ettirgan relyeflarni topishdi.

Nimrud tepaligidan 14 km narida Balavat nomini olgan joydan **O.Rassam miloddan avvalgi IX asrga** tegishli Ossuriya yodgorliklari, shuningdek, podsho **Ashshurbanipal II** ning ibodatxonasi hamda **Salmanasar III** ning o'sha davrdagi harbiy yurishlarini tasvirlagan va shahar darvozasi ustiga bronza plitalar qoplangan Balavat darvozasini topdi.

Bundan tashqari, O.Rassam Mesopotamiyaning turli burchaklaridan qator yozma hujjatlar, shu jumladan, "**Kir manifesti**", "**Rassam silindri**" deb nom olgan Ashshurbanipalning solnomasi¹ni hamda Ossuriya va Bobil podsholarining yozuvlari, ish yuritish va ma'rifiy hujjatlarini topdi.

Mesopotamiyadagi qadim shaharni o'rganishda Angliyalik geolog **V.Loftus** ham katta hissa qo'shdi. U Varka xarobalarini tadqiq qila turib, qadimgi Uruk shahri hamda ibodatxona kutubxonasida saqlangan hujjatlarni topdi. Loftus, shuningdek, qadimgi Larsa (hozirgi Senkere) shahri, undagi saroy, quyosh xudosi ibodatxonasi va turli sohalarga oid hujjatlarni aniqladi.

1854-yilda ingliz diplomati **J.Taylor** El - Mukayir tepaligida arxeologiya ishlarini amalga oshirib, Ur shahri, Shumer shaharlaridan bo'lgan Eredu shahrini topdi².

Mesopotamiyaning qadimgi shaharlarini o'rganishda fransuz diplomati **E. de Sarzek** jiddiy natijalarga erishdi. U **1877-1900-yillarda** Tellox tepaliklari ostidagi shumerlar shahri - Lagashni kashf qildi. Unda shahar hokimlarining tosh haykallari, kumush va alebastrdan ishlangan vazalari topildi. Tello tepaligida topilgan yodgorliklarning ichida "**burgutlar**" deb atalgan plitaning parchasi juda qiziq edi. Unda Lagash shahrining hukmdori - Eannatumning qo'shni shahar - Ummu ustidan erishgan harbiy g'alabasi, ya'ni

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

² История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

“*Burgutlar*” plitasida jangda halok bo‘lgan askarlar jasadini burgutlar g‘ajib yotgan manzarasi aks ettirilgan edi.

1888-yilda Amerika arxeologlaridan **J.Peters**, Xilprext va boshqalar uch ming yil yashagan qadimgi Nippur shahrini kashf qildilar. Bu shahar o‘zining bahaybatligi bilan kishini hayratga solardi. Undan 60 mingdan ziyod yozuvli taxtachalari bo‘lgan ibodatxona kutubxonasi, qasrlar, turli xo‘jalik inshootlari, qurilishlar, maktab, bozor, savdo rastalari, turar joylar, ish hujjatlari saqlangan katta arxiv topildi.

XX asr boshlarida qadimgi Mesopotamiya hududida muhim ahamiyatga ega kashfiyotlar yuz berdi. **R.Koldevey** rahbarligidagi nemis arxeologik ekspeditsiyasi Bag‘doddan 50 km janubdagi tepaliklarda tekshirish ishlarini amalga oshirdi. Natijada qadimgi Bobil (*Bob - elon - Xudo darvozasi*) - Vavilon shahri ochildi. Bobil bir necha ming yil davomida Mesopotamiyaning yirik iqtisodiy, siyosiy, madaniy-diniy markazi bo‘lgan. **1899-1917-yillarda** arxeologik qazish ishlari tufayli shahar devorlari, eng mashhur podsholardan biri - **Navuxodonosor II** saroyi, diniy udumlar ko‘chasi, Bobil xudosi Marduk ibodatxonasi qoldiqlari, saroy peshayvoni, dunyo mo‘jizalaridan biri - “*Osmabog‘lar*” kabi noyob yodgorliklar topildi. Ushbu yodgorliklar Berlin muzeyining yorqin kolleksiyalarini tashkil qildi. **1903-1914-yillarda** nemis arxeologi V. Andre Kalaat - Sherg‘otda Ossuriyaning yana bir qadimiy poytaxti - Ashshur shahrini ochib, u yerda turar joylar, podsho bosh suyaklari hamda ularning qasrlari va ibodatxonalari xarobalari borligini aniqladi.

Xuddi shu paytlarda nemis arxeolog mutaxassislardan **R.Koldevey**, **V.Andre**, **A. Neldeke** va boshqalar qadimgi shumerlar shahri Shuruppakni ochishdi. **XX asrning 20-30 yillarida** Mesopotamiyaning Lagash, Kish, Eredu kabi shaharlari faol o‘rganildi.

1933-1939-yillarda fransuz arxeologlari **A. Parro** rahbarligida katta arxeologik izlanishlarni boshlab yubordilar¹. Ular Tell-Xariri tepaligi ostidagi qadim Mari shahrini topdilar. Qazish ishlari natijasida fransuz arxeologlari **miloddan avvalgi II ming yillikda** Mari

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

podshosi **Zimrilim** qurdirgan saroyini topishdi. Unda 20 mingdan ziyod turli hujjatlar to'plangan yozuvlar borligi aniqlandi.

1922-1934-yillarda L. Vulli rahbarligida ingliz arxeologik ekspeditsiyasi qadimgi Ur shahrini topish yuzasidan qazish ishlarini amalga oshirdi. Natijada Ur shahrining **miloddan avvalgi IV ming yillikdan to miloddan avvalgi IV asrgacha** bo'lgan tarixini o'rganish imkoni paydo bo'ldi. Tadqiqot materiallari Vulli tomonidan tayyorlangan 5 tomlik asarda (**1927-1939-yillar**) nashr qilindi.

1925-1930-yillarda Amerika arxeologlari ham hozirgi Kirkuk yonidagi tepaliklarda qazish ishlarini olib borib, saroy, ibodatxona, xo'jalik jihozlari, turar joy va yirik hujjat to'plamlarini aniqlashdi. Shuningdek, **1930-1936-yillarda** Amerika olimlari **G.Frankfort, T.Yakobsen** va boshqalar Mesopotamiya podsholigi markazlaridan biri - uncha katta bo'lmagan Eshnunna (hozirgi Tell-Asmar)ni ochdilar¹.

Arxeologik qidiruv ishlarida Iroq olimlari va arxeologlari ham faol ishtirok etishdi. Masalan, **Fuad Safar, Taxa Bikir, Muhammad Ali Mustafo** va boshqalar bir necha joylarda arxeologik qazish ishlarini olib borib, Qadimgi Mesopotamiya tarixiga oid matematik jadvallar, qonunlar majmuasini topishga erishdilar. Nebi-Yunus tepaligida o'tkazilgan qazilmalar asosida podsho **Asarxaddonning** saroyi, xo'jalik inshootlari, ko'plab yozma hujjatlari va boshqa topilgan yodgorliklar Bag'dod muzeylarini boyitdi. Ilgari bu yodgorliklar Yevropa va Amerikaga olib ketilar edi.

Yevropa va Amerika olimlari hamda arxeologlarining **XX asrning 40-70-yillarida** Mesopotamiyaning turli tuman va shaharlarida olib borgan tadqiqotlari tufayli shahar devorlari, qal'alar, hunarmandlar maskani, ibodatxonalar, qimmatbaho ashyolar, san'at asarlari, diplomatik va boshqa hujjatlar, qabrlar, shuningdek, Ossuriya, Babil podsholarining yozma yodgorliklari va boshqa ko'plab moddiy madaniy yodgorliklar topilib, ular qadimiy Mesopotamiya tarixi va madaniyatini o'rganishda beqiyos ma'lumotlar berdi. Moddiy madaniyat yodgorliklarini (**miloddan avvalgi III-II ming yilliklar**) Eredu, Ur, Uruk, Lagash, Nippur, Mari, Ash, Ashshur,

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Nineviya, Bobil va boshqa shaharlarda topilgan arxeologik qazilmalarda yaqqol ko‘rish mumkin.

Yozma manbalarni bir necha turlarga: xo‘jalik, yuridik, diplomatik hujjatlar va solnomalarga bo‘lish mumkin.

a) Mesopotamiyadagi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishda xo‘jalikka oid hujjatlar muhim rol o‘ynaydi. Bunday hujjatlar Mesopotamiya shaharlarida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar vaqtida juda ko‘plab topilgan.

Ana shunday hujjatlardan bizgacha yetib kelgan eng qadimgilari Uruk va Jamdat - Nasra shaharlarida topilgan xo‘jalikka mansub arxivlar bo‘lib, ular 1000 ga yaqin loy taxtachalaridan iborat. Ushbu hujjatlar piktografik belgilar yoki mixxat shaklida yozilgan. Ularda xo‘jalikka doir hisobotlar, oziq-ovqat maxsulotlari, asbob-uskunalar, qullar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shunga o‘xshash xo‘jalik arxivlari **miloddan avvalgi III ming yillikning** birinchi yarmida Ur, Lagash, Shuruppak, Adabe kabi shumer shaharlarida topilgan. Ayniqsa, Ur qazilmalari vaqtida ma'muriy ko‘rsatmalar va savdo-sotiq haqidagi xususiy, davlat hamda ibodatxona, xo‘jalikka oid juda ko‘plab arxivlar topilgan. Shulardan 5 tasi xususiy arxiv bo‘lib, kohin, zodagon, sudxo‘rlarga tegishli bo‘lgan. Ular Ur qazilmalari vaqtida topilgan. Hujjatlar **II ming yillikning** bosh davriga oid Ossuriya, oromiy savdogarlarining arxivlari bo‘lib, bunda 10 mingdan ziyod taxtacha saqlangan. Ularda hisob-kitob, savdo bitimlari, qarz, tilxat, sud qarorlari va boshqalar o‘z aksini topgan. Bu arxivlar Kichik Osiyodagi Kultepadan topilgan. Bu yerda Kanish savdo koloniyasi - yirik xalqaro savdo birlashmasining markazi joylashgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida qadimgi Arrapxidagi qazilmalar chog‘ida 4 ming loy likopcha topilgan. **II ming yillikning oxirida (miloddan avvalgi XII-XI asrlar)** qadimgi Ossuriya shaharlari: Ashshur va Shibanibeda (hozirgi Kalat - Sherg‘it, Tellas - Billa) 760 dan ziyod xo‘jalik hujjatlari saqlangan podsho hujjatxonasi topilgan. **1 ming yillikning oxirida** 10 ming hujjatdan iborat bo‘lgan xo‘jalik arxivi Nippur, Bobil, Barsip, Ur, Uruk va boshqa shahar qazilmalari vaqtida topilgan. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Huquqshunoslikka oid yodgorliklar. Mesopotamiya tarixiga oid eng muhim manba - adliya yodgorliklari, qonunlar to‘plamidir.

Qadimgi Sharq mamlakatlarining birontasida Mesopotamiyadagi kabi ko'p miqdorda qonunlar to'plami saqlanib qolmagan. Bular orasida eng qadimgisi Ur - Nammu qonunlari bo'lib, **miloddan avvalgi III ming yillikning** oxiriga to'g'ri keladi. Bu qonunlardan Shumer-Aqqod podsholiklari davrida foydalanishgan. Bu qonunlarning katta qismi saqlanmagan bo'lib, ulardan kirish qismi va bir nechta modda qolgan, xolos.

Eng katta qonunlar to'plami podsho Hammurapi qonunidir. Bu qonun 282 modda, kirish qismi va xulosadan iborat. Hammurapi Bobildagi barcha podsholarning eng mashhuri edi. U **miloddan avvalgi 1792 yildan-1750 yilgacha**, ya'ni 42 yil podsholik qilgan¹. Avvalo, bu qonunlar loy likobchalarga mixxat ko'rinishida bitilgan, keyinchalik esa, qora bazaltdan ishlangan ustunga o'yib yozilgan. Bu ustun **1901-yilda** fransuz arxeologi tomonidan Elam poytaxti - Suza shahrida arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan. Hammurapi qonunlari bitilgan bu ustun harbiy o'lja sifatida Suzaga olib kelingan. Bundan tashqari, qadimgi Ossuriya davlati xukumronligi davrida qabul qilingan qonunlardan lavhalar saqlanib qolgan. Ushbu qonunlar to'plami va yuridik hujjatlar tadqiqotchilar uchun Mesopotamiya davlatidagi mulkchilik va iqtisodiyotning qay darajada bo'lganligini o'rganish hamda oila, tabaqalar va ular o'rtasidagi xuquqiy me'yor, munosabat, sud jarayonlarini aniqlashda katta ma'lumot beradi.

Diplomatik hujjatlar. Eng qadimgi diplomatik hujjatlardan biri **miloddan avvalgi III ming yillikning** birinchi yarmiga tegishli bo'lgan Lagash bilan Umma shaharlari o'rtasida yuz bergan chegara mojarolarini aks ettirgan ikkita loy silindrlarga bitilgan yozuvlar hisoblanadi.

Bundan tashqari **miloddan avvalgi XXIII asrda** Aqqod podshosi bilan Elam podshosi o'rtasida imzolangan teng huquqli Shartnoma hamda Mari podshosi **Zimrilim** saroyi xarobalarini qazish vaqtida (**II ming yillik boshlarida**) topilgan arxivda ham muhim diplomatik hujjat mavjud. Arxivda Bobil, Mari davlat arboblarning Suriya va Finikiya hokimlari o'rtasidagi juda ko'p yozishmalari saqlangan.

Mesopotamiya hududidagi davlatlarning **miloddan avvalgi II ming yillik** tarixi va o'sha davr xalqaro munosabatlarini o'rganish

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

uchun favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan hujjat qadimgi Misrda topilgan El - Amarna arxividir. Bunda Mitanni, Ossuriya, Bobil podsholarining Misr fir'avnlari **Amenxotep III** va **Exnatonga** yozgan maktublari saqlangan.

1955-yilda topilgan Ossuriya podshosi Asarxaddon bilan unga tobe Midiya hukmdorlari o'rtasida imzolangan Shartnoma hamda **Ashshurbanipalning** Bobil shahri bilan olib borgan muzokaralari bayoni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shumer, Aqqod, Bobil, Ossuriya va boshqa davlat hukmdorlarining tarixiy bitiklari muhim manba hisoblanadi. **Miloddan avvalgi XXV asrda** Lagash davlatining oyoqqa turishi, tashqi siyosati, qudratli qo'shnisi Umma davlati bilan olib borgan keskin kurashlari Eannatum bitiklarida keng yoritilgan.

Miloddan avvalgi VIII - VII asrlarda Sargoniylar sulolasi podsholari zamonida yozilgan bitiklar faqat tarixiy tusga ega bo'lmay, shu bilan birga adabiy-tarixiy asar ham hisoblanadi. Ular chiroyli uslubi, original va mazmundorligi, voqyealarni batafsil tasvirlashi bilan ajralib turadi. Ana shunday bitiklardan biri **“Sargon II ning xudo Ashshurga yozgan maktubi”** o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Tarixda yangi Bobil podsholarining 140 dan ziyod bitiklari mavjud. Bularning aksariyat qismi mashhur **Navuxodonosor II** va Nabonidga tegishli. Ularda harbiy yurishlar, saroy, ibodatxona, shahar qurilishlari, sovg'alar, qurbonliklar va boshqalar haqida tarixiy ma'lumot beriladi.

Ayniqsa, podsholarning diniy yozuvlari jiddiy ahamiyatga ega. Bu yozuvlar ibodatxona, xudo va podsholarga bag'ishlab yozilgan madhiyalardan iborat. **Miloddan avvalgi VIII-VII asrga** oid Nineviya, Kalxu va boshqa shaharlarda 1,5 mingdan ortiq ana shunday bitik topilgan.

Bundan tashqari qadim zamonlarda Shumer, Bobil, Ossuriya hukmdorlariga oid ro'yxatlar ham tarixiy asar hisoblangan. Ana shu ro'yxatlar yordamida qadimgi Mesopotamiya podsholarining yashagan, hukmronlik qilgan va taxtdan tushgan vaqtlarini aniq bilish mumkin.

Antik mualliflar Mesopotamiyaning tabiati, ob-havosi, aholisi, diniy qarashlari, urf-odatlarini, madaniyati, tarixi haqida o'ziga xos ma'lumotlarni berishadi. Yunon tarixchisi **Gerodot** o'z asarlarida

qadimgi Mesopotamiya haqida batafsil ma'lumot beradi. U bu mamlakat bo'ylab sayohat qilgan. **Gerodot** asarlari asosini muallifning kohin, zodagon, tarjimonlardan eshitgan hikoyalari tashkil qiladi. Uning Mesopotamiya haqidagi hikoyalari o'ta nodir, chunki u sayohat vaqtida ko'rgan, bilgan va eshitganlarini yozgan.

Geograf **Strabon** Gerodotdan so'ng 500 yil o'tgach Mesopotamiyaga ta'rif beradi¹. Uning **“Geografiya”** asari Mesopotamiya to'g'risida qiziqarli materialga boy manbadir.

Gerodot zamondoshi, ko'p yillar Eronda yashagan **Knidlik Ktesiy** ham o'zining **“Eron tarixi”** nomli 22 kitobini Mesopotamiyaga bag'ishlagan. Biroq uning bu tarixiy asari ko'proq an'anaviy afsonalarga asoslangan bo'lib, voqyealarni yoritishda ko'plab xatolar va buzib ko'rsatishlarga yo'l qo'yilgan.

Miloddan avvalgi V-IV asrlarda yashagan yunon tarixchisi **Ksenofont** Mesopotamiyada bo'lib, u ham o'zidan so'ng **“Kiropsidiya”** va **“Anabasis”** asarlarini qoldirgan. Unda muallif Dajla va Frot daryolari vodiylarida yashagan xalqlar, ularning urf-odatlarini haqida ancha-muncha narsalarni yozadi.

Iosif Flaviy o'zining **“Qadimiy Iudeya”** asarida Ossuriya bilan Bobilning Falastin davlati bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini yoritadi.

Rim tarixchisi **Pompey Trogning** kitobida Mesopotamiya tarixi to'g'risida qator ma'lumotlar mavjud. U Bobil va Ossuriya tarixini an'anaviy afsonalarga asoslangan holda tasvirlaydi. Pompey Ossuriyaning bosqinchilik siyosati sabablari, qadimda yirik imperiyalarning vujudga kelish Sharoitlari, bosib olingan yerlarni boshqarish usullari, yirik imperiyalarning halokatga uchrashi sabablarini tushuntirishi katta qiziqish uyg'otadi.

Mesopotamiya tarixi haqida yunon mualliflari **Xeril, Kratet, Mark Anney** va **Lukan** kabi Rim shoirlari ham o'z asarlarida muayyan ma'lumotlar keltirganlar.

Mixxat yozuvlari va ularning ahamiyati. Mesopotamiyaning qadimgi yodgorliklari bilan yaqindan tanishish maqsadida **XVIII asrda** Daniya olimi **K.Niburo** ilmiy maqsadda birinchi marta

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Mesopotamiyaga sayohat qildi, bu yerdagi moddiy yodgorliklar bilan tanishib, ulardan nusxalar ko‘chirdi.

1802-yilda nemis olimi, falsafa va qadimiy tillar o‘qituvchisi **G.F.Grotefend** mixxatlarni deshifrovka qilish sohasida katta ish qildi. U Persepol mixxatlari sirini ochib, ularning Ahamoniylar sulolasi podsholariga tegishli ekanligini aniqladi. **Grotefend** 13 fors mixxat belgilarini aniqladi.

XIX asrning 30-40-yillarida Yaqin Sharqda uzoq vaqt ishlagan ingliz zobiti va diplomati G.Roulinson mixxatlar ma'nosini ochishga katta hissa qo'shdi. U Hamadon yaqinida joylashgan Behistun qoyasiga Eron podshosi **Doro I** tomonidan bitilgan ko‘plab yozuvni o‘qishga muyassar bo‘ldi. **1847-yilda Roulinson** ulardagi 600 belgidan 250 tasini aniqlab, **1855-yilda** Behistun mixxatlarining elam tilida yozilgan uchinchi qismining ma'nosini anglashga musharraf bo‘ldi¹.

Qator fransuz olimlari, chunonchi, **F. de Solsi, J. Oppert** hamda irlandiyalik **E.Xinks** va boshqalar Aqqod mixxatlarini tadqiq etdilar. Ularni o‘qishda ingliz olimi **E.Norris**, daniyalik **N.Vestergard** ishtirok etishdi. Bu ishlar natijasida ossuriologiya fanida yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi.

Mesopotamiya mixxatlar tizimidan bobilliklar, shumerliklar, ossuriyaliklardan tashqari hurritlar, keyinchalik, elamiy, xett va urartuliklar foydalanishgan. Yuqorida zikr etilgan kashfiyotlar tufayli ossuriologiya fanidan shumerologiya, elamitologiya, xettologiya kabi sohalar paydo bo‘ldi.

Mixxat ma'lumotlarini mustaqil o‘rgangan Britaniya muzeyi naqqoshi **J. Smitning** nomi tarixda buyuk olim sifatida qoldi. U mixxat usulida yozilgan ko‘plab adabiy asarlar, ilmiy, diniy matnlarni, Aqqod tilida yozilgan xo‘jalikka oid hujjatlarni topdi va tarjima qildi.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida nemis olimi **K.Betsold** besh tomlik mixxat taxtachalari katalogini nashrdan chiqardi. **E.Shreder** esa - olti tomlik ossur - bobil matnlari to‘plamini chop etdi.

XIX asrning oxirida Mesopotamiya tarixini o‘rganish sohasida katta ilmiy ishlar yuzaga keldi.

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Xorijiy mualliflarning tarixiy asarlari. Mesopotamiyadagi ichki siyosiy voqyealarni hamda tashqi siyosat tarixini o'rganishga ko'plab chet ellik olimlar, chunonchi, **D.O.Edsard**, **R.Borger**, **A.Fine** va boshqalar katta hissa qo'shdilar¹.

Mesopotamiyaning siyosiy davlat tuzumini o'rganishda Daniya-Amerika shumerologi **T.Yakobsenning** *“Qadimgi Mesopotamiyada ibtidoiy demokratiya”* va *«Mesopotamiyaning ilk siyosiy taraqqiyoti»* mavzusidagi asarlari alohida o'rin tutadi.

Chet el olimlari qadimgi Mesopotamiya madaniyati va dinini o'rganishga katta e'tibor berib, jumladan, **K.Betsold**, **B.Maysner**, **F. Delich**, **G.Vinkler**, **G.Shmekel**, **S.Kramer** kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida Mesopotamiya madaniyatining turli jihatlarini: uning vujudga kelishi muammolari, shumerliklar, bobilliklar va ossuriyaliklarning qadimgi Sharq xalqlari madaniy rivojiga qo'shgan hissalarini yoritib berdilar. G'arb va Amerika olimlari qadimiy Mesopotamiya huquqshunosligini o'rganishga ham salmoqli hissa qo'shdilar. Bu sohada - **V.Sheyl**, **G.Koler**, **F.Payzer**, **G.Vinkler** kabi tadqiqotchilar jiddiy ishlarni amalga oshirishdi.

Mesopotamiya tarixini o'rganishga rus shumerolog, ossurolog olimlari ham o'z ulushlarini qo'shdilar. Mashhur rus olimi **M.V.Nikolskiy** rus ossurologiyasiga asos solib, **1908-1915-yillarda** ikki tomdan iborat *“Eng qadimgi Xaldehyada xo'jalik hisobotlariga oid hujjatlar”* nomli ilmiy asarini nashr etdi. Bu kitobda **Nikolskiy** xo'jalikka oid 500 dan ziyod hujjatlarni (**miloddan avvalgi III ming yillikka doir**) tahlil qildi. **B.A.To'rayev** *“Qadimgi Sharq tarixi”* nomli yirik asarini nashr etdi. **XX asrning 20-60-yillarida** akademiklar **N.M.Nikolskiy**, **A.I.Tyumenev**, **V.V.Struve** va boshqalar Mesopotamiya tarixi, uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, xususiy mulk muammolari, davlat tuzumi va boshqa sohalarni o'rganish borasida katta ishlar qilishdi. **I.M.Dyakonovning** ilmiy faoliyati markazida Mesopotamiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganish turadi. **I.M.Dyakonov** **1967-1968-yillarda**

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

“Xususiy mulk muammolari”, “Iqtisodiyot muammolari haqida” deb nomlangan nazariy maqolalarni chop etdi¹.

XX asrning 50-70-yillarida Mesopotamiyani tadqiq etish yuksak darajaga ko‘tarildi. **1971-yilda** yirik olim **M.A.Dandamayevning** “Vaviloniyada quldorlik” nomli fundamental asari bosmadan chiqdi. Mashhur olim **M.Ye.Masson** Mesopotamiyada ibtidoiy jamoadan ilk sinfiy jamiyatga o‘tish muammolari bilan shug‘ullandi. **N.B.Yankovskaya, R.A.Gribov, N.V.Kozireva, V.I.Avdiev** va boshqalar Mesopotamiya tarixi va madaniyatining turli jihatlarini tadqiq qilishga yirik hissa qo‘shishdi.

Miloddan avvalgi VII-VI ming yilliklarda Qadimgi Ossuriya madaniyati Mesopotamiyada turli madaniyat o‘choqlari paydo bo‘la boshlaydi. **III ming yillik** boshlarida turli tillarda so‘zlashuvchi etnik guruhlar, shahar - davlatlar vujudga keladi. Qadimgi Mesopotamiyada yashagan xalqlar, etnik guruhlar o‘ziga xos noyob madaniyatga, din, urf-odatlariga ega bo‘lganlar. Ularning bir-birlari bilan aralashib, o‘zaro ta’sir ko‘rsatishlari natijasida Mesopotamiya sivilizatsiyasi vujudga keladi. Uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida Mesopotamiya mintaqasi xalqlari turli-tuman etnik guruhlar madaniyatini rivojlantirishda generator rolini o‘ynagan. Ana shunday qadimiy madaniyatlardan biri Ossuriya madaniyatidir.

Ossuriya davlati paydo bo‘lish (**miloddan avvalgi XX-XVI asrlar**), rivojlanish (**miloddan avvalgi XV-XVI asrlar**), gullab - yashnash (**miloddan avvalgi X-IX asrlar**) hamda yemirilish (**miloddan avvalgi VIII-VII asrlar**) jarayonlarini boshidan kechirdi. Ana shu tarixiy jarayonlar davomida Ossuriya madaniyati va mafkuraviy hayoti shakllandi va rivojlandi.

Ossuriya madaniyati Mesopotamiyada yashagan qadimgi xalqlar, ayniqsa, Shumer, Aqqod va Babil madaniy meroslari bilan bog‘liq holda rivojlandi. Ossuriyaning mafkuraviy hayoti ham Mesopotamiyada yashagan qadimiy xalqlarning diniy qarashlari, aqidalari, urf-odatlari, rasm-rusumlari ko‘p xudolik tamoillariga asoslangan edi. Din va diniy qarashlarda, aqidalarda fol ochish, tush ko‘rish, oldindan aytib berish - bashorat qilish kabilarga ishonish

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

muhim o‘rin egallagan. Qadimgi Ossuriyaliklar turli kasalliklarni oldini olish, baxtsizliklarga yo‘l qo‘ymaslik, notavonlikni oldini olish maqsadida turli diniy urf-odatlariga, afsonalarga ishonishar va amal qilishar edi. Diniy aqidalar, qarashlarni shakllantirish va mustahkamlashda turli xudolar (Yer, Suv, Quyosh, hosildorlik va hokazolarga ishonish) va ibodatxonalar ilohiylashtirilgan, podsholar, tabiat hodisalari muhim rol o‘ynagan.

Umuman olganda ossuriyaliklar **ikkinchi ming yillikda** (xristian erasidan oldin) adabiyot, ilm-fan, san'at soxasida amalda original biror narsa yaratishmagan. Ular bobil va xurrit - xetlarning bu sohada erishgan yutuqlarini to‘la-to‘kis qabul qilishgan. Ularda badiiy adabiyot bo‘lmagan.

O‘sha davrning eng qiziq muhim tarixiy va ijtimoiy-madaniy yodgorliklaridan biri **“O‘rta Ossuriya qonunlari”** hisoblanadi. U aslida davlat qonunlari bo‘lmay, aksincha, o‘ziga xos huquq majmualari, qonuniy normalar va hujjatlarning ilmiy to‘plamidan iborat, xolos. **“O‘rta Ossuriya qonunlari”** Ashshur jamoasining amaliy ehtiyojlariga javob berish maqsadida tuzilgan. Bu qonunlardan jami bo‘lib 14 ta taxtachacha va lavha saqlanib qolgan. Masalan, “A” harfi bilan belgilangan taxtachada (ellik to‘qqizta paragraf bor) erkin ayollarning huquqiy holatining turli jihatlari, ularga belgilangan jazolarning (agar ular huquq normalarini buzishsa, jinoyat sodir qilishgan bo‘lsa) turli xillari aks ettirilgan. Bu qonunlar **miloddan avvalgi XIV-XIII asrlarga** tegishli bo‘lib, Ossuriyada huquqiy tafakkurning ancha rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Ossuriyaning mafkuraviy hayotida qadimgi xalqlar tomonidan ishlab chiqilgan turli-tuman afsonalar tizimi ham jiddiy ahamiyat kasb etgan. Bu afsonalarda real hayot va borliqning ko‘plab muhim falsafiy masalalari, jumladan, olamning paydo bo‘lishi, insonning yaratilishi haqidagi g‘oyalar ilgari surilgan.

Ossuriyaliklar qadimgi Mesopotamiya xalqi dinining ko‘p jihatlari, mixxatlar tizimi, adabiy asarlari, san'ati hamda ilmiy bilimlarini o‘zlashtirishgan. Shuningdek, Ossuriyaliklar qadimgi shumerliklardan ba'zi bir xudolarning nomi va ularga ishonishni qabul qilishgan. Ibodatxona va qasrlar qurishda shumerliklarning turli me'moriy shakllaridan, hatto qurilish materialig‘ishtan foydalanishgan.

Miloddan avvalgi 729-yilda Ossuriya podshosi **Tiglatpalasar III** tomonidan Bobilning butunlay bosib olinishi¹ va uni Ossuriya davlati tarkibiga kiritilishi tufayli Bobil madaniyatining Ossuriya madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri kuchaydi. Ossuriyaliklar bobilliklardan o'sha davrda keng tarqalgan diniy asarlar, jumladan, olamning yaratilishi haqidagi epik poema va qadimgi xudolar - **Enlil** va **Mardukka** bag'ishlangan madhiyalarni o'rganishgan. Bundan tashqari, ossuriyaliklar bobilliklardan davlatni boshqarishdagi ba'zi jihatlarni, o'lchov va pul tizimini, Hammurapi zamonida ishlab chiqilgan huquqlarning ko'p o'rinlarini qabul qilishgan edi.

Ossuriya madaniyati yuksalgan davrini Ossuriya hukmdori **Ashshurbanipal** saroyining vayronalari ostidan topilgan "**Ashshurbanipal**" kutubxonasi misolida ko'rish mumkin. Kutubxonada juda ko'p turli-tuman diniy yozuvlar, adabiy asarlar, ilmiy matnlar bo'lgan. Bular orasida astronomiya kuzatuvlari, tibbiyotga oid matnlar, grammatika va leksikaga oid ma'lumotnomalar, shuningdek, yer hamda qullarning soni, soliqlar, harbiy xizmatga jalb qilish xaqidagi ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega.

Ossuriyalik mutaxassislar - mirzalar (kotiblar) shohning ko'rsatmasiga binoan, turli-tuman adabiy asarlarni, qadimgi yozuvlarni diqqat bilan tartibga solishgan, qadimgi Sharq xalqlari madaniy durdonalar xazinalarini kutubxonaga to'plashgan. Mirzalar o'ziga to'q kishilar bo'lgan. Mirzalik unvonini egallash osonlikcha bo'lmagan. Bu kasbni egallash uchun ko'p vaqt va mashaqqatli mehnat talab qilingan. Chunki mixxatlarni yozish hamda ularda o'ziga xos ma'no va mazmunlarni ifoda etish oson kechmagan. Shuning uchun mirzalar jamiyatning Yuqori tabaqalari safidan joy olgan. Mirzalarning yeri, mol-mulki bo'lgan. Shohdan mukofotlar - turli hadya va tortiqlar olishgan.

Ossuriyaliklarning me'morchilik sohasida erishgan yutuqlarini podsho **Ashshurnazirpalning** Kalahda hamda podsho **Sargon II** hukmdorlik davrida **Durr - Sharrukinda** (hozirgi Xorsobod) barpo etilgan qasr vayronalarida ko'rish mumkin. **Sargon II** barpo etgan saroy 210 ta zal va 30 hovlidan iborat bo'lgan. Hashamatli saroyning

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

kiraverishida odam kallasi tasvirlangan qanotli buqa yoki sherlarni aks ettirgan juda katta bahaybat haykallar oʻrnatilgan.

Ossuriyada qurilgan qasrlar, saroylar Ossuriya me'morchiligining mahobatli haykaltaroshlik, badiiy relyeflar hamda nafis naqshlar bilan uygʻunlashib ketganligidan darak beradi. Saroy zalining devorlari saroy hayotini, urushlar va ovlarni aks ettirgan turli - tuman naqshlar bilan bezatilgan. Bularning hammasi ulkan harbiy davlatni boshqargan podsholarni ulugʻlashga xizmat qilgan va Ossuriya davlati qudratini namoyish qilishga qaratilgan. Qasr va saroy devorlariga solingan ajoyib naqshlar, yovvoyi hayvonlar ovini aks ettirgan sahnalar Ossuriya san'atining ravnaq topganligini koʻrsatadi. Ossuriya haykaltaroshlarining yovvoyi hayvonlarni haqqoniy qilib jonli tarzda tasvirlashlari kishilarni hayratda qoldiradi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Sharq mamlakatlari tarixi va madaniyatini oʻrganishda manbashunoslik va tarixnavislik fanlarining ahamiyati va ularning farqi nimada?
2. Qadimgi Mesopotamiyani oʻrganishda qanday manbalar ustuvor ahamiyatga ega?
3. Qadimgi Babil yozuvi qanday paydo boʻlgan?
4. Qadimgi Babilning ijtimoiy-siyosiy hayotida din qanday rol oʻynagan?
5. Ossuriya madaniyatining rivojlanish jarayonlarini ayting.

8-mavzu. Yaqin Sharqda Qadimgi davlatlar: Xetlar davlati, Falastin, Frigiya va Lidiya, Finikiya davlatlarining vujudga kelishi.

Reja:

1. Qadimi Xett davlati.
2. Qadimgi Falastin davlati.
3. Qadimgi Falastin madaniyati.
4. Qadimgi Finikiya davlati.
5. Qadimgi Suriya davlati.

Tayanch iboralar: *Anitta* "dengiz xalqlari" "tosh uylar" "iyexer" "Dovud shahri" "Vasiyatlar qutisi" "Tavrot" Tir – Sidon "Kart Xadaiy" "Rosh-Melkart", "Melkart boshi", Tingiz, Selis, Adonis, "Ipuver (Ipuser) nasihati", "mushklar davlati", Ardis, Aliatt, Krez, likiya, kilikiya.

Xett davlatining vujudga kelishi, rivoji, buyuk davlatga aylanishi tarixi ikki davriy bosqichdan iborat:

1. Qadimgi Xett saltanati (**miloddan avvalgi XVIII-XVI asrlar**) davri.
2. Yangi Xett saltanati (**miloddan avvalgi XIV-XIII asrlar**) davrida Buyuk Xett davlati.

Miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Kichik Osiyoda, qabilalar ittifoqi asosida hududiy jihatdan uncha katta bo'lmagan shahar - davlatlar vujudga keldi. Bu davlatlar safiga *Kanes*, *Kussar* (Kushshar), *Burusxand* (Burushxand), *Nesa* (Nesha), *Xalpa* (Zalpuva) va *Xattusa* (Xattushash) shaharlari kirardi. Bunday shahar - davlatlar shakllanishida Kichik Osiyoda **miloddan avvalgi XX-XVIII asrlarda** paydo bo'lgan savdo koloniyalari muhim rol o'ynagan. Xalqaro savdo aloqalari shu kabi koloniyalar orqali amalga oshirilar edi. Savdo ishlarida oltin, kumush, qo'rg'oshin, mis kabi tabiiy boyliklar asosiy o'rin tutgan. Xalqaro savdo aloqalari - Kichik Osiyoning iqtisodiy rivojida muhim omil bo'lgan. Shuningdek, bu yerda sudxo'rlikning turli shakllari mavjud bo'lgan. Shahar-davlatlar shohlar tomonidan boshqarilishiga qaramay, ularning ichki ishlari ozod aholining umumiy majlislarida hal qilingan. Ozod aholi o'rtasida boy savdogarlar, sudxo'rlar katta mavqyega ega bo'lgan.

Kichik Osiyoda ilk bor alohida yirik davlat tuzishga intilish **miloddan avvalgi XVIII asrning birinchi yarmidan** boshlanganini ko‘ramiz. Kussar shahri hokimi **Pitxan** (Putxan) qo‘qqisdan tunda Nesa shahriga hujum qilib uni bosib oladi. Pitxanning vorisi shoh **Anitta** poytaxtni Nesaga ko‘chirib, bu yerda istehkomlar, ibodatxonalar barpo etadi. Ko‘p o‘tmay, Xalpa shiddatli janglardan so‘ng, Xattusa shahrini bosib oladi. Bundan xabar topgan Burusxand shahri hokimi **Anittaga** o‘z xohishi bilan taslim bo‘ladi va taxtni topshiradi. Tez orada Kanesh shahri ham **Anitta** ixtiyoriga o‘tadi. Shunday qilib, **Anitta** yirik davlat hokimi - shohi bo‘lib qoladi. Tadqiqotchilar bu davlatga Qadimgi Xett saltanati deb nom berganlar (**miloddan avvalgi XVIII-XVI asrlar**). Bu davlatda urug‘ - qabila tuzumi sarqitlari juda kuchli bo‘lgan.

Davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan eng muhim masalalarni hal etishda zodagonlar deb atalgan kengash **“tuliya”** ga yig‘ilgan. Zodagonlar ichida shoh oilasi a‘zolari, o‘g‘illari, yaqin qarindoshlari alohida o‘rin tutgan.

Qadimgi an‘analarga ko‘ra shohlar shoh oilasi a‘zolaridan, ko‘proq shoh nabiralardan, xususan, singillarining o‘g‘illaridan saylanardi. Xett saltanatini birlashtirish siyosati **Anittaning** to‘rtinchi vorisi shoh **Labarna** (Tabarna) hukmronligi davrida (**miloddan avvalgi 1680-1650 yillar**) tugallandi.

O‘z qudratiga ishongan Labarna mavjud an‘anani buzib, taxt vorisi etib o‘g‘li **Xattusili I (miloddan avvalgi 1650-1620 yillar)** ni tayinlaydi. **Xattusili I** poytaxtni Xattusaga ko‘chiradi. U o‘zidan avvalgi shohlarga xos siyosat yuritib, Shimoliy Suriyaning yirik savdo markazi - Xalpa (Aleppo)ni bosib olishga urinadi.

Shoh Mursili I davrida (**miloddan avvalgi 1620-1590-yillarga yaqin**) Xett saltanatida mamlakatni markazlashtirish jarayoni kuchayadi. Xattusa mamlakatning yagona poytaxti bo‘lib qoladi. Boshqa yirik shaharlar, hatto Kussar ham ikkinchi darajali shaharga aylanadi. **Mursili I** Xalpani egallashga muvaffaq bo‘lib, so‘ng u janubiy-Sharqqa - Bobil tomon yo‘l oladi va **miloddan avvalgi 1595-yilda** Old Osiyoning bosh markazi¹ni osonlik bilan bosib oladi.

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

O‘zaro ichki kurashlar bir necha o‘n yillar davom etib, bu hol Xett davlatining siyosiy mavqeiga putur yetkazadi.

Siyosiy beqarorlikka shoh **Telepin** davrida (**1520-1490-yillar**) chek qo‘yildi. U qabul qilgan farmonga ko‘ra taxt vorisi etib, asosan, shoh farzandi - shahzoda tayinlanar edi.

Xett davlatida shoh hokimiyati cheklangan. **Telepinning** o‘limidan so‘ng uning o‘g‘li hukmdorlik qilgan qisqa vaqt ichida Xett davlatida siyosiy beqarorlik boshlanib, taxtni bir necha shahzoda egallaydi. Natijada Xett davlati ancha zaiflashadi. Bu davr O‘rta Xett saltanati (**taxminan miloddan avvalgi XV asr**) nomini oladi.

Buyuk Xett Miloddan avvalgi XIV asr boshlarida Xett davlati saltanatining tiklanish davri boshlanadi. Bu tiklanish Xett hukmdorlari ichida eng ko‘zga ko‘ringan, tajribali diplomat, qobiliyatli sarkarda shoh Suppiluliumma nomi bilan chambarchas bog‘liq.

Old Osiyoda qudratli Misr saltanati, Bobil va Mitanni davlatlarining zaiflashuvi oqibatida vujudga kelgan qulay xalqaro vaziyatdan Suppiluliumma ustalik bilan foydalanib, Xett saltanatining qudratini yanada oshirishga muvaffaq bo‘ladi.

Xettlar harbiy qo‘shinida ot qo‘shilgan yengil va tezyurar aravalar joriy qilindi. Aravalarda uch jangchi: haydovchi, yoyandoz, qalqon ko‘targan askar joylashib, ular dushmanga qaqshatqich zarba berish imkoniga ega bo‘lgan.

Suppiluliumma poytaxt Xattusu va boshqa shaharlar atrofini qal'alar bilan o‘rab mustahkamladi.

Mursili II hukmdorligi davrida (**miloddan avvalgi 1340-yilga yaqin**) Xett davlati yanada kuchaydi. Ushbu hukmdor asosiy dushmani - Arsavi podsholigi bilan keskin kurash olib bordi. Ular o‘rtasidagi hal qiluvchi jang Janubiy Frigiyadagi Valma shahrida yuz berdi. Jangda Arsavi qo‘shinlari mag‘lub bo‘lib, shoh **Arsavi** va uning vorisi qo‘shni **Axxiyava** davlatiga qochib ketishadi. Xett qo‘shini Apasu shahrini qo‘lga olib, Egey dengiziga qadar chiqadi. **Arsavi** davlati Xett shohiga tobe bo‘lib qoldi. Shunday qilib, Kichik Osiyoning yirik qismi xettlar qo‘l ostiga o‘tadi. Bu - Xett davlati harbiy qudratining eng yuksalgan davri sifatida tarixda qoldi.

Misr va Xett saltanati o‘rtasida **miloddan avvalgi 1296-yilda** tuzilgan sulh Shartnomasiga binoan, Suriyaning katta qismi va

Shimoliy Finikiya xetlar ixtiyoriga, Falastin va Janubiy Finikiya esa, Misr ixtiyoriga o'tdi. Ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari o'rnatildi. Xett hukmdorining qizi **Ramzes II** nikohiga o'tdi. **Xattusili III** bilan Ossuriya o'rtasida to'qnashuvlar boshlandi.

XIII asrning oxirlariga kelib *"dengiz xalqlari"* (Egey dengizi orollari aholisi) nomini olgan qudratli koalitsiya vujudga keldi. Ular Old Osiyoga to'fon kabi yopirildilar. Misr ular hujumini bir amallab qaytargan bo'lsa, Xett davlati ular xurujiga dosh berolmadi. Poytaxt - Xattusa dushman hujumi natijasida taslim bo'ldi. **Miloddan avvalgi 1190-yilga** yaqin Buyuk Xett davlati inqirozga yuz tutdi. **Miloddan avvalgi XII-VIII asrlarda** omon qolgan kichik-kichik xett davlatlari Ossuriya tomonidan bosib olindi. Natijada, vaqt o'tishi bilan Xett tili va yozuvi yo'qolib, ularning nomi butunlay unut bo'ldi.

Yangi xetlar saltanati davrida iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar. Yangi xetlar saltanati davrida iqtisodiy, xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarni o'rganishdagi asosiy manba - o'sha davrda qabul qilingan qonunlar to'plamidir. Undan ma'lum bo'lishicha, iqtisodiyot asosini chorvachilik tashkil etgan. Xo'jalik ishlarida ishchi qoramollar va yuk tashuvchi ho'kizlarning ahamiyati katta edi. Otlardan, asosan, harbiy maqsadda foydalanilgan.

Xetlarda dehqonchilik ikkinchi o'rinda turar va u ob-havoga bog'liq edi. Sun'iy sug'orishdan deyarli foydalanishmagan. Xett saltanatida yirik sun'iy sug'orish inshootlari juda oz bo'lgan. Dehqonchilikda, ko'pincha, arpa yetishtirilgan bo'lib, ba'zan arpa qiymat me'yori vazifasini o'tagan. Arpadan tashqari bug'doy navlari yetishtirilgan, shuningdek, bog'dorchilik, uzumchilik ham bir qadar rivoj topgan.

Kichik Osiyoda Shumer, Akkad va Misrdan farqli o'laroq, xurmo daraxtidan faqat manzarali o'simlik sifatida foydalanilgan, chunki tabiiy Sharoitda uning mevasi pishib ulgurmasdi. Shoh mamlakatdagi barcha yerlarning egasi hisoblanib, ularning ma'lum qismi hukmdorning xususiy mulki bo'lgan. Bundan tashqari ibodatxonalar, jamoalarga tegishli hududlar bor edi. Jamoa yerlarining bir qismi amalda xususiy mulkka aylangan.

Hunarmandchilik ancha rivojlanib, qonunlar va boshqa hujjatlarning guvohlik berishicha, Xett davlatida temirchi, duradgor, konchi, kulol va tikuvchilar bo'lgan.

Qurol-aslaha yasashda, asosan misdan, keyinchalik, bronzadan foydalanilgan. Temir, dastlab Kichik Osiyoda topilgan bo'lishiga qaramay, bu davrda xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lmagan. Temirdan, ko'pincha (xaykalcha) diniy urflar maqsadida hamda harbiy qurollar tayyorlanar edi.

Hunarmandlar ichida ozod ishchilardan tashqari qullar ham anchagina bo'lgan. Ko'p hunarmandlar shaxsiy ehtiyojlari maqsadida yoki davlat xizmati uchun xo'jalik ishlari bilan ham shug'ullanganlar.

Yangi Xett davlatida tashqi savdo rivoj topdi. Uning ustidan davlat nazorati o'rnatildi. Oliy hokimiyat keng miqiyosda iqtisodiyotga aralashar edi. Bu yerda diniy-xo'jalik mahkamalari katta rol o'ynagan. Ular odatda **“tosh uylar”** deb atalib, ular vafot etgan shohlar tomonidan tashkil qilingan. Mahalliy **“tosh uylar”** markaziy **“tosh uylar”**ga bo'ysungan. Ularning ixtiyorida ibodatxona xazinalari, oldi-sotdi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, mirshablar bo'lgan. Rasman bu **“tosh uylar”** biron-bir ibodatxonaga tegishli bo'lsa-da, amalda podsho yoki uning rafiqasi qaramog'ida edi.

“Tosh uy”, nafaqat, ma'muriy-moliya ishlari, balki, qisman, harbiy ishlar bilan ham shug'ullangan. Katta-kichik yer egalariga tegishli yerlar ayrim hollarda sotib olingan va sotilgan. Egasi jinoiy ish qilgan yerlar shoh foydasiga musodara qilingan.

Muqaddas shaharlarning boshida shoh yoki malika turar, bu shaharlar yerlari podsho mulki hisoblangan. Yangi xett davlatida hukmdorlarni ilohiylashtirish yana kuchaydi. Hukmdor mulkiga qasd qilgan odam qattiq jazo olar, **“tosh uy”**ni buzgan kishi esa, o'linga hukm qilinib, mol-mulki musodara qilingan.

Qadimgi Xett Xett madaniyatiga qadimgi Misr va Mesopatamiya madaniyati sivilizatsiyalari muayyan ta'sir ko'rsatdi. Xetlar mamlakatida xudolar haqida minglab esdaliklar uchraydi. Masalan, momaqaldiraq xudosi Xattusa shahrining oliy himoyachisi hisoblanib, u bir qo'lida chaqmoq, ikkinchi qo'lida oy bolta tutgan holda tasvirlangan.

Xattusada ayol xudo momaqaldiraq xudosining rafiqasi sifatida izzatlangan. Hosildorlik xudolariga e'tiqod keng quloq yoygan. Muqaddas jonivorlar - ho'kiz, sher hamda qushlarga e'tiqod muhim o'rin tutgan. Ba'zan shohlar quyosh xudosiga o'xshatilgan.

Xett yozma manbalari orasida hukmdorlarning o‘ziga xos tarjimai hollari saqlanib qolgan. Ular saroy mirza (kotib)lari tomonidan bitilgan. Xett solnomalarida mamlakat tarixini uch davrga bo‘lib tasvirlashga harakat qilingan. Arxivlarda **miloddan avvalgi XXIII asr oxirida** Kutiy shohi **Impakruning** Aqqodga qilgan yurishi haqidagi tarixiy doston saqlangan.

Xett saltanatida sakkiz mahalliy va chet tillarida so‘zlashilgan. Shuning uchun bu yerda uch tilli: shumer - babil - xett lug‘atlari mavjud bo‘lgan. Shuningdek, ismlarga oid mashhur darslik yozib qoldirilgan. Bu darslik xett tilida yozilib, unda ko‘plab qadimgi hind tiliga oid atamalar uchraydi. Xett davlati avvalo harbiy davlat bo‘lgani uchun mudofaa, harbiy istehkomlar qurish ishlariga alohida e’tibor berilgan. Shaharlar ikki qatorlik devorlar bilan o‘ralgan. Shahar devorlari yirik tosh bloklardan tuzilgan. Xett haykalchalari, bo‘rtma naqshlari xurrit haykalchalarini eslatib turgan.

Bo‘g‘oz-Qoya yaqinida arxeologlar tomonidan Xett davlati poytaxti - Xattusa shahri qoldiqlari topilgan bo‘lib, bu shahar antiqa me’morchilik namunalari bilan ajralib turadi.

Shohlar qo‘lida quyosh xudosi hassasini tutgan holda tasvirlangan. Yazili - Qoyadagi bo‘rtma rasmlarda **momaqaldiraq xudosi Teshubning** shohni o‘z o‘g‘li kabi quchog‘iga olib turgani tasvirlangan. Saroy taomillariga muvofiq Xett shohini **“quyoshim”** deb atash lozim bo‘lgan. Xuddi shu kabi unvonlar Suriya hukmdorlarining **miloddan avvalgi XIV asrga** oid diplomatik xatlarida uchraydi. Xett davlatida xudo darajasiga ko‘tarilgan shohga e’tiqod qilish ana shu tariqa tashkil topgan.

Din va adabiyot So‘nggi vaqtlarga qadar saqlanib kelgan ba’zi bir ibtidoiy xususiyatlar xett dinida mavjud bo‘lgan. Matriarxatning qadimgi shakllaridan biri bo‘lgan xett dinida hosildorlik kuchlarini o‘zida aks ettirgan tabiat onasi - ulug‘ ma'buda e’tiqodi asosiy o‘rin tutadi. Xett san’atida bu ma'buda, odatda, uzun kiyim va silindr shaklidagi bosh kiyimidan parda tushib turgan holda tasvirlangan. Shu bilan birga Xett o‘lkalarida tog‘lar, tabiat kuchlari - momaqaldiraq, yashin, shu bilan bir vaqtda yog‘in tufayli yuzaga keladigan hosildorlik xudosi Teshubga sig‘inilgan. Shu bilan birga, biz xett dinida yana bir xudo, ya’ni o‘lib, qayta tiriluvchi tabiat xudosi Telepin obrazini uchratamiz. Ushbu xudo, odatda, kalta kiyimda,

yoniga xanjar taqqan va ikki tomonli bolta tutgan, soqol - mo'ylovi chiqmagan yosh yigit qiyofasida tasvirlangan. Xett xudolari ko'proq yovvoyi hayvonlar ustida yoki tog' cho'qqilarida tasvirlangan. Bu hol tog'lik xalq va ovchilarga oid dinning o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Xetlar uzoq vaqt oliy davlat xudolari hamda turli mahalliy xudolarga e'tiqod qilib keldilar, bu esa qadimgi urug'chilik tuzumining qoldig'idir. Masalan, Xett davlati bitimlarida oliy xudolar bilan birga "Xett mamlakatining 1000 ta xudosi" tilga olinadi.

Jodugarlik Xett dinidagi ibtidoiy zamondan qolgan sarqitlardan biri bo'lib, uzoq vaqtga qadar o'z ahamiyatini saqlab kelgan. Haqiqatda, jodugarlik xett adabiyotida o'ziga xos o'rin egallaydi. Xett davlati qonunlarida yomon niyatli jodugarlik bilan shug'ullanish jinoyat hisoblanib, bunday jodugarlar qattiq jazolangan. Jodudan kasalliklarni haydash, odam a'zolarining ishdan chiqqan a'zolarini qayta tiklash uchun foydalanilgan.

Bo'g'oz qoya arxivlarida **Gisgimmas** haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan. Bu rivoyatlar matnini o'rganish shuni ko'rsatadiki, **Gisgimmas** afsonalari Shumer va Aqqoddagi **Gilgamesh** haqidagi afsonaning aynan o'zi. Garchi qahramonning ismi xett tiliga moslashtirilganiga qaramay, **Gilgamesh** va **Gisgimmas** yagona obraz bo'lib qolavergan.

Xett davlati tarixi va madaniyati Kichik Osiyoda yashagan xetlar Old Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida vositachi vazifasini o'taganligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, xett madaniyatining o'ziga xosligi, harbiy monarxiya ehtiyojlariga muvofiqligi bilan ajralib turgan.

Qadimgi Falastin Livanning janubiy tog' etaklaridan to Arabiston **Falastin** cho'lining shimoliy chegaralarigacha bo'lgan yerni egallagan. U g'arb tomondan O'rta yer dengiziga borib tutashgan, Sharqda Suriya - Mesopotamiya dashtiga chegaradosh. Falastinning hududi juda kichik bo'lib, taxminan 26 ming kv. km ni tashkil etadi. Jug'rofiy jihatidan Falastinni 4 qismga: qirg'oq bo'yiga, Iordan g'arbidagi yassi tog'likka, Iordan vodiysiga va Iordan Sharqidagi yassi tog'likka bo'lish mumkin. Qirg'oq bo'yining janubiy qismi sug'oriladigan unumdor yerlardan iborat. Qadimda bu yerlarda dexqonchilik ancha rivojlangan. Misrdan Suriyaga boradigan katta savdo yo'li ham shu yerdan o'tgan. Ayniqsa, Saron past tekkisligi

unumdor bo‘lib, **“jannat bog‘i”** nomini olgan. G‘arbiy Falastindagi ba'zi viloyatlarning yerlari ham serunum bo‘lgan. Vadi - Kelt daryosidan sug‘oriladigan Iyerixon tekisligi ana shunday viloyatlardan biri bo‘lgan. Iqlimi issiq, suvi serob bu yerlarda hatto xurmo palmasi o‘sgan.

Arxeologik qazish ishlari Falastinda qadimgi tosh davridayoq odamlar yashaganligini ko‘rsatadi. Masalan, Gennisaret ko‘lining shimoliy-Sharqiy qirg‘og‘idagi g‘ordan neandertal odamning bosh suyagiga o‘xshash bosh suyak topilgan. Bu yerdan yana panshaxa, qirg‘ich, nayza va keyingi mustye va orinyak tipidagi qurollar kabi jihozlar chiqqan. Yuqori paleolit davriga oid shunday qurollar Quddusning shimoliy-Sharqidagi Shukbax yonidagi g‘ordan ham topilgan. Markaziy Falastinni mamlakatning janubiy qismidan ajratib turadigan Ayalon vodiysining g‘arbiy qismidagi qadimgi Gezerda o‘tkazilgan qazishlar vaqtida, neolit davriga xos noyob yodgorliklar kompleksi topilgan. Gezer yonida¹gi qoyalarda tabiiy va sun'iy g‘orlar juda ko‘p. Neolit davrining odamlari ana shu g‘orlarda yashaganlar. Gezerning eng ko‘hna qatlamlari va Falastinning boshqa joylaridan topilgan sopol buyumlar neolit davriga xos. Arxeologik qazilmalar natijasida Falastin hududida qadim zamonlarda katta iqtisodiy, harbiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlar xarobalari topildi.

Laxish xarobalarida mis qurol-yarog‘lar, shuningdek, XVIII - XIX sulolalarga mansub yozuvlarda bitilgan Misr qo‘ng‘izlarining tasviri topilgan. Misr va Xanaan yozuvlari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Bunda topilgan sopol idishlardagi chizgilar o‘ziga xos alomatli yozuv paydo bo‘lganini ko‘rsatadi. Xarsang toshlardan ko‘tarilib, devor bilan o‘ralgan va to‘g‘ri burchakli minoralar bilan himoyalangan ko‘hna qal'a Gezer qala'sining xarobalari ham diqqatga sazovor. O‘lik dengizining shimoliy-g‘arbida joylashgan Iordan vodiysining g‘arb tarafida qadim shahar xarobalari topilgan. Tadqiqotchilar bu shaharni Tavrotida tasvirlangan Iyerixon shahriga o‘xshatadilar. Qazishlar natijasida bu shahar **miloddan avvalgi IV-III ming yillikdayoq**, yaxshi himoya qilingan qal'a bo‘lganligi aniqlangan. Samariyadagi Aham saroyidan xo‘jalik hisobotiga doir sanasi ko‘rsatilgan hujjatli 75 dona sopol parchasi topilgan. Quddusdan Yahudiya shohi **Xizkiya**

¹World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

zamoniga (**taxminan miloddan avvalgi 715-yillar**) oid Siloam yozuvi Iordan daryosi ortidan topilgan. Unda Moavit hukmdori **Mesha** va qadimgi yahudiylar xudosi **Yaxvening** nomi tilga olinib, moavitlarning qo'shni qabilalar bilan urushlari tasvirlanadi. Nihoyat, Laxish qal'asi xarobalaridan Kiriath Gize - Iyegarim shahri hokimi bilan Laxish shahri va unga qo'shni qal'alarning harbiy qo'mondonlari o'rtasidagi yozishmalar (**miloddan avvalgi 586-yilga oid**) topilgan¹.

Eng qadimgi zamonlarda Falastin hududida yashagan qabilalar haqida Tavrot rivoyatlarida saqlanib qolgan ma'lumotlar bir muncha mavhum. Tavrot rivoyatlarida bu qabilalar yashagan tumanlar ko'rsatiladi. Unda aytilishicha, qabilalarning bari qirilib, yo'q qilib tashlangan. Har holda, Falastinda o'ta qadim zamonlardayoq odamlar yashagani ma'lum. Falastin degan so'z Tirdan janubroqda, O'rta yer dengizi qirg'og'i bo'ylarida yashagan egey qabilasi filistimlar (qadimgi yahudiycha Peleshet, qadimgi misrliklarda Peleset) nomidan kelib chiqqan. **Miloddan avvalgi II-III ming yilliklarda** Falastinda, qisman, Suriyada yashagan eng qadimgi semit qabilalari nomi ham Tavrotga keltiriladi. Bu qabilalar o'z mamlakatlarini Xanaan (Misr yozuvlarida pa-Kanan) deb ataganlar. Tavrotga aytilishicha, xananeylar, asosan, Falastinning eng qadim va muhim savdo shaharlari joylashgan shimoliy qismida yashaganlar. Biroq xananeylar yanada katta hududni egallaganlar degan faraz mavjud, chunki Misr yozuvlari hamda Amarna arxividagi yozilgan hujjatlarga ko'ra, Xanaan mamlakati butun Falastinni, hatto Finikiya va Falastinga qo'shni o'lkalarni ham o'z ichiga olgan. Amoriylar g'arbiy semit qabilalarining alohida guruhini tashkil qilganlar. Ular O'rta Suriya, Livan va Antilivan o'lkalarini egallaganlar. Nihoyat, **miloddan avvalgi XV-XIV asrlardan** boshlab, Falastin va Suriyada paydo bo'lgan va nomi, ayniqsa, Amarna xatlarida ko'p tilga olingan harbiy qabila ham (qabila **miloddan avvalgi III ming yillikning o'rtalarida** Old Osiyoning ba'zi o'lkalarida yashagan) g'arbdagi semit qabilalari bilan birga tilga olinadi. Amarna xatlarida aytilishicha, harbiy qabilalar Falastinga bostirib kirib, uning shaharlarini birin-ketin ishg'ol qilgan. Harbiy qabila nomi Qadimgi misrliklar tomonidan "aperu" deb atalishiga asos bor: misrliklar Yangi podsholik davrida

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Suriyaga bosqinchilik maqsadida qo‘shin tortib borganida, Falastinda qo‘lga olingan asirlar shu nom bilan atalgan.

Miloddan avvalgi XVIII asrda, ya'ni Misrning Falastin va Suriyadagi siyosiy ta'siri susaygach, mamlakat savdo shaharlari rivojlanishi uchun imkon tug‘ildi. Mahalliy hunarmandchilikka xos bo‘lgan O‘rta bronza davriga mansub buyumlar Tal - Bayt - Mirsim va Megiddodan topilgan. Xanaan hunarmandchiligiga oid nodir buyumlar Gezer, Iyerixon, Bet - Shemesh kabi joylardagi maqbaralar va hashamatli uy xarobalaridan topilgan. O‘sha zamon ijtimoiy tuzumining ba'zi xususiyatlarini ochib beradigan ma'lumotlar juda oz. Tal - Bayt - Mirsimda giksos qatlamidan katta g‘isht zal va bir nechta xonadan iborat uyning qoldiqlari topilgan edi. Taanax va Megiddo xarobalaridan topilib, “to‘ralarning uylari” nomini olgan binolar ancha keyingi davrga mansub.

Falastinning turli joylarida olib borilgan qazish ishlari Falastin madaniyatini o‘rganishga imkon beradi. Falastinliklar Suriya va Falastinda **miloddan avvalgi XII asrda** paydo bo‘lgan degan taxmin bor. Ular Karmil tog‘idan janubroqda, qirg‘oq bo‘yidagi unumdor yerlarni bosib olganlar. Mamlakatning qabila nomi bilan Falastin deb atalishi falastin qabilalarining katta hududlarni istilo qilib, unda o‘rnashib olganini ko‘rsatadi. Falastinning janubiy qismi va Iordan daryosidan Sharqdagi tog‘li o‘lkalarda yashagan qadimgi qabilalar singari yahudiy qabilalari ham **miloddan avvalgi II ming yillikda** ko‘chmanchi chorvadorlik bilan shug‘ullanganlar. Sinay yarim oroli cho‘llarida va janubiy Falastinda yashagan bu qabilalar bilan tez-tez to‘qnashib turgan misrliklar ularni madaniy jihatdan qoloq hisoblab, past nazar bilan qaraganlar va ularni misr tilidagi **“ko‘chmanchi chodiri”** degan ma'noni anglatgan **“iyexer”** deb aytganlar. Misrliklar bu iborani o‘sha davrda Osiyodagi ko‘chmanchi chorvador qabilalardan olgan bo‘lishlari kerak. Qadimgi yahudiylar **“uyga qaytamiz”** deyish o‘rniga **“chodirimizga qaytamiz”** deganlar. **“Jo‘naymiz”** jumlasini o‘rniga, **“chodir qoziqlarini sug‘uramiz”** so‘zini ishlatganlar, **“ularning qoziqlari sug‘urilib ketgan”** degan gap vafot etgan kishilar haqida gap borayotganini anglatgan. **“Yo‘l”** so‘zi, **“hayot kechirish, tirikchilik”** ma'nosini, **“yaylov”** so‘zi **“turar joy”** ma'nosini anglatgan.

Katta urug‘ qabilalari Falastinda uzoq vaqt davomida ko‘chmanchi chorvador hayot kechirganlar, ammo har bir guruhning qat'iy belgilangan o‘z yaylovlari bo‘lgan. Ishoqning Yoqubdan ajralib chiqqani Tavrotida obrazli qilib tasvirlangan: *“chunki ularning mol-mulki, podalari shu qadar ko‘p bo‘lganki, ko‘chib yurgan yerlariga sig‘may qolgan”*.

Falastinda **miloddan avvalgi III ming yillikdan** boshlab, ko‘chmanchi va o‘troq dehqon qabilalari yashagan. **Miloddan avvalgi XI-X asrlarda** Misrning zaiflashishi ayni vaqtda Falastinda ayrim mustaqil davlatlar tashkil topishiga yordam bergan. **Miloddan avvalgi XI asrda** Falastindagi davlatlardan eng kattasi va qudratlisi, rivoyatga ko‘ra, Saul tomonidan barpo etilgan Isroil saltanati bo‘lgan. Falastinning istilo qilinishi va eng qadimgi Isroil saltanatining tashkil topgani haqida hikoya qilingan zafarnomalarda eng qadimgi Isroil shohining afsonaviy qahramonliklari tasvirlanadi. Bu parchalarda xalq qahramoni - Saulning Iabesh shahrini ozod etgani bayon qilingan. Iabesh shahri amoriylar qabilasi tomonidan qamal qilingan. U ozod qilingandan keyin, Saul, asosan, Binyomin qabilasidan katta lashkar to‘plab, yahudiylarning azaliy dushmani bo‘lgan falastinliklarga qarshi qattiq kurash boshlagan. Saul butun Isroilni o‘z hokimiyati ostida birlashtirishga va ta'sirini qo‘shni mamlakatlarga yoyishga harakat qilgan. U Shimolda yashaydigan isroil qabilalarini himoya qilib, Sobaning Arami saltanatiga qarshi otlanib, xanaaneylarning bir necha shaharlarini Isroilga qo‘shib oladi.

Saul to‘g‘risidagi afsonalarda uning taqvodorligi alohida uqtiriladi. Uning *“Xudo Yaxve”* ruhi bilan yo‘g‘rilganligi aytiladi va Saul o‘zini *“Xudo Isroil”* vakili qilib ko‘rsatganligi aks ettiriladi.

Saul va uning uch o‘g‘li falastinliklarga qarshi urushda halok bo‘lganlar. Saulning birlashtirish yo‘lida olib borgan ishini **Dovud (X asr boshida)** davom ettirdi. **Dovud** Falastinning janubiy qismiga o‘rnashib, mustaqil YAhudiya saltanatini tashkil etadi va Xebron shahrini uning markazi¹ qilib oladi. **Saul** vafotidan keyin **Dovud** Saulning vorisi va o‘g‘li **Ishvaa'lamga** qarshi 7 yil davomida qattiq kurash olib borib, uni mag‘lub etadi. Bu g‘alaba **Dovudga** Isroil podsholigi va Yahudiyani o‘z qo‘li ostida birlashtirish imkonini

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

beradi. **Dovud** bu davlatning katta harbiy kuchiga tayanib, falastinliklarga qarshi kurash boshlaydi.

Dovud Quddusni qo‘lga kiritib, uni birlashgan davlatning poytaxti qilib oladi. Quddus Falastinning qadimgi shaharlaridan biri bo‘lib, bunda g‘oyat mustahkam Sion qal'asi bor edi. Shu vaqtdan boshlab Quddusning bu istehkomi *“Dovud shahri”* nomini oldi va Quddus mamlakatning bosh diniy markazi deb e'lon qilindi. Davlatda yagona din o‘rnatib, obro‘cini kuchaytirish va uning birligini mustahkamlash maqsadida, Dovud qadimgi yahudiylar dinining muqaddas ramzi bo‘lgan *“Vasiyatlar qutisi”* ni keltiradi va qadimgi Xanaan sanamlari, muqaddas chashmalar va qoyalarga e'tiqod qilishni xudo Yaxvega sig‘inish bilan birga qo‘shib olib boradi.

Quddusda hashamatli saroylar, xudo Yaxve sharafiga mashhur ibodatxona solingan va qal'a qurilgan. Quddus shahri strategik va iqtisodiy jihatdan muhim o‘rin tutgan, boshqa shaharlar ham qo‘rg‘onlarga aylantirilgan. Megiddo va Gezer ana shunday shaharlar sirasidandir. Ushbu shaharlar xarobalaridan topilgan buyumlar o‘sha davrlardagi qurilish ishi va hunarmandchilikni o‘rganish imkonini beradi.

Sulaymon Misrning XXI sulolasidan bo‘lgan so‘nggi podsholarning biri bilan ittifoq tuzgan degan farazlar ham bor. Sulaymonga tekkan Misr malikasi sep tariqasida Gezer shahrini Sulaymon davlatiga qo‘shib beradi.

Tavrotda aytilishicha, **Sulaymon** Tirdan 120 mutaxassis olib kelish uchun Galileyaning 20-ta shahar va qishlog‘ini shoh Xiramga berishga majbur bo‘lgan. Quddusda zodagonlar bilan saroy ahllari zeb-ziynat ichida hashamatli xayot kechirar, lekin ularning bu hayoti qashshoq xalq ommasi hisobiga qurilgan edi. **Sulaymon** hukmronligi davri tarixiy manbalarda Isroil-Yahudiya saltanatining “oltin davri” sifatida tasvirlanadi. Podsho Sulaymon afsonalarda ideal podsho, donishmand hukmdor va oliy hakam deb ko‘rsatiladi.

Keskin tus olgan sinfiy kurash Isroil va Yahudiya davlatlarini zaiflashtirib qo‘ydi. Qo‘shni davlatlar va xalqlar bilan urushlar, ayniqsa Ossuriya podsholarining Falastinga yurishlari ularni butunlay holdan toydirgan. Ossuriyaliklar Isroil davlatiga jiddiy zarba berganlar. **Miloddan avvalgi XI asrdayoq, Salmanasar II** Suriya va Falastinni bosib olish maqsadida qo‘shin tortib keladi. Ossuriya

podshosi **Sargon II** Isroil saltanatini tor-mor qilgan. U **miloddan avvalgi 722-yilda Samariyani** qo‘lga kiritib, Isroil podshosi Osiya va u bilan birga 27290 isroillikni asir qilib, olib ketgan, so‘ngra ularni Midiya va Mesopotamiyaga ko‘chirgan. Isroilga bobillik va oromiy aholisini olib kelib joylashtiradi. Isroil saltanati shu tariqa nurab boradi.

Qadimgi Falastin madaniyati Misrliliklar Xanaan deb atagan bu mamlakat hududida Gezer, Megiddo, Laxish va Iyerusalim kabi shaharlar gullab yashnagan. Ular Finikiya, Suriya, Misr, Mesopotamiya kabi mamlakatlar bilan keng savdo aloqalari o‘rnatganlar.

Falastinda qadimdan me'morchilik, to‘qimachilik, zargarlik, temirchilik, kulolchilik va kemasozlik rivojlangan. **Miloddan avvalgi XIX-XVIII asrlarda** Falastin shaharlari gullab yashnagan. Falastinning boyliklari qo‘shni davlatlarni o‘ziga tortgan. Asrlar davomida Misr, Bobil, Aqqod, Ossuriya, Xett, Eron, Yunon, Rim qo‘shinlari Falastinga ko‘plab yurishlar qilib, mamlakatga talofat keltirganlar.

Din va adabiyot Qadimgi yahudiylar dini azaldan Falastin, Suriya va Finikiyada yashab kelgan qadimgi xalqlar diniy e'tiqodlari ta'sirida tarkib topgan. Bu qadimiy xalqlar misrliliklar, bobilliklar tomonidan yaralgan buyuk madaniyat bilan yaqin aloqada bo‘lganlar. Masalan, Bet-Shan xarobalarida Misrning XVIII - XIX sulola fir'avnlari zamonida, jumladan, **Seti I** va **Ramzes II** davrida qurilgan ibodatxonalar qoldiqlari aniqlanib, Suriya - Finikiyaning Vaal - Dagon va Vaalat-ashtoret degan xudolariga topinganlar.

Sinfy jamiyat tarkib topib, quldorlik davlati paydo bo‘la borishi bilan qadimgi tabiat xudolari, shuningdek, urug‘, guruh va qabilalarning homiylari bo‘lmish xudolar mahalliy va oqibatda davlat xudolariga aylangan. Bir qancha boshqa xudo va ma'budalar (Anat, Betel, al-Elon, Al - Shadday)ga, ayniqsa, qadimgi yahudiylarning bosh xudosi - Yaxvega sig‘inish keng rasm bo‘lgan. Yaxve bora-bora jang xudosi, davlat hamda podsho hokimiyati homiysi bo‘lib qoldi. **Miloddan avvalgi 722-yilda** Isroil podsholigi qulagach, xususan, Bobil asirligidan so‘ng yahudiylarning yagona xudosi - Yaxvega oid teologiya (xudo va unga sig‘inish) ta'limoti yaratildi.

Qadim afsonalarda dastlabki ruhoniypodsho Melxisedek haqidagi eslatmalar mavjud. Melxisedek *“Salim podshosi”*, shu bilan birga xudo Al-Elonning kohini¹ bo‘lgan. Podsho *“Yaxve nafasi tekkan”* shaxs va uning *“vakili”* bo‘lib hisoblangan.

Din adabiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. *“Tavrot”* kitoblarida qadimgi adabiyotning turli asarlari: diniy asotirlar, tarixiy afsonalar, qahramonlar haqida xalq dostonlari saqlangan. Tavrot asarlarida Xanaan hamda Bobil va Misr adabiyotining ta'siri sezilib turadi.

Qadimgi Falastinda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq keng rivojlangan. Xo‘jalikni boshqarish uchun xat-savodli mirza, amaldor, harbiy, me'mor, hunarmandlar talab etilgan. Ular maxsus maktablarda tarbiyalangan. O‘sha davrda qadimgi oromiy yozuvidan foydalanilgan. Falastinda yozuv va amaliy bilimlarning vujudga kelishi xo‘jalik rivojiga katta ta'sir ko‘rsatgan.

Finikiya Finikiyaning jo‘g‘rofiy o‘rni o‘ziga xos. Suriyaning Finikiya nomini olgan dengiz bo‘yi qismi qadimda savdo yo‘llari orqali O‘rta yer dengizining Sharqidagi orollar Kipr, Krit va Egey dengizi arxipelagi bilan bog‘langan. Dengiz va karvon yo‘llari tutashgan yerda joylashgan Finikiyaning jo‘g‘rofiy holati mamlakatda savdo rivojiga sabab bo‘lgan. Finikiya g‘arb va Sharqdan Livan hamda Antilivan tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan. Mamlakatning tarixiy hamda madaniy jihatdan birlashuviga imkon beradigan katta daryolarning yo‘qligi tufayli bu yerda yagona va qudratli davlat vujudga kelishi uchun qulay sharoit bo‘lmagan. Finikiyaning siyosiy jihatdan parchalanishi sabablaridan biri shuki, u qadimdan atrofi qudratli davlatlar bilan o‘ralgan bo‘lib, ular doimo ushbu boy o‘lkani istilo qilib, savdo shaharlarini bosib olishga intilib kelganlar. Iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli bo‘lmagan Finikiya ularga qarshilik ko‘rsata olmagan. Shuning uchun u o‘shanda muttasil ravishda goh bir, goh ikkinchi qo‘shnisining ta'siri ostida bo‘lgan.

Finikiyaning ba'zi hududlaridagi tabiiy Sharoit dehqonchilikning rivojlanishiga yordam bergan. Finikiyaning sug‘oriladigan dengiz bo‘yida, ayniqsa, Marat, Berit, Sidon va Tir hududlarida dehqonchilik hamda bog‘dorchilikning taraqqiy etishi uchun tuproq va iqlimga oid

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

barcha sharoit mavjud bo'lgan. Bu yerda hozirda ham mevazor bog'lar ko'p. Finikiyada asosan ko'plab zaytun va uzum yetishtirilgan. Mamlakatning asosiy boyliklaridan biri - Livan tog'larida o'sadigan kedr (*ingichkabargli doimiy yashil daraxt*) va boshqa qimmatbaho daraxtlardan tashkil topgan o'rmon hisoblangan.

Qadim manbalar, Misr, Finikiya va Xett yozuvlari, Tavrot hamda antik mualliflar ma'lumotlari, shuningdek, lingvistik ma'lumotlarga ko'ra, Finikiya qadimgi aholisining etnik tarkibi **miloddan avvalgi III ming yillikda** juda qorishiq bo'lgan. Eng qadimgi qabilalardan biri xurriylar - shimoliy-g'arbiy Mesopotamiya va Shimoliy Suriyada yashagan. Ular shu yerdan qo'shni viloyatlar, jumladan, Suriyaning chegaradosh hududlari orqali Finikiya va Falastinga tarqalganlar.

Finikiya hududidagi **Miloddan avvalgi III ming yillik oxiri-II qadimgi shahar-** **ming yillik** boshlarida Finikiyada bir necha davlatlar mayda shahar-davlatlar mavjud bo'lgan. Ular orasida davlatning bosh shaharlari Ugarit hamda Bibl dengiz sohilida joylashgan. **Ras - Shamradan** topilgan yozuvlarda jo'g'rofiy nomlar, jumladan O'rta Suriya, Finikiya va Falastin shaharlari nomi tilga olinadi. Bunga ko'ra, Ugarit ham iqtisodiy, ham madaniy-siyosiy jihatdan bu mamlakatlar bilan yaqin aloqada bo'lgan, deb aytish mumkin. Bundan tashqari, Ugarit Egey dengizidagi Krit, Kipr, Rodos orol aholisi bilan, shuningdek, Misr bilan qizg'in savdo olib borgan.

Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalariga kelib, Finikiya Misr hukmronligi ta'siri ostiga tushib qoladi. Misrning Finikiyani istilo qilishi hamda vaqt o'tishi bilan Misr hukmronligi zaiflashuvi XVIII sulola davridan qolgan misr yozuvlaridan, jumladan, Al-Amarnada topilgan diplomatiya arxividan ma'lum. Unda o'sha vaqtdagi xalqaro munosabatlarni yoritgan ko'pgina diplomatiya hujjatlari saqlangan. Ugarit **Miloddan avvalgi II ming yillikda** ancha yuksalgan edi. Ugarit arxividagi hujjatlarda qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Iqtisodiy taraqqiyot muhim ijtimoiy siljishlarga olib keldi. Chek yerlar sotilaverib, shaxsiy mulkdorlar qo'lida to'plangan. **Miloddan avvalgi XIV asrda** Ugarit xetlar hukmronligi ostiga tushib qolgan (**miloddan avvalgi taxminan 1400 yillarda Ugarit hatto vayron qilingan**).

Janubroqdagi Finikiya markazi - Biblda, **miloddan avvalgi II ming yillikda** Misr ta'siri kuchli bo'lgan. Bu yerda misrliklarning iyeroglif yozuvlari va Misr rassomlarining asarlari topilgan.

Ammo **II ming yillikning ikkinchi yarmida** janubiy Finikiya shaharlari tobora yuksalib borgan hamda Misr bilan Xett podsholigi o'rtasidagi ziddiyatlardan foydalanib, mustaqil bo'lgan. Janubiy Finikiyada Bibl bilan birga Sidon va Tir shaharlarining mavqeyi ortib borgan. Tushkunlikka yuz tutgan Ugaritning Egey dengiziga eltuvchi savdo yo'llari ana shu shaharlar qo'liga o'tgan.

Finikiyada siyosiy birlik bo'lmagan. Finikiya shahar xalqining o'ziga xos nomi bo'lib, har bir shahar aholisi o'zini shu shahar nomi bilan atagan. *“Finikiyalik”* so'zi misrliklarning etnik atamasi (anglashilmovchilik tufayli yunonlar *“Fenexu”* so'zini *“qizil”*, ya'ni *“foyneks”* deb talqin qilganlar) bo'lib, uni yunonlar o'zlaricha talaffuz qilganlar. Har bir shaharning o'z podshosi bo'lib, u zodagonlar kengashi va xalq majlisiga bo'ysungan.

Ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar. Finikiya tabiiy Sharoiti dehqonchilik rivojlanishi imkonini bergan. Bu yerlarning tuprog'i unumdor va suvi yetarli bo'lgani uchun qadim neolit davridan bug'doy, arpa va tariq ekilgan. Donli o'simliklar bilan bir qatorda dastlabki texnik ishlovli o'simliklar ham yetishtirilgan. **Miloddan avvalgi III ming yillikda** zig'ir ekib, undan mato tayyorlashni bilganlar. Bu matolarning izlari sopol siniqlarida saqlanib qolgan. Omochga odatda eshak, ho'kiz, ba'zan odam (qul) lar ham qo'shib yer haydalgan. Finikiyada g'allakorlik bilan birga dehqonchilikning yanada intensivroq turlari, jumladan, uzumchilik va uning samarasi sifatida vinochilik shu tariqa vujudga kelgan. Finikiya vinosi mashhur bo'lib, uning ta'rifi Rim davrigacha saqlanib qolgan. Rim ahli uzumchilik hususida karfagenlik Magonni dalil sifatida keltiradilar. Magon Shimoliy Afrikadagi Finikiya mustamlakalarida yirik uzumchilik va vinochilik xo'jaliklarining tajribasidan foydalangan.

Misr yozuvlarida Oront daryosi vodiysidagi Jahin davlatining boyliklari quyidagicha ta'riflanadi: *“Bog'larda turli mevalar to'lib toshgan. Vino suv kabi oqadi. Terrasalarda to'kilib yotgan g'alla hatto qumdan ham ko'p”*¹.

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

O'sha davrlardayoq Finikiyada turli hunarlar paydo bo'la boshlagan. Livan tog'laridan temir rudasi qazib olingan. Uni qazib olish va ishlash usuli nisbatan yengil bo'lgan. Mamlakatda, ayniqsa, to'qimachilik taraqqiy etgan. Finikiyaliklar mato bo'yash mahorati bilan nom qozonganlar. Bo'yoq Finikiya eksportida juda muhim o'rin tutgan. Bu bo'yoqlarning finikiyacha nomlanishi Ossuriya va qadimgi yahudiy tillaridagi shu ma'noli so'zlarga yaqin bo'lgan. Och qizil rangga bo'yalgan jun matolar tayyorlanganligi Ras - Shamradan topilgan va **miloddan avvalgi XIV asrga** oid yozuvlarda uchraydi. To'q qizil bo'yoqlar tayyorlaydigan ustaxonalar Ugarit shahrining dengizga tutash qismida joylashgan. Oyna tayyorlash sohasida Finikiya ahli katta yutuqlarga erishgan. Biroq bu texnikani Finikiyaliklar misrliklardan va qisman ossuriyaliklardan o'rganganlar.

Livan tog'larida qurilish va machta yasashda ishlatiladigan yaxshi daraxtlarning ko'pligi yog'och buyum yasash va kemasozlikning rivojlanishi imkonini bergan. Bibl, Sidon va Tir verflarida (sxemalar quriladigan va ta'mirlaydigan korxonalar) eshkakli katta kemalar qurilgan. Eshkakchilar odatda qullardan iborat bo'lib, ular kursilarga kishanlab qo'yilgan. Kema halokatga uchraganda qullar g'arq bo'lganlar. Finikiyaliklar o'z davrining mohir kemasozlari hisoblanganlar. Qadimgi podsholik davridayoq misrliklar kema turlaridan birini "**Bibl kemasi**" deb ataganlar. Qabila nomining "**Finikiyaliklar**" deb atalishi ham misrcha "**kemasoz**" degan ma'noni anglatgan "**fenexu**" so'zidan kelib chiqqan bo'lsa, ajab emas. Hatto miloddan avvalgi V asrda yashagan yunon tarixchisi Geradot ham fors flotidagi kemalar ichida "**finikiyaliklar yasagan kemalar boshqalaridan yaxshi suzishi bilan ajralib turardi**", deb yozadi. Finikiya kemasining qadimgi turi og'ir bo'lsa ham, lekin dengizda suzishga moslashgan, u yelkanlar yordamida harakatlanib, katta yuk tashishga mo'ljallangan.

Savdo Finikiyada savdo taraqqiy etgan. Buning sababi qishloq xo'jaligida Yuqori hosildorlik hamda hunarmandchilikdagi muvaffaqiyatlar va qulay jo'g'rofiy Sharoitning mavjudligidir. Finikiya shaharlari Old Osiyo mamlakatlarini Egey dengizi havzasi, Afrika va Arabiston bilan bog'laydigan muhim savdo yo'llari tutashgan yerda joylashgan. Bu savdo quruqlikdagi yo'llar va dengiz yo'llari orqali olib borilgan. Kichik Osiyo, Mesopotamiya, Arabiston,

Qizil dengiz va Misrdan savdo karvonlari Finikiya shaharlariga kelganlar. Yuklar odatda, ot-ulovda, ammo shu bilan birga aravalarda ham tashilgan. Ibodatxonadagi suratlar ikki g'ildirakli arava mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Ras - Shamradan topilgan va **miloddan avvalgi III ming yillikka** oid eng qadimgi yozuvlar ham Ugarit davlati aholisining savdo faoliyatini ta'riflab beradi. Karvon yo'llari orqali olib borilgan savdo Suriyaning shimoliy qirg'og'idan to Qizil dengiz sohilidagi Aqaba qo'ltig'igacha bo'lgan hududlarni, shu bilan birga, Xanaanni o'z ichiga olgan.

Finikiyada, ayniqsa, dengiz savdosi ravnaq topdi. **Miloddan avvalgi IV ming yillikda**, qadimgi podsholik davridayoq, misrliklar Finikiyadan turli xil mollar olib ketganlar. Ulardan zaytun moyi va yog'och alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Finikiyaliklar, shu bilan birga vino, kedr moyi, chorva mollari, don, upa-eliklar va shifobaxsh dori-darmonlar keltirganlar. Savdo va iqtisodda yog'och muhim o'rin tutgan. Finikiya savdo shaharlariga yaqin joylashgan Livan va Antilivan tog' tizmalari, shuningdek, Kichik Osiyo, Kavkazorti, O'rta va Shimoliy Suriya hamda Falastinning yondosh tog' o'lkalari o'sha vaqtda katta o'rmonlar bilan qoplangan edi. Kedr, Kilikiya qarag'ayi va dengiz bo'yi qarag'aylari hamda boshqa qimmatbaho daraxt navlarining mo'l-ko'lligi va bu hududlarning daraxtga boyligi yerlik savdogarlarga katta miqdorda yog'och, binokorlik va yelkanli kemalar uchun zarur yog'ochlarni Misr, Mesopotamiyaga sotish imkonini bergan. Bu holat **Seti I** davridagi bo'rtma naqshda yaxshi ifodalangan bo'lib, unda Livan sultonlarining Misr podshosi uchun kedr daraxtlari kesayotganlari tasvirlangan. Finikiyaliklar boshqa mamlakatlarga ham yog'och olib borib sotganlar. Masalan: Tir podshosi **Xiran I** Isroil - YAhudiy saltanati podshosi Sulaymonga Quddus ibodatxonasi qurilishi uchun kedr daraxtlari yuborgan. **Miloddan avvalgi VIII asrda** finikiyaliklar Ossuriya podshosi **Sargon II** ning saroyi qurilishi uchun yog'och yetkazib berganlar. Ba'zan Finikiya Ossuriya podsholariga xirojni kedr daraxti bilan to'lagan.

Finikiya shaharlari, asosan, Biblning Misr bilan savdosi **miloddan avvalgi II ming yillik** o'rtalari va ikkinchi yarmida, ya'ni Finikiya bilan Suriya, Misr fir'avnlari tomonidan bosib olinib, Misr davlati tarkibiga qo'shilgan davrida yanada ravnaq topadi. Amarna

arxivida saqlangan diplomatik xatlar bu savdo rivojlanganligi haqida aniq ma'lumot beradi.

Ras - Shamradan topilgan va **miloddan avvalgi II ming yillikka** oid rasmiy hujjatlarda savdogarlar, badavlat kishilar va hatto xususiy yer egalari tilga olinadi. Bu narsa sinfiy tabaqalanishni ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. O'rta podsholik davriga oid Misr yozuvlarida fira'vning dushmanlari orasida "***gavanlik kishilar***" tilga olinadi: ular Finikiya shaharlarining notinch savdogar va hunarmand aholisi bo'lib, ular Misr istilochilariga qarshi tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turganlar.

Finikiya shahar - davlatlarining gullab yashnashi. Misrning Yangi podsholigi va Xett podsholigining zaiflashuvi natijasida Finikiyada Tir, Sidon, Bibl va Arad kabi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi uchun qulay Sharoit yaratildi. Mustaqil bo'lib olgan bu davlatlar **miloddan avvalgi X-IX asrlarga** kelib ravnaq topdi. Bu vaqtda Misr bilan Ossuriya inqirozni boshidan kechirib, Finikiyaning savdo shaharlariga tahdid qilishga qurbi yetmay qoldi. Bibl bilan birga boshqa yirik savdo shaharlari - Sidon va Tir maydonga chiqdi. Sidon Finikiyaning eng qadim savdo markazlaridan biri bo'lgan. Shu tufayli isroilliklar va qadimgi yunonlar finikiyaliklarni sidonliklar deb ataganlar.

Keyinchalik tashkil topgan Tir-Sidon saltanati podshosi, odatda, Sidon podshosi unvonini olgan. Nihoyat, Finikiyaning eng katta ibodatxonasi - Astarta Sidonda joylashgan. Bu ibodatxonaning mavqeyi butun Finikiyada Yuqori bo'lgan. Biroz vaqt o'tgach, Tir yirik savdo va siyosiy markaz sifatida maydonga chiqadi. Tir podshosi **Xiram I (miloddan avvalgi 969-936 yillar)** juda keng miqyosda savdo va istilochilik siyosatini olib boradi. U Kipr oroli, Afrikadagi Utika va Ofir mamlakatlariga yurish qilgan. **Xiram I** Shimoliy Afrikadagi kichik yarim orolda (hozirgi Tunis hududida) o'z manzilgohini barpo etib, Karfagen shahriga asos soldi. Karfagen finikiyacha "***Kart Xadaiy***", ya'ni "***yangi shahar***"¹ ma'nosini anglatgan. **Xiram I** olib borgan keng ko'lamlilik siyosati Tirning ravnaq topishiga sabab bo'ldi. Orolning qulay yerida joylashgan Tir yuksalib, katta va boy shaharga aylanadi. Shaharning

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Sharqiy qismi tuproq bilan to'ldirilib, uning hududi sun'iy ravishda kengaytiriladi. Ana shu hududda **Xiram I** davrida yangi turar joylar, bozor va xalq yig'ilishlari uchun keng maydon barpo etiladi. Tir mustahkam va qudratli dengiz qal'asiga aylanadi. **Miloddan avvalgi IX asrda** Finikiya davlati yanada o'sib, gullab-yashnadi. Mamlakat podsholaridan biri - Itobaal Liviyada Avzu shahrini qurdi. Bu davrda Berit, Bibl va Sidon kabi yirik savdo shaharlari bo'lgan Finikiya sohilining katta qismi Tirga tegishli bo'lgan.

O'rta yer dengizidagi Finikiya avvalgi XVI asrdayoq Finikiya mustamlakalari Kipr mustamlakalari oroli va Kichik Osiyo janubiy sohilining bir qismini va bundan tashqari butun Egey dengizi hududini o'z ichiga olgan. Finikiyaliklar o'zlarining savdo faktoriyalari uchun qirg'oqqa yaqin orollar, muhim savdo va harbiy yo'llari tutashgan, tabiiy boyliklari serob va tabiiy jihatdan himoyalangan joylarni tanlaganlar. Ular Kiprni bosib olib, so'ng Rodos, Kiklad va Sporad guruhidagi ayrim orollarni, oltinga boy Fasosni, Samofrakiyani istilo qilganlar hamda Gelespont va Bosfor orqali Qora dengizga, Kichik Osiyoning shimoliy qirg'oqlariga qadar yetib borganlar. Finikiya savdo yo'li bilan Kichik Osiyo va Yunonistonning materik qismidagi hudud va shaharlariga ham kirib borgan. Troya, Miken va Trinfada o'tkazilgan qazilma ishlarida Finikiyaga xos bir qancha buyumlar topilgan.

Tir savdogarlari O'rta dengizning Sharqiy qismida keng savdo ishlari yuritganlar. Tirliklar Finikiya sohillaridan Iberiya qirg'oqlariga, asosan, Tartessga olib boradigan dengiz yo'lidan asta-sekin olg'a siljiganlar. Bu yo'l Sitsiliya, Malta, Pantelleriya orqali Turditanianing asosiy daryosi Gvadalkvivirning quyilish joyiga yaqin orolda finikiyaliklar asos solgan qadimgi Gader shahriga (lotincha Gades, hozirgi Kadis) olib borgan. Sitsiliya orolida finikiyaliklar "**Rosh-Melkart**" (Tir bosh xudosi "**Melkart boshi**") shahrini bunyod etganlar. Sardiniya orolidagi Karalis (Kalyari) shahri ham Finikiya mustamlakasi hisoblangan. Sardiniyada saqlanib qolgan kesik konus shaklidagi maqbaralar (toshdan ishlangan) Finikiya ta'sirini ko'rsatadi.

Shimoliy Afrikaning ba'zi hududlarini bosib olganlar va u yerlarda o'zlarining savdo faktoriyalari va shaharlarini qurganlar. Ular ichida Karfagen alohida o'rin tutgan. Bu shahar **miloddan avvalgi I ming yillikning** birinchi yarmida mavjud edi. Karfagen finikiyaliklar tomonidan **miloddan avvalgi 825-823-yillarda** bunyod etilgan.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Karfagen O'rta yer dengizining g'arbiy qismidagi Finikiya mustamlakalarini o'z atrofida birlashtirib, yirik va qudratli quldorlik davlatini tashkil etgan. G'arbda Finikiya savdosining eng uzoq tayanch nuqtalari - g'arbiy Afrika sohilidagi qishloqlar: **Tingiz** (Tanja, Tanjer), **Selis** (Azila) va boshqalar bor edi. Undan janubda, keyingi rivoyatlarga ko'ra, tirliklar asos solgan va 30 kunlik yo'lda 300 ta Finikiya qishlog'i joylashgan. Finikiyaning dengiz orqali savdosi va mustamlakachiligining keng quloqch yoyganligi to'g'risida **"Karfagenlik Gonnon Peripl"** aniq va batafsil ma'lumot beradi. Bu ma'lumot Karfagendagi El tangrisi ibodatxonasidagi hujjatdan olingan. **"Peripl"** matni **miloddan avvalgi VI asrga** oid bo'lib, unda sayohatga chiqish haqidagi buyruq keltiriladi va Gonnonning Afrika atrofidagi sayohati ta'riflanadi. Bu ta'rifga ko'ra, Gonnon okeanga Gerakl ustunlari (Gibraltar bo'g'oz) orqali chiqqan. Uning floti har biri 50 eshkakli 60 ta kemadan iborat bo'lib, unda 30 ming erkak va ayol xizmat qilgan. Finikiyaning bu ulkan ekspeditsiyasi oqibatida g'arbiy Afrika qirg'oqlari o'rganilgan, va u yerda yangi shahar va ibodatxonalar barpo qilingan. Finikiyada dengizchilik taraqqiy etganini Misr fir'avni **Nexo II** ning buyrug'i bilan Finikiya dengizchilarining Afrikaga qilgan sayohatidan ham bilish mumkin. Finikiyaliklarning Pireney yarim orolining g'arbiy qirg'og'i bo'ylab shimolga suzib borganliklari to'g'risida ma'lumot saqlanib qolgan. Lekin ular to'la tasdiqlangan emas. Finikiyaliklar dengiz yo'li bilan Britaniyadan qalay va qahrabo¹ ham keltirganlar.

Finikiyaliklar Sharqdagi mamlakatlarga ham yetib borganlar. Tir bozorlarida Armanistondan keltirilgan mollar sotilgan. Ular Mesopotamiyada Frot daryosi bo'yida Eddona shahrini barpo qiladilar. Suriya bilan Falastin Finikiyani xom ashyo, turli buyumlar, shuningdek, ishchi kuchi bilan ta'minlab turgan. Arabistondan esa ziravorlar keltirilgan. Shunday qilib, Finikiya savdosi va

¹World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

mustamlakachiligi **miloddan avvalgi XVI-XII**, ayniqsa, **X-IX asrlarda** keng quloq yoydi.

Miloddan avvalgi IX asrda juda ravnaq topgan Tir - Sidon podsholigi Ossuriya kabi kuchli dushmanga duch kelib, uzoq chidash bermadi. Biroq Finikiyaning eng katta shaharlari-Tir bilan Sidon aholisi Finikiya dengiz bo'yini qo'lga kiritishga intilgan Ossuriya shohlariga uzoq vaqt qarshilik ko'rsatdi. Faqat Asarxaddon (**miloddan avvalgi VII asr**) Finikiyaning mazkur shaharlari qarshiligini yengib, Finikiyani Ossuriya tarkibiga qo'shib olishga erishadi.

Finikiya madaniyati **miloddan avvalgi IV-I ming yilliklarda** Finikiya va uning mustamlakalari hududida vujudga kelgan. Uning rivojiga misrliklar, shuningdek, Ossuriya, Bobil, Xett, Egey va yunon madaniyatlari katta ta'sir ko'rsatdi. Finikiyaliklarning eng katta yutuqlaridan biri **miloddan avvalgi II ming yillikda** bu yerda undosh harflarining kashf etilishidir. Bu kashfiyot keyinchalik barcha harf - tovush tizimidagi xatlarda ishlatiladigan bo'ldi.

Tarixchilarning fikriga ko'ra, Finikiya yozuvi bibl "псевдоиероглифик" yozuv, ya'ni so'zlardan tarkib topgan xat yoki Sinay yozuvi va uning ilk Falastin variantlaridan kelib chiqqan. Finikiya adabiyotining eng qadimgi namunalari Ugarit mifologik matnlari va Finikiya podsholarining yozishmalari (Bibllik Axiram va Iyeximilk, Sidonlik Eshmunazar va boshqalar) dan iborat.

Rim imperiyasi hukmronligi va ellinlar davrida Finikiyada yunon tilidagi adabiyot rivoj topdi: kosmogoniya va teogoniyaga oid Menandraning tarixiy afsonalari, **Diy (miloddan avvalgi II-I asrlar)**, **Feodot (milodiy I asr)**, Bobillik **Filon (I-II asrlar)** va boshqalarning asarlari. Bu mualliflarning ishlari "*Tir solnomasi*" va boshqa asarlarda aks etadi. Shimoliy Afrikada rivojlangan Finikiya adabiyoti, **Gannon** va **Gamilkon** dengizchilarining Atlantika okeanidagi sayohatlari haqidagi hikoyalar va qishloq xo'jaligi ishlarini samarali yuritishga bag'ishlangan **Magon** asarlari bizga ma'lum.

Ma'lumki, Finikiyada oliy xudoni **El** deb ataganlar. Buning ma'nosi xudo, uning rafiqasi **Elat** yoki **Asherat** (dengiz ruhi). Qolgan xudolar - shohlar (**malk**) yoki sohiblar (**ball, vall**), shu bilan birga, osmon xudosi - **Baalshamem**, quyosh xudosi (issiqlik egasi) - **Baalxammon**, shuningdek alohida joy, daryolar xudolari bo'lgan.

Finikiya shaharlarining tanlangan xudolari bo'lgan, masalan Tirda - **Melkart** (shahar hokimi), Sidonda - **Eshmun** (tabib - davolash xudosi), **Beritda** - Buyuk Berit egasi, Biblda - (Finikiya umumiy xudolaridan biri) sevgi va hosildorlik xudosi **Ashtarta** (Astarta). Finikiyada, ayniqsa, hosildorlik xudosi keng e'tiqod qilingan edi.

Finikiyalik rassomlar Misr, Xet - xurrit va Bobil san'ati motivlarida asarlar yaratganlar. Shu bilan birga ular o'ziga xos yo'nalishlarga ega bo'lgan. Ayniqsa, o'sha davrda Finikiya hunarmandlari yasagan buyumlar Yuqori baholangan. Finikiyaning turli o'lkalarida yozuvga ehtiyoj sezila boshlangan. Aholining katta qismi mashg'ul bo'lgan dengizchilik va savdo munosabatlarining rivojlanishi bilan faqat ayrim hattotlar yoza oladigan yozuvni soddalashtirish zarurati yuzaga kelgan.

Finikiya yozuvining kamchiliklari quyidagilardan iborat bo'lgan: u faqat undosh tovushlarni ifodalar va misr yozuvi kabi matn o'qishni osonlashtiradigan qo'shimcha belgilarga ega emas edi. Shuning uchun matnlarni o'qish oson bo'lmay, murakkab matnlarni tushunish esa, yanada qiyin kechgan.

Vaqt o'tib, shimoliy finikiya alifbosi 22 belgidan iborat janubiy finikiya alifbosi tomonidan siqib chiqarildi va u keyinchalik butun mamlakatda tarqaldi. Yunon alifbosi uning asosida qurilgan. Bu yunon harflarining qadimiy shakli hamda qator yunon harflari nomlarining kelib chiqishi semitcha ekanligini ko'rsatadi. Masalan "**alfavit**" so'zining o'zida birinchi ikki "**alef**" va "**bet**" (g'arbiy semit tilida "buqa" va "uy" ma'nosini bildiradi) Finikiya harflariga to'g'ri keladi.

Bu alifbo harflari asosida qadimgi rasm - belgilar yotar edi. Aksariyat yunon harflarining nomlari Finikiya harflari nomiga to'g'ri keladi. Yunon va oromiy alifbolari ko'pgina zamonaviy alifbolar uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Din Osmon xudosi Finikiya shaharlarida bosh tangri hisoblanib, u o'z ismi bilan emas, balki turli nomlar bilan atalgan. U oddiygina "**ega**" (**Vaal**), "**shahar shohi**" (**Melkart**), "**hokimiyat**" (**Molox**) yoki "**xudo**" (**El**) deb atalgan.

Osmon xudosi Vaal yonida uning xotini Astarta (Ashtart, Asherat) joy egallagan. Osmon va yer tangrilari bilan birga o'lib-tiriluvchi o'simliklar xudosi ham e'zozlangan. Ko'pincha uni Adonis -

“mening janobim” deb ataganlar. Ushbu tangrining ayrim sifatlari **Vaal** va uning singlisi **Anat** (ba'zi taxminlarga ko'ra, xotini Astarta) haqidagi mifologik dostonda o'z aksini topgan. Dostonning ayrim lavhalari mazmuni Osiris va uning singlisi Isida haqidagi Misr mifologik dostoniga yaqin. O'luvchi va qayta tiriluvchi xudo e'tiqodi bilan birga diniy dramalar ham vujudga kela boshladi. Ugarit matnlaridan birini aynan shunday diniy xarakterga ega bo'lgan drama sifatida talqin qilish mumkin.

Finikiyada Falastin va Suriyadagi kabi odam qurbon qilish odati uzoq saqlanib qoldi. Ko'pincha yosh bolalar, ayniqsa, yangi tug'ilgan chaqaloqlar qurbonlik qilingan. Davlatga nisbatan xavf tug'ilgan paytda bu urf amalga oshirilardi. Masalan: **miloddan avvalgi IV asrda** Tir yunon - makedon qo'shinlari tomonidan qamal qilingan paytda, shahar devori ustida makedoniyalik harbiy asirlar qurbonlik sifatida qatl etilgan.

Miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarigacha bo'lgan tarixni kuzatish mumkin. Ugarit deb nomlangan bu davlat hududida eng muhim savdo yo'llari tutashib, Misr va Egey dengizi sohilini Kichik Osiyodagi xett qabilalari bilan o'zaro mahkam bog'lab turgan.

Shahar xarobalaridan topilgan va maxsus mixxat yozuvida bitilgan esdaliklar katta ahamiyatga ega. Afsonalardan olingan matnlar Shimoliy Suriyadagi qabilalar¹ning **miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalaridagi** diniga oid muayyan ma'lumot beradi.

Suriya va Finikiyaning bu davrdagi siyosiy tarixini o'rganish uchun Amarna arxividan topilgan (diplomatiyaga oid) xatlar, xett hujjatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Suriya va u bilan bog'liq Finikiya tarixini o'rganish uchun Babil va Ossuriya yozuvlari, hamda **miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda** o'tgan Ossuriya podsholarining ma'muriy yozishmalari muhim o'rin tutadi. Shuningdek, antik mualliflar **Iosif Flaviy, Gerodot, Yevseviy** asarlarida ham qadimgi Suriyaga oid ancha ma'lumot bizga qadar yetib kelgan.

Misrning Suriya va Finikiyani istilo qilishi. Misr-Xett nizolari. Ichki kurash natijasida kuchsizlanib borgan Suriya bir necha bor ajnabiy bosqinchilar asoratiga tushgan. Qadim Sharqdagi katta

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

davlatlar hukmdorlari, Misr fir'avnlari va Bobil podsholari nisbatan kichik mamlakatlar - Suriya va Shimoliy Mesopotamiyani bir necha bor istilo qilganlar.

Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida Suriya va Finikiya Misr hukmronligi ostiga tushib qoladi. XVIII sulola fir'avnlari Suriyani Frot daryosigacha istilo etadilar va mamlakatga og'ir xiroj solib, uning tabiiy boyliklariga egalik qiladilar. Ammo Suriya Misrning iqtisodiy va siyosiy nazorati ostida qolganiga qaramay, qisman mustaqilligini saqlab qoladi.

Miloddan avvalgi XIV asrga kelib Misrning Suriyadagi o'z hukmronlik mavqeyini saqlab qolishi uchun kuchi yetmay qoldi. Misrliklar o'rnini xetlar egallab, Shimoliy Suriyani mustamlakaga aylantiradilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy Suriyaning ko'p hududlari dehqonchilikning turli munosabatlar va shakllarini rivojlantirish uchun birmuncha savdo noqulay bo'lgan. Shuning uchun bu hududda, ayniqsa, Suriyani Mesopotamiyadan ajratib turgan cho'llarda yashagan qabilalar uzoq vaqtgacha ko'chmanchi hayot kechirib, chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Faqat ba'zi vodiylargina dehqonchilikni rivojlantirish imkonini bergan.

G'alla bilan birga dehqonchilikning yanada intensivroq turlari, ya'ni uzum yetishtirish hamda vinochilik tarkib topgan. Bu yerda zaytun moyi va vino ishlab chiqarish imkoniyati bo'lgan.

Turli hunarlar rivojlangan, masalan, to'qimachilik mahsulotlari, bo'yalgan mato, rang-barang bo'yoqlar Finikiya eksportida muhim o'rin tutgan.

Quruqlikdagi karvon yo'llari orqali Ras-Shamrada yuritilgan savdo Suriyaning shimoliy qirg'og'idan to Qizil dengiz sohilidagi Aqaba qo'ltig'igacha keng hududni o'z ichiga oladi. ***"Ipuver (Ipuser) nasihati"*** da (O'rta podsholik davri) Suriyadan sarkofag - tobutlar yasash uchun alohida yog'och va mo'miyolash uchun daraxt yelimi (***smolasi***) keltirilganligi haqida so'z boradi.

Qdimgi Suriya Suriya qadim zamonlardan beri har tomondan madaniyati taraqqiy etgan qadimgi madaniy va qudratli davlatlar bilan o'ralgan edi. janubiy-g'arbda Misr, Sharqda

Bobil va Ossuriya, shimoliy-Sharqda Mitanni, shimolda Xett davlati joylashgan edi. Mazkur davlatlar Suriyaga madaniy jihatdan kamroq ta'sir ko'rsatgan.

Shimoliy Suriya Sharqiy O'rta dengiz miqiyosida ilk sivilizatsiya markazlaridan bo'lgan. So'nggi yillarda arxeologik qazishmalar natijalari (**XX asr 80-yillari boshida**) shundan dalolat berib turibdi. Suriyaning shimoliy-g'arbiy qismida **miloddan avvalgi III ming yillikda** mahalliy sivilizatsiya paydo bo'lganligi va unga Shumer sivilizatsiyasi madaniy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Ushbu sivilizatsiya ulkan qazish ishlari natijasida (Tell-Mardix shahar xarobalarida) qadimgi Emba shahridan topildi (hozirgi Halab shahridan 50 km narida). Arxeologlar Tell - Mardixning quyi, eng qadim qatlamlarini ochishga muvaffaq bo'lganlar. Ushbu qatlamlardan Tel Mardix tarixining ikki bosqichi aniqlandi: Eblaning YA Ahmad davlatining qaramligidagi davri (**miloddan avvalgi 1900-1600 yillar**) va Ebla tarixining mustaqillik davri (**milollan avvalgi XXVI-XXIII asr**). Ushbu madaniyatning eng katta yutug'i bo'lmish Ebla matnlari aynan shumer yozuvida yaratilgan. Eblait alifbosining vujudga kelishiga ham shumer yozuvi katta ta'sir ko'rsatgan. Matnning 90 % shumer alifbo belgilarida bitilgan. Eblait-shumer alifbo belgilari tashqi ko'rinishidan janubiy shumer an'anaviy yozuvlariga o'xshab ketadi (Lagash, Ur, Uruk yodgorliklaridan). Ammo olimlarning fikricha, bu tizim shimoliy (ya'ni Kish) hududlarida vujudga kelgan (**miloddan avvalgi 2500-yil**). Tell-Mardixda ham shumer -eblait qomuslari topilgan.

Shunday qilib, bu yerdan topilgan xat namunalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, oddiy Ossuriya - Bobil yozuvidan ancha farq qiladi.

Me'morchilik sohasida ilk neolit davriga oid Ras - Shamrada **“qal'a ko'rinishidagi yodgorliklar”**, **miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda** esa, Ebla shahrida Mesopotamiyadagi kabi ibodatxonalar topilgan. O'sha davrdayoq Suriya me'morchiligining ko'p namunalari (ibodatxona, qal'alar) rivoj topdi. Shu davrga oid arxitekturada, ayniqsa, san'at bilan dinning o'zaro chambarchas bog'liq ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Suriya va Finikiya qabilalarining eng qadimgi dini qadimgi jamoa - dehqonchilik kultrlariga borib taqaladi. Ras-Shamra mifologik

dostonlarida arpani sugʻorish jarayoni va boshqa qadimgi diniy urf-odatlar taʼriflanadi.

Qayta tiriluvchi tabiat xudosi Vaal va uning oʻgʻli Aleyyan haqidagi dostonda diniy qarashlar oʻzining yorqin ifodasini topgan. “Vaal va Aleyyan” nomli ushbu dostonda hikoya qilinishicha, **Vaal xudosi** uchun hashamatli ibodatxona barpo qilinib, bu unda Vaal oʻlim xudosi Mot ustidan qozongan gʻalabasini nishonlaydi.

Bu afsona hamda tabiat xudosi eʼtiqod qilish keyinchalik Adonisga sigʻinish uchun asos boʻlgan. Adonisga eʼtiqod qilish esa keyinchalik Suriya va Finikiyada keng tarqalgan. Suriya sanʼati, xususan arxitekturasi madaniy yodgorliklari katta ahamiyatga ega.

Frigiya - Kichik Osiyoning shimoliy-gʻarbida joylashgan tarixiy viloyat. Frigiya aholisi - frigiyaliklar (Yevropadan koʻchib kelganlar). Miloddan avvalgi II ming yillikda Frigiya gullab-yashnadi va oʻz hududini kengaytirishga erishdi. Gomer “Iliada” sida Frigiya Troyaga yunonlarga qarshi kurashishda yordam bergan, soʻng Troya ustidan oʻz “hukmronligini oʻrnatdi” deb yozilgan.

Miloddan avvalgi XII asrda Frigiya Xett davlati qulashida katta rol oʻynadi va uning katta qismini oʻziga qoʻshib oldi. Shu asr oxirida esa Frigiya Ossuriya bilan toʻqnash keldi. Tiglatpalasar I yozuvlarida Frigiya “**mushklar davlati**” deb tilga olinadi (**yunoncha “mosxlar”**).

Miloddan avvalgi X-VIII asrda Frigiya poytaxti Gordion shahri boʻlgan. **Miloddan avvalgi IX asrda** Frigiya Egey dengizida oʻz hukmronligini oʻrnatdi. **Miloddan avvalgi VIII asrda** esa Frigiyaning xalqaro mavqeyi biroz yomonlashdi. Uning shimoliy va shimoliy-gʻarbiy hududlarini Yevropadan koʻchib kelayotgan yangi xalqlar egallay boshlashdi, Sharqda esa Ossuriya bilan toʻqnashuvlar koʻpaydi.

Frigiya shohi **Midas (ossuriyacha - Mita) miloddan avvalgi 717-yilda** Urartu bilan ittifoq tuzadi, lekin **713-yili** Ossuriyadan bir necha marta magʻlubiyatga uchragandan keyin Sargon II bilan Shartnoma tuzadi va gʻolibga boj toʻlashga majbur boʻladi. Frigiyaga kimmer qabilalari ham xavf solar, **miloddan avvalgi VII asrning 70-yillarida** ular Frigiyaning ancha qismini bosib olgan edilar.

Gerodot soʻziga koʻra frigiyaliklar¹ Yevropada yashagan paytlarida oʻzlarini briglar deb atashgan. Osiyoga koʻchib kelganlaridan keyin esa oʻz nomlarini frigiyaliklarga oʻzgartirganlar. Yozuv va ismlarga asoslangan holda aytish mumkinki, frigiyaliklar tili hind-yevropa tillari turkumiga kirgan va yunon tili bilan bogʻliq.

Xett davlati bilan bevosita aloqadagi mahalliy aholi bilan yaqin frigiyaliklar tez orada Old Osiyoning qadimgi jamoalariga xos boʻlgan sivilizatsiya darajasiga yetib oldilar. Arxeologik manbalarga asoslangan holda aytish mumkinki, dehqonchilik Frigiya jamoasining iqtisodiy asosi boʻlgan. Frigiyaning hududi boʻylab koʻplab istehkomlar qurilgan edi.

Frigiyada qazishlar paytida topilgan sopol idishlar oʻtgan davrdagi hunarmandchilik anʼanalarining taraqqiyot darajasini koʻrsatadi. Unda Xett davlati, Kichik Osiyo va hatto Kipr kulolchiligining namunalarini koʻrish mumkin.

Shoh va amaldorlar qoʻrgʻonlarda dafn qilinib, hunarmandchilik taraqqiy etishi tufayli tosh maqbaralar qurila boshlandi.

Gʻarbiy sohildagi yunon shahar-davlatlari bilan Frigiya savdo aloqalarini oʻrnatgan boʻlib, bu yunon va frigiya jamiyatlari madaniyati yaqinlashuviga olib kelgan. Ossuriya va yunon manbalarida faqat ikki Frigiya podshosi - **Gordiya** va **Midas** ismi keltiriladi. Ayrim mutaxassislar bu ismlar emas, balki shohlik amallari nomi deb xisoblashadi.

Frigiyaliklar dehqonchilik, chorvachilik bilan, shuningdek marmar qazib olish, oltin konlarini oʻzlashtirish, junni qayta ishlash bilan shugʻullanishgan. Savdo-sotiq ishlari koʻproq yunonlar va rimliklar bilan olib borilgan. Frigiyaliklar asosan qishloq joylarda yashashgan, lekin bir necha Gordion, Kelena, Kotiy kabi katta shaharlar ham boʻlgan.

Frigiya madaniyatining Egey dengizi atrofida yashaydigan xalqlar madaniyati va sivilizatsiyasi bilan oʻxshash tomonlarini koʻrish mumkin. Qadimgi Frigiya alifbosi yunon alifbosining bir varianti boʻlib, Frigiya va Yunoniston madaniyatining yaqin aloqalarini koʻrsatadi. Kadimgi Yunon afsonalarida Frigiya shohi Midasga katta oʻrin berilgan. Ularga koʻra shoh qoʻli tekkan narsa oltinga aylangan.

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Sakarya (Sangariy) daryosi vohasida topilgan qadimgi Frigiya yozuvlari, shuningdek G'arbiy Kichik Osiyo va Kappadokiya shaharlaridan ham topilgan¹. Bularning bari, Frigiya davlati gullagan davrida uning chegaralari g'arb va Sharqqa tomon keng hududlarni egallaganligini ko'rsatadi. Yunon madaniyati Frigiyaga Germa vohasi orqali kirib kelgan. Shu yo'l bilan Frigiya madaniyati o'z ta'sirini Kichik Osiyoning g'arbiy sohilidagi yunon aholisiga o'tkazgan. Frigiya musiqasi yunonlar tomonidan qabul qilinib, qadimgi yunon madaniyatining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Miloddan avvalgi VIII asrda paydo bo'lgan frigiya yozuvi alifboli bo'lib, yunon alifbosi bilan o'xshash joylari bor edi. Ayrim harflarning ma'nosi hali to'liq o'rganilmagan.

Shuningdek **miloddan avvalgi VIII-VII asrlardagi** qadimgi Frigiya yozuvi Tiana, Likaoniya va Kichik Osiyoning boshqa o'lkalaridan topilgan. Bu esa Frigiya kimmeriylar bosqiniga qadar egallagan hududni aniqlashga yordam beradi. **Milodiy I asrlarga** oid yangi Frigiya yozuvi asosan yunon harflaridan tarkib topgan.

Frigiyaliklarning dini **Kibela xudosi**, uning yori, o'lib, qayta tiriladigan xudo **Attisaga** e'tiqod qilish keng tarqalishi bilan ajralib turadi. Keyinchalik bu e'tiqod Yunoniston va Rimda ham keng tarqalib ketdi.

Frigiyaning boy madaniyati Kichik Osiyoning g'arbidagi Germa daryosi vohasida istiqomat qilgan qabilalarga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Ushbu voha Frigiya davlati hududida joylashgan bo'lishi ham mumkin. Uning markaziy qismi Midiya tilida Sfarm, yunoncha - Saru deb nomlangan. **Miloddan avvalgi VII asrda** Germa vodiysi aholisini ossuriyaliklar va yunonlar avval meonlar, so'ng lidiyaliklar deb ataganlar. Lidiyaliklar tili xetlar tiliga o'xshagan bo'lishi mumkin.

Yunonlarning dalolat berishicha, Germa daryosi vodiysi "jannatmakon" yurt edi. U dehqonchilik va bog'dorchilik uchun qulay va sun'iy sug'orishga xojat bo'lmagan. Bu yerda oltin konlari ham bor edi. Lidiyada hunarmandchilik Yuqori rivojlanganligini oltin, tosh va fil suyaklaridan yasalgan buyumlardan bilib olsa bo'ladi.

¹ Ger'e even published on the philosophy of history: The Philosophy of History from Augustine to Hegel

[Filosofiya Istorii ot Augustina do Gegelia], Varnadsky, Russian cit., p. 202.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimi Xett davlati tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qadimgi Falastin davlati qachon paydo bo‘lgan?
3. Qadimgi Falastin madaniyatining o‘ziga hos jihatlari nimada?
4. Finikiya savdosining rivojlanishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
5. Qadimgi Finikiya davlati boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
6. Qadimgi Suriya davlatida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol qanday edi?
7. Suriya madaniyatida diniy tasavvurlarning o‘rni va roli qanday?

9-mavzu. O'rta Sharqda Qadimgi davlatlarining vujudga kelishi: Qadimgi Midiya va Qadimgi Elam davlatlari.

Reja:

1. Qadimgi Midiya davlati.
2. Qadimgi Midiya davlati madaniyati.
3. Qadimgi Elam davlati.
4. Qadimgi Elam davlatning gullab yashnashi va inqirozga uchrashi.

Tayanch iboralar: *Axriman, Axuramazda, Xvakshatra (Kiaksar), Fravartish (Fravart), maday qabilalari, "taqvodor hakam", Deyoko, Xagmatana, Vedevdat, nomadlar, Ekbatana, Suza I, Suza II, adda, singilning o'g'li, merosxo'r avlod, buyuk vakil., kassitlar, Gudea.*

Qadimgi G'arbiy Eron viloyatlarining ahvoliga oid ma'lumotlar Midiya bilan **miloddan avvalgi IX asrga** mansub mixxat yozuvi manbalaridan tanishish mumkin. Ularda Ossuriya shohlarining Sharqqa yurishlari haqida aytiladi. Ossuriyaliklarning Eronga asosiy yurishi **miloddan avvalgi IX asrda** boshlangan. Ular avvaliga yaqin viloyatlarga hujum qilganlar, Mazamuadan nariga o'tmaganlar (Mazamua lulubeylar mamlakati edi) Janubiy-Sharqdagi Urmiya ko'li yaqinidagi hudud **"shoh"**lar yoki **"rahbarlar"** tomonidan boshqarilgan (shunga o'xshash boshqarish usuli Zagros tog' viloyatlarida mavjud bo'lgan).

Miloddan avvalgi VIII asrda va VII asrning boshlariga kelib Elam davlati kuchaydi. Elam Ossuriya bilan urushda kuchli hokimiyat o'rnatolmadi. Ba'zi tarixchilar **miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda** Eron va Old Osiyoda kuchli quldorlik davlati vujudga kelgan deb aytadilar. Xorazm, So'g'diyona va Parfiya hududlari eng qadimiy davlatlar sirasiga kirgan.

Miloddan avvalgi 835-yilda ossur podshosi **Salmanasar III** madaylar mamlakatiga bostirib kelib, Ossuriyaning Arbeli shahridan Sharqda, ancha uzoqda joylashgan Midiya o'lkasiga kirib boradi¹. Ma'lumot ozligi tufayli Midiya davlatining tashkil topish jarayoni

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

qanday kechgani deyarli noma'lum. Tarqoq maday qabilalari yagona ittifoqqa birlashganlar. Bu ittifoq Midiyaning o'zinigina emas, balki Eronning boshqa o'lkalari, jumladan, Persidni ham ichiga olgan. Persid esa keyinchalik mamlakatda yetakchilik qilgan.

Gerodot asarlarida bu to'g'rida ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan. U Midiya podsholigining tashkil topish jarayoni midiyaliklar orasida **“taqvodor hakam”** Deyoko hokimiyatni egallab olishi haqidagi yarim tarixiy afsonada saqlanib qolgan deb yozadi. Unda **“Deyoko midiyaliklarni shahar barpo etishga majburladi va ularni bir xalq sifatida birlashtirdi”** deb xabar qilinadi.

Midiya shohi **Kiaksar** (Xvakshatra) zamonida mamlakat kuchli davlatga aylandi. **Kiaksar** ossuriylarning harbiy tajribasidan foydalanib Midiya qo'shinlarini qaytadan tuzgan va qo'shinlarni ishlatadigan qurol-yarog' turiga qarab, ixtisoslashgan qismlarga bo'lgan. Bu yangi qo'shinida nayzabozlar bilan kamonchilarning maxsus qismlari hamda otliq bo'linmalar tashkil etildi.

Kiaksar Midiyaning harbiy qudratiga hamda Bobil podsholigi bilan ittifoqi va uning qo'shinlari yordamida Ossuriya davlatini (bir vaqtlar shuhrat qozongan qudratli davlat) butkul tor-mor qildi. Shu tariqa Ossuriya xarobalarida yangi va kuchli Midiya saltanati qad ko'tardi. **Kiaksar** unga Eronning tog'li o'lkalarini, Kappadokiya bilan Armanistonni ham qo'shib oldi. Midiya hukmdori Ossuriya podsholigining shimoliy qismini zabt etish bilan cheklanmay, O'rta yer dengiziga yo'l ochish maqsadida g'arbga harakat qiladi. Gerodot Midiya bilan Lidiya o'rtasidagi kurashni tasvirlab, bu kurash besh yil davom etib, ikki yirik davlat o'rtasida yarash bitimi tuzish bilan yakunlanganini aytadi. Shunday qilib, bu jang **miloddan avvalgi 585-yilda** ro'y bergan deb aniq aytmoq kerak.

Midiya shohi harbiy yutuqlari va zabt etilgan yerlarini diplomatik bitimlar vositasi bilan mustahkamlab oladi. Bu bitimlar o'z navbatida podshohlar o'rtasida quda-andachilik munosabatlari bilan mustahkamlanadi. **Kiaksar II** o'z qizini¹ Bobil shohi **Navuxodonosor II** ga berib, o'g'li Astiagni esa Lidiya shohining qiziga uylantiradi. **Kiaksar miloddan avvalgi 584-yili** vafot etadi. Midiyaning so'nggi shohi Astiag o'z saltanatini eronliklardan himoya qilishga majbur

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

bo'lad. Astiag uzoq muddat shohlik qilganidan so'ng (**miloddan avvalgi 580 - 550 yillar**) Eron davlatiga asos solgan Kayxisrav (Kiryovush) bilan kurashda yengiladi.

Zardusht dinining muqaddas kitobi "**Avesto**" qadimgi Sharqiy Eron tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lgan. **Zardusht** dinining oliy ma'budi Axuramazda yomonlik timsoli - **Anxro Manyu** (Axrimon) bilan kurash olib boradi. Hozirgi vaqtda zardusht diniga mansub bo'lgan forslar jamoasi (Eron va Hindistonda) saqlanib qolgan. Arab istilosiga qadar (Sosoniylar davrida) zardushtiylik Eronning davlat dini hisoblangan.

"**Avesto**" qadimgi Sharqiy eron tilida yozilgan. "**Avesto**" grammatik jihatdan qadimgi fors tilidan deyarli farq qilmaydi.

Ko'p tadqiqotchilar fikriga ko'ra "**Avesto**" O'rta Osiyo, xususan Xorazmda miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelgan. Muqaddas kitobda keltirilgan jo'g'rofiy ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, xudo yaratgan o'lkalar sanab o'tilar ekan, boyligi va ko'rkamligi jihatidan qadimgi Xorazm, Gava (So'g'd), Marg'iyona (Marv), Baktriya (Balx) birinchi bo'lib tilga olinadi.

Midiya Eron yassitekisligida tashkil topgan qadimgi davlatlar madaniyati ichidan ozmi - ko'pmi aniq ma'lumotga egamiz, faqat Midiya saltanati haqida. Midiya shohligi hozirgi Eronning shimoli-g'arbiy va hozirgi Ozarbayjon hududida joylashgan edi. Sharqshunos olim **V.I. Avdiyev** "**Qadimgi Sharq tarixi**" asarida Midiya Zagrosning tog'li o'lkalarida va undan Sharqda joylashgan hosildor yerlardagi hududni egallaydi deb yozadi. Ossur yozuvlarida **miloddan avvalgi IX asrda** maday qabilalari haqida ham aytilib, ular ossuriyaliklar bilan shiddatli janglar olib borganligi haqida so'zlanadi. Ossuriyaliklar bilan madaylar o'rtasida savdo-sotiq aloqalari asosida Midiyaga ossur - bobil madaniyati elementlari kirib kelganligi aniqlangan.

Midiya haqidagi dastlabki ma'lumotlar **miloddan avvalgi X - IX asrlarga** oid bo'lib, unga ko'ra mahalliy halq chorvachilik bilan ham ko'chma, ham o'troqlashgan tarzda shug'ullanganliklari ma'lum. Shu bilan birga, ular dehqonchilik ham qilganlar. Midiya shohligida bu davrda rivojlangan sinfiy davlat bo'lmay, balki bir nechta qabilalar

birlashmasidan (konfederatsiya) iborat edi. Gerodot asarlarida ular olti qabiladan tashkil topganligi eslatiladi. Muallif ulardan to'rttasini "nomadlar" deb ataydi.

Miloddan avvalgi VII asrda Midiyada tom ma'noda davlat emas, balki qabilalar ittifoqi mavjud bo'lgan, xolos. Bu ittifoqda oliy hukmdor bilan birga unga tobe boshqa hukmdorlar (aslida qabila boshliqlari) ham bo'lganligi tilga olingan.

Miloddan avvalgi IX - VIII asrlardayoq midiyaliklar jamoasida urug'chilik tuzumining yemirilish jarayoni boshlangan va sinfiy ajralish yuzaga kelgan. Bir tomondan, urug' ichidan zodagonlar ajralib chiqib, boshqa tomondan esa dehqonchilik va o'troq chorvachilikning rivojlanishi bilan qulchilik paydo bo'lgan. **Miloddan avvalgi IX-VIII asrlardagi** ossuriyaliklarni midiyaliklar bosqinidan muntazam ravishda muhofaza qilish uchun qulchilik muhim o'rin tutadigan bo'lib bordi. Bu hol midiyaliklarning qabila ittifoqiga birlashib, Midiyada quldorlik davlatining tashkil topishini tezlashtiradi.

Miloddan avvalgi VII asrda Midiya shohligi ancha kuchli Sharq saltanatiga aylanadi. Uning markazi Ekbatana (hozirgi Hamadon) shahri edi. Midiya poytaxtiga oid nisbatan to'liq ma'lumot saqlanib qolgan va ularni boshqa manbalar bilan qiyoslab uning haqiqatga to'g'ri ekanligi aniqlangan. Bu davrda Midiya qabila ittifoqini o'zida jamlab, unda qadimgi harbiy demokratiya an'alariga ko'ra shoh jamoa majlisida saylangan.

Kiaksar Ossuriylar bilan hal qiluvchi jangi arafasida harbiy islohotni amalga oshirgan: mamlakat va xalqlardan yoppasiga olinadigan qo'shin muntazam otliqlar, kamonchilar va qalqonchilardan tashkil topgan edi.

Qadimgi Elam Qadimgi Elam davlatining tarixi Ikkidaryo quldorlik jamiyatining tarixi bilan chambarchas bog'liq. Bu mamlakat (shumerlarda "*Nim*", aqqodlarda - "*Elamtu*" nomini olgan) Shumerdan Sharqda joylashgan. Elam tog'li yerda joylashib, faqat mol boqishga yaraydigan tog'lar bilan birga, Elamning ikki katta daryosi¹ - g'arbda Xoasl (hozirgi Kerxe) va Sharqda Evleya (hozirgi Karun) bo'yida serhosil vodiylar ham

¹ Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005. Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e book, Chicago 2008.

bo'lgan. Xoaslning Sharqiy sohilida (bu yerda uning oqimi Evleya yaqinidan o'tadi) Suza manzilgohi bo'lib, u yerda e'tiqod qilingan bosh xudo Shumerda ham qadrlangan.

Xo'jalik hayot va ijtimoiy munosabatlar. Hozirga qadar Elam tilining qaysi tillar guruhiga oid ekanligi aniqlanmagan. Qadimiy Suza shahridagi uzoq yillik qazish ishlari bu yerda qator madaniy qatlamlar mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Suza I nomini olgan qatlam eng muhim. Bu qatlamning pastki chegarasi (xronologiyasi) hali aniq topilmagan. Uning ustki chegarasi, ya'ni keyingi **Suza II** qatlamining boshlanishi **miloddan avvalgi III ming yillik oxiriga** oid. **Suza I** qatlamida manzilgoh izlari bilan birga qabriston ham saqlanib qolgan bo'lib, bu hol manzilgohning qadim ahlining marhumga bag'ishlangan marosimlaridan dalolat beradi. **Suza I** qatlamida topilgan buyumlar eneolit davriga oid deb hisoblash kerak. Pishiq-puxta yasalgan va silliqlangan tosh qurollar bilan bir qatorda bu yerda misdan yasalgan buyumlar kamdan-kam uchraydi. **Suza I** madaniy qatlamidan farqli ravishda, undan keyingi **Suza II** qatlami madaniyati, nafaqat Suzada, balki janubiy-Sharqiy Eronning boshqa nuqtalarida ham tarqalgan bo'lib, Elamning g'arbidagi mamlakatlar, birinchi navbatda Shumer madaniyati bilan tutashgan.

Davlatning gullab Elam davlati **miloddan avvalgi II ming yashnashi va yillikda** katta mavqyega ega bo'lgan. Urning inqirozi III sulolasi paytida ham Elam boshqa davlatlar kabi Shumer-Aqqod davlati tarkibiga butunlay kirmay, balki Elamning turli shahar va viloyatlarini mahalliy hukmdorlar boshqarib turganlar. Urning III sulolasi inqirozga yuz tutganidan so'ng, Elam davlati yana mustaqillikka erishdi. Shu vaqtda unda Bobildagi kabi quldorlik kuchaygan. Buni shu vaqtgacha yetib kelgan ko'pdan - ko'p huquqqa oid hujjatlar ham tasdiqlaydi. Ayrim viloyatlarda shoh yoki **"ota"** lar (adda) hukmronlik qilganlar. Ammo taxt otadan o'g'ilga emas, balki tog'adan jiyanga, ya'ni singlisining o'g'liga o'tgan. Shu bilan **"singilni o'g'li"** iborasi **"merosxo'r avlod"** ma'nosini ifoda etgan.

Elam viloyatlariga **"buyuk vakil"** (shumer tilida sukkal-shax) unvonini olgan buyuk hukmdor hukmronlik qilib, viloyat hukmdorlari esa ko'pincha **"buyuk vakil"** ning yaqin qarindoshlari bo'lganlar.

Miloddan avvalgi XII asr boshida elamlilarning yangi bosqinchilik davri boshlandi. Ular Dajla daryosi vohasi viloyatlarini va Eshnunna shahrini bosib olishadi. Shu o'lkadan Eron orqali muhim karvon yo'llari o'tar edi. Elamliliklar hatto Babil shimolida joylashgan Sippar, Babil va Ichinur shaharlarini bosib olishga erishgan.

Lagash hukmdorlarining **miloddan avvalgi XXV asrdagi** yozuvlari paydo bo'lgan vaqtdan boshlab bu urushlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Elam o'z g'arbiy qo'shnisi - Ikki daryo vohasi bilan yaqin aloqada edi. **Miloddan avvalgi XXIV-XXIII asrlarda** Suza Aqqod davlati tarkibiga kiritilib, natijada Ikki daryo madaniyatining Elamga ta'siri ancha kuchaydi. Urning III sulolasi davrida Elam yana Ikki daryo hukmronligida qolib, sulolaning eng zabardast vakili Shulgi Suzada *“Suza xudosi va hukmdori¹”*, ya'ni Inshushinak Sharafiga maqbara quradi.

Ur davlati kuchsizlangan vaqtda Elam hukmdorlari o'z mustamlakachilarini tor-mor qilishga muyassar bo'ldilar. Bu voqyealar shoh Kuternaxxunt davrida ro'y beradi. **Miloddan avvalgi 2024-yilda** Kuternaxxunt Urni bosib olib, vayronaga aylantirgan, Elam bundan sal avvalroq Frot oqimining o'rta qismidagi Mari manzilgohida joylashib oladi. Amoriylar tomonidan berilgan zarbalar natijasida Urning III sulolasi barpo etgan davlat quladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Midiya davlati tashkil topish tarixi.
2. Qadimgi Elam davlati boshqaruv tizimi qanday bo'lgan?
3. Qadimgi Midiya davlatini markazlashtirishda harbiy islohotlarning ahamiyati qanday bo'lgan?
4. Qadimgi Midiya davlati madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
5. Qadimgi Elam davlatning gullab yashnashi va inqirozga uchrashining asosiy sabablari nimalardan iborat?
6. Miloddan avvalgi II ming yillikda Elam davlatining ijtimoiy va siyosiy tuzumini tasvirlab bering.
7. Suza I va Suza II madaniyatining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

10-mavzu. Yaqin va O'rta Sharq qadimgi davlatlari madaniyati

Reja:

1. Qadimgi Xett madaniyati.
2. Qadimgi Falastin madaniyati.
3. Qadimgi Finikiya madaniyati.
4. Qadimgi Finikiya madaniyati.
5. Qadimgi Suriya madaniyati.
6. Qadimgi Midiya madaniyati.

Tayanch iboralar: *Bo'g'oz qoya, Yazili qoya, mixxat, xurritlar, teshub, Telepin, Xett mamlakatining 1000 xudosi, Xanaan, Bet - shanda, Mekal, Tangri El tog'i, Tavrot, Xerovoam, psevdoyeroglifik, tangrilar shohi, Xalpat alifbesi, "Vaal va Aliyyan" dostoni, nomadlar, Ekbatana.*

Xett madaniyati Qadimgi Xett madaniyati o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, arxeologik qazilma ishlari ayniqsa, Yazili qoyadagi bo'rtma rasmlar orqali boy ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Bu rasmlarda xett ahlining o'nlab xudolari tasvirlangan bo'lib, bu rasmlar xurritlar va bobilliklar san'ati ta'sirida ijod qilgani ko'rinish turibdi.

Bo'g'oz qoya yaqinida arxeologlar tomonidan Xett davlati poytaxti - Xattusa shahri qoldiqlari topilgan bo'lib, bu shahar antiqa me'morchilik namunalari bilan ajralib turgan. Shahar bahaybat toshlardan terilgan devor bilan o'ralib, ular baland minoralar bilan birga mustahkam qal'a tashkil etgan. Shahardagi qasrlarning devorlari tosh plitalar bilan bezatilgan bo'lib, shahar darvozasi oldida dushmanga vahima solish uchun ikki ulkan sher haykali o'rnatilgan.

"Bo'g'oz qoya" arxivlarida **Gisgimmas** haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan¹. Bu rivoyatlar matnini o'rganish natijasida **Gisgimmas** afsonalari Shumer va Aqqodda mavjud **Gilgamesh** haqidagi afsonaning aynan o'zi ekanligi aniqlanadi. Garchi qahramonning ismi xett tiliga moslashtirilsada, **Gilgamesh** va **Gisgimmas** yagona obraz bo'lib qolavergan.

¹ Enteen, Gorn, Kern, Soviet cit., p. 54, note 10. These decrees were phrased relatively early, at the turn of 1920s to 1930s, but were published for the first time in 1936.

Xett davlati tarixi va madaniyatini o'rganilishi Kichik Osiyoda yashagan xetlar Old Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida vositachi vazifasini bajarganlini ko'rsatadi.

Qadimgi Falastin Misrliklar Xanaan deb atagan bu mamlakat madaniyati hududida Gaza, Megiddo, Kadesh va Iyerusalim kabi shahar-davlatlar gullab yashnagan. Ular Finikiya, Suriya, Misr, Mesopotamiya kabi mamlakatlar bilan keng savdo aloqalarini o'rnatgan.

Falastinda qadimdan me'morchilik, to'qimachilik, zargarlik, temirchilik, kulolchilik va kemasozlik rivojlangan. **Miloddan avvalgi XIX - XVIII asrlarda** Falastin shaharlari gullab yashnagan. Falastinning boyliklari qo'shni davlatlarni o'ziga tortgan. Asrlar davomida misrliklar, Babil, Aqqod, Ossuriya, Xett, Eron, Yunon, Rim qo'shinlari Falastinga ko'plab yurishlar qilib, mamlakatni vayron qilib, talofatlar keltirganlar.

Masalan, Bet-Shan xarobalarida Misrning XVIII - XIX sulola fir'avnlari zamonida, jumladan **Seti I** va **Ramzes II** davrida, qurilgan ibodatxonalar qoldiqlari aniqlanib, Suriya - Finikiyaning **Vaal - Dagon** va **Vaalat-Ashtoret** zamoniga oid ibodatxonadan misrliklar uslubida ishlanib, Misr yozuvlari bitilgan qabr toshi topilgan. Unda Suriya - Finikiya xudosi **Mekal** nomi bilan ataladi. Shu bilan bir vaqtda **Bet - Shanda** muqaddas ilonga ham sig'inganlar. Qazish ishlari vaqtida topilgan ko'plab buyumlar, jumladan, qadimgi Babil yozuvlarida "**Shan**" nomi bilan uchraydigan muqaddas ilon uyalari ham shundan dalolat beradi. Bu diniy e'tiqod shakllari eng qadimgi yahudiy qabilalarining diniy qarashlariga mos keladi. Qadimgi yahudiylar ham o'sha davrning o'zga xalqlari kabi turli tabiat kuchlari hamda hayvonlarga topingani to'g'risida ma'lumotlar bor. Misr yozuvlarida Falastinning "**Tangri El tog'i**" deb atalgan joyi xatga olingan. Isroilning ilk shohi Xerovoam tepalik ustida ibodatxona qurgan. Falastinning turli joylaridan muqaddas hisoblangan toshlar topilgan. Tavrotda "**dalolat uchun**" tosh uyumini qilish odati ta'rif etiladi¹. Tavrot kitoblarida ta'rifi keltirilgan oltin buzoq va mis ilon o'sha davrda hayvonlar ilohiylashtirilib, ularga sig'inganlikni ko'rsatadi. Din adabiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. "**Tavrot**"

¹ Monmonier M., *Rhumb Lines and Map Wars. A Social History of the Mercator Projection*, Chicago 2004.

kitoblarida qadimgi adabiyotning turli asarlari: diniy asotirlar, tarixiy afsonalar, qahramonlar haqida xalq dostonlari saqlangan. Tavrot asarlarida Xanaan hamda Bobil va Misr adabiyotining ta'siri sezilib turadi. **“Tavrot”** o‘z navbatida qadimgi xristian adabiyotiga ta'sir ko‘rsatgan. Payg‘ambarlarning va'zlari va badiiy jihatdan g‘oyat yuksak lirik she'rlar (diniy qasidalar) jahon adabiyotining eng go‘zal asarlari qatoridan joy olgan.

Qadimgi Falastinda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo -sotiq rivojlangan. Xo‘jalikni boshqarish uchun xatni biladigan savodli mirzolar, amaldorlar, harbiylar, me'morlar, hunarmandlar talab etilgan. Ularni qadimgi maktablarda tarbiyalashgan. O‘sha davrda qadimgi oromiy yozuvidan foydalanilgan. Falastinda yozuv va amaliy bilimlarning vujudga kelishi xo‘jalik rivojiga katta ta'sir ko‘rsatgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikning 1-yarmida Finikiya madaniyati. Finikiya madaniyati **miloddan avvalgi IV-I ming yilliklarda** Finikiya va uning mustamlakalari xududida vujudga kelgan. Uning rivojiga misrliklar, shuningdek Ossuriya, Bobil, Xett, Egey va yunon madaniyatlari katta ta'sir ko‘rsatdi. Finikiyaliklarning eng katta yutuqlaridan biri - **miloddan avvalgi II ming yillikda** bu yerda undosh harflarning kashf etilishidir. Bu kashfiyot keyinchalik barcha harf - tovush tizimidagi xatlarda ishlatiladigan bo‘ldi. Tarixchilarning fikriga ko‘ra, Finikiya yozuvi bibl **“psevdoiyeroglifik”** yozuv, ya'ni so‘zlardan tarkib topgan xat yoki Sinay yozuvi va uning ilk Falastin variantlaridan kelib chiqqan.

Finikiya adabiyotining eng qadimgi namunalari Ugarit mifologik matnlari va Finikiya shohlarining yozishmalari (Bibllik Axiram va Iyeximilk, Sidonlik Eshmunazar va boshqalar) dan iborat. Finikiya adabiy va tarixiy asarlari bizgacha yetib kelmagan, lekin so‘nggi (hozirgacha uning haqiqatdan ham mavjudligi aniq emas) yozuvlardan biri - Sanxotiaton maktublari zamonamizgacha yetib kelgan.

Finikiyaning madaniy ta'siri bu davrda finikiya alifbosi O‘rta dengiz davlatlarida keng tarqalganligida namoyon bo‘ldi. Ushbu madaniyatga ulkan ta'sir ko‘rsatgan omillar din va mifologiya bo‘ldi. Lekin bu sohalar manbalar tanqisligi va finikiya xudolarining ismlarini aytish taqiqlanganligi sababli yaxshi o‘rganilmagan.

Ma'lumki, Finikiyada oliy xudo El deb atalgan. Buning ma'nosi - “*xudo*”, uning rafiqasi *Elat* yoki *Asherat* (dengiz ruhi). Qolgan xudolar - shohlar (*malk*) yoki sohiblar (*ball, vall*), shu bilan birga, osmon xudosi - *Baalshamem*, quyosh xudosi (*issiqlik egasi*) - Baalxammon, shuningdek alohida joy, daryolar xudolari bo‘lgan.

Finikiya shaharlarining tanlangan xudolari bo‘lgan, masalan Tirda - Melkart (shahar hokimi), Sidonda - *Eshmun* (tabib - davolash xudosi), Beritda - *Buyuk Berit* egasi, Biblda - (Finikiya umumiy xudolaridan biri) sevgi va hosildorlik xudosi *Ashtarta* (Astarta). Finikiyada ayniqsa hosildorlik xudosi keng e'tiqod qilingan¹.

Ras Shamradan topilgan mifologik dostonlarda yerpani sug‘orish, tok novdalarini ekish vaqtida qilinadigan qadimgi diniy urf - odatlar ta'riflangan. Xudo Mot yoz oxirida ma'buda Anat o‘rog‘i bilan qirqiluvchi “*yetilgan boshoq*” shaklida tasvirlanadi. Qadimgi finikiyaliklarning diniy qarashlarida o‘lib - qayta tiriluvchi tabiat xudosi Ball va uning o‘g‘li Aliyyan obrazi alohida o‘rin tutgan. Aliyyan to‘g‘risidagi afsonada bu xudoga e'tiqod qilish, yil fasllari almashuvining “sirli ma'no”si ham diniy, ham shoirona tarzda izohlab berilgan. Bu diniy tasavvurlar Ras - Shamradagi qazish ishlari davrida topilgan mifologik dostonlarda o‘z ifodasini topgan.

Ball va Aliyyan haqidagi dostonda aytilishicha, xudo Ball uchun hashamatli ibodatxona qurilgan. Bu ibodatxonada Ball o‘lim xudosi *Mot* (Motom) ustidan g‘alaba qozonganini ma'lum qiladi. Biroq Ballga o‘lim hamla qiladi va u o‘g‘li bilan birga narigi dunyoga ketadi. Bundan keyin marhum xudolar sharafiga ado etiladigan motam marosimlari, hosil ma'budasi (ayrim manbalarda urush xudosi) Anatning o‘lim xudosi *Mot* bilan kurashi, o‘lgan xudolarni izlash, nihoyat Ballning Mot ustidan g‘alaba qozonishi va tirilishi haqida hikoya qilinadi. Bu qadimgi afsona hamda tabiat xudosi e'tiqod qilish keyinchalik xudo Adonisga sig‘inishga asos bo‘lib, so‘ng bu e'tiqod Suriya va Finikiyada keng tarqaladi.

Qadimgi Finikiya Finikiyalik rassomlar Misr, Xet - xurrit va Bobil madaniyati san'ati mavzularida asarlar yaratganlar. Shu bilan birga ular o‘ziga xos yo‘nalishlarga ham ega bo‘lgan. Ayniqsa

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002

o'sha davrda Finikiya hunarmandlari yasagan buyumlar Yuqori baholangan.

Ugaritning mashhur ikki epik asari - Keret va Danela haqidagi dostonlar - faqat diniy asar bo'lmay, balki dunyoviy ahamiyatga ega bo'lganligi ehtimoldan holi emas. Keyingi davrlarda paydo bo'lib, ko'pincha qisqa matndan iborat bo'lgan qabrtosh yozuvlarini esa Shartli ravishda yozma asar sifatida qabul qilish mumkin.

Finikiyaliklarning eng katta yutuqlaridan biri alifboning ixtiro qilinishi bo'ldi. Finikiya hattotlari misrliklar kashfiyotini mantiqiy jihatdan nihoyasiga yetkazishdi. Ma'lumki, Misrda 24 ta undosh belgidan iborat alifbo yaratilgan. Lekin to'liq tushunchani ifodalovchi yuzlab bo'g'in - belgi va belgilar saqlab qolingani edi.

Din. Finikiyaning siyosiy tarqoqligi uning, Bobildagi kabi, afsonalar tizimini bilmasligiga olib keldi. Shahar kohinlari Misrda Fiva hukmronligi davrida Fiva xudosi Amonni "xudolar shohi" deb e'lon qilgani kabi, o'z xudosini "*xudolar shohi*" darajasiga ko'tara olmas edilar. Osmon xudosi Finikiya shaharlarida bosh tangri hisoblanib, u o'z ismi bilan emas, balki turli nomlar bilan atalgan. U oddiygina "*ega*" (Vaal), "*shahar shohi*" (Melkart), "*hokimiyat*" (Molox) yoki "*xudo*"(El) deb atalgan.

Qadimgi Suriya Suriyaning jo'g'rofiy jihatdan parchalanishi, madaniyati uning ayrim qismlari bir - biridan ajralganligi, butun mamlakatni tarixiy va madaniy jihatdan birlashtiradigan yirik daryolarning yo'qligi sababli qudratli davlatni barpo etadigan qulay Sharoit bo'lmagan.

Qadimgi Suriya har tomondan qudratli davlatlar bilan o'ralgan. Undan janubi - g'arbda Misr, Sharqda Bobil va Ossuriya, shimoli - Sharqda Mitanni, shimolda Xett davlati joydashgan edi. Mazkur davlatlar Suriyaga madaniy jihatdan kamroq ta'sir ko'rsatgan.

Shimoliy Suriya Sharqiy O'rta yer dengizi xududida ilk sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lgan. So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijalari (**XX asrning 80-yillari boshida**) shundan dalolat berib turibdi. Suriyaning shimoli - g'arbiy qismida **miloddan avvalgi III ming yillikda** mahalliy sivilizatsiya paydo bo'lganligi va unga Shumer sivilizatsiyasi madaniy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Ushbu sivilizatsiya ulkan qazish ishlari natijasida (Tell-Mardix shahar

harobalarida) qadimgi Xalpa shahridan topildi¹ (hozirgi Xaleb shahridan 50 km narida). Arxeloglar Tell - Mardixning quyi, eng qadimgi qatlamlarini ochishga muvaffaq bo'lganlar. Ushbu qatlamlardan Tell - Mardix tarixining ikki bosqichi aniqlandi: Xalpaning Yaxmad davlatiga qaramligi davri (**miloddan avvalgi 1900-1600 yillar**) va Xalpa tarixining mustaqillik davri (**milollan avvalgi XXVI-XXIII asrlar**). Ushbu madaniyatning eng katta yutug'i bo'lmish Xalpa matnlari aynan shumer yozuvida yaratilgan. Xalpa alifbesining vujudga kelishiga ham shumer yozuvi katta ta'sir ko'rsatgan. Matnning 90 % shumer alifbosi belgilarida bitilgan. Xalpa-shumer alifbosi belgilari tashqi ko'rinishidan Janubiy Shumerning an'anaviy yozuvlariga o'xshab ketadi (Lagash, Ur, Uruk yodgorliklaridan). Ammo olimlarning fikricha², bu tizim shimoliy (ya'ni Kish) xududlarida vujudga kelgan (**miloddan avvalgi 2500 yil**). Tell-Mardixda ham shumer - xalpa qomuslari topilgan. Shunday qilib, bu yerdan topilgan xat namunalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, oddiy Ossuriya - Babil yozuvidan ancha farq qiladi.

Midiya madaniyati Eron yassi tekisligida tashkil topgan qadimgi davlatlardan faqat Midiya saltanati haqida ozmi - ko'pmi aniq ma'lumotga egamiz. Midiya podsholigi hozirgi Eronning shimoli - g'arbiy va Ozarbayjon hududida joylashgan edi. Sharqshunos olim **V.I. Avdiyev** "*Qadimgi Sharq tarixi*" darsligida "Midiya Zagrosning tog'li o'lkalarini va undan Sharqda joylashgan hosildor yerlarni o'z ichiga olgan" deb yozadi. Ossur yozuvlarida **miloddan avvalgi IX asrda** maday qabilalari haqida ham aytilib, ular ossuriyaliklar bilan shiddatli janglar olib borganligi haqida so'z yuritiladi. Ossuriyaliklar bilan madaylar o'rtasida savdo-sotiq aloqalari asosida Midiyaga ossur - babil madaniyati elementlari kirib kelganligi aniqlangan.

Midiya haqidagi dastlabki ma'lumotlar **miloddan avvalgi X-IX asrlarga** oid bo'lib, ularga ko'ra mahalliy axoli ko'chmanchi va o'troqlashgan tarzda chorvachilik bilan shug'ullangan. Shu bilan

¹ Enteen, Gorn, Kern, Soviet cit., p. 54, note 10. These decrees were phrased relatively early, at the turn of

1920s to 1930s, but were published for the first time in 1936.

² Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г

birga, ular dehqonchilik ham qilganlar. Midiya shohligi bu davrda rivojlangan sinfiy davlat emas, balkim bir nechta qabilalar birlashmasidan (konfederatsiya) iborat edi. Gerodot asarlarida ular olti qabiladan tashkil topganligi eslatiladi. Muallif ulardan to'rttasini "nomadlar" deb ataydi¹.

Miloddan avvalgi IX-VIII asrlardayoq midiyaliklar jamoasida urug'chilik tuzumining yemirilish jarayoni boshlangan va ijtimoiy tabaqalanish yuzaga kelgan. Bir tomondan, urug'doshlar orasidan zodagonlar ajralib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa dehqonchilik va o'troq chorvachilikning rivojlanishi bilan bir qatorda qulolchilik ham paydo bo'lgan. **Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda** ossuriyaliklarni midiyaliklar bosqinidan muntazam ravishda muhofaza qilish uchun qulchilik muhim o'rin tutgan. Bu hol midiyaliklarni qabila ittifoqiga birlashishini va Midiya quldorlik davlatini tashkil topishini tezlashtirdi. Bunga mulkiy tengsizlik hamda qullar sonining oshib borishi ham sabab bo'lgan. Lekin shunga qaramay, bu davlat endigina shakllanayotgan edi. Ossur yozuvlari va boshqa manbalarda qayd etilishicha, Midiya davlatini shohlar boshqargan.

Miloddan avvalgi VII asrda Midiya shohligi Sharqda eng kuchli saltanatga aylanadi. Uning markazi Ekbatana (hozirgi Hamadon) shahri bo'lgan. Midiya poytaxtiga oid nisbatan to'liq ma'lumotlar saqlanib qolgan va ularni boshqa manbalar bilan qiyoslab o'rganganda, ularning haqiqatga yaqin ekanligi aniqlangan. Bu davrda Midiya qabila ittifoqini o'zida jamlagan va unda, qadimgi harbiy demokratiya an'alariga ko'ra, shoh jamoa majlisida saylangan.

¹ Boynazarov F. Qadimgi Dunyo tarixi. Darslik. 2004.

11-mavzu. Qadimgi Hindindistonda sivilizatsiyaning paydo bo'lishi. Xarappa madaniyati.

Reja:

1. Sivilizatsiyaning paydo bo'lishi.
2. Savdo va tashqi aloqalar.
3. Shimoliy Hindistondagi qadimiy sulola va davlatlar.
4. Mauriylar imperiyasining tashkil topishi.
5. Ashoka imperiyasi.
6. Yunon-baqtriylarning Hindistonga bosqini.
7. Kushon imperiyasi.
8. Qadimgi Hindistonda iqtisodiy taraqqiyot.
9. Guptalar imperiyasi.

Tayanch iboralar: *Xarappa, Moxenjo-Daro, «O'liklar tepaligi», Sutkagendoro, Saurashtra, Dekan, Oriylar, «dasyu», Varna, «Purushasakta», roja, braxman, kshatriy, vayshiylar, «ikki marta tug'ilganlar», «Bxaratvarsha», Dakshinapatxa, «Oriy», «das», «chakra», «Rigveda», «Atxarvaveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Rigveda», Veda, «Mahabxarata», «Ramayana», «buyuk davlat», Panchali, Shurasena, Avanti, Gandxara, «Atxarvaveda», «Braxman», «Araniyaka», Magadxa, Ajatashatru, «Kironediye», Takshashila, Charasadda, Po'ru, Plutarx.*

Sivilizatsiyaning Xarappa madaniyati. Xarappa madaniyatiga qadar paydo bo'lishi ayrim olimlar Hindistonda madaniyat boshqa Sharq mamlakatlaridan keyin vujudga kelgan, boshqalari esa Hindistonga madaniyatni oriy qabilalari olib kelgan degan fikrda edilar. Yana bir xil mutaxassislar qadimgi hind madaniyati Sharqning boshqa madaniyatlaridan orqada qolib, ulardan ajralib qolgan degan mulohazani ilgari suradilar.

XX asrning 20-yillarida Xarappa madaniyatining kashf etilishi va uni tadqiq etish qadimgi hind sivilizatsiyasining boy, yuksak darajada taraqqiy etganini isbotlaydi. Xarappa madaniyatini Hind vodiysi yoki protohind sivilizatsiyasi deb ham ataydilar. Ushbu madaniyat yodgorliklarini qazib olish ishlari hamon davom etmoqda.

Protohind sivilizatsiyasi muammolariga bag'ishlangan asarlar soni **1971-yilda** 1500 dan oshib ketdi. Uni o'rganishning avvalgi bosqichi Xarappa va Moxenjo-Daro yodgorliklarining ochilishi bilan bog'liq. **1856-yili** ingliz arxeologi **Montgomeri Kaningax** (hozirgi Pokiston, Sahival shahri) shahridan 27 km janubi-Sharqda joylashgan Xarappa yaqinidagi tepaliklardan noma'lum yozuvli muhr va bir necha kremniy plastinka likopchalar topdi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, **1921-yili** hind arxeologi **R.B.Saxni** Xarappa tepaliklarida dastlabki qazish ishlarini boshladi. Ana shu yil fanda Xarappa sivilizatsiyasining ochilish yili deb e'tirof etildi. **1923-1925** va **1926-1934-yillarda** bu ishlarni olim **M.S. Vats** davom ettirdi. Xarappa madaniyati kashf etilishi bilan bir vaqtda, ya'ni **1922-yili** boshqa hind olimi **R.D.Banerji** Shimoliy Sindning Larkan shahri yaqinidagi Moxenjo-Daroda dastlabki metall davri madaniyatining qoldiqlarini topdi¹. Moxenjo-Daro sindxi tilida «O'liklar tepaligi» ma'nosini beradi. **R.D.Banerji 1922-yildan 1927-yilgacha**, keyingi davrda esa **M.S. Vats** va **K.N.Dikshit** bu yerda tadqiqotlar olib bordilar. Ushbu materiallarni chop ettirgan mashhur arxeolog **Djon Marshall** qazish ishlariga rahbarlik qildi. Undan tashqari, tadqiqotlarda hind olimi **N.Majumdor** ham ishtirok etdi.

Hindiston va Pokiston mustaqillikka erishganidan keyin Xarappa madaniyatini o'rganishda yangi bosqich boshlandi. Pokistonlik arxeologlar boshqa yodgorliklarni ham o'rgandilar. Shulardan **1955-1957-yillarda** tadqiqotchi olim **F.A.Xon** Moxenjo-Darodan (Hind daryosi vohasi) 41 km naridagi Kot-Dijida qazishma ishlarini olib bordi. Birinchi bor Xarappa qatlamlarida Kot-Diji shahrining aylana devorlari va qo'rg'on qoldiqlari topildi. Xuddi shunday holatda Amrida **1959-1961-yillarda** fransuz arxeologlari qazilmalar olib bordilar. Bu yillarda Xarappa madaniyatiga oid yodgorliklar topildi. **XX asr 70-yillarning o'rtalarida** amerikalik **V.A.Ferservis** ekspeditsiyasi Karachidan 40 km uzoqlikdagi Allohdinoda qazilmalar

¹ Z. Romek, Cenzura a nauki historyczne w Polsce 1944-1970 [Censorship and Historical Science in Poland 1944-1970], Warsaw 2010. The author devoted his whole work to the analysis of implementation of Soviet model of history writing in Poland, with special emphasis put on the role of censorship.

amalga oshirdi¹. Ilk marotaba 2800 kv.m. maydonda turar joylar aniqlanib, ochildi.

Hozirgi vaqtga kelib yuzlab manzilgohlar xaritaga kiritilishi mumkin. Qazish ishlari keng maydonda olib borildi. Kalibangan, Latxal, Rangpur, Xarappa madaniyatini ochish va o'rganish favqulotda muhim ilmiy ahamiyatga ega. 4000 yil avval bu yerda butun dunyo sivilizatsiyasi Mesopotamiya va qadimgi Misr kabi taraqqiy etgan madaniyat o'choqlaridan qolishmaydigan va ba'zi jihatlari ulardan ustun bo'lgan madaniyat mavjud edi. Shunday qilib, Hindiston Eron, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Mesopotamiya, Misr kabi sivilizatsiyasi rivojlangan o'lkalardan biri bo'lgan. Hind vodiysidagi qazilmalar mamlakatda hind - oriy qabilalarining kelishiga qadar yuzaga kelgan hind madaniyatining o'ziga xos va qadimiyligini ko'rsatadi. Bu bilan sivilizatsiyani oriylar kelishi bilan bog'lagan mualliflarning nazariyasi shubha ostiga olinadi. Xarappa madaniyati u davrga qadar mavjud bo'lganligini isbotlaydigan qator dalillar bor.

Qadimshunoslar mazkur madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berdilar. Jumladan, Xarappadan topilgan muhr, yozuv, bezakli sopol idish va boshqa buyumlar so'zimizning yorqin dalilidir. Avvalgi qishloq madaniyatidan farqli o'laroq, Xarappa shahar madaniyatiga mansub bo'lgan. Bu madaniyatning Hind daryosi vodiysida vujudga kelishi ham tabiiy holdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, Xarappa madaniyati faqat bu shahar bilan chegaralanmay, ancha keng hududga yoyilgan edi. Masalan, u Gang va Yamuna (Jamna) daryolariga qadar yerlarni egalagan. Qishloq xo'jaligi, kosibchilik, savdoni rivojlantirish maqsadida Xarappa aholisi yangi-yangi hududlarni o'zlashtira borgan.

Keyingi yillardagi arxeologik kashfiyotlar Xarappa madaniyatiga berilgan noto'g'ri va bir tomonlama bahoni rad etib, bu sivilizatsiya to'satdan paydo bo'lib, chuqur ildizlariga ega emas degan fikrni puchga chiqardi.

J.Marshall Xarappa madaniyati **miloddan avvalgi 3250-2750** yillarga to'g'ri keladi deb fikr bildiradi. Mesopotamiya muhrlarining ko'pi Sargon hukmronligi - **miloddan avvalgi 2316-2261 yillar**

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

hamda Isni **miloddan avvalgi 2017-1794** va Larsa-**miloddan avvalgi 2025-1763 yillar** bilan bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu aloqalar Hindiston va Mesopotamiya o'rtasida **miloddan avvalgi XXIV-XVIII asrlarda** yuzaga kelgan degan xulosaga olib keladi. Olimlar zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tadqiqot olib boranda, qishloq va shaharlarning yoshini aniqlik bilan o'lchash imkoni tug'ildi. Masalan, karbon taxlili usuli bilan Kot-Dijidagi ilk Xarappa qishloqlarining yoshi aniqlandi. Bu **miloddan avvalgi taxminan 3155-2590** yoki **2700-2600** yillarga to'g'ri keladi. Taraqqiy etgan Xarappa madaniyatini Kalibanganda **miloddan avvalgi 2165-1955 va 2135-1925** va Lotxalda **miloddan avvalgi 2120-1600 va 2125-1895 yillarda** rivoj topgan deb belgilaydilar. Xarappa madaniyatining Hind vodiysidagi asosiy markazlari inqirozga yuz tutganidan so'ng ham boshqa shaharlar gullab yashnayvergan. Hind olimlarining Panjob va Xarappadagi qazish ishlari ham buni tasdiqlaydi. Xarappada topilgan muhrlar miloddan avvalgi uch minginchi yil oxiri ikki minginchi yil boshlariga to'g'ri keladi deb taxmin etiladi.

Xarappa madaniyati avvaliga faqat Hind vodiysida, keyin shimoldan janubga va g'arbdan Sharqqa tomon bo'lgan ulkan hududda tarqalgan. Xarappa madaniyati yodgorliklari g'arbda *Sutkagendorodan* (Makron) Sharqda *Alamgirnurgacha* (Uttar Pradesh), shimolda Sivalik tog'laridan tortib, janubda Narbada va Tapti daryosining quyilishigacha mavjud bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Ilk Hind sivilizatsiyasi hududi u bilan bir davrdagi Misr va Mesopotamiya sivilizatsiyalari maydonidan ikki marta katta bo'lgan. Ko'pchilik arxeologlarning fikricha, keyingi qazishlar Xarappa sivilizatsiyasi maydonini yanada kengaytirdi. Kathiyavar yarim orolidagi qazishlar shuni ko'rsatadiki, aholi sekin-asta yerlarni o'zlashtirib, janubga tomon siljib borgan. Arxeologlar Xarappa bilan birga Moxenjo-Daro shahri harobalarini ham topdilar. Bu shahar qadimda 265 kv km maydonni egallagan.

Bu sivilizatsiya taraqqiyoti darajasi haqida olimlar qazilma natijalari asosida hukm chiqaradi. Agar avval Xarappa davri qazilmalar asosida Maxenjo-Daro va Xarappa o'rganilgan bo'lsa, hozir bu ro'yxatni Kalibangan, Lotxal Surkata, Chanxu-Daro va Amri kabi shaharlar bilan davom ettirish mumkin. Ular qishloqlarga nisbatan yaxshi rivojlangan.

Hind sivilizatsiyasining yutuqlaridan biri shundaki, kanalizatsiya tizimini shahar boshqarmasi nazorat qilgan. Ingliz olimi **A.Beshemning** fikricha, qadimda biron sivilizatsiya, hatto Rim davlati ham bunday vodoprovod tizimiga ega bo'lmagan. Xarappa va Moxenjo-Daro qo'rg'oni yaqinida arxeologlar bir xonali ishnoatlarni topdilar. Olimlarning fikricha, bunday xonalarda uy xizmatkorlari yashagan. Mashhur hind olimi, matematik, astronom, tarixchi, arxeolog, antropolog D.Kosambi qadimgi Hindistonda shahar qurilishiga katta baho berib, shunday deb yozadi: ***“Tarixda boshqa bu qadar murakkab va takomillashgan shahar qurilishi tizimini uchratmaymiz. Hatto Misr shaharlari ham me'morchilik jihatidan bunchalar yetuk emas. Shumer, Aqqod va Bobilda ham g'isht binolar bo'lgan, lekin bunday qurilishlar u yerda nisbatan keyinroq boshlangan”***.

J.Neru shunday deb yozadi¹: ***“Paxta faqat Hindistonda yetishtirilib, 2-3 ming yil o'tganidan so'ng boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Qadimda hatto Misr, Mesopotamiya yoki G'arbiy Osiyoning boshqa mamlakatida ham Moxenjo-Darodagi kabi uy-joy yoki hammomlar qura olmaganlar. Bu mamlakatda pul ehromlar, maqbara va shohona saroylar qurishga sarflangan. Oddiy halq esa tuproq uylarda yashagan. Hind vodiysida aksincha, binolar xalqqa qulaylik yaratish maqsadida qurilgan”***.

Aholining kundalik hayoti Hind vodiysi Sharqdagi eng qadimgi dehqonchilik markazlaridan biri bo'lib, bu yerlik aholining aksariyat qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ular turli boshqoqli o'simliklar yetishtirganlar. Topilmalardan ma'lum bo'lishicha, bu yerda 2 xil bug'doy navi, arpa, no'xot, kunjut, paxta va qovun ekilgan. Xarappa, Moxenjo-Daro va Chanxu-Daroda asosan bug'doy va arpa yetishtirilgan. Vodiy aholisi ekinzorlarni charxpalak yordamida sug'organlar.

Savdo va tashqi aloqalar Xarappa shaharlari quruqlik va dengiz yo'li orqali olib borilgan savdo markazlari rolini o'tagan. Xarappaga qimmatbaho toshlar Hindiston janubidan keltirilgan. Mahalliy halqning Janubiy

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Turkmaniston aholisi bilan ham savdo-sotiq ishlari olib borganligi Oltintepadagi qazish ishlaridan ma'lum bo'ldi.

Vodiy aholisi Belujiston bilan savdo aloqalari o'rnatgan bo'lishi kerak. Saurashtra va Dekandan bu yerga bezak sifatida chig'anoq va ba'zi tosh turlari, Erondan kumush va feruza keltirilgan. **M.Ye.Massonning** Oltintepada olib borgan qazishmalari Xarappa sivilizatsiyasi Markaziy Osiyo xalqlari, Janubiy Hindiston viloyatlari bilan mustahkam aloqa o'rnatganidan dalolat beradi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari Xarappa shaharlarining madaniy va savdo-sotiq aloqalari miqiyosini yanada kengaytirdi. Hind vodiysidan Mesopotamiyaga mollar dengiz yoki quruqlik yo'llari orqali keltirilgan. Shumerda ham Xarappa madaniyatiga oid mollar topilgan. Qadimgi Shumer bitiklarida Meluxa deb nom olgan yurtga faqat dengiz orqali borish mumkin deb qayd etilgan. Olimlar fikricha, Meluxa Hind vodiysining aynan o'zi. Hind savdogarlari Mesopotamiyaga asosan paxta keltirganlar. Olimlar topilmalarga tayangan holda Mesopotamiyani Hind vodiysi bilan bog'lab turishda Bahrayn muhim nuqtalardan biri bo'lgan degan xulosaga keldilar. Lotxal qazishmalari chog'ida bir necha portlar topildi. Bu Xarappa aholisi dengiz yo'llariga intilganidan dalolat beradi. Arxeologlar bu yerlardan kemasozlik anjomlarini topdilar. Kema tasvirlari Moxenjo-Daro va Xarappa muhrlarida ham uchrab turadi. Qadimgi hind savdogarlari mamlakatdan nima olib chiqqanlar degan o'rinli savol tug'ildi. Ular misdan tashqari fil suyagi, maymun, tovus va marvarid bilan savdo qilganlar. Mesopotamiyada kichik-kichik hind qishloqlari bo'lgan degan faraz ham mavjud.

Til va yozuv Hind vodiysida yozuv mavjudligi u yerda madaniyat Yuqori darajaga ko'tarilganidan dalolat beradi. U yerda hozirgi kungacha topilgan manbalar soni ikki mingdan ortib ketadi. Ular 400 dan ortiq belgini o'z ichiga oladi. Bu yozuvlar to'rt qirrali muhrlar bilan birgalikda sopol, bronza pichoq va mis likobchalar, fil suyagidan yasalgan buyumlarga tushirilgan. Muhrlarda asosan hayvonlar tasvirlangan. Shuningdek ularda o'n yoki undan ko'proq belgi bilan bitilgan yozuvlar mavjud bo'lgan. Olimlar fikricha, bu yozuvlar fonetik belgilar, ayrimlari esa idiogrammalardan (biron ma'noni bildiradigan Shartli belgi) iborat. Yozuv o'ngdan chapga qarata yozilgan. Yozuvlar tilini **T.Barrou**, **M.B.Emeno** kabi

tadqiqotchilar dravid tillari guruhiga mansub deb fikr bildirganlar. Mana, bir necha o'n yildan beri, olimlar Xarappa yozuvlari ustida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Unga bo'lgan qiziqish **XX asrning ikkinchi yarmidan** boshlab ortib bordi. Bu yozuvlarning shumer, etrusk yozuvlariga yaqinligi haqida fikrlar bildirildi. Ularni o'qish uchun avval ularning tilini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy aholi Arxeologik materiallar, muhrlardagi tasvirlar orqali e'tiqodi Xarappa madaniyati ahlining dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi haqida ma'lumot olish mumkin. Ba'zi olimlar Moxenjo-Darodan topilgan katta binoni ehrom deb hisoblaydilar. Bu binoga pishiq g'ishtli hovuz ulanib ketgan. Ko'plab ayol xaykallari mahalliy halq ona-ma'budaga sig'inganidan dalolat beradi. Tadqiqotchi olim **A.Beshem** xulosasiga ko'ra, xarappaliklar turmush tarzi, urf-odatlarini, rasm-rusmlari keyinroq hinduizm dinida aks etdi. Masalan, loydan yasalgan ona siymosi Xarappa madaniyatidan so'ng ming yil o'tgach paydo bo'ldi.

Xarappa madaniyatining siyosiy va ijtimoiy tizimi hali yetarli darajada yoritilmagan. YAqin-yaqingacha olimlar orasida bu davrda davlat tizimi shakllanib ulgurmagani, degan fikr hukmron edi. Xarappa, Kalibangan va Moxenjo-Daroda olib borilgan qazishma ishlaridan ma'lum bo'lishicha, ana shu davrda ijtimoiy tabaqalanish vujudga kelib, jamiyatda sinflar paydo bo'lgan.

Akademik **V.V Struve E.Makkeyning** kitobiga yozgan so'zboshisida¹ Xarappa madaniyati quldorlikka asoslangan, uning siyosiy tuzumi esa Shumer siyosiy tuzumiga yaqin, deb ta'rif beradi. Xuddi shu fikrni boshqa olimlar ham tasdiqlaydilar. Yozma daliliy ashyolar bo'lmaganligi sababli, bu fikrlarning birontasini biz to'g'ri yo noto'g'ri deb ayta olmaymiz. Xarappada tabaqalanish yuz bergan deb faraz qilish mumkin, xolos. Shaharning gullab yashnagani, yirik bozorlar, sun'iy suv havzalari va oziq-ovqat mahsulotlari saqlaydigan katta omborlarning mavjud bo'lganligi markazlashgan hokimiyat tizimidan dalolat beradi.

Xarappa madaniyati Yangi arxeologik materiallar Xarappa inqirozi madaniyatining so'nggi davrini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Bu vaqtga kelib ichki inqiroz natijasida bir

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

qancha markazlar hayoti soʻna boshladi. Bu jarayon hamma yerda har xil kechdi va uzoq vaqt davom etdi. Avvaliga inqiroz sabablari bosqinchi qabilalar bosqini deb qaralgan boʻlsa, yangi ma'lumotlar bu mulohaza notoʻgʻriligini koʻrsatdi. Solnoma ma'lumotlariga koʻra inqiroz **miloddan avvalgi XIX-XVIII asrlarda** boshlangan. Hind arxeologlarining Lotxaldagi qazishma ishlari salmoqli natija berdi. Tadqiqotlardan ma'lum boʻlishicha, bu yerda inqiroz **miloddan avvalgi XX-XIX asrlarda** boshlangan. Hind arxeologi **S.Yu. Raoning** fikricha, aynan shu davrda Lotxalda yuz bergan ikki suv toshqini juda katta talafotlarga olib kelgan. Tadqiqotchilar aniqlashicha, Moxenjo-Daro yer zilzilasi tufayli halokatga yuz tutgan. Ba'zi olimlar esa shahar suv toshqini oqibatida vayron boʻlgan, deb fikr bildiradilar. **R.L.Reyks** amalga oshirgan gidrologik ekspeditsiya halokat Hind daryosi suvlari koʻtarilishi hamda zilzila natijasida roʻy berganligini aniqladi. Lekin bu fikrga ba'zi olimlar qarshi chiqadilar. Xarappa madaniyatining ichki inqirozi sabablarini hali oʻrganish talab etiladi. Hozir bunga hind-oriy qabilalari bosqini sabab, degan fikr qayta koʻrib chiqilishi lozim.

Xarappa madaniyati Hindiston va unga qoʻshni mamlakatlarning keyingi tarixiga katta ta'sir koʻrsatdi. Uning ta'sirida Hindiston boʻylab kulolchilik va temirchilik keng quloch yoydi. Markaziy Hindistonda esa miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda chorvachilik keng rivoj topdi.

Hind-oriylar va Gang vodiysi madaniyati. Koʻp yillardan buyon oriylarning Hindistonga kelgan vaqti, sababi va qaysi yoʻllar orqali kelganligi hindshunoslar diqqatini oʻziga tortib kelmoqda. Ayrim olimlar taraqqiy etgan oriylar qoloq mahalliy qabilalarni oʻziga boʻysundirib, Hindistonga yuksak madaniyat olib kirishdi deb hisoblaydilar. Ular mahalliy xalq taraqqiyotga mustaqil tarzda erishganini inkor etadilar. Mazkur nazariyaga koʻra, sinfiy jamiyat Hindistonga oriylar kirganidan soʻng paydo boʻlgan.

Oʻn yillar davomida oʻzi bilan *«asl e'tiqod»* keltirgan, oqtanli va koʻk koʻz, baland boʻyli oriylar bosqini haqidagi bu «nazariya» qadimiy Hindiston sirlarini ochadigan oltin kalit rolini oʻynab keldi. Quldorlik qay tarzda vujudga keldi? Mamlakatga oriylar bostirib kirib, mahalliy xalqni oʻzlariga boʻysundirdilar. Davlat qanday paydo boʻldi? Uni oriylar mahalliy aholiga qarshi muvaffaqiyatli kurashish

uchun barpo etdilar. Kastalar qay yo‘sinda tarkib topdi? Buni oriylar zulmat va jaholatga botgan mahalliy xalq bilan qorishib ketmaslik maqsadida o‘ylab topganlar.

Hind olimi D.Kosambi o‘z tadqiqotida *«Hind madaniyatining har qanday yuksak darajaga erishishi - oriylar xizmati, bu natsistlar rejimi vaqtida keng targ‘ib qilingan «oriylar tushunchasi»ga yanada ko‘proq chalkashliklar kiritdi»* deb aytadi.

«Oriylar muammosi» ga turli xil nuqtai nazar bilan qaragan olimlarning fikricha, faqat bitta narsa o‘xshash. Ya‘ni miloddan avvalgi 2000 yillarda Shimoliy Hindistonda hind-oriy tillari tarqalib, ularda so‘zlashuvchilar o‘zini oriylar deb ataganlar.

«Oriy» so‘zi olimlar fikricha, qadimgi eronlik va qadimgi hind qabilalarining nomlanishini anglatadi. Qadimgi matnlarni o‘qish asosida veda davrida *«ar‘ya»* so‘zi *«kelgindi»*, *«boshqa yerlik»* ma'nolarini bildirishi aniqlandi. *«Xo‘jayin»*, *«aslzoda»* degan ma'nolari qadimgi Hindiston va Eronning ko‘pgina yodgorliklarida uchraydi.

«Oriy» so‘zi hozirgi Eron davlatining nomi bilan bog‘liq. *«Eron» «ar‘yana»* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, *«Oriylar mamlakati»* ma'nosini bildiradi¹. Qadimgi hind manbalarida chegaralari turlicha ko‘rsatilgan oriylarning muqqadas yurti Ar'yavarta haqida zikr qilinadi. Ular tilining yaqinligi ham Eron va hind-oriy qabilalari ajdodlarining keng urug‘chilik aloqalari yoki birligini ko‘rsatadi. O‘rganish va qiyoslash qadimda bu tillarning grammatik tuzilishi va asosiy lug‘at boyligi umumiy bo‘lganidan dalolat beradi. Masalan, *«suv»* qadimgi eron va hind tillarida *«ap»* deb atalgan. Yer *«bumi»-«bxumi»*, *«shamol»* har ikki tilda *«vata»* deb yuritilgan. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bundan tashqari, qadimgi Eron va Veda dinini qiyoslash qadimgi Eron va hind-oriy ajdodlarining diniy tushunchalari o‘xshash bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, urf-odatlar, olovga e‘tiqod qilish, muqaddas hind *«soma»*si (ichkiligi), Eron *«xauma»*si ham bir-biriga o‘xshashdir.

¹ V. Sogrin, A. Chubaryan, Highlighting Some Problems of World History, in "Social Sciences", 1990, 2, pp. 35-45.

Oriylar asl vatani va ularning tarqalishi. Qadimgi hind-oriylik va eroniylik tili birmuncha o'xshash bo'lgani, ular dastlab yagona o'lkada yashaganligi haqidagi farazni yuzaga keltiradi.

Tilshunoslik va boshqa fanlarning qiyosiy tahliliga ko'ra, qadimgi hindlar va eroniyliklar qo'shni bo'lib, hind-oriy birligini tashkil etganlar. Masalan, bu xalqlar tili va qadimiy yozma asarlari («*Avesto*», «*Veda*») o'zaro yaqinligi, diniy va ijtimoiy jarayonlar o'xshashligi fikrimiz dalili bo'la oladi¹.

Hind-oriy qabilalari ajdodlari, avvalo, Markaziy Osiyo va unga qo'shni o'lkalarda yashagan, degan fikr keng tarqalgan farazlardan biridir. Bu hududda yashaganlarning bir qismi Hindistonga, qolganlari esa Old Osiyoga ko'chib o'tganlar. Ular madaniyatining izlari taxminan **miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalariga** borib taqaladi. Undan so'ng Midiya forslarining ajdodlari bo'lgan eroniy qabilalar G'arbiy Eron tomon siljib borganlar.

Boshqa fikr tarafdorlari hind-oriyliklarning asl vatani janubiy rus dashtlarida deb aytadilar. Hind-oriyliklar bu yerlardan Kavkaz orqali Hindiston va Eron tomon ko'chib borganlar. Ba'zi olimlar oriyliklar Hindistonga har ikkala yo'l, ya'ni Kavkaz va Markaziy Osiyo orqali kelgan bo'lishi mumkin, deb taxmin qiladilar.

Har yili Markaziy Osiyoda arxeologlar qo'lga kiritgan materiallar boyib bormoqda. Qazishma ishlari va yangi topilmalar Markaziy Osiyoda bronza davri hamda Markaziy Osiyoning Xarappadan keyingi madaniyati o'rtasidagi o'zaro aloqalaridan guvohlik beradi.

Olimlar oldida oriyliklar, dastlab, Hindistonning qaysi viloyatlarida paydo bo'lganligini aniqlash kabi yana bir murakkab masala turibdi. Bizgacha yetib kelgan eng qadimiy yodgorlik - Rigveda **miloddan avvalgi II ming yillik oxiriga** mansub deb topilgan. Lekin bu asarning yaxlit to'plam sifatida yig'ilishi jarayoni ancha vaqtni talab qilgan. Demak Rigveda mualliflarining, ya'ni hind-oriyliklarning kirib

Mulkiy va ijtimoiy tengsizlik kelishi ancha oldin, taxminan **miloddan avvalgi XIII-XII asrlarda** ro'y bergan. Shu bilan birga, olimlar hind-oriy qabila guruhining Hindistonga Rigveda asoschilarining paydo bo'lishidan avval kelgan bo'lishi mumkinligini ham inkor qilmaydilar.

¹ History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006 page:145-146/

Vedalar jamiyatida mulkiy tengsizlik bo'lgan. Katta chorva egasi bo'lgan badavlat shaxslar bilan birga kambag'allar ko'p edi. Chorvaning kimga tegishliligini bildirish maqsadida mollarga tamg'a bosishgan. O'ziga to'q odamlar katta-katta xayr-ehson qilar, oddiy fuqarolar esa ozroq sadaqa berish bilan kifoyalanardilar. Ishlovga yaroqli yerlar maxsus kishilarga berilar, bu o'z navbatida mulkiy va ijtimoiy tengsizlikka olib kelardi. Ayrim odamlar va qabilalar o'rtasida yerga vorislik xususida mojarolar kelib chiqqan. Jamoaning ayrim a'zolari asta-sekin boyib, imtiyozli kishilarga aylanganlar.

Mulkiy va ijtimoiy tengsizlikning yorqin ifodasi quldorlikning paydo bo'lishi edi. Eng avvalo, harbiy asirlar (*“dasa”*) qulga aylantirildi. Ilgarilari dushmanlar *«dasyu»* yoki *«dasa»* deb atalgan. Keyinchalik jamoaning ozod a'zolari ham qullik asoratiga tusha boshladilar. Rigveda davridagi quldorlik quldorlikning dastlabki ko'rinishlaridan edi. Chunki veda jamiyati urug'-qabilachilik darajasida bo'lgan.

Siyosiy tizim. Ilk veda davri urug'-qabilachilik bosqichini boshidan kechirgan bo'lsa, uning so'nggi davrida sinfiy jamiyat va davlat paydo bo'ldi. Veda qabilalari gana, ya'ni urug' qabila jamoasi, so'ng sinfiy tusga ega bo'lgan uyushma tarzida umr kechirganlar. Rigveda madhiyalarida bir vaqtlar hind-oriylar yagona va jips jamoa bo'lib yashab, birgalikda mehnat qilganlari, xudo yo'lida xayru ehson berganlari to'g'risida rivoyatlar bor. Ganalarni ganapati boshqargan. Gana yig'inlarida ayollar ishtirok etish huquqiga ega bo'lmaganlar. Ularning, umuman, biron bir siyosiy huquqlari yo'q edi. Ichki idora ishlari qabila jamoalarining teng huquqli a'zolari yig'ini - vidadxa, sabxa yoki samitida hal etilgan.

Vidadxa eng qo'hna tizimlardan biri, ya'ni qabila oqsoqollari yig'ilishi bo'lib, samitidan farqli o'laroq, unda, asosan, siyosiy ishlar ko'rilgan. Samitida sabhadan ko'ra ko'proq odam ishtirok etganligi xususida farazlar bor.

Varnalarning yuzaga kelishi. Kasta-tabaqa tuzumi. Kastaning ayrim alomatlari va kasta tuzumining ba'zi ko'rinishlari ko'plab xalqlarda uchraydi. Hindiston kasta tuzumini o'zida mujassam etgan. *«Kasta»* iborasi portugal tilida *«urug'»*, *«qavm»*, *«sifat»* ma'nosi¹ni anglatadi. Bu so'z **XVI asrda** portugallar Hindistonga kirib kelib,

¹ History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006 page:155-156/

mamlakat ijtimoiy tizimi bilan tanishganlaridan so'ng Yevropa tillarida ham tarqalgan. Kasta tuzumi faqat Hindiston uchun xos deb aytiladi. Buning sababi, kasta tuzumi, aynan, Hindistonda keng rivojlanib, uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolgan. Hind jamiyatining bir-birlaridan ajralgan guruhleri shu nom bilan nomlana boshladi. Hindistondagi bu toifa odamlari «*jati*» sanskrit atamasi bilan ifodalangan.

Qadimgi hind jamiyatida jati bilan bir vaqtda mukammal qadimiy tizim - varna, ya'ni tabaqalar paydo bo'ldi. Asta-sekin varnalar (braxman, kshatriy, vayshiy, shudralar) bir-biridan bo'lak guruhlarga ajraldilar. Ular shakl jihatidan kastalarga o'xshab ketsa ham, aslida kasta bilan varna o'zaro tubdan farq qiladi. Kasta - bu qadimgi Hindiston aholisining mehnat turi, hunari yoki ixtisosi bo'yicha ajralishi, varna esa-o'sha jamiyat vakillarining to'rt tabaqaga bo'linishidir. Har bir kasta kishilari boshqa kastalardan ayri, alohida-alohida yashagan. Ular o'rtasida har qanday munosabatlar yoki o'zaro muloqot qilish butkul ta'qiqlangan. Bir kasta bilan ikkinchi kasta orasida qarindoshlik aloqalari o'rnatish ham qat'iyan ma'n qilingan.

Varna so'zining asosiy ma'nosi - «*tur*», «*rang*», «*sifat*», «*daraja*». Bu so'z qadimgi Hindistonda ana shu so'nggi ma'nosida ko'proq ishlatilgan. Ingliz olimi Beshem har bir varna muayyan rangni, ya'ni braxman-oq, kshatriy-qizil, vayshiy-sariq va shudra-qora rangni bildiradi, degan xulosaga keladi.

Veda rivoyatlarida to'rt varna dastlabki odam-Purushadan kelib chiqqan deyiladi¹. «*Purushasakta*» madhiyasida hikoya qilinishicha, braxmanlar Purushaning og'zidan, kshatriylar qo'lidan, vayshiylar sonidan, shudralar oyog'idan paydo bo'lgan emish. Olimlar varnalar kelib chiqishini ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi bilan bog'lashadi.

Shudralar tabaqasining vujudga kelishi bir muncha murakkab jarayon. Bunga ikki narsa: iqtisodiy mustaqillikdan mahrum bo'lgan fuqarolar va oriylar jamoasidan badarg'a qilingan a'zolarining ko'payishi sabab bo'ldi. Ushbu shaxslar to'rtinchi varnani tashkil qildilar. Ammo varna faqat qabiladoshlar emas, balki begonalar hisobiga ham ko'paydi. To'rtta varna tuzumi bir vaqtning o'zida shimoliy Hindistonning ko'p yerida rivojlanib bordi. Qadimgi

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

xalqlarda jamiyatning ba'zi a'zolarining boshqalaridan ustunligi oliynasablik ko'rsatkichi deb qabul qilinib, diniy qobiq bilan o'ralgan. Braxmanlar eng oliy varna hisoblangan. Faqat ular diniy marosimlar o'tkazish huquqiga ega bo'lganlar. Saroy kohini - muroxita davlat boshlig'iga ta'sir o'tkaza olgan.

Kshatriylar braxmanlarga nisbatan quyi tabaqa vakili bo'lishiga qaramay, ularning jamiyatdagi mavqeyi baland edi. Davlat, harbiy kuch, moddiy boyliklar, asosan, kshatriylar qo'lida bo'lgan. Braxmanlar adabiyotida bunday zodagonlarni turlicha: roja, rojaputra kabi nomlaganlar.

Jamiyatning asosiy qismini vayshiylar, ya'ni chorvador va dehqonlar tashkil qilgan. Ular braxman va kshatriylarni moddiy boyliklar bilan ta'minlab turishgan. Ular soliq to'lovchi toifa vakillari bo'lishiga qaramay, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lib, yerga egalik qilish huquqiga ega edilar. Ular davlat apparatida muhim rol o'ynar, shu bilan birga, piyoda askarlarning asosiy qismini tashkil qildilar. Vayshiylar vedalar davrida katta obro'ga ega bo'lib, ammo o'sha vaqtdayoq ular orasida mulkiy bo'linish kuzatilgan.

Dastlabki uch varna vakillari - braxman, kshatriy va vayshiylar «*ikki marta tug'ilganlar*» toifasiga kirganlar. Shudralar bu nomdan mahrum edi. Yuqoridagi uch varnaga mansub odamlar balog'at yoshida «*ikkinchi tug'ilish*» marosimini o'tkazganlar. Marosimning asosiy qismida voyaga yetgan bolaning bo'yniga bog'ich taqilgan. Har bir varna a'zosining bog'ichi turli matodan yasalgan. «*Ikkinchi bor tug'ilgan*»ning hayoti to'rt ajrim-bog'ichdan iborat bo'lgan. Birinchisida u *braxmacharin* - shogird, ikkinchisida - *grixasta* - uy egasi, uchinchisida - *vananrastxa* - o'rmon zohidi, to'rtinchisida - *san'yami* yoki ati, ya'ni tarki dunyo qilgan zohid bo'lgan. Keyinroq pul olib o'qitadigan ustozlar ham paydo bo'lgan. Hayotining ikkinchi qismida uylanib uy egasi bo'lgach, oilasini boqish va xudoga bag'ishlab o'tkaziladigan rasm-rusumlarni ado etishi kerak edi. U qarib, nevarali bo'lganidan so'ng, uyni tark etib, o'rmonga ketishi va u yerda yolg'izlikda qadimgi vedalarni o'rganishi, hayotning to'rtinchi qismida hayoti tugayotganini his qilib, dunyodan ko'z yumishi kerak bo'lgan. Shudralar «*ikkinchi bor tug'ilganlari*» bilan birga ovqatlanishi ta'qiqlangan. Shudralar «*bir marta tug'ilgan*», ya'ni past tabaqa deb qaralardi. Ularga diniy marosimlarda ishtirok etish,

muqaddas kitoblarni o'rganish man qilingan. Shudralar davlat boshqaruvida ishtirok eta olmagan. Ularning qismati «*ikki marta tug'ilganlar*»ga xizmat qilishdan iborat edi. Shudralarga nisbatan bu munosabatdan ular og'ir ijtimoiy Sharoitda va iqtisodiy nomustaqil bo'lgani ayon. Shudralar odatda kambag'al, quyi darajali kosiblar, xizmatkorlar bo'lgan. Shudralar qul bo'lmasalar-da, ular vaqt taqozasi bilan qullikka tushib qolishi mumkin edi.

Shunday qilib, ibtidoiy jamoa tuzumining buzilishi tabaqalar kelib chiqishiga olib keldi. Hindiston shimolining katta qismi sinfiy munosabatlari qabilalar tomonidan Gang vodiysi o'zlashtirilayotgan va ular o'rtasidagi to'qnashuvlar davrida ro'y berdi.

Shimoliy Hindistondagi Vedalarda aytilishicha va epik (xalq qadimiy sulola va davlatlar dostonlari) talqinlarga ko'ra shoh va shoh sulolalari xudolar irodasiga bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Eng keng tarqalgan rivoyatlarga ko'ra Gang daryosi vodiysida eng yirik sulolalar Quyosh va Oy nomi bilan atalib, ularning asoschilari Quyosh va Oy xudolarining avlodlari sanalganlar. Quyosh sulolasi «*Ramayana*» dostonining qahramoni Rama bilan, Oy sulolasi esa Kauravi urug'i bilan bog'langan. Bu urug'ning avlodi "*Rigveda*" da nomi zikr qilingan shoh Bxarata bo'lgan. Taxminlarga ko'ra, bxaratalar "*Rigveda*" davrida Sarasvati (Hind daryosi irmog'i) va Yamuna daryolari orasida yashaganlar. Bxarata ulkan shon-shuhratga ega edi. Bu dongdor hukmdor sharafiga qadimda butun shimoliy Hindiston «*Bxaratvarsha*» - «*Podsho Bxarata avlodlari mamlakati*» deb atalgan (hozirda Hindiston Respublikasi rasman Bxarat deb nomlanadi). «*Maxabxarata*» ning ba'zi qahramonlari ham bxaratlar urug'iga mansub. Dostonda Bxarata avlodlarining ulkan urushi Kauraviy va Pandaviylarning Kuru maydoni - Kurukshetradagi to'qnashuvi haqida hikoya qilinadi. Zamonaviy hindshunoslar fikricha, bu jang **miloddan avvalgi XI-IX asrlarda** ro'y bergan. **B.B.Lal** boshchiligidagi hind arxeologlari Kauraviylarning bosh shahri Xastinapurda qazish ishlarini olib bordilar. Topilgan ma'lumotlarga ko'ra shahar ahli taxminan **miloddan avvalgi XI-IX asrlarda** suv toshqini tufayli uni tashlab chiqib ketgan. Bu voqyea «*Maxabxarata*» ma'lumotlariga mos keladi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, qadimgi hind manbalari Kurukshetradagi jangdan so'ng yangi davr boshlanganini qayd etadi.

Avvaliga qudratli va nufuzli panchal va kuru qabilalari o'zining siyosiy mavqeyini yo'qotib, maydonga Sharqiy Hindistonda kichikroq davlatlar, birinchi navbatda Koshala (poytaxti Ayodxa va Shravasti), Kashi (bosh shahri Varanasi), Videxa (poytaxti Mitxeli) chiqadilar. Hozirgi Bixarning janubida Magadxa davlati (poytaxti Giravraja, so'ng Rajagrixa) g'arbiy tumanlarda-Avanti (poytaxti Ujjayn-Ujjayani) muayyan mavqyega ega bo'ldilar.

So'nggi vedalar adabiyotida mamlakat uch qismga bo'linganligi haqida aytiladi. Ular **Arvarta** (oriylar mamlakati) va **Dakshinapatxa** - (janubiy mamlakat) dan iborat edilar¹.

Tadqiqotchilar ixtiyoridagi arxeologik manbalar qatoriga o'sha paytlarda yaratilgan adabiyotlar - vedalar va qadimgi hind eposi ham qo'shilgan. Shu yerda ta'kidlash joizki, shimoliy Hindiston tarixida **miloddan avvalgi II-ming yillik oxiri** va **I-ming yillik boshlari** vedalar davri deb yuritiladi. Vedalar davrining ko'p jihatlarini bugun umumiy ko'rinishda tasavvur etish mumkin. Tarixiy dalillar yetishmasligi tufayli veda adabiyotiga oid ayrim asarlar sanasini aniqlash qiyin. Qadimgi Hindiston tarixi bosqichlari bir-biridan farq qilsa ham, olimlar o'sha davr moddiy, ma'naviy, madaniy va ijtimoiy hayotining asosiy xususiyatlarini ochib berganlar. Xalqlar orasida ana shu uzoq o'tmish to'g'risida umumiy farovonlik va haqiqat davri degan tasavvur saqlanib qolgan bo'lib, bu davr «*Oltin asr*» nomi bilan mashhur.

Veda davrining oxirida ozod to'rt tabaqali tizim tarkib topishi bilan kishilar o'rtasidagi tengsizlik yuzaga keldi. Bu ijtimoiy tabaqalanishdan dalolat berib, jamiyatning mohiyati uni ikki sinf: qul egalari va qullarga bo'linishini keltirib chiqardi. Qul so'zini anglatuvchi «das» iborasi qadimiy va uning dastlabki ma'nosi «*dushman*», «*johil*», «*dindan qaytgan*» ma'nolarini anglatgan. «*Rigveda*» da bu so'z «*qabilalararo to'qnashuvlarda asir tushgan yoki jamoaning qullikka mahkum qilingan a'zosi*» ma'nosini bildirgan. «*Oriy*» so'zi «*das*» so'ziga qarama-qarshi bo'lib, «*oliy himmat*» hamda «*ozod*» ma'nosida qo'llanilgan. Birinchi navbatda harbiy asirlar va mahv etilgan aholi qul qilingan. Biroq qullik faqat

¹ V. Sogrin, A. Chubaryan, Highlighting Some Problems of World History, in "Social Sciences", 1990, 2, pp. 35-45.

urush tufayli kelib chiqmay, balki ibtidoiy jamoada ishlab chiqarish kuchlarining rivoji va ijtimoiy tengsizlik tufayli uning kelib chiqishi uchun Shart-Sharoit yetilgan. Qullar ham mulkning bir qismi hisoblangan.

Vedalar davrida yashagan hindlar Gang vodiysining oʻrmon bilan qoplangan katta qismini oʻzlashtirganlar. Bu jarayon uzoq davom etgan. Hind-oriy qabilalari yerli xalq bilan aralashib, mahalliy hayot tarzi va xoʻjalik faoliyatiga koʻnika boshladilar.

Temir qazib olish va qayta ishlash oʻsha davrning asosiy yutuqlari sifatida xoʻjalik hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Gang vohasining gʻarbiy tumanlarida olib borilgan qazish ishlari odamlar oʻsha davrda temirdan foydalanganligidan dalolat beradi. Masalan, **130** ga yaqin turli temir buyum - kamon uchi, nayza, bolta, pichoq, igna va shu kabi ashyolar topilgan. Qadimgi hindlar gapun, uy-roʻzgʻor buyumlari, qurilish ashyolari - mix kesgich, qisqich, qishloq xoʻjaligi buyumlari - oʻroq, bolta, zeb-ziynatlar yasashgan.

Nisbatan mukammal ishlangan mehnat qurollari yangi yerlar ochishda qoʻl kelgan. Arpa, sholi, bugʻdoy, suli, boshqli donlar ekilgan. Arpaning qora, tezpishar va boshqa navlari haqida maʼlumotlar bor. Shuningdek, paxta ham yetishtirilgan. Manbalarda ayrim meva nomini uchratish mumkin. Yerlar omoch yordamida haydalgan. Sunʼiy sugʻorish mavjud boʻlgan. “Rigveda”da charxpalak - “*chakra*” haqida maʼlumot berilgan. Qoramol, birinchi navbatda, sigir qadimgi hindlarning asosiy boyligi boʻlgan. Tadqiqotchilar hinduizm dinida sigirga eʼtiqod qilish shu tariqa kelib chiqqan deb taʼkidlaydilar.

Veda adabiyotida temirchi, kulol, duradgor, konchi, zargar, qassob, musallas tayorlovchi, sartarosh, tikuvchi kabi kasb egalari haqida maʼlumotlar uchraydi. Toʻqimachilik, asosan, uy mashgʻuloti boʻlgan.

Qadimgi Hindiston tarixining vedalar va ulardan keyingi davr haqida anchagina maʼlumot mavjudligiga qaramay, ushbu davr, xususan, vedalar davrining siyosiy tarixini tiklash hamon muammo boʻlib qolmoqda. Purana va epos manbalari bir-biriga zid. Eng qadimgi puranalar nisbatan kechroq, **III-IV asrlarda** yaratilgan. Soʻngi yillarda mazkur muammoni oʻrganishga yangicha yondashilmoqda.

Vedalar davrida din va madaniyat. Vedizm Hindistonning eng qadimiy diniy tizimidir. U mamlakatning keyingi davrdagi diniy qarashlari va falsafiy ta'limotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Veda diniga politeizm - ko'p sonli ma'budalarga e'tiqod etish xos. Vedalar davrida hindlar tabiat, uning hodisalari shuningdek, ma'budalarga sig'inganlar. Ularning fikricha, xudolar insonga xos fazilat va nuqsonlarga ega edilar. Veda xudolari odam va jonivor shaklida tasvirlangan. Xudolar Sharafiga madhiyalar o'qilib, qurbonliklar qilingan. Qadimdagi hindlar dunyosi uch qismdan: osmon, yer va antariksha (yer va osmon orasidagi makon) dan iborat bo'lib, ularning har biri o'z ma'budiga ega deb hisoblaganlar. Samo ma'budalari qatoriga Quyosh ma'budasi Sur'ya, tong ma'budasi **Ushas** va falak tartiboti ma'budasi **Varuna** kirgan. Yer ma'budalari ichida olov ma'budasi Agni va ichkilik ma'budasi Somaga ko'proq e'tiqod etilgan. Antariksha ma'budalari qatorida momaqaldiroq ma'budasi Rudra, shamol ma'budasi **Vayyu** va qudratli ma'buda **Lindrani** ko'rsatish mumkin. "**Rigveda**" madhiyalarining katta qismi aynan unga bag'ishlangan. Ma'buda **Agni** alohida ehtiromga ega bo'lgan. Olov din uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, odamlar bilan ma'budalar o'rtasida vositachi hisoblangan. Quyosh ma'budasi Sur'ya go'yo har tongda otash rangli otlar qo'shilgan aravada namoyon bo'lgan. U atrofni yoritib, hayotbaxsh issiqlik taratadi deb hisoblangan.

Xalq e'tiqodiga ko'ra osmon egasi qadimgi ma'buda - **Varuna** o'z aravasida sayr qilib yurgan. U dunyoda tartibot himoyachisi hisoblangan. **Vedizm** ibtidoiy dinlardan odamlarning ijtimoiy tengsizligini ilohiylashtirish bilan farq qilardi. **Karma** haqidagi ta'limot ijtimoiy tengsizlikni oqlash imkoniyatini bergan. Hukmdorlar ilohiylashtirilgan, ma'budalarga to'la-to'kis bo'ysunish har bir odamning oliy burchi bo'lgan.

Dastlab, veda qabilalarining ehromlari bo'lmagan, keyinchalik, ma'budalarga sig'inish uchun maxsus binolar qurdilar.

Veda adabiyoti Vedalar Hindistonning adabiy yodgorligidir. Ular o'zida turli tarixiy bosqichlarga matnlarni jamlagan. Hind tarixchilaridan **A.Ch.Banerji** va **N.K. Sinxa** veda adabiyoti **miloddan avvalgi 2500-yildan to 500-yilga** qadar bo'lgan davr oralig'ida yaratilgan deyдилar. Bugungi kunda ham hindlar tug'ilish,

o‘lim yoki nikoh to‘yi munosabati bilan bog‘liq diniy marosimlarni qadimgi veda urf-odatlarini bo‘yicha o‘tkazishadi. Brahmanlarning har kuni uch mahal qiladigan toat-ibodati ikki yoki uch ming yil ilgari vedalardan kelib chiqqan. Vedalar davridan so‘ng rivojlangan sanskrit adabiyotining asosi va kelib chiqishi vedalar bilan bog‘liq. Hind falsafiy tizimlari asosida Vedalar ta‘limoti yotadi. Hindlarning an’anaviy huquqiy munosabatlari, xo‘jalik va diniy urf-odat va marosimlari hamon Vedalarga asoslangan.

Veda adabiyotining tarkibiga Samxit, ya‘ni madhiyalar, toat-ibodat, qurbonlik duolari va h.k. kiradi. To‘rtta vedalar to‘plami mavjud:

“Rigveda” (madhiyalar devoni) eng muhim to‘plam. U **miloddan avvalgi XI - X asrlarga** taalluqli bo‘lib, 1028 madhiyadan (sukt) iborat. Ba‘zi madhiyalar marosim duolari sifatida xizmat qilgan, ammo boshqacha yo‘nalishdagi madhiyalar ham bor. Bular samoviy va to‘y madhiyalaridir.

Yana bir madhiyalar to‘plami **“Atxarvaveda”**. Hozirgi kunda u 731 madhiyadan iborat bo‘lib, 20 ta kitobga bo‘linadi. Bu asar **“Rigveda”**ga nisbatan kechroq yaratilib, ruhlarni, jin va sehrli kuchlarga e‘tiqod xususidagi ma‘lumotlarni jamlagan. Olimlar fikricha, u etnografiya va din tarixi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi to‘plam - **“Samaveda”** (qo‘shiqlar devoni) - 1549 madhiyadan iborat. Ular qurbonlik marosimida aytilgan.

To‘rtinchi to‘plam - **“Yajurveda”** (qurbonlik va xayr-ehson, tilovatlar devoni). U qisman madhiyalar va nasr parchalar (jurlar) dan iborat.

Brahmanlar yoki Urf-odatlar va qurbonlik marosimlariga oid nasriy matnlar duolardan iborat. **“Rigveda”**ga taalluqli ilk brahman **“Aytareye brahman”** va **“Kashutaki brahman”** katta ahamiyatga egadir.

Aranyaklar yoki o‘rmon kitoblari. Bu kitoblar shu qadar muqaddas hisoblanganki, ularni faqat o‘rmonda (aranya) o‘qishga ruxsat etilgan. Ular falsafiy mulohazalar, majoziy marosimlar va sahiylarning sirli ahamiyatidan bahs etadi. Aranya o‘rmonida hayot kechirayotgan zohidlar uchun yozilgan deb faraz qilinadi. Bu asarlarda qurbon keltirish marosimlari asta-sekin keyingi o‘ringa o‘tib, ularning o‘rnini haqiqat va tabiat haqida falsafiy mulohazalar egalaydi.

Upanishadlar va ularning ta'limoti. Veda adabiyotining xotima qismi upanishadlar, ya'ni veda rivoyatlari va marosimlariga oid turli falsafiy va diniy-falsafiy Warhlarni jamlagan matnlar yig'indisidir.

Upanishadlar «*vedanta*», ya'ni vedalar nihoyasi deb atalgan. Taxminlarga ko'ra 108 upanishad bo'lib, ularning eng qadimgisi **miloddan avvalgi VII-IV asrlarda** yaratilgan. Ulardan 13 matn asosiy deb hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, biror xalq qadimgi hindlar kabi ibtidoiy jamoadan to sivilizatsiya davrigacha vedalardek ko'plab yodgorlik qoldirmagan. To'rt ming yildan ortiq davr ichida yuzlab brahman avlodlari vedalarni xotiralarida saqlab kelishgan va yozma ravishda tarix yodgorligi sifatida qoldirishgan.

Epik adabiyot. Qadimgi Hindistonning eng katta epik dostonlari «Mahabxarata» bilan «*Ramayana*» **miloddan avvalgi I ming yillik oxiri - milodiy I asrda** shakllandi. «*Mahabxarata*»da pandaviylar bilan kauraviylar o'rtasida Kurukshetra maydonida 18 kun davom etgan jang haqida hikoya qilinadi.

«*Ramayana*»da yovuz jin - Ravana tomonidan Lanka oroliga zo'ravonlik bilan olib ketilgan shoh Ramaning sevgilisi Sitani qutqarish uchun Ramaning shu orolga yurishi to'g'risida so'zlanadi. Bir qator olimlarning fikricha, «*Ramayana*»da hind-oriylarning shimoldan uzoq Lanka (hozirgi Shri - Lanka)ga kirib borishi haqidagi tarixiy fakt ifodasini topgan. Ikkala doston ham yirik asar: «*Mahabxarata*» 100000 bayt (shlok), «*Ramayana*» esa, 24000 shlokdan iborat. «*Mahabxarata*» muallifi sifatida donishmand Vyasega nisbat berishadi. «*Ramayana*»ning muallifining nomini esa Valmike deb ataydilar. Ammo, olimlar bu ikki shoir hayoti haqida aniq ma'lumot keltirmaganlar. Ularning har ikkisi ham shu qadar ma'lum va mashhur bo'lganlarki, nomlari asrdan asrga saqlanib qolgan. Ikkala asar ham qadimgi Hindistonning o'ziga xos yodgorligi va qomusi hisblanadi. Ularda o'sha davr siyosiy, madaniy, ijtimoiy hayoti, davlat tuzumi, qadimgi hindlarning kundalik turmushi to'g'risida qiziqarli va diqqatga sazovor ma'lumotlar bor. Hindistonning hozirgi, shuningdek, qadimgi hududida bu asarlarga teng o'zga asar yo'q. Qadimgi davr Sharqiy va Janubiy Osiyo, Uzoq va YAqin Sharqda bu asarlarning ahamiyati beqiyos bo'lgan. Ular Yevropa tillariga ham tarjima qilingan. Ko'plab adabiyot, san'at

arboblarini shu asarlar mazmuniga hamohang yangi san'at asarlariga ilhomlantirgan. Hozir ham Hindistonda bu dostonlar sevib, ardoqlab o'qiladi.

«*Mahabxarata*»da hikoya qilingan urush taxminan **miloddan avvalgi 1100-yili** bo'lib o'tgan. So'nggi vedalar davrida Kerru qabilasi eng qudratli oriy qabilalaridan hisoblangan. Xastinapur va Indraprastxa esa tarixiy shaharlar. Kosala uzoq vaqt mobaynida qadimgi Hindistonning buyuk davlatlaridan biri bo'lib keldi. Olimlar fikricha, «*Ramayana*» syujeti ham tarixiy haqiqatga mos keladi. Nafaqat Hindistonda, balki umuman Sharqda bunchalar shuhrat qozongan doston mavjud emas. Bu asarlar Sharq va G'arb xalqlarida Betxoven, Hyeyne, Gandi hamda Tagor kabi arboblarni o'ziga maftun qilgan.

Ilmiy bilimlarning Veda matnlari asosida vedalar davridagi ilmiy paydo bo'lishi bilimlarning rivojlanishini kuzatish mumkin. Vedalarda matematika fanining rivojlanishi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shulpasutralar, ya'ni o'lcham qoidalari to'plami alohida qiziqish uyg'otadi. Shulpasutralarda turli shakllarning tuzilishi, hisoblash tizimlari haqida bayon qilingan. Tibbiyot yuksak darajada rivojlangan. Bu sohada hindlarning bilimi chuqur bo'lib, ular turli o'tlar, suv, maxsus malham va duolar yordamida ko'p kasalliklarni davolaganlar.

Ilk veda asarlarida aytilishicha, u vaqtlarda bxishaj nomi bilan atalgan tabiblar bo'lgan. «*Atxarvaveda*»da tibbiyot to'g'risida keng ma'lumot beriladi. Qadimgi hindlar kasallik sababini xudoning g'azabiga yo'yib, bemorning sog'ayib ketishini tangri rahmdilligi tufayli deb bilganlar. Qadimgi shifokorlar yurak, oshqozon, ko'z, teri va o'pka kasalliklarini tuzata olganlar. Matnlarda odamning 300 ga yaqin tana a'zolari nomi qayd etilgan.

Vedalar davri ahli astronomiyani yaxshi bilgan. Ular nafaqat Quyosh va Oy, balki sayyoralar va yulduzlarni ham batafsil o'rganishgan. Qadimgi hindlar taqvim (kalendar) lar tuzganlar. Ushbu taqvimga ko'ra yil 12 oy, bir oy esa 30 kundan iborat bo'lgan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Shimoliy Hindiston. **Miloddan avvalgi I ming yillik** o'rtalarida shimoliy Hindistonda temirchilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, shahar rivojlanishi, pul muomalasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot belgilaridan

hisoblangan. Qo‘shni xalqlar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kengayishi ijobiy o‘zgarishlar keltirib chiqargan. Chunonchi, dunyodagi uch yirik dindand biri - buddizmning rivoji o‘z davri madaniyati bilan chambarchas bog‘liq edi.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda dastlabki yirik davlatlar tashkil topdi va ular o‘rtasida ustunlikka ega bo‘lish uchun kurash kuchaydi. Manbalar ko‘plab urushlar, ya‘ni xalqlar, qabilalar, monarxiya to‘qnashuvlari hamda sulolalar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar haqida ma‘lumot beradi.

Ilk buddizm asarlariga ko‘ra¹, Budda davrida Shimoliy Hindistonda 16 ta maxajanapat - *«buyuk davlat»* mavjud bo‘lib, ular: Anga, Magadxa, Kashi, Koshala, Vaji, Mala, Chedi, Vamsa, Kuru, Panchali, Magxa, Shurasena, Ashmaka, Avanti, Gandxara, Kambodja davlatlaridir. Ba‘zi ma‘lumotlar mazkur ro‘yxat miloddan avvalgi VI asr o‘rtalariga emas, balki undan oldingi davrga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlaydi. Bu ro‘yxatda shimoliy Hindistondagi qudratli va yirik davlatlar nomi zikr qilingan. Qadimgi Hind olimi Paninining ta‘kidlashicha, asli bu raqam juda katta, ya‘ni 30 tadan ko‘proq bo‘lgan. ya‘ni davlatlar Puranlarda esa 175 ta Janapat - davlat nomi ko‘rsatilgan.

Ba‘zi Janapatlar asta-sekin o‘z hududini kengaytirib borgan, ba‘zilari esa yirik davlatlar tarkibiga kirgan. Manbalarda ularning hammasi mustaqil davlat deb aytilmaydi. Magadxa davlati shimoliy Hindiston siyosiy xaritasida markaziy mavqye egallagan. Bu nom ilk bor *«Atxarvaveda»da* uchraydi, shuningdek, ba‘zi keyingi davr qadimgi hind manbalari, chunonchi, *“Braxman”*, *“Araniyaka”*, epik doston, puran, shastri va boshqa hujjatlarda ham qayd etiladi.

Miloddan avvalgi 1 ming yillik o‘rtalarida to‘rt asr mobaynida davom etgan qadimgi Hindiston tarixining yangi davri - Magadxa mauriylar hukmronligi boshlandi. Mauriylar davrida Hindiston tarixida ilk bor yaxlit va yagona davlat vujudga keldi, madaniyat yuksaldi, yozuv keng tarqaldi. Bu paytda buddizm barqarorlashib, quloqch yoydi, vishnuizm va shivaizm dinlari yuzaga keldi.

¹ J. Basista, Soviet Influence on History Teaching and Textbooks in Poland, in “OAH Council of Chairs Newsletter”, 1997, 55, February, pp. 9-14.

Magadxa-mauriylar davrini o'rganishda epigrafik manbalar (mauriy shohi Ashoka farmonlari va yozma asarlar, masalan, shoh Chandragupta saroyidagi salavkiylar elchisi Megasfenning xotiralari) katta ahamiyat kasb etadi. Chandragupta maslahatchisi Kautiliya qalamiga oid «*Ardxashastra*» siyosiy asari ham mauriylar sulolasi davri va undan oldingi paytga mansub.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda qadimgi Magadxa davlati hozirgi janubiy Bixar hududida muhim jo'g'rofiy, strategik va savdo mavqeini egallagan. Daryolar kema qatnovi uchun qulay bo'lib, suvidan sug'orish ishlarida foydalanilgan. Mazkur davlat Hindistonning ko'p o'lkalari bilan savdo ishlarini yo'lga qo'ygan bo'lib, qazilma boyliklari, ayniqsa, metall ko'pligi bilan ajralib turgan. Qadimgi Rajagrixa (hozirgi Rajgir) ba'zida Giribaj (tog'li qal'a) nomi bilan atalib, uning atrofi tepaliklar bilan o'ralgan.

Bimbisaraning o'g'li Ajatashatru davrida (**miloddan avvalgi 493-461yillar**) Magadxaning siyosiy yutuqlari nikoh - qarindoshlik rishtalari bilan mustahkamlandi. U Koshala ustidan g'alaba qozondi. Buddaviy va jaynlr matnlaridan ma'lum bo'lishicha, shimol davlatlari bilan kurash uzoq davom etgan. Kurashlarning asosiy sababi daryo yo'lini nazorat qilish imkonini bergan Gang daryosi portining mavjudligidir. Ajatashatru lichchxavlarning bosqinidan saqlanish maqsadida Pataligamu qal'asini qurdirgan.

Shuningdek, ushbu sulola davrida Magadxa davlati o'z hukmdorligini G'arbiy Hindistonga ham yoydi. Udayin (**miloddan avvalgi 461-445 yillar**) Magadxa tarixida ilk marotaba poytaxtni Rajagrixadan Pataliputraga ko'chirdi. Shahar tez orada shimoliy Hindistonning yirik markaziga aylandi. Poytaxtning Pataliputraga ko'chishi Magadxa va uning istilochilik siyosati kuchayganidan dalolat beradi. Bimbisara asos solgan Xaryanka sulolasi **miloddan avvalgi 437-411**, Shishunaga sulolasi **miloddan avvalgi 413-345 yillarda** hukmronlik qilgan bo'lsa, Nandalar sulolasi **miloddan avvalgi 345-317/314 yillarda** taxtga o'tirdi.

Kir Kanishkani vayron qilib, Hind daryosi va Kofen (Qobul) orasidagi viloyatlarni ham bo'ysundirgan. Yunon tarixchisi Arianning «*Indika*¹» asarida Hind daryosi g'arbida yashovchi hind qabilalari

¹ Ferro M., The Use and Abuse of History, or how the past is taught to children, London - New York 2003.

«*Eronga qaram bo'lgan va boj to'lagan*» deyiladi. Ksenofontning «*Kironediye*» asarida Kir Baqtriya va hindlar hududini bosib olganligi aytiladi. Chamasi fors shohi Gandxaraning bir qismini ham egallagan. Bu o'lkalarda Ahamoniylar Eronining madaniy va siyosiy ta'siri sezilarli bo'lgan. Oriylar tili Ahamoniylarning rasmiy ishlarida qo'llanib, bu hududda keyingi davrlarda ham istifoda etilgan.

Yunon tarixchisi Gerodotning guvohlik berishicha, Gandxara Eron imperiyasining yettinchi satrapiyasiga kirgan. Hind vodiysi esa yigirmanchi satrapiyani tashkil qilgan. U Ahamoniylar davlatida eng ko'p daromad keltiradigan viloyat hisoblangan. Gerodot Eronga har yili boj sifatida 360 talant (taxminan 9 tonna qum aralash yuvilmagan oltin) to'langanini qayd etadi. Mahalliy qo'shinlardan tashkil topgan **Kserks** qo'shini Iskandarning Hindistonga yurishidan avval ham mashhur bo'lgan. Viloyatning asosiy savdo markazi Pushkaravati hozirgi Charasa o'rnida joylashgan. Hind-yunon davriga oid tanganing bir tomonida hind tuyasi, ikkinchi tomonida esa qo'lida nilufar tutgan ona ma'buda Ambi tasvirlangan. **Takshashila (Taksila)**da topilgan tangalarni o'rganish natijasida olimlar Magadxa miloddan avvalgi V asrning oxiridan boshlab Uttarapatxa, ya'ni «Markaziy mamlakat»ga olib boriladigan savdo-sotiq yo'lini to'liq nazorat qilganligini aniqladilar.

Miloddan avvalgi 327-yilda makedoniyalik Iskandar Panjobga kirib keladi. Bu yurishdan so'ng yunonlarning Hindiston haqidagi tasavvurlari o'zgaradi. Avvallari yunonlar Hindistonni afsonaviy mamlakat, fillar kabi qo'lga o'rgatish mumkin bo'lgan noyob jonivorlar, daraxtlarida jun tolalar o'sadigan, shakar va bambuk esa bahaybat daraxtlardan terib olinadigan o'lka ko'rinishida tasavvur qilishar edi. Bu o'lkada kam mehnat evaziga, yiliga 2-3 marta hosil olinishi yunonlarni lol qoldirardi. Chunki ular yurtida yiliga faqat bir marta hosil olinardi. Makedoniyalik Iskandar G'arb va Sharq hukmdorlarini yengib, Elladadan to Hind daryosiga qadar hududlarni egallagan ulkan imperiya yaratdi.

Iskandar Hindistonni buyuk g'alabalari tufayli shon-shuhratga burkangan davrda bosib oldi. Kuchli va yaxshi qurollangan qo'shini

History of the Communist Party of the Soviet Union (Bolsheviks), Short Course, 1939, URL <http://www.marx2mao.com/Other/HCPUSU39NB.html>, accessed on 23 March 2011.

unga muvaffaqiyat va yutuqlar keltirdi. Erondagi yengil g'alaba va Hind daryosi ortining afsonaviy boyliklari buyuk sarkardaning diqqat-etiborini jalb etdi. O'ttiz kunlik qamaldan so'ng, u Charasaddani ishg'ol qildi. Arrian ma'lumotlariga ko'ra, yunon-makedon qo'shinining Hind va Gidasp orasidagi Taksila shahri hokimi makedoniyaliklarni qulay manzil va mo'l-ko'l oziq ovqat bilan ta'minlab, kuchli qo'shni dushman davlatlarga qarshi yunonlar bilan birga qo'shib jang qilish istagini bildirdi.

Arrian malumotlariga ko'ra, bazi qabilalar kuchli qurollangan edilar. Ularda 30000 gacha piyoda, 2000 gacha suvoriy, 30 tagacha fillar bo'lgan. Por¹ nomi bilan ma'lum bo'lgan Po'rular shohi o'zining kuchli qo'shini bilan yunonlarga qarshi chiqdi.

Miloddan avvalgi 326 yili iyul oyida Gidasp daryosi qirg'og'ida bo'lgan jang Iskandarnning Hindiston yurishi tarixida o'chmas iz qoldirdi. Hind shohlari qo'shini nafaqat miqdor, balki mahorat bobida ham ajralib turardi. Arrianning ma'lumot berishicha, hal qiluvchi jangda 4000 suvoriy, 300 harbiy arava, 200 fil, 30000 ming piyoda qo'shin qatnashgan. Iskandar hiyla yo'li bilan birinchi hamladayoq Po'ruarning harbiy aravalarini tor-mor qildi. Porning asosiy kuchlari bilan jang kun bo'yi davom etdi va oqibatda Po'ruarning deyarli butun harbiy qo'shini qirib tashlandi. Po'rular shohining jasorati Iskandarni hayratga soldi va u hukmdor jonini saqlab, hokimiyatini ham uning ixtiyorida qoldirdi.

Yunon-makedon qo'shinlarining ayrim qismlari bir necha yilgacha Hindistonda qolib ketdi. Ba'zi viloyatlarda ularning hukmronligi oz muddat davom etdi. **Miloddan avvalgi 317-yilda** Iskandarning noiblaridan Evmen boshchiligidagi qo'shin Hindiston hududini tark etdi. Hind tarixiy manbalariga qaraganda, Nandalar kshatriylarni tugatib, taxt tepasiga kelgan shudralar avlodidan hisoblanadi. Nandalar sulolasiga Maxapadma asos solgan. Brahman manbalar bo'lmish puronlarda Nandalar yomon fazilatli va pastkash deb ta'riflanadi. Bu ta'rif antik mualliflar asarlarida ham saqlanib qolgan. Tarixchi Plutarx so'ziga binoan o'sha davrda Pataliputra

¹ The Cantino Planisphere,
http://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/0/07/Cantino_Planisphere.png,
accessed 29 March 2011.

taxtida «*zoti past hukmdor*» o'tirgan. Jayn asarlarida aytilishicha, Nandalarning ko'pchiligi jaynizm diniga e'tiqod qilganlar.

Bindusara va Chandragupta hukmronligi.
Mauriylar imperiyasining Bir qancha olimlar buddizm manbalari va tashkil topishi. hind an'analarini o'rganib chiqib, Chandragupta Magadxa kshatriylari sulolalaridan biri - mauriylarga mansub degan xulosaga keldilar.

Shoh yoshligida ustoz va maslahatchisi Kautilya (boshqa manbalarda Chanakya) bilan uchrashgan. Magatxa taxtini o'z qo'lga olish rejasini Taksilada tuzganligi haqida qaydlar mavjud. Qadimgi manbalarda ko'rsatilishicha, Chanakya Taksila brahmanining o'g'li bo'lgan.

Shri-Lanka yilnomasi orqali Chandragupta tahsil olishni tugallab, Chanakya bilan birga qo'shin to'plaganini bizga ma'lum. Ular turli tumanlardan askar yollab, qisqa vaqt ichida katta qo'shin to'plaganlar. Hind manbalarida aytilishicha, Chandraguptaning taxtni egallash niyati amalga oshgach, u shoh Por bilan ittifoq tuzadi. Chandragupta va Por birgalikdagi g'alabadan so'ng imperiyani bo'lib olishga kelishganliklari haqida ma'lumotlar saqlangan. U davrda Hindistonda Iskandar qo'shini kuchli mavqiyega ega bo'lgani sababli yunon-makedoniyaliklarga qarshi kurashish amri mahol bo'lgan. Vaziyat qisqa fursatda o'zgarib, Iskandar o'z qo'shini bilan mamlakat hududini butkul tark etadi. Istilo qilingan yerlar esa satraplar hamda hind hukmdorlari o'rtasida taqsimlanadi.

Keyingi voqyealar keskin tus oladi. Makedoniyaliklarga qarshi kurash, satraplarning o'zaro to'qnashuvlari, **Filippning** o'ldirilishi, ularning vaqtincha Evdem va Ambxi hukmiga berilishi, va nihoyat, Iskandarning vafoti siyosiy maydonda o'z aksini topadi. Panjobdagi vaziyat qo'shini tobora kuchayib borayotgan **Chandraguptaga** qo'l keladi. **Miloddan avvalgi 317 yilda** Evdem Porni sirli ravishda o'ldiradi va uning jangovar fillarini olib, Hindistonni tark etadi.

Porning o'limi bilan Hindiston qudratli hukmdordan judo bo'ladi. Qotillik **Chandraguptaning** ishtirokisiz yoki xohishsiz amalga oshmaganligi ayon. Asosiy e'tibor endi bir qancha davlatlar ittifoqiga tayangan holda, Magadxa taxtini egallashga qaratilgan edi. Hindistonda yunonlarga qarshi kurash, asosan, Iskandar o'limidan keyin boshlandi.

Chandragupta miloddan avvalgi **317** yildan keyin toju taxtga ega bo'ldi. Yustin, **Strabon**, **Plutarx** va boshqa yunon mualliflarining asarlarida **Chandraguptaning** Makedoniyalik Iskandar lashkarboshisi **Selevk** bilan o'zaro aloqalari haqida aytiladi. Ularning o'zaro to'qnashuvlaridan so'ng tinchlik o'rnatish maqsadida **Selevk Chandragupta** saroyiga elchi Megasfenni yo'llaydi. Ikki o'rtada tuzilgan sulhga binoan **Chandragupta Selevkka 500** jangovar fil taqdim etgan. Mauriylar ixtiyoriga esa **Paropamisada**, **Araxosiya** va **Gedrosiya** (hozirgi Pokiston va Eron hududida) o'tadi. Bu voqeya Megasfenning «*Indika*» asarida o'z aksini topgan. Bizga bu asarning ayrim parchalarigina yetib kelgan. Antik mualliflardan **Diodor Chandraguptani** «yunonlarni hurmat qilgan hukmdor» deb tasvirlaydi. **Chandragupta** davlatining poytaxti Pataliputra bo'lgan. Uni antik mualliflar katta, go'zal va hashamatli shahar deb tasvirlaydilar.

Chandragupta Hindistonning eng mashhur shohlaridan bo'lib, turli afsonalar, rivoyatlar turkumi uning nomi bilan bog'liq. **Chandragupta** taxtni taxminan 24 yil (**miloddan avvalgi 317-293**) boshqargan. So'ng taxtga uning o'g'li **Bindusara** o'tiradi. Qadimiy rivoyatlarda u «*o'z dushmanlariga qiron keltiruvchi*¹» nomini olib, **miloddan avvalgi 293-268** yillarda hukmronlik qilgan. Shu bilan birgalikda **Bindusaraning** Janubiy Hindiston xalqlari bilan aloqalari haqida mavjud ma'lumotlar ham ahamiyatga ega. Bindusara 16 poytaxt - shaharni egallab, davlati hududini «*Sharqiy okeandan G'arbiy okeanga*» qadar yoydi. Yunon va Rim mualliflari Mauriy shohining Misr va Selevk imperiyalari bilan o'rnatgan diplomatik munosabatlari haqida ma'lumotlar qoldirganlar. **Strabon** Mauriy elchilari haqida yozib qoldirgan. Pliniy elchi yo'llagan Misr shohining ismini **Filadef** deb ataydi. Bindusara hududiga **Megasfendan** so'ng elchi **Dionis** yuborilgan. Antik davri tarixchilaridan Hindistonning bu hukmdori G'arb bilan aloqani kuchaytirib, **Chandragupta** siyosatini davom ettirgani ma'lum.

¹ Ferro M., The Use and Abuse of History, or how the past is taught to children, London - New York 2003.

History of the Communist Party of the Soviet Union (Bolsheviks), Short Course, 1939, URL <http://www.marx2mao.com/Other/HCPSU39NB.html>, accessed on 23 March 2011.

Yunon tarixchilaridan **Afiniy** Selevk shohi **Antiox** bilan **Bindusaraning** bir-biriga maktub yoʻllaganini qayd etadi. Hind shohi **Antioxdan** oʻz saroyiga shirin musallas, quritilgan xurmo va shu bilan birga faylasuf yuborishini iltimos qiladi. Antiox xatga javoban xurmo bilan musallas yuborishimiz mumkin, ammo bizda faylasuflar sotilmaydi, deb yozadi. Turli manbalarda Bindusara davlatida braxman diniga eʼtiqod qilinganligi taʼkidlangan. **Bindusara** vafotidan soʻng uning oʻgʻillari orasida taxt uchun kurash boshlanib, pirovardida Pataliputra taxtini Ashoka egallaydi.

Ashoka imperiyasi. Ashoka davrida mauriylar sulolasi buyuk qudratga ega boʻldi. Maʼlumotlarga koʻra, Ashoka hokimiyat uchun uzoq vaqt kurash olib borgan. Shu sababli u toj kiyish marosimini hokimiyatni qoʻlga olganidan 4 yil keyin oʻtkazgan. Mauriylar imperiyasi qadimgi Hindistonning mashhur davlat arboblardan biri, sulolaning uchinchi hukmdori Ashoka davrida gullab yashnadi. Uning davrida imperiya hududi shimolda Kashmir va Himolay, janubda Maysurgacha, shimoliy-gʻarbda hozirgi Afgʻonistondan Sharqda Bengal koʻrfazigacha yoyilgan edi. Imperiya Gʻarb va Sharq mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar oʻrnatdi. Bu davlat oʻsha davrning yirik imperiyasiga aylanib, shon-shuhrati olamga yoyildi. Mamlakatda budda dini ham rivoj topdi.

Bizgacha yetib kelgan Ashoka farmonlarida mauriylar siyosati, imperiyani boshqarish usullari va oʻsha davr tarixi haqida muhim maʼlumotlar bor. Farmonlarda mauriy shohi «Piyadasi Devanampiya» deb ataladi. Bu nom sanskritcha «Xudoga maqbul hukmdor» maʼnosini bildiradi. Piyadasi Ashokaning shaxsiy ismi boʻlganligi ehtimoli ham mavjud. Ashoka ismi esa «gʻamdan xoli» degan maʼnosini bildirib, Kosambi oʻz monografiyasida Ashoka yoki Asoka nomini «gʻam bilmas» deb tarjima qiladi.

Shri-Lanka yilnomalariga koʻra Ashoka 37 yil, Purana maʼlumotlariga koʻra 36 yil davomida hukmdorlik qilgan. Uning davrida Bengal koʻrfazining janubiy sohilidagi Kalinga davlati bilan boʻlgan urush eng katta hodisa boʻlgan. Shoh bu toʻgʻrida quyidagilarni oʻn uch qoyaga oʻydirib yozdirgan: **«Sakkiz yil ichida shoh Piyadasi tomonidan Kalinga bosib olindi. 150 ming kishi asir olindi. 100 ming odam qatl etildi. Bundan ham koʻprogʻi urushda halok boʻldi»**. Kalinga qoʻlga kiritilishi bilan mauriylar imperiyasi

yanada qudratli bo'ldi. Bu hudud nafaqat strategik jihatdan, balki savdo-sotiq nuqtai nazaridan ham qulay edi. Kalinga urushidan so'ng Ashoka faol tashqi siyosat yuritdi. Katta qudratga ega Ashoka ba'zan harbiy kuch, ba'zan siyosiy usullar bilan g'alabaga erishgan. Zabt etilgan yurtlarga maxsus elchilar yo'llab, mahalliy hukmdorlarga ulkan va'dalar bergan. Rus olimi **G.M.Bongard-Levin** uzoq izlanishlardan so'ng Ashokaning budda dini va dharmaning keng yoyilishiga e'tibor berganini aniqladi. Yuqorida aytilganidek, u ko'p davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Jumladan, Selevk shohi Antiox, Misr hukmdori **Ptolemey**, Makedoniya shohi **Antigon Tonat**, Kirena shohi **Mak** va Epir shohi Iskandar huzuriga o'z elchilarini yo'llagan. **Ashoka Seylon** bilan ham yaqin munosabat o'rnatgan¹. U o'z o'g'li boshchiligidagi elchilarni Seylonga budda dinini yoyish maqsadida jo'natganida, Seylon shohi unga taqlidan **Devanampiya** nomini oladi. U ham Magadxaga o'z elchilarini yuborgan.

Mauriylar davrida shoh hokimiyati. Mauriylar davrida monarxiya kuchaydi. Qabilalar boshqaruvi yoki respublika tizimining roli asta sekin tushib bordi. Mazkur jarayon Ashoka farmonlarida va «Artxashastra»²da aytilgani kabi, davlatchilikning asosiy shiori «Davlat bu shohdir» ma'nosini anglatadi. Vorislik qoidasiga qat'iyon rioya qilinar, shoh hayotligidayoq o'g'illaridan biri, odatda to'ng'ich o'g'lini taxt vorisi etib tayinlardi. Ammo ko'pincha shahzodalar o'zaro qizg'in kurashdan so'ng taxtga erishardilar. Taxtga chiqish uchun maxsus marosim - *abxisheka* o'tkazilgan. Mauriylar hokimiyati davrida Himolaydan Janubiy dengizlargacha yoyilgan hududning yagona hokimi - **Chakravartin** - ya'ni «*hokimiyat g'ildiragini aylantiruvchi*» tushunchasi shakllandi. Bu to'g'rida «*Artxashastra*»da mufassal aytib o'tilgan. Binobarin, mazkur jarayon ulkan imperiyaning barpo bo'lishi bilan bog'liq hind davlatchiligi tarixidagi yangi davrni ifoda etadi. Ashoka bitiklariga ko'ra, mauriy shohi davlat tepasida turib, qonun chiqarish huquqiga ega bo'lgan. U yirik davlat

¹ Romek Z., Cenzura a nauki historyczne w Polsce 1944-1970 [Censorship and Historical Science in Poland 1944-1970], Warsaw 2010.

² World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

arboblarini o'zi tayinlagan. U xazinabon hamda oliy sud boshqaruvchisi bo'lgan.

Parishad va sabha. Davlatni boshqarishda shoh a'yonlari kengashi - parishad katta rol o'ynagan. «*Artxashastra*»da mazkur kengash - mantriparishad (shoh vazirlari mantrinlar majlisi) deb atalgan. Kengash barcha buyruqlarni bajarish va tizimni tekshirish bilan shug'ullangan. Parishaddan tashqari bir necha ishonchli shaxsdan iborat tor doiradagi maxfiy kengash mavjud edi. Parishad tarkibi davlat ehtiyojidan kelib chiqib tayinlangan. Ashoka davrida parishad dharm qonun-qoidalari bajarilishini nazorat qilgan va mamlakat o'lkalarini boshqarish usullari bilan tanish amaldorlar vazifalarini belgilagan. Parishadda qizg'in tortishuvlar bo'lib turar, goho hukmdor va parishad a'zolari o'rtasida ham kelishmovchiliklar chiqardi. Ayniqsa, Ashoka davrida bunday qarama-qarshiliklar keskin tus oldi.

Sabha muhim siyosiy vazifalarni ado etar, Mauriylar davrida uning tarkibi ham ancha qisqardi. Parishadga nisbatan roja sabha ko'proq vakolatga ega bo'lib, uning hay'atiga shahar va qishloq aholisining ayrim vakillari kirar edi. Podsho ko'pincha ko'mak istab roja sabhaga murojaat qilardi. Ashokaning roja sabha a'zolari oldida ma'ruza qilgani ma'lum. Sabha Chandragupta davrida ham mavjud bo'lgan.

Soliqlar. Shohning muhim vazifalaridan biri soliq yig'ishni tashkil etishdan iborat bo'lgan. Kuchli hokimiyat asosini xazina tashkil qiladi. Shu sababli hukmdor hamisha xazina to'lishidan manfaatdor bo'lgan. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining 1/6 qismiga teng bo'lgan shoh ulushi - bxaga soliqning asosiy turi edi. Shohni hatto shadbxagin, ya'ni "oltidan bir qismini oluvchi" deb ham ataganlar. Hosil yaxshi bo'lgan mavsumlarda bxaga 1/4 va 1/3 hajmiga qadar ham olingan. Taqchilik vaqtida bu ulush yanada ortishi va shoh ehrom boyliklarini ham o'zlashtirishi mumkin edi. Soliqlarning asosiy qismi hukmdor xazinasiga kelib tushgan va ularning katta qismini dehqonlar - katta yerga ega bo'lmagan erkin jamoa a'zolari to'lardilar. Bundan tashqari savdogar, kosib va chorvadorlardan ham soliq olingan. Aholining ayrim qatlamlari soliqdan ozod qilingan.

Shahar boshqarmasi. Mauriylar davrida o'z-o'zini boshqarishning ayrim xususiyatlari shaharlarda ham saqlanib qolgan. Ashoka

yozuvlarida ichki, ya'ni vijita ichkarisi va tashqi shaharlar haqida soʻz boradi. Imperiya poytaxti - Pataliputra edi. Megafen oʻz asarida maxsus shahar amaldorlari - astinomlar haqida yozib qoldirgan. Mazkur amaldorlar shahar hayotining ma'lum sohalari ustidan nazorat qilganlar. Shahar kengashi amalda shahar bosh tashkiloti hisoblanardi. Uning a'zolari markaz yoki viloyat amaldorlari tomonidan tayinlangan.

Ashokaning diniy siyosati. **Mauriylar** davrida Budda dini Hindistonda keng tarqaldi. **Miloddan avvalgi III asrda** buddizm qadim hind jamiyati ma'naviyatida asosiy yoʻnalish boʻlib qoldi. Bu vaqtda budda jamoasi - Sangxa mavjud boʻlib, bu dinga oid muhim asarlar yaratildi. Aynan shu davrda buddaviylik keng tarqalib, taraqqiy etdi. Budda dini kuchli davlat tepasidagi yakka hokim - **Chakravartin** gʻoyasi bilan birlashgan imperiya tayanchi boʻlib qoldi.

Ashokaning dxarma - axloq-odobga oid farmonlari. Dxarma - axloq-odob qoidalari, insoniy hayot tarzidir. Shuningdek, bu soʻz umumiy budda ta'limotini ham anglatadi. Axloqiy qoidalar ota-onaga itoat, kattalarga hurmat, saxiylik, jonivorlarga ozor bermaslik kabilardir. Bunday qoidalar barcha uchun barobar. Ba'zi olimlar fikriga koʻra bu qoidalar dxarmadan kelib chiqqan. Toʻgʻri, dxarma podsho farmonlari uchun asos vazifasini oʻtagan va unga hurmat bilan boqqanlarga podsho marhamat koʻrsatgan.

Ashoka farmonlarida keltirilgan dxarma turli varna va ijtimoiy guruhlardan iborat aholi uchun umumiy qoida boʻlgan. Shunisi e'tiborliki, amaldorlar budda brahmanlarining faoliyatini nazorat qilgan, bu esa ularning haddidan oshib ketmasliklarini ta'min etardi.

Magadxa - mauriylar davrida Janubiy Hindiston. **Ashoka** farmonlarida imperiya chegaralari boʻylab joylashgan Janubiy Hindiston davlatlari - Panda, Chola, Chera, Satyaputra va Keralaputralar sanab oʻtiladi. **Megafening**¹ ilk asarlarida ham Panda davlati nomi mavjud (**miloddan avvalgi IV asr oxiri**). Janubiy Hindiston va Shri-Lanka haqidagi ma'lumotlar **Iskandar** yurishi qatnashchilari boʻlmish tarixchilar qalamiga mansub. Ulardan biri - **Onisikrit** yozuvlarida Shri-Lanka oroliga sayohati haqida hikoya

¹ Romek Z., Cenzura a nauki historyczne w Polsce 1944-1970 [Censorship and Historical Science in Poland 1944-1970], Warsaw 2010.

qilinadi. Janubiy viloyatlar Mauriylar imperiyasiga qoʻshilganidan keyingina Shimoliy Hindiston bilan madaniy aloqalar oʻrnatildi. Buddizm janubga tomon tarqala boshladi. Dekan viloyatidan topilgan **II-III asr** yozuvlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Mazkur yozuvlarda bhoji, andhra, pulindi kabi Ashoka davri xalqlari nomi zikr etib oʻtilgan.

Mauriylardan keyin Dekanda kuchli Satavaxanlar davlat¹i nom qozondi. Puranada Satavaxanlar andhralar nomi bilan atalgan. Andhra xalqi Gvadari va Krishna daryolari oʻrtasidagi telegular mamlakatida yashagan. Satavaxanlar haqida ma'lumot berilgan dastlabki manbalar Markaziy Hindiston va Shimoliy Dekandan topilgan. Sulola asoschisi Simuka (Puranada Shimuka), Satavaxanlar tarixining avvalgi davridagi koʻzga koʻringan hukmdori shoh Satakani yoki Shatakarni boʻlgan. Uning hukmronligida davlat hududi kengaytirilib, shoh «*Janubiy mamlakat sohibi*» nomiga sazovor boʻlgan.

Mauriylar davrida Hindistonning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy tuzumi. Bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum ravnaq topib, keyinchalik yanada rivojlandi. Kautilyaning «*Arxashastra*» asari dehqonchilik, chorvachilik, savdogarlikka oid mulohazalardan iborat.

Hindistonda temir azaldan ma'lum boʻlgan. Taksila, Ujayan shaharlardan topilgan metall buyumlar mazkur davrda temirchilik yaxshi rivojlanganidan dalolat beradi. Temirning **miloddan avvalgi I ming yillikda** ma'lum boʻlgani haqida antik mualliflar ham ma'lumot beradilar. Masalan, Kursiy Ruf: Shoh Iskandar Taksila (**miloddan avvalgi 326 yilda**) ustidan gʻalaba qozongan Pordan ancha miqdorda poʻlat oldi, deb hikoya qiladi. Iskandar bu tuhfani qadrlagan. Bundan oʻsha davr Hindiston poʻlati sifatining qay darajada ekanligini bilish mumkin. Temir Shimoliy Hindistondan asta-sekin janubiy viloyatlarga ham tarqala borgan.

Megasfenga koʻra, hindlarning asosiy taomi guruch boʻlib, «*Jataka*»da Magadxa yerlarida guruch koʻp ekilgani aytiladi. Bundan tashqari, ular turli sabzavot iste'mol qilganlar. Dehqonchilikning asosiy quroli omoch boʻlib, Panini u bilan yer ikki-uch marotaba haydalganligi haqida soʻzlaydi. «*Arxashastra*»da qayd etilishicha, qoramol oʻldirgan yoki oʻgʻirlagan kishi oʻlimga mahkum etilgan. Ot

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

va fillar shohning mulki bo'lib, boshqa hech kimga ularni boqishga ruxsat berilmagan.

Shaharlarning o'sishi, hunarmandchilik. Bu davrda hunarmandchilik markazlashib, savdo-sotiq ancha rivojlandi. Mazkur jarayon, dastavval, Gang vodiysidan boshlandi. O'sha davr hind me'morlari bunyod etgan qator shaharlar hozirga qadar saqlangan. Shuni aytish kerakki, yuzlab yillar davomida davlat to'ntarilishlari va urushlarga boy bo'lgan bu zaminda shaharlar nomlari o'zgarib turgan. Masalan, Pataliputra, Taksila, Matxura, Banoras, Radjagrixa kabi shaharlar ilgari boshqa nom bilan atalgan.

Arxeologik qazilmalar **miloddan avvalgi VI-III asrlarda** Shrivasti, Champa, Radjagrixa, Kaushambi, Kushinagar, Varonasi shaharlari ulkan mavqyega ega bo'lganidan dalolat beradi. Manbalarda bu shaharlar qiyofasi, boshqaruv tizimi haqida ma'lumotlar bor. Ularning ko'pchiligi oldindan belgilangan reja asosida qurilgan «Arxashastra»da binolar qurilishiga alohida e'tibor berilgan.

Qadimgi shaharlarning aholisi ko'p bo'lgan. Ilk buddaviy asarlarda Champadan tortib to Baxaruchakxigacha - oltmishdan ortiq shahar borligi tilga olingan. Magadxa - mauriylar davrida hunarmandchilik va savdo markazi bo'lgan shaharlar yanada rivojlandi. Arxeologik materiallarga ko'ra, **miloddan avvalgi VI-III asrlarda shaharlar** turli shakllarda barpo etildi.

Poytaxtning 570 ta minorasi va oltmishdan ortiq darvozasi bo'lgan. Shahar asosan yog'ochdan bunyod etilib, ba'zan tosh ham ishlatilgan. Ashoka buyrug'i bilan saroydagi yog'ochlarga maxsus ishlov berilgan. Arxeologlarning fikricha, yuzta ustunli katta zalda Ashoka majlislar o'tkazgan. Saroyni topgan mashhur arxeolog **D.Spunerning** yozishicha, saroy shu qadar yaxshi saqlanganki, bunga aql bovar qilmaydi. Zal ustunlari 2000 yil avvalgi ko'rinishini hamon yo'qotmagan. Mauriylardan keyin qariyb 600 yil o'tgach Hindistonga safar qilgan xitoylik sayyoh **Fa Syan** saroy mahobatidan hayratga tushib, u «*ilohiy kuch tomonidan bunyod etilgan*», deb yozadi.

Miloddan avvalgi IV asrga kelib, Pataliputra Gang vodiysida savdo markazi sifatida jiddiy mavqye egallaydi. Manbalarda shahar manzilgohlari pura, nigama va durga deb nomlangan. Katta shaharlar esa alohida guruhga ajratilib, nagar nomini olgan. Shaharlarda

hunarmandchilik, ayniqsa, zargarlik, temirga ishlov berish va to'quvchilik yaxshi rivoj topgan. Ayniqsa, Varanasi, Matxura, Ujayanda tayyorlangan ip-gazlamalar qadrlangan. Gandxara o'zining jun matolari bilan mashhur bo'lib, gazlamalar Barigazi shahri orqali G'arbgga olib ketilgan.

Savdogarlar ham o'z tashkilotlariga ega bo'lib, har bir viloyat muayyan tovar sotishga ixtisoslashgan. Mauriylar davrida aloqalar, asosan, yo'llarning ochilishi tufayli kengayib bordi. Ayniqsa, shimoliy va janubiy savdo yo'llari mashhur edi. Quruqlikdagi savdo va dengiz savdosi ham yaxshi rivoj topdi. Manbalarda yozilishicha, hind savdogarlari yarim yillab davom etgan xatarli dengiz safarlariga chiqqanlar. Ikki asosiy savdo yo'li Sharqiy Hindistonni shimoliy-Sharq, Taksila bilan bog'lovchi shimoliy Uttarapatxa va Godavari bo'yidagi Pratixtaxanani Magadxaning eski poytaxti Radjagrix bilan bog'lagan Janubiy Dakshinatxa hisoblangan. Birinchi katta qatnov yo'li O'rta yer dengizi, Markaziy Osiyo, Xitoy savdo yo'llari kesishgan Baqtriyadan o'tgan. Savdo yo'llari Varanasidan Ujayani, Videxu, Shrivasti, Taksila, Kapilavasta, Kushinagar, Matxura, Mitxiluga, Radjagrixadan Shrivasti, Pushkalavatiga, Shrivastidan Kaushambi va Pratishtaxaniga, Saketidan Pataliputraga olib borardi. Daryo savdo yo'llari orasida Gang va Jamna bo'ylab o'tgan yo'l katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Miloddan avvalgi IV-I asrlardayoq qadimiy hindlar uzoq mamlakatlarga safarlar uyushtirganlar. Hind savdogarlari Shri-Lanka, Birma (Myanma), Bobil, Janubiy Arabiston, Afrikaning janubiy qirg'oqlariga qatnar edilar. Bu davrda kemasozlik ham taraqqiy etdi. *«Artxashastra»*da kemasozlikka oid ko'plab ma'lumotlar mavjud. Ularga ko'ra, shoh kemalari bilan birga xususiy kemalar ham bo'lgan. Hindlar chet mamlakatlarga ot, oltin, margimush, surma, oyna, turli qimmatbaho toshlar olib borishgan. Panini asarlaridagi mahsulotlar ro'yxati mol ayirboshlanadigan mollar qatoriga hunarmandchilik va qishloq xo'jalik mahsulotlari, keng iste'mol buyumlari va zebziynatlar ham kirganini ko'rsatadi.

Xuddi shu davrda pul paydo bo'ladi. Dastavval pullar temirdan zarb etilib, ularga zarb etilgan vaqti va yozuvlar tushirilgan. **Miloddan avvalgi V-IV asrlarda** tamg'ali mis va kumush tangalar paydo bo'ldi. Ahmoniylar imperiyasi davrida fors siglisi, shimoliy-

g'arbda esa tetradraxmalar ishlatilardi. Manbalarda turli tanga nomlari keltirilib, ular karshapani - kumush, mis, suvarna - oltindan va h.k. zarb etilgan.

Yer mulki. **Miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmida** yerga xususiy mulkchilik rivoj topdi. Sutra va shastrilarda sotib olish, meros huquqi bilan molga ega bo'lish kabilar bayon etilgan. Shaxs faqat qonun bilan tasdiqlanganidan keyingina yerga egalik qilishi mumkin bo'lgan. Mamlakat yerlari bir necha tur: shohga qarashli yerlar, jamoa va xususiy yerlarga bo'lingan. Xususiy yer egalari orasida badavlatlari ham, qashshoq, muhtojlari ham bo'lgan. Katta yer egalari yerining hududi 1000 karisgacha (1 karis - 0.25ga) tashkil etgan. Bunday katta xo'jaliklarda yuzlab omoch, qullar va yollanma ishchilar ishlatilgan. Kichik xo'jaliklar o'z oilalari bilan dehqonchilik qilganlar. Yer egasi huquqlari muhofaza qilingan. Boshqalar yerini o'zlashtirib olgan shaxslarga jazo belgilangan. **«Monu qonunlari»**da birovning yeriga ekin ekkan odam hosilga egalik qilolmaydi deb aytilgan. Yer faqat uning egasiga qarashli bo'lgan va undan olingan mahsulotlarning mutlaq egasi hisoblangan. Shoh hamisha xususiy yer egalariга soliq solar va yer hajmini nazorat qilib borgan. Hosil yig'im-terimi vaqtida yerini tashlab ketgan yer egasiga jarima solingan. Davlatga soliq to'lamagan kishiga ham jarima solinar, ammo yeri tortib olinmasdi. Jamoa ham davlat kabi xususiy yer egalariğini muhofaza qilgan. Shu sababdan yerni jamoa a'zosi bo'lmaganlarga sotishga ruxsat berilmasdi.

Qulchilik va uning xususiyatlari. Vedalar davriga nisbatan mauriylar davrida qulchilik ancha rivojlandi. Ilk buddaviy asarlarda ko'rsatilishicha, tobe bo'lgan kishi qul deb atalgan. Qul kishi o'z egasiga qaram bo'lar va hech qayerga ketolmasdi. Qullarga buyum, hatto hayvon kabi muomala qilingan. **“Dxarmasutra”da** qullar ham meros sifatida qolishi haqida aytiladi. Aholining turli toifalari qullik asoratiga tushgan. Qullarni sotish, garovga qo'yish, qimorga tikish mumkin edi. Ularga sog'lig'i va malakasiga qarab narx qo'yilgan. Qadimgi manbalarda aytilishicha, qullar 3 turga bo'lingan: tutqunlikda qul bo'lib tug'ilganlar, sotib olingan, o'zga yurtlardan keltirilgan (urushda asirga olingan) qullar.

Magadxa-mauriylar davrida tabaqa - kasta tuzumi muhim tuzumlardan biri bo'lib, bu davrda brahmanlar o'z nufuzlarini saqlab

qoldilar. Ayniqsa diniy marosimlarda ular muhim o‘rin tutib, shoh maslahatchisi sifatida ajrimlarda ishtirok etar, shu bilan birga, katta mol-mulkka ega edilar. Jamiyatdagi yangi tabaqalanish tufayli braxmanlar faoliyatlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ldilar. Ular dehqon, savdogar, hatto xizmatchi sifatida kun kechirishlariga to‘g‘ri kelgan. Siyosiy hokimiyat kshatriylar qo‘lida bo‘lib, Magadxa-mauriylar davrida ularning nufuzi yanada oshib, katta yerlarga ega bo‘ldilar.

Mauriylar davrida «*gana*» va «*sangxa*» deb nomlangan birlashmalar katta rol o‘ynadi. «*Gana*» iborasi keng ma'noga ega bo‘lgan. Eng rivojlangan gana va sangxalarni hokim idora qilgan. Ular uchun mezon yakka hokimiyatga ega bo‘lgan vorisiy hokimning yo‘qligidir. Boshliq odatda gana tomonidan tayinlanib, lavozimidan olib tashlanishi ham mumkin bo‘lgan. «*Chivaravestu*» buddaviy

Yunon-Baqtriylarning
Hindistonga bosqini

kitobida Shimoliy Hindistondagi kuchli respublikalardan lichxaviylar ganasi haqida ma'lumotlar bor. Yangi boshliq saylashda xizmatlari inobatga

olingan, gana bilan kelishib ish tutmagan rahbar esa lavozimidan chetlashtirilgan. Gana boshlig‘i asosan ijro hokimiyatiga ega edi. Demak, gana - monarxiya bo‘lmagan mamlakatni anglatib kelgan.

Manbalarda Hindistonga bostirib kirgan yunon-baqtriylar yavanlar nomi bilan yuritiladi. Yunon tarixchisi Strabon hind yerlari Menandr va Baqtriya shohi Demetr tomonidan bo‘ysundirilganligi haqida ma'lumot beradi. Pushyamitra hukmronligi va Patanjali hayoti yillari miloddan avvalgi II asr o‘rtasiga to‘g‘ri keladi.

Shungalar davrida harbiy masala o‘ta murakkab muammoga aylandi. Hind muallifi Patanjalining «*Maxabxashya*» asarida aytilishicha, yavanlar qo‘shini hind shaharlari Saketu va Madxiyamikani qamal qiladilar. Yavanlar bilan Pushyamitra vorislari, jumladan, uning nabirasi Vasumitra ham kurashib, ulkan zafarlarga erishadi. Keyinchalik ikki taraf o‘zaro sulh tuzadi. Ma'lum bo‘lishicha, yunon shohi Antialkida shu maqsadda yangi poytaxt - Vidishudagi shoh Bxagbxadra saroyiga o‘z elchisini yuboradi.

Miloddan avvalgi taxminan II asr o‘rtalarida Markaziy Osiyo viloyatlariga qo‘shni qabilalar kirib kela boshlaganlar. Xitoy ma'lumotiga qaraganda, xunlarning siquvi ostida g‘arb tomon harakat qilayotgan Yuechji qabilasi mag‘lubiyatdan so‘ng janubga yo‘l olib,

Se-Saklar qabilasi bilan to'qnashgan. Saklar Pomir dovonlari, xususan, mashhur osma yo'l va Hindiqushdan o'tishga muvaffaq bo'lganlar.

Taksiladan topilgan hind yozuvlarida Maues hukmdorligi davrida Chuksha shahrida Kshatrapa (Satrap) hukmdor bo'lgani ma'lum qilinadi. Undan keyingi sulolalar tarixi qadimiy tangalar asosida tiklangan.

Kushon imperiyasi. *Kushon imperiyasi qadimgi Hindiston va butun qadimgi Sharqdagi eng qudratli imperiyalardan biri bo'lib, bir necha yuz yillar mobaynida osiyoliklarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazib kelgan*

Kushonlar imperiyasi Markaziy Osiyo qabilalari tomonidan barpo etilgan imperiya hozirgi Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston hududini egallagan edi. U o'sha davrdagi - Rim, Parfiya, Xitoy kabi buyuk imperiyalar qatoridan joy egallagan edi. Keyinchalik Guptalar qabul qilgan davlatchilik tizimi asoslari aynan Kushon davlatidan meros bo'lib qolgan.

Baqtriyada qaror topgan davlatlardan birining tangalari «Kushon Geray» deb nomlangan. Xitoy solnomachilari 100 yildan ortiq vaqt o'tgach, Kushon Kiotsyukyu to'rt xonni bo'ysundirib, o'zini Guyshuan hukmdori deb e'lon qilganini hikoya qiladilar. U 80 yildan oshiq umr ko'rdi. Kujula Kadfiz tangalari Qobul, Taksila va boshqa joylarda ham topilgan. Bu tangalarning old tomonida hind-yunon shohi Germey tasvirlangan bo'lsa, orqa tomonida esa, kxaroshtxi xatida Kadfiz ismi zarb qilingan. Keyinroq u to'la mustaqillikka erishdi va o'z nomi bilan tangalar chiqara boshladi. Dastlabki tangalarda «mulk egasi» deb yozilgan bo'lsa, keyinroq tangalar «shohlar shohi Kadfiz» yozuvi bilan zarb qilindi.

So'nggi kushonlar. Tarixchi olimlar Kanishkadan keyingi Kushon imperiyasi hukmdorlari sulolasi quyidagi tartibda hukm surgan deb hisoblaydilar: **Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva II, Kanishka III, Vasudeva III.** Madxura va Sanchi yaqinida topilgan va **24-28 yillarga** oid deb hisoblangan hind yozuvida **Kanishkadan** keyin **Vasishka** hukmdor bo'lganligi

aytilgan¹. Vasudeva ham uzoq yillar hukmron bo'lgan. Uning yozuvlari va tangalari Panjob va qo'shni viloyatlardan topilgan. **III asrda** buyuk imperiya mayda davlatlarga bo'linib ketdi. **Vasudeva III** davridayoq Kushon davlatining inqirozga uchragani ayon bo'ldi. Uning avlodlari qudratli Sosoniylar va Eron davlatlari bilan kurash olib borgan. Ayrim olimlar **III asrning o'rtalarida Shopur I (241-272)** hukmronligi davrida Kushon davlati Sosoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan deb aytadilar. Ammo **X asrda** yashab o'tgan arab tarixchisi Tabariyning yozishicha, Sosoniylar Sharqda Seyiston, Abrashahr, (Xurosonning bir qismi), Marv, Xorazm, Balx va Xurosonning chekka o'lkalarigacha egallab olganlar. Marvdan Forsga qaytishda Kushon va boshqa davlatlar hukmdorlari Sosoniylarga itoat qilishlarini bildirganlar. Kushon imperiyasining so'nggi yillari uning ixtiyorida faqat Gandxara viloyati qolgan bo'lib, shu tariqa qadim Sharqdagi eng yirik imperiya siyosiy maydonni tark etgan.

Imperiyaning etnik jihatdan turlicha bo'lganligi numizmatik tadqiqotlar bilan ham isbotlandi. Bu davr tangalarida eron, hind, ellin yozuvlari uchraydi. Bu topilmalarga ko'ra hind ma'budalari orasida Shiva, Maxasena, Vishkxu, Skandakumar ismlari keng tarqalgan. Keyingi uch ism Shivaning o'g'li hisoblangan urush ma'budasi Shivaitiga tegishli. Kanishka tangalarida Buddaning tasviri ham bo'lgan. Old Osiyo va Ellin xudolari Gelios, Gefest, Selena alohida guruhni tashkil etgan. Ba'zi olimlar bu nomlarning turli-tumanligi mamlakat tarixiy jarayoniga bog'liq deydilar. Bundan tashqari tangalar faqat pul bo'lib qolmay, balki g'oyaviy qurol vazifasini ham o'tagan. Chunki bu turli elatlardan iborat imperiyani birlashtirish yo'llaridan biri edi.

Bu davr Janubiy Hindistonda savdo-sotiq rivojlandi, madaniyat yuksalib, shaharlar ko'paydi. Xususiy yer egaligi yanada taraqqiy etdi. Shoh o'z yerlaridan bir qismini xususiy shaxs va braxmanlarga in'om qilar, bunday yerlar soliqdan ozod etilardi. Feodal tizim, dastlab, Dekanda shakllana boshladi. Yerni amaldorlar bilan birgalikda dehqonlarga in'om qilish haqida **I asr** Dekan qo'lyozmalarida qayd etilgan. Ajanta, Amavarati va Nagarjunikandada topilgan mashhur

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

haykalchalar, ilk tamil dostonlari bizga Dekan va Janubiy Hindiston aholisining hayoti va mamlakatlari haqida ma'lumotlar beradi.

Qadimgi Hindistonda iqtisodiy taraqqiyot. Qishloq xo'jaligi. Kushon va guptalar davlatining qariyb barcha viloyatlari yerlari qishloq xo'jaligi uchun yaroqli edi. Ekin maydonlarini faqat botqoq va chakalakzorlar hisobiga kengaytirish imkoni mavjud bo'lgan. Gang va Janubiy Hindiston davlatlari siyosiy mavqeining oshishi yangi yerlarni o'zlashtirishga olib keldi. Bu davrda qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi umumiy salmog'i chorvachilik, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik hisobiga ortdi. Bu hududlarda ekin maydonlariga samarali ishlov berish usullari qo'llana boshlandi. O'g'itlash, almashlab ekish, urug' tanlash kabi amaliy ishlardan keyin yiliga ikki-uch marta hosil olish imkoniyati tug'ildi. Bu davrga kelib guruchning bir necha navlari ma'lum bo'lgan. Tabiiyki, ular mamlakat viloyatlarining iqlim Sharoitiga moslashtirilgan. Katta mehnat talab etgan guruch kabi dehqonchilik mahsulotining ko'plab yetishtirilishi bu sohada muayyan yutuqlarga erishilganidan dalolat beradi. Bu to'g'rida yozma ma'lumotlarda ham aytib o'tiladi. Shuni ham aytish lozimki, guruch xorijiy mamlakatlarga ham sotilgan. Paxtachilik rivojlanib, gazlama va bo'yoq sanoatida ham ma'lum yutuqlarga erishilgan.

Bu davrda Hind vodiysida o'rmonlar kamayib ketganligi sababli, pillachilikka e'tibor bir muncha pasaygan bo'lsa ham, shimoliy o'lkalarda u asosiy mashg'ulotlardan biri bo'lib qolaverdi. Baliqchilik esa yaxshi rivojlanmadi. Tadqiqotchilar buning ikki sababi bor deb aytadilar:

1. Dengiz qirg'oqlarining qiyaligi dengizchilik va kemada suzishni qiyinlashtiradi.

2. Yuqori tabaqalar bu ishga past nazar bilan qarashgan.

Hindistonda sun'iy sug'orish usuli qadimdan mavjud bo'lib, biz o'rganayotgan davrda ham bunday sug'orish keng tarqalgandi. Manbalarda turli to'g'on va hovuzlar bunyod etilgani haqida ma'lumotlar bor. **150-456 yillarda** olimlar sug'orish ishlari uchun mo'ljallangan juda katta sun'iy ko'l bo'lganligini e'tirof etganlar. Shuningdek, kanallar qazilgan, eng katta kanallardan biri Orissa viloyatidagi kanal bo'lgan.

Hunarmandchilik. Bu davrda hunarmandchilik yanada rivojlandi. Kushonlar davrida, ayniqsa, kulolchilik taraqqiy etdi. Toshga ishlov

berishda ham katta yutuqlarga erishildi. G'orlarda Ajanta, Ellora va Bxubaneshvar singari ulug'vor yodgorliklar saqlanib qolgan. Qadimgi tosh-tarosh, rassom va me'morlar san'ati hozir ham odamlar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Antik mualliflarining yozishicha, ko'plab ibodatxonalar o'z mahobati bilan barchani hayratga solgan. Yer osti toshlaridan ibodatxonalar qurish ham o'sha davrda boshlangan. Bunday ishlar ulkan mashaqqat va mohirlik talab etgan.

Shahar uylari, odatda, bir necha qavatli qilib qurilgan. Bir sayyoh *«Men ko'rgan uylarning tomlari shu qadar baland ediki, ortidan tog'lar ko'rinmaydi»* deb yozadi. Arxeologlar qadimda yetti va undan baland qavatli qilib qurilgan imoratlarni topdilar. Kushon va guptalar davrida to'qimachilik va haykaltaroshlik rivoj topgan bo'lib, o'sha davr qaydlarida kiyimlar turli ranglar bilan kashtalangani, oltin bilan tikilgani haqida ma'lumotlar keltiriladi. Erkaklar ayollar kabi, zargarlik buyumlarini taqqanlar.

Kemasozlik. Bu davrda o'ziga xos kema ustaxonalari bo'lib, ularda ko'plab usta va ishchilar mehnat qilgan. Kema jihozlarini ishlab chiqaruvchi ustaxonalar haqida *«Artxashastra»da* ma'lumotlar keltiriladi. Kemalar davlatga qarashli hamda xususiy bo'lib, ulardan harbiy maqsadlarda keng foydalanilgan. Ular daryo yoki dengizga moslashtirilib, katta yo kichikroq qilib qurilgan. Birinchi asrda kema qatnovi yo'lga qo'yilib, ular Afrika va Osiyoning turli o'lkalariga qatnagan. Hind dengizchilari musson oqimlari xususiyatlarini, ularning qay vaqt va qay tomonga esishini yaxshi o'zlashtirib olganlar. Musson oqimlarining kashf etilishi katta ahamiyat kasb etgan. Xitoy sayyohi **Fa Syan V asrda** Yava oroli orqali 200 kishi bilan Hindistonga kelgan. Qadimgi Hindistonning asosiy portlari: Bxrigugxa (hozirgi Bxaruch), Mumbay (Bombey) yaqinidagi Shurparapa (hozirgi Sapara) g'arbiy sohillarda joylashgan. Tamralipti va Nampa Hindiston Sharqidagi muhim portlar hisoblangan. Bu portlardan kemalar sohil bo'ylab Janubiy Hindiston va Seylonga yetib borgan. Yunonlar qo'li ostidagi Misr savdogar va dengizchilari Hindiston bilan yaqindan tanish bo'lganlar. Periklning **I asrga** oid yunon tilidagi *«Eritreya dengizi»* asarida dengiz yo'llari ko'rsatkichi haqida ham ma'lumotlar bor. Unda hind shohlarining Rim imperatoriga nomalar yo'llagani haqida aytib o'tiladi.

Savdo. Manbalarga qaraganda, quruqlikdagi savdo turli yoʻnalishlar, hatto Himolay togʻlari orqali ham olib borilgan. Ammo eng muhimi, shimoliy-gʻarbiy yoʻnalish boʻlib, undan mamlakatni Qobul va u orqali boshqa mamlakatlar bilan bogʻlaydigan eng serqatnov yoʻl oʻtgan. Savdogarlar Taksila va Purushapura orqali Parfiya va undan Oʻrta Yer dengizi boʻyi mamlakatlariga chiqib, Amudaryo va Kaspiy dengizi orqali Qora dengiz va Kavkazga oʻtganlar. Quruqlik yoʻllari dengizga nisbatan bexatar boʻlishiga qaramay, ularning osoyishtaligi davlatlararo munosabatlarga bogʻliq edi. Biroq, ular katta xarajat talab qilgan. Gʻarbda hind mollaridan qalampir, zanjabil hamda xushboʻy modda, dori-darmon, mushk-anbar, lak va boʻyoqqa talab katta boʻlgan. Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlari va zeb-ziynatlar ham xaridorgir boʻlgan. Hindlar boshqa oʻlkalarga tovus, toʻti kabi antiqa qushlarni ham olib borganlar. Fil suyagi va toshbaqa kosasidan yasalgan buyumlar mashhur boʻlgan. Hindiston poʻlati ham qadrlangan. Bu mahsulotlarning bari oltin tangaga sotilar edi. Xullas, hindlarning tashqi dunyo bilan yuritgan savdo-sotigʻi, asosan, Hindistonga foyda keltirgan. Rim imperiyasi boyliklarining Hindistonga oqib kelishi Rim uchun jiddiy iqtisodiy tanglik keltirib chiqargan. Pliniy aytishicha, Sharqqa yiliga 100 mln. sestersiy miqdorida oltin yoʻllangan.

Pul muomalasi. Bu davrda tangalar zarb etilib, ulardan baʼzilari bizga qadar yetib kelgan. Jumladan, oltin va kumush tangalar koʻplab ishlatilgan. Bu jarayon mamlakatda savdo keng koʻlamda quloch yoyganidan darak beradi. Kushon davlatida, ayniqsa, oltin tanga zarb etishga katta eʼtibor berilgan. Rim tangalaridan andoza olingan bu tangalar ogʻirligi 7,6 grammga teng sof oltindan yasalgan boʻlib, dinor, suvarn deb atalgan. Guptalar davrida tangalar ogʻirligi 9,8 gramlargacha yetgan. Chandaraputi davri tangalari tarkibida oltin miqdori avval 80 foizni tashkil etgan boʻlsa, keyinroq 50 foizga tushgan, soʻngra undan ham kamayib ketgan. Oltin tangalarning eng katta xazinasini Sharqiy Rojastondan topilgan boʻlib, 2100 donaga teng. Guptalar davrida pul muomalasi rivojlanganligi tufayli sudxoʻrlik ham avj olgan. Shu davrga oid adabiyotlarda qarz olish tartibi va huquqiga avvalgidan koʻproq eʼtibor berilgan. Sudxoʻrlarga nisbatan avvalgidan koʻra kamroq cheklovlar berilgan. Yerni garovga qoʻyish tez-tez uchraydigan holga aylangan.

VI asrdan boshlab mamlakat inqirozga yuz tutdi. Bu holat, avvalo, shaharlarda koʻzga tashlandi. **VII asrning 40-yillarida** Syuan Szyan *“Hindistondagi Pataliputra, Vayshali, Rajagrixa shaharlari huvillab qolgan”*, baʼzi yerlar xaroba boʻlgani, ayrim hududlar chakalak-oʻrmonlarga aylanganini bayon qiladi. Gang vodiysining markazidagi Varanasi, Prayaga va Kushambi kabi yerlarni oʻrmonlar qoplab, ular yovvoyi fillar makoni boʻlib qolgan.

I-IV asrlarda Janubiy Hindiston. Ayrim hind tarixchilari va Yevropa olimlari qadimda Dekan va Janubiy Hindistonning iqtisodiy va madaniy rivojiga bir tomonlama baho beradilar. Ammo muhim tarixiy epigrafik va arxeologik kashfiyotlar bu kabi bir yoqlamalikka barham berdi. Ulardan shimoldan koʻra Janubiy Hindistonda feodal tuzum va feodal munosabatlar ertaroq rivojlanganligini tasdiqlovchi dalillar olindi. Janubiy hudud Hindistonning qadimgi sivilizatsiyasida salmoqli oʻrin tutgani maʼlum boʻldi. Janubiy Hindiston **I-IV asrlarda** Shimolga nisbatan barqaror etnik va madaniy munosabatlari bilan ajralib turgan. Bu hudud ijtimoiy jihatdan tezroq taraqqiy etgan. Feodal munosabatlar bu mintaqada jamoa tuzumi asosida tarkib topgan.

Bu davrga kelib Janubiy Hindistonda Satavaxanlar imperiyasi yetakchi kuchga aylandi. **Miloddan avvalgi I asrda** ularning asosiy raqiblari sifatida Hind daryosi vodiylarida va Katxiavarda yashagan Sak qabilalari avlodlari - kshatraplar¹ yuzaga keldi. **Birinchi asrda** ularning qudrati yanada kuchaydi. **Ikkinchi asr oʻrtalarida** Kshatraplar Satavaxanlarga tegishli Gʻarbiy Dekan viloyatlarini bosib olishga muvaffaq boʻldilar. Keyinroq KWaraxata avlodlaridan boʻlgan kshatrap Naxapan va uning kuyovi Ushavadati ulkan hududlarga ega boʻlib oldi². Puna yaqinidagi Junaradan Naxapan davriga tegishli yozuvlar, Nasik va Karli oʻlkalaridan Naxapan, kuyovi Ushavadat yozuvlari topildi. Ikkala hukmdor **119-125 yillarda** Nasik, Puna, Janubiy Gujarat, Shimoliy Katxiavar, Gʻarbiy Malva viloyatlariga hukmronlik qilganlar. Satavaxanlar bu davrda Shak kshatraplar hukmronligidan ozod boʻlib, qoʻldan ketgan yerlarni qaytib olganlar

¹ History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006 page:155-156/

² Romek Z., Cenzura a nauki historyczne w Polsce 1944-1970 [Censorship and Historical Science in Poland 1944-1970], Warsaw 2010.

degan faraz mavjud. Naxapan, chamasi Satavaxanlar bilan bo'lgan kurashda halok bo'lgan. Epigrafik ma'lumotlarda Satavaxan shohi **Gotamiputra** ustidan qozongan g'alabalari haqida hikoya qilinadi.

Gamitaputra vorislari Podshoh **Gamitaputra** o'g'lining ismi **Pulmavi** bo'lib, Satavaxanlar davlatining poytaxti Nani-Pratishtxana (**miloddan avvalgi 140-yil**) edi. Bu Ptolemeyning «*Geografiya*» asarida qayd etilgan. Mazkur asarda keltirilgan dalillarga asoslanib, tadqiqotchilar Gamitaputra vorislari kardamaklarga qarshi kurashgan hamda shimoliy Malva o'lkasi aynan kardamaklarga tegishli bo'lgan degan xulosaga keldilar. Bu ikkala urug' orasida qarindoshlik aloqalari mavjud edi. Tabiiyki, bu hol siyosiy vaziyat va pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Satavaxanlarning zarb etilgan tangalarida kshatraplar pul tizimining ta'sirini ko'rish mumkin. Manbalarga asoslanib, Hindiston g'arbidagi Shaklar davlati Satavaxanlar yuritgan siyosatga o'z ta'sirini ko'rsatmagan deb fikr bildirsa bo'ladi. Shak-kshatraplar hokimiyati siyosiy hokimlik bilan cheklangan. Shaklar mahalliy xalq bilan kirishib ketib, hind ism va urf-odatlarini qabul qiladilar. Dekanga sanskrit tili kirib kelgach, Shak qabilalaridan ushbu yozuvda bitilgan epigrafik ma'lumotlar qolgan. Kumush tangalarning muomalaga kiritilishi ham shaklar bilan bog'liq.

Bu sulola taxminan **255-yildan** ma'lum bo'lgan. Uning asoschisi shoh Vindxyashiki shak kshatraplar va satavaxanlardan so'ng mustaqillikni qo'lga olgan ayrim mahalliy sulolarga qarshi kurashdi. Vindxyashaktining vorisi **Paravarsena 1 (275-335 yil)** o'z tashqi siyosatida anchagina omadli edi. U g'urur bilan o'zini «*samrat*» - yakka podshoh deb atadi. Uning davrida sulola kattagina hudud - Narbada va Krishna daryolari orasidagi viloyatlarga ega bo'ldi. Markaziy Hindistonda mustahkam o'rin egallashni maqsad qilib, bu podshoh Nagalar sulolasi bilan qarindoshlik aloqalarini bog'ladi. U o'g'li Bxanavagiga Naga shohi qizini olib beradi. Qudratli Guptalar davlati paydo bo'lganidan so'ng, vakataklar shimoliy chegaralar xavfsizligi haqida bosh qotirishlariga to'g'ri keldi. Samudraguptaning Hindiston janubiga qilgan yurishi vakatak va guptalar orasidagi munosabatlarni keskinlashtirdi. Gupta shohining mashhur Ollohobod yozuvida u zabt etgan davlatlar nomi sanab o'tilgan. Ular orasida

shohlar Aryavarta Rudreva nomi ham uchraydi¹. Uni o'sha davrdagi vakatak hukmdori Paravarsenaning nabirasi **Rudrasena I** ga (335-360) qiyos qilishadi. Ammo ma'lumki, guptalar Samudraguptaning janubga yurishi chog'ida bosib olingan barcha viloyatlarni rasman o'z imperiyasi tarkibiga qo'shib olishni lozim topdilar. Har ikki sulola vakillari do'stona aloqalar o'rnatish muhimligini yaxshi tushunar, guptalar vakataklar orqali janubiy hududlarga ta'sir o'tkazish niyatida edilar. Vakataklar esa ochiq jangda guptalarga jiddiy qarshilik ko'rsata olmasdilar. Bu vaqtda guptalar o'z diqqatlarini g'arbiy kshatraplar bilan bo'ladigan janglarga qaratadilar. **Rudrasena I** nabirasi shahzoda **Rudrasena II** esa Prabxavatigupta - gupta shohi **Chandragupta II** Vikramadityaning qiziga uylanadi.

Vakataklar saroyida guptalar ta'siri kuchaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti Nandivarxanga guptalar elchisi, undan tashqari o'zga mansabdor shaxslar ham kelardilar. Ko'p o'tmay, yagona sulola bir necha mahalliy sulolarga bo'linib ketdi. Ulardan biri - Vatsagulimi (Janubiy Berar) vakataklari katta obro'-e'tiborga ega bo'ldi.

VI asr oxirida shoh Samxavishnu yangi sulolaga asos soldi va Pallavlar davlati hududini Kavera daryosiga qadar kengaytirdi. U Pandya, Chola, Chera sulolalari va Shri-Lanka hukmdorlarini ustidan g'olib keldi. **Samxavishnuning** o'g'li va vorisi **Maxendravarman I** Chaluki sulolasiga oid qudratli hukmdor - **Pulakeshin II** dan mag'lub bo'lib, Vengi viloyatini qo'ldan boy berdi.

Janubiy Hindiston siyosiy tarixida Kalombo (Karnatak), Ganga (hozirgi Maysur shtati) sulolasi mavjud bo'lganligi ma'lum. Ganga sulolasiga **IV asrda** asos solinib, poytaxti Talanavaputra bo'lgan. Uning mustaqilligiga **1004 yili** Cholalar chek qo'ydi².

Janubiy Hindistonda davlat tuzumi. Qadimgi yozuvlar va adabiy manbalarda aytilishicha Janubiy Hindiston va Dekanda taxt qat'iy ravishda otadan farzandga meros sifatida o'tgan. Davlatni boshqarish uslubi monarxiya ko'rinishida bo'lgan. Satavaxan va Vakataklar davrining ilk ma'lumotlaridan bir necha yuz yil ichida davlatni boshqarish tizimida hech qanday o'zgarishlar bo'lmaganligi ma'lum. Vakataklar imperiyasida markazlashgan boshqaruv va markazning

¹ History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006 page:155-156/

² World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

qat'iy nazorati yo'lga qo'yilgan. Satavaxanlar davlati viloyat (*janapad*)larga bo'lingan. Ular tepasida maxsus harbiy amaldor - maxasenalar turgan. Viloyatlar o'z navbatida amat, ya'ni okruglarga bo'lingan. Vakataklar imperiyasida: rashtira (*radja*), vishaya, bxakti, axara kabi ma'muriy bo'linish turlari mavjud bo'lgan. Qadimgi yozuvlarda yerni in'om qilish to'g'risidagi farmonlarda amaldorlar (*rajuklar*), qishloq amaldorlari (*gramaxumalar*) haqida aytib o'tiladi.

Guptalar imperiyasi. Kushon davlati siyosiy jihatdan parchalanib ketganidan so'ng, maydonga qudratli Guptalar imperiyasi chiqdi. Bu davrga kelib kushonlarning so'nggi vakillari G'arbiy Panjobda kichik hududdagina egalik qilardilar. Gujorat, Rojaston va Malvada kshatraplar hukm surar, Gang vodiysida, jumladan, respublika toifasidagi davlatlar mavjud edi. Magadxada birin-ketin ko'plab sulolalar almashib, ular Shimoliy Hindistonning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida ancha jiddiy o'rin tutdilar.

Hindiston qadimgi sivilizatsiyasining gullagan davrida Guptalar davlati 200 yildan ortiq hukm surdi. Bu davlat Hindiston iqtisodiy hayotida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Magadxada hunarmandchilik keng rivojlandi. Qishloq xo'jaligi aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlardi. Magadxada asosiy metall yetkazib beruvchiga aylandi. Bundan tashqari, u budda dinining muqaddas qadamjoyi sifatida mashhur bo'ldi. Homiylar va Buddaga e'tiqod qiluvchilardan tushgan mablag' yangi ehromlar barpo qilish uchun sarflandi.

IV asrning birinchi yarmida Magadxada gullab yashnadi. U Guptalar imperiyasining siyosiy markaziga aylandi. Bu imperiya mamlakat tarixida chuqur iz qoldirdi. Mazkur sulola asoschisi Chandragupta guptalardan bo'lgani uchun davlat uning nomi bilan ataldi. Guptalar davlatining bosh davri 320 yillarga to'g'ri keladi. Shu davrdan sulolaning barcha vakillari nomiga "gupta" qo'shimchasi qo'shildi. **Chandragupta I** Maxarajatxiraja, ya'ni «*shohlar shohi*» nomini oldi. Bundan, u mustaqil hukmdor bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. U o'zining qisqa muddat hukmronligi davrida davlat va sulola obro'sini oshirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, u qo'shni lichchxaviylar sulolasi malikasiga uylanib, katta siyosiy yutuqqa erishdi. Uning rafiqasi Kumara Deva haqida muayyan ma'lumotlar mavjud. Bu davrda zarb etilgan tangalarda ham shoh o'z rafiqasi bilan birga

tasvirlangan. **Lichchxaviylar** o'ta qadimgi qabila bo'lib, ular hozirda Bixar shtatining shimoliy qismini egallaganlar. Bu nikohdan so'ng guptalar mavqeyi yanada oshishi, Sharqiy chegaralardagi kuchlar nisbati o'zgarishiga olib keldi. Manbalarda yozilishicha, Chandraguptaning o'g'li Samudraguptaning onasi lichchxaviylardan bo'lgan. Shunday qilib, bu qarindoshlik rishtalari ikki katta davlatni birlashtirib, kudratli imperiyaga aylanishiga olib keldi. Yana shu yozuvlarda Samudragupta ikki davlat vorisi sifatida ko'rsatiladi. U taxminan **380-yillarda** vafot etgan.

Epigrafik ma'lumotlarga ko'ra, Samudragupta vafotidan so'ng taxt uning o'g'li - **Chandragupta II** ga o'tib, u **375-415 yillarda** hukmronlik qilgan. Qadimgi hind mualliflaridan Visakxaddatning «*Devichandragupta*» (**VI asr**) asarida **Chandragupta II** hukmronligida guptalar yanada gullab yashnagan deb aytiladi. Lekin u akasi Ramagupta bilan shiddatli janglardan so'nggina hokimiyatni egallay oldi. Aka-uka orasidagi bu kurash akasining o'limi bilan tugab, **Chandragupta II** akasining xotini - Dxuruvadeviga uylanadi. **Chandragupta II** kshatraplar bilan bo'lgan janglarida qozongan g'alabalari ham unga muvaffaqiyat keltirdi. **V asr boshlarida** g'arbiy kshatraplar hududida **Chandragupta II** tangalari muomalaga kiritildi. Bundan tashqari, u g'arbiga yurishlarida bir necha viloyatlar, jumladan, sohil bo'yi yerlarini bosib oldi. Shu tarzda guptalar muhim savdo-sotiq markazlariga ega bo'lib, natijada tashqi aloqalar kengaydi.

Chandragupta II faoliyatiga oid tarixiy hujjat - Dehlidagi mashhur temir ustun yozuvlari hisoblanadi. Unda Vanga (Sharqiy Bengaliya) va Baxlika (Shimoliy Afg'oniston)ni egallab olgan hukmdor - shoh Chandra haqida hikoya qilinadi. Yozuvlarda aytilishicha, **Chandragupta II** yetti devon osha shimoliy-g'arbiga yurishlar uyushtirgan.

Chandragupta II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Kumaragupta o'tirdi (**415-455**). U ham otasi kabi imperiya qudratini saqlab qolishga intildi. Sulolaning keyingi vakili **Skandagupta (455-467)** ham mamlakatni butunligini saqlab qoldi. Manbalarda u sulola xaloskori sifatida tilga olinadi. Guptalarning so'nggi vakili Budxagupta 20 yildan ortiq (**475-497**) hukmronlik qilgan. Uning vafotidan so'ng xun-eftalitlarga qarshi urush boshlangan.

Mashhur xitoy sayyohi **Fa Syan Chandragupta II** hukmronligi davrida Hindistonga sayohat qildi. Uning yo‘li Gobi cho‘li va Xo‘tanning tog‘li tumanlari, Pomir tog‘ etaklari, Svat va Gandxara orqali o‘tdi. U Hindistonning Peshovar, Matxura va boshqa yirik shaharlarini ziyorat qildi. Uning asosiy maqsadi buddaviylik diniga oid osori atiqalarni izlab topishdan iborat edi. Sayyoh hayoti haqidagi esdaliklariga **399-414 yillar** voqyealarini kiritgan. U Pataliputrada uch yil yashab, bu vaqtda sanskrit tilini o‘rgandi.

Guptalar davlat tuzumi. **Birinchi asrlarda** Hindiston hududidagi yirik imperiyalardan biri - Guptalar davlat tuzumi haqida kengroq ma'lumotlar saqlangan. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra¹, mazkur davlat ilk davrlardan markazlashgan boshqaruv tizimiga ega edi. Ularning boshqaruv tizimi Mauriylarning boshqaruvidan deyarli farq qilmasa ham, ko‘p jihatdan mukammal bo‘lgan. Bu imperiya hukmdorlari mazkur tuzumga bir qancha o‘zgartirishlar kiritdilar. Ma'lumki, taxt otadan o‘g‘ilga o‘tar, ba'zi hollarda hukmdor vorisni o‘zi tayinlardi. Shu sababli taxt uchun kurash shoh o‘limidan oldin voris aniqlanganidan so‘ng boshlanib ketardi.

Guptalar o‘z istilochilik yurishlarida yengilgan shohlarni qatl etar, yerlarini esa o‘z hududlariga qo‘shib olardilar. Bu davrga kelib Gang vodiysida yashayotgan xalqlar orasida tenglik qaror topdi. Viloyatlar orasidagi savdo aloqalari iqtisodiy turmushni taraqqiy ettirdi. Viloyatlar o‘lka va shaharlarga bo‘lingan, imperiya hududidan tashqarida unga bo‘ysungan vassal davlatlar ham bor edi.

Xun-eftalitlar bosqini va Guptalar imperiyasining qulashi. **Kumaragupta** vafotidan so‘ng Guptalar imperiyasining osoyishtaligi buzildi. Uning vorisi Hindistonga bostirib kirgan xun - eftalitlar bilan shiddatli kurash olib bordi. **Sinx** va **Banerjining** yozishicha, **II asr o‘rtalariga** kelib katta kuch to‘plagan Xun - shu qabilasi Xitoyning Sharqiy qismidan Yue-chji qabilasini siqib chiqardi. So‘ng ular yanada g‘arbroqqa kirib borib, Amudaryo voxasidagi xalqlarni xonavayron etdilar. Ularning eftalit - *“oq xunlar”* deyilishi ham shundan. Ular bilan ba'zi turk qabilalari ham ittifoq tuzganlar.

Eftalitlar hududiga kirgan yerlar xitoy olimlari tomonidan yozilgan asarlarni eng so‘nggi arab va fors manbalari bilan solishtirgan holda aniqlandi. Bu hududga, asosan, Markaziy Osiyo va

¹ History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006

Toxariston kirgan. Bundan tashqari eftalitlar janubga ham bir necha bor istilochilik yurishlari qilganlar. Ular **V asrga** kelib katta kuch to'pladilar va Kushon davlati hamda Eron sasoniylari uchun katta xavf tug'dirdilar. Bu ikki davlatni mag'lub etgach, Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismiga ham bostirib kirdilar. Taxminan **457-yilda** guptalar xunlar bilan ilk bor to'qnashganlar. Manbalarda guptalar bu kurashda yengib chiqqanlari haqida ma'lumotlar bor. Ular xunlardan katta o'lpon to'lashni talab etganlar. Natijada xunlar oltin tangalarning vaznini kamaytirish va zarb etilgan metallar turini ko'paytirishga majbur bo'lganlar.

Toramana vorisi **Mixirakula** davrida guptalar jiddiy talofat ko'rdilar. Ammo hal qiluvchi jangda guptalar hukmdori Narasimxaning qo'li baland keldi va **Mixirakula** shimoliy-g'arbiy Hindistonni tashlab ketishga majbur bo'ldi. Narasimxa o'z qo'lida Panjob va Gandxara viloyatlarini saqlab qoldi. **533-yilda** Malva hukmdori ham xunlarni mag'lub etdi. Biroq bu davrga kelib guptalarning kuchi qirqilgan edi. Ba'zi viloyatlar mustaqil bo'lib, imperiya tarkibidan chiqib ketdi. Guptalar ma'lum vaqt Magadxa va boshqa viloyatlarda hokimiyatni qo'llarida tutib turdilar. Bu davlatni boshqargan hokimlar guptalarning so'nggi va zaif hukmdorlari edi.

Eftalitlar ulkan davlat barpo etdilar. Bu davlat chegaralari Kushonlar imperiyasi hududidan ham katta bo'lgani bilan turli xalq va millatlardan iborat bo'lgani uchun mustahkam emas edi. Eftalitlar Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari turmush tarziga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdilar. Ular ko'pincha o'zlari bosib olgan xalqlar dinini qabul qilar, ular bilan assimilyatsiyalashib ketardilar. Bu siyosiy kurash oqibatida Guptalar imperiyasi qulab, uning o'rnida bir necha tarqoq davlatlar paydo bo'ldi.

Yer egaligi. Xususiy yer egaligining taraqqiy etishi. **I asrda** yerga egalik, xususiy mulkchilik va yer egasining mulkiy daxlsizligi saqlanib qoldi. Birovning yerini nohaq o'zlashtirish jinoyat hisoblanar va buning uchun katta jarima solingan. Yer egasi o'zi ishlashi yo yerni ijaraga berishidan qat'i nazar, yer egasi hisoblangan. Guptalar davrida yer sotilishi va olinishiga oid yorliqlar paydo bo'ldi. Davlat yer egalarini muhofaza etar, jamoa xususiy yer egalari ko'payishiga qarshi bo'lsa ham, ular ixtiyoridagi yerlar kengayib bordi.

Bu davrda yerni ijaraga berish keng tarqaldi. Ba'zi ijaradorlar bora-bora yer sohiblariga mute' bo'lib qolardilar.

Hunarmandchilik. Bu davrda hind degrez va misgarlari mamlakat ichida ham, tashqarisida ham mashhur edilar. **V asrda** ular balandligi 7 metr, og'irligi 6 tonnali temir ustun bunyod etganlar. Oradan bir yarim ming yil o'tganiga qaramay, uning biror yeri na zanglagan, na yemirilgan. Uni tayyorlash siri hozirgacha ma'lum emas.

O'sha vaqtlardayoq oltin, mis, qo'rg'oshindan turli bejirim buyumlar yasash yo'lga qo'yilgan. Shoh ixtiyorida maxsus temirchi va qurolsozlar bo'lgan. Ular davlat nazoratida turganlar. Shuningdek, konlar, qurol ishlab chiqarish ham uning tasarrufida edi. Qurol yasashda yunon-rim hunarmandlari tajribasidan foydalanilgan. Biroq ko'plab temirchilar faqat mahalliy an'analarga tayanib ish yuritardilar. Ular chiqargan mahsulotlar a'lo sifatli bo'lgani uchun chet mamlakatlarda ham xaridorgir edi. Temir va po'lat hatto Afrika portlarida ham sotilar, zargarlik buyumlari esa Hindistondan yiroqda ham qadrlangan.

Taksilada chet el hunarmandlari yasagan buyumlar topilgan. To'qimachilik, ayniqsa, ip - gazlama xaridorgir bo'lib, xorijda ham unga talab katta bo'lgan. Bu davrda hunarmandlar uyushmalari - shrenlar yanada rivoj topdi¹. Ularning nufuzi ancha baland bo'lib, hukumat ularni o'z tasarrufiga olishga intilardi. Ular xususiy shaxslar bilan Shartnomalar tuzar, hukmdorlar bilan bitimlar imzolar edilar. Ularning badavlatlari buddaviy rohiblarga sovg'a-salom berar, ibodatxonalar bunyod etardilar. Arxeologiya qazilmalari jarayonida ularning shaxsiy muhrlari topilgan.

Savdo. Bu davrda savdo tez rivojlandi. Guptalar hukmronligi davrida ochilgan yo'llar tashqi va ichki savdoni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hind va Gang daryolari bo'ylab savdo kemalari qatnar edi. Gang vodiysi asosiy savdo markazlaridan biri bo'lib, bu yerdan mamlakatning barcha burchaklariga yo'llar o'tgan. Bu markazlardan g'arbda Goxarukachgxa, Hind deltasi, Patala, shimoliy-g'arbiy Pugikalavata va Sharqda Tampalipi, Gang vodiysida Varanasi, Kaushambi, Pataliputralar joylashgan edi. Savdo kemalari Bengal ko'rfazidan janubga yo'l olganlar. Shimoldan jun matolar,

¹ Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

janubdan esa qimmatbaho tosh va ziravorlar, Sharqdan metall va ipak, g'arbdan gazmol va yilqi keltirilgan. Sind va Araxosiya otlari bilan nom chiqargan. Kushon va guptalar davrida tashqi savdoning gurkirab rivojlanishiga hukmdorlarning atrofdagi mamlakatlar nazarida katta nufuzga egaligi sabab bo'ldi.

Qadimgi hindlar mohir dengizchi bo'lib, musson shamollaridan ustalik bilan foydalanganlar. Bu mintaqada Rim imperiyasi savdo yo'nalishlarini belgilab turgan. U Hindistondan ko'plab mahsulot xarid qilish bilan birga, bu yerda o'z savdo shahobchalarini ham tashkil etgan. Ayniqsa, Arikamedu (hozirgi Patucheri yaqini)da ana shunday shahobchalar mashhur edi. Arxeologlar bu yerdan Rim tangalari, oyna va amforalarni topdilar. Bu davrda Avgust va Troyan kabi imperatorlar huzuriga hind elchilari jo'natilgan. G'arbda hind dorivorlari, upa-eliklar katta shuhrat qozongan edi. Hindistondan fil suyagidan yasalgan qimmatbaho buyumlar va tilla taqinchoqlar ham uzoq o'lkalarga olib ketilgan. Bundan tashqari, musiqa va raqs san'atini o'rgangan joriyalar savdosi ham yo'lga qo'yilgan.

Hindistonning Uzoq Sharq va G'arb bilan aloqalarini yo'lga qo'yishda Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati juda katta edi. Savdo ishida shren nomini olgan birlashmalar faoliyat ko'rsatgan.

Buddizm tanazzuli va hinduizm. Guptalar va ulardan keyingi davrlarda budda dini o'z ta'siri va ahamiyatini asta-sekin yo'qota boshladi. Buddaviy ibodatxonalar xarobaga aylanib, kohinlar ham e'tibordan chetda qola boshladilar. Buddizm shimolda va Kashmirdagina o'z mavqeini saqlab qolib, Gang vodiysida vishnu va shiva dinlari taraqqiy etdi. Natijada mamlakat hududida yangi din - hinduizm vujudga kelib rivojlandi. Shimolda saqlanib qolgan budda dini ham tobora hinduizm bilan qo'shib, yagona dinga aylandi. Yangi din jamiyatda tez tarqaldi. Ibodatxonalarda hind ma'budalari qad ko'tardi.

Hinduizmning ikki asosiy yo'nalishidan biri vishnuizm bo'lib, u mauriylar davridayoq tarkib topgan edi. Guptalar davrida bu din yana ham taraqqiy etdi. Bunda yana bir ma'bud - Krishnaga e'tiqod qilina boshlandi. Mazkur diniy ta'limotning boshqa dinlardan farqi - uch ma'budaga birday ibodat qilinishida edi. Bu «*uchlik*» hindularda

«*Trimurti*» nomini oldi¹. Ular olamni yaratuvchisi - Brahma, olamni saqlovchisi - Vishnu va vayron etuvchisi - Shiva ma'budalaridir. Vayron qilish - Shivaga xos xislat bo'lib, ikkinchi tomondan u odamlarni tarkidunyochilik va xayr-ehson qilishga da'vat etadi².

«*Mahabharata*»ning bir qismini o'z ichiga olgan «*Bhagavadgita*» hindlarning ma'naviy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi. Undagi yetakchi g'oya yaxshi xulq, insoniylik, dunyoviylik va ilohiylikning o'zaro uzviyligidan iborat.

¹ Monmonier M., *Rhumb Lines and Map Wars. A Social History of the Mercator Projection*, Chicago 2004.

² Бонгард – Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация. История. Религия. Философия. М., 2000г.

12-mavzu. Qadimgi Hindiston tarixnavisligi. Qadimgi Hindiston madaniyati va tashqi aloqalari

Reja:

1. Qadimgi Hindiston manbashunosligi va tarixnavisligi.
2. Mauriylar davrida madaniyat.
3. Kushonlar va Guptalar davri madaniyati.
4. Qadimgi Hindistonning tashqi aloqalari.
5. Qadimgi Hindiston va Eron.

Tayanch iboralar: *Xarappa madaniyati, «Monu qonunlari», «Bxagavadgita», “kotib”, «Lalita vistara», vidaxi, Maxavira, Shakala, «shohlar shohi», «Buddaxacharita», «Saundrananda va Nanda», «Shariputrarakana», «Shakuntala», «Vikramavashi», Aryabxata, «Bixatsamxita», matxura, andxra, «elchixonalar davri».*

Qadimgi Hindiston Hindiston eng qadimgi davrlardanoq ko‘plab manbashunosligi va uzoq va yaqin qo‘shnilari bilan madaniy va tarixnavisligi savdo-sotiq aloqalari o‘rnatgan. Xarappa madaniyati davrida (**miloddan avvalgi III-II ming yilliklar**) hind hunarmandlari yaratgan buyumlar O‘rta yer dengizi mamlakatlari, Mesopotamiya, Markaziy Osiyogacha yetib borgan. Keyingi asrlarda Hindiston G‘arb va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan mustahkam aloqalar bog‘ladi. **Miloddan avvalgi VI asrda** Shimoli-G‘arbiy Hindiston ahmoniyalar tasarrufiga o‘tganidan so‘ng, Makedoniyalik Iskandar bu o‘lkaga yurish qildi. Shundan so‘ng bu o‘lka haqidagi ma'lumotlar olamga yanada kengroq tarqaldi. Hindiston yurishi ishtirokchilarining asarlari, Salavk elchisi Megasfen xotiralari, yunon mualliflari Arrian, Strabon, Pliniy kitoblarida bu mamlakat haqida turli-tuman va diqqatga sazovor ma'lumotlar mavjud. Sharqning mashhur qomusiy olimi va dastlabki buyuk hindshunos Abu Rayhon Beruniy (XI asr) hind xalqining urf-odati, turmush tarzi, dini va dunyoqarashi, mamlakat ijtimoiy tuzumi, tarixi, o‘simlik hamda hayvonot dunyosi, barcha ilm-fan taraqqiyoti haqida «Hindiston» nomli nodir asarini yaratdi. Beruniy Hindistonda shaxsan bo‘lib, bu o‘lkani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, har tomonlama chuqur o‘rgangan edi.

Hindistonning qadimiy tarixi va madaniyatini ilmiy jihatdan o'rganish **XVIII asr** oxiridan boshlandi. Ingliz tarixchisi **U. Jons (1746-1791)** ilk bor sanskrit tilidagi qadimiy hind adabiy yodgorliklarini tadqiq etishga kirishdi va «*Monu qonunlari*» ni ingliz tiliga tarjima qildi. **1785-yilda** esa Ch.Uilkins ko'hna Hindistonning diniy-falsafiy asari - «*Bxagavadgita*»ni ingliz tilida chop ettirdi. Avvalo Angliya, so'ng G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qadimgi Hindiston tarixiga oid ilk asarlar paydo bo'ldi. Ammo ularning jiddiy kamchiligi shunda ediki, mualliflar ingliz mustamlaka ma'muriyatining vakillari bo'lib, ular qadimiy Hindistonning talay yutuqlari G'arbdan olingan, butun Sharq madaniyati singari hind madaniyatiga ham qoloqlik va turg'unlik xos deb uqtirishga intildilar. Hind tarixchilari **XIX asrdayoq** bunday g'ayri ilmiy qarashlar haqiqatdan yiroq ekanligini isbotladilar.

XIX asrning oxirgi choragi va XX asr boshlarida Hindistonda arxeologik tekshirishlar boshlandi. 20-30 yillarda hind qadimshunoslari Hind vohasidagi eng qadimiy madaniyatni kashf qildilar. Hind daryosi vodiysidagi qazilmalar Hindiston tarixi ming yillar avval boshlanganligini isbotladi. Qadimgi Hindistonning boy madaniyati oriylardan meros emas, balki ulardan ancha avval ham mamlakatning tub aholisi yuksak madaniyatga ega bo'lganligi aniqlandi.

XX asrning 30-yillaridan boshlab, ayniqsa so'nggi o'n yillarda dunyo hindshunosligida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Tarixnavislikda qadimgi Hindistondagi quldorlik munosabatlari masalalari yorita boshlandi. Qadimgi hind madaniyatini o'rganish, adabiyotini tarjima qilib nashr etish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Hindiston mustaqillikka erishgach, uning qadimgi tarixini o'rganishda yangi davr boshlandi. Hind tarixchilari vatan tarixiga oid ko'plab yirik asarlar yozdilar, talaygina ilmiy va adabiy kitoblarni qadim sanskritdan hozirgi hind tiliga o'girib nashr etdilar.

Mauriylar davrida Yozuvning tarqalishi. Hindistonning ko'plab madaniyat. viloyatlarida topilgan Ashoka bitiklariga ko'ra, **miloddan avvalgi III asrdan** boshlab mamlakatda yozuv keng yoyilgan. Ammo, yozuvning bir necha asr oldin ham mavjud bo'lganligi shubhasiz. Talay buddaviy asarlarda maktub jo'natish,

podsho farmonlarini tarqatish, kotiblarga maktabda yozuv o'rgatish haqida so'z boradi. Panini grammatikasida¹ “*kotib*”, “*mirzo*” tushunchasini anglatgan iboralar uchraydi. Ashoka farmonlarida brahmi, oromiy va boshqa yozuvlar qayd etilgan. Yunon tarixchisi Nearxning ma'lumotlariga ko'ra, Makedoniyalik Iskandar Hindistonga qilgan yurishidan so'ng, bitiklar ip-gazlamaga tushiriladigan bo'lgan. Odatda yozish uchun palma barglari ishlatilgan. Biroq namgarchilik tufayli bunday yozuvlar bizga qadar yetib kelmagan. O'sha davr yozuv san'atining yagona guvohi qoya toshlardir. **Miloddan avvalgi III asrda** brahmi asosiy yozuv tizimiga aylandi. Olimlar orasida brahmi tilining kelib chiqishi haqida turli farazlar mavjud. Uni Xarappa, janubiy arab yozuvi, hatto yunon yozuvi bilan bog'lashadi. **Miloddan avvalgi II asrga** oid yozuvlar bir necha xil bo'lgan. Budda hayotiga bag'ishlangan «Lalita vistara²» asarida (**milodiy I asr boshida**) mahalliy hind va o'zgacha 64 xil yozuv haqida aytib o'tiladi.

Ilm-fan taraqqiy etishi. Mauriylar davrida ilm - fan rivojlandi. Bu davrda astronomiya, geologiya, handasa, adabiyot kabi fanlar ravnaq topdi. Buddizm va jaynizmga oid juda katta adabiy asarlar yaratildi. **Miloddan avvalgi V-IV asrlarda** sanskrit tili grammatikasi haqida yozgan mashhur hind olimi Panini yashab ijod etdi. **Miloddan avvalgi II asrda** yana bir hind olimi Patanjali sanskritning yangi grammatikasini yaratdi. Bu ikkala tilshunos olim mahalliy lahjalarni yaxshi o'rgandilar. Patanjali asarida prakrit tiliga oid ma'lumotlar keltirilgan. Ular asarlariga ko'ra o'sha davrda dramatik asarlar ham yozilgan. Mazkur asarlarda aktyorlar, sahna va musiqa asboblari haqida bayon etiladi.

Me'morchilik va haykaltaroshlik. Bu davrdagi me'morchilik inshootlarining aksariyati yog'ochdan qurilganligi sababli, ular bizga qadar butun holda yetib kelmagan. Vaqt o'tishi bilan bunday inshootlar qurilishida tosh ham ishlatila boshlandi. Pataliputra qazishmalaridan shoh saroyi va ustunli qasr qoldiqlari topilgan. **Miloddan avvalgi III - II asrlarga** oid Sanga va Bxarxutdagi

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

² Monmonier M., *Rhumb Lines and Map Wars. A Social History of the Mercator Projection*, Chicago 2004.

buddaviy supalar qiziqish uygʻotadi. Ashoka farmonlari oʻyib yozilgan ustunlarning tepa qismi ajoyib sanʼat yodgorliklaridan biridir.

Mauriylar davri diniy oqimlari. Jaynizm taʼlimoti. Bu taʼlimot **miloddan avvalgi VI asrda** paydo boʻlib, unga vidaxi (hozirgi Bihar) kshatriylaridan boʻlgan Vardxamana asos soldi. 28 yoshida u oʻgay ota xonadonini tashlab ketib, oʻrmonda umr kechirdi va tarki dunyo qilib, haqiqatga erishishga intildi. U oddiy hayot tarzidan voz kechib, oʻzini azob-uqubatlarga duchor qilib, ochlik va tashnalik bilan badanini chiniqtirdi. Hindiston viloyatlarida targʻibot ishlarini yuritdi va atrofiga koʻplab muridlar toʻpladi. Hindistonning uzoq oʻlkalarida ham uning taʼlimot markazlari paydo boʻldi. U 80 yil yashadi. Yangi taʼlimot asoschisini Maxavira, yaʼni “buyuk qahramon” yoki Jina - «**gʻolib**» deb atay boshladilar. Bunday faxriy unvon alohida hurmat-eʼtiborga sazovor boʻlgan diniy murabbiylarga berilardi. Yangi taʼlimot nomi - jaynizm jina iborasidan kelib chiqdi. Rohiblar kabi hayot kechirgan yangi din namoyondalari qatoriga koʻp sonli oddiy hayot kechiruvchilar, yaʼni mol-mulki va oilasidan judo boʻlmagan, jaynizm rasm-rusumlariga amal qiluvchilar qoʻshildilar. Vaqt oʻtishi bilan bu taʼlimot Hindistonning nafaqat madaniy, balki ijtimoiy hayotidagi muhim hodisaga aylandi.

Ilk buddizm va Dunyoda keng tarqalgan buddizm dinining kelib uning asoslari. chiqishi Gautama nomi bilan bogʻliq. U avvalo oddiy fuqaro sifatida hayot kechirgan boʻlsa, soʻng tarki dunyo qilib, asketlar turmush tarzini qabul kiladi. Hayotni kuzatish, oʻrganish va chuqur mushohada qilish oqibatida u Budda, yaʼni «bilimli», «maʼrifatli» nomini oladi. Gautama - Budda oʻz tarafdorlarini toʻrt muqaddas haqiqatni anglashga daʼvat etib, unga erishish yoʻllarini bayon qiladi. Yaʼni u eʼtiqod, toʻgʻri fikr, toʻgʻri soʻzlash, toʻgʻri xatti-harakat, halol yoʻl bilan tirikchilik qilishni tashviq etgan.

Buddizm boshqa diniy-falsafiy taʼlimotlar singari shimoliy-Sharqiy Hindistonga, avvalo, Magadxaga yoyildi. Ogʻir kasta cheklashlariga qarshi chiqqan, tugʻilishidan boshlab insonlar orasida tenglikka chaqirgan bu din yangi ijtimoiy pillapoyaning quyirogʻ pogʻonasini egallagan savdogar va badavlat vayshiylarga maʼqul boʻldi. Buddizm kshatriylar uchun ham mos edi.

Sidxartxa Gautama Budda nomi bilan tanildi. Aslida, u qudratli Shakya qabilasi boshligʻining oʻgʻli boʻlib, dunyo lazatlaridan voz

kechib, darveshlarcha hayot kechirgan. Budda **miloddan avvalgi 563 yilda** tugʻilib, **483 yilda** vafot etdi.

Mauriylar imperiyasining soʻnggi davrini oʻrganishda Ashoka haqida buddaviy rivoyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Ashokaning umri oxirida hokimiyatdan chetlashtirilishiga oid ma'lumot koʻp asarlarda saqlangan. Ashoka bu vaqtga kelib xazinani sovura boshlagan. Manbalarda ta'kidlanishicha, Ashoka umrining oxirida Budda ta'limotini yanada kengroq yoyish maqsadida buddaviy rohiblariga koʻplab sovgʻa-salomlar joʻnatgan. Buning natijasida davlat xazinasi ancha boʻshab qolgan. Podsho a'yonlari taxt vorisi - nevarasi Sampadiga imperatorning haddan tashqari katta xayr-ehsonlar qilayotganini yetkazganlar va bu holga chek qoʻyishni talab qilganlar. Sampadi buyrugʻiga koʻra, Ashoka farmonlarini bajarmay qoʻyishadi. Davlatni boshqarish huquqi Sampadiga oʻtib, Ashoka oʻz gʻoyalarini oxirigacha amalga oshira olmaydi.

Buddizm asoschisi shahzoda Siddharta Gautama boʻlib, Hindistonning shimolidagi Shakyamuni qabilasiga mansub aslzoda boʻlgan !

Manbalarga qaraganda, Ashokaning buddaviylarga yon bosishi braxman va jaynlar noroziligini kuchaytiradi. Jaynizm tarafdori boʻlgan Sampadi esa, yirik amaldorlar tarafidan qoʻllab-quvvatlanadi. Bu vaqtda mamlakatda ogʻir moliyaviy vaziyat vujudga keladi. Qoʻzgʻolonlar koʻtarilib, buddizmga qarshi boʻlgan imperatorning rafiqasi malika Tsharakshita ham shoh dushmanlariga qoʻshiladi. Budda rivoyatlariga koʻra, u xasta imperatordan taxtdan voz kechishini talab qiladi.

Miloddan avvalgi I asr - milodiy I asrda Shimoliy-Gʻarbiy Hindiston. Mauriylar davrining oxiridayoq, shimoliy-gʻarbiy Hindiston viloyatlarining koʻpchiligi amalda markazdan ajralib boʻlgandi. Keyinroq bu viloyatlar yunonlar ta'siriga tushib qoldi. Koʻplab hind-yunon hukmdorlari orasida podsho Menandr (hind an'anaviy manbalarida - Milinda) ajralib turardi. Chamasi bu hukmdor Budda dinini qabul qilgan yoki unga homiylik koʻrsatgan. Davlat poytaxti Shakala - hozirgi Sialkat shahri boʻlgan. Uning hukmdorligi Gandxara, Araxosiya, Panjobning ba'zi tumanlariga yoyilgandi.

Miloddan avvalgi I asrda Markaziy Osiyodan shimoliy-gʻarbiy Hindistonga Xitoy manbalarida Se qabilalari deb nomlangan sak qabilalari kirib keldi. Saklar avval hind-yunon sulolalari bilan toʻqnashib, ular qoʻl ostiga oʻtgan boʻlsalar, keyinchalik oʻz hind-sak davlatini barpo qildilar. Ulardan eng mashhuri, Maues chamasi **miloddan avvalgi birinchi asr oʻrtalarida** hukm surgan boʻlib, Gandxara, Svat vodiysi va taxminan Kashmirning bir qismi uning qoʻl ostida edi. Uning vorisi Az «*shohlar shohi*» nomiga sazovor boʻldi. Uning davlatiga Araxosiya ham kirar edi. Milodiy birinchi asrda maydonga hind-parfiya sulolalari chiqib, shiddatli kurashlar boshlanib ketdi. Ulardan Gondofor Gandxara, Araxosiya (hozirgi Afgʻonistonning bir qismi) hamda Sakaston, ya'ni saklar mamlakati (hozirgi Seyiston) nomi bilan ma'lum boʻlgan Drangiananing bir qismini qoʻlga kiritdi.

Miloddan avvalgi II asrda yashab hukmronlik qilgan Appolodot davri tangalaridagi chakra tasviri ushbu hukmdor budda dinini qabul qilgani yoki unga xayrixohlik qilganidan darak beradi. Milinda hukmronligi davrida yunon qoʻshinlari Sharqiy Hindistonga yurish qilganlar.

Hind tarixchilari **N.K.Sinxa** va **A.Ch.Banerji** yozishicha, **Menandr** qudratli hukmdor boʻlgan. U zarb etgan tangalar gʻarbda to Qobulgacha, Sharqda Matxura, hatto Bundelkxandgacha yetib borgan. Xuddi shu asrda hukmronlik qilgan yunon shohi Demetr yerlari Hind vohasi bilan cheklanib, «*hindlar hukmdori*» nomi bilan mashhur boʻlgan. U tangalarni ikki - yunon va hind-kxorashtxi tilida zarb etgan dastlabki hukmdordir. Mamlakat shimoliy-gʻarbidagi soʻnggi yunon hukmdori kushonlar shohi **Kadfiz I** tomonidan (**miloddan avvalgi I asr**) taxtdan tushirilgan.

Kushonlar va Guptalar Dramaturgiya va adabiyot. Kanishka **davri madaniyati.** davrida mashhur hind faylasufi, dramaturg Ashvagxosi yashab oʻtgan. Uning bizgacha yetib kelgan «*Buddaxacharita*» («*Buddaning hayoti*»), «*Saundrananda va Nanda*» va «*Shariputrarakana*» (Shariputrakananing budda dinini qabul qilishi haqidagi drama) asarlari ma'lum. Bu asarlar qadimgi hind dramaturgiyasi uchun asos boʻldi. Tadqiqotchilar Bxasa asarlari ham hind tragediyasining qadim namunalaridan deb faraz qiladilar. Yana bir - «*Loydan yasalgan aravacha*» deb nomlangan asarda (muallifi

Shudraka) xonavayron bo'lgan savdogar bilan joriya muhabbati hikoya qilinadi.

Qadimgi hind madaniyatiga hissa qo'shgan adiblardan yana biri - Kalidasa. Bizga uning uchta asari ma'lum: «*Shakuntala*» («*Uzuk orqali tanilgan Shakuntala*»), «*Malyavikagnimitra*» («*Malyavika va Agnimitra*»), «*Vikramarvashi*» («*Urvashining jasorati*»). Bundan tashqari, uning «*Megxudata*» («*Bulut - darakchi*») dostoni va ikki epik: «*Kumarsambavaxa*» («*Kumaraning tug'ilishi*»), «*Ragxuvansha*» («*Ragxu avlodi*») dostonlari saqlangan¹.

Ilm - fan. Bu davrda ilm-fan tez taraqqiy etdi. Matematika, falakiyot, tibbiyot, handasa kabi ilmlar rivojlandi. Mashhur matematiklar - Aryabxata, Braxmagupta va Varamixiralarning kashfiyotlari fanga katta yangiliklarni olib kirdi. O'sha davrdayoq Hindistonda Pifagor teoremasi ma'lum bo'lgan. Aryabxata ikki noma'lum chiziqli tenglamaning o'ziga xos yechimini kashf etdi. Ular 1, 2,... sonlarini ochib, sanoq tizimini soddalashtirdilar. Keyinchalik bu sonlar arablar tomonidan o'zlashtirildi. Shu sababli bu sonlar butun olamda arab raqamlari sifatida ma'lum bo'ldi. Braxmagupta qator tenglamalarni yechish usullarini topdi.

Falakiyot ilmiga oid asarlar ham bu davrga kelib ko'paydi va taraqqiy etdi. Guptalar davrida olimlar osmon yoritgichlarining harakati, Quyosh va Oy tutilishi sabablarini yaxshi bilganlar. **Aryabxata** Yer o'z o'qi atrofida aylanishini isbotladi. Braxmagupta ingliz olimi **Nyutondan** bir necha asr avval Yerning tortish kuchini aniqlagan. Varaxamixiraning «*Bixatsamxita*» asarida falakiyot, jo'g'rofiya va mineralogiyaga oid muhim faktlar keltirilgan.

Me'morchilik. Bu davr me'morchiligi yangi bosqichga qadam qo'ydi. Birinchi asr boshlarida Bombey yaqinidagi qoyalarda ibodatxonalar majmui barpo etildi. Hindistondagi eng ulkan - **Gayya** ehromining uzunligi 38 metr, kengligi va balandligi 14 metr bo'lgan. G'or ichidagi eng katta zalda ustunlar, supa va turli tosh haykalchalar joylashgan. G'or ichiga yorug'lik maxsus yog'och panjaralar orqali tushgan. Undagi barcha tasvirlar monolit qoyalardan tashkil topgan. Ularning hajmi kishini hayratga soladi. Ajanta ehromlari guptalar davrida me'morchilik naqadar yuksak darajaga ko'tarilganini

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

ko'rsatadi. **V asrda** bunyod etilgan Sangi ibodatxonasi devorlarida Ashoka ustunlaridagi kabi sherlar tasviri tushirilgan. Bu hind me'morchiligining eng yaxshi an'alaridan hisoblanadi. Poydevori hozirgacha saqlanib qolgan Nalandada ulkan universitet bo'lib, unda ko'plab talabalar tahsil olganlar. **IV asrda** Budx - Gayyada hashamatli ehrom qurilishi boshlanib, bosh minorasi balandligi 58 metrga yetgan. U Osiyodagi eng baland budda dini ehromidir. Muhtasham me'moriy obidalar Shimoliy Hindistonda ham ko'plab bunyod etilgan. Qurilishi **II asrda** boshlangan Taksila va Dxarmarajika ibodatxonasi **V asrga** kelib mahobatli inshootga aylandi.

Tasviriy san'at. Bu davrda tasviriy san'at va haykaltaroshlikning bir necha yo'nalishlari vujudga keldi. Agar Markaziy Osiyoda, Baqtriya davlatida dunyoviy g'oyalar hukmron bo'lgan bo'lsa, Shimoliy Hindistonda gandxara, Gang vodiysida - matxura, janubda esa andxra maktablari mavjud edi. Gandxara maktabida budda ta'siri kuchli bo'lib, gandxara haykaltaroshligida Buddha tasviri paydo bo'ldi. Bu davrga qadar Buddaning qiyofasi Shartli belgilar yordamida ifodalangan. Gandxaraning haykaltaroshlik an'analari uzoq va yaqin mamlakatlar san'atiga ham ta'sir ko'rsatdi. Buddaviy haykaltaroshlik bilan birga dunyoviy haykaltaroshlik, ya'ni matxura san'ati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunda Kushon hokimlari va oddiy fuqarolar haykallari yasalgan. Matxura haykaltaroshlik maktabi guptalar davrida Shimoliy hind an'analari ta'sirida yuzaga keldi. Bunda Buddha tasvirida oddiylik va odmilik ko'zga yaqqol tashlanadi. Hindu dinining tiklanishi ham haykaltaroshlikda o'z ifodasini topdi. ***Vishnu*** va ***shiva*** diniga oid tasvirlar keng yoyildi.

Guptalar davrida qadimgi hind rassomchilik san'ati muhim bosqich bo'ldi. Ajantadagi mashhur devor naqshlari hind va jahon san'atining bebaho yodgorligidir. U yerda g'ordagi suratlar syujeti juda xilma-xil: Buddha hayoti, jatakalarga oid suratlar, buddaviy portretlar, odamlar tasviri, turli naqsh va bezaklar shular jumlasidan hisoblanadi. Shuningdek, tabiat manzaralari va oddiy hayotiy ko'rinishlar ham ular qatoridan joy olgan. Mazkur rasmlar guptalargacha bo'lgan davrlarda yaratilib, I asr davomida takomilga erishgan. Bu buyuk san'at durdonalari nafaqat hind, balki butun Sharq ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi.

Qadimgi Hindistonning tashqi aloqalari. Qadimgi Hindiston Sharq va G'arb mamlakatlari bilan keng aloqalar o'rnatgan. Bu munosabatlar yillar davomida shakllanib, har ikki mintaqa xalqlari madaniyatiga ta'sir etgan.

Qadimgi Hindiston va Eron. Eron Hindistonning eng yaqin qo'shnisi bo'lib, u bilan madaniy va ma'rifiy aloqalar o'rnatgan birinchi mamlakatlardan edi. Arxeologlar bu ikki mamlakat aloqalari neolit davridan boshlangan deb aytishadi. Har ikkala mamlakatda ham yuksak ziroatchilik mavjud bo'lib, shahar sivilizatsiyasiga o'tish jarayonlarini deyarli bir vaqtda boshdan kechirdi. Bu ikki mamlakat savdogarlarining o'zaro oldi-sotdisi **miloddan avvalgi IV-III asrda** taraqqiy eta boshlagan. Xarappa sivilizatsiyasi davrida bu munosabatlar voqyea, rivoyat va dostonlarda saqlanib qoldi. Antik davr mualliflarining ma'lumotlariga ko'ra, shimoliy hind o'lkalari miloddan avvalgi **518 yilda** Doro I tarafidan ishg'ol etildi. Galileyadagi jangda Hind daryosining janubiy hududlarida yashovchi aholi forslar tarafida kurashdi.

Ahamoniylar davrida Eron va Hindiston o'rtasida savdo aloqalari mustahkamlandi. Suzadagi (Eron) saroy qurilishida Hindistondan keltirilgan qurilish materiallari ya'ni, Gandharadan temir daraxti va fil suyagi keltirilgani Doro yozuvlarida saqlanib qolgan.

Miloddan avvalgi V asrgacha Bobilda topilgan hujjatlar va **miloddan avvalgi V asr oxiri IV asrlarga** oid Persepoldagi Elam matnlarida aytilishicha, Hindiston, Eron va Mesopotamiya viloyatlari bir imperiya bo'lib birlashganidan so'ng, savdo va madaniy aloqalar kuchaygan. Babil hujjatlarini o'rgangan hind Sharqshunoslari Nippur atrofida hind koloniyalari bo'lganligini va ularning nomlarini aniqladilar. Ma'lum bo'lishicha, hindlar tub aholi bilan yaxshi munosabatda bo'lganlar, egallagan yerlari uchun ijara to'lovi haqida Shartnomalar tuzganlar. Ular harbiy xizmatni ham ado etganlar. Persepol yozuvlari Erondan Hindistonga o'tgan. Masalan, **miloddan avvalgi 498-yilda** Qarabbo ismli hindning 180 kishilik karvonga bosh bo'lib, Hindistonga borganligi haqida ma'lumot beriladi. Ahmoniyilar tarafidan hind yerlariga oromiy yozuvi kiritildi va bu tub aholi madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi tadqiqotchilar qoya toshlariga farmonlarni yozdirish forslardan kirib kelgan odat deb

ta'kidlaydilar. Madaniy jarayon uyg'unlashib bordi. Sanskrit tilida forscha soʻzlar paydo boʻldi.



Bilasizmi?

“Maxabxarata” (“Bxarata avlodlari jangnomasi”) sanskrit tilida yozilgan b-b, 100 ming baytni oʻz ichiga olgan 18 kitobdan iborat afsonaviy shoh Bxaratning avlodlaridan 2 toifa: kavravlar va nandavlarning oʻzaro adovatlari va urushlari tarixi talqin etiladi.

Rus hindshunoslari **G.M.Bongard-Levin** va **G.F.Ilin** Hindistonning antik adabiyot davridan keyingi davrni «*elchixonalar davri*» deb ataydilar. Ular **miloddan avvalgi VI asr oxiri - III asr boshini** ana shu nom bilan belgiladilar. Deymaxning «*Indika*» asari deyarli saqlanib qolmagan boʻlsa ham, u orqali Ashokaning shoh Antiox (Suriya), Antigen (Makedoniya), Eneolit (Epir) va Ptolemeyga (Misr) elchi yuborganligi ma'lum. Bu yozuvlar Hindistonning Yuqoridagi davlatlar bilan aloqasidan dalolat beradi.

Rim imperiyasi bilan Hindiston oʻrtasida ham diplomatik aloqalar mavjud boʻlgan. Antik manbalarda imperator Avgust (**miloddan avvalgi 24-14 yillar**), Trayan (**98-117 yillar**), Andrian (**117-138 yillar**) va yana qator hukmdorlar huzuriga hind elchilari yuborilgani haqida aytiladi. Yunon-Rim dunyosi Hindiston diniy-ma'rifiy manbalari va falsafasi bilan yaqindan tanishdi. **III asrda** yashab oʻtgan mashhur faylasuf Filostrat Hindistonga sayohat qilgani, u yerni oʻrgangani ma'lum.

Megasfen Chandragupta hayoti haqida yozib, **“shoh oshpazlari unga barcha hindlar iste'mol qiladigan sharobdan berishadi”** deb ma'lumot keltiradi. Shubhasiz, sharob Yunonistondan keltirilar, qadimgi tamil shoiri ularning xushta'mligiga e'tibor qaratadi. Hindiston va Gʻarb oʻrtasidagi savdo aloqalari oʻzaro madaniy aloqalarga ham muayyan hissa qoʻshgan. Hindistondan turli dorivor va ziravorlar, zeb-ziynat buyumlari, metall va yana boshqa qimmatbaho mahsulotlar olib keltirilar, oʻz navbatida Oʻrta Yer dengizi mamlakatlaridan turli mahsulotlar keltirilib, savdo qilinardi. Shri-Lanka, Hindiston va Bangladesh bandargohlaridan topilgan Rim sopol idishlari va tangalari bu davlatlar oʻrtasidagi savdo-sotiq yaxshi

rivojlanganidan dalolat beradi. Hozirgi Putuchera yaqinida Arekamedura nomli Rim savdo faktoriyasi topilishi alohida ahamiyatga ega. Pompeydagi arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan fil suyagidan yasalgan Lakshmi ma'budasi haykali antik dunyo hind madaniyatini yaqindan bilganidan dalolat beradi. Qadimgi tamil yozuvlarida yavanlar haqida ko'plab ma'lumotlar qolgan. Janubiy Hindistonda yunonlar va rimliklarni yavanlar nomi bilan ataganlar. Ularning ba'zilari bu yerlarda muqim yashar, ko'pchiligi mahalliy shohlarga yollanib, ularning xizmatini qilardilar.

Gandxara san'atining hind madaniyatida o'ziga yarasha o'rni bor. Bu yerda Ellin va Rim an'analari hind va budda dini an'analari bilan qorishib ketgan. Tadqiqotlar hindlar yunonlardan ko'p narsa olganlar degan xulosaga olib keladi. Tangalar yunonlardan avval ham mavjud bo'lgan, biroq keyinchalik ularning ta'siri yaqqol ko'zga tashlandi. Sopol buyumlar yasash, metall eritish va mis quyishda ham antik dunyo ta'siri namoyon bo'ladi. Hindistonda yunonlar boshqargan davlatlarning so'nggi sulolalaridan so'ng ham, davlat boshqarish tizimining ularga xos ma'muriy yo'nalish va usullari ancha vaqtgacha saqlanib qoldi. Ba'zi joylarda Makedoniya taqvimini qo'llanib, san'at va hunarmandchilikda ham yunon an'analari davom etdi. Hind mualliflari Markaziy Hindistondagi Ujayin astronomik rasadxonasi bilan Aleksandriya observatoriyasi o'rtasida bog'liqlik borligini qayd etdilar. Shuningdek, ayrim ko'hna yunon kitoblarida hind ziyolilarining Suqrot bilan uchrashganligi ma'lum. Pifagorning hind falsafasiga ta'siri beqiyos. Professor **X.Roulinson** bu to'g'rida, *«Pifagorchilar targ'ib qilgan deyarli barcha falsafiy, matematik va boshqa ma'lumotlar miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda ma'lum bo'lgan»* degan edi.

Rudramona hukmdorligi davrida janubiy-Sharqiy mamlakatlarning ellinlar bilan aloqalari rivojlandi. Ilm-fanni yuksaltirgan Iskandariya bilan mustahkam aloqalar o'rnatildi. **150-yillarda** Yunon tilidan sanskrit tiliga astrologiyaga oid matnlar tarjima qilindi. Bizga qadar qadim *«Yavanajaki»* kitobi (**269-270-yillar**) yetib keldi. Olimlar Bumant bilan tanishgach, uning Iskandariyada yozilganini isbotladilar. Epigrafik ma'lumotlarga ko'ra, Sharqiy kshatrap tumanlarida yunonlar yashaganlar. Ehtimol ular bu yerlarda bir vaqtlar yashagan yunonlar avlodi yoki savdogar yunonlar bo'lishi

mumkin. Vaqt o'tishi bilan Dekanda yavanlar hindlashib, ko'pchiligi budda va brahmanlik dinini qabul qilganlar. Yunonlar va rimliklar hind hamda Bobil olimlarining ilmiy yutuqlarini o'rganib, xususan, falakiyot ilmini o'zlashtirganlar.

Parfiyadan O'rta Yer dengiziga o'tadigan Buyuk ipak yo'li vujudga kelgan davrdan boshlab Hindistonning Markaziy Osiyo, alalxusus, Sharqiy Turkiston bilan aloqalari yuksaldi. Qadimgi Turkiston aholisi ko'pchilikni tashkil etmas edi. Kam sonli aholi sekin-asta shahar va qishloqlar barpo etib, yuksalish tomon qadam qo'ya boshladi. Hind-Yevropa negizi **miloddan avvalgi II ming yillikda** ko'chib borgan to'xar qabilalari va keyinchalik Shartli ravishda xotan-saklar deb nom olgan qabilalardan tashkil topgan edi. Bundan tashqari Sharqiy Turkistonda so'g'dlarning katta guruhlari, Markaziy Osiyoning boshqa qabilalari hamda hindlar yashardi. Mintaqa tarixida xun-nu yoki xunlar, shuningdek, boshqa ko'chmanchi qabilalar o'ziga xos iz qoldirganlar.

Ilk tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy va Hindiston o'rtasida savdo yo'llari **miloddan avvalgi II asrda** paydo bo'lgan. Oradan bir asr o'tib, ular yanada rivojlangan. Quruqlikdan o'tgan asosiy yo'l - Buyuk ipak yo'li bo'lgan. Birma va Sichuan orqali o'tgan yo'llar keyinroq paydo bo'lgan. Sichuanda budda ibodatxonalari qurilib, turli-tuman Budda haykallari bunyod etilgan.

Fa Syan so'zlariga ko'ra, u **414-yilda** Hindistondan Xitoyga dengiz orqali qaytadi. Bu yo'l Lanka oroli va Katanga orqali o'tgan. Tarixchilarning fikricha, ikkinchi asrda xitoyliklar ekspansiyasi G'arbga qaratilgan. Ayni shu sabab ikkala mamlakat orasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish talab etilgan. Biroq mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar Kushonlar davrida ancha yomonlashgan. Xan imperiyasining parchalanishi (II asr oxiri - III asr boshi), mamlakatdagi iqtisodiy tanglik va siyosiy tarqoqlik bu mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni tiklashda muammolar paydo qildi.

Parfiya davlati hozirgi Turkmaniston janubida, Eronning shimoli Sharqida joylashgan edi.

V asrga kelib Xitoy va Hindiston o'rtasidagi aloqalar kuchaya boshladi. 70 yil davomida Hindistondan Xitoyga sakkiz nafar elchi tashrif buyurdi. Madaniy aloqalar kuchayishi natijasida Xitoyga buddizm kirib keldi. **VI-asrdagi** Xitoy imperatori Mindi taklifiga

ko'ra, ikki buddaviy kohin - Dxarmaratna va Kashyapa Matanga Xitoyning Chanan shahriga kelgan (**603-yil**). O'sha vaqtda bu shaharda ilk budda ibodatxonasi qurilgan. Buddizm tarixi bo'yicha mutaxassis **E.Syurix** bu din Xitoyga **65-yildan** boshlab kirib kelgan deb aytadi. Biroq **III asrdagina** chuqur ildiz otdi. Buddizm Xitoyda keng rasm bo'lishi natijasida ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalarda yangi davr boshlandi. Xitoy sayyohlari **Fa Syan, Syuan Szyan** budda dini targ'ibotchisi bo'lish bilan cheklanmay, qadimgi Hindiston tarixiga oid qimmatli asarlar qoldirdilar. O'sha vaqtda ko'plab buddaviy kitoblar hind tilidan xitoy tiliga o'girildi. Keyinroq mashhur hind olimlari Buddabxadra, Kumarajiva, Paramartxa va Badxidxarmalar bir guruh shogirdlari va rohiblari bilan birga Xitoyga safar qilganlar. Ular Xitoyga o'zlari bilan birgalikda sanskritdan xitoy tiliga tarjima qilingan budda ta'limotiga oid kitoblar keltirganlar. Hind olimlari keyinroq xitoy tilida ham original asarlar bitganlar. Ular Xitoy adabiyoti, xususan, she'riyatiga ham katta hissa qo'shganlar. Ikki xalq orasidagi bunday aloqa tufayli xitoyliklar hind astronomiyasi va matematikasini o'zlashtirdilar. Xitoy amaldorlari hind olimlaridan saboq oliWar, ibodatxonalar qurishda hind uslubidan keng foydalanishardi. Xuddi shu jarayon asosida Xitoyga hind musiqasi ham kirib keldi.

Xitoy hududida rasm bo'lgan budda ta'limoti tez orada Koreya va Yaponiyaga ham tarqaldi.

Orolga ilk hindu-oriylar kelishi bilan, Hindistonning Shri-Lanka madaniy aloqalari ham rivojlandi. Ular hind madaniyati, singal adabiyoti va san'atiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning naqadar tutash ekanligini ularning jug'rofiy va etnik yaqinligidan ham bilish mumkin. Bu ikki mamlakat deyarli bir xil tarixiy jarayonlarni boshidan kechirgan. Taxminlarga ko'ra, hindlar paleolit davridayoq bu orolga kelganlar. Arxeolog olimlar bu mamlakatlarning neolit davrini o'rganib, ular madaniyatining turli jihatlari o'zaro o'xshashligini aniqlaganlar. To'plangan ma'lumotlarni qiyoslash asosida miloddan avvalgi minginchi yillarda Shri-Lankada tili hinduoriylarga o'xshagan qabilalar paydo bo'lganligi aniqlandi.

Miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Shri-Lanka Hindiston xalqlaridan biri - cholalar bosqinini boshidan kechirdi. Lanka hukmdori Gajabahu (**113-135**) cholalarga qarshi kurash olib

bordi. Natijada Hindistonning janubiy hududlarida singal hukmdorligi yuzaga keldi. Bu hol orolda mahalliy va hind madaniyati rivojiga ta'sir ko'rsatdi.

Ikki buyuk o'lka - Hindiston va Markaziy Osiyo dunyo sivilizatsiyasi beshigi hisoblanadi¹. Hindiston va Turkiston kabi buyuk o'lka xalqlari orasida doimo siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lib, ular hozir ham davom etib kelmoqda. Bu ikki yurt ko'p jihatdan o'xshash, har ikkisi ham Buyuk ipak yo'lida joylashgan.

Neolit davrida Markaziy Osiyo va Hindiston shimolida bir-biriga yaqin dehqonchilik ekinlari ekilgan. Oltintepada (Janubiy Turkmaniston) olib borilgan qazishma ishlari natijasida Hind vodiysi xalqlari bilan Janubiy turkman qabilalari orasida bronza, ya'ni Xarappa madaniyati gullagan bir davrda mustaqil aloqalar o'rnatilgani ma'lum bo'ldi. Professor **M.Ye.Massonning** fikricha, Xarappa madaniyatiga oid fol ochish uchun ishlatilgan fil suyagi topilgan. Xuddi shunday o'yinchoq suyaklar Xarappa va Moxenjo Darodan ham topilgan. Markaziy Osiyo savdogarlari ushbu buyumni Hindistondan olib kelganligi haqiqatdan uzoq emas. Janubiy Turkmanistondan topilgan uch boshli mahluq ko'rinishidagi muhrlarda xuddi Xarappa muhrlari kabi ikki echki boshi va baliq tasvirlangan.

Oltintepada topilgan yana bir noyob buyum bu ikki belgili qadimiy hind yozuvidir. M.Ye.Masson unda jonivorlar rasmi emas, balki piktografik matn mavjud ekanligiga e'tiborini qaratgan. Uning fikricha, Oltintepada yashagan biron bir kimsa hindcha matnni o'qiy olmagan. Bundan kelib chiqib, muallif Markaziy Osiyo janubidagi bir necha qabilalar dravid tillari oilasiga mansub degan fikrni o'rtaga tashladi.

Kushonlar davrida Gandxara maktabi va uning buddaviy shakli Tohariston madaniyatiga ham ma'lum ta'sir o'tkazdi. Buni Dalvarzintepada olib borilgan qazish ishlari natijalari ham tasdiqlaydi. Bu yerda **miloddan avvalgi III-II asrda** yunon-baqtriya shaharlari bo'lib, ular, ayniqsa, **miloddan avvalgi I asrda-milodiy I asrda** yuksalganlar. Aynan shu vaqt - **Kadfiz I** va **Kadfiz II** hukmronligi davrida Baqtriyaga budda dini kirib keldi. Mazkur maskanda ehrom,

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

hamda unda bir qancha haykal va supachalar bor edi. U yerdagi loy va chinnidan yasalgan haykalchalar devorga osilgan. Haykalchalar an'anaviy hind san'atiga oid bo'lsa-da, ularda mahalliy urf-odatlar aksini ko'rish mumkin.

Xalchayon va Dalvarzintepa haykallarini taqqoslash oqibatida shu ma'lum bo'ldiki, har ikki madaniyat turli yo'ldan borgan. Masalan, Xalchayon haykallari portret ko'rinishida, real va budda an'alaridan ancha yiroq, Dalvarzintepadagi suratlar esa ancha keyin ishlangan. Shuningdek, bu san'at Baqtriya maktabini ellin hind-budda an'alarini bilan bog'lagan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, qadimgi Hindistonning jahon madaniyati, xususan, Sharq madaniyatiga qo'shgan hissasi ulkan. Qadimgi Hindiston asrlar mobaynida G'arb va Sharqni ko'plab mamlakatlari bilan aloqalarni kengaytirgan. Ular bilan turli jabhalarda aloqalarni mustahkamlash bilan birga, o'z madaniyati va urf-odatlarini ham saqlab qolishga erishdi. Qadimgi hind madaniyati hind xalqining bo'lg'usi madaniyatiga asos bo'ldi. Bu madaniyat shu darajada keng qamrovli, rang-barangki, jahonning istalgan burchagida uning ta'siri sezilib turadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:



1. Qadimgi Hindiston manbashunosligi va tarixnavisligi.
2. Mauriylar davrida madaniyat.
3. Mauriylar davrida me'morchilik va haykaltaroshlik.
4. Kushonlar va Guptalar davri madaniyati.
5. Qadimgi Hindistonning tashqi aloqalari.

13-mavzu. Eronda ilk yirik davlatlarning vujudga kelishi: Ahamoniylar davlati. Yirik istilochilik urushlari

Reja:

1. Ahamoniylar davlati.
2. Doro I ning davlat tepasiga kelishi.
3. Ahamoniylar davlatida satrapliklar va savdo - sotiq.
4. Doro I ning tashqi siyosati.
5. Qadimgi Eron dini va madaniyati.

Tayanch iboralar: *Kayxisrav, Ashshurbanipal, Nineviya, "Anshan shohi", "Parsu", "shahanshohi", Nabonid, Marduk, Smerdis, Samoskiy, Siloson, Anis, Ujagoresent, Bardiya, Kir II, Doro I, Oliy davlat noziri, "shoh hakamlari", "darik", "o'lmas" piyoda, satrap, Nexo, Yaksart, Behistun yozuvi, "Avesto", "Gatlar", Axuramazda, "saoshiant", Mitra, Anaxita, dualism, gnostitsizm*

Ahamoniylar **Kayxisrav II** yurishlari. Eron hududiga davlati. midiyaliklar bilan birga boshqa qabilalar ham kirib kelgan. Qabilalardan biri Ossuriya yozuvlarida parsua nomi bilan atalib, ular qadimgi eroniylarning ajdodlari deb taxmin qilinadi. Ossuriya shohlari bu qabilalar bilan kurash olib borganlar. Parsualar Elam o'lkalaridan biri - Anshanda mustahkam o'rnashib, bu yerda qabilalarning yirik ittifoqini tashkil qilganlar. Elamning vayron etilishi to'g'risidagi rivoyatda Ossuriya shohi **Ashshurbanipal "Parsuash shohi Kayxisrav"**ni eslatib, **Kayxisrav** Ossuriya shohiga bo'ysungani va o'zining katta o'g'lini sovg'a-salomlar bilan Nineviya shahriga yo'llaganini aytadi. Ossuriylarga, so'ngra midiyaliklarga qarshi kurashda Eron qabilalari ittifoqi kuchayib, mustahkamlangan. **Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida** ancha yirik Eron shohligi tashkil topgan.

Tarixiy an'analar va antik mualliflar ushbu davlat shohi **Kayxisrav II** Ashurbanipalga zamondosh - **Kayxisrav I** vorislaridan biri ekanligini bir ovozdan ta'kidlaydilar. **Kayxisrav II** qadim va qudratli Elamning yuksak madaniyatining azaliy an'analariga tayanish niyatida, o'zini "**Anshan shohi**", shuningdek "**Parsu**", ya'ni Eron shohi deb ataydi. Gerodot asarida **Kayxisravning** bolalik, o'spirinlik

yillari va faoliyati tasvirlangan bir qancha rivoyatlar saqlanib qolgan. Ulkan davlatga asos solgan buyuk shaxs hayotini tasvirlagan bu rivoyatlar zamonasiga xos, afsona shaklida berilgan. **Kayxisravning** faoliyati o'z zamondoshlariga kuchli ta'sir ko'rsatgani va o'z davrining buyuk arbobi **Kayxisravning** obrazi haqida xalq ijodi, qisman kohinlar madhida shunday hikoya bor: shoh **Sargon I** kabi **Kayxisrav** ham asrandi bola bo'lib, uni bir cho'pon tarbiyalab o'stirgan. Boshqa bir hikoyaga ko'ra esa, Rimga asos solgan **Romul** va **Rem** singari **Kayxisravni** ham bir jonivor boqib katta qilgan emish. Eron shohligiga asos solgan bu mashhur shaxsning sirli kelib chiqishi, uning dunyoga ilohiy tarzda kelganligi haqidagi afsonalarga hatto Gerodot ham tanqidiy nazar bilan qaragan. Bunday afsonalar Eron shohlari qadimgi Sharq dunyosini qurol bilan bo'ysundirib, istilo qilingan ko'plab mamlakatlar ustidan Eron *“shahanshohi”* hokimiyatini o'rnatish maqsadida keyingi zamonlarda yaratilgan bo'lishi ham mumkin.

Tarixiy solnomalarda **Kayxisrav** Midiya shohi Astiagni asir qilib olgandan keyin, unga o'z davlatidan o'rin berganligi rivoyati bor. Bu rivoyat Midiya zodagonlari Eronda fors zodagonlari bilan bir xil imtiyozga ega bo'lganlari to'g'risidagi fakt bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin.

Kayxisrav Midiyani istilo qilganidan keyin ham istilochilik siyosatini davom ettiradi. Kayxisrav qisqa vaqt ichida Armaniston, Kappadokiya, Lidiya (**miloddan avvalgi 547 - 546 yillar**) va nihoyat Bobilni (**miloddan avvalgi 538 yil**) istilo qiladi. **Navuxodonosor II** zamonida yuksak taraqqiy etgan yangi Bobil shohligi savdo sohasida yetakchi bo'lib, poytaxti Bobil shahri qudratli, yengilmas va mustahkam qal'a edi.

Kayxisrav Bobilni osonlik bilan qo'lga kiritgani va o'z davlatiga qo'shib olgani barcha manbalarda tasdig'ini topadi. Bunday muhim siyosiy hodisa to'g'risida **Nabonidning** Bobil solnomasi, Bobil kohini **Berosning** tarixiy asari, yunon tarixchisi Gerodot asarlari va nihoyat **Kayxisrav** farmonlarida ham ma'lumot saqlangan. **Kayxisrav** farmonlarining mixxat bilan yozilgan matni hozirga qadar saqlangan. Unda eroniylarning ko'p sonli qo'shini *“Bobilga qarshiliksiz kirib keldi”* deyiladi. Bu yerda **Kayxisrav** o'zini Bobil, uning madaniyati va dini homiysi qilib ko'rsatadi. **Kayxisrav** Bobilni istilo qilishda shu

yo'sinda mahalliy koinlar ko'magiga tayangani shubhasiz. **Kayxisrav** o'z manifestida - "Hamma muqaddas joylarga g'amxo'rlik ko'rsatdim, binobarin, Bobil xalqi ham ko'nglidagi tilak-orzulariga erishdi, uni berahm zulmdan qutqardim... biz ulug' tangri Mardukning yuksak nomiga atab chin qalbimizdan quvonch to'la madhiyalar o'qiganimizdan keyin, uni izzat qiluvchi men, ya'ni shoh Kayxisravga va o'g'lim **Qambizga** va barcha qo'shinimizga fотиha berdi" deydi.

Butun qadim Sharqni o'z qo'l ostida birlashtirishga da'vo qilgan Eron davlatiga Bobilning qo'shib olinishi Bobilning savdo va quldor zodagonlariga tashqi savdoni rivojlantirish uchun keng yo'l ochib berdi. Shu sababdan, Bobilning zodagon savdogarlari Eron davlati tarkibiga kirish tarafdori bo'lib, savdo ko'lamini kengaytirishdan manfaatdor edilar. Bobil koinlari ham istilochilarni qo'llab-quvvatlaganlar.

Kayxisrav Bobilni istilo qilish bilan cheklanmadi. U istilochilik siyosatini davom ettirib, Bobil g'arbidagi mamlakatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishga intilib kelgan zodagonlarning yakka hokimiga aylandi.

Qambiz (miloddan avvalgi 529 - 523 yillar) va eroniylarning Misrni istilo qilishi. **Qambizning** shohlik tarixi bizga yunon tarixchilari hikoyalari va eroniylarning Misr istilosi davriga oid Misr yozuvlaridan ma'lum. Kayxisrav vafotidan keyin uning katta o'g'li **Qambiz** qonuniy vorisi sifatida taxtga o'tiradi. Biroq bu davrga kelib, mamlakatda ola-g'ovur boshlanadi. **Kayxisrav** tomonidan bo'ysundirilgan, ammo iqtisodiy jihatdan Eronga qaram bo'lmagan ayrim mamlakatlar davlat tarkibiga hali butkul kirib ulgurmagan edilar. **Kayxisrav** bo'ysundirgan ayrim xalqlar mustaqillikka erishish uchun bosh ko'tarib chiqishlari tayin edi. Ba'zi xalqlar **Kayxisrav** o'limidan foydalanib, Erondan ajralib chiqdilar. Qo'zg'olonlarni bostirish uchun **Qambiz** ko'p kuch sarflashiga to'g'ri keldi. Bu qo'zg'olonlarga Kayxisravning ikkinchi o'g'li ham aralashgan bo'lsa, ehtimol. Behistun yozuvida uning ismi Bardiya, **Gerodotning** asarida esa, Smerdis deb berilgan. **Ksenofont** aytishicha, "*Kayxisrav vafot etishi bilan uning o'g'illari o'rtasida nizo kelib chiqdi, shahar va qabilalar Eron tarkibidan chiqa boshladi*". **Qambiz** Eron davlatining to'laqonli shohi sifatida o'z mavqeyini mustahkamlash maqsadida ukasi Bardiyani qatl qildiradi, ammo Behistun yozuvlarida qayd

qilinishicha, *“Kambujiy Bardiyani o‘ldirganida xalq bundan bexabar qolgan”*.

G‘oyat katta qo‘shinini va ittifoqchilari - finikiyaliklar, kiprliklar va samosliklarning kuchli flotiga tayanib, **Qambiz miloddan avvalgi 526 yilda** Misrga qarshi yurish boshlagan. Bu yurishda Lidiyaning sobiq shohi, kekxa Krez va Polikrat Samoskiyning akasi Siloson Qambiz bilan birga ishtirok etgan. Qambiz arab qabilalari yo‘lboshchisi bilan bitim tuzishga muvaffaq bo‘lib, unga ko‘ra, u Sinay ko‘lidan o‘tayotgan Eron qo‘shinlarini suv bilan ta‘minlagan.

Yunon tarixchilari, **Qambizning** Misrda juda shafqatsiz tartib o‘rnatganligini so‘zlaydilar. **Strabon Qambiz** tomonidan Memfis yoqib yuborilganligi haqida yozadi; Diodor esa *“Qambiz Ramesseyni talon-taroj qildi”* deydi. **Gerodot Qambiz** yovuzliklarini tasvirlar ekan, uni *“aqlsiz va tentak odam”* deb ataydi. Gerodot, Qambiz g‘azabi qo‘zg‘ab, o‘zini bilmay qolgan paytda qadimgi misrliklarning muqaddas buqasi - Anisni nayza bilan o‘ldirganidek, homilador xotini Raxshonani o‘ldirgan va umuman Qambiz *“telbalik kasaliga”* muhtalo bo‘lgan odam edi, deb hikoya qiladi. Qambizning shafqatsizligi va Misrni boshqarishdagi zolimligi haqida yunon tarixchilari so‘zlarini Elefantin papiruslaridagi yozuvlar ham qisman tasdiqlaydi. Papirusda: *“Qambiz Misr xudolarining barcha ibodatxonalarini buzib tashladi”*, deyiladi. Shu davrga oid Misr yozuvlaridan birida: *“butun mamlakat boshiga bu qadar og‘ir kulfat tushgan emas”*, deyiladi.

Qambizning istilochilik siyosati Midiya va Eron davlati tarkibidagi bir qancha mamlakatlarda norozilik kelib chiqishiga, Misrda vatanparvarlik ruhi kuchayib, yunon olami junbushga kelishiga sabab bo‘ldi. Misrda g‘alayonlar boshlanib, eroniylar jazo choralarini qo‘llyadilar, jumladan, XXVI sulolaga mansub so‘nggi Misr fir‘avni **Psametix III** ni o‘ldiradilar: **Gerodot** guvohligicha, u *“misrliklarni qo‘zg‘olonga chaqirishda ayblanadi”*. Shuning uchun Qambizning shafqatsiz va mustabidligi haqida afsonalar to‘qilgan. Bu afsonalar yunon tarixchilari, jumladan Gerodot asarlarida aniq aks etgan. Nasihatgo‘y yunon tarixchilari *“insonparvar va odil”* Kayxisravni *“rahmsiz va farosatsiz”* Qambizga qarshi qo‘yadi, lekin har ikkovining xislatlari ham mubolag‘alashtirib yuborilgan. Masalan, Gerodot eroniylar *“Qambizni xoja, Kayxisravni ota deb ataydilar,*

chunki Qambiz “shafqatsiz va takabbur”, Kayxisrav esa “shafqatli va fuqaro foydasini ko‘zlaydigan odam edi” deydi.

Qambiz Misr dinini tahqirlamagan, aksincha, Ujagoresent guvohligicha¹, Misr kohinlarining eroniylarga tarafdor doiralari tayanib ish ko‘rgan. Masalan, uning hikoya qilishicha, **Qambiz** Saisdagi ma'buda Neyt ibodatxonasini tiklagan, qadimgi Misr ismini va Misr fir'avni unvonini qabul qilgan va hatto ma'buda Neyt Sharafiga uyushtirilgan diniy marosimlarda qatnashib turgan. Binobarin, yunon tarixchilari yozganidek, **Qambiz** misrliklar diniga tish-tirnog‘i bilan qarshi bo‘lmagan. Ruhoniyning faxr bilan aytishicha, **Qambiz** uning iltimosiga ko‘ra *“Neyt ibodatxonasiga kirib olgan osiyoliklarni haydab chiqarish, ularning ibodatxona ichidagi uylarini buzib tashlash... Ibodatxonani poklash, uning barcha xizmatchilari va soqchi kohinlarini qaytarish” to‘g‘risida buyruq bergan. “Shoh hazratlari Saisda ilgari gidek, buyuk xudolar onasi - ulug‘ Neyt Sharafiga nazr-niyoz berish va qurbonlik keltirishga buyruq berdi”.*

“Qambiz Misrga jo‘nab ketganidan so‘ng xalq unga Behistun yov bo‘lib, mamlakatda hamda Eron va Midiyada, yozuvida: shuningdek, boshqa mamlakatlarda unga qarshi gap-so‘z ko‘paydi” deyiladi.

Qambizning Misrda uzoq vaqt qolishi, uning Efiopiyaga yurishining muvaffaqiyatsiz chiqishidan foydalanib, Midiya kohinlaridan Gaumata o‘zini Eron shohining o‘ldirilgan ukasi **Bardiya** deb atab, **Qambizga** qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Bu qo‘zg‘olonni Midiya mustaqilligini tiklash va zodagonlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tiklash niyatida Midiya zodagonlari hamda kohinlari tashkil qilganlar. **Gaumata** xalqqa murojaat qilib, ularni harbiy majburiyatdan uch yilgacha ozod qilishi va soliqlarni kamaytirishi to‘g‘risida va‘dalar berib, atrofiga ko‘pgina kuch to‘plashga muvaffaq bo‘ladi. **Qambiz** vafotidan keyin ko‘pgina tobe mamlakatlarda Eron hukmronligiga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tariladi. Ulkan Eron davlati tezda parokandalikka uchraydi.

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Doro I ning davlat tepasiga kelishi. Davlat apparati. **Miloddan avvalgi 523 yil boshlarida** Qambiz Efiopiya yurishidan qaytib, Misr poytaxti Memfisda ko'tarilgan qo'zg'olonni bostiradi. **Miloddan avvalgi 522 yilning bahorida** esa ukasi Bardiya Eronda qo'zg'olon ko'tarib, o'zini shoh deb e'lon qilganligi ma'lum bo'ladi.

Ammo u yo'lda Bardiya tarafdorlari tomonidan o'ldirildi. Bardiya aslida kimligi to'g'risida turli ma'lumotlar mavjud. Mashhur Behistun yozuvlari, shuningdek, **Esxil, Gerodot, Ktesiy, Pompey Trog, Poliyen** kitoblarida u to'g'rida turlicha faktlar keltirilgan.

Behistun yozuvlarida **Qambiz** Misr yurishidan oldin Bardiyani o'ldirganligi haqida aytiladi. **Gerodot** guvohligicha, Bardiya (ya'ni Smerdis) Misr yurishidan keyin o'ldirilgan. Boshqa mualliflar ham Yuqoridagi ma'lumotni takrorlaydilar. **Gaumata** davlat to'ntarishini amalga oshirgach, mamlakatni yetti oy davomida boshqargan. U **Bardiya** o'limidan xabar topib, o'zini **Kir II** o'g'li deb atab, mamlakatni idora qila boshlagan. Gaumata davlat boshiga kelishi bilan mamlakatni turli hududlarida qo'zg'olonlar ko'tariladi. Qo'zg'olonlar Midiya, Marg'iyona va boshqa viloyatlarga yoyilgan. Gaumataga yetti qabila oqsoqollari kengashi norozilik bildiradi. Keyinroq Gaumata **miloddan avvalgi 522 yil dekabr oyida Doro I** tomonidan o'ldirilgan.

Eron shohligi viloyatlari o'rtasida aloqalar yo'qligi, Qambiz shohligining oxirida va Doro I shohligining dastlabki davrida keskin sinfiy kurash islohotlar o'tkazishni talab qilgan. Bu islohotlar Eron davlatining ichki ahvolini mustahkamlashi kerak edi. Yunon tarixchilari aytishicha, **Doro** butun Fors davlatini bir qancha viloyatlar (satrapliklar)ga bo'lib, har bir o'lkaga muayyan miqdorda xiroj solgan. Bu xiroj muntazam ravishda shoh xazinasiga jo'natilgan. Bundan tashqari, Doro pul islohoti o'tkazib, davlat uchun yagona oltin tanga - darik joriy qildi (darik - 8,416 gramm oltinga to'g'ri kelgan). So'ngra Doro yo'l qurish ishlarini avj oldirib, davlatning eng muhim iqtisodiy, ma'muriy va madaniy markazlarini yo'llar orqali bir-biriga bog'lagan, aloqa ishlarini yo'lga qo'ygan, va nihoyat, qo'shin hamda harbiy ishni qaytadan qurgan. Doro I islohotlari va undan keyingi hukmdorlar faoliyati natijasida Eron davlati monarxiya tarkibiga kirgan xalqlarning madaniy yutuqlaridan samarali foydalanib, yangicha davlat tashkilotiga ega bo'lgan.

1Doro islohotlari idora ishlarining murakkab byurokratik tizimi yordamida davlatni bir qadar markazlashtirishga olib kelsa-da, lekin mamlakatda, har holda, qadimgi qabilachilik ittifoqining o'ta ibtidoiy ko'rinishi saqlanib qoldi. Shoh yakka mustabid hukmdor bo'lishiga qaramay, ba'zi masalalarda qadimgi urug'-qabila zodagonlaridan chiqqan oliynasab vakillar ta'sirida bo'lgan. Masalan, Gerodot yozishicha, Doro yetti eng ulug' Eron zodagonlari kengashida shoh etib saylanib, bu odamlar shoh huzuriga to'g'ridan-to'g'ri kirish huquqiga ega bo'lganlar. Shu bilan birga, shoh ana shu zodagonlardan birining qiziga uylanishi Shart edi. Behistun yozuvi matnida, Doro I Gaumatani o'ldirishda va hokimiyatni qo'lga kiritishda yordam bergan bu eroniylarning nomlarini sanab ko'rsatib, bo'lg'usi Eron hukmdorlariga ***“Sen, zamona zayli bilan shoh bo'lsang, bu zotlar avlodini ehtiyot qil”*** deb murojaat qilgan. **Gerodotning** so'ziga qaraganda, hatto **Kserks** ham yunonlarga qarshi yurishdan avval bu masalani shu oliy zot vakillari kengashida muhokama qilishga majbur bo'lgan. Biroq zamon o'tishi bilan qabilalarning avvalgi ittifoqi qadimgi Sharq klassik despotiyasi shaklini ola borgan. Shoh huzurida markaziy idoraning ayrim tarmoqlari, ya'ni xazina, sud va harbiy ishlar shoh nomidan Yuqori mansabli amaldorlar tomonidan bevosita boshqarilgan. Shoh boshliq markaziy hokimiyat mahalliy idora ishlarining barcha sohalariga faol aralashgan. Chunonchi, shoh fuqarolar, masalan, birorta ibodatxona kohinlarining shikoyatlarini ko'rib chiqqan, soliq masalalarida yengilliklar joriy qilgan, ibodatxona yoki shahar devorlari qurish to'g'risida farmoyish chiqargan. Shoh muhri bosilgan har bir farmon qonun bo'lib, bajarilishi Shart bo'lgan. Davlatni idora qilish tizimi ko'plab amaldorlar tomonidan yuritilgan. Shoh amaldorlar bilan maxsus noma (xatlar) orqali bog'langan. Shoh mahkamalari va saroyda yozuv-chizuv ishlari e'tibor bilan olib borilgan. Barcha farmoyishlar alohida bayonnoma va kundalik daftarlarga oromiy tilida yozib borilgan.



Bilasizmi?

Ahamoniylar davlatni 40 ta satraplikka bo'lib idora qilishgan. Uning tarkibida Markaziy Osiyo hududidan 4 ta satraplik kirgan

Asta-sekin oromiy tili Eron davlat tiliga aylangan. Oliy davlat noziri (*“hukmdor ko‘zu qulog‘i”*) markazlashgan davlatning mustahkamlanishiga yordam bergan, u shoh topshirig‘i bilan oliy nazorat qilish kabi ma'suliyatli vazifani bajargan.

Ajrim ishlarining shoh va alohida *“shoh hakamlari”* qo‘lida bo‘lishi markaziy hokimiyatni yanada mustahkamlagan. O‘sha davr tilida aytganda, *“huquqshunoslar”* faoliyatida cheklanmagan shoh hokimiyatini asos qilib olganlar. Bu *“shoh hakamlari”* ning vazifasi barcha mojaroli masalalarda hukmdorga maslahat berishdan iborat bo‘lgan. Hakamlar umrbod tayinlanib, jinoyatga qo‘l urgan yoki poraxo‘rlikda ayblangan hakamlar vazifasidan mahrum etilgan. *“Shoh hakami”* vazifasi ba'zan otadan o‘g‘ilga meros sifatida o‘tgan. Hakamlar nafaqat Eron, balki uning tarkibidagi boshqa mamlakatlarda ham adolatpeshalik qilganlar. Tavrotdagi ma'lumotlar hamda eronliklar hukmronligi davriga oid Bobil hujjatlari (ular Nippurdan topilgan) shundan dalolat beradi.

Boshqa qadimgi Sharq mamlakatlari singari, Eronda ham natural xo‘jalik hukm surgan. Qishloq jamoalarida yetishtirilgan mahsulotlar shu joyning o‘zida iste'mol qilingan. Yetishtirilgan mahsulotning ortiqcha qismi bozorga chiqarilgan. Qadimgi natural xo‘jalik qoidalariga muvofiq, tovarlar muayyan qiymatga ega bo‘lgan. Masalan, Persepoldagi yollanma xodimlar ish haqi sifatida mahsulot, ya'ni non, yog‘, baliq olganlar. Mahsulot shaklida to‘lanadigan ish haqi *“shak”* ibora bilan ifodalangan. Persepoldan topilgan va keyingi davrga oid hujjatlarda ish haqi sifatida qo‘y va sharob to‘langanligi qayd etilgan. Biroq savdo ishlari rivojlanib borgan sari bahoning bu ibtidoiy tovar ekvivalentini dastlab og‘ir metall pul, so‘ngra esa zarb qilingan tanga tobora siqib chiqargan.

Tashqi savdo ancha taraqqiy etgan Lidiyada **miloddan avvalgi VI asrda** zarb qilingan tanga paydo bo‘lib, u Bobilning eng qadimgi pul og‘irlik o‘lchovi tizimidan foydalanish asosida kelib chiqqan. Eronda pul tizimi Kayxisrav zamonida tashkil topgan. **Kayxisrav** Suza, Sarda va Bobilda oltin tangalar zarb qildirib, bu tanga *“darik”* nomini olgan (dari so‘zi qadimda eroniy “oltin” so‘zidan olingan bo‘lsa kerak). Eronning g‘arbida savdoda pul ishlatish rasm bo‘lib, bu yerda Bobil kabi ko‘hna savdo markazlari ravnaq topgan. Sharqiy o‘lkalar, jumladan, O‘rta Osiyoda, asosan, qadoq tilla ishlatilgan.

Biroq Eron tangasi bu yerga ham yetib kelgan. Afrosiyob (*hozirgi Samarqand yaqini*) va eski Termiz xarobalaridan Eron dariklari topilgan.

Doro I zamonida Eronda savdo taraqqiy etganligini shohning Suzada qurilgan saroyi misolida ko'rish mumkin. Bizga qadar yetib kelgan yozuvda saroyni qurish uchun turli mamlakatlardan keltirilgan qurilish materiallari ro'yxati mufassal bayon qilinadi. Masalan, kedra daraxti Livan tog'laridan, oltin - Sarda va Baqtriyadan, lojuvard (*lazurit*) va qizil tosh - So'g'diyonadan, feruza - Xorazmdan, kumush va bronza - Misrdan, fil suyagi - Efiopiya, Hindiston va Araxoziyadan (*hozirgi Afg'onistonda*) keltirilgan.

G'oyat keng hududdan iborat bo'lgan Eron imperiyasi birligini saqlash, uning poyonsiz chegaralarini qo'riqlash va mamlakat ichidagi qo'zg'olonlarni bostirish uchun qo'shin, umuman, harbiy ishlarni tashkil qilish zarur edi. Tinchlik vaqtida muntazam qo'shin eroniylar bilan midiyaliklardan iborat bo'lib, ular asosiy kuchni tashkil qilgan. Shoh sara qo'shini (gvardiyasi) otliq aslzodalar bilan 10 ming kishilik "*o'lmas*" piyodadan tuzilgan. Eron shohining 10 ming kishilik shaxsiy soqchilari bo'lgan.

Eron davlatini ichidan mustahkamlash uchun mahalliy boshqarmaning muntazam tizimini tashkil qilish talab etilgan. Kayxisrav zamonida bo'ysundirilgan mamlakatlar yirik o'lkalarga birlashtirilib, ularni alohida hokimlar idora qilgan. Bu hokimlar satrap deb atalgan (*satrap forscha - "xshatrapavan" - "mamlakat mutasaddilari"*). Satraplar shohning o'ziga xos noiblari bo'lib, ular o'lkadagi barcha idora ishlarini o'z qo'llarida markazlashtirganlar. Ular o'lkalarda tartib o'rnatib, ro'y bergan qo'zg'olonlarni bostirganlar. Satraplar mahalliy hakamga ham rahbarlik qilganlar, kerak bo'lganda ular jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha hukm chiqarganlar. Satraplar o'lkadagi qo'shinga qo'mondonlik qilib, harbiy ta'minot ishlarini yuritganlar, hatto shaxsiy gvardiya saqlash huquqiga ham ega bo'lganlar. Masalan, Lidiya satrapi Oroytning ming soqchidan iborat shaxsiy gvardiyasi bo'lgan.

Doro I zamonida Eron shohligi 25 taga yaqin satraplikka bo'linib, ular nomi Behistun, Naqshi Rostam va Suvaysh yozuvlarida keltirilgan. Bu o'lkalarning shohga to'laydigan soliq miqdori **Gerodot** asarlarida berilgan. Biroq bir-biriga nomuvofiq bu ro'yxatlarni

ma'muriy ahamiyatga ega deb bo'lmaydi. Satrapliklar o'zboshimchaligiga chek qo'yish maqsadida shohlarning chora ko'rishiga qaramay, satraplar erkinliklarni uzoq vaqt qo'llarida saqlab qolganlar. Ayrim satrapliklarda (Bobil, Misr, YAhudiya) mahalliy huquq, mahalliy og'irlik va uzunlik o'lchovlari, ma'muriy bo'linish (Misrning nomlarga bo'linishi), ibodatxona va kohinlarning soliqlardan ozod qilinganligi va boshqa imtiyozlari saqlanib qolgan.

Shoh qo'li ostida ma'muriy va harbiy jihatdan yagona kuchli davlatga birlashgan G'arbiy eron qabilalari davlat asosini tashkil qilganlar. Eroniylar imtiyozli mavqeyga ega bo'lganlar. Ular barcha soliqlardan ozod qilinganligi sababli, soliqlar og'irligi bo'ysundirilgan xalqlar yelkasiga tushgan.

Eron shohlari eroniylarning “xizmat va qadr-qimmatlari”, shuningdek, hukmron mavqey egallaganliklarini yozuvlarida doim uqtirib kelganlar. Doro I qabri ustiga qo'yiladigan toshga: “Sen shoh Doroga qanchadan-qancha mamlakatlar bo'ysunganligini o'ylab ko'rsang, taxtni ko'tarib turgan odamlarning tasviriga qara: shunda sen Eron askarining nayzasi uzoq mamlakatlargacha borib yetganini hamda Erondan uzoqda ham dushmanini yenganini anglaysan” deb yozdirgan.

Eroniylarni yagona til va din, xususan, oliy Xudo - Axuramazdaga bo'lgan e'tiqod birlashtirgan. Biroq o'sha davrda dunyoga hokimlik qilishga intilgan Eron shohlarining da'volarini ham asoslaydigan yagona mafkura paydo bo'la boshladi. Shoh *“mamlakatlar shohi”* yoki *“shahanshoh”* yoki *“kun chiqardan kun botargacha mamlakatlar ahlining sultoni”* nomini olgan. Shoh hokimiyatini mustahkamlash uchun qadimgi eron dinidan ham foydalanilgan. Ya'ni mazkur diniy qarashlar Eron davlati tarkibiga kirgan xalqlar, jumladan, O'rta Osiyo xalqlaridan olingan. Ahamoniylar shohligida qaror topgan bu siyosiy-diniy nazariyaga ko'ra, osmon bilan yerni yaratgan oliy xudo - Axuramazda Eron shohini “bu bepoyon yer yuzining hokimi, birdan-bir hukmdori”, *“dengizning u va bu tomonidagi tog' va tekisliklar, har ikki tarafdagi cho'lining yagona egasi”* etib tayinlagan. Eron shohlarining Persepoldagi saroyi devoriga dunyoning har tomonidan Eron shohiga

turli xiroj va qimmatli tortiqlar keltirgan odamlar surati tushirilgan. **Doro I** o'z davlatining qudrati haqida oltin va kumush lavhalarda qisqa va ma'noli tarzda bayon etadi: *“Doro buyuk shoh, shahanshoh, mamlakatlar shohi, Kashtosib o'g'li Ahamoniydir. Shoh Doro “So'g'diyonaning ortidagi saklar mamlakatidan to Kushga qadar (ya'ni Efiopiyagacha), Hindistondan Sardagacha shohlikni menga ulug' xudo Axuramazda ato etgan. Axuramazda yurtimni o'z panohida asrasin”.*

Ahmoniylar davlatida satrapliklar va savdo - sotiq. Eronda Ahmoniylar davlatini ichidan mustahkamlash uchun muntazam mahalliy boshqarma tizimini tashkil etish talab qilingan. **Kayxisrav** (Kir) davrida bo'ysundirilgan mamlakatlardan iborat yirik o'lkalarni hokimlar idora qilgan. Ular *“satrap”* deb atalgan. Satraplar shoh noiblari hisoblanib, o'lkalarda idora, boshqaruv ishlarini o'z qo'llarida markazlashtirgan. Ular o'lkalarda tartib o'rnatib, qo'zg'olonlarni bostirgan. Shuningdek, satraplar qo'shinga qo'mondonlik qilib, harbiy ta'minot ishlarini olib borgan va shaxsiy gvardiyani saqlash huquqiga ham ega bo'lgan. Moliya - soliq ishlari, ya'ni, aholidan soliq yig'ish, yangi soliqlar joriy etish va soliq orqali tushgan boyliklarni shoh xazinasiga topshirish satraplar qo'lida edi. Bundan tashqari, ular o'lkaning xo'jalik hayotini, jumladan, dehqonchilik ishlarini borishini ham kuzatib borganlar. Nihoyat, o'lka amaldorlarini tayinlash va xizmatdan chetlatish, ularning ishini nazorat qilish huquqiga ham ega edilar. Shunday qilib, satraplar katta vakolatlarga ega bo'lib, o'z saroyi va saroy ahliga ega mahalliy hukmdor bo'lganlar.

Ahmoniylar boshchiligidagi Eron shohligining ba'zi o'lkalari o'rtasida aloqalarni yo'qligi Qambiz shohligining oxiri - **Doro I** hukmdorligining boshida avj olgan. Qo'zg'olonlar va ijtimoiy ziddiyatlar islohotlarni talab qilgan, chunki ular Eron davlatining ichki ahvolini mustahkamlashi kerak edi.

Ahmoniylar hukmronligi davrida savdo-sotiq ishlari ham ancha rivoj topdi. Qadimgi savdo yo'llari Eronni Mesopotamiya va Kavkazorti o'lkalari bilan bog'lagan. Bronza qurollarini tayyorlashda zarur qo'rg'oshin va qalay Erondan Mesopotamiyaga olib borilgan. O'rta Osiyo va Erondan boshlangan boshqa savdo yo'llari Sharqqa - Xitoyga va janubi-Sharqiy Hindistonga olib borgan. Jumladan, miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida Baqtriya va Hindiston

muhim savdo markaziga aylangan. Savdo-sotiq taraqqiy etishi bilan qadimgi qal'alar iqtisodiy markazga aylana bordi. Xorazmning ayrim shaharlari, Baqtriyada Balx, So'g'diyonada Marokanda, Eron g'arbida Suza, Midiyada Ekbatana, shuningdek Bobil kabi shaharlar muhim savdo markazlariga aylandi.

Doro I davrida Eronda savdo ishi taraqqiy etganligi Suzadan topilgan yozuvda nomoyon bo'ladi. Bu yozuvda Suzada qurilgan saroy haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, shoh saroyini qurish uchun turli mamlakatlardan materiallar keltirilganligi haqida ma'lumotlar bor. Masalan, kedr daraxti Livan tog'laridan, oltin - Sarda va Baqtriyadan, lojuvard va qizil tosh - So'g'diyonadan, feruza - Xorazmdan, kumush va bronza - Misrdan, fil suyagi - Efiopiya, Hindiston va Araxosiyadan keltirilgan.

Eronda savdo-sotiq ishlarini yanada rivojlantirish, davlatning ayrim xududlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun yagona pul birligini kiritish zarur edi. Shu maqsadda **Doro I** pul islohotini amalga oshirdi. Mamlakat hududi bo'ylab yagona oltin tanga - darik (8, 416 gr) joriy qilindi. Eng Yuqori qadoq va tanga birligi - Eron talanti 3 ming darikdan iborat bo'lgan. Oltin tangalarni zarb qilish huquqi faqat markaziy hokimiyat qo'lida bo'lgan. Satrapliklarda esa satraplarga faqat mis va kumush tangalarni zarb qilish huquqi berilgan. Mayda chaqa o'rnida eroncha "shekel" deb atalgan kumush pul bo'lib, u darikning yigirmadan biriga (5,6 gr. kumushga) teng bo'lgan.

Savdo - sotiqni rivojlantirishda va, umuman, xo'jalikni yuritishda qurilish ishlari va aloqa xizmatini keng suratda yo'lga qo'yish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu masalada eronliklar qadimgi xetlar va ossuriyaliklar tomonidan qurilgan yo'llardan foydalanib, bu yo'llarni savdo karvonlari, pochta xizmati uchun va qo'shinlarni olib yurish uchun moslashtirgan. Shu bilan birga, bir qancha yangi yo'llar ham qurilgan. Ahamoniylar davrida Kichik Osiyodan to Hindistongacha bo'lgan hududda muhim savdo yo'llari mavjud bo'lgan.

Doro I ning tashqi siyosati. Doro o'zidan oldingi shohlar - Kayxisrav va Qambiz siyosatini davom ettirib, Eronni boshqa mamlakatlar ustidan hukmron bo'lgan qudratli davlatga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi. **Kayxisrav** Hindikush atrofi va Qobul vodiysida yashagan hind qabilalari, jumladan, qandahor qabilasini

bo'ysundirgan. Eron davlati tarkibiga kirgan qabila va o'lkalar orasida ushbu qabila ham bo'lganini o'zining mashhur Behistun yozuvida eslatib o'tadi. **Doro** Sulaymon tog'larining etaklaridan to Hind daryosiga qadar tekislikni alohida o'lkaga aylantirgan.

Dengiz yo'llari muammosi Doroning tashqi siyosatida muhim o'rin tutgan. **Doro** dengiz yo'li orqali Misrni Mesopatamiya va Eron bilan bog'lash uchun fir'avn Nexoning Nil daryosidan to Qizil dengizgacha kanal qazish bo'yicha boshlagan ishini tamomlaydi. Toshga o'yib yozilgan xatida Doroning shunday so'zlari bitilgan: *“Men forsdan chiqqan eroniyman... Misrni olgach, kanal qazdirishga buyruq berdim, kanal Pirava (ya'ni Nil) daryosidan chiqib Misrning ichidan to Erondan boshlanadigan dengizgacha boradi, bu kanal men aytgan kabi qazildi va Misrdan chiqqan kemalar bu kanal orqali mening irodamga ko'ra Eronga qarab yuradigan bo'ldi.”*

Doroni, ayniqsa, Eron shimolida joylashgan mamlakatlar qiziqtirgan. **Kayxisrav** ham baqtriyaliklar va saklarga qarshi kurash olib borgan. Nihoyat, u O'rta Osiyodagi massaget qabilalari bilan jang chog'ida Yaksart (Sirdaryo) daryosi bo'yida halok bo'lgan. Saklar yashagan ba'zi o'lkalar avval, ya'ni Doro davrida egallangan bo'lsa kerak. **Doro I** zamonidagi Eron tarkibiga kirgan o'lkalardan - Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona va sak qabilalari yodga olingan. Eron davlatini mustahkamlash uchun **Doro I miloddan avvalgi 517 yilda** saklarga qarshi katta yurish qilgan deb faraz qilinadi. Behistun yozuvining so'nggi qismida Doro I buni quyidagicha tasvirlaydi: *“Doro aytadi: saklar qo'shini bilan birga men saklar yurtiga bostirib kirdim. Ul saklar yurti daryoning narigi tomonida bo'lib, alarning o'zi cho'qqi qalpoq kiyib yurur edilar. Alqissa, men daryoda kemalardan ko'prik qilib o'shal ko'prik orqali saklar yurti ichkarisiga kirib bordim va ularni yer bilan yakson qildim. Saklar qo'shini boshliqlaridan birini asir oldim. Boshqalarining qo'llarini bog'lab, huzurimga keltirdilar. Ular orasida boshliq - Skunxa ismli odamni ham qo'l-oyog'ini bog'lab, huzurimga keltirdilar. Men o'z amrim bilan saklar yurtiga yangi hukmdor tayin qildim. Shundan so'ng mamlakat mening qo'limga kirdi”.*

Doro I g'arbga qilgan yurishlarida yirik yutuqlarga erishdi. U Egey dengizining yunon qabilalari joylashgan viloyatlarga yaqinlashib

borib, ularni batamom istilo qilish maqsadida yana g'arbga qarab yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlagan. **Doro I Demokred** boshchiligida Yunonistonga ekspeditsiya yo'llaydi. Bu ekspeditsiya Yunonistonga, hatto Tarentga qadar yetib bordi. **Doro I** janubiy chegaralarni mustahkamlash maqsadida Barkani istilo etadi. Bu bilan Shimoliy Afrikaning Liviya bo'yida hamda Shimolda skiflar bilan kurash boshlab, Frakiyada mustahkamlanib olgan. Doro I yunonlar bilan urush natijasida Frakiya, Vizantiya, Samos va boshqa bir qancha orollarni istilo qilib, Egey dengizi bo'yigacha borgan.

Doro I ning vorisi **Kserks (miloddan avvalgi 486 - 465 yillar)** tashqi siyosatda jahonga hukmdorlik to'g'risidagi orzusini amalga oshirmoqchi bo'lgan. U barcha yunon qabilalarini bo'ysundirish va O'rta yer dengizining yerlarida tanho hukmronlik qilishga intildi. **Gerodot** Kserks tilidan so'zlab, shunday deydi: *“Agar afinaliklar hamda ularga qo'shni Frigiyan, Pelop tuprog'ida yashovchi xalqni bo'ysundirsak, Eron yerini Zevs osmoni kabi kengaytirgan bo'lar edik. Quyosh bundan keyin bizning yerimizdan boshqa joyga o'z nurini sochmas edi. Men sizlar bilan butun Yevropani kezib, bu yerlarni birlashtiraman. Agar biz bu xalqlarni bo'ysundirsak, u holda odamlar aytganicha, bundan keyin bironta shahar, xalq bizga qarshi kurashishga jur'at eta olmaydi. Shunday qilib, biz gunohkorlarning ham gunohsizlarning ham bo'yniga asorat zanjirini osamiz”*. Asosiy maqsadi harbiy bosqinchilik va boylikdan iborat bo'lgan Kserksning bu so'zlari Eron quldorlik siyosatini ochiq ifodalagan.

Biroq dunyoga hokim bo'lish uchun yuritilgan bu siyosat Eronni halokatga eltdi. Yunonlar birlashib, Eronga qaqshatqich zarba berdilar.

Tarixchilarning, qadimgi Eron madaniyati Mesopatamiyadagi xalqlar madaniyati bilan chatishuvi o'ziga xos Eron madaniyatining orqaga ketishiga va qudratli Eron davlatining kuchsizlanishiga olib keldi, degan fikri asossiz. Aksincha, Eron qabilalari mixsimon xatni, (mixxat yozuvi) moddiy va ma'naviy madaniyatning ko'pgina yutuqlarini, shuningdek, davlat tashkilotini ossur-bobilliklardan o'rganganliklarini biz yaxshi bilamiz.

Qadimgi Eron dini va madaniyati. Ahamoniylar davrida qadimgi fors tilida yozilgan mixxatlar, madaniy

yodgorliklarda aks ettirilgan turli suratlar, tasvirlar hamda ba'zi yunon tarixchilari yozib qoldirgan ma'lumotlar, shuningdek, *“Avesto”*ga asoslanib, qadimgi forslarning dini haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Qadimgi Sharq - Eron, Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlarini, rasm-rusmlar to'plami va diniy kitobi hisoblangan *“Avesto”* qadimgi afsonalar asosida tuzilgan. *“Avesto”* asari ezgulik xudosi - Axuramazda bilan yovuzlik xudosi Axrimanning o'zaro kurashi bayoni asosiga qurilgan. Unda goh ezgulik, goh yomonlik kuchlari g'olib chiqib, o'z hukmronliklarini o'rnatadilar.

“Avesto”ning qadimgi qismlari - *“Gatlar”* (muqaddas ashulalar, kuylar) forslarning ahamoniylar davriga qadar qadimiy dinlarini ifoda etgan.

Eng qadimgi forslarning dunyoqarashi oddiyligi bilan ajralib turadi. Boshqa Sharq xalqlari singari forslar muqaddas suvlarga sig'inishgan. Forslarda oliy tangrining o'g'li bo'lmish olov alohida e'zozlangan. Olovga sig'inish odati eronliklarda keng rasm bo'lib, uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Eng qadimgi zamonlarda muqaddas jonivorlar: buqa, qoramol, ot va itga e'tiqod mavjud edi.

O'sha vaqtda Axuramazda Oliy xudo deb e'lon qilinadi. **Doro I** davridagi qabr toshlarida *“Axuramazda Doroni, osmonni, yerni, insonni yaratgan. Doroni shoh etib, unga shohlik qilishni topshirgan”* deyiladi. Shunday qilib, Oliy xudo - yaratguvchi Axuramazda shohlar hukmdori - osmon xudosi sifatida tasvirlanadi.

Forslarning dinida shohlarning ilohiy kelib chiqishi har tomonlama uqtiriladi. Eron shohlarining dunyoga hukmronlik qilish g'oyasi keng targ'ib qilinadi.

Oliy xudo Axuramazda ezgulik, yorug'lik, nur timsoli hisoblansa, unga qarama-qarshi qora kuchlar homiysi Ahriman o'lim, zulmat va yovuzlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Ana shu diniy dualizmga asosan insonlardan vijdonlilik, kamtarlik, saxovat, adolat va insonparvarlik kabi fazilatlar talab etilgan.

Tarkibida ko'p mamlakat va elatlarni birlashtirgan yirik Eron davlati shohlardan yagona davlat dini, yagona Oliy xudoni joriy qilishni talab etgan. Shundagina ulkan davlatni boshqarish, idora qilish oson bo'lgan. Shuning uchun Kserksning shohlik davridan boshlab qadimgi *“dayv”*larni quvg'in qilish boshlandi. Ular zolim ruhlar deb e'lon

qilindi. O'sha davrdagi yozuvlarning birida Kserksning: **"Axuramazda irodasi bilan men "dayv"lar turgan joylarni vayron qildim, toki ularga bundan buyon hech kim ishonmasin"** degan so'zlari bitilgan. Shunday qilib, Eronda yagona oliy shohning himoyachisi, o'lim kuchlari ustidan g'olib kelgan Axuramazdaga e'tiqod joriy qilindi. Qadimgi Eron diniga Ossuriya - Bobil dinlari ham ta'sir ko'rsatgan.

Ahamoniy hukmdorlar Axuramazda siymosini uning yerdagi noibi - shoh bilan bog'laydilar va o'z nomlariga **"saoshiant"** - **"insoniyatning xaloskori, homiysi"** nisbatini qo'shadilar.

Eron xalqi diniga oid tushunchalar Gerodot, Strabon, Ksenofont, Sitseron va boshqa antik mualliflarning asarlarida keltirilgan. Ahamoniylar davrida forslar tabiat xudolari **Mitra** (quyosh va nur xudosi), **Anaxita** (suv va hosildorlik xudosi)ga e'tiqod qilganlar.

Qadimgi Eron tarixi va madaniyatini o'rganishda **1933 - 1937 yillarda** Koshonning janubiy-g'arbida joylashgan Sialkdagi arxeologik qazilmalar muhim ahamiyatga ega. **Miloddan avvalgi VI - IV ming yilliklarda** bu yerda odamlar yashagan. Bu yerdan topilgan qabristonlar temir davriga taalluqli bo'lib, undan o'n beshta qabr topilgan. Ularda marhumlar sopol idishlar bilan birga ko'milgan. Yana bir qabristondagi qabrda **"choynaklar"** keramikadan ishlangan odam va hayvonlar tasviri tushirilgan idishlar uchraydi. Sialk arxeologik qazilmalari **R.M.Grishman** tomonidan amalga oshirilgan. Bu yerda topilgan yodgorliklar Qum, Qazvin, Tehron va boshqa tumanlardan topilgan madaniy yodgorliklarni eslatadi.

Ahamoniylar davlatining Sharqida oromiy yozuvi keng tarqaldi. Oromiy tili amalda davlat tili hisoblanib, mazkur yozuv asosida Eron yozuvlari paydo bo'ldi.

Ahamoniylar imperiyasi davrida ro'y bergan madaniy jarayonlar antik dunyo madaniyati va ilm-fani rivojida katta rol o'ynadi. Ahamoniylar davrida, ayniqsa, monumental - hashamatli san'at keng rivojlandi. Bu san'at turli Eron badiiy an'alarining Elam, Ossuriya, Misr, yunon texnik usullari uyg'unligi asosida paydo bo'ldi. Ahamoniylar davrining ilk yodgorliklari sifatida Pasargadadagi **Kir II** saroyi, qabr va relyeflari (bo'rtma rasmlari), Persepol hamda Naqshi Rostamdagi shohlar saroyi va qabrlarida o'z ifodasini topgan.

Tarixdan Eron davlati Hindiston bilan chegaradosh, jumladan, Gandxar viloyatidagi hind qabilalari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Eron shohlari Hindistonning shimoliy-g‘arbiy hududlariga bir necha bor yurish qilganlar. Ular bu viloyatlarda yashagan hind qabilalari bilan to‘qnash kelganlar.

Shunday qilib, Eron O‘rta Sharq va Old Osiyo mamlakatlarini antik dunyo madaniyati bilan bog‘lab turgan. Ana shunday o‘zaro bog‘liqlik madaniyatlar rivojiga asos bo‘lgan.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ahamoniylar davlati tashkil topishi va uning inqirozi haqida gapirib bering?
2. Doro I ning davlat tepasiga kelishi.
3. Ahmoniylar davlatida satrapliklar va savdo – sotiqtizimi qanday bo‘lgan?
4. Doro I ning tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat edi?
5. Qadimgi Eron dini va madaniyati haqida gapirib bering.

14-mavzu. Qadimgi Xitoyda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. Shan-in davlati. Chjou qabilalari bosqini.

Reja:

1. Qadimgi Xitoyda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi.
2. Shan - In davlati tarixi.
3. Shan-In davri madaniyatini.
4. Chjou davlati (miloddan avvalgi XII - VIII asrlar)
5. Chjou davlatining xo‘jaligi va ijtimoiy tuzumi.
6. Davlat tuzumi.
7. Chjou podsholigining inqirozga uchrashi
8. Miloddan avvalgi III asr boshlarida Xitoyda Sin sulolasi davri.

Tayanch iboralar: *“Bahor va kuz”, “Hujjatlar kitobi”, Sima Syan, toshbaqa kosasi, piktografiya, “Shitszin”, “Shutszin”. “Tentak daryo”, “Xitoyning sho‘ri”, Kohin, “Katta Shan shahri”, “In”, Pan Gen, “Qo‘shiqalar kitobi”, “van”, “szu”. Epigrafika, koalitsiya, patriarxal, traktat, gun-tyan, nun-fu, amlokdor.*

Qadimgi Xitoyda ilk davlatlarning Qadimgi Xitoy jo‘g‘rofiy paydo bo‘lishi. Sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Xitoy xalqi Xuanxe daryosining o‘rta va quyi oqimidagi yerlarda, Sariq daryo (Xuanxe) suvlari sug‘oradigan vodiylar va pasttekisliklarda joylashgan bo‘lib, qulay iqlim, hosildor yerlar dexqonchilik xo‘jaligini erta rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Xitoyda yog‘ingarchilikning umumiy hajmi 500 - 600 mmga yetadi. Xitoyning Sharqiy qismida yomg‘ir ko‘p yog‘sa, markaziy va g‘arbiy viloyatlarida yog‘ingarchilik kamroq bo‘ladi. Yog‘ingarchilik vaqtida Xuanxe daryosi toshib, ko‘p qishloq, ekinzor va o‘tloqlar suv ostida qolib ketar edi. Xitoyliklar bu daryoni **“Tentak daryo”, “Xitoyning sho‘ri”** deb atashgan. Buning oqibatida yetishtirilgan hosil ko‘pincha barbod bo‘lardi. Shuning uchun qadimgi Xitoy aholisi sun‘iy sug‘orish usulini qo‘llagan. Xuanxe sohillari sariq qumsimon unumdor tuproqdan iborat bo‘lgan. Undan suv yetarli bo‘lganida yaxshi hosil olish mumkin bo‘lgan. Yanszi daryosi sohilidagi yerlar ham unumdor edi. Qadimgi Xitoy aholisi sun‘iy sug‘orish usullarini qo‘llashdan tashqari, Xuanxe daryosi toshqiniga qarshi kurashganlar. Bu

toshqinlar mamlakat uchun katta halokatlarni keltirar edi. Uy-joylari va xo‘jaliklarini suv toshqiniga qarshi to‘g‘onlar qurib asraganlar.

Qadimgi Xitoy aholisi. Qadim zamonlardan beri Xitoyning serhosil yerlari, tog‘lari va keng dalalarida qadimgi qabilalar joylashgan. Ular asosan ko‘chmanchi bo‘lib, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar.

Hosildor yerlarda yashagan dehqonlar ko‘chmanchi qabilalar bosqinidan zarar ko‘rgan. **Miloddan avvalgi V - III ming yilliklarda** Xuanxe daryosining o‘rta oqimida dastlabki dehqonchilik vujudga kelib, aholi daryo bo‘yida kichik qishloqlarda turg‘un yashay boshlagan. Ular, dastlab, tariq, arpa va bug‘doy ekib, cho‘chqa, it boqqanlar. Hunarmandlar kulolchilik bilan shug‘ullanib, ajoyib sopol idishlar yasaganlar. **Miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida** Xuanxe sohillari o‘zlashtirilib, ko‘proq tariq, bug‘doy, sholi va sabzavot yetishtirilgan. Chorvachilik ham rivoj topgan. Qadimgi xitoyliklar yirik qoramol, qo‘y, echki, cho‘chqa boqish bilan shug‘ullanganlar. Chorvachilik Xitoyning g‘arbiy viloyatlarida, xususan, Tibet yassi tog‘larida keng tarqalgan.

Shunday qilib, qadimgi davlatlar yaratilishi davrida xitoyliklar ko‘chmanchi qabilalar yerlarini mustamlakaga aylantirishdi. Bu yerlarda madaniyat rivoj topmagan va tabiiy Sharait noqulayligi tufayli faqat chorvachilik taraqqiy etgan. Xitoyning etnik tarkibi turli-tuman bo‘lgan. Ulkan hududda butun yer Shari aholisining 1/4 ni - turli elatlar tashkil etgan. Shimolda tungus, manchjur, mo‘g‘ullar hamda janubiy-g‘arbda tibet qabilalari yashagan. Janubda Birma va Hindixitoy - xitoyliklarga yaqin qabilalar yashagan.

Shan - In davlati Xitoy xronologiyasiga ko‘ra bu davr odatda tarixi **miloddan avvalgi XVIII - XII asrlarga** to‘g‘ri keladi. Qadimgi Xitoy Shan qabila boshlig‘i Pan Gen miloddan avvalgi taxminan **1400 yillarda** qabilasini Anyanga olib kelib, Xuanxe daryosi bo‘yida “Katta Shan shahri”ni qurdirib, davlat hamda sulolasini o‘z nomi bilan ataydi. **Miloddan avvalgi 1124-yilda** Vey daryosi havzasida yashagan Chjou qabilalari Shan shohligining so‘nggi poytaxtini vayron qilib, davlatni “In” deb nomlaganlar.

Bu davr tarixini o‘rganishda Xenan viloyatining Syaotun qishlog‘i yaqinidan topilgan buyumlar katta ahamiyatga ega. Bunda **Shan-In** davriga oid yodgorliklar, saroy, ibodatxona, to‘rt burchak

shaklida qurilgan ko'pgina uy qoldiqlari topilgan. 300 maqbara, bular orasida bahaybat va serhasham shoh sag'anasi ham topilgan (4 ta). Maqbaralar o'sha davrda sinflarga bo'linish mavjud bo'lganligini tasavvur qilish imkonini beradi.

Shan-In davri madaniyatini Xitoyning azaliy tub aholisi yaratib, ular qadim zamonlardan bo'yon shu yerda yashab kelganlar va Shimoliy Xitoy hududida neolit davrining madaniy yutuqlarini saqlab kelgan deb faraz qilish uchun yetarlicha asos bor. Madaniy yodgorliklar, san'at asarlari, qadimgi yozuvlar, jumladan, qadimgi Xitoy klassik adabiyoti asarlarining suyak va bronza idishlariga bitilgan namunalari **Shan-In** davrining xo'jalik, ijtimoiy va davlat tuzumini, garchi umumiy tarzda bo'lsa ham, tasvirlab beradi. Afsuski, eng qadimgi Shan-In yozuv parchalari o'sha davrdagi davlat tuzilishi to'g'risida faqat umumiy tarzda xulosa qilish imkonini beradi. Bu davrda Xitoyda yer davlat qo'lida markazlashib, hokimiyat ham shu asosda tashkil topgan. *“Qo'shiqlar kitobi”* da barcha yerlar shohga tegishli ekanligi aytiladi. Davlat mamlakatning asosiy boyligiga va xo'jalik asosi - yerga tayanib, *“markazlashgan ko'rinish”* ola borgan. Din hukmdor mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilgan. Shoh buyuk shaxs, ulug' zot deb ko'rsatilib, xudoga tenglashtirilgan. Afsonalarda sulolalar asoschisi hukmdor atalgan. Rivoyatlarga ko'ra Se avlodidan bo'lgan Chen Tan Sya sulolasining so'nggi shohini ag'darib, In sulolasiga asos solgan. Eng qadimgi quldorlik jamiyati tashkil topish davrida shoh ayni vaqtda kohin ham hisoblangan. Asta-sekin amaldorlar sinfi yuzaga kelib, bular qatoriga dastlabki urug' zodagonlari, so'ngra quldorlar vakillari kirgan.

“Shoh (van)” so'zini anglatgan ibora In davri yozuvlarida ko'p uchraydi. Xitoy tarixchisi Majo so'ziga ko'ra, iyeroglif belgilarda *“van”* va *“szu”* (nasab) alomatlarining qur'a yozuvlaridagi arxaik shakllarining aynan biriga o'xshaydi. Ba'zi yozuvlarda urushlar to'g'risida so'z yuritiladi. Xitoy shohlari Xitoyning gullab yashnagan yerlari, dehqonchilik qiladigan serunum o'lkalarini qo'riqlab, ko'chmanchi qabilalar bilan hamisha urushganlar. Xitoy shohlari ayniqsa Shan-In davlatiga tez-tez hujum qilgan g'arbiy tog'liklarga qarshi qattiq kurashgan.

In davri yozuvlarida jang aravalari va otliq qo'shinlar tilga olinadi. Anyandagi qazishmalar qo'shinlar bronza qurollar bilan

qurollanganidan dalolat beradi. In davlatining sinfiy xususiyati qo‘shinlar tuzilishida ko‘rinadi. Piyodalar oddiy dehqonlardan, jang aravalari egalari esa zodagonlar bo‘lgan. Ko‘chmanchilar bilan bo‘lgan urushlar In davlatini zaiflashtiradi, natijada jangovar Chjou qabilalari *In* shohligini tugatib, yangi Chjou shohligini barpo etadilar. Davlat tuzumi. *Chjou-li* traktati asosida Chjou sulolasi davridagi davlat tuzumini o‘rganish mumkin. Bu davrda Xitoyda murakkab davlat tuzilmasi shakllandi. Davlat apparati mamlakatni shoh nomidan boshqardi. Hukmdor atrofida zodagon amaldorlar guruhi bo‘lib, ular Yuqori lavozimlarni egallaganlar. Davlat boshida shohdan so‘ng birinchi yordamchi turadi. Bu amaldor bilan bir qatorda uch oqsoqoldan iborat guruh: yer ishlari boshlig‘i (amloqdor), ikkinchisi - ot-ulov hamda shoh qo‘shinlari sardori, uchinchisi - ijtimoiy ishlar boshlig‘i vazifasini ado etganlar. Amloqdor mamlakatda qishloq ishlarini tashkil qilish, yer ishlari bilan band bo‘lgan aholini boshqarish bilan shug‘ullangan. Ikkinchisi, harbiy vazir sifatida mamlakat harbiy boshqaruvini amalga oshirgan. U askar yig‘ish, harbiy ta‘limga rahbarlik qilish, qo‘shin ta‘minoti bilan shug‘ullangan. Uchinchi boshliq mamlakatdagi barcha yer fondlarini boshqarib, davlat suv ta‘minotiga rahbarlik qilgan. Xitoydagi barcha sug‘orish inshootlari ustidan nazorat qilish shu shaxslar qo‘lida edi.

Keyinchalik mamlakatda boshqa amaldorlar ham paydo bo‘ldi. Ular shoh yerlari, turar-joylari, saroyi, sud ishlari, diniy ishlarni boshqaradilar. Qadimgi Xitoyda sud ishlari yozma qonun va huquqlarning shakllanishiga olib keldi. Chjou davridagi qonunlar hukmdor shaxsi va uning hokimiyatini himoya qilishga qaratilgan edi. Masalan, shohni tahqirlashga qarshi qabul qilingan qonunda shohni kamsitgan shaxs o‘lim jazosiga mahkum etilishi yozilgan.

Jinoiy qonunlar majmui, yaxlit jazo tizimi ishlab chiqildi. Unda o‘lim jazosi, erkaklarni bichish, ayollarni saroyga qamab qo‘yish, oyog‘ini kesib tashlash kabi og‘ir jazolar joriy etildi. Bu to‘plam qadimda shoh Mu tomonidan ishlab chiqilib, 3 ming moddadan iborat bo‘lgan. Oliy sud og‘ir jinoiy ishlarni, quyi sudlar esa kichikroq ishlarni ko‘rib, hukm chiqargan.

Chjou davlati (miloddan avvalgi
XII - VIII asrlar)

Qadimgi Xitoyning Veyxe
daryosi havzasida joylashgan

Chjou qabilalari qadimgi In shohlighi ustidan bir necha bor g'alaba qozonib, uning o'rnida yangi davlatga asos soldilar. Bu davlat qabila nomidan Chjou deb nom oldi. Chjou qabilalari haqidagi ilk ma'lumotlar U-din hukmronligi davridagi epigrafik yodgorliklarda keltiriladi. O'sha vaqtda Chjou qabilalari In davlatining siyosiy ta'sirida bo'lgan.

Chjou davlatining asosi bo'lgan qabilalar neolit davridan boshlab, Shimoliy Xitoyning Shensi viloyati Veyxe daryosi havzalarida yashaganlar. Yillar o'tishi bilan Chjou qabilasi Veyxe daryosi havzasining boshqa qabilalari ustidan hukmronlik o'rnatadi va yirik qabilalar ittifoqini tashkil qiladi. Manbalarda Chjou qabilasi In davlati bilan chegaradosh bo'lganligi aytiladi. **"Chjou"** so'zi manbalarda ko'p uchraydi. Ko'zga ko'ringan oilalar, hatto In davlati hukmdorlari qizlarini Chjou qabilasi sardorlariga uzatishgan. Chjou qabilalari Shan-In davlati madaniyatiga ega bo'lganlar. Jumladan, Chjou qabilalari inlardan yozuv, xronologik tizim, me'morchilik hamda ba'zi diniy jihatlarni o'rganganlar.

Qadimgi Xitoy adabiyotida saqlangan rivoyatlarga ko'ra, Chjou shohi Ven Van (**"Van"** - **shoh**) juda katta harbiy yurishlar qilgan. Natijada Chjou davlati hududlari kengaygan. Ven Van In shohligini bosib olish rejasini ishlab chiqqan. Chjou hukmdorlaridan biri: **"Biz shoh Ven Vanning ishini davom ettirishimiz kerak. Toki bizning davlatimiz jahon davlatiga aylanguniga qadar, dengiz burchaklaridan tortib kun chiqar o'lka odamlarining barini qonunlarimizga bo'ysundirish uchun kurashishimiz kerak"** degan edi.

In davlati o'zaro ichki ziddiyatlar, kurashlar natijasida zaiflashib qoldi. Bundan foydalangan Chjou shohi U Van hukmdorlik davrining o'n birinchi yilida katta qo'shin bilan Sharqqa tomon yurish qildi va In davlatini bosib oldi. Shunday qilib, **miloddan avvalgi XII asrda** Xitoy shimolida Chjou davlati vujudga keldi.

Chjou davlatining xo'jaligi va ijtimoiy tuzumi. Chjou davlati davrida xo'jalik asosini dehqonchilik tashkil qilgan va u ancha rivojlangan edi. Shimoliy Xitoyning hosildor yerlaridan dehqonlar katta hosil olishga erishganlar. Bu yerda qishki va bahorgi donlar ekilar, bog'dorchilik, polizchilik, mevali daraxtlarni ko'paytirish, hamda kanop yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Qishloq xo'jaligi bilan birga hunarmandchilik, jumladan, to'qimachilik ancha rivojlangan. Bu vaqtda temirchilik alohida ahamiyat kasb etgan, chunki hunarmandchilik sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergan edi. Ayniqsa, temirdan dehqonchilik uchun zarur asbob-uskunalar yasash keng yo'lga qo'yilgan.

Chjou davlati davrida ijtimoiy tuzum haqida so'z ketganda, bu davrda patriarxal oila mavjud bo'lganini aytib o'tish kerak. Patriarxal oilada otaning roli cheksiz edi. Unga oila a'zolari so'zsiz itoat qilgan. Otaning obro'-e'tibori davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Masalan, shoh Syuan farmonida aytilishicha: "Fuqarolar bevosita boshliqlarining qaroridan shikoyat qilishga haqli emaslar. Agar ularga shikoyat qilish huquqi berilsa, u holda o'g'il o'z otasi bilan sudlashishi mumkin. Natijada katta bilan kichiklar o'rtasida hech qanday farq qolmaydi." Ayol o'z uyini tashlab ketishi katta gunoh hisoblangan.

Chjou davrida "nun-fu" (qul) atamasi paydo bo'ldi. O'sha vaqtdagi *manbalar*da "nun-fu" mehnati haqida, bu odamlarning o'zlarini ishlab chiqarish quroli bo'lmaganligi qayd etiladi. Bundan qullarning quldorlar yerlarida ishlaganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Qullar mehnatidan dehqonchilik hamda harbiy ishda foydalanganligi haqida ma'lumot bor. Qullar o'rtasida mehnat taqsimoti joriy etilgan. Manbalarida janubiy qabilalarga tegishli bo'lgan qullar otboqarlik qilgan. Davlat muassasalari hamda alohida amaldorlar ixtiyorida bir necha guruh qul bo'lgan. Masalan, amaldorlar boshlig'i ixtiyorida 120, maorif boshlig'i ixtiyorida 120, yer xo'jaligida 120, kamonchi va o'qchilar bo'limida - 80 ta qul borligi haqida ma'lumot "*Chjou-li*" kitobida keltiriladi.

Davlat tuzumi. Chjou-li traktati asosida Chjou sulolasi davridagi davlat tuzumini o'rganish mumkin. Bu davrda Xitoyda murakkab davlat tuzilmasi shakllandi. Davlat apparati mamlakatni shoh nomidan boshqardi. Hukmdor atrofida zodagon amaldorlar guruhi bo'lib, ular Yuqori lavozimlarni egallaganlar. Davlat boshida shohdan so'ng birinchi yordamchi turadi. Bu amaldor bilan bir qatorda uch oqsoqoldan iborat guruh: yer ishlari boshlig'i (amloqdor), ikkinchisi - ot-ulov hamda shoh qo'shinlari sardori, uchinchisi - ijtimoiy ishlar boshlig'i vazifasini ado etganlar. Amloqdor mamlakatda qishloq ishlarini tashkil qilish, yer ishlari bilan band bo'lgan aholini

boshqarish bilan shug'ullangan. Ikkinchisi, harbiy vazir sifatida mamlakat harbiy boshqaruvini amalga oshirgan. U askar yig'ish, harbiy ta'limga rahbarlik qilish, qo'shin ta'minoti bilan shug'ullangan. Uchinchi boshliq mamlakatdagi barcha yer fondlarini boshqarib, davlat suv ta'minotiga rahbarlik qilgan. Xitoydagi barcha sug'orish inshootlari ustidan nazorat qilish shu shaxslar qo'lida edi.

Keyinchalik mamlakatda boshqa amaldorlar ham paydo bo'ldi. Ular shoh yerlari, turar-joylari, saroyi, sud ishlari, diniy ishlarni boshqaradilar. Qadimgi Xitoyda sud ishlari yozma qonun va huquqlarning shakllanishiga olib keldi. Chjou davridagi qonunlar hukmdor shaxsi va uning hokimiyatini himoya qilishga qaratilgan edi. Masalan, shohni tahqirlashga qarshi qabul qilingan qonunda shohni kamsitgan shaxs o'lim jazosiga mahkum etilishi yozilgan.

Jinoiy qonunlar majmui, yaxlit jazo tizimi ishlab chiqildi. Unda o'lim jazosi, erkaklarni bichish, ayollarni saroyga qamab qo'yish, oyog'ini kesib tashlash kabi og'ir jazolar joriy etildi. Bu to'plam qadimda shoh Mu tomonidan ishlab chiqilib, 3 ming moddadan iborat bo'lgan. Oliy sud og'ir jinoiy ishlarni, quyi sudlar esa kichikroq ishlarni ko'rib, hukm chiqargan.

Chjou davrining siyosiy tarixi xususida shuni aytish mumkinki, Chjou sulola shohlari In davlatini bosib olib, kuchli davlat tashkil etishdi. **Miloddan avvalgi V - IV asrlarda** yozilgan "**Osmon o'g'li Muning tarixi**" nomli kitobda Chjou davriga oid afsonalar berilgan. Unda Chao va Mu shohlari buyuk fotih sifatida tasvirlanadi. Xitoyliklar Xan daryosi bo'ylari va Xubeyda yashagan qabilalarni bo'ysundiradi. Podsho Syuan (**miloddan avvalgi 827 - 782 yillar**) tarixiy shaxs hisoblanadi. Uning urushlari qo'shni qabilalarni bostirish, ularni o'ziga tobe qilish uchun boshlagan yurishlari o'sha davrdagi adabiy asarlarda o'z ifodasini topgan.

Chjou davlati o'zaro ichki ziddiyat kuchayishi, ko'chmanchi qabilalarga qarshi olib borgan tinimsiz urushlar, mamlakat ichidagi iqtisodiy tizimning mustahkam emasligi sababli **miloddan avvalgi VIII asrga** kelib mustaqil davlat va xonliklarga bo'linib ketadi.

Chjou podsholigining inqirozga uchrashi (**miloddan avvalgi VIII-III asrlar**). Chjou davlati Xuanxe daryosi va uning irmoqlari bo'yidagi boy unumdor vodiylarga dahshat solgan ko'p sonli va kuchli ko'chmanchi qabilalar bilan uzoq vaqt davomida kurash olib

borib zaiflashdi. Bu esa sinfiy ziddiyatlarni tugʻdirib, mamlakat ichida iqtisodiy birdamlik yoʻqligi tufayli kuchsizlanib, keyin bir necha mustaqil davlatlarga boʻlinib ketdi. Bu shohliklar boshida zodagon quldorlar va markaziy hukumatga tobe boʻlmagan qudratli amaldorlar turgan.

Miloddan avvalgi 770 yilda Chjou podsholaridan biri Pin Van gʻarbiy koʻchmanchilar siquvi oqibatida oʻz poytaxtini Sharqdagi Lo-i shahriga (keyinroq Xenan viloyatidagi Lo - yanga) koʻchirgan. Xitoyning mustaqil mayda shohliklarga boʻlinib ketishi aynan shu davrdan boshlandi. Ular endi Sharqiy Chjou davlatiga boʻysunmay qoʻydilar. **Miloddan avvalgi VII asrda** beshta eng qudratli shohlik ittifoqi tuzilib, markazlashgan davlat barpo qilish imkoniyati yuzaga keldi. Biroq bu vaqtinchalik birlashuv boʻlib, mustahkam emas edi. Beshta katta shohlikning har biri ustunlikka uringani tufayli, kuchlar muvozanati buzildi. Ular hokimligi davri, ya'ni **miloddan avvalgi VII-V asrlar** odatda “besh hokim” davri deb nom oldi. Ayniqsa, **miloddan avvalgi V asrda** ayrim shohliklar oʻrtasidagi kurash keskinlashdi. Shuning uchun ham **miloddan avvalgi V - III asrlar** davri **“Kurashuvchi shohliklar”** (Chjan -go) nomini olgan.

Miloddan avvalgi VII asrda Si hukmronligida davlat temirni oʻz monopoliyasiga oldi. Omoch uchun temir tishlardan foydalana boshlaydilar, bu esa mehnat unumdorligini oshiradi va qishloq xoʻjaligida koʻplab qullardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Doimo urushlar chiqishi va davlat markazlarining joydan joyga koʻchirilishi, “siyosiy sohada”gi oʻzgarishlar qullarning koʻpincha yalpisiga ozod qilib yuborilishiga, erkin dehqonlarning esa, aksincha, qullikka tushishiga olib kelgan. Vaholanki, jamoalar natural xoʻjalikka asoslangani uchun, ishlab chiqarish usuli oʻzgarmay qolavergan. **“Chen”** soʻzi **“xizmatkor”**, **“qul”**, jumladan, **“uy quli”** ma'nosini anglatgan. **“Min”** soʻzi birga qoʻshib ishlatilganda, ehtimol, butun mehnatkash xalqni, ogʻir qullik, qaramlik Sharoitida yashagan jamoalarni anglatgan boʻlsa kerak.

Faylasuf **Men - Szining** ijtimoiy-siyosiy asarida (**miloddan avvalgi IV - III asrlar**) saqlanib qolgan ma'lumotlar bu davrning xoʻjalik va ijtimoiy tuzumiga tavsif beradi. Ayrim shohlarning ustun boʻlishi va hokimlik qilish uchun olib borgan oʻzaro urushlari mehnatkash xalq ommasiga gardaniga gʻoyat ogʻir yuk boʻlib tushgan.

Sin davlati tashkil topgan davrga kelib alohida **“boylar”** tabaqasi paydo bo‘ladi. Ular yirik mulk (yer) ga ega bo‘lib, savdo ishlarida faol ishtirok etganlar. Xitoy manbalarining xabar berishicha, o‘sha davrda boylar ko‘payib, Sin Shixuandi o‘z poytaxtida savdoni taraqqiy ettirish uchun ularning **120** mingga yaqin oilasini poytaxtga ko‘chirib keltirgan. Bu raqam mubolag‘a bilan aytilgan bo‘lishi ham mumkin. Savdo va sudxo‘rlik rivojlanishi sinfiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Sinfiy kurashning keskinlashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun ijtimoiy islohot loyihalari ilgari surildi. Mazkur loyihalar hukmron amaldorlar sinfi manfaatlarini birinchi navbatda, savdogar tabaqa manfaatlarini yuz berishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy larzalardan qo‘riqlashni maqsad qilgan. Sinfiy ziddiyatlarning keskinlashuvi hukmron sinf - quldorlar sinfining yashashi va boyishiga jiddiy xavf tug‘dirgan. Ijtimoiy islohot o‘tkazishga urinishlar shiddatli sinfiy kurashni kuchsizlantira olmadi. Amaldorlar yer egaligining o‘sishi va savdoning rivojlanishi natijasida irrigatsiya shahobchalarini saqlab qolish, shuningdek, mamlakatni ko‘chmanchilardan mudofaa qilish zarurati yuzaga keldi. Markazlashgan kuchli davlatni tiklash hamda butun mamlakat uchun mustahkam va yagona davlat apparati barpo qilishni talab etardi. Ana shu munosabat bilan **miloddan avvalgi VI asrdagi** falsafiy asarlarda davlatni idora qilish tamoyillari vujudga keladi hamda alg‘ov-dalg‘ovlar davridan keyin mustabid tuzumni tiklash zarurligi ko‘rsatiladi. Masalan, faylasuf Men - Szi dehqonchilik ustidan davlat nazorati o‘rnatilishini tavsiya qiladi. Jumladan, qishloq xo‘jaligini yuksaltirish uchun imperatorlarga irrigatsiya choralarini ko‘rish xususida ko‘rsatma beradi.

Miloddan avvalgi IV asrda Sin shohligi boshqa barcha katta podsholiklar orasida eng kuchli podsholik bo‘lib qoldi. Sin shohligi hukmdorlari butun Xitoyga hokimlik uchun bir asr mobaynida qattiq kurash olib bordilar.

Sin hukmdori Chjen barcha qolgan shohliklarni bo‘ysundirib, butun Xitoyni o‘z hokimiyatiga birlashtirib, Sin Shixuandi (**miloddan avvalgi 221-210 yillar**) unvoniga ega bo‘ldi. Uning hukmronligi davrida yagona va markazlashgan Xitoy davlati tiklandi. Avvalgi mustaqil shohliklar o‘z mustaqilligini yo‘qotdilar. Shu tariqa Chjou xonligi tugatilib, o‘rniga yangi markazlashgan Sin shohligi tashkil topdi.

Miloddan avvalgi III asr boshlarida

Xitoyda Sin sulolasi davri.

Miloddan avvalgi IV asr

va III asr boshlarida

Xitoyning tobora parchalanib borish jarayoni mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning va ayirboshlashning rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Butun mamlakatda yagona sug'orish tarmoqlarini vujudga keltirish, daryo suvlarini muntazam taqsimlab turish ishi barcha o'lkalar birlashuvini taqozo etgan. Ammo maydalashuv Sharoitida buning iloji bo'lmagan. Shunday hodisalar yuz berganki, bir tumanda boshqalari bilan kelishmay turib, to'g'on qurilishi tabiiy ofat keltirib chiqargan. Ikkinchi tomondan, o'zaro dushman bo'lgan shohlarning chegaralarida o'rnatilgan bojxona g'ovlari xo'jalik sohasidagi o'zaro munosabatlar taraqqiyotiga to'sqinlik qilgan. Shuni ham nazarda tutish kerakki, sinfiy kurashning keskinlashuvi va ko'chmanchilar tomonidan solingan xavf hukmdor tabaqalarda mamlakat birligini tiklashga intilish paydo qilgan. Ichki va tashqi dushmanlarni yengish uchun quldorlar markazlashtirilgan hokimiyatni mustahkamlashga muhtoj edilar.

Mamlakatni yangidan birlashtirishda Xitoyning g'arbiy tumanlarini o'z ichiga olgan va hukmronligini janubdan Yanszi qirg'oqlarigacha o'rnatgan Sin shohligi asosiy o'rin tutdi. **Miloddan avvalgi IV asrda** Sin shohligida Shan Yan nomli katta mansabdorning tashabbusi bilan muhim islohotlar o'tkazilgan. Bu islohotchi davlat xizmatidagi oqsuyaklarga va savdogar-sudxo'rlar doirasiga tayanib, patriarxal oila va qishloq jamoalariga qat'iy zarba bergan. Yer islohoti shundan iborat ediki, yerni istagancha xususiy mulk qilib olish hamda yerni erkin tarzda sotish va sotib olish mumkin bo'lgan. Shan Yan katta oilalarning parchalanib, mulklari bo'linishiga xayrixoh, shuningdek, jamoadagi chek yerlarni sotishga ijozat bergan. Soliq zulmi kuchaytirilgan.

Sin hukmdorlari shu yo'l bilan g'oyat katta mablag' to'plaganlar. Bu mablag' ularga qo'shinni qayta tashkil etishda yordam bergan. Bronza qurol-yaroq o'rnini temir qurollar egallagan. Qo'shinda yanada qattiqroq intizom, rag'batlantirish va mukofotlash tartibi o'rnatilgan.

Shan Yan islohotlari tufayli Sin podsholigi qo'shini o'z jangovarligi bilan boshqa shohlarning qo'shinlaridan ustun bo'lgan. **Miloddan avvalgi III asrning birinchi yarmida** Sin podsholari

barcha dushmanlarini tor-mor qildi. Chjou sulolasi miloddan avvalgi III asr oʻrtalarida hokimiyatni qoʻlidan boy berdi.

In Chjen oʻz shohligi davrida (**miloddan avvalgi 246-210 yillar**) butun hududdagi barcha mamlakatlarni oʻziga boʻysundirdi. Miloddan avvalgi **221** yilda u imperator (xuandi) unvonini olib, Sin Shixuandi (Sinning birinchi imperatori) degan nom oldi.

U shimolda xunlar, janubda (Yanszi) Yue mamlakati bilan (hozirgi Guandun va Guansi viloyatlari hududi ham shu mamlakat tarkibiga kirgan) bir necha bor muvaffaqiyatli urush qilgan. Shimoliy koʻchmanchilardan mamlakatni himoya qilish uchun Buyuk Xitoy devori (Saddi Chini) qurilgan. Bu tuproq tepalar, tosh va gʻishtdan ishlangan devor va minoralardan iborat murakkab istehkom boʻlib, uning uzunligi 4000 kilometr, balandligi 10 metrga teng. Devor shu qadar qalinki, uning ustida yonma-yon oltita otliq bemalol yura oladi. Bu istehkom qurilayotganda avvalgi istehkomlar ham Buyuk Xitoy devoriga qoʻshilib ketgan. Bu istehkom qurilishida salkam ikki million kishi (asosan harbiy asirlar va hukm qilingan jinoyatchilar) mehnat qilgan.

Sin Shixuandi oʻzining ichki siyosatida Shan Yan qonun-qoidalariga amal qilgan. Butun davlat 36 viloyatga boʻlinib, bu viloyatlar shoh amaldorlari tomonidan idora qilingan. Avvalgi zodagonlar boshqarish ishlaridan chetlashtirilib, qattiq nazorat ostiga olingan.

Xitoyda markazlashtirish jarayoni avj oldi. Bir-biriga tayanch boʻlib, bir-birini qoʻllab-quvvatlamasligi uchun imperator Vey daryosi shimoliy sohilidagi yangi poytaxt - Syanyan shahriga aslzoda oilalarni koʻchirib kelgan. Ular oʻzlarining avvalgi mahalliy urugʻ-qabilalaridan uzoqlashib, poytaxtda hech qanday tayanch va kuchga ega boʻla olmaganlar. Vassallarning mahalliy etnik ism bilan atalishi ma'n etilib, oddiy aholi "**qoraboshlar**" nomini olgan.

Sin Shixuandi tadbirlari qattiqqoʻllik bilan oʻtkazilgani tufayli, nafaqat oddiy xalq, balki zodagonlarning ham qarshiligiga uchradi. Sin Shixuandi davrida Xitoyning barcha tumanlarida qoʻzgʻolonlar koʻtarilib, ular ayovsiz bostirilgan. Imperator hayotiga toʻxtovsiz suiqasdlar uyushtirilgani sababli, u oʻz makonini doimo oʻzgartirib turgan. Sin Shixuandi **miloddan avvalgi 210 yilda** asab kasalligidan

vafot etgan. Uning hukmdorlik davridan nishona sifatida Buyuk Xitoy Devori qoldi, xolos.

Sin Shixuandi o'limidan so'ng dehqonlarning ommaviy qo'zg'olonlari ko'tarilib, unga qullar ham qo'shilganlar. Ayniqsa, bu harakat yo'l boshchilaridan biri Lyu Ban ismli qishloq oqsoqoli nom qozondi. U xalq ommasigina emas, balki Sin Shixuandi vaqtida tor-mor bo'lgan zodagonlarni ham o'ziga og'dirib, raqiblarini davlat boshqaruvidan chetlashtirgan. **Miloddan avvalgi 206-yilda** u Sin sulolasining so'nggi vakilini ag'darib, birinchi, ya'ni Katta Xan sulolasi deb nom olgan yangi sulolaga asos soldi.

Qadimgi Xitoy Xan sulolasi davrida (**miloddan avvalgi 206-milodiy 220 yillar**). Sin sulolasi hukmdori Sin Shixuandi hokimiyatiga qarshi dehqonlarning noroziligi ortib, ular ko'plab qo'zg'olon ko'tardilar. **Miloddan avvalgi 206yili** qo'zg'olonchi dehqonlar yo'l boshchilaridan biri Lyu Ban taxtni egallab, Sin sulolasi hukmronligiga yakun yasadi va yangi davlatga asos soldi. Bu qo'zg'olon natijasida dehqonlarning iqtisodiy ahvoli birmuncha yaxshilanib, soliqlar kamaytirildi va davlat mehnat majburiyatlari yengillashtirildi. Ammo hokimiyat quldor zodagonlar qo'lida qolaverdi. Ular, dastlab, dehqonlarga bir oz yon bergan bo'lsalar ham, vaqt o'tishi bilan Sharoit yana ilgarigi ahvoliga qaytdi.

Mehnatkashlar ommasining xonavayron bo'lishi quldorlikni yanada o'sishi va mamlakatda qullar sonining ortishiga sabab bo'ldi. Nochor ahvolda qolib, amal-taqal tirikchilik qilgan kambag'allar ko'pincha bolalarini qul qilib sotishga majbur bo'lganlar.

Urush yillarida mamlakat xo'jalik hayoti izdan chiqib, hukumat qo'shimcha soliqlar solar edi. Xan sulolasi davrida odatiy soliqlardan tashqari, hosilga qarab natural soliq joriy qilingan bo'lib, u yeri bor odamlardan olingan. Shu bilan birga aholidan olinadigan pul solig'i joriy qilingan. U-di hukmronligi davri xazina tushumini oshirish maqsadida tuz va temirga monopoliya joriy qilingan. Qul savdosi rivojlanib, maxsus qul bozorlari vujudga kelgan.

Qullar soni ko'payganligiga qaramay, ularning mehnati u qadar foyda bermay qo'ydi. Qullar mehnatining unumini oshirish maqsadida qullarga kichikroq yer berilib, shaxsiy xo'jalik yuritishga ruxsat etilgan.

Ayni vaqtda ijara munosabatlari ham taraqqiy eta borib, dehqonlar boylar yerini hosilning 50% evaziga ijaraga olganlar. Ijara haqining Yuqoriligi tufayli ko‘plab dehqonlar asoratga tushganlar.

Xan davrida Xitoyning tashqi savdosi o‘sib, istilochilik siyosati keng ko‘lamda yuritildi. Xitoyliklar miloddan avvalgi II asr oxirlarida, imperator U-di davrida (**miloddan avvalgi 140 - 87 yillar**) g‘arbning uzoq joylari, O‘rta Osiyogacha, **“G‘arbiy chet joy”** (Si yuy) deb atalgan mamlakatga qadar kirib borganlar. Xitoy karvonlari Sharqiy Turkiston orqali Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi o‘lkalarga yetib borgan. Xitoyliklar, ayniqsa, Farg‘ona bilan savdo munosabatini o‘rnatganlar. Xitoy mollarini Eron savdogarlari bu yerdan Suriya, Eron, hatto Rim imperiyasigacha olib borganlar.

Muhim savdo yo‘li - **“Buyuk Ipak yo‘lini”** qo‘lga kiritishga intilish istilochilik siyosatining davom etishiga sabab bo‘ldi. Xitoylik sarkarda va diplomat Ban Chao (**miloddan avvalgi 32 - 102 yillar**) Sharqiy Turkistonga bir necha marta qo‘shin tortib borgan va istilo qilgan. Xitoyliklar Sharqda Koreya, Hindi-Xitoyning ayrim hududlariga ham kirib borib, Hindistonga yo‘l ochmoqchi bo‘lganlar. Tashqi savdo va istilochilik siyosati kengayib borishi oqibatida zodagonlar yanada boyiganlar.

Xan davrida Xitoy davlati qudratining oshishi madaniyatning yuksalishida ham o‘z ifodasini topgan. Manbalarda ko‘rsatilishicha, bu vaqtda akademiya, kutubxona tashkil qilingan, davlat yozuvchilarga homiylik qilgan, ochiq imtihonlar o‘tkazib, amaldorlarning malakasini oshirgan. Ammo mehnatkash xalq ahvoli og‘ir bo‘lib qolavergan.

Ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirish maqsadida Dun Chjunshu, Van Chun va Van Man islohotlar o‘tkazishga harakat qilganlar. Dun Chjun - katta yer-mulklarning bir kishi qo‘lida bo‘lishini ta‘qiqlash, tuz va temir monopoliyasi, “quldorlarning o‘z qullarini qatl etish huquqini bekor qilib, quldorlikka barham berish”, soliqlarni kamaytirish, harbiy va mehnat majburiyatlarini yengillashtirishni taklif etgan.

Xitoyda o‘tkazilgan islohotlar kutilgan natija bermagan. Pirovardida kambag‘allar ocharchilik natijasida ko‘targan qo‘zg‘olonlari tobora kuchayib bordi.

Fan Chun boshchiligida **18-yilda** ko‘tarilgan **“qizil qoshlilar”** qo‘zg‘olonida Shandun aholisining ko‘p qismi ishtirok etdi. **Van Man**

islohotlaridan norozi ayrim zodagonlar ham qo‘zg‘olonga qo‘shildilar. Fan Chun rahbarligidagi 10 ming kishilik qo‘zg‘olonchilar lashkari Van Man qo‘shinini mag‘lub etdi. **23-yili** Van Man qo‘shini batamol tor-mor etilib, poytaxtni qo‘zg‘olonchilar egallab olishdi. Lekin **27-yilda** *“qizil qoshlilar”* orasiga kirib olgan zodagonlar qo‘zg‘olonchilardan ustun kelib, ularni tor-mor keltirganlar va avvalgi tartibni qayta tiklaganlar.

184-yilda yana bir katta qo‘zg‘olon ro‘y berdi. Bu Chjan Szyao rahbarligidagi “sariq ro‘molliklar” qo‘zg‘oloni bo‘ldi. Qo‘zg‘olonchilarning qo‘shini bir necha yuz ming kishiga yetgandi va ko‘p sonli qullardan iborat alohida bo‘linmalari ham bor edi. Bu ommaviy, haqiqiy xalq harakati keng tus olganiga qaramay, qo‘zg‘olon bostirilgan. Biroq Xan sulolasi hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlab qola olmadi. Ko‘pdan-ko‘p qo‘zg‘olonlar Xan davlatini holdan toydirib, davlatni parokanda bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:



1. Chjou qabilalari qayerlarda yashagan va Chjou davlatini qanday tashkil qilganlar?
2. Chjou davlatining ijtimoiy va siyosiy tuzumi qanday bo‘lgan?
Chjou shohligi inqirozining asosiy sabablari nimalardan iborat edi?
1. Shan Yan islohotlari nima maqsadda o‘tqazilgan?
2. Xitoyda markazlashtirish jarayoni qanday to‘siqlarga duch keldi?
3. Nima uchun Sin Shixuandi konfutsiychilar ta‘limotini ta‘qiqlab qo‘ydi?
4. Xan sulolasi hukmronligi o‘rnatilganidan so‘ng, hokimiyatni mustahkamlash uchun qanday tadbirlar amalga oshirilgan?
5. Xan davlatida yirik qo‘zg‘olonlar ko‘tarilishi sabablari nimalardan iborat?

15-mavzu. Qadimgi Xitoy manbashunosligi va tarixnavisligi. Van Man islohotlari. Qadimgi Xitoy madaniyati.

Reja:

1. Chjou davlati (miloddan avvalgi XII - VIII asrlar)
2. Chjou davlatining xo‘jaligi va ijtimoiy tuzumi.
3. Chjou podsholigining inqirozga uchrashi
4. Miloddan avvalgi III asr boshlarida Xitoyda Sin sulolasi davri.

Tayanch iboralar: *fetishizm, totemizm, Konfutsiy, Lao-szi, matriarxat, “Qo‘shiqlar kitobi”, Shan Yan, manevrli suvoriylar, In Chjen, Xuandi, Sin Shi, xunlar, Saddi Chin, konfutsiychilar, Lyu Ban, Katta Xan sulolasi*

Qadimgi Xitoy davlatlari Xitoyning to‘rt ming yillik yozma tashkil topishi tarixi bizga qadar yetib kelgan. Tarixchilar xitoy xalqining eng qadimgi hayot yo‘lini so‘nggi davrlargacha saqlangan va bir qadar o‘zgargan tarixiy an‘analar asosida emas, balki qadimgi yozma yodgorliklari asosida o‘rgandilar. Arxeologiya manbalari qadimgi Xitoy iqtisodi va taraqqiyotini qisman yoritsa ham, ammo Xitoyning eng qadimgi tarixi to‘liq manzarasini bermaydi. Eng qadim hujjatlar, jumladan, **miloddan avvalgi II ming yillikka** oid hamda toshbaqa kosalaridagi yozuvlar tarix uchun muayyan ahamiyatga molik. Miloddan avvalgi Shan In davlatiga oid qisqa ma‘lumotlarni Yuqoridagi manbalardan olish mumkin. Qadimgi Xitoy tarixiy an‘analari klassik adabiyot asarlarida o‘z aksini topadi, uning tarkibiga tarixiy, diniy-falsafiy va badiiy asarlar kiradi. Biroq qadimgi Xitoy klassik adabiyoti asarlari **miloddan avvalgi V - III asrlarda** bir muncha tahrirdan o‘tgan. Ba‘zi klassik kitoblar ma‘lum bir davrda hukmron ijtimoiy-siyosiy va diniy-falsafiy nazariyalar ta‘sirida butkul qayta ishlangan va shu tufayli matnlar ancha o‘zgargan. Masalan: Lu xonligining tahrir qilingan, tuzatilgan solnomasi Chun Syu - “Bahor va kuz” kitobida Lu hokimlaridan to‘rt nafari qatl qilingani, bittasi haydab yuborilgani, yana biri dushman tomonidan o‘ldirilgani haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q.

Xitoyning turli viloyatlari xalq qo‘shiqlarini yig‘ish natijasida mashhur **“Qo‘shiqlar kitobi”** - **“Shitszin”** yuzaga kelgan bo‘lib,

ulardagi mifologik ohanglar qadimgi tarixiy voqyealar to'g'risida xalq yodida saqlanib qolgan xotiralar bilan chambarchas bog'liq. Mazkur kitobdagi muqaddas qo'shiqlarda qadimgi xitoyliklarning ota-bobolari ilohiylashtirilgan qahramonliklari haqida kuylanadi.

Qadimgi Xitoy klassik adabiyotiga kirgan tarixiy kitoblar orasida **“Hujjatlar kitobi”** ni, **“tarixiy kitob”** - **“Shutszin”ni** alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bu kitobda qadimgi hukmdorlar yoki ularning maslahatchilariga qarashli nutq, nasihatlar va farmonlar keltirilgan. Undan mamlakatning topografiyasi va boshqarish tizimiga doir qiziqarli ma'lumotlarni topish mumkin. Biroq **“Hujjatlar kitobi”**ni Konfutsiy qayta ishlagan va natijada u diniy va siyosiy an'analar bilan omuxta bo'lib, nasihatlar to'plamiga aylanib qolgan. Xitoy tarixining to'laqonli ravishda poydevorini yaratgan shaxs Sima Syan hisoblanadi. U mashhur tarixchi bo'lib, **miloddan avvalgi II - I asrlarda** Xitoyda yashab o'tgan. Sima Syanning **“Tarixiy xotiralar”** deb nomlangan asari qadimgi Xitoy tarixiga oid manba hisoblanadi. Muallif bu asarida Xitoyning qadimgi tarixini tartibga soladi. Sima Syanning bir qadar siyosiy axloqiy va tarixiy asari Xitoy tarixshunosligi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Keyinchalik Xitoy tarixnavisligida barcha sulolalar tarixi haqida kitoblar saqlanib qolgan. **“Yuan tarixi”, “Min tarixi”, “Sin tarixi”** asarlari shular jumlasidandir. Ularda saroy tantanalari haqida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, har bir imperator va u yuritgan tashqi siyosat haqida aytib o'tiladi.

Marko Poloning “Mo'jizalar kitobi”, Plan Kornining “Sharqqa sayohat” hamda Rubruk asarlaridan ushbu mamlakat va uning tarixiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlar olish mumkin. Xitoy tarixiga bag'ishlangan dastlabki asarlardan biri - Mendozaning **“Buyuk Xitoy shohligi tarixi”**dir. Bu asar **1585-yili** nashr etilgan. **1618-yili** missioner Goesning Xitoyga qilgan sayohati haqidagi kitob chop etildi. **XVIII asrda** ko'plab yevropaliklar Xitoyga missioner sifatida tashrif buyuradilar. Ular Xitoy adabiyoti va klassik yozuvi haqida bir qancha ma'lumotlar yozib qoldiradilar. Fransuzlar Abel Remyuza va Shovoni Sima Szyanning **“Tarixiy xotiralar”** asarini birinchi marta fransuz tiliga tarjima qilib, Yevropani Xitoy tarixi bilan tanishtiradilar.

Xitoy tarixini o'rganishda rus olimlarining asarlari qimmatli manbalardan biridir. Rus sayohatchilari va olimlari xitoy tili, tarixi va adabiyotini o'rganish ishiga yirik hissa qo'shdilar. Rossiya **XVI asr boshlarida** Xitoyga o'z missionerlarini jo'natadi. Ulardan **V.Tyumenets, I.Petlin, I.Boykov, N.G.Spafariylar** qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Masalan, Spafariy "Xitoy baland devorlari" nomli asarini yozgan.

XIX asrda taniqli rus xitoyshunosi I.Bichurin o'zining o'n yetti yil umrini Xitoyda o'tkazadi. Uning "**O'rta Osiyoda eng qadimdan yashab kelgan xalqlar. Tibet va xunlar tarixi**" nomli asari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bichurin Xitoy viloyatlari topografiyasini xaritalar bilan izohlab berdi. Uning asarlari nafaqat rus xitoyshunosligida, balki Yevropa sinologiyasining taraqqiy etishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Keyinchalik V.P.Vasilyev "**O'rta Osiyoning qadimgi tarixi**" asarida ham ko'p ma'lumotlarni bayon etgan. U Xitoyda budda dinining yoyilishi haqida "**Xitoy xrestomatiyasi**", "**Buddizm va uning tarixi**" asarlarini yaratdi. Rus olimlari **Potonin, Grum - Grjimaplo - Obruchev, Kozlovlar** tomonidan boy materiallar to'plandi.

Qadimgi Xitoyning madaniyati va tarixini o'rganishga mashhur xitoy olimi Gomo-Jo ham yirik hissa qo'shdi. U Xitoy tarixining yirik tadqiqotchisi sifatida boy manbalar qoldirdi. Olimning "**Qadimgi Xitoy jamoasi**", "**Quldorlik davri**" asarlari diqqatga sazovor.

Van Man islohotlari. Sinfy ziddiyatlarning keskinlashuvi hukmron sinf bo'lmish zodagonlarning boyishiga jiddiy xavf tug'dira boshlaydi. Ijtimoiy islohotlar o'tkazishga urinishlar qattiq sinfiy kurashni kuchsizlantira olmaydi. Xan davrida Xitoy qay ahvolda bo'lganligini Van Man islohotlari ochiq namoyish etdi. Van Man qishloq va shaharlarda yashagan o'rta tabaqa aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilashga va ijtimoiy ziddiyatlarni susaytirishga intilgan. Van Man shu o'rta tabaqadan chiqqan degan farazlar mavjud. **8-yilda** Van Man taxtga chiqib, yangi - Sin sulolasiga asos soldi.

Shu davrda sinfiy ekspluatatsiyani susaytirishni maqsad qilgan nazariyalar tarqala boshladi. Keskin tus olgan ijtimoiy ziddiyatlarni bir qadar susaytirish orqali qo'zg'olonlarni bostirishga harakat qilindi. Bu jihatdan Dun Chjunshu va Van Chun g'oyalari hamda Van Man islohotlari o'ziga xos ahamiyatga egadir.

9 - 10 yillarda Van Man talay islohotlarni amalga oshirdi. Uning g'oyalarida **“Szintyan”** tizimi, ya'ni qadimgi jamoa yer mulkini tiklash islohotlari e'lon qilindi:

1. Yer islohoti. Zodagonlarga qarashli yerlar musodara qilinib, davlatga tegishli hamma yer **“hukmdor yeri”** - **“vantlyan”** deb e'lon qilingan. Shu bilan birga yer fondini qaytadan taqsimlashga hamda yer egaligini cheklab qo'yishga harakat qilingan.

2. Yer va qul sotish ta'qiqlangan. Qullarni **“shaxsiy qaramlar”** - **“si shu”** deb nomlash qulchilikni bekor qilish yo'lidagi ilk qadam bo'lsa ajab emas.

3. Davlatning temir, tuz, vino va kon hunarmandchiligi ustidan monopoliyasi vaqtincha susaygan bo'lsa ham, keyinchalik u yanada kuchaydi.

4. Ishlab chiqarish va savdoni tartibga solish maqsadida, mamlakat xo'jalik hayoti ustidan qat'iy va amaliy nazorat o'rnatishda davlat hokimiyatidan foydalanilgan.

Lekin bu islohotlar Yuqori tabaqalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan. Van Man islohotlari muvaffaqiyatsiz yakunlandi. 3 yildan keyin, 12 yilda yer islohoti bekor qilindi. Qul sotish va sotib olishga yana ruxsat berildi. Bu yarim islohotlar kutilgan natija bermadi. Ikkinchi tomondan, ular Yuqori tabaqalarning manfaatlariga zid bo'lib, ular o'rtasida norozilik keltirib chiqardi. **I asrning** Xan davridagi qadimgi Xitoy jamiyatida kambag'al xalqning ahvoli tubdan o'zgargani yo'q. Kambag'allarning qo'zg'olonlari, ijtimoiy harakatlari davom etib, tobora kuchayib bordi.

Qadimgi Xitoy madaniyati. Xitoy madaniyati juda qadim zamonlardan mavjud. Eng qadimgi iyeroglif yozuvining paydo bo'lishi dastlabki taraqqiyot jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. Saqlanib qolgan adabiy manbalar, qadimgi Xitoyning klassik adabiyoti, Xitoy diniy falsafasi, huquqshunosligining qanday paydo bo'lib rivojlanganini va juda qadimgi ijtimoiy-siyosiy tizimlarning taraqqiyotini kuzatishga imkon beradi. Bu jarayon ko'p ming yillar davom etib kelgan.

Yozuv. Qadimgi iyeroglif yozuvi **mil.av.II m.y.** paydo bo'lgan va hech qachon unutilmagan. Zamonaviy xitoy tili ham kadimgi xitoy tiliga asoslanadi. **Mil.av.II m.y.** (Shan-In davri)da iyeroglif-belgilar soni 2000 bo'lgan, Xan saltanati davrida ularning soni 18 mingga

yetgan. Bizgacha ayrim matnlar hayvon suyaklarida va toshbaqa kosalarida yetib kelgan (**mil.av. II m.y., Xan davri fol ochadigan suyaklarda**), bronza idishlarda (**mil.av.II-I m.y.- Chjou davri**).

Adabiyot. Qadimgi she'rlar bizgacha bronza idishlarda yetib kelgan. «Shitszin» - adabiy yodgorlik 305 adabiy asarlarni o'z ichiga oladi va 4 qismdan iborat. Shitszin an'analari **mil.av. IV asr** mualliflari tomonidan o'zlashtirilib, bizgacha toshlarda o'yib yozilgan matnlar ko'rinishida yetib kelgan («tosh do'mbiralarda yozilgan asarlar»). Chjango davri - qadimgi xitoy madaniyatining eng cho'qqisiga yetgan davri hisoblanadi. Syuy Yuan - mil.av. IV asrning eng buyuk shoiri bo'lgan. Sim Syan-ju - Xan davrining taniqli shoiri hisoblangan.

Ilmiy bilimlar. **Mil. I asr** traktati (asar) salbiy raqamlar bilan operatsiyalarni bajarishga bag'ishlangan. 365, 25 kunlik taqvim tuzilgan.

V asrda kompas ixtiro qilingan. Xan saltanati davrida yulduzli osmon xaritasi tuzilgan. **Chjan Xen (78-139)** eng qadimgi seysmografni ixtiro qilgan.

Tibbiyot. **Mil.av. IV-III asrlarda** nina bilan davolash usulidan foydalanilgan, 52 kasallikka davo bo'lmish 280 usul haqida **mil.av.II asrda** yozilgan tabobat qo'lyozmalari topilgan. **Mil.av.III asrda** tabib Xua To operatsiya qilishda mahalliy anesteziyadan foydalangan.

Qadimgi Xitoyda tarix fani rivojlangan:

- bambuk yog'ochlarida yozilgan «Bambuk annallari» saqlanib qolgan.

- «Chuntsu» (Bahor va kuz) - Lu viloyati xronikasi, muallifi Konfutsiy (**mil.av.IV V**)

-«Birinchi (Katta) Xan sulolasi tarixi»- **I asr**, mualliflari: Ban Byao, uning o'g'li va qizi (Kadimgi Sharq tarixida yagona ayol-yilnomachi)

-Shitszin to'plami («Ashulalar kitobi») - dexqonlarning turmush tarzi va urf-odati haqida

- «Hujjatlar kitobi» (Shitszin) - podshohlar nutqi, tarixiy voqyealar Falsafa maktablari, mil.av. I ming yillik:

- konfutsiylik - asoschisi donishmand Kun-Syu (Konfutsiy) **mil.av.551-479 yillarda** yashagan. E'tiqodning mohiyati - patriarxal

an'analar va ijtimoiy tuzumning o'zgarishligi. Yoshlarning kattalarga, xalqning xukmdorga bo'ysunishi. Har qanday yangiliklar ta'qiqlangan.

- daosizm - asoschisi Lao-Szi

- buddizm - milodiy I asrda Hindistondan Xitoyga kirib kelgan.

Din. Qadimgi zamonda yashagan boshqa xalqlarning diniy e'tiqodlari kabi, xitoyliklar dini ham fetishizm, tabiatga sig'inishning qadimgi shakllari, ota-bobolar "arvohlari"ga e'tiqod qilish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan totemizmdan boshlanadi. Tarixiy manbalarda tabiatni ilohiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan tasavvurlar keng tarqalgan zamonlar haqida esdaliklar saqlanib qolgan.

Xitoyda erkaklar, odatda, butun bir iyerarxiya tizimidan iborat uchta kuchning hukmi ostida bo'lgan. Bu kuchlar:

1) davlat tuzumi - hokimiyatning umumdavlat, o'lka, tuman va mahalliy organlari (siyosiy hokimiyat);

2) urug'chilik tuzumi - ota-bobolarning urug' ibodatxonasi, urug' tarmog'i ajdodlari ibodatxonasi, oila boshlig'i ibodatxonasi (urug' hokimiyati);

3) diniy tuzum: a) yer ostidagi kuchlar do'zaxning oliy egasi, ruhlar shahrini saqlovchi va mahalliy ruhlar; b) osmon kuchlari, xudolar va avliyolar, osmonning oliy egasidan tortib, turli-tuman ruhlardan iborat. Bularning bari birgalikda narigi dunyo kuchlarini (din hokimiyatini) tashkil etadi.

4) Ayollar esa bular bilan bir qatorda yana erkakka ham qaram (eri hokimligida) bo'lgan. Hokimlikning ana shu to'rt turi siyosiy urug'chilik, din hokimiyati va er hokimligi - feodal-patriarxal mafkura va tartibni aks ettirib, xitoy xalqini, ayniqsa, dehqonlarni chulg'ab olgan eng dahshatli alomatdir. Qadimgi diniy e'tiqodlar quldorlik va feodal davrlari davomida yashab, yaqin-yaqinga qadar ularning asorati saqlanib kelgan.

Xitoyda diniy e'tiqodlar o'ta qadim zamonlarda shakllangan. Klassik adabiyot asarlarida qadimgi muqaddas matnlar bo'lganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar saqlangan. Bu matnlarni dindor odamlar e'zozlaganlar. Ammo miloddan avvalgi VI - V asrlarda ma'lum shaklga kirgan va eng so'nggi dinlarga asos bo'lgan diniy-falsafiy tizimlar, ayniqsa, Xitoyda katta ahamiyat kasb etadi. Konfutsiyning diniy-falsafiy tizimi Xitoy madaniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, u qadimgi zamonda rom ochuvchilarning maktablarida ta'sis

qilingan. Konfutsiyning shaxsiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar bizda juda kam, faqat u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha nomlar, sanalar va uning qayerda vafot etgani ma'lum, xolos.

Konfutsiy o'zicha yangilik kiritishga urinmayotganini bir necha marta uqtirgan. U "men mavjud narsani o'rgatayotibman, o'zim o'ylab chiqarmayman" deydi. Konfutsiy tizimida tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Quldor zodagonlar bu diniy falsafiy tizimdan foydalanib, kishining xarakteriga yuvoshlik, itoatkorlik va o'zidan kattalar hamda rahbarlarga bo'ysunish ruhini singdirishga harakat qilgan. Konfutsiy tarbiya kishi hayotida g'oyat katta o'rin tutadi deb bilgan. Shuning uchun Konfutsiy falsafasi odam xarakterini o'zgartirish zarurligi va butkul o'zgartirishga oid aqidani ilgari surgan. Konfutsiychilik har bir odamni sinfiy nuqtai nazardan kamolotga yetkazish muqarrar va zarur, degan g'oyani shu tezis asosiga qurgan.

Konfutsiy ta'limotiga doir kitoblarda shunday deyiladi: "Odamlarning hammasi ham tug'ma xususiyatiga ko'ra o'zaro yaqin. Tug'ilgandan keyin hosil qilgan xususiyatlariga ko'ra ular bir-birlaridan farq qiladilar".

Bu sinfiy muvozanat nazariyasi konfutsiychilik kitoblarida juda puxta ishlab chiqilgan. Konfutsiychilik xoja va xizmatkor, ota-ona bilan farzand, er-xotin, kattalar va yoshlar, do'st-yorlar o'rtasida alohida munosabatlar o'rnatishni, ya'ni eng qadimgi patriarxal davrda mavjud bo'lgan o'zaro munosabatlarni o'rnatishni targ'ib qiladi. Konfutsiychilik ta'limotida sinfiy jamiyat va quldorlik davlati faqat ana shunday patriarxal davrda mavjud bo'lgan o'zaro munosabatlarni o'rnatishni targ'ib qiladi. Konfutsiychilik nuqtai nazaridan sinfiy hokimiyat va quldorlik davlati faqat ana shunda patriarxal munosabatlarning, jamiyat va davlatda ideal muvozanat saqlashni o'ziga maqsad qilib olgan munosabatlarning doimo saqlanishi asosidagina tinch yashashi mumkin.

Lao-szi xalqni ezuvchi hukumatga qarshi keskinroq gapiradi. "Xalq shuning uchun ham ochki, soliqlar haddan tashqari katta". Lao - szi ayniqsa, odamlar uchun faqat baxtsizlik keltiruvchi urushga qarshi qattiq gapiradi. "Yaxshi qo'shin - baxtsizlik tug'diruvchi vosita, tirik jon borki, hammasi uni yomon ko'radi. O'ziga g'alaba bilan shuhrat keltirmoq - kishilarni o'ldirishdan xursand bo'lmoqdir. Mamlakatda mehr-muhabbatga sazovor bo'lolmaydi. Ko'plab odamlarning

o‘limidan achchiq ko‘z yoshi to‘kmoq kerak, xolos. G‘alabani esa motam marosimi deb bilmoq kerak”. Lao - szining boshqa aksariyat fikrlari singari, bu so‘zlarida ham kurashdan chetga chiqish va voz kechish, urushga nafrat bilan qarash ruhi ochiq sezilib turadi. Shu bilan birga eski patriarxal turmushga qaytish zarurligi va xalqni madaniy jihatdan qoloq holda saqlash to‘g‘risidagi, shubhasiz, reaksiyon fikrlari ham mavjud. Masalan, Lao-szi bunday deydi: “Xalqning bilimi ortsa, uni boshqarish murakkablashadi”.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xitoyda Konfutsiy ta'limotining keng tarqalishi sabablari
2. Van Man islohotlarining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini ko‘rsatib o‘ting.
3. Van Man islohotlarining mohiyati nimadan iborat edi?
4. Qadimgi Xitoy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
5. Qadimgi Xitoy me'morchiligining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib bering

16-mavzu. Qadimgi Yunonistonda ilk davlatchilikning vujudga kelishi. Afina va Sparta. Forslar bilan urushlar.

Reja:

1. Geradod va uning tarix asari.
2. Antik Gretsiyada shahar-davlatlar (polislar)ning tashkil topishi.
3. Demosning aristokratiyaga qarshi kurashi.
4. Buyuk grek mustamlakachiligi.
5. Qadimgi Afina.
6. Sparta davlatining paydo bo'lishi.

Tayanch iboralar: *amfora, Attika, geomoralar, "Drakon qonunlari", genokratiya, timokratiya, medimn, zevgit, fet, pediey, yevpatridlar, diakriy, aristokratiya, egin talant puli, evbey, mulkiy senz, pentakosiomedimn, paraliy, gelios, "tenglar jamoasi", kriptiya, ilotizm, apella, gerusiya, eforlar, periekl, harbiy demokratiya, fiditiya, sissitiya, dualizm, basiley, arxaget, geront, Akte buruni, Marafon, strateg, Faleron porti, Delfada, ostrakizm, Fermopil yo'lagi, triyer, Artemiya buruni, Salamin bo'g'ozi, goplitlar*

Yunon tarixchiligi Gerodot tarixning otasi sifatida tilga olinadi. Chunki u o'zing shahsiy tajribasi ostida turli xil manbalarni birlashtirgan birinchi tarixchidir. U to'plagan malumotlarni bayonot qilishdan mannun bo'lgan garchi bunga ishonish qiyin va mutloqo zid fikr bo'lsa ham. Kitobxon bunga o'zi baho berishi kerak. U mavjud bo'lgan afsonalarni shak-shunbhasiz inkor etmagan holda ularni ommaga taqdim etdi. U o'z asarini [historai] qaysiki tarix so'zining zamonaviy ma'nosini vujudga keltirgan so'z bilan nomladi. Uning buyuk bu asari yunon fors urishi oraligida vujudga kelgan. U ulkan miqdorda goeografik va etnografik sohaga bag'ishlangan ishlariga, ajoyib sahohatlarlarni qamrab olgan og'izaki va yozma ma'lumotlariga asoslanadi. shu yo'sinda u antropologiya va etnografiyani taqqoslangan fanning otasi sifatida mashhur bo'la boshlandi. Dunyodagi turli xil insonlar hayot tarzi bilan tanishish ularni mos ravishda xronologik moslashtirish bilan birgalikda dunyo tarixini yozilishiga asos soldi. **Thales** va **Anahimander**larning faraziga muofiq, Geradot yerni ulkan okean ostidan ko'tarilgan

suzuvchi jism sifatida qarashga ishongan. U haqidagi biologik malumotlar taqchil va tortishuvlidir. U Suriyada, Halikarnus [hozirgi kunda Bodrum, Turkiya]da tug`ilgan mill.avv, V asrda yashagan [mil. Av **484-425** yillar]



Nimaga Geradot ishlari tadqiqot orqali o`rganganiligi quyida keltirilgan:

O`tmish xotiralari bu vaqtgacha odamlar orasida qorong`u bo`lmasligi uchun,

Greeklar va boshqa chet eliklar tomonidan asosan shon Sharaf ni boy bermaslik maqsadida qilingan buyuk va ajoyib amallar. Lekin Bu ikki tarafdan ham qilingan arzimagan jinoyatlarning ahamiyatidan yiroqdir. lekin bundan keyin [forslarning aytishicha] greeklar osiyoga forslarning yevropaga hujm qilishidan oldin kirib borganligida ayblaganlar.... forslar osiyo mintaqasini o`zlarining mulki ekanligini va bu hududda yashaydiganlar ularning aholisi ekanligi davo qilganlar.yevropaliklar va greeklar ularni ulardan ajratib o`z qo`larida saqlab qolishi uchun raqobatlashgan. Bu borada forslar va finikiyaliklar haqida hikoya mavjud, men bu hikoyaning to`g`ri yoki notog`riligi borasida fikr bildirmoqchi emasman.....

Gerhard Dohn –van Rossum

Bir vaqtlar buyuk bo`lgan bugungi kunda esa kichik bir davlatlar uchun; bizning vaqtimizdagi buyuklik esa shunchaki bir rasmiyatchilikdir. Inson rivojlanishi hech qachon bir joyda turmasligidan kelib chiqqan holda, men mavjud bo`lgan ikki tomon turlariga etibor bermoqchiman.

Lekin insonlar holatiga nazar tashlasak, bu ularning hammasi[Geradotning misr haqiqati]maqul ko`radigan tafsilotidir. misrliklarning farazicha, birinchi odamning kelishi yillar davomida kutilgan va yil **12** bo`limdan iborat fasllarga bo`lib chiqilgan.

II,**15** Men birinchi odam paydo bo`lgandan beri misrliklar mavjuddir degan fikrdaman

IV,**36,2** Men ularning chizmalardagi hech qanday ilmiy asosga ega bo`lmagan dunyonini osiyo yevropa masofasidagi okean daryolar

o‘rab turgan xuddi kompas rusumidagi aylana shakldagi dunyo xaritalarni ko‘rib hayratdaman.

IV, **42** qizig‘I shundaki, kartani chizgan va dunyoni Liviya, Osiyo va Yevropaga ular o‘rtasidagi katta farqlar bo‘lgani bois bo‘lgan. Yevropa chizig‘ining uzun bo‘lib boshqalari bilan cho‘zilib ketishi bu qo‘shnilar bilan raqobatning natijasiligini namoyon qiladi.

Liviya dengiz bilan o‘rab olingan bo‘lib faqat osiyo bilan chegaralar mavjudligini aniq ko‘rish mumkin.

Qadimgi Gretsiya tarixini besh davrga bo‘lish mumkin. Ana shu davrlarning birinchisi **Egey** yoki Krit-Mikena davri deb atalib (miloddan avvalgi III - II ming yillar), bu davr - urug‘doshlik tuzumining barbod bo‘lishi, ayrim rayonlarda ilk sinfiy quldorlik davlatlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi kabilarni o‘z ichiga oladi.

Misr manbalarida Misr bilan Krit o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lgani qayd etilgan. Kritdan bir qancha Misr buyumlari, shuningdek, o‘z navbatida Krit buyumlari hamda kritliklar tasvirlari Misrdan topilgan. A.Evens aniqlagan qatlamlar ichida Kritda mahalliy yodgorliklar orasidan aniq sanasi ma'lum belgilangan Misr buyumlari topilgan. Ana shu manba asosida (asosan sopol idishlardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda) **A.Evens** eng qadimgi Krit tarixini arxeologik jihatdan davrlarga bo‘lib, bunda Misr tarixining Qadimgi, O‘rta va Yangi saltanatlarga bo‘linish davrlarini asos qilib oldi.

Kritga oid uch davr hamda miloddan avvalgi III - II ming yilliklar butun Krit madaniyatini A.Evens afsonaviy podsho - Minos nomi bilan minoy davrlari deb atagan va ular quyidagilardan iborat:

- 1) ilk minoy davri - miloddan avvalgi 2800 - 2200 yillar;*
- 2) o‘rta minoy davri - miloddan avvalgi 2200 - 1600 yillar;*
- 3) kech minoy davri - miloddan avvalgi 1600 - 1100 yillar;*

O‘z navbatida bu davrlardan har biri yana uch kichik davrga (**1, 2, 3**) bo‘linadi.

Ilk Minoy davri mobaynida Kritda ibtidoiy jamoa munosabatlari asta-sekin parchalanib, u bilan birga mulkiy tabaqalanish ham sodir bo‘la bordi. Taxminan, miloddan avvalgi **2200** yilda qabilalar ittifoqi paydo bo‘ladi va ularga o‘sha davr uchun ancha katta - **Knoss**, **Malliya** va **Fest** aholi markazlari boshchilik qiladi. Bu joylar o‘rta

minoy davrining boshidayoq, dastlabki sinfiy davlatlarga aylanib ketdilar. Krit Egey dengizidagi Kiprga qarashli Bolqon yarim orolining janubi bilan mis va bronza savdosida vositachilik qilgan.

Miloddan avvalgi III ming yillik rivojlangan bronza asriga o'tish davri bo'ldi. Oltin va emal buyumlar o'rta minoy davri davomida takomillashib bordi. Toshidan va Afrikadan keltirilgan fil suyagidan o'yma muhrlar yasalgan. Muhrlar mavjudligi shaxsiy va xususiy mulk rivojlanganligini ko'rsatadi.

Taxminan, **1750** yilda Kritda alg'ov-dalg'ov voqyealar yuz berib, Knoss va Fesdagi saroylar vayron qilingan. Aholi yashaydigan boshqa joylar ham zarar ko'rgan.

Tez orada saroylar qayta tiklanib, Knoss orolda ustun ahamiyatga ega bo'ldi. Arxeologik nuqtai nazardan orolning turli tomonlaridan Knossga mo'ljallab qurilgan yo'llar ana shundan dalolat beradi. Saroylar qayta qurilganidan keyin miloddan avvalgi **XVIII** asrning ikkinchi yarmidan to miloddan avvalgi **XV** asrgacha bo'lgan vaqtda Krit davlati qudrati avjiga chiqqan edi. **Fukidid** guvohligiga ko'ra, bu Kritning "**talyassokratiya**", ya'ni dengizlarda hukmronlik davri bo'lgan. Krit Egey dengizidagi bir qancha orollarni, Kichik Osiyo hamda Bolqon sohilidagi, shuningdek, Attikaning aholi yashaydigan manzillarini o'z hokimiyatiga bo'ysundiradi.

Kritda dehqonchilik va chorvachilik yuksak darajaga yetib, hunarmandchilik rivojlanadi. Tajribali va jasur dengizchi mahalliy xalq O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan yaqin aloqa bog'lagan. Qayta qurilgan Knoss saroyidagi devorlarga solingan turli bezakli suratlar zodagonlarning hashamati yanada ortganligini aks ettiradi.

Knoss va Kritning boshqa saroylarida hukm surgan dabdabali hayot hamda aksariyat aholining ayanchli hayoti arxeologik materiallar: turar joy, ro'zg'or buyumlari va maqbaralarda yaqqol namoyon bo'ladi. Saroy omborxonasi, ustaxonalari va boshqa yordamchi binolar saroy xo'jaligining murakkab tuzilmasidan dalolat beradi.

Kemalar flotidan tashqari Kritda quruqlik qo'shini ham bo'lib, askarlar jang aravalarida harakatlanganlar. Davlat viloyatlardan iborat bo'lib, ular shoh noiblari (patreve) tomonidan, oqsoqollar kengashlari (kerosiyalar) bilan birga idora qilingan. Yerlar qisman jamoaga qarashli bo'lib, qisman yakka tartibda ijaraga berilgan va xususiy

mulk mavjud bo'lgan. "Odisseya" ma'lumotlariga ko'ra, Krit hukmdori **Minos** faqat shoh bo'lib qolmasdan, balki bosh kohin, ya'ni xudo nazar qilgan shaxs hisoblangan. Minos "Odisseya"da dono shaxs sifatida tasvirlangan. Boshqa afsonalarga ko'ra, Minos oliy hakam hisoblangan. Bu esa ilk sinfiy davlat tashkil topayotgan davrda Krit hukmdorlarining qonun chiqaruvchilik faoliyatini ko'rsatadi. Dengizning narigi tomonidagi Krit qo'li ostidagi yerlar mahalliy hokimlar tomonidan idora qilingan. Masalan, Attikada shunday bo'lgan.

Qadimgi kritliklarning e'tiqodi xususida arxeologik ma'lumotlardan ancha narsa ayon. Kritliklar katta ibodatxonalar qurmay, balki kichik-kichik sajdagoh va mehroblar qurish bilan cheklanganlar. Ko'pgina rasm va haykalchalarga ko'ra kritliklarning bosh xudosi ayol bo'lib, u mahalliy xalq tasavvurida hayot baxsh etgan, o'simliklar, hayvonlar va odamlarni himoya qilgan. Diniy marosimlar asosan ayollar tomonidan ado etilgan. Grek afsonalari Krit dinining greklarning kechroq yuzaga kelgan diniga ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi.

Antik Gretsiyada shahar-davlatlar Gretsiyaning ijtimoiy (polislar)ning tashkil topishi taraqqiyoti miloddan avvalgi **VIII - VI** asrlarda, **Gomer** davri oxirlaridan boshlangan bo'lib, keng qamrovli ilk sinfiy jamiyatning qaror topish jarayonining davomidir. Bu davrni, an'anaga ko'ra, ko'pincha arxaik, ya'ni dastlabki davr deb ataydilar.

Doriylar istilosi natijasida yuz bergan uzilishdan so'ng, Gretsiyada qaytadan kichik-kichik quldorlik davlatlari paydo bo'la boshladi. Bu davlatlar istehkom bilan o'ralgan manzillardan iborat bo'lib, ularda dehqon va ayni vaqtda quldor jamoalari yashar, birgalikda o'z umumiy manfaatlari: manzil yonidagi mulklari - yer hamda qullarini himoya qilganlar. Bu davlat tuzilishlari qadimgi greklarda polis, ya'ni shahar-davlatlar deb nom olgan. Natural xo'jalik katta davlat birlashmalarining yuzaga kelishi uchun Shart-Sharoit yaratmagan. Jamoa yer egaligi Gomer davrining oxiriga kelib tanazzulga yuz tutganligi sababli, jamoa a'zosi - dehqonlarni Gretsiyaning ko'p rayonlarida Krit-Mikena davridagi kabi ishlatishning imkoni bo'lmay qolgan. Yer egalari qarzini uza olmagan kambag'allarni qarz badaliga qul qilib olganlar. Kuchayib borayotgan

mulkiy tabaqalanish yer egalari va quldorlarning hukmron guruhiga aylangan urug' zodagonlari bilan oddiy jamoa a'zolari avlodlari bo'lgan oddiy aholi - qishloq va shahar demosi o'rtasida keskin ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlar keltirib chiqardi.

Qishloq va shahar demosi. Gomer davridayoq rasm bo'lgan temir qurollarning ishlatilishi va shu asosda barcha ishlab chiqarish sohalarida mehnat unumdorligining tez o'sib borishi, aholining tobora ko'proq tabaqalanishi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojiga, quldorlikning taraqqiy etishiga ko'maklashdi. Bir polisdagi tub erkin aholini o'z ichiga olgan, hukmron quldorlar sinfining Yuqori qatlamiga aylangan oqsuyaklarning iqtisodiy va siyosiy hukmronligi endi ijtimoiy taraqqiyotning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi.

Bu orada polislarga tegishli shahar hududining o'zida hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanib ketdi. Shahar aholisida bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan yangi daromad manbalari paydo bo'ldi. Asta-sekin erkin shahar aholisining iqtisodiy jihatdan oqsuyaklarga tobe bo'lmagan savdogar-hunarmandlar qatlami paydo bo'lib, kuchaya bordi. Bu qatlam rasman bo'lsa-da, siyosiy huquqlarga ega edi, chunki polislarning erkin tub aholisi - uning fuqarolari hamda zodagonlardan meros - xalq yig'ini a'zolari bo'lganlar. Bu majlis quldorlik davlat hokimiyatining oliy organiga aylangandi. Qarz evaziga qul qilinmagan dehqonlar ham polis xalq yig'inining a'zosi edilar. Siyosiy huquqqa ega barcha ozod oddiy xalq (grekcha) **demos** deb atalgan. Amalda u qishloq va shahar demosi bo'linardi.

Demosning aristokratiyaga qarshi kurashi. Shahar demosining iqtisodiy mustaqilligi kuchayishi bilan u boshqarish ishlarida ishtirok etishga va zodagonlar hokimiyatini cheklash maqsadida faol harakat qila boshladi. Shahar demosi uning mol-mulkini va savdo-hunarmandchilik faoliyatini zodagonlarning tajovuzidan himoya qiladigan qonunlar chiqarishni talab qildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoni oqsuyaklarga ham daxldor bo'lib, ular orasida ham mulkiy tabaqalanish yuz bermoqda edi. Oqsuyaklar, ayniqsa, kambag'allashgan zodagonlarning bir qismi ustaxonalar ochish va savdo-sotiq bilan shug'ullana boshladi.

Ularning manfaatlari shahar demosiga oid Yuqori qatlamlarning manfaatlariga yaqin bo'lgan.

Mustabidlik. Nasl-nasabli zodagonlarning hukmron zamindorlar guruhi islohotlar o'tkazishga keskin qarshilik ko'rsatdi. Miloddan avvalgi **VII - VI** asrlarda shahar va qishloq demosini islohotlar uchun qat'iy kurashga kirishdi. Savdo-hunarmandchilik polislarning aksariyatida oqsuyaklar hokimiyati ag'darib tashlandi va hokimiyat demosning vakillari bo'lmish hukmdor mustabidlar qo'lga o'tdi. ("mustabid" tushunchasi Gretsiya arxaik davrida salbiy ma'noga ega bo'lmagan).

Shu tariqa miloddan avvalgi **VII - VI** asrlarda iqtisodiy jihatdan rivojlangan bir necha polislarda davlat hokimiyatining yangi shakli paydo bo'lib, u fanda ilk tiraniya nomi bilan mashhur. Tiranlarning ko'pchiligi demosning Yuqori qatlamiga mansub zodagonlar guruhidan chiqqan edi. Ular eski zodagonlar huquqlarini cheklash siyosatini yuritib, ularga qarashli yerlarning bir qismini musodara qildilar, eski tartiblarning eng faol tarafdorlarini qirib tashladilar. Lekin asli zodagonlar urug'idan chiqqan mustabidlar nobarqaror siyosat olib bordilar va bu bilan hokimiyat tepasiga keltirgan demosni o'zlariga qarshi qilib qo'ydilar. Tiraniya naqadar nomukammal bo'lmasin, o'z davri uchun ilg'or (progressiv) hokimiyat edi.

Buyuk grek mustamlakachiligi. Qadimgi Gretsiyaning ko'p tumanlarida qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar taqchil bo'lgan bir vaqtda, mulkiy tabaqalanish yer yetishmovchiligini yanada kengayishiga olib kelgan. Polis xududining kichikligi va iqtisodiy taraqqiyot darajasining pastligi kambag'allashib qolgan fuqarolarning ozgina qismini bir amallab kun ko'rishini ta'minlay olgan.

Greklarning kolonizatsiyasining janubiy, shimoliy Afrika sohili tomon ikkinchi asosiy yo'nalishida koloniyalar kamroq bo'lib, ular orasida forslarning Bolqon yarim orolidagi Kirena koloniyasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Nil daryosi havzasida barpo etilgan **Navkratis** shahri ham muhim o'rin tutgan. Greklar Egey dengizining shimoliy sohilini o'zlashtirib olgach, koloniyalarini **Gellespont** qirg'og'i (Dardanella bo'g'ozi) tomon surib, so'ng Propontidaning (Marmar dengizi) janubiy qirg'og'ini ishg'ol qilganlar, va nihoyat, **Frakiya Bospori** (Bosfor) sohillariga kelib joylashganlar.

Ioniya greklari **Taman** yarim oroli **Kuban** daryosi havzasida bir qancha koloniyalar barpo etib, ular orasida Fanagoriya ajralib turgan. Lekin grek metropoliyasi, hamda koloniyalarning turli hududlari bir tekis rivojlangan. Bolqonning Gretsiya dengiz gavanlaridan yiroq joylarida ibtidoiy turmush qoldiqlari uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Bu polislarda qadimgi zodagonlar hukmronlik qilgan bo'lib, tiraniyalar yuzaga kelmagan. Qulga aylantirilgan qishloq aholisi mahalliy zodagonlar uchun mehnat qilishi lozim bo'lgan. Lakoniya, Argolida, Fessaliya, Krit va boshqa joylarda ahvol shunday edi. Qadimgi Afina. Attika O'rta Gretsiyaning janubiy-Sharqidagi yarim orolda joylashgan edi. Attikaning g'arbiy qismi tog'lik-dengiz oralig'i keng tekislik bo'lib, o'rtasi qoyalikdir. Miloddan avvalgi **II ming yillikda** bu yerda Afina shahri barpo bo'ldi. Tepalik o'rtasida Akropol qad ko'targan bo'lib, uning atrofida turar joylar qurilgan.

Miloddan avvalgi **VIII - VII** asrlarda Qadimgi Gretsiyada shahar - davlatlar (polislar) vujudga keldi. Ulardan eng yiriklari: **Afina, Korinf, Megara, Xalkida, Eretriya, Egina, Milet, Smirna, Efes** kabilar dengiz bo'yi yoki dengizga yaqin yerda, ayrimlari qazilma boyliklarga boy hududda joylashgani sababli, savdo va hunarmandchilik ancha rivojlandi.

Bu vaqtda Attika tepaliklarida uzum, vodiylarda esa zaytun yetishtirilib, vinochilik va yog' tayyorlash rivoj topdi. Hunarmandlar loydan amfora (xum), quvur va boshqa kulolchilik buyumlari yasaganlar. Shuningdek, Attikada temirdan mehnat qurollari va qurol-yarog' yasash, mato to'qish, teridan charm mahsulotlari tayyorlash kabi hunarmandchilik sohalari taraqqiy etdi. Afina janubidagi konlardan kumush qazib olingan va miloddan avvalgi VII asrda Afinada kumush tangalar zarb qilina boshladi. Attikada xo'jalik rivojlanishi qullar soni ko'payishiga sabab bo'ldi. Attika bilan savdo qiladigan davlatlarning savdogarlari Afina bozorlariga oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlari bilan bir qatorda ko'p miqdorda qullar ham keltirganlar.

Miloddan avvalgi **VIII asrda** afinalik zodagonlar Attika aholisini o'zlariga bo'ysundirdilar. Afina va Attikaning qolgan hududlarini zodagonlardan iborat oqsoqollar kengashi idora qilib, ular o'z hukmronliklarini aristokratiya ("eng yaxshi kishilar hokimiyati") deb ataganlar. Attikaning qolgan ozod aholisi demos nomini olgan.

Demosning asosiy qismini dehqonlar, dengizchilar, hunarmand va mardikorlar tashkil etardi.

Attikada hunarmandchilik, savdo-sotiq va dengizchilikning rivojlanishi qullarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Qullar sonining ko'payishi yerlik dehqonlar ahvolini o'zgarishiga olib keldi.

Kambag'al dehqon - **geomoralar** tokzor va zaytun bog'larini kengaytirishga mablag'lari yetishmas, buning ustiga Attikada tez-tez ro'y beradigan qurg'oqchilik sababli yaxshi hosil ololmasdilar. Oqibatda geomoralar zodagon - yevpatridlardan foiz evaziga qarz olishga majbur bo'lardilar. Agarda geomora qarzini foizi bilan vaqtida qaytara olmasa, o'z yeridan ajralar, hatto o'zi va oila a'zolari bilan birga qul qilinar edi.

Geomora qarz olganida, yevpatrid uning yeriga qarz toshini o'rnatgan. Toshga geomora kimdan qancha qarzdorligi va qarzini qachon uzish muddati yozib qo'yilgan. Miloddan avvalgi **VII asrda** ko'plab geomoralar xonavayron bo'lib, qullik asoratiga tushib qolgan. Ayrim shunday qullar yevpatridlar tomonidan chetga qul sifatida sotib yuborilardi.

Miloddan avvalgi **VII asr** o'rtalarida demosning zodagonlarga qarshi kurashi keskin tus olib ketdi. Butun Attikada ular o'rtasida qonli to'qnashuvlar ro'y berdi. Demos vakillari to'planib, zodagonlarga qarshi birgalikda kurashish uchun til biriktirdilar.

Butun Attikada vaziyat keskinlashganligi tufayli, zodagonlar demosga bir oz yon bosib, ko'pdan va'da qilingan qonunlarni ishlab chiqishga rozi bo'ldilar. Miloddan avvalgi **621 yili** qonunlarni ishlab chiqib qog'ozga tushirish vazifasi hukmdorlardan biri - Drakonga topshirildi. Endi Attikada barcha sud ishlari "**Drakon qonunlari**"ga binoan amalga oshirila boshlandi. Ular zodagonlarning hayoti va mulkini muhofaza qilar, qonunlarga ko'ra odamlar arzimagan aybi uchun ham jiddiy jazoga tortilgan. "Drakon qonunlari"da, ayniqsa, o'g'rilarga qattiq jazo berilib, hatto birovning bog'idan meva yoki bir bosh uzum o'g'irlaganlarga o'lim jazosi belgilangan. Shu sababli odamlar "Drakon qonunlari"ni "siyoh emas, qon bilan yozilgan" deb ataganlar. "Drakon qonunlari" oddiy xalqning mavjud iqtisodiy ahvolini yaxshilamay, unga hech qanday siyosiy huquq bermagani uchun, demos bilan zodagonlar o'rtasidagi ziddiyatni yo'qota olmadi.

Solon hokim bo'lgach, uning dastlabki ishi - **Salamin orolini** qo'lga kiritish maqsadida u yerga qo'shin yo'lladi. **Megara** polisiga tegishli Salamin oroli afinaliklar uchun ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular Salamin orolini egallab olishga erishdilar.

Arastu guvohlik berishicha, Solon yer islohoti ham o'tkazgan. Unga ko'ra dehqonchilik maqsadidagi yer miqdori cheklab qo'yildi. Natijada, Attikada ko'p odamlarning yer maydoni kichik va cheklangan bo'lib qoldi.

Solon Attikadan bug'doy olib chiqib ketishni ta'qiqladi. Chunki mamlakatda bug'doy yetishtirish uchun Sharoit yo'qligi tufayli chetdan keltirilardi. Lekin bu yerda zaytun bog'lari ko'pligi sababli zaytun yog'ini chetga sotish imkoniyatlarini yaratib berdi. Bog', tokzorlar va boshqa ekin maydonlari yaratishni rag'batlantirish haqida qonun ham qabul qildi.

Solon savdo-sotiq, hunarmandchilikni rivojlantirishga oid qonunlar qabul qilib, bu sohalarni amalga oshirishda yengilliklar yaratish uchun pul islohoti o'tkazdi. Attikada yagona pul birligi joriy etildi va muomaladagi og'ir egin talant puli kichik hajmdagi evbey talant puli bilan almashtirildi.

Iqtisodiy islohotlar bilan birga bir vaqtda siyosiy o'zgarishlar ham amalga oshirildi. Solon mavjud bo'lgan zodagon urug' hokimiyati - **genokratiyani** ("genos" - urug') bekor qilib, uning o'rniga timokratiya ("time" - narx) hokimiyati, ya'ni mulkiy senzga asoslangan hokimiyat o'rnatdi. Birinchi guruhga yerdan kamida **500 medimn** donli yoki suyuqlik mahsuloti miqdorida daromad oladiganlar kiritildi. (medimn - hajm o'lchov birligi; turli vaqtlarda medimn **41** dan **52,5** litrga qadar bo'lgan). Ularni pentakosiomedimn, ya'ni besh yuz o'lchovli deb atashgan. Ikkinchi toifaga o'z yeridan kamida **300** medimn daromad oladigan aholi kiritildi. Ular otlari bilan otliq qo'shinda xizmat qilishlari ham kerak bo'lgan.

Bu ikkala guruh eng katta daromad olib, barcha siyosiy huquqlarga ega edi va davlat tepasidagi yirik lavozimlarni egallaganlar. Pentakosiomedimnlar harbiy qo'shinda xizmat qilmasalar ham, o'z hisobidan davlatga turli to'lovlar to'lar yoki kemalar qurib berardilar. Uchinchi toifadan o'z yeridan kamida **200** medimn daromad oladiganlar joy oldi. Ular zevgit, ya'ni arava yoki

chana deb atalib, ho‘kiz qo‘shilgan aravalari bo‘lgan. Ular piyoda qo‘shinda xizmat qilishga majbur edilar va og‘ir qurollari bo‘lishi kerak edi. To‘rtinchi guruh yeridan **200** medimndan kam daromad oladigan aholi kiritilib, ular fet deb nomlangan. Harbiy xizmatda ular yordamchi vazifasini bajarib, yengil qurollangan piyoda qo‘shinni tashkil etganlar.

Solon islohotlari natijasida Attika hayotida xalq yig‘ini yanada faol o‘rin tutdi. Bu yig‘inda siyosiy va iqtisodiy masalalar muhokama qilingan. Shuningdek, islohotlar tufayli ko‘plab yerlar dehqonlarga qaytarilib, Attikada o‘rta va mayda mulkdorlar ko‘payishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida quldorlik xo‘jaligini rivojlantirib yubordi va Attikaga chetdan qul olib kelish yanada ko‘paydi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikni taraqqiy ettirish maqsadida qabul qilingan qonunlar o‘rtahol shahar demosi ahvolining yaxshilanishiga olib keldi.

Lekin Solon hokimiyat tepasidan ketgach, Attikada sinfiy va siyosiy kurash avj oldi. O‘zaro kurash davomida uch xil ijtimoiy-siyosiy va hududiy guruh shakllandi: **1) pediey** (hosildor vodiy aholisi), yer egalari manfaatini himoya qiluvchi guruh. **Pedieylarning** ko‘pchiligini yevpatridlar tashkil etib, ular Solon islohotlariga qarshi edilar; **2) paraliy** (sohilbo‘yi aholisi) guruhi. Shahar va qishloqlarning o‘rtahol aholisi, savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Ular Solon islohotlarini qo‘llab-quvvatlab, uni mustahkamlashga intilganlar; **3) diakriy** (tog‘li joy aholisi) guruhi. Kambag‘al dehqonlar, ular o‘zlariga tegishli ekin maydonlarini va siyosiy huquqlarini kengaytirish tarafdori edilar. Ularga **fetlar** guruhiga mansub shahar kambag‘allari ham qo‘shilgan.

Bu guruhlarning o‘zaro kurashi natijasida miloddan avvalgi **560 yili** diakriylar yo‘lboshchisi **Pisistrat** hokimiyatni egallab oldi. Miloddan avvalgi **560 - 527** Pisistrat va miloddan avvalgi **527 - 510** yillarda uning o‘g‘illari **Gippiy** va **Gipparx** Attikada hokimiyatni boshqargan davrda o‘zaro urushlar davom etdi. **Yevpatridlar** ushbu hukmdorlar hokimiyatiga qarshi kurashib, Gipparxni o‘ldirdilar.

Bu vaqtda Attikada ichki vaziyat keskin bo‘lganidek, forslarning Kichik Osiyoni egallashi tashqi vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Forslar bosqini Afinaning dengiz orqali savdosiga katta zarar yetkazdi.

Attikada demos mavqeyining oshib borayotganidan xavotirga tushgan Sparta zodagonlari miloddan avvalgi **510 yili** Gippiyga qarshi yurish qildilar va uni hokimiyatdan mahrum qildilar. Sparta va Afina zodagonlari tomonidan Afinada yana o'z hokimiyatini tiklashga urinish afinaliklar qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Bu kurashda demos Afina va Sparta zodagonlari ustidan to'liq g'alabaga erishdilar. Sparta davlatining paydo bo'lishi. Sparta arxaik Gretsiyaning eng qadim davlati bo'lib, miloddan avvalgi IX asrda doriy qabilalari ko'chgan so'nggi davrda yuzaga kelgan. Xuddi shu davrda **Lakoniya, Arkadiya va Axeyadan** boshqa viloyatlar bu yerga avvalroq ko'chib kelgan doriylar tomonidan ishg'ol qilingan bo'lib, vaqt o'tishi bilan so'nggi doriy qabilalari uzoq kurash oqibatida Lakoniyani zabt etganlar. Lakoniya bosib olingach, doriylar mahalliy aholini o'zlariga bo'ysundirdilar. Shu tariqa Sparta davlati yuzaga keldi.

Peloponnes hududiga bostirib kirganlarning mahalliy aholiga nisbatan ancha kamligi va ular hali urug'doshlik tuzumida ekanligi sababli ularning hukmronligi o'ziga xos ko'rinish kasb etgan. Mahalliy aholi o'z manzilida qolgan-u, ammo kelgindilar uchun ishlashi lozim bo'lgan. Ammo yerlik aholi hayoti qullarning hayoticha qadrlanmas, chunki qullarga egalik qilgan quldorlar ular mehnatidan manfaatdor edi. Biroq kelgindilar uchun mahalliy aholi sonining ko'paymasligi foydali bo'lgan.

Serhosil vodiylarda yashagan mahalliy aholi huquqsiz shaxs-ilotlarga aylantirilgan. **"Ilot"** so'zining ma'nosi hozirga qadar mavhum. Bu nom bir vaqtlar doriylar zabt etgan Gelos shahri nomidan olingan degan faraz mavjud. Istilochi - doriylar o'zlarini bosh shahar - Sparta nomi bilan spartaliklar deb atay boshlaganlar. Peloponnesning tog'li hududlarida yashovchi qabilalar hamda doriylarga ixtiyoriy bosh eggan axeyyaliklar perieklar nomini olganlar. Bu xalq teng huquqli bo'lmasa ham asoratga solinmagan. Sparta aholisining asosiy sinf - tabaqalari - spartaliklar, perieklar va ilotlar shu tariqa vujudga kelgan.

Dehqonchilik. Lakoniyaning iqtisodi o'ta sust rivojlanib, ibtidoiy darajada bo'lgan. Qadimgi Spartada yer xususiy bo'lmay, balki jamoa mulki hisoblangan. Jamoa o'z a'zolariga vaqtincha foydalanish uchun alohida yer bo'laklari berib turgan. Ular yerni na sota olar, na ijaraga bera olar edilar. Yer ibtidoiy qurollar, ya'ni omoch, motiga bilan

ishlangan. Suli, arpa, bug‘doy, palba ekilgan. Sabzavot ham o‘stirilardi. Spartalik va uning oilasi o‘z yerida ishlolmas, balki biriktirilgan ilotlar ishlab, dehqonchilik qilgan. Spartaliklar ilotlardan hayiqar, shuning uchun tunda shahar hududida bironta ilot qolmasligi Shart bo‘lgan. Ilotlar hosil miqdoridan qat‘iy nazar natural obrok to‘lar, ya'ni spartalikka o‘zlari yetishtirgan hosilning ma'lum qismini don, qora mol, o‘simlik moyi va boshqa mahsulotlar topshirishlari kerak edi. Bu obrok hajmi katta bo‘lib, shuning uchun ham ilotlar qashshoqlikda kun kechirardilar.

Hunarmandchilik. Spartada yaxshi rivoj topmagan hunarmandchilik bilan perieklar shug‘ullanar, ular eng zarur narsalarnigina tayyorlar edilar. Uylar ikki asbob: bolta va arra yordamida qurilgan.

Savdo-sotiq. Davlatda har qanday tashqi savdo ta'qiq ostida bo‘lgan. Birorta ajnabiy savdogar Spartaga kelolmas, boshqa mamlakatlardan tovar kiritilmas edi. Faqat mamlakat ichida mahalliy bozorlarda savdo-sotiq qilingan. Sparta pullarining noqulayligi ham savdo ayirboshlashni qiyinlashtirib qo‘ygan edi. Pullar temirdan yasalganligi tufayli juda og‘ir bo‘lgan.

Spartaliklar turmush tarzi va tarbiyasi. Spartada imtiyozli tabaqa hisoblangan spartaliklar ”tenglar jamoasi” jamiyatiga o‘tish davri uchun o‘ziga xos harbiy demokratiya qoldig‘i edi. Lekin ”tenglar jamoasi” Sparta quldorlik davlati Sharoitida ilotlar va perieklarni itoatda tutish uchun hukmron sinf (spartaliklar tabaqasi)ning harbiylashtirilgan birlashmasidan iborat edi.

Sparta aholisi faqat harbiy ish bilan shug‘ullangan. Spartada kuchli va irodali jangchilarni tarbiyalab yetishtirish uchun maxsus tarbiya tizimi ishlab chiqilgan.

Yangi tug‘ilgan har bir chaqaloqni Sparta oliy mahkamasi - gerusiyaga, ya'ni oqsoqollar kengashiga olib borib, unda chaqaloqni tirik qoldirish yoki o‘ldirish masalasi ko‘rilgan. Chaqaloq zaif bo‘lsa, uni qoyadan uloqtirganlar. Sog‘lom va kuchli chaqaloq tirik qoldirilgan, lekin u yetti yoshgacha onasi qo‘lida tarbiyalangan. So‘ngra bola balog‘at, ya'ni **18** yoshgacha jamoat maktabida yashab o‘qigan. Maktabda juda qattiq tartib-qoida o‘rnatilgan. O‘g‘il bolalar yostiqsiz, qattiq bo‘yra ustida yotib, yengil ko‘rpa yopib uxlaganlar.

Ular qishin - yozin oyoq yalang va bosh yalang bo'lganlar, ham sovuq, ham issiqqa birday chidamli bo'lishlari lozim edi.

Maktabda o'g'il bolalar jismoniy mashq va harbiy ish bilan shug'ullanganlar. Tarbiyadan maqsad - kuchli, chiniqqan jangchi o'stirish bo'lgan. Ular o'qish, yozish, hisoblash, qo'shiq aytish va raqsga tushishni o'rganganlar, vatanparvarlik mavzuidagi she'rlar yodlaganlar. Falsafa va suxandonlik bilan shug'ullanishga ruxsat etilmagan (ruscha "govorit lakonichno" iborasi Lakonika mamlakati nomidan olingan). Onaning o'g'lini urushga kuzatayotganda aytadigan so'zlari bunday lo'nda va ma'nodor fikrga misol bo'la oladi. Ona o'g'liga qalqonni bera turib: "Qalqon bilan yoki qalqonda qayt".

Yagona yunon mamlakati - Spartada xotin-qizlarni tarbiyalashga ham katta e'tibor berilgan. Unda ayollar ko'pchilikning hurmatini qozongan. Spartaliklar sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi deb hisoblaganlar. Shu sababli qizlar uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanmagan. Bu ishlarni ilot ayollari bajargan. Sparta ayollari esa bolalik chog'laridan gimnastika va sport bilan shug'ullangan, o'g'il bolalar kabi o'qish, yozish va hisoblashni bilganlar. Mamlakatda gimnastika va yengil atletika bo'yicha musobaqalar o'tkazib turilgan. Avval yigitlar, so'ngra qizlar musobaqasi bo'lib o'tgan. Yugurishda g'olib chiqqan spartalik qizning haykali bizga qadar saqlanib qolgan.

Fiditiya a'zolari "tenglar jamoasi" ni tashkil etganlar va barcha siyosiy huquqlarga ega bo'lganlar. Fiditiyaga a'zo bo'lmoq uchun umumiy tushki ovqatga muayyan miqdorda natura bilan haq to'lashi kerak edi. Agar spartalik kambag'allashib, tushki ovqat haqini to'lay olmasa, fiditiyadan chiqarilgan va shu qatorda "tenglar jamoasi" ni ham tark etgan. U siyosiy huquqlaridan ham mahrum bo'lgan. Spartaliklarning butun hayoti mamlakat harbiy qudratini mustahkamlashga qaratilgan. Spartalik birinchi navbatda jangchi bo'lishi lozim edi. Bu tashqi dushman yaqinligidan emas, balki ezilgan, noxayrixoh kayfiyatdagi ilotlar bilan birga yashashdan kelib chiqqan zarurat bo'lgan.

Sparta davlati faoliyati ilotlarni itoatda tutishga qaratilgan bo'lib, ular butunlay huquqsiz edilar. Spartalik ilotni o'ldirish huquqiga ega bo'lgan. Har yili bir marta xunrezlik kuni - "**kriptiya**" kuni tashkil etilgan ("kriptiya" - grekcha "o'ldirish" demakdir). Spartalik yigitlar kechalari yig'ilib, niqob va uzun plash kiyib, ilotlar manziliga yo'l

oliWar, yoʻlda uchragan ilotlarga hujum qilishgan. Spartaliklar bunda yosh va kuchli ilotlarni oʻldirishga harakat qilganlar. Boshqa aholidan ajralib turish uchun ilotlar ustlariga maxsus kiyim, boshlariga it terisidan telpak kiyishgan. Qoʻshinda ilotlar yordamchi vazifalarni bajarardilar.

Ilotlar hayoti qadrlanmagan, aksincha, kriptiyalar davrida ular hatto beayov qirilgan. Boshqa yunon davlatlaridagi qullar bilan ilotlar oʻrtasidagi farq shunda ediki, ilotlar biron shaxsga emas, balki butun Sparta jamoasiga qaram boʻlganlar. Chunki Lakoniya ilotlarini qullikka solish davrida spartaliklarda ijtimoiy jamoa munosabatlari hali yoʻqolmagan edi. Ilotizm doriy qabilalari Peloponnesni zabt etishi oqibatida yuzaga kelgan. Doriylar tomonidan egallangan Fessaliya va Kritda mahalliy aholi ham ilotlar kabi qullikka solingan edi.

Sparta davlati. Ilotlar soni spartaliklarga nisbatan bir necha bor koʻp boʻlganligi uchun, ularni itoatda saqlash qiyin edi. Tabiiyki, Sparta davlatini faqat harbiy kuch yordamida saqlab qolish mumkin boʻlgan. Yuqorida koʻrganimizdek, spartaliklarning butun hayoti va tarbiyasi shu maqsadga boʻysundirilgandi.

Sparta davlatining qonunchilik ishlari Likurgga nisbatdan beriladi. Uning afsonaviy shaxsi yoki **Plutarx, Fukidid** va boshqa antik mualliflar guvohligicha, haqiqatdan ham mavjud boʻlganmi, yoki boʻlmaganligi hamon noma'lum. Ammo spartaliklarning urf-odat va qonunlari **Likurgning** xohishiga binoan emas, balki barcha kuchni, davlat harbiy tuzumini mustahkamlashga qaratish kabi hayotiy zarurat tufayli yuzaga kelgan.

Hukmdorlar **basiley** va **arxaget** nomi bilan atalgan. Ular kohin martabasiga ega boʻlib, avliyo hisoblangan. Urush vaqtida hukmdorlar qoʻshinga qoʻmondonlik qilib, Sparta davlatining oliy zodagonlik organi - gerusiya tarkibiga kirganlar. Hukmdorlar real hokimiyatga ega boʻlmaganlar. Hatto eforlar, ya'ni barcha muassasalar ustidan nazorat qiluvchi oliy mansabdor shaxslar hukmdorni huzurlariga chaqirish huquqiga ega boʻlgan. Efor huzuriga kelmagan hukmdorni zoʻrlab olib kelganlar. Eforlar beshta boʻlib, ularni xalq yigʻinida bir yil muddatga saylaganlar.

Davlatni boshqarish huquqiga ega organ - **gerusiya** edi. Gerusiya ("geront" - yunonchadan "keksa") Spartaning zodagon va e'tiborli urugʻlari vakillaridan iborat oqsoqollar majlisi hisoblanadi. Gerusiya

tarkibiga **60** yashar **28** odam va **30** yoshga yetgan ikki hukmdor kirgan. Agar podshohlar yosh bo'lsa, podsho qarindoshlaridan bo'lgan vasiylar gerusiyaga umrbod a'zo bo'lmaganlar. Gerontlardan birortasi vafot etsa, bo'shagan o'ringa yangi vakil saylangan. **Geront** yoshi oltmishdan kam bo'lmagan, o'z nomzodini xalq yig'inida (apellada) taklif etgan spartaliklardan saylangan. Apelladan ajratilgan maxsus komissiyani yopiq binoga joylashtirganlar. Shundan keyin gerontga o'z nomzodlarini qo'ygan kishilar shu bino yonidan o'tganlar. Komissiya o'tayotganlarni ko'rmagan va gerontlar eng baland ovozda qichqirgan nomzodni tanlaganlar. **Eforlar** ham, Arastu aytganidek, xuddi shunday "bolalarcha usuli" yordamida saylangan. Gerusiyaning bir a'zosi bitta ovozga ega bo'lgani sababli, hukmdorlar jiddiy e'tiborga ega bo'lmagan. Sparta aristokratlar davlati bo'lib, unda gerusiya va eforlar bosh o'rin tutgan.

Peloponnes ittifoqi. Peloponnesning eng kuchli davlati bo'lgan Sparta miloddan avvalgi VI asrdayoq ikki qirg'inbarot urushdan so'ng qo'shni mamlakat - **Messeniyani** zabt etib, uning aholisini ilotlarga aylantiradi. Sparta Janubiy Yunoniston hududidagi qolgan davlatlarni zabt etolmagan bo'lsa-da, lekin ular ham vaqti kelib unga bo'ysunishga majbur bo'lib, o'zaro Peloponnes ittifoqini tashkil etganlar. Bu ittifoqqa mustaqilligicha qolgan Argos bilan Axayya kirmagan, xolos. Ammo o'rta Yunonistonda joylashgan **Megara** ham Peloponnes ittifoqiga kirgan. Sparta Peloponnes ittifoqida asosiy o'rin tutgan.

Sparta va Peloponnes ittifoqi harbiy jihatdan butun Yunonistonda ustuvor mavqeyga ega bo'lgan. O'z zamonasi uchun Sparta qo'shini yaxshi tashkil etilgan. Qo'shin oldiga solib haydab borilgan ilotlar ketidan yosh spartaliklar, so'ng katta yoshdagilar jangga kirganlar. Ular bolalikdan nayza, qalqon kabi qurollarni ishlata bilganlar. Bu qo'shin miloddan avvalgi **VI-V** asrlardagi Yunonistonda eng kuchli qo'shin hisoblangan.

Sparta tuzumi qadimgi grek davlatlari orasida eng reaksiyon tuzum edi: Peloponnes ittifoqida gegemon bo'lib qolgan Sparta mazkur ittifoq bilan birga Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan antidemokratik oqimlar va harakatlarning hammasini qo'llab-quvatlab kelgan.

Yunon - Fors urushlari. Yunon-fors urushlariga oid asosiy manba Gerodotning “Tarix” asari bo‘lib, bu asar bayoni miloddan avvalgi **478** yil voqyealaridan so‘ng to‘xtagan. Qator qadim grek tarixchilari bu urushlarga oid ayrim voqyealar va xususiyatlar xususida hikoya qiladilar. Esxill “Forslar” tragediyasida shohid hamda bevosita ishtirokchi sifatida Salamin oroli yonida greklarning forslar bilan dengiz jangini yorqin tasvirlagan. Miloddan avvalgi **V asr** obidalarida ham bir qancha yozuvlar saqlanib qolgan. Keyinroq yunon-fors urushlari haqida **sitsiliyalik Diodor** yozgan. Plutarx o‘sha zamonda Afinaning atoqli siyosiy va harbiy arboblari - Femistokl, Aristid va Kimonning tarjimai hollarini bayon etadi. Afinada va jang bo‘lgan boshqa joylarda topilgan arxeologik qazuv materiallari ham muhim ahamiyatga ega.

Yunon-fors urushlari davrida forslar va greklar. Miloddan avvalgi **VI asr** o‘rtalarida paydo bo‘lgan va miloddan avvalgi **VI asrning II yarmida** barcha Yaqin Sharq davlatlarini zabt etgan qudratli Eron shohi **Doro I** miloddan avvalgi **VI asrning** oxirlarida o‘z qudratining cho‘qqisiga erishdi. Bu hukmdor davrida ulkan davlatni idora qilish tizimi tashkil etilib, qo‘shinlar harakatlanadigan strategik va savdo yo‘llari takomillashtirilgan, qaram qilingan qabila va xalqlardan olingan xirojlar Eron poytaxtiga keltirilgan. Forslar hukmronligi ostidagi viloyatlardan doimiy suratda katta xiroj undirilishi natijasida mazkur viloyatlar asta-sekin inqirozga yuz tutgan. Shu sababli, Eron davlati yangi hududlarni egallashga kirishgan. Yangi yerlarni istilo qilish va Eron davlatini kengaytirish siyosati butun davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy natijasi bo‘lgan. Miloddan avvalgi **VI asr**dayoq forslar Kichik Osiyoning Egey dengizi bo‘yidagi boy yunon polislarini zabt etib, so‘ng Kichik Osiyoning ayrim orollari va Egey dengizining shimolidagi yunon koloniyalarini bo‘ysundirganlar. Bu istilolar jarayonida forslar Marmar va Qora dengizlarning Yevropa qirg‘oqlarida yashovchi frakiyaliklar va skiflarning jangari qabilalariga qarshi kurashganlar.

Doro I Eron davlatiga xos istilochilik siyosatini davom ettirib, Kichik Osiyo yunonlarining boy shaharlari ustidan hukmronligini mustahkamlash maqsadida miloddan avvalgi **513** yilda Frakiya orqali Shimoliy Qora dengizning shimoliy qismiga - skiflarga qarshi yurish boshlagan. Turli qabilalardan iborat **Doro I** qo‘shini tarkibida Kichik

Osiyo yunonlarining harbiy bo‘linmalari hamda Gellespont va Qora dengizning Yevropa qirg‘og‘idagi forslarga qaram bo‘lgan yunon shaharlari aholisidan tuzilgan otryadlar ham bo‘lgan. Eron hukmron doiralari o‘z kuchlariga ishongan holda aholisi ko‘p va boy Yunonistonni osonlik bilan bo‘ysundirish va undan qo‘shimcha daromadlar olishga umid bog‘laganlar. Istilochilik harakatlarini boshlashga faqat bahona yo‘q edi, xolos. Uni yunonlarning o‘zlari topib berganlar.

Yunon-fors urushlarining boshlanishi. Kichik Osiyoning grek shaharlari aholisi, ayniqsa, Eron soliq tizimidan ko‘p jabrlangan. Forslar tayinlagan hokimlarning zulmi aholi ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Asta-sekin vaziyat murakkablashib, arzimasi bahona bilan qo‘zg‘olon ko‘tarilib ketishi mumkin bo‘lib qoldi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qaysi omillar qadimgi Afinada zodagonlar bilan demos o‘rtasidagi kurashga sabab bo‘ldi?
2. Solon islohotlari demos uchun qanday qulayliklar yaratdi?
3. Yunon-fors urushlarining boshlanish sabablari nimada edi?
4. Spartaning harbiy davlat tuzumidan qolgan yunon demokratik polislarga o‘xshash va o‘xshamaslik belgilarini ko‘rsatib bering.
5. Nima uchun Spartada madaniyat yuksak rivoj topmadi?
6. Qaysi omillar qadimgi yunon davlatlarining o‘zaro urushlarini to‘xtatishga xizmat qildi?
7. Yunonlarning forslar ustidan g‘alaba qozonishi sabablarini ayting.

17-mavzu. Qadimgi Yunoniston tarixi manbalari va tarixnavisligi. Yunonistonda madaniyat.

Reja:

1. Qadimgi quldorlik davlatlari.
2. Ellin madaniyatini
3. Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda yunon madaniyati.
4. Olimpiya o'yinlari.
5. Qadimgi Yunonistonda ilmiy bilimlar.

Tayanch iboralar: *Meteklar, dikasteriyalar, Samos, Pisandr, Epidamn koloniyasi Messeniya, Perikl. Geliyespont, satrap, Tir, Finikiya, Gurgon, Maroqanda Antropomorfizm, Geya, Tartar, Gestiya, sirenalar, orakullar, panafeniylar, apeyron, efir, tragos, difiramblar, skena, Ezop, kolonnalar, Meduza, arxaik, rupor, klassik davr, Troya, bulevteriyalar, kannelyurlar, kapiteli, kariatidalar, Afina Pramaxos, atlet, ginekeya, Arxilox, gekzometr, kuros, arxaik, doriycha uslub, korifey, koturna, rupor, tiraniya, volyutlar, freska, monumental, totemizm, nimfa, kentavr, atom, sofistlar, Propileya, induksiya, oligarxiya, oxlokratiya. ellinizm, koyne, demotik tili, kosmopolitizm, gelpola, gelepola, peristal, Museyon, stoiklar, epikurchilar, peripatetiklar, geliotsentrik, idiliya, sinkretizm.*

Qadimgi quldorlik davlatlari. Qadimgi Gretsiya va Rimda quldorlik davlatlari yuksak taraqqiy etdi. Buni quldorlik jamiyati, shuningdek, antik jamiyat deb ham atash mumkin. Qadimgi Gretsiya tarixi miloddan avvalgi **III ming yillik**dan to milodiy davrgacha o'rganiladi. Eng qadimgi Gretsiya qadimgi Sharqning g'arbiy chekkasida joylashgan, Misr hamda Old va Kichik Osiyo xalqlari bilan bevosita aloqada bo'lgan keng o'lka edi. Miloddan avvalgi **III-II ming yillikda** urug' tuzumi yemirilib, ilk quldorlik jamiyatining shakllanishi va ilk quldorlik davlatlari taraqqiy etishi boshlandi.

XIX asrning 70-yillarigacha qadimgi Gretsiya tarixi odatda Gomer davri (miloddan avvalgi XI-IX asrlar) nomini olgan davrdan o'rgana boshlanardi. XIX asrga oid tadqiqotlar miloddan avvalgi **II ming yillikda** Egey dengizi havzasida sivilizatsiya o'sha davr Misr,

Bobil va Xett kabi davlatlardagidek yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Ushbu hududdagi arxeologik kashfiyotlarning batafsil bayoni va aniq ta'rifi **V.P.Buzeskulning** "Otkritiya XIX-nachala XX vv. v oblasti istorii drevnego mira" (Drevnegrecheskiy mir. II-qism, **1924**) asarida berilgan.

Shuningdek, qadimgi Gretsiya tarixiga doir asosiy qo'llanmada grek dini va afsonalariga ham alohida o'rin berilganligi sababli **N.A.Kunning** "**Qadim Yunonistonning afsona asotirlari**" - (M, **1954**) kitobi bilan tanishib chiqishni ham tavsiya etamiz

Qadimgi Gretsiya tarixida, ayniqsa, uchinchi arxeologik davr (miloddan avvalgi VIII - VI asrlar) muhim bo'lib, bu vaqtda antik quldorlik munosabatlari tarkib topmoqda edi. Arxaik davrdagi grek xo'jaligi va jamiyati haqidagi ma'lumotlar **Gesiodning** "Trudi i dni" (miloddan avvalgi VIII - VI asrlar) dostonida berilgan.

"Qadimgi Sparta" mavzusida - greklar siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan qadimgi Gretsiyaning quldorlik davlati bilan tanishib chiqiladi. Talabalar miloddan avvalgi **IX asrda** Sparta davlatining tashkil topishida o'ziga xos jihatlari hamda harbiy tusga ega ekanligini ko'rsatib berishlari kerak.

Sparta davlatining tashkil topishi tarixiga doir manbalar juda kam. Bizga qadar yetib kelgan **Ksenofont, Platon (Aflotun) va Aristotel (Arastu)** asarlarida Sparta tuzumi qisman ideallashtiriladi. Qadimgi Sparta haqida qadimgi Gretsiyaning eng yirik tarixchilari Gerodot va **Fukidid** asarlarida ob'yektiv ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, **Pavsaniyaning** "Opisaniye Elladi" (miloddan avvalgi II asr) asaridan ham birmuncha aniq ma'lumotlar olish mumkin.

Mavzuni o'rganish vaqtida Yuqorida ko'rsatilgan manbalar bilan tanishib chiqish, Sparta iqtisodi, ijtimoiy munosabatlari va Sparta (Lakedemon) davlat tuzumining xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, spartaliklar turmushi va tarbiyasining o'ziga xosligiga e'tibor berish kerak.

Sparta jamiyati uch tabaqa: spartaliklar, perieklar va ilotlarga bo'lingan. Ilotlar boshqa grek davlatlaridagi qullardan farq qilar va ular davlatga qaram bo'lib, spartaliklarga yerlari, mehnat qurollari bilan birga berilar edi. Sparta davlatida tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvini (ilotlar qo'zg'oloni) anglab yetish

muhim va uning ijtimoiy hayotga ta'siri **A.Bergerning** “Sotsialniye dvijeniya v drevney Sparte” (M, 1936) kitobida berilgan.

Spartaga qarama-qarshi davlat - **Attika** (miloddan avvalgi VII - V asr) tarixida quldorlikning tashkil topishi va uning eng yuksak shakli - demokratik quldorlik respublikasining paydo bo'lishini kuzatish mumkin.

Grek-fors urushlari tarixiga doir asosiy manbalar: Gerodotning “Tarix” kitobi, sitsiliyalik Diodorning “Tarix kutubxonasi” asari, Plutarx qalamiga mansub Femistokl, Aristid, Kimon va **Periklning** tarjimai hollari, Esxilning “Forslar” nomli tragediyasi va hokazolar.

Afina demokratiyasining ahamiyatiga baho berilganda, bu mavzuga doir qo'shimcha adabiyot sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- **V.P.Buzeskul.** Afinskaya demokratiya. Obshchiy ocherk. Xarkov. 1920.; V.Andreyev. Afinskaya rabovladelcheskaya demokratiya. “Vestnik drevney istorii”, 1960. №4.

Peloponnes urushi tarixiga oid asosiy manba o'sha zamon tarixchisi va shu urush qatnashchisi Fukididning “Tarix” asari hisoblanadi. Urushning so'nggi davriga oid manbalar esa **Ksenofontning** “Gretsiya tarixi” kitobi, sitsiliyalik Diodorning “Tarixiy kutubxonasi” dan lavhalardir. Afina ijtimoiy-siyosiy tuzumini analiz qilish uchun Aristofan komediyalari, Aristotelning “**Afinskaya politiya**” komediyasi, Afina notiqalarining ba'zi bir nutqlari, arxeologik manbalardagi o'sha davr yozuvlari katta ahamiyatga ega.

Qadimgi greklarning falsafa va boshqa fanlar rivojlanishidagi rolini aniqlashda Gretsiya tarixchilari Gerodot, Fukidid va Ksenofont ijodini, shuningdek, mashhur grek notiqalari Lisiy, **Demosfen, Sokrat va Esxill** ijodi bilan tanish bo'lishi kerak.

Darslikka qo'shimcha material sifatida **I.M.Tronskiyning** “Antik adabiyot tarixi” (3-nashr, L, 1957) asaridan va **A.G.Chegodeyevning** umumiy tahriri ostida chiqqan “Qadimgi dunyo san'ati” (M, 1956) kitobidan foydalanish mumkin.

“Iskandar Zulqarnayn davlati” mavzusini o'rganishda darslikdan tashqari professor **A.B.Ranovichning** “Ellinizm va uning tarixiy roli” (M-L., 1950) monografiyasining II bobini o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi.

Ellin davlatlari tarixiga oid asosiy manbalar: **Polibiyning** “Umumiy tarix” kitobi, sitsiliyalik Diodorning “Tarix kutubxonasi” asari, **Strabonning** “Geografiya” asari, **Fokion, Evlen, Demetriy, Poliokretlarning Plutarx** tomonidan bitilgan tarjimai holi, Akkianning “Suriya ishi” ham boy arxeologik materiallardir.

Ellin madaniyatini o‘rganishda talabalar uning eng muhim markazlari (Misr Iskandriyasi, Antioxiya, Pergam) haqida, shuningdek, shu davr texnika, tibbiyot, matematika fanlari, badiiy adabiyoti va tasviriy san'ati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Falsafiy tizimlar orasida **Epikur** falsafasi katta ahamiyatga ega. Ellin davrining eng mashhur fan (**Arximed, Geran, Feafrast, Aristarx, Evklid, Eratosfen, Gerofil, Gipparx**), adabiyot arboblari (Lisipp, Apelles, Aleksandr) va falsafa namoyandalari (Epikur, Zenon)ning nomlarini va ular erishgan yutuqlarni yodda tutish tavsiya etiladi.

Bu bo‘lim bo‘yicha qo‘shimcha adabiyot sifatida **A. B. Ranovichning** “Ellinizm va uning tarixdagi roli” (VII bob, Ellin madaniyati) kitobini tavsiya etish mumkin.

Miloddan avvalgi VII - VI Arxaik davr yunon madaniyati krit - Asrlarda yunon madaniyati miken davri va undan keyingi miloddan avvalgi XI - IX asrlar doriylarning ko‘chish va istilolari davriga borib taqaladi. Bu madaniyat shu davrga xos qo‘l mehnati qurollari bazasida rivojlangan. Bevosita ishlab chiqaruvchilar - dehqon va hunarmandlar davlatmand va boy yunonlar qo‘l ostida qul kabi ishlaganlar. Quldorlik munosabatlari asta-sekin rivojlangan bo‘lsa ham, lekin jismoniy mehnat erkin shaxsni xo‘rlaydi, deb hisoblangan. Bu davrga oid muomala va munosabatlar Gesiodning “Mehnatlar va kunlar” poemasi yorqin aks ettirilgan.

Din. Yunon dini krit - miken zamonida va urug‘doshlik tuzumi buzilayotgan davridayoq (miloddan avvalgi XI - IX asrlarda) tarkib topa boshladi. Miloddan avvalgi VIII - VII asrlarda bu din to‘liq rivoj topib ulgurdi. Bu din antropomorfizm, ya'ni insonni ilohiylashtirish, xudolarni o‘lmaydigan va abadiy yoshligicha qoladigan kuchli, go‘zal kishilar degan tasavvurdan iborat bo‘lgan. Greklarning tasavvuriga ko‘ra, olam avval Xaosdan iborat bo‘lib, Yer - Geya va yer osti olami - Tartar ham mavjud bo‘lgan.

Geyadan uning o‘g‘li Uran - osmon xudosi tug‘uladi. Uran bilan Geyadan titan Kronos tug‘ilgan va o‘z otasiga qarshi chiqqan. Bular

titan - katta xudolar edi. Kronosdan Aid, Poseydon, Gestiya, Demetra, Gera va Zevs kabi kichik xudolar kelib chiqqan.

Yunonlar tasavvurida tabiat ilohiy mavjudotlar bilan to'lib toshgan. Ular nazarida, chakalakzorda driad, nimfa va echkiyoq satirlar yashagan, dengizda nayada va sirenalar - ayol boshli qushlar yashagan.

Yunonistonda yarim xudo - qahramonlar e'zozlangan. Yunonlarning fikricha, bu yarim xudo - qahramonlar xudolar bilan odamlarning nikohidan tug'ilgan. **12** jasorati evaziga Gerakl alohida hurmatga sazovor bo'lgan. U sher terisida va qo'lida tayoq bilan tasvirlangan. Gerakl yovuzlikka qarshi kurashib, uni yengib kelgan shaxs obrazi edi.

Bayramlar. Qadimgi Yunoniston madaniy an'ana va odatlari turli shaharlarni bir-biriga bog'lagan va yunon xalqini birlashtirgan. Bolqon yarim oroli shaharlari o'z bayramlari, o'yinlari bilan yunonlarni birlashtirgan. Yunonistonda xudolarga atalgan maxsus bayramlar o'tkazilib, ular faqat diniy tusda bo'lmay, jismoniy tarbiya musobaqalari hamda musiqa, qo'shiq va shu kabilar bayramlarning muhim jihatlari hisoblangan.

Olimpiya o'yinlari. Bayramlardan tashqari umummilliy sport musobaqalari ham yunonlarni birlashtirgan. Peloponnesda o'tgan Olimpiya o'yinlari mamlakatda dong taratgan. Bu o'yinlar xudolar otasi, chaqmoqsochar Zevs Sharafiga o'tkazilgan. Olimpiada Zevs ibodatxonasida bo'lib, unda Zevsning ulkan haykali o'rnatilgan. Olimp o'yinlari har to'rt yilda bir marta o'tkazilib, binobarin, qadimgi yunonlar keyinroq vaqt hisobini olimpiadalar asosida yurgiza boshlaganlar. Rivoyatga ko'ra, ilk olimpiada miloddan avvalgi **776** yilda o'tkazilgan.

Olimpiadalarda barcha yunonlar qatnasha olishi uchun bu vaqtda urushlar to'xtatilgan. Shunday qilib, Olimpiya o'yinlari tinchlik darakchisi bo'lgan.

Orakul (bashoratchi)lar. Orakullar ham yunonlar hayotida muhim o'rin tutganlar. Ular tufayli yunon kohinlari juda katta foyda ko'rganlar, chunki o'z savoliga javob olishni istagan kishilar ularga pul yo qimmatli buyumlar keltirganlar. Orakullar deganda ayrim shaxslarni emas, balki bashorat qilish, ya'ni kelajakdan xabar berish bilan shug'ullanuvchi butun ibodatxonalarini anglamoq kerak.

Ayniqsa, **Fokididdagi** Delfa orakuli (bashoratchisi) keng dong taratgan. Bu yerda tog‘lar orasida dara bo‘lib, undan zaharli bug‘ chiqib turgan. Shu dara oldidagi sepoyada bashoratchi **kohin ayol Tifiya** o‘tirgan. Zaharli bug‘dan bu ayol hushidan ketib, hushsiz holda so‘zlagan. Uning so‘zlarini kohinlar izohlab, bashoratchiga berilgan savollarga javob qaytarganlar.

Delfalik orakul nafaqat yunon, balki boshqa davlatlarda ham shuhrat qozongan. Orakullar katta siyosiy rol o‘ynaganlar. Ularning javoblarini turlicha talqin qilish mumkin edi, chunki haqiqatda orakul (bashoratchi) hech nimani oldindan aytolmagan. Lekin o‘z obro‘larini yo‘qotmaslik uchun kohinlar buni tan olmaganlar.

Falsafa. Kichik Osiyo yunon shaharlarining hunarmandchilik va savdo - sotig‘ining taraqqiy etishi, shahar aholisining roli oshib borishi natijasida mafkura ko‘rinishi ham o‘zgardi. Yunonlar endi olamning diniy izohi bilan qanoatlanmay, savollarga moddiy olamdan javob izlaydilar. Mafkuraviy (diniy) va materialistik qarashlar o‘rtasida kurash boradi va uning jarayonida miloddan avvalgi VII - VI asrlarda materialistik falsafa paydo bo‘ladi. Bu ilk falsafa stixiyali yoki ibtidoiy materializm deb ham ataladi. Miletlik Fales dastlabki ana shunday faylasuf bo‘lish bilan birga fizik va matematik ham bo‘lgan. U butun olamning asosi - suv deb izohlagan. Uning ta'limotiga ko‘ra, butun olam suvdan paydo bo‘lgan va shuning uchun butun mavjudotning negizi suvdur. **Falesning** shogirdlaridan biri - **Anaksimend**, birlamchi materiya, ya'ni “apeyron” butun mavjudot ibtidosidir deb hisoblagan.

Anaksimandr olamning asosi - havo, “efir”, u butun mavjudotga singib, olam undan kelib chiqqan deb ta'lim beradi. Faylasuf Geraklit olam olovdan paydo bo‘lgan deb hisoblagan: “Olam - abadiy alanganib va abadiy so‘nib turadigan olovdir”. Geraklit Efes shahrida yashagan va o‘z falsafasini shu yerda yaratgan. Bugungi kunda uni birinchi dialektik deb hisoblashadi. Darhaqiqat, Geraklit ta'limoti yerda buyumlar yo‘q, balki yuz berib turadigan jarayonlar bor deb uqtiradi. **Geraklitning** bosh qoidasi: “Hamma narsa oqib turadi, har narsa o‘zgaradi”. “Ayni bir daryoga ikki marta tushib bo‘lmaydi, chunki birinchi tushganingizda suvning bir xil zarralari oqsa, ikkinchi marotaba suvning boshqa zarralari oqadi”.

Fales, Anaksimn va Anaksimandr Milet maktabi faylasuflari edilar. Qadimgi Yunonistonda, shuningdek, mafkuraviy falsafa ham mavjud bo‘lib, u olamning ibtidosini tabiat va uning hodisalarida emas, balki g‘oyalarda deb bilgan. Miloddan avvalgi VI asrda Sitsiliyada yashagan Pifagor ana shunday idealist faylasuf edi. Pifagor yunon matematikasining asoschilaridan biridir. Pifagor sonlarni o‘rgangan, shuning uchun uning nazarida olma muayyan sonlar va ularning o‘zaro munosabatlaridan iborat bo‘lgan. U Sitsiliyada, asosan, aristokrat oilalardan kelib chiqqan muxlislari, izdoshlari jamoasini tuzgan.

Yunon yozuvi. Yunon alifbo yozuvi miloddan avvalgi IX - VIII asrlarda finikiyaliklar alifbosi asosida yuzaga kelgan. Finikiyaliklarga savdo ishlarida, hisob-kitob yurgizishda alifbo zarur bo‘lgan, ammo belgilari ko‘p qadimgi Sharq yozuvini o‘rganishga na vaqt, na imkoniyatlari bo‘lgan. Hisob-kitobni aks ettiradigan hamda tezda o‘rganish mumkin bo‘lgan qisqa va aniq alifbo kerak edi. Finikiyaliklar **22** harfdan iborat yangi alifbo tuzganlar, lekin bu harflar faqat undosh tovushlarni anglatgan. Yunonlar finikiya yozuvidan foydalanganlar, lekin qisman o‘zgartirib, unga unli tovushlarni ham bildiruvchi harflarni qo‘shganlar. Shunday qilib, ular **24** harfdan iborat yangi yunon alifbosini yaratganlar. Biz uchun yunon alifbosining ahamiyati shundaki, ushbu alifbo keyinchalik slavyan (kirill) alifbosiga asos bo‘ldi.

Adabiyot. Yangi alifbo va yozuvning yaratilishi yunon adabiyoti rivojida juda muhim qadam bo‘ldi. Miloddan avvalgi VIII asrning ikkinchi yarmida Beotiyada yashagan shoir Gesiod ikki yirik adabiy asar yaratdi: birinchisi - “Teogoniya” bo‘lib, unda yunonlarning xudolar va olamning kelib chiqishiga oid qarashlari bayon qilingan; ikkinchisi - “Mehnatlar va kunlar” asari edi.

Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda yunon lirikasi yuzaga kelib, yuksak darajada rivojlangan. Bu - yunon polislarida aristokratiya bilan demokratiya o‘rtasidagi kuchli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kurash davri bo‘lgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlar davri doimiy kurash ruhi bilan shoirlarning she‘rlarida aks etdi. Bu she‘rlar qisqacha bo‘lib, zamona kishilarining kayfiyati va o‘y-fikrlarini ifodalagan. Shoirlar ozgina so‘z bilan kuchli his-tuyg‘ular, qayg‘u va shodlikni tasvirlashga intilganlar.

Lirika soʻzi oʻsha davr musiqa asbobi - lira nomidan olingan. Odatda sheʼriy asarlar lira musiqasi joʻrligida qiroat bilan oʻqilgan. Yunon lirikasiga asos solgan dastlabki shoirlardan biri - **Arxilox** Paros orolida tugʻilgan. U aristokratiya bilan demokratiya kurashida faol ishtirok etgan. Oʻz sheʼrlaridan birida Arxilox hayot yoʻlida omad goh kelib, goh ketishi haqida soʻzlaydi. Agar “seni yengsalar, - der edi u, - gʻam yema, uyga berkinib yigʻlama. Omad kelganda meʼyorida shodlan, kulfat tushganda meʼyorida qaygʻur. Inson hayoti pinhona ohangini angla”. Miloddan avvalgi VI asrda satirik poema yuzaga keladi. **V.A.Jukovskiy** tomonidan rus tiliga tarjima qilingan “Sichqonlar va qurbaqalar urushi” poemasi buning yorqin namunasi. Satirik poemalar gekzometr vaznida, yaʼni Gomer dostonlari yozilgan sheʼr vaznida bitilgan.

Sanʼat. Ana shu davrda yunon tasviriy sanʼati vujudga kela boshladi. Dastlab, bu sanʼat arxitektura va haykaltaroshlikda qadimgi Sharq sanʼatidan ancha orqada qoladi. Lekin miloddan avvalgi VI asr oxirlarida yunon sanʼati gurkirab rivojlandi. Dastlabki paytlarda yunon meʼmorchiligi (arxitekturasi) nomukammal boʻlgan. Miloddan avvalgi VIII - VII asrlardagi yunon ibodatxonasi uch tomoni devorli va toʻrtinchi tarafi ochiq yogʻoch imoratdan iborat boʻlgan. Toʻrtinchi tomondan tomni ushlab turish uchun oldida ustun tirkab qoʻyilgan. Tosh meʼmorchiligi paydo boʻlgach, ustunlar toshdan yasaladigan boʻldi. Shu tariqa qator ustun (kolonna)lar paydo boʻlgan. Miloddan avvalgi VII asrda ibodatxonalar xom gʻishtdan qurilgan. Keyinchalik tosh ishlatish rivoj topdi. Miloddan avvalgi VII asr oxirlarida ibodatxonalarning atrofiga ustunlar oʻrnatib, yangicha shaklda qurish rasm boʻldi. Xuddi shu vaqtdan boshlab doriycha uslub paydo boʻldi. Bu uslub uchun qator ustunlar xos. Kolonna tagkursi, poydevor va tepaqoshga boʻlingan. Doriycha ustunlar qoshi oddiy, bezaksiz boʻlgan.

Yunonistonda haykaltaroshlik ham eng ibtidoiy shakllardan asta-sekin mukammal koʻrinish ola bordi. Miloddan avvalgi VIII asrda ibodatxonalar uchun xudolarning yogʻoch suratlari yasalgan. Miloddan avvalgi VII asrda tosh haykallari paydo boʻlgan. Dastlab bu haykallar ibtidoiy shaklda edi. Masalan, Samoslik Geraning haykali ana shunday, u yogʻochdan yasilib, kiyintirilgan haykalga oʻxWardi. Uning qomati deyarli bilinmaydi. Haykal dum-dumaloq qilib

ishlangan. Miloddan avvalgi VII asr oxiri haykallari odamga o'xshatib ishlana boshlandi. Masalan, Demoslik **Artemidaning** haykali ana shunday. Unda garchi uning ko'rinishi birmuncha ibtidoiy bo'lsa ham, qaddi-qomati aniq sezilib turadi. Bosh, gavda, qo'l va oyoqlar bor, lekin bularning hammasi yassi va sxematik ishlangan. Miloddan avvalgi VI asrda qora figurali vazalar yasalgan, ya'ni tabiiy qizg'ish vazalar ustiga qora lak bilan rasmlar tushirilgan. Ba'zan rasmlar boshdan oyoq "qirilgan" va so'ng qizil, oq bo'yoq bilan bo'yalgan. Faqat arxaik davr rasmlari shunday usul bilan ishlanardi. Korinf sarg'ish gilvata vazalari bilan shuhrat qozongan. Miloddan avvalgi VI asrda Attikada ishlab chiqarilgan lak davrimizga qadar o'chmay saqlanib qolgan.

Klassik davr yunon madaniyati. Hozirgi madaniyat ko'p ko'rinishlari bilan qadimgi Yunonistonning ko'p qirrali madaniyatiga borib taqaladi. Fan va texnika hamda falsafa, adabiyot, arxitektura, shuningdek, tasviriy san'atning turli shakllari - jahon madaniyatida muvaffaqiyatli suratda rivojlanib kelgan.

Yunon teatri. Qadimgi yunon madaniyatining eng ajoyib hodisalaridan biri - teatr. Teatr dehqonchilik homiysi - Dionis xudosi bayramida ijro etiladigan xalq qo'shiqlari va o'yinlari asosida paydo bo'lgan. Dionis tabiat kuchlarini hosil qiluvchi ma'bud bo'lib, unga sig'inish qishloq xo'jaligini yuritish mashaqqatlari va quvonchlarini aks ettirgan. Qadimgi Yunoniston tabiiy Sharoitiga ko'ra, qishloq xo'jaligida, asosan, uzum yetishtirilgan. Toklar barg chiqargan bahorda Dionisiya bayrami o'tkazilgan. Ayniqsa, bu bayram quvnoq kechgan, ya'ni yangi vino ichilib, davra qurilib, lapar, qo'shiq aytib, raqsga tushilgan.

Dionis Sharafiga aytiladigan marosim qo'shig'i - difiramb ijrochilari echki terisiga o'ralib chiqqanlar. Tragediya - ya'ni "takalar qo'shig'i" ma'nosi shundan kelib chiqqan (yunoncha "tragos" - taka, "de" - qo'shiq demakdir). Difiramblardan yunon tragediyasi paydo bo'lgan.

Qadimgi Yunonistonda teatr tomoshalari ko'ngilochar ish emas, balki muqaddas burchni ado etish hisoblangan. Unda har bir fuqaro ishtirok etishi Shart bo'lgan. Perikl zamonidan boshlab Afina fuqarolariga teatrga borishi uchun davlat xazinasidan maxsus pul ajratilgan. Teatr tarbiya maktabi bo'lib, unda qo'yiladigan pyesalarda eng muhim axloq, siyosat va mafkuraviy masalalar bayon qilingan.

Teatr tomoshalari katta bayram kunlari bir necha marta qo'yilgan va qatorasiga bir necha kun davom etgan. Har safar uch tragediya va uch komediya qo'yilgan. Demak, yunonlar ertadan - kechgacha teatr tomosha qilganlar.

Adabiyot. Quldorlik demokratiyasi rivoj topib, ayniqsa, Afinada, adabiyotning ommaviy turi - dramatik tomoshalar taraqqiy qiladi. Ular ommaviy xalq bayramlari asosida tragediya va komediya shaklida yuzaga keldi.

Butun qadimgi yunon madaniyati singari, tragediya ham mifologiya asosida rivoj topdi. Lekin biz, "antik mifologiya harakatsiz, misli qotib qolgan manzara emas; bu mifologiya uning qaror topishida, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotini aks ettiruvchi doimiy harakatda olib qaralmog'i lozim"ligini unutmasligimiz kerak. Klassika davrida mifologiya polis mafkurasini tarqatuvchi va ifodalovchi bo'lib qoldi. Shoirlar o'z tragediyalariga o'sha davr yunon jamiyatini to'lqinlantirgan g'oyalarni jo qilganlar. Bu hol qadimgi Gretsiyada tragediyalar g'oyat katta shuhrat qozinishiga sabab bo'lgan va ular o'sha davrning jonli va yorqin hujjatiga aylangan.

Yunon tragediyasi o'z kuchi, favquloddaligi, yuksak g'oyaviyligi va obrazlar zabardastligi jihatidan dramaturgiyaning eng yaxshi namunalaridan biridir.

Arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik. Qadimgi yunon arxitekturasi, umuman, tasviriy san'ati, qadimgi yunon madaniyatining boshqa jihatlari kabi, keyingi davrlar badiiy taraqqiyotining uzviy qismiga aylandi. Buning isbotini hozirgi vaqtga qadar saqlangan yodgorliklarda ko'rish mumkin.

Klassik davrda Yunonistonda ibodatxonalar, teatrlar, majlis binolari, ya'ni bulevteriyalar yetakchi arxitektura inshootlari bo'lgan. Miloddan avvalgi V asrda shaharlarni loyiha asosida qurish rasm bo'lgan. Lekin ibodatxona hamon asosiy inshootligicha qolgan.

Miloddan avvalgi V asrda boshqa - ioniy uslubi rasm bo'ladi. Bu uslubda qurilgan binolar nisbatan ixcham, ustunlari nozikroq va kelishgan bo'lgan. Ustunlar pol ustiga emas, balki tosh tagkursi - baza ustiga o'rnatilgan. Ustunlarning qoshi - kapiteli endi ikki gajakli naqsh - volyutlar bilan bezatilgan. Ioniycha uslubda qurilgan binolar murakkab naqshlar bilan bezatilgan.

Miloddan avvalgi IV asrda binolar korinf uslubida barpo etildi. Uning ioniy uslubidan farqi, ustunlari uzun (orderga mutanosib ravishda), tagkursi va qoshi ancha murakkab bo'lib, akanf o'simligi yaproqlari bilan bezatilgan.

Afina akropolining saqlanib qolgan Parfenon va Erehteyon ibodatxonalari yunon arxitekturasi eng yorqin namunalari deb aytish mumkin.

Ajoyib Parfenon ibodatxonasi ma'buda Afinaga bag'ishlangan. Hozir ham u jahon arxitekturasi durdonasi hisoblanadi. Parfenonning ustunlari doriy uslubida, ammo binoning o'zi ioniy uslubida qurilgan. Parfenon qarshisida joylashgan Erehteyon ham tarixiy yodgorliklardan biri. Bu bino ioniy uslubida barpo etilgan. Uning ustunlari kelishgan va nafis. Kariatida (qiz haykal)lari ham ajoyib, ibodatxona devori oldidagi kichkina peshayvon tomini ular ustunlar o'rnida ko'tarib turishadi.

Miloddan avvalgi IV asrda qadimgi Afina markazida afinalik fuqaro **Lisikrat**ga qo'yilgan yodgorlik haykalini ham korinf uslubi namunasi deyish mumkin. U ham hozirga qadar saqlanib qolgan.

Akropolning markazida **Pramaxos** (ya'ni jangga kirgan Afina)ning haykali joy olgan. Bu ma'buda boshida dubulg'a, qo'lida nayza bilan tasvirlangan. Nayzaning uchidagi zarhal yaraqlab turadi. Haykal baland tagkursiga qo'yilgan. Tireydan bir necha chaqirim naridan o'tayotgan kemalardan ham bu nayza ko'rinadi. **Fidiy** ma'budalarni tasvirlashda ularning go'zalligi va hashamatini bo'rttirib ko'rsatadi. Bu genial haykaltaroslarning asarlaridan tashqari, nomlari noma'lum yana ko'pgina asarlar ham saqlangan. **15 - 16** yoshlik, olimpiya o'yinlari g'olibi - yuguruvchi qiz haykali, ayniqsa, e'tiborga loyiq.

Miloddan avvalgi IV asrda qadimgi yunon haykaltaroshligi mohiyatan o'zgardi. Bu narsa yangi ijtimoiy Sharoit, polisning inqirozi, aholi o'rtasida mulkiy tabaqalanish kuchayishi, davrning alg'ov-dalg'ov voqyealari bilan bog'liq bo'ldi.

Qadimgi Yunonistonda rassomlik keng rasm bo'lgan, ammo hozirga qadar uning namunalari deyarli saqlanib qolmadi. Yunon rassomlari uchun odatda ayrim mifologiya manzaralari syujet bo'lib xizmat qilgan, shu bilan birga zamon voqyealari va yunonlarning turmushi ham aks ettirilgan. Italiyadan va Rossiyaning janubidan

arxeologlar topgan sag'ana freskalari, bizgacha ko'plab yetib kelgan qizil va qora shaklli guldor vazalar monumental va stanokli yunon rassomligi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Naqshkor rassomlar shu tariqa syujetni batafsil aks ettira olganlar.

Din yunon klassik madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, arxitektura, tasviriy san'at, adabiyot yodgorliklarida ham o'z aksini topgan. Qadimgi yunon dinining asosiy shakllari arxaik davridayoq tarkib topib, uning ildizlari eng qadimgi krit-mikena davriga borib taqaladi.

Polis dini hamda eski diniy tasavvurlarning miloddan avvalgi IV asrda ana shunday tanglikka uchragani ma'lum. Bu o'sha zamon adabiyoti, san'ati va falsafiy qarashlarida o'z aksini topgan.

Qadimgi Yunonistonda klassik davr falsafasi. Klassik zamondayoq tabiat va inson faoliyati ustidan olib borilgan kuzatish natijalarini umumlashtirishga intilish oqibatida falsafiy-estetik fikr ravnaq topdi. Yunon falsafasi fan sifatida paydo bo'lishi jarayonida materializm bilan idealizm o'rtasida boshlangan kurash bu taraqqiyotga ko'maklashdi.

Periklning do'sti faylasuf **Anaksagor** o'z salaflarining materiya tuzulishi bilan bog'liq qarashlariga qiziqdi. U barcha jismlar eng mayda zarralarning tegishli sifati: havo - o'ta mayda havo zarrachalari, daraxt - eng mayda yog'och zarralari, metall - tegishli metall zarralaridan, go'sht - eng mayda go'sht zarralaridan tuzilgan, deb ta'lim berardi. Shu bilan birga, u materiyaning kelib chiqishiga "olamiy aql" sababchi deb hisoblagan.

Abderalik Demokritning (miloddan avvalgi **460 - 370** yillar) butun koinot, shu jumladan, yerimiz, barcha buyumlar, odamlar, hayvonlar ham modda jihatidan bir xil, lekin shakl va hajm jihatidan turlicha eng mayda zarra - atomlardan iborat, degan ta'limoti qadimgi yunon falsafasining cho'qqisi bo'lgan. Demokrit ta'limotiga ko'ra¹, atom - abadiy va o'zgarmas materiyaning eng mayda bo'lagi bo'lib, uning o'zi bo'linmaydi ("atom" - qadimgi yunon tilida "bo'linmas").

Arxaik davr va klassik davrning birinchi yarmi faylasuflari tabiat va koinotni o'rganishga katta ahamiyat beradilar. Lekin bilimlar

¹ Zimmermann A., Geschichtslose und schriftlose Völker in Spreeathen: Anthropologie als Kritik der Geschichts-wissenschaft im Kaiserreich, in "Zeitschrift für Geschichtswissenschaft", 1999, 47/3, pp. 197-210.

birikib, ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borgan sari, qadimgi yunon faylasuflari oldida yangi muammolar paydo bo'ldi. Bu muammolar miloddan avvalgi V asrning ikkinchi yarmida yangi tipdagi faylasuf va falsafada bir qancha yangi oqimlarni vujudga keltirdiki, bu falsafiy oqimlar vakillari sofistlar, ya'ni donishmandlar degan umumiy nom oldilar. Miloddan avvalgi V asrda Yunoniston, ayniqsa, Afina va boshqa demokratik polislardagi Shart-Sharoit suxandonlik-tinglovchilarni va suhbatdoshlarni ishontirish san'atini egallash ehtiyojini yuzaga keltirdi. Donishmandlik muallimlari - sofistlar tegishli haq badaliga istagan kishiga suxandonlik san'ati va turli bilimlarni o'rgatardilar. Ularning ta'limoti sub'yektiv va anarxistik ta'limot edi.

Atoqli faylasuf **Sokrat** - Suqrot (miloddan avvalgi **471 - 399** yillar) sofistlar orasidan ajralib chiqqan. Sokrat ham aql, ham inson muammosiga qiziqar, o'z umri davomida bironta ham asar yozmaganligiga qaramay, uning falsafasi juda mashhur va ko'plab shogirdlarga ega bo'lgan. Sokrat maktabda dars bermas, ma'ruza o'qimas, balki shahar, bozor, odam gavjum joylar, afinaliklarning sevadigan sayilgohi Propileya va boshqa joylarni aylanar va shogirdlari bilan suhbat qurardi. Sokratning nafaqat aristokrat va boylardan, balki oddiy kishilar orasidan ham shogirdlari ko'p bo'lgan.

Idealistik falsafa miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmida yashagan atoqli faylasuf Platon - **Aflotun** (miloddan avvalgi **427 - 347** yillar) asarlarida yanada rivojlantirildi. Platon zodagon va boy oiladan bo'lib, yaxshi tarbiya va ma'lumot olgan. U Sokratning shogirdi bo'lib, ustozining suhbatlarini qog'ozga tushirib olgan.

Platon ob'yektiv idealist bo'lib, ya'ni ob'yektiv olamning mavjudligini tan olar, lekin uni faqat narigi dunyoga xos real g'oyalar olamining mahsuli deb hisoblardi. Uning fikricha, masalan, narigi dunyoda ot g'oyasi mavjud bo'lib, u bu dunyoda real ot shaklida gavdalangan. Masalan, stol, turli hayvonlar kabi g'oyalar mavjud, ammo real buyumlar ularning in'ikosi, gavdalanishi, xolos. Platonning fikricha, haqiqat alohida emas, balki faqat umumiydir. Otlar turlicha, ular tug'iladi, o'ladi, ammo ot g'oyasining o'zi abadiy va o'zgarmas. Platonning fikricha, g'oya narsalarning nihoyasiga yetgan umumlashuvidir.

Mashhur **Aristotel** - Arastu (miloddan avvalgi **384 - 322** yillar) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi va olimi bo'lib, Makedoniya shohlari saroy tabibining o'g'li edi. Aristotel falsafasida ham materialistik, ham idealistik qarashlar uyg'unlashgan. U real mavjud olamni tan olgan. U shakl va mazmun haqidagi ta'limotni yaratib, hodisaning mohiyati bilan hodisa qobig'i, ya'ni shaklni o'zaro farqlagan. Mazmun va shakl munosabatini Aristotel dialektik anglagan va izohlagan.

Aristotel asarlarida o'z davri madaniyatining yutuq va kamchiliklarini aks ettirgan. Aristotel falsafaning asosiy muammolariga dialektik nuqtai nazardan qarab, bir qancha fanlarga asos solgan. Butun tabiiy taraqqiyotni u qachonlardir "olamiy aql" tomonidan amalga oshirilgan dastlabki turtki bilan izohlagan.

Aristotelni qadimgi Yunonistonning eng yirik esteti ham deyish mumkin. U "Poetika" - san'at mohiyati va uning jins va turlarga bo'linishi haqidagi asarini yaratdi. Aristotel "Poetika"si san'atning tabiatiga oid keyingi davr barcha ta'limotlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ellin madaniyati (miloddan avvalgi III - I asrlar). Ellinlar dunyoviy madaniyati murakkab va xilma-xil edi. U yunon madaniyatining hamda Yaqin Sharq mamlakatlari madaniyatining uyg'unlashuvidan iborat bo'lgan.

Ellinizm davrida ayrim mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchaydi. Uzoq harbiy yurishlar, savdo maqsadidagi sayohatlar hamda YAqin Sharq mamlakatlariga ko'chish qadimgi yunon va makedonlarning bilim doirasini kengaytirdi: ular Sharq madaniyati bilan avvalgiga nisbatan ko'proq tanishdilar. Ikkinchi tomondan, **Iskandar Zulqarnayn** (Aleksandr Makedonskiy) istilo qilgan mamlakatlarning hamda ellinlar olamiga tutash o'lka xalqi yunon madaniyati bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Miloddan avvalgi IV asr oxirlariga kelib yunonlar orasidagi yangicha dunyoqarash - kosmopolitizm yuzaga keldi. U yunoncha "kosmopolites" - "dunyo fuqarosi" ma'nosini bildirgan. O'tgan klassik davrda har bir yunon o'zini shahar fuqarosi hisoblagan bo'lsa, endilikda ellin polislari keng miqyos egalladi. Shu bois, ellinlar dunyosining keng hududlarida yoyilib ketgan yunonlar - askar, hunarmand va savdogarlar o'z qarashlari polis doirasidan chekkaga

chiqib, tobora kengayib bordi. Natijada ellinlar dunyosida kosmopolitizm muhim g'oyaga aylandi. Bu g'oya esa ellinlashgan ekspluatatorlar mavqeini mustahkamlagan. Ellinlarga xos bo'lgan hodisalar bilan birga butun ellinizm madaniyati Sharqda keng tarqaldi.

Qurolsozlik va arxitektura. Quldorlik jamiyati Sharoitida qurolsozlikning yanada rivojlanishi ellin madaniyatining muhim belgisi bo'ldi. Sharq va yunon tajribasining o'zaro ta'siri mehnat qurollarining va hunarmandchilik usullarining hamda odam va hayvon kuchi bilan harakatga keltiriladigan sodda mexanizmlarning takomillashuviga yordamlashgan. Masalan: ulug' matematik va mexanik olim **Arximed** (taxminan miloddan avvalgi **287 - 212** yillar) ixtiro qilgan richaglar, charxpalaklar har tomonlama qulay bo'lib, bu mexanizmlar harbiy ishda va binokorlik sohasida katta yutuqlar keltirgan. Bu davrda manjanaqlar va toshotar to'plar qo'llanilgan.

Dengiz kemalari ilgariga nisbatan kattaroq qilib yasala boshlangan. Bu kemalar besh va undan ham ko'proq qator eshkakli bo'lgan. Savdo floti kemalari takomillashtirilgan. Ular ko'pincha ochiq dengizda suzar, hatto okeanga ham chiqar edilar. Miloddan avvalgi II asrda yunon **Gippal** Hindistonga kema safari chog'ida ilk bor musson shamolidan foydalangan va shu bilan okeanda ma'lum tomonga esadigan shamol yordamida suzishni kashf etgan. Dengizchilikning rivojlanishi bilan mukammal mayoqlar, port va savdo sohillari hamda ular yonida omborlar va boshqa yordamchi binolar qurilgan. **Kichik Faros** orolidagi mayoq barchaga ma'lum bo'lib, u Misrning Iskandariya portiga boradigan yo'lni ko'rsatib turgan.

Fan va falsafa. Yunonistonda va qadimgi Sharqda to'plangan bilimlarning o'zaro ta'siri, texnika yutuqlari va ellinlar dunyosi bepayon hududlarini amaliy o'zlashtirish bilan uyg'unlashuvi fanlar rivojlanishiga ko'maklashdi. Poytaxtlarda ilmiy markaz va kutubxonalar qad ko'tardi. Misrda Iskandariya, Orontda **Pergam** va **Anshoxi** ellinlar dunyosining ilmiy va madaniy markazlari hisoblangan.

Iskandariyada Ptolemeylar homiyligida g'oyat katta kutubxonaga asos solingan. U yerda ellinlar davrining so'nggi yillari **700** mingga yaqin papirus o'rami mavjud bo'lgan.

Ellin davrida ilm-fan alohida sohaga bo‘linib, tizimlashtirilgan. Aristotelning shogirdi va muxlislari - peripatetiklar tarixi tizimlashtirish jarayoniga yaqqol misol bo‘la oladi. Peripatetiklar falsafiy maktabiga Aristotelning shogirdi **Geofrasta** (miloddan avvalgi **370 - 285** yillar) rahbarlik qilgan. U nafaqat faylasuf, balki ko‘pqirrali olim ham edi. U “botanikaning otasi” deb nom chiqargan. Geofrastadan keyin maktabni Straton boshqardi. Qadimda u “fizik” laqabini olgan. Straton fizik hodisalarni tadqiq qilishda eksperiment usullarini qo‘llagan. Uning shogirdlari orasida **Aristarx** (miloddan avvalgi **310-230** yillar) ajralib turgan. U yer va boshqa sayyoralar, Quyosh tizimining geliotsentrik (ya'ni sayyoralar Quyosh atrofida aylanishi) to‘g‘risida farazni ilgari surgan. Iskandariyada esa **Yevklid** (miloddan avvalgi III asr) geometriyaning dastlabki poydevoriga asos soladi. U mavjud matematik, geometrik negizlarni asoslab bergan. Shuningdek, Iskandariyada **Museyon** kutubxonasi mudiri kirenalik **Eratosfen** (miloddan avvalgi **275 - 208** yillar) ham faoliyat olib bordi. U geografiya, astronomiya va matematika fanlari bilan chuqur shug‘ullangan. Olim yer Shari aylanasining uzunligini katta aniqlik bilan hisoblab chiqdi va fizik-matematik geografiya asoslarini yaratdi. Eratosfen birinchi bo‘lib “**geografiya**” terminini ishlatgan.

Miloddan avvalgi II asrda nikeyalik atoqli astronom va geograf **Gipparx** yashab o‘tgan. U bir qancha astronomik asboblarni takomillashtirgan va ixtiro qilgan. Kecha-kunduzning baravarligini aniqlagan. Gipparx harakatsiz yulduzlar katalogini tuzgan. Bu katalogdan **900** ga yaqin yoritgich o‘rin olgan. Gipparx Yerdan Oygacha bo‘lgan masofani, Yer va Quyosh massasini aniqlagan va ekvatorni **360**ga taqsimlab, uzunlik va kenglik tushunchasini joriy qilgan. Ellin falsafiy maktabining yana bir asoschisi - **Epikur** (miloddan avvalgi **341 - 272** yillar) **Zenonga** qarama-qarshi o‘laroq, materialistik dunyoqarashni yoqlab chiqqan. Epikur ta'limotiga ko‘ra, odamlar ob'yektiv suratda tashqi olamni sezgilari orqali biladilar. Sezgilarning jamlanishi asosida - umumiy tushuncha hosil bo‘ladi.

Ellin davrida paydo bo‘lib, rivojlangan falsafiy maktablarning o‘ziga xos xususiyatlari shunda ediki, ular qullarga ham insoniy fazilatlar xos, hatto ularda oliy axloq sifatleri va donishmandlik mavjud ekanligini aytib o‘tganlar.

Adabiyot va san'at. Ellin davrida fan sifatida adabiyotshunoslikning kurtaklari - filologik tanqid yuzaga kelgan. Filologlar mantiqiy asosda yunon grammatikasini ishlab chiqqanlar. Iskandariya Museyoni yunon adabiyotining muhim markazi bo'lib qolgan. Iskandariya shoirlarining yetakchisi **Kallimax** (miloddan avvalgi **310 - 240** yillar) Museyon kutubxonasi mudiri va taxt vorisi hisoblangan. U kutubxonada filologik kataloglar tuzgan va olim filolog sifatida faoliyat yurgizgan. Kallimax - mifologiya, tarix, adabiy mavzularda kichik-kichik she'r va dostonlar yozgan. Kallimaxning zamondoshi Feokrit nomi tarixda lirik-dramatik poema - idiliyalar muallifi sifatida qoldi. Bu asarlarda u qishloq va shahar hayotining osoyishta manzaralarini yozgan. Ellin davrining oxiriga borib, haykaltaroshlik mavzusi o'zgarib, asarlarda dahshatli syujetlar va yasamalik namoyon bo'la boshladi. Guruh tarzida ishlangan ikki ajoyib haykal: "*Fornez buqasi*" va "*Laokoon*" da shu holni ko'rish mumkin. Ellin davrining ikkinchi yarmida haykaltaroshlikda ideallashtirilgan klassik shakllarga qaytish kuzatiladi. Miloslik **Afrodita** haykali bu maktabning ajoyib yodgorligi bo'lib, unda ma'budlar qiyofasi klassik shaklda ideallashtirib ko'rsatilgan.

Din. Doimiy urushlar, davlat to'ntarishlari, mulkiy tabaqalanish va sinfiy kurash keskinlashuvi natijasida dinning yangi shakllariga ehtiyoj paydo bo'ldi. Yangi diniy obrazlar yaratishga oid stixiyali jarayon bilan bir qatorda yangi yunon-makedon ellin hukmdorlari uchun maqbul ma'buda va sajdagohlar yaratilgan. Bunda **Ptolemey I Soter** faoliyati alohida o'rin tutadi. Uning buyrug'i bilan yunon va Misr kohinlari Misrga ko'chib kelgan yunon-makedonlar orasida rasm bo'lgan Osiris va Anisga bo'lgan e'tiqodni qo'llab-quvvatladilar. Ana shu asnoda yunon-misr ma'budasi Sarapis yuzaga keldi. Shifokor va olam hukmdori Sarapisga sig'inish ellin Misrida va xorijda keng odat bo'lgan. Bu diniy e'tiqodda sinkretizm xususiyatlari mavjud bo'lib, mistik tusga ega bo'lgan. Dindorlar zikru sano vositasi bilan xayollarida o'zlari e'tiqod qilgan xudo bilan muloqotda bo'lar, ya'ni xayolan ruhiy zavq olardi. Xulosa qilib aytganda, ellin davridagi umumiy madaniy meros jahon madaniyati ming yillar davomida muvaffaqiyat bilan rivojlanib kelayotgan moddiy asosning muhim qismini tashkil etadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Afina quldorlik demokratiyasining asosiy tamoyillari nimalardan iborat edi?
2. Nima uchun aristokratlar sinfi Afina demokratiyasini qo‘llab-quvvatlagan?
3. Nima uchun Gretsiyadagi urush “Peloponnes urushi” deb nom oldi?
4. Ellinizm madaniyati Sharq madaniyatiga qanday ta'sir ko‘rsatgan?
5. “Peloponnes urushi”da Alkiviadning roli qanday bo‘ldi?
6. Nima uchun Iskandar o‘zining Sharq yurishida Panjob (Hindiston)dan ortga qaytishga majbur bo‘ldi?
7. Iskandar harbiy islohotining mohiyati nimadan iborat?
8. Yunonistonda falsafaning mifologiyadan ajralib chiqishi qanday muhim ahamiyatga ega bo‘ldi?

18-mavzu. Qadimgi Rimda davlatchilik asoslari. Rim Respublikasi va uning imperiyaga aylanishi jarayoni

Reja:

1. Rim imperiyasining umumiy tarixi
2. Qadimgi Rimda davlatchilik asoslari.
3. Miloddan avvalgi VI-IV asrlardagi ijtimoiy tuzum.
4. Patriarxal quldorchilikdan klassik quldorchilikka o'tish.
5. Sitsiliyada qullar qo'zg'oloni.

Tayanch iboralar: *Forum, legion, triba, kuriya, plebey, patriitsiy, magistrat, kvirit, komitsiya, senturiya, chek yerlari, "jamoada dalalari", pretor, senezor, legion, dubulg'a, sipar, plium, legat, "detsimatsiya", konfederatsiya, "Uch yuzlar kengashi", "o'ttizlar kengashi", sufet, pun, koloniya, kontributsiya, provinsiya, platsdarm, konsul, samnit, mukan, bruttiy, aristokratiya, oligarxiya, Geliopolis, xalq tribuni, tribiya komitsiyasi, senat, prokvestor, Narbon Galliyasi, demagogik liktor, konsul, nobillar, plebey, veto, publikan, Aventiy tepaligi, fuqarolik senzi, populyarlar, luzitanlar, gladiator, lanistlar, Vezuviy, propretor, donativa, kogorta, mulk senzi, jahon qurbongohi, palatin, yuz yillik urush, triumvirat, komitsiya, legat, prefekt, fisk, erariy, donativa, ergastul, sestersiy, naumaxiya, Palatin, Metsenat, sekulyar. prinsipat, oltin davr, dominant, kuriallar, diotsezlar, yengilmas quyosh, dominus, edikt, berber, prinseps, Kolizey.*

Rim imperiyasining umumiy tarixi **Polibuslar tarixi** bu mil.av 264-146 yillardagi birinchi puni urishlaridan karfagen va krit davlatlarining vayron qilinishiga bo'lgan rim imperiyasi umumiy tarixini to'liq qamrab olgan kitobdir.

Polybius [mil avv 200-118) **Megalopolis** (Arkadiya)da tug'ildan bir taniqli greetsiyadagi mashhur Achaean ligasi vakilining o'g'li bo'lgan. Rimliklarning makedoniya ustidan g'alabasidan keyin, u rimga garov sifatida yuboriladi va u yerda zodagonlar uyida talim oluvchi sifatida 17 yil umri shu tarzda o'tadi. Greetsiyaga qaytib borishgan oldin u yosh scipioning do'sti va vakili sifatida ushlab turishadi.

Uning tarixiy ishlaridan faqat dastlabki 5 jiltli tarix asarining bir necha parcha qismlari saqlanib qolgan. Uni rim tarixgrafiyasining asoschisi sifatida qarashadi chunki u tarixning sabab va natijalarini izchillik bilan yorishga harakat qilgan. Nafaqat u urishlar ketmaktligi yoki voqealarni soda tarzda tahlil qilishni taminlashda muofaqiyatga erishdi, balkim tarix manzaralarini ham birlashtirishga muofaq bo'ldi. Uning tarix asari geografiyaga bog'liq ma'lumotlar, dunyo aholisini(oykumena)ni bilish va historygrafik metodologiyalarni qamrab olishi bilan ham mashhurdir. Shuningdek u polibuslar rim dunyosi kuchini greklarga muqarrar rim qonun qoidalarini qabul qilshning muhimligini ishontirishiga harakat qilishi borasidagi takliflar ham mavjuddir

Voqealarda har bil detallarning amalga oshishi uchun men yetarli darajada qiyin bo'lgan mavzuni tanliyman va yoshu qari umuman hammani mening izchil tariximni diqatlik bilan o'qishiga undayman. Shunchalik qadr- qimmatga ega bo'lmagan yoki azo bo'lmaganlar rimliklarning siyosiy tizimi qandayligini yoki uning manosini tushunmaganlar sifatida salkam 53 yil davomida shunday qaralganmi ? yoki deyarli butun dunyo aholisi(oykumena) va ularning yaka-yu yagona hukumati tarixda bir butun narsa edimi ?

Men ma'lum qilishi maqsad qilgan davrning qanday aqli shoshirib qo'yadigan va shoh spektakllarning namoyish qilinish bu tarixchilarning asosiy mavzusini yaratadigan o'tgan davrning mashhur imperiyalarining mulklari bilan taqqoslasak va holis fikr yuritsakgina bu narsa yaqqol ko'rinadi. Buning uchun ularning loyiq bo'lishligi shuningdek holis fikrlilik va ularni taqqoslashdir

Forslar muayan bir davr mobaynida bulkan imperiya asoschilari bo'lgan lekin ma'lum vaqtdan so'ng osiyo hisobiga o'z chegarasini kenggartitishi nafaqat imperiya xavfsizligiga balki ularning o'zlariga ham haf sola boshlagan.

Lacedaemonianlar ancha yillardan keyin gretsiya boshqaruviga aralasha boshlashgan, kamida buni udasidan ham chiqan lekin uni o'z qo'lida ushlab turish 20 yil davom etgan.

Makedonlar boshqaruvi yevropagacha kengayib bu mintaqada unchalik muhim kasb etmagan hududlar bo'lgan Adriatikadan Danubegacha mavjud bo'lgan

Keyinchali, forslar imperiyasining dunyo bo'ylab kengayishi tufayli ular ham Osiyoda ahamiyatli bo'la boshladi. Lekin hozirda ularning imperiyasi mavjud davlatlar geografik va siyosiy jihatdan eng yirigi sifatida qaralsada ular dunyo aholising katta qismidan ulardan tashqarida yashashgan. Ular Sitsiliya, Sadrina yoki Liviya kabi davlatlarga egalik qilish borasida hech qanday tortishuvga o'rin bo'lmasada G'arbiy yevropaning urishishga moil bo'lgan jangari xalqlari hususida, oddiy haqiqat bilan aytadigan bo'lsak, hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan

Lekin Rimliklar o'zlarini boshqaruvini shunaqangi yo'lga qo'yganki bu nafaqat kichik qismlar balki deyarli butun dunyo aholisi ustidan o'rnatgan va shu vaqtgacha mavjud bo'lgan imperiyalardan ulkanroq lekin kelajakda esa raqobatda vahima tushush kerek bo'lmagan imperiyaga asos solgan.

Ishning bu kursning ko'lami aniqroq ko'rinadi(buning kuchi qaysi bosqichda ega bo'lishi), va izchil tarix mmunosabatidan talaba qanday ajoyib va qancha ko'p maslahatlar tegishi mumkinligi yoritilgan.

Dastlabki bo'lgan dunyoda, aytaylik, yaqona boshqaruvga ega bo'lgan bir necha azolarning boshqarilishi tarqalishi, natijasi, joylashishi; shu sanadan boshlab tarixning birlikga birlashishi, va Italiya va Liviyadagi jarayonlarning Gretsiya va Osiyodagilar bilan chambarschas bog'liq ekonligi kabilari oxirgi biri tugallangunicha asosiy ro'l o'ynagan.

Bu esa sistemali tarixning sanalardan boshlanishini ifodalaydigan mening sabablarimdir

Karfagenlarning rimliklar bilan bo'lgan ganibal urishidagi mag'lubiyati tufayli ular o'zlarining ummumbaShariy hujmlarini beradigan loyihalarni amalga oshirishning muhim davri va bu yurishlarda o'zlarini boshliq sifatida korishga imkon berib bu boshqalarni o'z qo'lida saqlashiga dalda bergan, yurishlarni davom etirish orqali o'z armiyasini greatsiya va markaziy osiyoga qaratgan[.....]

Mening ishim qanday mahsus xususiyatlar, bugungi davr eng ajoyib husuisyatlarini beradi. Taqdir deyarli olamning holtini ma'lum yo'nalishda boshqaradi, ularni bir va bir bir xil nihoya bilan yakunlashga majbur etadi. Shuningdek tarix ham uning ummumiy maqsadlarini bajarish orqali xitobxon uni qo'lga olishgan oldin ish

faoliyatning sentetik manzarasini tasavur qilishi kerak. Qo‘shimchasiga u ayniqsa mening topshirig‘imni o‘z bo‘ynimga olishim takliflar va ruhlantirishlar beradi; ikkinchidan, haqiqatdam mening zamondoshimning hech biri umumiy tarixni yozishni o‘z zimasi olmagani, shu sababdan men uni o‘z qo‘limga olishim uchun bir oz tirishqoqroq bo‘lishim kerak. Buning sababi, men bir necha muayan holat va urishlar borasida katta tajribaga ega bo‘lgan mualliflarni kuzatish davomida, hech qaysisi voqealar jarayoni qachon va qayerda umumiy va har tomonlama vujudga kelganligini va qanday boshlanib qanday tugallanganligini menchalik habardor emas.

Biz bir vaqtlar butun dunyo shalki g‘oyasi anglashdan ko‘ra muayan hodisalar harakatining tarixiy shaklini anglashdan ko‘proq umid qila olaymiz. Bu mayl va tartib mashhur shaharlar tashrif buyurish orqali ketmaktelgida, yoki qo‘shimcha tarzda mazmuni o‘xshash bo‘lmagan natijalarning har bir alohida rejalarga nazar tashlash bilan amalga oshish mumkin. U qo‘shimchasiga tarixni alohida o‘rganadiganlar tomonidan tarixning ko‘rinishini bir butun sifatida adolatli tarzda ega bolishiga ishonishadi, menga tuyulganidek, bir vaqtlar tirik va betakror bo‘lgan hayvonlarning shohidan ma‘lum maqsadda foydalanishning topilganidan keyin bu hodisa va g‘o‘zallikning o‘zi yaratilishiga guhoh bo‘lganining bir sababidandir. Bir qismdan butunigacha bo‘lgan bir necha g‘oyalar olishimiz mumkin lekin bilm va aniq firknini emas. Shu yo‘sinda mahsus tarix butun bilimlarga va uning rostligini boshqarishga bir bo‘lsada o‘z hissasini qo‘shadi. O‘rganish orqali faqatgina biz ularning o‘ziga hos umumiy ko‘rinishini yarata oladigan o‘xshashlik va farqlarini shu yo‘shinda tarixdan foyda va mamnunlikga sazovor bo‘lamiz. Men rimliklarning Italiyadan dengizga chiqishi (Italiya tashqisida davom etirish) birinchi sababi sifatida faydalanaman. Quyidagilar tezlik bilan timezuz tarixiga yaqinlashdi va 129-olimiyada (264-261) bo‘lib o‘tibdi.

Dastlabki ma‘lumotlar umumiy tanishtiruv bo‘lishi mumkin va hodisalarning muqarar shakli garchi holatni bartaraf etishning qisqacha xulosalash va sanalar jihatlarining axamiyatini o‘z ichiga olgan. Agar tushunmaslik va biron bir ochilgan mavzuda totushuv bo‘lsa, ishonich yoki qabul qilish qayidagi holda imkonsizdir. Lekin

qachondir biz bizning kitobxonlarni umumiy hamfikrlik asosida keying hikoyada tinglashiga unday olganmiz.

Miloddan avvalgi **II ming yillik**da Italiyada quldorlik tuzumining paydo bo'lishi. Miloddan avvalgi II ming yillikda, Italiyada, bronza davrida patriarxal urug'chilik tuzumi aholini asosiy jamoa tuzumi hisoblangan.

Miloddan avvalgi **II ming yillik oxiri** - I ming yillik boshlarida Italiya temir asriga o'tdi. Temir mehnat quollarining takomillashuvi (temir omoch), ekin maydonlarini kengaytirish imkonini berdi. Bu bilan chorvachilik ta'minoti uchun qulay Sharoit yaraldi.

Temir asrida qishloqlar shahar tusini ola bordi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Latsioda ularning soni (Rim bilan birga) o'ttiztani tashkil etgan. Aholi bir-biridan mol-mulk hajmiga ko'ra farqlangan. Chunonchi, boy va kambag'allarga tegishli ashyolarning topilishi bunga dalil bo'la oladi. Ijtimoiy hayot murakkablashdi. Urug'chilik aloqalari uzila boshladi. Bolonya, Vey, Sere, Este, Tarent nikropollarida qullar dafn qilingan mozorlar mavjud bo'lgan. Esteda askarlar va qo'llari bog'langan asirlar surati tushirilgan bronza idish topilgan. Bu Italiyada qullarning eng qadimgi tasviridir.

Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida Janubiy Italiya va Sitsiliya yunonlar tomonidan istilo qilindi. Ammo hosildor yerlarni egallash, ya'ni Buyuk Yunon mustamlakasi davri miloddan avvalgi VIII - VI asrlarga to'g'ri keladi. Yunonlarning ilk koloniyasi **Kum shahriga** taxminan miloddan avvalgi **750** yilda **Evbeya Xalkidasi** aholisi tomonidan asos solingan. Sitsiliya orolidagi dastlabki yunon koloniyasi Naksos (miloddan avvalgi **734** yil) edi. Shu qatori axeylar tomonidan Sirakuza (miloddan avvalgi **733** yil) va spartaliklar tomonidan **Tarent** (miloddan avvalgi **706** yil) rodosliklar va kritliklar tomonidan esa, Gela shahriga (miloddan avvalgi **688** yil) asos solingan. Yunonlar tomonidan mustamlaka sifatida bosib olingan **Janubiy Italiya va Sitsiliya** - Buyuk Yunoniston nomi bilan yuritilgan. Yunonlar nafaqat iqtisodiy, madaniy taraqqiyotni, balki Italiya uchun yangi ijtimoiy tuzum, ya'ni quldorlik tuzumini olib keldilar. Iqtisodiy o'sish aholining ijtimoiy tabaqalanishiga olib keldi va Buyuk Yunoniston polislarida ma'lum darajada sinfiy tuzum shakllandi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, quldorlik munosabatlarning shakllanishi Bolqon Yunon polisleri bilan aloqada ro'y berdi. Bu

polislarda ayni vaqtda (miloddan avvalgi VIII - VI asrlar) urug'chilik tuzumi qoldiqlariga qarshi kurash borib, quldorlik tashkil topa boshladi. Jadal ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun ko'plab ishchi talab etilgan. Mehnatga mahalliy aholi jalb qilingan, so'ng qullik asoratiga solingan. Aristokratiya (zodagonlar), katta yer egalari, kema egalari, savdogarlar, ustaxona egalari quldorlar sinfini tashkil qilib, ular erkin fuqaro hisoblangan. Erkin fuqarolarning yana bir qatlami - hunarmandchilik ustaxonalarida mehnat qilib, kichik savdogarlik bilan shug'ullangan va aholining alohida sinfini tashkil etgan. Aristokratiya bilan demokratik ruhdagi o'rtahollar va qul qilingan mahalliy aholi o'rtasida doimiy tengsizlik mavjud bo'lgan. Yunon mustamlakalarida zodagonlar va yangi aslzoda quldorlar manfaatini himoya qiladigan oligarxiya hokimiyati o'rnatilgan. Hokimiyatni qo'liga olgan oligarxiya o'z manfaatlariga mos huquq me'yorlarini ishlab chiqdi. Qonun va huquq kodeksini tuzgan **Lokralik Zalevkning Kampaniyalik Xaronda** haqida qaydlari saqlanib qolgan. Ushbu hujjatlarda qayd etilgan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish Buyuk Yunoniston sinfiy jamiyati va davlat apparati Yuqori darajada shakllanganligidan dalolatdir.

Italiya janubi va Sitsiliyadagi yunon polislari Italiyaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojida muhim rol o'ynagan. Yangi quldorchilik munosabatlarining polis tuzumi shakllari mahalliy italiy qabilalarining tarixiy rivojlanishi jarayonini tezlashtirib, urug'chilik munosabatlari buzilishi, davlatning vujudga kelishi hamda quldorchilik jamiyati shakllanishiga olib keldi.

Bilasizmi?

Apennin yarim orolini Italiya tarjimai yunonlar "buzoqlar mamlakati" deb atashgan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlardagi ijtimoiy tuzum bilan almashishi Italiyada bir necha yuz yil davom etdi. Italiya viloyatlarini urug'chilik tuzumidan ilk sinfiy quldorlik tuzumiga o'tishi, avvalo, etrusk shaharlari va yunon (grek) mustamlakalarida ro'y berdi. Rim va lotin shaharlarida sinfiy tuzum miloddan avvalgi VI asrlarda shakllandi. Samnit, osklar va tog'lik qabilalarda ibtidoiy tuzum uzoq vaqt davom etdi. Ularda davlat

apparatini shakllanishi miloddan avvalgi **IV asrlarda** boshlangan. Urug'chilik tuzumidan quldorchilik tuzumiga o'tishni Rim davlat muassasalarini va jamiyatning rivoji misolida ko'rish mumkin.

Erta Rim jamiyatining asosiy sinflari patriitsiy, plebey va qullar bo'lib, ular bir vaqtda tabaqalarga ajralib, o'zaro ishlab chiqarish vositalari hamda huquqlariga ko'ra ajralganlar: to'la huquqlilar - patriitsiyalar, kam huquqlilar, plebeylar hamda umuman hech qanday huquqqa ega bo'lmagan qullar.

Qullar ahvoli. Miloddan avvalgi **VI - III asrlarda** Rimda qullar mehnatidan dalalar, ustaxonalar va uy xo'jaligida foydalanilgan. Harbiy asirlar, qarzini to'lay olmaganlar qulga aylantirilgan. **326** yilda Rimda qarzini to'lay olmagan qarzdorlarni qul qilishni bekor qilinishidan keyin, harbiy asirlar qullar sinfini to'ldirib turuvchi asosiy manba bo'lib qoldi.

Asir olinganlar eng huquqsiz kishilar bo'lgan. Chunki ularning yaqinlari, qarindosh-urug'lari, ya'ni hech kimi bo'lmagan. Shu sababli sinfiy ziddiyatlar yashirin ko'rinishga ega bo'lgan. Ular mustaqil chiqish qila olmay, yashirin kurash olib borganlar (qochib ketish, mehnat qurollarini buzish va sindirish) yoki yarim erkin va qashshoq aholining chiqishlarida ishtirok etganlar. Jumladan, qullar **Apiy Gerdoniy** hukmronligini tiklash va miloddan avvalgi **460** yilda Kapitoliy qal'asini egallash, IV asr boshida qarzdorlar g'alayonlari, miloddan avvalgi **342** yildagi umumxalq harakatiga qo'shilganlar.

Patriarxal quldorchilikdan klassik quldorchilikka o'tish. Milodiy I asrlarda Rim respublikasining quldorlik munosabatlari taraqqiyoti patriarxal shakldan klassik shaklga o'ta boshlashi bilan farqlanadi. Miloddan avvalgi V - III asrlarda Rim davlati Italiyada olib borgan urushlari natijasida xorijlik qullar soni ko'paygan. Etrusklarning **Veyyami shahri** bilan urushda rimliklar **8** ming asir olganlar va qul qilib sotib yuborganlar. Miloddan avvalgi **306** yilda, **Tit Liviy** guvohligicha, **7** ming samnit qul qilib sotilgan. Biroq Italiya o'ziga bo'ysundirgan qabila va elatlarni erkin qoldirgan, chunki qullar mehnati hali u qadar foyda keltirmagan.

Miloddan avvalgi **III asr boshiga** kelib, egasi ixtiyoridagi buyum sifatida qaralgan qullarni butunlay huquqsiz qilgan yangi qoidalar tarkib topdi. Qul uy hayvonini o'ldirgani yoki mayib qilgani uchun bozor narxida jarima solinib, egasi tomonidan to'langan. Shunday

qilib, huquq normalari rivojida qullar huquqsizligini qonunlashtirish, ularni fuqarolar hayoti va siyosiy hayotdan chiqarib tashlashga intilish koʻzga tashlanadi.

Miloddan avvalgi **IV - III asrlarda** Rim jamiyatida murakkab sinfiy va ijtimoiy tuzum tarkib topgan. Jamiyat erkin kishilar va qullarga boʻlingan. Erkin kishilar oʻz navbatida **nobillar** (Rim senatida senatorlik vazifasini ado etuvchilar), suvoriylar va aholining aksariyati qishloq va shahar plebsi: mayda dehqon va shahar hunarmandlariga ajralganlar. Erkin kishilar ichida kam huquqli guruhlar - ozodlikka chiqarilgan qullar, asoratga solingan shaxslar boʻlgan. Ulardan baʼzilari erkin kishilar bilan qullar oʻrtasida oraliq oʻrin egallaganlar. Ozod qilingan qullarning aksariyati kabi huquqlarga ega boʻlganlar.

Rimliklar avvalroq ham qullar qoʻzgʻolonlarini bostirishlariga toʻgʻri kelgan. Qullar bu yerda miloddan avvalgi **V asr** oxiridayoq birinchi bor qoʻzgʻolon koʻtarishga harakat qilganlar. Ikkinchi Pun urushidan soʻng Italiyaga minglab qullar olib kelingan. Miloddan avvalgi **198** yilda Latsiyada qullar gʻalayoni, **196** yili *Etruriyada*, **185** yili Italiya janubida, *Apuliyada* qullar qoʻzgʻolon koʻtarishga uringanlar. Kichik qoʻzgʻolonlar osonlik bilan bostirilgan. Ammo markaziy va janubiy Italiya, ayniqsa, Sitsiliya orolida qullar ommasining koʻpayib borishi bilan miloddan avvalgi II asrning uchinchi choragida qullarning ozodlik harakati keskin kuchaygan. Miloddan avvalgi **150 - 130 yillarda** rimliklar qullar qoʻshinini toʻldirish maqsadida Pireney yarim orolida iber qabilalariga qarshi urush olib borganlar.

Numansiya bilan boʻlgan urushda (miloddan avvalgi **138-133** yillar) oʻzini qahramonona himoya qilgan Numansiya lashkarlari Rim qoʻshinlarini bir necha bor magʻlub qilganlar. Bu urushlardan birida numansiyaliklar konsul Mansin boshchiligidagi Rim qoʻshinini togʻ oraligʻida qurshab olganlar. Rimliklarni bu tang ahvoldan Mansinning bosh xazinachisi Tiberiy Grakx Semproniy urushni toʻxtatishga vaʼda qilib, numansiyaliklarni rimliklarga yoʻl ochib berishga koʻndirgan. Lekin Rim senati bunday tahqiromuz Shartnomani tasdiqlamagan. Senat Ispaniyaga oʻsha davrda Rimning eng yaxshi sarkardasi Stsipion Emilianni yoʻllaydi. U Numansiyaning qamal qilib, oziq-ovqatsiz qolgan shahar aholisining qahramonona qarshiligini yengadi (miloddan avvalgi **133** yil). Rim qoʻshinining asosiy kuchlari Pireney yarim

orolida band bo'lgan bir vaqtda, Sitsiliyada qullar qo'zg'olon ko'taradilar (miloddan avvalgi **138 - 132** yillar).

Sitsiliyada qullar qo'zg'oloni. Sitsiliyada miloddan avvalgi V - IV asrlardayoq yirik quldorlik xo'jaliklari bo'lgan. Miloddan avvalgi II asrda Sitsiliyalik quldorlar, tarixchi Diodorning fikricha, ko'plab qullarni sotib olganlar. Qullar orasida miloddan avvalgi **130** yillar boshidagi Suriya qo'zg'olonining ishtirokchilari ham bor edi. Miloddan avvalgi **138** yilda ulardan biri, Yevn ismli shaxs Enna shahri hukmdorlariga qarshi fitna uyushtiradi. Qo'zg'olon ko'targan qullar shaharni egallab, egalarining jabr - zulmi uchun ulardan ayovsiz o'ch olganlar. **Yevn** qo'zg'olonchilar yo'l boshchisi qilib saylangan. U o'zini hukmdor **Antiox** deb e'lon qiladi. O'z shohligini "**Yangi Suriya**", qo'zg'olonchilarga esa o'zlarini "**suriyaliklar**" deb atashni buyurgan. Yevn qullar ichidan shoh kengashini tanlab oladi. Kilikiyada tug'ilgan **Kleon** Yevnga qarshi chiqadi. U o'z tarafdorlarini yig'ib, Yevn qo'shinlariga zarba beradi. Qo'zg'olonchilar "Yangi Suriya shohligi" poytaxti **Ennadan** tashqari yana bir necha shaharlarni egallaganlar. Tavromeniya qo'zg'olonchilarning qo'rg'oni edi. Ular mayda erkin dehqonlarga tegmaganlar, hunarmandlarni o'zlariga qurol yasashga majbur etadilar. Sitsiliyadagi qo'zg'olon ta'sirida boshqa joylarda ham qullar g'alayon ko'tardilar. Sitsiliyadagi voqyealarning kengayishidan tashvishga tushgan Rim senati qo'zg'olonni bostirish uchun katta harbiy kuch yo'llaydi. Ammo, dastavval, Rim qo'shinlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Miloddan avvalgi **132** yildagina **konsul Rutiliy** qattiq janglardan keyin avval **Tavromeniya**ni, so'ng xoinlar yordamida Ennani bosib oladi. Qo'zg'olonchilar qo'shinini lashkarboshisi Kleon jangda halok bo'ladi, shoh Yevn esa asir tushib, qiynab o'ldiriladi. Rim qo'shinlari butun Sitsiliya bo'ylab qo'zg'olonchilarni qon qaqshatdilar. Sitsiliyadagi qo'zg'olon bostirilmay, Kichik Osiyoda, Pergam shohligida quldorlik tuzumiga qarshi yangi ommaviy harakat boshlangan.

Pergamda Aristonik qo'zg'oloni. Rim respublikasi bilan yaqin ittifoq bo'lgan Pergam shohlari miloddan avvalgi II asr davomida rimliklarga tobora ko'proq qaram bo'la bordilar. Makedoniya, Yunoniston va Egey arxipelagida Rim bosqini avj olgan sari ko'plab Rim-Italiya savdogar va sudxo'rlari Egey havzasi mamlakatlariga

qatnay boshladilar. Ular soliqlar to‘plash va boj olishni garovga olib, mahalliy hukmdorlarni mablag‘ bilan ta‘minlaganlar, hukmdorlar qarzni qaytarmagan taqdirda ularga qarashli yerlik aholini qul qilib haydab ketganlar. Kichik Osiyo aholisi yunonlar zulmidan norozi bo‘lib, qo‘zg‘olon ko‘targan. Pergam shohligidagi ellinlashgan zodagonlar voqyealarning shu tariqa rivojini oldindan bilib, **shoh Attal III** o‘limidan so‘ng (miloddan avvalgi **133** yil) marhum o‘z vasiyatnomasida shohligini “*senat va Rim xalqiga*” topshirgan deb e‘lon qilganlar. Rim senati Pergam shohining merosini qabul etgan va shohlikni Rimning Osiyodagi viloyati deb e‘lon qilgan. Lekin Pergam aholisi mamlakatda Rim hukmronligini istamas edi. Pergam shohining so‘nggi avlodi - Aristonik xalq noroziligidan foydalangan. U erkin kambag‘allar va qullar harakatiga tayanib, Pergamda hukmronlikni qo‘lga olishga urinadi. U rimliklar va ularning tarafdorlariga qarshi qo‘zg‘olonga chaqirgan. Aristonik qullikka asoslanmagan davlat tuzib, unga “*Geliopolis*” (Quyosh shahri) deb nom berishni, o‘z tarafdorlari Pergam aholisini “geliopolisliklar” deb atashni va‘da qilgan. Ammo Pergamning o‘zidagi, shuningdek, *Efes, Smirna, Milet, Kizik* kabi yunon shaharlarining boy zodagonlari rimliklarni qo‘llab, qo‘zg‘olonga qo‘shilmadi. Qo‘zg‘olonni bostirish uchun konsul Publiy Krass boshchiligida qo‘shin yuborilgan. Qo‘zg‘olonchilar bu qo‘shinni tor - mor keltirib, Krassni o‘ldiradilar. Ko‘p vaqt o‘tmay, yangi Rim qo‘shini tuziladi. Unga ellinlashgan shohliklar - *Pontiya, Vifin, Paflagon, Kappadokiya* o‘z qo‘shinlari bilan, shuningdek, yunon shaharlarining bo‘linmalari ham qo‘shilib, katta kuch to‘planadi. Aristonik qo‘shini bo‘lib o‘tgan jangda yengilib, uning o‘zi Strantonikeyga qochadi, ammo u yerda asir tushib, Rim qamoqxonasida vafot etadi. Geliopolisliklar qo‘zg‘oloni bostirilib, Osiyoda quldorlik tuzumi va Rim hukmronligi o‘rnatilgan. Rim respublikasi ellin quldorlarining ishonchini oqlab, butun O‘rta yer dengizida quldorlik tuzumi tayanchi bo‘lib qoldi.

Miloddan avvalgi **130 yillarda** agrar islohot tufayli yuz bergan ijtimoiy kurash (Tiberiy Grakxning siyosiy faoliyati). Miloddan avvalgi II asrda Italiyada ijtimoiy tabaqalanish (ayniqsa mayda erkin dehqonlar sonining kamayishi va ko‘plab qullarning paydo bo‘lishi) Rim nobillarining kelajakni oldindan ko‘ra olgan ba‘zi vakillarini tashvishga solib, ular Rim respublikasining harbiy qudrati zaiflanishi

va eski urf - odatlar inqirozidan xavfsiraganlar. Qullar va shahar kambag'al ommasining o'sib borishi bilan birga oddiy fuqarolar sonini kamayishi rimlik zodagonlarda xavf tug'dirgan. Ular o'z puliga harbiy qurol - yarog' olishga qurbi yetgan va harbiy xizmat o'tashga majbur erkin qishloq fuqarolarining soni kamayib borayotganligi tufayli, legionlarni jangchilar bilan to'ldirish murakkablashadi deb xavotirga tushganlar.

Miloddan avvalgi **140** yilda **Karfagen** g'olibi **Stsipion Emilian** atrofida nobillar va Rimda yashagan yunon zodagonlari vakillaridan iborat to'garak tarkib topgan. Stsipion xotining ukasi **Tiberiy Semproniy Grakx**, yunon tarixchilari **Polibiy, Leliy** va boshqalar bu to'garak a'zolari bo'lgan. Miloddan avvalgi **141 yili** Leliy jamoa ixtiyoridagi yerlarni ijaraga olish huquqini cheklash to'g'risida qonunni senat va xalq majlisi muhokamasiga qo'ymoqchi bo'ldi. Lekin uning bu ishi ko'plab yer egalarida norozilik tug'dirib, Leliy qonun loyihasini qaytib olishga majbur bo'ladi. Qullarning ahvoli uzoq yillar davomida og'irligicha qolib keta vergan.

Miloddan avvalgi **120 yillarda** Rimda ijtimoiy kurash (Gay Grakxning siyosiy faoliyati). Miloddan avvalgi **125** yili agrar islohot tarafdorlaridan - konsul Mark Fulviy Flakk islohot tarafdorlari doirasini kengaytirish maqsadida Rimga qo'shni italiya qabilalariga Rim fuqarosi huquqlarini berish to'g'risida qonun loyihasi kiritishni taklif qilgan. Ammo senat bunga qarshilik ko'rsatgan. **Fulviy Flakk Sizalp** Galliyasidagi qo'shinga qo'mondon qilib jo'natilib, uning qonun loyihasi esa rad etildi. Buning natijasida Askul va Fregelli shaharlarida qo'zg'olon ko'tarilib, bu qo'zg'olonlar harbiy kuch yordamida bostirildi. Miloddan avvalgi **124** yili Tiberiy Grakxning ukasi - dovyurak va g'ayratli siyosiy arbob, ajoyib notiq Gay Semproniy Grakx (miloddan avvalgi **153 - 121** yillar) Sardiniya orolidan qaytadi. Islohot muxoliflari bir vaqt **Gayni** Sardiniya oroliga vaqtincha Rim noibi (prokvestor) qilib yuborilishiga erishgan edilar. **Gay Grakx** ustidan uyushtirilgan sudda u yutib chiqib, xalq tribuni lavozimiga nomzodini qo'yadi. Miloddan avvalgi **123 yili** (Rim ta'sis qilinganligining **630** yilligi) xalq tribuni qilib, **122 yili** esa qayta saylangan. Akasi uchun qasos olish va islohotni yakuniga yetkazishga qasam ichgan Gay Grakx o'zi va islohot tarafdorlari uchun qulay siyosiy vaziyat yuzaga kelishini bir necha yil kutdi. Xalq tribuni qilib

saylangach, Gay Grakx siyosiy faoliyatini senatdagi nobillarning muxoliflarini bir guruh qilib uyushtirishdan boshlagan. U suvoriylar, korchalonlarning, ya'ni viloyat aholisidan soliq va o'lpon yig'uvchi publikanlarning asosini tashkil etgan va senat tayinlagan viloyat noiblariga qarshi bo'lgan sudxo'r va savdogarlarning uni siyosiy jihatdan qo'llab - quvvatlashlariga roziligini olishga muvaffaq bo'lgan.

Aka-uka Grakxlar boshchilik qilgan agrar islohot harakati muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Grakxlarning yer mulkini bir qo'lda jam bo'lish jarayoniga xalaqit berish yoki uni to'xtatish, xonavayron bo'lib borayotgan mayda erkin dehqonlar tabaqasini shu balodan qutqazish va shu bilan Rim davlatining ijtimoiy bazasini tiklash yo'lidagi urinishlari natija bermadi. Kichikroq yeri bo'lgan mayda yer egalari xonavayron bo'lavergan, chunki ular tekin qullar mehnatiga teng raqobatlasha olmaganlar. Aslida Grakxlar faoliyatidan Rim savdogarlari va sudxo'rlari yutgan, xolos. Bu guruh vakillari pul evaziga katta yer mulklarini egallay boshlaganlar.

Spartak qo'zg'oloni (miloddan avvalgi 74-71 yillar). Sullaning o'limidan keyin hokimiyat biroz uning izdoshlari qo'lida bo'lsa-da, uni saqlab turish tobora og'irlashgan. Rim va Italiya aholisining katta qismi Sulla va uning tarafdorlariga dushmanlik nazari bilan qaragan. Rimda Sulla o'rnatgan tartibdan norozi suvoriylar, sullachilar qatl etilgan va talanganlarning qarindosh-urug'lari, plebsning vakillari norozi bo'lganlar.

Sulla o'limidan keyin tez orada konsul **Mark Emiliy Lepid** taklifi bilan Rim plebsining eng kambag'al qismiga g'alla tarqatish udumi yana odat bo'ldi. Ammo senat xalq tribunlarining huquqlarini tiklash va Sullaning boshqa bir qancha qarorlarini bekor qilish to'g'risida Lepidning takliflarini rad qildi. Xuddi shu vaqtda Etruriyaning mahalliy aholisi Sulla legionlarining faxriy jangchilariga bo'lib berish uchun tortib olingan yerlarni qaytarishni talab qilib qo'zg'olon ko'taradi. Lepid bu qo'zg'olonni bostirish bahonasida **Etruriyaga** yo'l oladi, ammo u yerda qo'shin to'plab, Rimga yurish qiladi (miloddan avvalgi 77 yil).

Jang shahar ichidagi **Mars** maydonida boshlangan. **Gney Pompey** qo'shinlari Lepid otryadlarini yakson qiladi va uning o'zi uzoq vaqt o'tmay vafot etadi. Uning tarafdorlaridan biri - **Mark**

Perperna qo‘shinning qolgan-qutgan qismiga bosh bo‘lib, Ispaniyaga jo‘naydi. Bu yerda populyarlar hukmronligi vaqtida (miloddan avvalgi **83 yil**) **Luzitaniyaga** noib qilib tayinlangan **Kvint Sertoriy** sullachilarga qarshi kurash olib borayotgan edi.

Sertoriy miloddan avvalgi **81 yili** Sulla yuborgan odamlardan qochib, Afrikaga ketishga majbur bo‘ladi, ammo ikkinchi yili, ya‘ni miloddan avvalgi **80 yilda** Pireney yarim oroliga qaytib kelib, Sulla noibiga qarshi ko‘tarilgan luzitanlar qo‘zg‘oloniga boshchilik qiladi. U ikki Rim noibining qo‘shinini yengadi va Rim muhojirlari hamda Afrika va iber jangchilaridan kuchli qo‘shin tuzib, sullachilarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib boradi. Qo‘zg‘olon butun Pireney yarim oroliga yoyiladi (miloddan avvalgi **79 yil**).

Sertoriy **Osku** (hozirgi Ueska) shahrini o‘z qarorgohiga aylantirib, **300** ta vakildan iborat senat tashkil qilgan. Magistratlar saylangan. Eng muhim lavozimlarga faqat rimliklar tayinlangan, ammo mahalliy aholi, ayniqsa, iber qabilasi zodagonlariga nisbatan adolat bilan ish ko‘rgan, shuning uchun ham u iberlar orasida katta obro‘ qozongan.

Sertoriy Ispaniyada o‘ziga ittifoqchilar orttirishga intildi. Miloddan avvalgi **73 yilda** u Rim respublikasiga qarshi urush boshlagan podsho Mitridat Pontiyskiy bilan avval sulh, so‘ng ittifoq tuzgan.

Sertoriyning bu harakatlaridan Rim respublikasini idora qilgan sullachilar oligarxiyasi qattiq tashvishga tushadi. Emiliy Lepid isyonini bostirishda o‘zini ko‘rsatgan. Gney Pompey kuchli qo‘shin bilan Ispaniyaga yo‘llandi. Lekin, dastavval, u mahalliy aholi qizg‘in qo‘llab-quvvatlagan Sertoriy qo‘shinlaridan mag‘lub bo‘lgan. Ammo Sertoriyning iber aholisi bilan yaqinligi uni halokatga olib keldi. Emiliy Lepid, lashkarboshi Mark Perperna va boshqa rimliklar ham Sertoriyning ispan viloyatlaridagi aholi bilan bo‘lgan ishq munosabatini Rim manfaatlariga xiyonat deb bildilar. Miloddan avvalgi **72 yilda** rimliklar tomonidan fitna uyushtirilib, Sertoriy ziyofat vaqtida o‘ldiriladi. Bu voqeya tufayli iberlar Perperna va uning tarafdorlaridan yuz o‘girdilar. **Gney Pompey Perperna** qo‘shinlarini tor-mor keltirib, uni asir oladi va qatl etadi. Pireney yarim orolidagi qo‘zg‘olon bostirilib, Pompey qo‘shini qullarning ulkan qo‘zg‘oloni xavfi oldida turgan Rimga qaytadi.

Miloddan avvalgi **74 yili** butun Italiyada ekin bitmay, ocharchilik boshlangan. Bu esa quldor Rim hukumatining jabr-zulmiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga olib keldi. Qadim zamonning eng katta qullar qo‘zg‘oloni boshlanib ketishiga **Kapuya** shahri gladiatorlar maktabidagi isyon (miloddan avvalgi **74 yil**) turtki bo‘ldi.

Miloddan avvalgi I asr boshlaridan Rimda “*o‘yinlar*” deb atalgan qonli tomosha - yirtqich hayvon urishtirish va gladiatorlar jangi keng tarqalgan.

Miloddan avvalgi II asr oxiri va I asr boshlarida sirk va amfiteatrlar o‘lim bilan tugaydigan ommaviy tomoshalarning biriga aylandi. Jangchilar jinoyatchi va sotib olingan qullardan tanlab olingan. Ularga “*gladiator*” (“qilichboz”) deb nom berilgan. Bu lotincha “*gladius*” (qilich) so‘zidan olingan. Gladiatorlarga talab shu qadar katta ediki, uddaburon korchalon - lanistlar alohida maktablar ochib, ularda gladiatorlar maxsus tayyorlanar, so‘ng ular o‘yin tashkilotchilariga sotilar edi.

Lentul Batiat ismli shaxsga qarashli ana shunday maktablardan biri Kapuya shahrida joylashgan edi. Bu maktabda boshqalar qatori frakiyalik Spartak ham bo‘lgan. Rim yordamchi bo‘linmasida xizmat qilgan Spartak dushman tomoniga o‘tgan, yarador bo‘lib asir tushgan va qochoq sifatida gladiatorlar maktabiga sotilgan.

Spartakni ta’riflab, **Plutarx** bunday yozadi: “... *Spartak ... o‘zining mardligi va jismoniy kuchi bilangina emas, balki aqlu farosati, dilkash va xushfe’lligi bilan ham mavqeyi va taqdiridan baland turgan; u o‘z qabilasining kishisi bo‘lishidan ko‘ra, chinakam ellin bo‘lgan...*”

Tarixchi **Appian** guvohlik berishicha, “*Spartak yetmishga yaqin maslakdoshlarini ozodlikka chiqish uchun tavakkal qilishga ko‘ndirgan. Spartak ularga teatrda hayotini xavf ostiga qo‘ygandan ko‘ra, shu yo‘l ma’qul ekanini uqtirgan*”.

Spartak hamda uning sheriklari qorovulga hujum qilib, ozod bo‘ladilar va Vezuviy tog‘i tomon yo‘l oladilar. Ular shu joyda mustahkamlanib olib, atrofdagi qishloq qullarini ozod qilganlar. Mahalliy hokimiyat tomonidan yuborilgan otryadlar tor-mor etilgan. Shundan keyin unga qarshi Rimdan **3** ming askar bilan **propretor Gay Klavdiy Glabr** yuborilgan. Rimliklar tog‘ yo‘lini to‘sib qo‘yadilar, ammo qo‘zg‘olonchilar uzum novdalaridan narvon yasab,

qoyadan tushadilar va Rim lageriga orqa tarafdin zarba beradilar. Klavdiy otryadi yakson qilinadi. Rim askarlarining qurollari qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Bu jangdan keyin qo'zg'olonchilarning qo'shini tez o'sib, bir necha ming kishiga yetadi.

Qullar qo'zg'oloni janubiy Italiyaning yangi va yangi o'lkalariga yoyildi. Senat qo'zg'oloni bostirish maqsadida ikki legion qo'shin yuboradi. Spartak rimliklarning bu qo'shinini ham yengishga muvaffaq bo'ldi. Rimliklar qo'shidan andoza olib tuzilgan Spartak qo'shinlari Lukoniya va Apuliyaning bir qancha qishloq va shaharlarini ishg'ol etdi.

Qo'zg'olonchilar armiyasi bora-bora **70** ming kishiga yetdi. Sullachilar jabr - zulmi ostida qolgan mayda italiy dehqonlari ham qo'zg'olonchilarga qo'shildilar. Ammo harbiy muvaffaqiyatlar va qo'shinning ko'payib borishiga qaramay, Spartak qudratli davlati - Rim respublikasiga qarshi kurashda muqarrar halokatga uchrashini anglab yetgan. Shuning uchun u sobiq qullar vatanlariga qaytib keta olishlari uchun qo'shinni Apennin yarim orolidan olib chiqishga intilgan.

Spartak qo'shinining asosiy qismi bilan Italiya Sharqiy sohili yo'llaridan shimol tomon yurib, *Sizalpin Galliyasiga* yetib keladi. Ammo qo'zg'olon yo'l boshchilaridan biri - Kriks ular erishgan yutuqlar Rimga hujum qilishga imkon beradi deb hisoblar, shu sababli Kriks va uning hamfikrlari qo'zg'olonchilarning asosiy qo'shidan ajralib, Italiyaning janubida qolishga qaror qildilar.

Qo'shinning ikkiga bo'linishi rimliklarga qo'l keldi. **Miloddan avvalgi 72 yili** senat ikki konsulni qo'shin boshida qo'zg'olonchilarga qarshi yo'llaydi. Konsullardan biri Kriks otryadini Gargana tog'larida tor-mor keltirdi. Kriksning o'zi ham halok bo'ldi.

Shu orada rimliklar **Pont shohi Mitridat**ga qarshi kurash uchun katta kuch ajratishga majbur bo'ldilar. Chunki Mitridat Italiyada qullar qo'zg'olon ko'targanini eshitib, Rimga qarshi uchinchi urushni boshlagan edi (miloddan avvalgi **74 - 63** yillar).

Rim sarkardasi Mark Latsiniy Krass qo'shinlari Bruttiy janubida yarim orolning bir qirg'og'idan ikkinchi qirg'og'igacha kesib o'tgan istehkomlar qurib, Spartak qo'shinining yo'lini to'sib qo'ygan.

Spartakning qurshovni to'g'ridan-to'g'ri yorib o'tishga urinishi natija bermadi. Shundan keyin u "qor-bo'ronli qish kelishi bilan

chuqurni tuproq, shox - shabba bilan ko'mib ... qo'shinning bir qismini... shu yo'l bilan o'tkazib yuborgan...". Plutarx shunday hikoya qiladi. Bu hol **miloddan avvalgi 72 yil dekabri - 71 yil yanvarida** yuz bergan.

Spartak qo'shini **Lukoniyaga** yorib o'tgach, urush harakatlari Italiya janubida davom etdi. Rim senati Krassga yordamga Ispaniyadan Gney Pompey va Frakiyadan Mark Latsiniy Lukull qo'shinini chaqirtirib oldi.

Uchta Rim qo'shiniga qarshi kurashishning iloji yo'qligini tushungan Spartak, **Brundiziy** portini bosib olishga qaror qilib, u tomon yo'l oladi. Bu shahar atrofida uning yo'lini Krass to'sadi. Bu shiddatli jangda rimliklar ustun keldi. Apuliyada Spartak Krass qarorgohiga yorib o'tishda halok bo'ldi, uning qo'shini tor-mor bo'ldi (miloddan avvalgi **71 yil**).

Shimol tomondan yetib kelgan Pompey qo'shinlari qo'zg'olonchilarni parokanda qilib, butkul yakson qildi. Rimliklar qo'lga tushgan qo'zg'olonchilardan shafqatsiz o'ch oldi. Olti mingdan ziyod asir Kapuyadan Rimga eltadigan **Appiy yo'li** bo'yidagi xochlarga mixlab qo'yildi.

Qullarning Spartak boshchiligidagi qo'zg'oloni italiy ijtimoiy munosabatlarni va Rim quldorlik respublikasi davlat apparati tizimini larzaga keltirdi. Uzoq yillar davomida rimliklar Spartak ismini qo'rquv bilan tilga olsalar, ba'zi Rim va yunon tarixchilari esa uni qullar qo'zg'oloni yo'l boshchisi, botir sarkarda kabi halok bo'ldi deb hurmat bilan eslaydilar.

Spartak o'z qo'shinlarini Rim legionlari tarzida tashkil qilgan. Har tomonlama puxta tuzilgan qo'shin rimliklarga qarshi ko'p yillik kurashga bardosh bergan. Sitsiliyada avvalroq ro'y bergan qo'zg'olonlar sardorlari o'zlarini podsho deb e'lon qilgan bo'lsalar, Spartak bunga intilmadi. U o'z jangchilariga qimmatbaho buyumlar, oltin, kumush yig'ishni man qilgan, qurol-yarog' yasash uchun zarur mis va temirgina sotib olgan.

Lekin **miloddan avvalgi 74-71 yillar** qo'zg'oloni - stixiyali qo'zg'olon edi. Qo'zg'olon yo'l boshchilari, birinchi navbatda, Spartakda aniq reja yo'q edi va u davr Sharoitida bo'lishi ham amri mahol, albatta. Spartak qo'zg'olon ko'targan qullarni Apennin yarim orolidan olib chiqib, vatanlariga yetib olishlariga imkon tug'dirishga

harakat qilgan. Qo'zg'olonning boshqa yo'lboshchilari (masalan, Kriks) Spartakning bu maqsadiga qo'shilmagan. Bu narsa ikkilanish, kelishmovchilik keltirib chiqarib, qo'zg'olonchilar lagerini zaiflashtirdi. Shunga qaramay, qullarning ulug' italiy qo'zg'oloni Rim jamiyati va davlatining keyingi rivojiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatgan.

Rim quldorlari oldida qullarning yana yangi qo'zg'oloni xavfidan quldorlar sinfining hukmronlik mavqeyini saqlash va mustahkamlash masalasi turar edi. Magistratlari almashinib turadigan, muntazam qo'shini va amaldorlar boshqaruvi bo'lmagan respublika tuzumi endi hukmron sinf talabiga javob berolmay qoldi. Uni kuchliroq harbiy diktatura tuzumi bilan almashtirish zamon talabiga aylandi.

Yuliy Sezar. Rim imperiyasining paydo bo'lishi. Triumvirat davri. Sulla oligarxiyasining inqirozi va Rimda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik barham topishi natijasida respublika hayoti so'nib bordi. **Miloddan avvalgi 74-71 yillarda** Italiyada bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar mamlakatdagi vaziyatni keskinlashtirib yubordi. **Miloddan avvalgi 70 yili** konsul etib saylangan Gney Pompey va Mark Krasslar Rim siyosatida o'z o'rinlariga ega edilar. Pompey qo'l ostida Rimning **11** legioni va harbiy floti bo'lsa, Krass Rim mudofaasining bosh qo'mondoni etib tayinlanadi. Pompey Sharqqa yurish qilgan vaqtida Rimda siyosiy kurash avvalgidan yanada avj oladi.

Bu davrda siyosiy sahnaga Gay Yuliy Sezar chiqdi. **Miloddan avvalgi 65 yili** Yuliy Sezar Rim sudida qonunlarni tuzish vazifasida ishlagan. U miloddan avvalgi **101** yilning **12** iyulida tug'ilgan. Yuliylar urug'i qadim patritsiylar avlodidan hisoblanib, miloddan avvalgi II asrga kelib Yuliylar kambag'allashib, Rim siyosiy hayotidagi mavqeyi tushib ketadi. Sezarning ammasi Gay Mariyning rafiqasi bo'lib, shu bois u Mariy qo'lida bir necha yil xizmat qiladi. Keyinchalik **Sezar Mariyning do'sti - Korneliy Sennaning** qiziga uylanadi. Sulla unga xotinidan ajralishni taklif qilganida, Sezar bu taklifni rad etib, shundan so'ng u bir oz vaqt yashirinib yurishga majbur bo'ladi. Avf etilganidan keyin Italiyadagi Rodos oroliga ixtiyoriy surgunga ketib, u yerda tahsil oladi.

Sulla vafotidan so'ng Sezar Rimga qaytadi. Pompeyning qo'llab-quvvatlashi bilan siyosat olamida obro' orttiradi. Yuliy Sezar muomalasi, o'tkir aqli va biyron tili hamda notiqligi bilan tanilgan edi. Ayniqsa, Sezarning **Gay Mariy** bilan qarindoshligi plebeylar

ommasiga ma'qul kelgan. Sezar kurul edili sifatida Mariy g'alabalari Sharafiga o'rnatilgan yodgorliklarni tiklagan, shuningdek, kambag'allar uchun hashamatli to'y-tomosha va jamoat ziyofatlari uyushtirgan.

Miloddan avvalgi 63 yili birinchi konsul lavozimiga Mark Gulliy Sitseron, ikkinchisiga esa Lutsiy Sergey Katilining do'sti Gay Antoniy saylanadi. Bu vaqtda Rimda Katilining ta'siri kuchaygan edi. Rimda qarzdorlar masalasi tobora jiddiy ko'rinish olgan. Alohida xonalarni ijaraga beradigan katta uy egalari bilan ijaraga yashaydigan kambag'allar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib ketdi. Katilina bu vaziyatdan foydalanadi. Miloddan avvalgi **63** yili u konsullikka nomzodini qo'yadi. Shu bilan birga xalqqa senat huquqlarini cheklash to'g'risida va'da beradi.

Ammo konsullar saylovida Sitseron Katilini qattiq tanqid qiladi. Shuningdek uni fitna uyushtirishda ayblab, majlisdan chetlashtiradi. Qonuniy yo'l bilan konsul bo'lolmagan Katilina hokimiyat uchun kurashdan qaytmadi. Unga yordam berish maqsadida Manliy Etruriyada qo'zg'olon ko'taradi. Ammo ko'p o'tmay **Katilina Pistoniya** shahri yonidagi jangda kichik otryadi bilan halok bo'ladi.

Pompey va Krasslarning qo'llab-quvvatlashlari natijasida miloddan avvalgi **59** yili Sezar konsul lavozimiga tayinlanadi. Yuliy Sezar konsullik davrida ittifoqchilari Krass va Pompeyni viloyat prokonsullari vazifasiga tayinlagan.

Krass Suriya va unga qo'shni viloyatlar hamda o'n bitta legion yig'ish, Pompey Ispaniyaning ikki viloyatini, shuncha legion yig'ish, Yuliy Sezar **Sizalp Galliyasi** va **Illiriyani** boshqarish hamda legion yig'ish huquqiga ega bo'ldi. Birozdan keyin u o'ziga Narbon Galliyasini ham qo'shib oldi.

Miloddan avvalgi **59** yilda Sezar siyosiy **tovlamachi Klodiy** bilan inoqlashgan. Klodiy shahar kambag'allaridan otryad tuzib, xalq majlisida boshchilik qilgan. Uning drujinalari triumviratga (uchlik) qarshi chiqqan har bir kishini majlisdan haydab chiqargan. Klodiy Yuliy Sezarning siyosiy mavqeyini tiklashda katta yordam berdi. Sezar shu tufayli Rimda nom qozondi. U yangi yer va qullarga ega bo'lish maqsadida gall zodagonlariga tayanib, miloddan avvalgi **58** yili **Sizalpin Galliyasiga** bostirib kiradi. Miloddan avvalgi **58-56** yillarda u **Reyn** bilan Alp tog'laridan to Pireney sohillarigacha bo'lgan

hududlarni Rim hukmronligiga bo‘ysundiradi. **Miloddan avvalgi 55-54 yillarda** Sezar dengizdan o‘tib, Britaniya oroliga bostirib kirishga muvaffaq bo‘ldi.

Bu vaqtga kelib Rimda siyosiy vaziyat o‘zgargan. **Miloddan avvalgi 57 yili** senator Sitseron surgundan qaytib kelgan. Triumvirat zaiflashib, qulash xavfi ostida bo‘lgani uchun ham Sezar Pompey va Krass bilan shaxsan uchrashishga erishadi.

Triumvirlar miloddan avvalgi **56 yili** *Lukka* shahrida yig‘iladi. Bu uchrashuvda siyosiy ittifoqchilar bundan keyin amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar to‘g‘risida kelishib oldilar. **Pompey bilan Krass** o‘z lavozimida qoladigan bo‘ldi; viloyatlarni boshqarish muddatini ular yana besh yilga, miloddan avvalgi **50 yil** oxirigacha uzaytirdilar.

Sezar Galliyada og‘ir muammolarga duch keldi. **Miloddan avvalgi 52 yili** gall aholisi rimliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Ammo Sezar qo‘zg‘olonni bostirishga muvaffaq bo‘ladi. Sezar Galliyadagi urush davrida o‘n uch legiondan iborat o‘ziga sodiq yirik qo‘shinga ega edi. Bundan tashqari u g‘oyat katta boylik orttirgan. Sezar o‘z askarlariga Rim lashkarboshilariga nisbatan ikki marotaba ko‘p xaq to‘lagan. Shunday qilib, Sezarning Italiya va Rimda ishonchli tarafdorlari bor edi.

Yuliy Sezar diktaturasining o‘rnatilishi. Uning ichki va tashqi siyosati. **Miloddan avvalgi 49 yilga** kelib Rimda Pompey hokimiyatni o‘ziga og‘dirishga muvaffaq bo‘ldi. U Sezarga qarshi siyosat yuritdi. Shu bois Sezar va Pompey o‘rtasida adovat yuzaga keldi. Sezar Rimga yurish boshlaydi. Uning qo‘shini son jihatidan kamligiga qaramay, hujum qo‘qqisidan uyushtirilganligi bois, Pompey va uning tarafdorlari hech qanday qarshilik ko‘rsata olmadilar va Rimdan Brundiziyga qochib ketdilar. Sezar Rimni ishg‘ol qiladi, Pompey esa Ispaniyaga jo‘naydi. **Miloddan avvalgi 49 yilning** oxiriga kelib Pompeyning Ispaniyadagi qo‘shini Sezar tomonidan mag‘lubiyatga uchratiladi. Sezar Ispaniyadan Italiyaga qaytayotib, yo‘l-yo‘lakay Massiliyani ishg‘ol qildi. U Rimga qaytib kelgach, o‘zini diktator deb e‘lon qildi. Sulla zamonida ta‘qib qilingan fuqarolar huquqini qayta tikladi. Konsul etib saylangan Sezar o‘z o‘rniga Mark Antoniyni qoldirib, o‘zi dushmanning asosiy kuchi to‘plangan Illiriyaga yo‘l oladi. Miloddan avvalgi **48 yilda** Sezar *Dirraxiya*

yonida jangda mag'lubiyatga uchrab, chekinishga majbur bo'ladi. Pompey Farsal shahriga qadar uni ta'qib qilib boradi, so'ngra ular o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi. Sezar dushmanni tez fursatda yengishga harakat qiladi. Madad kuch kelishini kutmay jang boshlagan Pompey jangda yengilib, qochishga erishadi. Dushman parokanda bo'lib, bir qismi asir tushadi. Pompey esa avval Lesbos orolida yashirinadi, so'ng Suriya orqali Parfiyaga o'tib, Sezarga qarshi kurash boshlash niyatida bo'ladi. Ammo **Farsal** yonidagi jang xabari unga yetib keladi. Pompey Suriyada qolishi xavfli bo'lgani uchun, Misr shohi taklifi bilan Misrga yo'l oladi. Pompey kemadan tushishi bilan, shoh uni qatl qildiradi.

Afrikadagi urushlar tugagach, Sezar dabdaba bilan bayram tantanalarini o'tkazdi. Ammo Pompeyning ikki o'g'li - Gney va Senet Ispaniyada yana lashkar to'pladilar. **Miloddan avvalgi 45 yilda Mund shahri** yonida Sezar va uning muxoliflari o'rtasida janglar bo'lib o'tdi. Jangda Gney halok bo'ldi. Senet Shimoliy Ispaniya tog'lariga qochishga muvaffaq bo'ladi. Rimga qaytgan Sezar mangu diktator deb e'lon qilinadi. Sezar avvalroq ko'pgina mansablarni qo'lga kiritgan, **miloddan avvalgi 63 yili** u Oliy Kohin lavozimi, **miloddan avvalgi 48 yili** xalq tribuni, miloddan avvalgi **46 yili** sensor huquqiga ega bo'lgan edi. Shunday qilib, Respublika barcha magistratlik huquqi uning qo'lida jamlangan. Bu uning cheksiz hokimiyatga ega bo'lishiga olib keldi. Sezar vakolatidan foydalanib, senatni o'z tarafdorlari hisobiga ko'paytirib, senatorlar sonini **900** taga yetkazdi.

Miloddan avvalgi **44 yilda** Sezar munitsipiyalarni o'zi boshqarishi to'g'risidagi qonunni e'lon qildi. Ayni vaqtda **Sezar Sizalpin Galliyasi va Ispaniya shaharlari**, O'rta yer dengizi sohili shaharlari va bir necha koloniyalarga munitsipiya huquqlarini berdi. Rim va viloyatlarning o'zaro aloqasi mustahkamlandi. Savdo ishlari va poytaxtga oziq-ovqat keltirishni yengillashtirish maqsadida, Sezar ko'rsatmasi bilan Rim osti porti yanada chuqurlashtirilgan.

Rimda ilk marotaba oltin pul - dinoriy zarb qilinib, unga diktator surati tushirilgan. Dinoriy tezda Rim, Italiya va G'arbiy O'rta yer dengizi viloyatlarida yagona pul birligiga aylandi. Viloyatlar aholisidan soliq yig'ishni tartibga solish chora-tadbirlari amalga

oshirilgan. Publinonlar faqat vositali soliqlarni yiqqanlar. To'g'ri soliqlarni esa shaharliklar o'z vakillari orqali olganlar. Sezar ko'rsatmasi bilan kalendar isloh qilingan. **Miloddan avvalgi 45 yil 1 yanvardan** boshlab eski qamariy yil bekor qilinib, yil hisobi quyosh harakati asosida yuritilgan. Mana shu Yuliy yil hisobi Rim imperiyasining keyingi davri mobaynida ham ishlatilgan.

Miloddan avvalgi 44 yili Sezar YAqin Sharqqa yurishga tayyorgarlik ko'radi. Uning eng yaqin do'sti Mark-Antoniylar shohlar tojini kiydirmoqchi edi. Ammo bu nobillar o'rtasida yangi fitna paydo bo'lishiga olib keldi. Bu fitnaga **Mark Yuniy Brut va Gay Kassiy Langin** boshchilik qilganlar. Ularning maqsadi Sezarni o'ldirib, eski respublika tuzumini tiklashdan iborat bo'lgan. Sezarni o'ldirish rejasi mufassal o'ylangan bo'lmasa ham, aniq ijro etildi. **Miloddan avvalgi 44 yil 15 martda** ogohlantirishlariga qaramay, Sezar Sharqqa yo'l olish oldidan senat majlisiga keladi. Shu yerda u fitnachilar tomonidan o'ldiriladi.

Majlisda hozir bo'lgan senatorlar qochib ketadi. Natijada fitnachilar yakkalanib qolib, respublika tuzumini e'lon qilish o'rniga Kapitoliyga qarab yuradilar. Sezar Antoniylar va Eliliylar tomonidan dafn etiladi.

Respublika tuzumining qulashi va Rimning imperiyaga aylanishi. Sezar o'limidan so'ng Rimda vaziyat o'zgarib ketdi. Senatda Sitseron respublikachilar rahbari bo'lib qoldi. Antoniylar senat bilan o'zaro munosabatini yumshatish maqsadida mangu diktatorlik lavozimini bekor qiladi. Ammo senatda respublika va Sezar tarafdorlari o'rtasida viloyatlarga noib tayinlash masalasida nizo yuzaga keladi. Sitseron Antoniylar takliflariga qarshi chiqqan. Antoniylar viloyat noiblarini qayta taqsimlash qonunini komissiya orqali tasdiqlab olgan.

Bu qonunning tasdiqlanishi bilan Antoniylar va senat o'rtasida aloqa buzilishiga olib keldi. Bu orada Ispaniyada Pompeyning o'g'li Senet qo'zg'olon ko'tarib, Sezar noibining lashkarlari uni tor-mor qiladi.

Rimning o'zida esa **Sitseron** Sezarning uzoq qarindoshi Gay Oktavianni, Sezarning vorisi sifatida qo'llab-quvvatlaydi. Sitseron Oktavianni Antoniylar qarshi qilib qo'yib, oqibatda senat Antoniylar respublika dushmani deb e'lon qiladi. Miloddan avvalgi **43 yili** Rim respublika qo'shiniga yosh pretor Gay Sezar Oktavian boshchilik qilgan. U Rimda hokimiyatni qo'lga kiritishga intildi. Miloddan

avvalgi **43** yilning kuzida ikkinchi triumvirat tuzish uchun Sezarning uch izdoshi uchrashadi. Mark Antoniy, **Eliliy Lepid** va **Gay Sezar Oktavian** ikkinchi triumvirat tuzdilar. Ammo ularga qarshi **Sent Pompey** qo'shini kurash boshlab, Sitsiliya, Sardiniya va Korsika orollarini bosib oladi. Shuningdek Sent Pompey Rimga oziq - ovqat keltiriladigan yo'llarni to'sib qo'ydi.

Miloddan avvalgi **42 yili Mark Brutt va Gay Kassiylar** Sharqiy viloyatlarda yangi qo'shin to'plashga muvaffaq bo'ldilar. Bu esa triumviratga xavf tug'dirgan. Ular respublikachilar bilan til biriktirib, o'n sakkizta legion tuzishga erishdilar. Keyin Italiyaga g'arbdan bostirib kirdilar. Ammo respublikachilar triumviratning yigirmata legioni qarshiligiga duch kelib, jangda yengildilar. Shunday qilib, respublikachilar qo'shini **Filippi** yonida yakson etildi. Antoniy Sharqiy O'rta dengiz sohillari, eng boy madaniy viloyatlarga ega bo'lsa, Galliya, Illiriya va Ispaniyani boshqarish huquqi Oktavianga topshirildi, **Lepid Oktavian** qo'l ostida qoldi. Oktavian endilikda Sent Pompey bilan kurashishga to'g'ri keldi. Urush miloddan avvalgi **40** yildan miloddan avvalgi **35 yilga** qadar davom etdi. Pirovardida Sent Pompey qo'shinlari tor-mor keltiriladi. Bu vaqtlarda Antoniy **Misr malikasi Kleopatra** bilan avval ittifoq tuzib, so'ng unga uylanadi. **Oktavian** bunga qarshi bo'lib, u senatda Antoniyni qoralab, uni respublikaning dushmani deb e'lon qiladi. Miloddan avvalgi **32** yili Oktavian senat ruxsati bilan Antoniyga qarshi yurish qiladi. O'sha vaqtda ko'pgina Rim o'lkalari Oktavian qo'l ostida edi. Miloddan avvalgi **31 yil** u Antoniy floti bilan ochiq dengizda to'qnash kelib, uni chekinishga majbur etadi. Bu safar quruqlik orqali harakat qilgan Antoniy Oktavian qo'shinlaridan yana yengiladi. Miloddan avvalgi **30 yilga** kelib Oktavian Misr, Suriya va YAqin Sharq mamlakatlarini qo'lga kiritadi. Shu vaqtdan boshlab Oktavian ulkan Rim davlatining yagona hokimiga aylanib, Rim tarixida yangi davr - Rim imperiyasi davrini boshlab beradi.

Prinsipat tartibining vujudga kelishi. Avgust hukmronligi. Antoniy va Kleopatraga qarshi urush Misr istilosi bilan tugaganidan so'ng (miloddan avvalgi **30** yil) Oktavian butun Rim mulklarining yagona hokimi bo'lib qoldi. Miloddan avvalgi **29** yili u Rimga qaytib kelib, dabdabali zafar bayrami o'tkazgan. Tantanalar tugashi bilan xudo

Yanus ibodatxonasi yopiladi. Bu butun Rim davlati tuprog'ida osoyishtalik o'rnatilganligi nishonasi edi.

Oktavian o'zining triumvir lavozimidan tantanali suratda voz kechib, senat va komitsiyadan imperator unvonini oladi. Lekin Oktavian shundan keyin ham davlat hukmdori sifatidagi mavqeyi yetarlicha mustahkamligiga ishonmay, sazor sifatida senatda tozalash o'tkazib, bunda Mark Antoniyning do'stlari va boshqa raqiblarini uning tarkibidan chiqarib tashlaydi, ularning ko'piga urush vaqtida triumvirat dushmanlarining musodara qilingan yerlaridan ajratib beradi. U Rimning oliy hokimi sifatida o'z mavqeyini qonunlashtirishga bir yildan ko'proq tayyorgarlik ko'rdi.

Miloddan avvalgi 28 yil oxirida Oktavian betobligini bahona qiladi, "sog'ayib ketgach", yanvarda (miloddan avvalgi 27 yil 13 yanvarda) senatning avvaldan tayyorlangan kengashini chaqiradi. Unda Oktavian o'zining mamlakatni qanday idora qilayotganligi to'g'risida hisobot berib, fuqarolar urushi butunlay tugaganligi va Rim tuprog'ida osoyishtalik o'rnatilganligi to'g'risida ma'lum qilib, sog'ligi yomonlashganligi tufayli senatdan zimmasidagi vazifalaridan ozod qilishlarini "**iltimos**" qiladi. Ammo senat Oktavian "iltimos"ini qondirmaydi. Oktavian senatning prinsepsi, yagona prokonsul, legionlar bosh qo'mondoni deb e'lon qilinadi. Unga avvallari xudolarga nisbatan qo'llangan *Avgust taxallusi* beriladi.

Senat Oktaviandan Rim legionlari joylashgan eng boy va harbiy - siyosiy jihatdan muhim viloyatlar - Galliya, Illiriya, Makedoniya va Suriyani boshqarishda davom etishni talab etadi. Misr Rim tomonidan istilo qilinganidan keyin u ham Oktavian mulki deb e'lon qilinadi.

Avgust davrida Rim imperiyasi qurolli kuchlarining umumiy soni **300 ming kishiga** yetgan. Avgust tashkil qilgan doimiy Rim qo'shini qariyb to'rt yuz yil turgan. Bu tarixda birinchi muntazam qo'shin bo'lib, Rim imperiyasi hukmdorlari ichki va tashqi siyosatlarida unga tayanib ish ko'rganlar.

Avgustning ichki siyosati. Avgustning ichki siyosati yaqqol ko'rinib turgan sinfiy xarakterda bo'lgan. **Miloddan avvalgi 36 yildayoq Sekst Pompeyning Sitsiliya** davlatini tor-mor keltirganidan so'ng Avgust Sitsiliyada qo'lga tushgan qochoq qullarni jazolash uchun egalariga qaytarishni buyurgan. U qul sotib olgan shaxs 20 yil o'tmay turib uni ozod etishini taqiqlagan qarorni senat orqali chiqartirgan.

Qulni ozod qilgan sohib qul narxining **5%** miqdorida soliq to‘lashi lozim bo‘lgan.

Miloddan avvalgi 10 yilda Avgust taklifiga muvofiq senat qadimgi qonunni tiklash bahonasi bilan yangi qaror chiqarib, unga ko‘ra qul o‘z xojasini o‘ldirsa, voqeya sodir etilganida uyda bo‘lgan barcha qullar va ozod qilingan sobiq qullarning bari qatl etilgan.

Avgust qonunga xilof tarzda qul qilingan erkin kishilarni ozod qilish bahonasi bilan joylardagi qullar qamaladigan qamoqxonalar (ergastullar)ni tekshiruv ostiga olgan. Ammo u qullar bilan xojalar o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlarga hech qachon aralashmagan.

Odob-axloqni yuksaltirish tadbirlari diniy siyosat bilan birga olib borilgan. Avgust, dastavval, shoirlar (xususan Goratsiy) yordamida nikohsizlikka qarshi kompaniya yuritgan. So‘ngra uch va undan ortiq farzandi bo‘lgan fuqarolarga turli imtiyozlar berish to‘g‘risida qarorlar chiqargan. Keyinchalik, bevafoqlik qilgan, axloqsizlik qilganlarga jazo berish to‘g‘risida senat qarorlari e‘lon qilingan.

Tashqi siyosat. Avgustning tashqi siyosati ham ichki siyosat kabi Rim quldorlarining va Sharqiy viloyatlardagi ellinlashtirilgan aristokratlarning hukmron tabaqalari manfaatlarini izchillik bilan himoya qilishga qaratilgan. Bu siyosat Rimga tobe hududlarni kengaytirish va asirlarni ko‘paytirish yo‘li bilan qullar o‘rnini to‘ldirish maqsadini ko‘zda tutgan. Avgust tashqi siyosatda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rgan.

Avgust **miloddan avvalgi 30 yillardayoq Illiriya** bilan Pannoniyada bosqinchilik urushlarini boshlagan. Rimliklar illiriy va pannon qabilalarining tarqoq, ammo qahramonona qarshiligini yengib, Adriatika dengizining shimoliy-Sharqiy qirg‘oqlaridan siljib borganlar. Mark Antoniyya qarshi urush bu siljishni to‘xtatib qo‘ydi, ammo urush tugashi bilan rimliklar yurishni davom ettirdi. Ular tog‘larni oshib o‘tib, Dunay bo‘yiga chiqib, bu yerda yashaydigan mez qabilalarini o‘zlariga bo‘ysundirdilar. **Miloddan avvalgi 12 yilga** kelib rimliklar Dunay daryosining boshidan to Qora dengizga quyiladigan vodiya hukmron bo‘lib oldilar.

Miloddan avvalgi 26 yilda rimliklarning ulkan qo‘shini Pireney yarim orolining shimoliy-g‘arbidagi iber qabilalari - kantabr va asturlar yashaydigan hududiga bostirib kiradilar. Avgustning o‘zi boshchilik qilgan Rim qo‘shini Pireney tog‘lari aholisining kuchli

qarshiligini bostirib, **miloddan avvalgi 25 yil** oxiriga kelib mamlakatni zabt etadi. Minglab kantabr va asturlar qullikka tushib, konlarda metall qazib olish ishlarida ishlay boshladilar.

Ammo oradan bir necha yil o'tgach erksevar qabilalar qo'zg'olon ko'tardilar. Rimliklar bu safar ularga ham dengizdan, ham quruqlikdan hujum qilganlar. Kantabr va asturlar oxirigacha mardonavor himoyalandi. Miloddan avvalgi **19 yili Vipsaniy Agrippa** qo'zg'olonni uzil-kesil bostirdi. Ayni vaqtda rimliklar fuqarolar urushi davrida Sezarning o'limidan keyin Rim hukmronligidan ozod bo'lgan Galliyaning janubiy- g'arbiy qismini yana bo'ysundirganlar. Keyinroq Rim qo'shinlari *Alp tog'i* viloyatlarini ham ishg'ol qilib, aholisini qullik asoratiga soldilar.

Miloddan avvalgi 16 yilda german qabilalari Reyn daryosining chap qirg'og'ida Rim lashkarboshisi Loliy lashkarini tor-mor keltirdilar. Rimliklar o'ch olish maqsadida german qabilalariga tegishli hududga bir necha marta bostirib kiradilar. Rim lashkarboshilaridan **Domitsiy Agenobarb** va **Avgustning o'gay o'g'li Druz** rimliklar *Albi (Oq)* deb atagan katta daryogacha yetib borib, bu yerlik german qabilalarini bo'ysundirganlar. Ammo rimliklar bu o'lkalarda mustahkam o'rناshib qololmadilar.

Sharqiy chegara - Armaniston va Parfiyada muammolar yuzaga keldi: armanlar rimliklar tomonidan tayinlangan hukmdorni haydab yuborganlar, Parfiyada o'zaro siyosiy nizolar avj oldi. **Miloddan avvalgi 4 yili** Yahudiyada rimliklar tazyiqi bilan tayinlangan hokimlar va Rimga qarshi isyon ko'tarilgan. Suriya noibi Kvintiliy Var uni shafqatsizlik bilan bostirgan. Ammo siyosiy muammolar bu bilan barham topmadi.

Milodiy 9 yili Rimda illiriy - pannon qo'zg'olonini bostirilgani munosabati bilan tantanalar o'tkazish chog'ida shaharga xabar yetib keladi: Germaniyada Rim qo'shinining zaiflashganligidan foydalanib, germanlar qo'zg'olon ko'tarishgan. Rim tarafdori deb hisoblangan german oqsoqoli Arminiy Rim noibi **Kvintiliy Varni** aldab, uch legionli lashkari bilan botqoqdan iborat *Tevtoburg* o'rmoniga olib kirib, ularni qismlarga bo'lib, qirib tashlagan.

Avgust umrining so'nggi yillari notinch o'tdi. U ketma-ket harbiy va siyosiy muvaffaqiyatsizliklarga uchradi. Oilasida ham baxtli bo'lolmadi. O'gay o'g'li Druz hamda o'ziga voris qilib qoldirish

niyatidagi ikki nevarasi ham vafot etadi. **44 yil** davom etgan hukmronligining oxiri shunday fojeali bo'ldi. **Milodiy 14 yilda** keksa imperator Avgust Rimga yaqin *Nore* shaharchasida vafot etadi.

Vaziyat shu qadar qaltis ediki, Avgustning xotini Liviya **Druzilla** erining o'limini voris - o'gay o'g'li Tiberiy Italiya shimolidan qaytguniga qadar atrofdagilardan sir tutishga majbur bo'ldi.

Rim imperiyasida Yuliy-Klavdiylar sulolasining imperatorlari davri va prinsipat. I asr boshlarida Rim imperiyasidagi siyosiy inqiroz barham topdi. Senat Tiberiyning Avgustning vorisi sifatida tan oldi. Tiberiy o'z mavqeyini mustahkamlab olish uchun pretorian kogortalarining barini Rimga to'plab, ularga Rim atrofidan qarorgoh qurdirib beradi. Bundan tashqari u tribun va senturiya komissiyalarini chaqirmay qo'ydi, magistratlarni esa senat orqali saylanadigan tartib joriy qildi. Tiberiy moliyaviy tejamkorlik nuqtai nazaridan turli tomoshalarni cheklab qo'yadi. Soliqlar haddan tashqari ko'payib ketganligi tufayli viloyatlarda qo'zg'olonlar ko'tarila boshladi.

Rimliklar Afrikada bosh ko'targan aholiga qarshi kurash (miloddan avvalgi **17 - 24** yillar) olib bordilar. Bundan tashqari, Frakiya, Galliya va Italiya janubida ham qullarning qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Bu xabarlar Rimda sarosima keltirib chiqardi. Rim aristokratiyasi vakillari aholi noroziligidan foydalanishga urindilar. Ular Germaniyani Tiberiyga qarshi gij-gijlaydilar. Germaniy Suriyada vafot etgach, uning nevarasi *Agrippina* aristokratlarga bosh bo'ladi. U erini zaharlashda gumon qilinib, senat qonuniga muvofiq jazoga tortiladi. Tiberiy boshqaruvining so'nggi yillarida Rimdan Kapreya oroliga ketgan, Rimga o'zining noibi sifatida qoldirgan pretoriy gvardiyasining prefekti Seyan fitna qo'zg'ab, hokimiyatni qo'lga olishga harakat qiladi. Bundan ogoh bo'lgan Tiberiy Seyanni qatl ettiradi. Tiberiy **milodiy 37 yili Kapreya** orolida vafot etadi.

Respublikani tiklashga urinish. Tiberiy vafotidan so'ng senat va pretoriy prefekt Germaniyaning kichik o'g'li **Gay Sezar Tiberiy**ni voris deb e'lon qiladi. Uning ismi Koligula bo'lgan. Rim aholisi ichida o'ziga obro' qozonish uchun dabdabali tomoshalar uyushtirgan, jangchi va kambag'al tabaqalariga Rim fuqaroligini bergan. U Tiberiy yiqqan mablag'ni qisqa vaqt ichida sarflab bo'lgan. Kaligula prinsipatining birinchi yili og'ir kasal bo'lib, bu uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatgan. **Kaligula** goh Britaniyaga

yurish qilgan, goh keraksiz inshootlar qurdirgan, goh bo'shab qolgan xazinasini to'ldirish uchun zo'ravonlik bilan pul to'plagan. Bo'shab qolgan xazinasini to'ldirish uchun Kaligula ko'pgina senatorlarning mol -mulkini musodara qildirib, o'zlarini qatl ettirgan. U qullarga o'z sohiblari ustidan shikoyat qilishiga yo'l qo'ygan. Quldorlik negiziga putur yetkazgan bu buyruq Kaligulani halok qildi. Senat aristokratiyasi va pretorianlar gvardiyasi boshliqlari orasida fitna qo'zg'algan. Fitnachilar imperatorni o'ldirib, boshqarishning respublika shaklini tiklash fikriga keladilar. **Milodiy 11 yili** yanvarida Kaligula sirkdan saroyga qaytib kelayotib, *Palatin* tepaligida o'ldiriladi. Senat respublika e'lon qilishga urinsa ham, pretorian harbiylari bunga qat'iyan qarshi chiqdilar. Ular Germaniyaning ukasi Klavdiyni imperator deb e'lon qildilar. Natijada senatorlar respublika tuzumini tiklash fikridan voz kechishga majbur bo'ldilar.

Klavdiy prinsipati (milodiy 41-54 yillar). Klavdiy Rimdagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga uringan. O'zini taxtdan ag'darish uchun bo'lgan urinishga jazo choralari bilan javob qaytargan. Imperator ijozatisiz senatorlarning Rimdan tashqariga chiqishlari man qilinib, ba'zilar qatl etilgan, ba'zilar surgun qilingan. Harbiylar ham, Rim yo'qsullar ommasi ham aristokratlar respublikasi tarafdorlarini qo'llab quvvatlamadilar. Harbiylar va Rimning kambag'al tabaqalari sadaqa va sovg'alar olishdan manfaatdor bo'lgan.

Klavdiy va uning eng yaqin kishilari mavjud siyosiy vaziyatni hisobga olib, senatdagi oppozitsiyaga qarshi kurashda qo'shin va viloyatdagi quldor zodagonlarga tayanib ish ko'rishga harakat qildilar. Klavdiy zodagonlarni o'ziga og'dirish uchun Rim fuqarolik huquqlarini viloyatda tug'ilib o'sgan va shuningdek shahar erkin aholisiga ham bergan.

II asrda Rim imperiyasi. "Oltin davr". Trayan prinsipati (98-117 yillari). **Domitsian** o'ldirilganidan so'ng, senator Koksiy Nerva imperator deb e'lon qilindi. Ammo bu pretorianlar va harbiylarga yoqmaydi. Nerva o'z a'yonlarining maslahati bilan Germaniya legionlarining legioneri **Mark Ulniy Trayanni** o'ziga o'g'il qilib oladi. Trayan Pireney yarim orolida joylashgan Rim koloniyasi Italikdan kelib chiqqan, asli ispan bo'lgan. Trayan Rim taxtini egallagan birinchi ajnabiy edi. U Nerva vafotidan keyin **98 yili** imperator deb e'lon qilinadi. **Milodiy 101 yili** Trayan Dakiyaga qarshi

urush ochadi. Rimliklar har bir joy, har bir tepalikni birin-ketin egalladi. Apula qo'rg'oni yonida ayniqsa shiddatli jang bo'ldi. Shundan so'ng Dakiya poytaxti ham rimliklar tomonidan ishg'ol qilindi. **101 - 107** yillar rimliklar **Dakiya** viloyatlarini bosib olishi bilan mashg'ul bo'ldi. Trayan **113** yili Parfiyaga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'radi.

Trayan parfiyaliklarning o'zaro ichki urushlar bilan bandligidan foydalanib, ularga Sharqdan zarba berish rejasini ishlab chiqadi. **115 yili** urush harakatlari boshlanib ketadi. Trayan qo'shini Dajla daryosini kechib, Fors qo'ltig'igacha yetib keldi. Ossuriya, Mesopotamiya va Bobil Rim viloyatlari deb e'lon qilindi.

Rim senati Sharqda urush olib borilgani uchun Trayanni faxriy unvonlar bilan taqdirladi. **116** yili Rimning Sharqiy viloyatlarida yana qo'zg'olonlar boshlangan. Ayniqsa, Mesopotamiyada, yahudiy shohligida, Shimoliy Misr va Kipr orollarida ular avj oldi. **117 yili** Trayan qo'zg'olonlarni bostirishga erishdi. Trayan Rimga jo'nab ketayotgan vaqtda yo'lda kasallik tufayli vafot etadi.

“Oltin davr” - Antonin Piy prinsipati (**138-161** yy). Adrian vafotidan so'ng, **Tit Avreliy Antonin** imperator qilib saylanib, unga Antonin Piy nomi berildi. Antonin Piyning tarjimai holida u ko'klarga ko'tarilgan, juda ko'p urushlar olib borgan deb aytiladi. Bu urushlar Rim imperiyasining chegara viloyatlari va ularga tutash o'lkalarda olib borilgan. Britaniyada Rim qo'shinlari yangi chegara istehkomlari qurganlar. Sharqiy O'rta yer dengizi sohillaridagi viloyatlarni xonavayron qilgan tabiiy ofat ham jiddiy muammolar keltirib chiqardi. **152 yili** Misr bilan Falastinda qo'zg'olonlar ko'tariladi. Antonin Sharqdagi qo'shinlar bilan tinch yashashga intilgan bo'lsa ham, Trayan yurishida Parfiya shohidan tortib olingan yerlarni qaytarib berishdan bosh tortadi. Antonin Piy vafotidan keyin vorislik uning o'gay o'g'illari Mark Avreliy bilan Lutsiy Ver qo'liga o'tdi. Ular **Lutsiy Ver** vafotiga qadar (milodiy **161-169** yillar) imperiyani birgalashib idora etdilar.

Mark Avreliy prinsipati (169-180 yillar). Mark Avreliy imperiyani idora qilishini boshidayoq jiddiy muammolarga duch keldi va ular hukmdorlikning oxiriga qadar davom etib, shiddatli urushlar davlatni iqtisodiy jihatdan zaiflashtirdi.

Mark Avreliy imperiya yeriga bostirib kirgan qabilalarni qattiq janglardan keyin tashqariga surib chiqarishga muvaffaq bo'lgan. Dunayni kechib, bu qabilalarni bo'ysundirishni niyat qilgan, lekin Sharqiy viloyatlarda ahvolning to'satdan keskinlashuvi tufayli urushni to'xtatib, shoshilinch ravishda Sharqqa yo'l olishiga to'g'ri keldi. Milodiy **175 yilda** tuzilgan bitimga ko'ra markomanlar imperatorning oliy hokimiyatini tan olganlar. Ulardan ba'zilar Rim qo'shinlarida xizmat qilib, chegarada joylashib qolganlar. **172 yili** shimoliy Misrda mahalliy aholi qo'zg'olon ko'taradi. Nil etaklarida podachilar ham qo'zg'olonda ishtirok etganlar. Suriya noibi Avidiy Kassiy kuchli qo'shin yordamida qo'zg'olonni bostiradi. Kassiy o'zini imperator deb e'lon qilish niyatida edi, ammo uning qo'shinlari Mark Avreliy qo'shinlari bilan to'qnashuvidan oldin u o'ldirildi. **180 yili** Rim imperatori Mark Avreliy kasallikdan vafot etgan.

III asrda Rim imperiyasidagi siyosiy inqiroz va Dominat davri. Milodiy II asr oxirlarida Rim hokimiyatini Severlar sulolasi boshqargan (**192 - 235** yillar). Bu sulolaga **Septimiy Sever** asos soladi. Uning davrida Rim viloyatlaridagi munitsiya doiralarning imperiya siyosiy hayotiga aralashishi shahar hududidagi barcha erkin aholiga Rim fuqarolik xuquqlarini berish to'g'risidagi farmon bilan qayd qilingan; bu farmon **milodiy 212 yili Septimiy Severning Korakalla ismli o'g'li - Avreliy Antonin** vaqtida chaqirildi. Severlar sulolasining so'nggi vakili - **Aleksandr Sever (222 - 235** yillar) imperiyaning ichki siyosiy ahvolini mustahkamlash uchun muayyan tadbirlar ko'rgan. U imperiyani idora qilgan davrda huquqshunoslar Rim huquqlari asosini tuzganlar va qonun chiqarishga doir bosh tamoyilni quyidagicha ifodalashgan: *“imperatorga manzur barcha narsa qonun kuchiga ega bo'lishi shart”*.

Aleksandr Sever toifalar tizimini tiklagan va katta yer egalari - zodagonlarga nisbatan dushmanlik siyosatidan voz kechish bilan cheklanmay, balki imperator ixtiyoridagi yerlarning ko'p qismini ularga in'om etgan. U qo'shindagi yordamchi qismlarni mahalliy bo'linmalar bilan to'ldirib, jangchilarga chegara viloyatlardan yer bo'lib bera boshlagan. Aleksandrning bu tadbirlari muntazam qo'shin - legionlarning noroziligiga sabab bo'lib, u o'z sarkardasi tomonidan o'ldirilgan.

Milodiy III asr ikkinchi yarmida german va dunay qabilalarining tazyiqi kuchayib, bu urug‘ va qabilalarni birlashishiga majbur qilgan. Afrikada berber qabilalari *Mavritaniya* va *Namibiyaning* bir qismini bosib olgan. Reynda frank va alman qabilalari ittifoqi vujudga kelgan. Dunayda markoman, sarmat va gotlar Dakianing qatta qismini qo‘lga kiritdilar. Sarmat, alan va ilk slavyan qabilalari Qora dengiz sohillari, Bolqon va Kichik Osiyo viloyatlariga hujum qilib, bu yerlarni xonavayron qildilar.

299 yili Galliya, Britaniya va Ispaniya hududida *Galliya imperiyasi* tashkil topdi (poytaxti Triyer)¹. Katta yer egaligi endi tarkib topa boshladi. Markaziy hokimiyat zaiflashib, siyosiy inqiroz davom etayotgan bir Sharoitda, kuchli xalq harakati qarshisida o‘z qolgan hukmron tabaqalar imperator hokimiyati bilan murosas qilishga majbur bo‘ldilar.

O‘z navbatida **milodiy III asr oxirlarida** imperiyani idora qilgan *“askar”* imperatorlardan Avrelian (270 - 275 yillar) va Prob (276 - 280 yillar) yer aristokratiyasining moddiy manfaatlari bilan hisoblashganlar va mahalliy qabilalardan askar to‘plab, ularni chegaraga yaqin joylashtirganlar. Murosaga kelish og‘ir kechsa ham, viloyatlardagi (separatizm)ni sindirishga, xalq harakatini bostirishga erishganlar. Avrelian gotlarni Dunay bo‘yi viloyatlaridan haydab chiqarib, Italiyaga bostirib kirishga uringan va imperiya birligiga rahna solgan qabilalarni birin-ketin tor-mor etadi. **Avrelian** imperiya poytaxtini xavfdan saqlash uchun Rimni katta qal'a devorlari bilan o‘rab oladi. Bu devor qisman hozirga qadar saqlangan. **273 yili** Avrelian qo‘shinlari Suriyada Palmira markazini ishg‘ol qiladi. U imperiya birligini saqlash maqsadida *“Yengilmas quyosh”* degan davlat dinini joriy qilib, barcha unga e‘tiqod qilishini talab etgan.

275 yili Avrelian fitnachilar tomonidan o‘ldirilgach, uning siyosatini **Mark Avreliy Prob** davom ettirdi². U Rim imperiyasi chegaralarini muvaffaqiyat bilan himoya qilsa ham, jangchilar

¹ History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006

² Sezgin F., Mathematical Geography and Cartography in Islam and their Continuation in the Occident III (volume of Maps), being an English version of vol. XII, Geschichte der arabischen Wissenschaften, Frankfurt am Main 2000.

beboshligini yenga olmagan. **Prob** qo'shin saflarida intizom o'rnatishga urinayotib, jangchilar tomonidan o'ldiriladi.

Dominat davri. 284 yili imperator Diokletian taxtga o'tirib, u **305 yilga** qadar imperiyani idora etdi. Diokletian g'oyat katta imperiyani yakka o'zi idora qila olmasligini tushunib, o'ziga hokimdoslar tayinlagan. Ulardan biri Maksimian Galliyadagi bagaudlar harakati va Afrikadagi **“yovuz” mavritan** qabilalarining qo'zg'olonlarini bostirgan. Diokletian va uning har bir noibi muayyan hududda hokimlik qilgan. Diokletianning o'zi va do'sti **Maksimian** avgust unvonini, ikki noibi esa Sezar nomini olgan.

Diokletian saroyida dabdabali tantanalar o'tkazib, imperator hokimiyatining obro'sini mustahkamlashga harakat qilgan. Imperator bilan salomlashishning alohida tartibi - uning alvon libosi etagini o'pib, **dominus** (uy egasi, xo'jayin) deb murojaat qilish marosimi joriy qilingan. Diokletian o'rnatgan boshqaruv tartibi tarixda **“dominat”** deb nom olgan.

Dominatning tayanchi bo'lgan zodagonlar Diokletianni “oltin davr” otasi deb ataganlar. Shu bilan birga hukumat viloyatlardagi zodagonlarning kuchayib borayotgan ta'sirini kamaytirish maqsadida munitsipal yer egaligini qo'llab-quvvatlagan. Imperator farmonlari (ediktlari) mayda mulkni zo'rlik bilan tortib olishni cheklab qo'ygan. Qarz bergan kishining qarzdor yerini o'zboshimchalik bilan egallab olishi, arzon narxda sotib yuborishi taqiqlangan.

Diokletian imperiyaning ichki birligini mustahkamlash maqsadida qator islohotlar o'tkazgan. Yangi ma'muriy bo'linishga muvofiq imperiya hududi **12** diotsezga, diotsezlar **114** ta viloyatga bo'lingan. Soliq olish ham tartibga solingan. Jon boshi solig'i bilan birga yangi - yer solig'i joriy qilingan. Bu soliq hajmini belgilashda yer, ish kuchi va jonivorlar soni hisobga olingan. Diokletianning moliyaviy islohoti narx-navoning oshishini to'xtata olmagan, chunki muomalaga chiqarilgan, to'la qimmatga ega bo'lgan pullar qadrsizlanib ketgan.

Konstantinning imperatorlik davri (306-337 yy.). Diokletiandan keyin taxt uchun kurashda sezarlardan birining o'g'li - Konstantin g'olib chiqdi. U Sharqiy viloyatlardagi zodagonlarga tayanib ish ko'rgan va jamoalarning qo'llab-quvvatlashiga erishishga intilgan.

313 yili Konstantin **“diniy e'tiqod erkinligi”** to'g'risida farmon chiqarib, Buyuk Konstantin nomini oladi. Imperator hokimiyati diniy

munozaralarda faol ishtirok etib, hukmron rasmiy cherkov ta'limotini qo'llab - quvvatlagan. Konstantin Vizantiyada yunon koloniyasi o'rnida yangi poytaxt ta'sis qiladi. Bu poytaxt Sharqdagi savdo-sotiq bilan bog'liq zamindor zodagonlarning siyosiy va iqtisodiy tayanchi bo'lib qoldi. Shahar **10** yil davomida qurilib: unda imperator saroyi, ko'shklar, kutubxona va ippodrom bino qilingan¹.

Dominat boshqaruv idoralari Konstantin taxt tepasida bo'lgan davrda tugallangan. Imperiyaning butun hududida yagona ma'muriy taqsimot vujudga keldi. Fuqarolik hokimiyati harbiy hokimiyatdan ajratilib, hokimiyatni zo'rlik yo'li bilan tortib olish imkoniyatiga barham berildi.

325 - 326 yillarda shahar aholisi (kurial)lar istiqomat qilib turgan joyiga birlashtirilgan. **Milodiy 332 yilda** kolonlar uchun yangi farmon chiqariladi. Farmonga ko'ra kolonlar o'z yerini tashlab ketmasligi, shahar hunarmandlari qo'shin va ma'muriyatni mahsulot bilan ta'minlab turishga majbur bo'lgan. Rim va Konstantinopolga g'alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish savdogarlar zimmasiga yuklangan. Shahar kuriallari jamoat binolarini ta'mirlash va soliq to'lamaganlarning qarzini to'lashga majbur etilgan.

Yulianning ijtimoiy va diniy siyosati muvaffaqiyat qozonmadi, uning ko'p farmonlari amalga oshmay qoldi. **Imperator Valentin davrida (364 - 373 yillar)** esa eski Rim aristokratiyasi bilan birga majusiylikka qarshi kurash olib borildi. Majusiylar ommaviy qirg'inga uchrab, xristian dini vakillari ustun keldilar.

Rim imperiyasining parchalanishi va G'arbiy Rim imperiyasining inqirozi. Imperiyaning feodallasuvi. Zamindor zodagonlar dominat davrida o'z mavqiyalarini mustahkamlab olib, qishloq erkin va qaram aholisining turli qatlamlarini ekspluatatsiya qila boshladilar. Aholi qaramlik darajasi ortishi oqibatida erkin va qaram dehqonlarning ahvoli o'zaro tenglashib bordi.

455 yili Rim vandallar tomonidan talon-taroj qilinadi. Italiya varvarlar bilan to'lib toshdi. V asrda varvar askarlaridan iborat qo'shin haq ololmaganligi tufayli joylashish uchun yer berilishini talab qiladi. **476 yili** qo'shin o'z boshlig'i **Odoakrni** qirol deb e'lon qiladi va Rimning so'nggi imperatori **Romul Avgustul** taxtdan ag'darib

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

tashlanadi. Gʻarbiy Rim imperiyasi qulab, quldorlik tuzumiga asoslangan tuzum va ijtimoiy munosabatlarga barham beriladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nima uchun Rim tarixining ilk davrini oʻrganish muammo tugʻdiradi?
2. Ilk Rim respublikasining ijtimoiy-siyosiy tuzumi qanday boʻlgan?
3. Italiyada miloddan avvalgi II - I ming yillikda ilk quldorlik davridagi qullar ahvoli rivojlangan quldorlik davridan farq qilganmi?
4. Nima sababdan Spartak qoʻshinlari va Kriks askarlari ikkiga ajralib ketdilar?
5. Nima uchun milodiy III asr oxirlarida Rimdagi siyosiy vaziyat keskinlashib ketdi?

19-mavzu. Qadimgi Rim madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Qadimgi Rim madaniyati
2. Qadimgi Rimda ilmiy bilimlar.
3. Adabiyot va teatr.
4. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morchilik.
5. Qadimgi Rim madaniyati va xristian dinining vujudga kelishi.

Tayanch iboralar: *travertin, osklar, etrusklar, kloakalar va penatlar, atriya, pontifik, avgur, gloriya, viktoriya, konkordiya, virtus, annallar, stoiklar, epikurchilar, satira, atellan, kolumbariylar, amfiteatr, bazilika, akveduk, grammatika maktabi, ritorika maktabi, museyon, stoitsizm, Xristos, messiya (masih), apokrifik, xarizm, apologiya, Apokalipsis.*

Qadimgi Rim madaniyati Qadim zamonlarda Rim **Tibr daryosi** etagidan 20 kilometr Yuqoridagi chap qirg'oqning qir - tepaliklarini egallagan kichikroq bir manzil edi.

Miloddan avvalgi **VII-V asrlarda** shahar aholisi turli xalqlardan iborat bo'lgan. Shahar aholisining **Palatin** tepaligida yashagan asosiy qismi lotin qabilasiga mansub bo'lib, shu bilan birga Seliy tepaligida samnit qabilasi, Palatin va Kapitoliy tepaliklari o'rtasidagi sohilda etrusklar yashaganlar (shaharning bir qismi keyingi zamonda ham **Tus**, ya'ni **Etrus** mahallasi deb atalgan).

VII asrda bir necha tepalik va ular o'rtasidagi (keyinchalik bozor maydoniga, so'ngra esa shaharning markaziy maydoni - Rim forumiga aylantirilgan) halqob pastlik tosh devorlar bilan qurshab olingan va bir butun shahar jamoasiga aylantirilgan.

Kapitoliy tepaligi shahar markazida bo'lgan. Bu yerda eng e'tibor ma'budlar Sharafiga ibodatxonalar qurilgan. Kapitoliy etagida **Tibr** qirg'og'ida eng qadim zamonlardan lashkar to'planadigan joy bo'lib, xalq majlislari ham shu yerda o'tkazilgan. Urush ma'budi va shahar aholisining nomi bilan bu joy Mars maydoni deb atalgan.

Shaharning Sharqiy darvozasidan forum orqali shimoliy-g'arbga - **Kapitoliy** tomon uzun tosh yo'l qurilgan. Diniy bayram namoyishlari

va zafar tantanalarida g'olib sarkardalar boshida Rim qo'shinlari shu yo'ldan yurib o'tganlar. Bu yo'l Muqaddas yo'l deb atalgan.

Avval boshda shahar uylari xom g'ishtdan qurilib, tomlari poxol bilan yopilgan. Keyinchalik ibodatxonalar, jamoat binolari va boylarning shaxsiy uylari pishiq g'ishtdan solinib, devorlari mahalliy arzon marmar-travertin bilan qoplangan. Tomlari cherepitsa bilan yopiladigan bo'lgan.

Miloddan avvalgi III asr o'rtalaridan e'tiboran yunonlardan namuna olib hashamatli uylar qurila boshlangan, **miloddan avvalgi II - I asrlarda** shaharda ko'p qavatli binolar paydo bo'lib, ularda ayrim uylar ijaraga berilgan. Bu binolar juda omonat qurilib, shaharda tez-tez bo'lib turadigan yong'inlarda kuyib kul bo'lgan.

Qadim zamonda Rim binolari bir-biriga yopishib turgan, ko'chalar egri-bugri labirintdan iborat bo'lgan. Ko'pchilik ko'chalarga tosh yotqizilmagan, ular yomg'irda yurib bo'lmaydigan botqoqqa aylangan.

Axlat va iflos suvlarni oqizib yuborish uchun Rimda miloddan avvalgi VI asr oxirlarida yer tagidan katta quvur - *kloaka* o'tkazilgan¹. **Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda** etrusk hunarmandlari Rim hunarmandlariga metallsozlik kasbini o'rgatganlar. Rimliklar qurilish san'atining asosiy usul va tamoyillarini, shuningdek, arxitekturaning muhim xususiyatlarini ham etrusklardan o'rganganlar.

Zodagonlar kiyadigan kiyimlarda, dabdabali mebel yasashda, bir qancha urf-odatlarini, diniy marosimlar, xususan, qurbon qilingan jonivorlarning ichak-chavog'i va qushlarning uchishiga qarab istiqbolni aytib berishlarida ham etrusklar ta'siri namoyon bo'ladi. Eng qadimgi va ko'proq afsonaviy Rim tarixining eng muhim davrlariga oid doston va qissalar ham etrusklar bilan bog'liq.

Italiy - Rim madaniyatining vujudga kelishi va taraqqiy etishiga etrusklardan tashqari boshqa qadimgi italiy xalqlari, ayniqsa, janubiy Italiyada, qisman, Kampaniyada yashagan osklar ham birmuncha ta'sir ko'rsatganlar. Osklar nafaqat o'z tili, balki yozuviga ham ega bo'lganlar. Ular boshqa italiy xalqlaridan oldin Apennin yarim

¹ История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002. –стр:15.

orolining janubidagi yunonlar bilan aloqa bogʻlab, boshqa italiy aholi, jumladan, rimliklarga yunonlarning madaniy ta'sirini oʻtkazganlar.

Miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmi va III asr boshlarida rimliklar janubiy italiy aholisi va bu viloyatlarning yunon shaharlari bilan siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqada boʻlganlar. Greklar qisqa vaqt ichida Rim aholisining shaxsiy va ijtimoiy hayotiga nihoyatda kuchli madaniy ta'sir koʻrsatgan. Rimliklar janubiy Italiyaning yunon shaharlarini oʻzlariga boʻysundirgach, Rimda koʻplab yunonlar paydo boʻldilar. Ular qisman harbiy asir va qullar, qisman koʻchib kelgan kishilar - savdogarlar, hunarmandlar, erkin kasb egalari edilar. Yunonlar Rim hukmron tabaqalariga yunon tili-ellinizm davrida Oʻrta dengiz xalqlarining xalqaro tilini oʻrganishlariga yordam berganlar, ularni yunon adabiyoti, fani va falsafasi bilan tanishtirganlar. Rimda yunonlarning olimpiya xudolarini hurmatlay boshlaganlar, natijada yunon ibodatxonalari paydo boʻlgan, yunon me'morchiligi va haykaltaroshligi asarlari yaratilgan.

Din. Dastavval turli italiy xalqlarining, shu jumladan, rimliklarning ham diniy tasavvurlari lar va penatlar nomini olgan, oila va roʻzgʻor homiylari hisoblangan ajdodlar ruhi va ma'budlarga sigʻinishdan iborat boʻlgan. Miloddan avvalgi **II - I asrlarda** ham ajdodlarning suratlari, lar va penatlar Rim zodagonlarining uylarida, mehmonxona (atriya)da, oʻchoq yonida, kichikroq qurbongoh oʻrnatilgan muqaddas joyda saqlangan. Ayniqsa, butun Rim roʻzgʻori homiysi ma'buda **Vestani** ulugʻlashga katta e'tibor berilgan, Rim forumida unga atab ibodatxona qurilgan. Vesta kohinlari - Rimning zodagon urugʻlaridan boʻlgan qizlar oʻsha ibodatxonalarda yashaganlar. Ular erga tegolmaganlar va qurbongohdagi oʻtni oʻchirmay saqlashlari lozim boʻlgan. Oʻt oʻchishiga sababchi boʻlganlar qatl qilingan. **“Muqaddas” Vesta** oʻtining biron sabab bilan oʻchib qolishi katta falokat sanalgan.

Rimda qadimdan osmon xudolariga sigʻinganlar, buni italiyaliklar etrusklardan oʻzlashtirgan boʻlsalar kerak. Ularning asosiylari: bosh xudo Yupiter, donishmandlik ma'budasi Minerva va Rim homiysi - urush xudosi **Mars**.

Diniy marosimlarni ijro etuvchi kohinlar (pontifiklar) va turli alomatlariga qarab xudo irodasini aytib beruvchi **folbinlar** (avgurlar)

uzoq vaqtlargacha patriitsiyalardan saylanib kelingan. Ular Rim respublikasining ijtimoiy va siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatganlar. Ularning kattasi - **ulug' pontifik** Rimning bosh kohini hisoblangan.

Davlatning biron tadbiri muvaffaqiyatli bo'lish-bo'lmasligi, ayrim shaxslarning taqdirini xudo nishonalariga, ya'ni momaqaldiroq va yashinga, qushlarning qay tarzda uchishiga bashorat qiluvchi avgurlar ham Rim jamiyatida jiddiy o'rin tutgan. So'yilgan qurbonlikning jigariga qarab istiqbolni aytib berish rom ochishning muhim turlaridan hisoblangan. Rimliklar xudo bilan "maslahatlashmay" turib na tinchlik, na urush vaqtida biror - bir jiddiy ishga qo'l urmaganlar.

Rimliklar xudolar bilan o'zaro munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlarni, duolarni bexato va aniq o'qish, qurbon berish urf - odatlarini mukammal bajarish asosida qurganlar va ularni ijro etish paytida xudolar sig'inuvchilarning iltijolarini inobatga oladi deb hisoblaganlar.

Jamoat bo'lib sig'inish va yakka sig'inishdan tashqari Rim jamiyatida har xil tushunchalar chunonchi, shon-Sharaf (lotincha - gloriya), g'alaba (lotincha - **viktoriya**), bitishuv (lotincha - **konkordiya**), jasurlik (lotincha - **virtus**) va hokazolarni ilohiylashtirish keng tarqalgan.

Rimning eng qadimgi **Yupiter Kapitoliyskiy** ibodatxonasi etrusklar nusxasida miloddan avvalgi VI asr oxirlarida qurilgan. Rimda Appolonga va boshqa yunon xudolariga sig'inish keng yoyilgan, bu xudolar avvalgi xudolardan (**Yupiter - Zevsga, Yunona Geraga, Venera - Afroditaga, Diana - Artemidaga, Minerva - Afinaga, Vulkan - Gefestga** va h.k.) andoza olgan, desa ham bo'ladi.

Miloddan avvalgi II asrdan e'tiboran Rimda Sharq xudolariga sig'inish rasm bo'lgan. Masalan, Kichik Osiyo yurishlaridan keyin xudolarning ulug' onasi Kibelga e'tiqod qila boshlaganlar¹. Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Italiya va Rimda **Osiris, Izida va Dionis** (Vakx) Sharafiga bayramlar - vakxanaliyalar o'tkazilgan. Miloddan avvalgi I asrda eronliklar xudosi **Mitruga** sig'inish paydo bo'lgan. Dastlabki vaqtlarda senat chet el xudolari, ayniqsa, Sharq xudolariga

¹ George M.D., English Political Caricature to 1792 (1798-1832). A Study of Opinion and Propaganda, Oxford 1959.

topinishni qoralagan, hatto man qilgan bo'lsa ham, keng aholi ommasi ichida bunday e'tiqod tobora keng yoyilib bordi.

Bundan tashqari, Rim panteonida ikki qiyofali **Yanus** (kirish va chiqish xudosi, boshlanish va tugallash xudosi ham) mavjud edi. Xudolar ma'lum tabaqalarga tegishli deb hisoblangan. Plebeylar homiysi - **Serera**, **Prozerpina** - o'simlik va do'zax xudosi, **Libera** esa - vino va xushdillik xudosi.

Ilm - fan. Rimliklar etrusklar alifbosini lotin tiliga moslab, qisman qayta ishlab chiqqanlar. Eng qadim zamonlarda qisqa yozuvlar faqat qabr toshlariga o'yilgan va rasmiy hujjatlar (masalan, XII jadval qonunlari) da ishlatilgan. Miloddan avvalgi III asr o'rtalaridagina avval adabiy, keyinroq, tarixiy va ilmiy asarlar yaratila boshlangan. Rimda savdo arifmetikasi, qurilish ishlari, gidrotexnika va agronomiya bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqarilgan. Qadimda birinchi marta soatlar (dastlab quyosh soati, keyin suv soati) paydo bo'lgan. Aniq taqvim (kalendar) ham rimliklar tomonidan ishlab chiqilgan.

Rim ilmiy tafakkurining amaliy ko'rinishi, ayniqsa, **Katton**, **Katta Varron** asarlarida yorqin aks etgan. Rimda tarixiy adabiyot miloddan avvalgi III asrda paydo bo'lgan.

Kampaniyada tug'ilib o'sgan **Neviy** birinchi Puni urushi tarixini she'riy bayon etgan. Undan keyinroq **Kalabriyadan** chiqqan Kvint Enniy Rimning eng qadim zamonlardan o'zi yashagan davr voqyealarigacha tarixni gekzometr (olti turoqli) she'r bilan bayon etgan. Rim tarixi birinchi marta nasr (proza) bilan yunon tilida **Fabiy Piktora** asarida tasvirlangan (miloddan avvalgi II asr), lekin bu asar to'liq saqlangan emas. Rim tarixining lotincha nusxasi - Kattonning "**Boshlang'ich**" asari bizga qadar yetib kelmagan.

Solnomachi - mualliflarning aksar tarixiy asarlari **miloddan avvalgi II** asrga mansub. Ularning ko'pchiligi bizgacha saqlanib qolgan qisqa parchalardan ma'lum. Miloddan avvalgi I asrda Rim tarixi prozasi Gay Yuliy Sezar (miloddan avvalgi **101 - 44** yillar) va **Gay Sallyustiy Krisp** (miloddan avvalgi **86 - 85** yillar) asarlarida kamol topdi. **Sallyustiy** aslida Sezar va uning tarafdorlari manfaatlarini himoya qilgan.

Miloddan **avvalgi I asrda** boshqa bir qancha tarixchilar - kichik solnomachilar bo'lib o'tgan voqyealarni o'z siyosiy qarashlariga

muvoqif tarzda yoritganlar. Rimda tarixiy proza bilan birga sof publitsistika tipidagi asarlar keng tarqalgan. **Mark Publiy Sitseron** (miloddan avvalgi **106 - 43** yillar) - Rim publitsistikasining eng yorqin namoyandasi. Sitseron sud, senat, xalq majlislarida soʻzlangan nutqlar, bir necha (*“Davlat toʻgʻrisida”, “Vazifalar toʻgʻrisida”*) traktat va gʻoyat koʻp maktublardan iborat boy adabiy meros qoldirgan.

Sitseronning yorqin va obrazli tilda yaratilgan, aniq va taʼsirchan asarlari undan keyingi yozuvchilar uchun oʻrnak boʻlib qoldi. Sitseron tili klassik yoki lotin prozasining eng goʻzal namunasi. Miloddan avvalgi I asrda Rimda falsafiy asarlar ham paydo boʻlgan. Rim nobillari orasida stoiklar falsafasi juda keng yoyilgan, ammo shu bilan birga Epikur qarashlari ham katta oʻrin tutgan. Respublika davri oxiri Rim mutafakkirlaridan eng taniqlisi Rim materialist-faylasuf epikurchilarining namoyondasi **Lukretsiy Kar** (miloddan avvalgi **98 - 54** yillar) hisoblanadi. Lukretsiy oʻz qarashlarini *“Narsalar tabiati toʻgʻrisida”* nomli asarida bayon qilgan. Muallif bu asarda gʻoyat murakkab falsafiy muammolarni keng kitobxonlarga tushunarli boʻlgan tilda, ajib mahorat bilan sheʼr tarzida ifodalab, ommabop didaktik poeziya namunasi yaratgan.

Lukretsiy Demokrit va Epikurning atom toʻgʻrisidagi taʼlimotini rivojlantirib, atomlar abadiy, oʻzgarmas boʻlinmas, demak buzilmasdir, ular oʻzaro faqat shaklan farqlanadi, deb taʼkidlaydi¹. Turli tabiat koʻrinishlari atomlarning har xil oʻzaro qoʻshilishi va ulanishi natijasida vujudga keladi va shu tariqa “oʻz holatini oʻzgartirib, tabiatni ham oʻzgartiradi”. Atomlar abadiy harakatda boʻlib, makonda oʻrin almashadi. Koinotning chegarasi cheksiz, *“uning oxiri ham, hajmi ham yoʻq”*. Lukretsiy ruh yoki aql tushunchasini tan olgan, ammo shunda ham uni faqat kishi badanining funksiyasi sifatida *“ruh va jonning tabiati jismoniydir”* deb aytgan. Lukretsiy oʻz zamonasi jamiyatining illatlarini ham qattiq qoralagan. Ayniqsa, siyosiy kurashlardan boylik orttirish uchun foydalanuvchilarga nisbatan keskin munosabatda boʻlgan.

Yurtdoshlarin qonin toʻkib, orttirarlar sarmoya, davlat
Boylik toʻplar ochofatlar, qotillikdan tortinmay hatto....

¹ World History Bibliography Online by CLIOHWORLD Erasmus Network
<http://www.cliohworld.net/>

Adabiyot va teatr. Rim va Italiyada badiiy adabiyot miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Miloddan avvalgi taxminan **240 yilda** tarentlik asir yunon Andronik (qullikdan ozod bo'lgandan keyin Mark Liviy Andronik nomi bilan Rim fuqaroligi huquqini olgan) **“Odisseya”** va boshqa bir necha yunon tragediyalarini lotin tiliga tarjima qilgan. Italiya va Rimda satira va komediya she'riy ijodiyotning eng o'ziga xos shakli bo'lgan. Qadimgi italiy adabiy ijodining bu turlari qishloq bayramlarida qo'shiq va she'rlar asosida yaralgan. **Satira** degan nom satura, ya'ni **“aralash ovqat”** so'zidan olingan. Dastlab bu turdagi she'rlarni **Enniy** yaratgan, ammo **“satira”** iborasini birinchi bo'lib o'z zamoni Rim nobillarining illatlarini o'z she'rlarida shafqatsiz fosh qilgan **shoir Lutsiliy** (miloddan avvalgi **180-100** yillar) qo'llagan. Dastlabki Rim komediyalari yunon namunalariga taqliddan iborat bo'lgan. Miloddan avvalgi **III asr oxiri va II asr boshlarida** Rimda komediya ustasi, yozuvchi Plavt (miloddan avvalgi taxminan **253 - 184** yillar) yashab, ijod qilgan¹. Plavt keyingi maishiy yunon komediyalariga monand pyesalari syujetini Rim jamiyatining hayotidan olib, ijtimoiy illatlarni istehzo bilan fosh etgan. **Plavtning** yosh zamondoshi, **afrikalik Terensiy** (sobiq qul) yunon namunalaridan o'rnak olib, Rim nobillariga xush keladigan komediyalar yaratgan. Keyinchalik miloddan avvalgi I asrda ba'zi mualliflar xalq tomoshalarini badiiy jihatdan qayta ishlaganlar, atellan nomini olgan bu asarlarda doim bir xil obrazlar: ochofat, mahmadona, axmoq boy, firibgar faylasuf va shu kabilar tasvirlangan. **Miloddan avvalgi I asrda** Rimda va Italiyaning boshqa shaharlarida komediyalar bilan birgalikda o'g'ri, fohisha, qo'shmachi kabi razil kimsalar hayotidan olingan tomoshalar keng yoyilgan. Bu tomoshalarda mimlar (aktyorlar) ishtirok etgan. Rim nobillarining namoyandasi - Katullning (miloddan avvalgi **87 - 53** yillar) ijodida Rim respublikasining lirik poeziyasi yuksak taraqqiyot cho'qqilariga

¹ Stoffers J., Globus und Karte in Karikaturen zur Aussen- und internationalen Politik: eine Präsentation von 32 Abbildungen, in “Auswärtiger Dienst: Vierteljahreszeitschrift der Vereinigung Deutscher Auslandsbeamten”, 1999, 69, 1-2, pp. 13-38.

chiqdi¹. Katull, dastavval, yunon liriklari ta'sirida bo'lsa ham, lekin ajoyib original asarlar yaratgan. U o'z she'rlarida sevgi quvonchi, mahbubaning bevafoqlik alami va akasining vafoti kabi mavzularni qalamga oladi. Katull siyosiy kurashda ishtirok etib, shoirlik iste'dodidan halokatga duchor bo'lgan respublikani himoya qilish uchun g'oyaviy qurol sifatida foydalangan. **Katull** o'z epigrammalarining birida Yuliy Sezar bilan do'stlashishni butkul rad etadi.

*...Juda o'lib turganim yo'q senga mutloq yoqay deb, Sezar
Oqmisan yo qoramisan - bilishni ham istamayman, ha!*

Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morchilik. Rimliklar tasviriy san'atda ham ilm-fandagi kabi omilkor bo'lganlar. Dastavval ular rassomlik va haykaltaroshlik san'atida etrusklarga ergashganlar. Rim va Italiyada, ayniqsa, portret haykallarini yaratish avj olgan. Boylar o'z uylarida ajdodlarining haykallarini o'rnatishi rasm bo'lgan. Rimning forumi, maydon va ko'chalarida sarkarda va siyosiy arboblarning haykallari qo'yilgan. Rim zodagonlarining urug' sag'analariga (kolumbariyalari) vafot etgan zodagonlarning haykallari o'rnatilgan. Shuning uchun ham rimlik haykaltaroshlar portret haykallarini yasashda yuksak kamolotga erishganlar.

Bino qurish sohasida rimliklar yunonlardan ancha ilgari ketganlar. Italiyada, keyinchalik O'rta yer dengizi sohillaridagi boshqa mamlakatlarda ham obod yo'llar hamda daryo, soy va chuqurliklar ustiga ko'priklar qurilgan. Yo'l yoqalarida ariqlar qazilgan. Har ming qadam (milya)da yo'l bo'ylarida Rimga va aholi yashaydigan eng yaqin joyga masofani ko'rsatib turadigan yozuvli toshlar o'rnatilgan. Italiya va uning viloyatlarida aholini toza suv bilan ta'minlash uchun osma quvurlar qurilgan. Maxsus binolar - sirk va teatr Rim va boshqa shaharlarning muhim jihatidir. Bayramlarda bu binolarda pyesalar qo'yilgan, poyga o'tkazilgan, nihoyat qonli tomosha - gladiatorlar janglari uyushtirilgan, o'limga hukm qilingan jinoyatchilar ustiga yirtqich hayvonlar qo'yib yuborilgan. Qator-qator tosh o'rindiqlardan iborat sirk va teatr binolaridan tashqari miloddan avvalgi I asrda amfiteatrlar paydo bo'lgan. Ular ellipssimon bino bo'lib, tomoshalar qum to'shalgan sahnalarda qo'yilgan.

¹ Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г

Miloddan avvalgi I asrda Rimda jamoat bogʻlari bunyod qilinib, bu bogʻlar atrofiga jamoat hammomlari (termalar) qurilgan, ularga doim toza suv oqib turgan. Hammomning issiq va sovuq suv toʻldirilgan hovuzlari, dam olish xonalari boʻlgan. **Miloddan avvalgi II - I asrlarda** Rimda va boshqa shaharlarda jamoat binolari - *baziliklar* qurilgan. Bunda sud majlislari oʻtkazilgan, magistratlar ish olib borganlar, fuqarolar bu yerga kelib, siyosiy va ijtimoiy mavzularda suhbatlar qurganlar.

Qadimgi Rim madaniyati va xristian dinining vujudga kelishi. Moddiy madaniyat. I - III asrlarda Rim Oʻrta yer dengizi imperiyasining nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy markaziga ham aylandi. Imperiya poytaxti bilan birga katta shaharlar barpo etilib, ular dengiz atrofidagi biron viloyatning boshqaruv va ijtimoiy markazi hisoblangan.

Aholisi **500** ming kishidan iborat Misr Aleksandriyasi, Suriyaning markazi - *Antioxiya*, Osiyo viloyatlarining siyosiy markazi Efes shahri ana shunday shaharlar hisobiga kirgan. Gretsiyaning Korinf, Afrikaning Karfagen shahri imperiya davrining ulkan shaharlari boʻlgan. Poytaxt bilan birga boshqa shaharlarda ham ibodatxonalar, ma'muriy va sud vazifalarini oʻtagan saroy, bino, sayrgoh, teatr binolari, amfiteatr va sirk binolari qurilgan.

Hozirgi Livianing *Sabrat* shahrida Rim teatri yaxshi saqlangan. Sirklarda ot qoʻshilgan aravada (kvadriga) poygalar uyushtirilgan. Milodiy **80** yillarda qurilgan Rim amfiteatri Kolizeydan tashqari, *Veron, Kapuya, Pompey, Pul, Parij, Arlda* amfiteatr qoldiqlari, bundan tashqari, Afrikada ikki amfiteatr qoldiqlari topilgan. Tosh yotqizilgan koʻchalar, osma suv quvurlari (akveduklar), chiqindi suvni oqizish uchun yotqizilgan quvurlar (kloakalar), milodiy I - III asrlarga xos boʻlgan. Milodiy **II - V asrlarda** Rimning oʻzida oʻn bitta vodoprovod tizimi ishlab turgan¹. Bu vodoprovodlar (osma quvurlar) ustunlarga oʻrnatilgan sopol quvurlardan iborat boʻlib, togʻdan oqib keladigan suv shu quvurlar orqali shaharga uzatilgan. Rimda hozirgi kunda ikkita osma quvur hamon ishlab turibdi.

Tasviriy san'at. Rimda, *Palatin* tepaligida Avgustning rafiqasi *Liviya Druzilla* xonalaridagi kabi, Shimoliy Afrikada (Tunis va

¹ Бонгард – Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация. История. Религия. Философия. М., 2000г.

Jazoirda) Rim imperiyasi davridagi villalar devorlariga solingan naqshlar saqlangan. Shu va boshqa joylardan topilgan bir qancha badiiy parchalar asosida o'sha davr rassomlik san'ati va Rim rassomlari usullari to'g'risida xulosa qilish mumkin. Ayniqsa, portret haykallari bilan bezatilgan maydonlar, milodiy I - II asrlarga oid haykallar va rasmlar mukammal ishlangan.

Maorif va ilmiy hayot. Rimda va viloyat shaharlarida boshlang'ich ta'lim xususiy muallimlar qo'lida bo'lgan. Ular bolalarga haq evaziga o'qish - yozish va hisobni o'rgatganlar. Bolalar o'qituvchining uyida, ba'zida peshayvonlar yoki jamoat bog'larida ta'lim olganlar. O'quvchilar ustozidan og'zidan chiqqan ovoz va so'zlarni yod olgan. Keyinchalik o'qituvchi taxtaga harf va so'zlarni yozgan. O'quvchilar ularni ko'chirib yozishgan va yod olishgan. Boshlang'ich maktabda o'qish 7 yildan 12 yilgacha davom etgan¹. Boshlang'ich maktabdan keyingi bosqich "grammatika" maktabi deb atalib, unda to'rt yil o'qilgan. Talabalar shoir va adiblar asarlaridan parchalar o'qishgan, bu asarlarni izohlab, Sharhlab berganlar, yozuv mashq qilganlar. O'qituvchilar yunon va lotin adabiyotini alohida-alohida o'rgatishgan. 16 yoshga to'lgan talabalar " **ritorika**" (notiqlik) san'atini o'rganganlar. Rim imperiyasida ritorika san'ati yuksak qadrlangan. Ba'zi imperatorlar lotin va yunon ritorika maktablarini ochish uchun katta mablag' ajratganlar. Milodiy I - IV asrlarda eng katta ellin va yunon shaharlaridan **Aleksandriya, Pergam, Rodos va Afina Rim** imperiyasining ilmiy markazlari bo'lib qolgan. Ular bilan bir qatorda Rim, Karfagen va Massiliya ham maorif markaziga aylangan. Aleksandriyada kutubxona va Afinada Aflotun tashkil etgan Akademiya va Arastu tomonidan yaratilgan **Likeyon falsafa maktablari** ishlab turgan. Milodiy I asr oxirida **Frotin "Osma quvurlar"** nomi gidrotexnika qo'llanmasini yozgan. Geografiya faniga katta e'tibor berilgan, geografiya va etnografiyadan bir necha ilmiy asarlar yaratilgan. **Strabonning "Geografiya"** nomli ilmiy asari **milodiy 20 yillarda** nashr etilgan. Geografiyadan **Pomponiy Mela** yozgan traktat milodiy I asrga taalluqli. Milodiy I asrning ikkinchi

¹ World History Bibliography Online by CLIOHWORLD Erasmus Network
<http://www.cliohworld.net/>

yarmida Rim sarkardasi **Pliniy Sekund** “*Tabiat tarixi*” ni yozgan¹. Rim tarixchisi Tatsitning Shimoliy va Sharqiy Yevropada yashab, Rim imperiyasidan mustaqilligini saqlab qolgan qabila va elatlarning maishiy hayoti va ijtimoiy tuzumini tasvir etgan “*Publiy Valeriy Agrikolaning faoliyati*” hamda “*Germaniya*” nomli ikki asari milodiy I asr oxiri va II asr boshida yaratildi.

Ana shu davrlarda tibbiyot fani katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Avgust davrida Rimda vrachlar maktabi ta'sis etilgan. **Asklepiadda** ham ana shunday maktab bo'lgan. Aleksandriya Museyoni imperiyaning astronomiya bilimlari markazi bo'lib qolaverdi. Unga **Klavdiy Ptolomey** rahbarlik qilgan. Ammo Ptolomey astronomiya sohasida Aristarx Samoskiyning jiddiy ilmiy muvaffaqiyatlari va koinotni anglashda u kashf etgan geliotsentrik nazariyani qabul qilishdan bosh tortgan. Buning o'rniga u quyosh tizimining markazi Yer, Quyosh va boshqa osmon jismlarining bari yer atrofida aylanadi degan nazariyani taklif etgan. Bu noto'g'ri qarash Aleksandriya olimlari, keyinchalik, xristian ruhoniylari tomonidan ham qabul qilingan va olamning tuzilishi to'g'risidagi o'rta asr tushunchasi uchun asos vazifasini o'tagan. Milodiy **III asrda** soxta fan - astrologiya Rimda keng tarqalib, rimliklar uni Mesopotamiyadan o'zlashtirganlar.

I - II asrlarda Afina falsafa markaziga aylandi. O'sha zamon siyosiy arbobi **Anney Seneka** (milodiy **1 - 65** yillar) stoitsizm falsafasining eng ko'zga ko'ringan namoyandasi edi. U bir qancha traktat, **Litsiliyga 124** ta ochiq xat, imperator Klavdiyning o'limiga bag'ishlab satirik doston va bir necha tragediya yozgan². Milodiy **II asrda** imperator **Mark Avreliy** stoitsizm falsafasining mafkurachisi sifatida maydonga chiqdi.

Adabiyot. O'rta yer dengizi dunyosining markaziy rayonlarida fuqarolar urushining tugab, tinchlik o'rnatilishi Rim va Italiyada madaniy hayot tiklanishiga yordam bergan. Avgust va uning arkonlari hokimiyat uchun muxoliflarini yenggach, mavqyelarini mustahkamlash uchun eng mashhur yozuvlar xizmatidan

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

² Бонгард – Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация. История. Религия. Философия. М., 2000г.

foydalanganlar. **Gay Silsiy Metsenat** (miloddan avvalgi taxminan 74-milodiy 8 yillar) bu ishda Avgustga yordamlashgan. U oʻz zamonasining eng zabardast shoirlarini yiqqan, moddiy jihatdan koʻmak bergan va homiylik qilgan. **Vergiliy Maron, Goratsiy Flakk, Seket Propersiy** va boshqa shoirlar Metsenat toʻgaragiga aʼzo boʻlganlar. Vergiliy Metsenatning iltimosiga binoan, **“Georgiklar”** dostonini yaratib, hayotining soʻnggi yillarida Avgustning talabiga binoan katta epik doston ustida ishlagan. Gomer dostonlari yunonlar uchun shunday zoʻr asar boʻlishi Shart edi. Vergiliy **“Eneida”**sida Gomer dostonlarining syujetiga taqlidan troyanlik Eneyning yurtmavrut yurishi va Italiyaga kelishini tasvirlagan. Doston qahramoni Rim patriitsylari - Yuliy urugʻining afsonaviy asoschisi boʻlib, dostonda Yuliy Sezar ham shu urugʻ vakili sifatida tilga olinadi. “Eneida” lotin sheʼriyatining choʻqqisi boʻldi: Rimda biron-bir shoir Vergiliydan oldin ham, keyin ham bunday oʻtkir, xushohang va kuchli sheʼriy obraz va tasvirlar bilan toʻlib toshgan, yorqin asar yaratmadi. **Goratsiy Flakk** ijodida lotin sheʼriyati shakl jihatidan eng buyuk va komil taraqqiyotga erishdi. U bir necha qoʻshiqlar toʻplamini yozgan. Shoir **Albiy Tibull** va **Seket Propersiy Vergiliy** hamda Goratsiyning zamondoshlari boʻlgan. Ular lirik shoirlar boʻlib, oʻz sheʼriy asarlarida shaxsiy kechinmalar va tinch qishloq hayotini kuylaganlar. **Ovidiy Nazon** esa Avgust prinsipati davrining eng atoqli shoiri boʻlgan. Rim adabiyotining tarixchilari Avgustga zamondosh boʻlgan shoirlarning asarlarini lotin poeziyasining oltin davri deb ataydilar. Keyinchalik keng koʻlamli Rim poeziyasi va prozasida shoir **Mark Anney Lukan** (milodiy 39-65 yillari) Neron davrida ijod qilgan. U Neronga salbiy munosabatda boʻlgan. U **“Farsaliya yoki fuqarolar urushi”** dostonini yaratdi. Bu dostonda **Pompeyni** koʻklarga koʻtarib, **Yuliy Sezarni** yomonlaydi. Shoir Lukan Neronga qarshi fitnadagi ishtiroki uchun qatl etilgan. Prozada yozilgan “Satirikon” erkin satirik asari ham Neron davrida yuzaga keldi. Ushbu asar imperatorning yaqin kishilaridan Petroniy qalamiga mansub degan fikr ham mavjud. Shoir bu asarida ikki vatangado sayyohning Italiya boʻylab sayohatini tasvirlab, oʻz zamonasi jamiyatining turli tabaqalari hayotini koʻrsatadi. Shoir **Marsial** (milodiy 42-102 yillar) oʻz asarlarini tanqidiy ohangda yaratdi. Marsial 1200 ga yaqin epigramma yozib, ularda shoir xalq ommasining qashshoqligi, Rim zodagonlarining

takaburligi, bag‘ri toshligi va zolimligini ifoda etgan. Ya‘ni Rim jamiyatidagi razolatni fosh qilgan. Satiriklardan biri Yuliy Yuvelan (taxminan milodiy **55-132** yillar) o‘n oltita satira yozgan. Satiralarda u Rim jamiyati hayotining salbiy jihatlarini Matsialdan ham dadilroq ko‘rsatgan. **Apuley** milodiy **II asr** yozuvchisi bo‘lib, yosh yigit Lutseyning boshidan o‘tgan sarguzashtlari haqida hikoya qilgan.

Tarix. Qadimgi Rim va Rim imperiyasining o‘tmishi to‘g‘risida ko‘p asarlar bitilgan. Avgust pritsipati davrida Tit Liviy **142** traktatdan iborat *“Rimning ta‘sis qilinganidan buyongi tarixi”*ni yozgan. Milodiy I asr oxirida Dionisiy Galikarnasskiy Avgustga xushomad qilib, yunonlar etnik jihatdan rimliklarga yaqin deb, bu fikrni isbotlashga uringan. U yaratgan yirik tarixiy asarlar bizga qadar yetib kelmagan. Shuningdek, tarixchi **Yusuf ben Mattafinning** asarlari dunyo yuzini ko‘rdi. Ko‘proq **Yusuf Flaviy** nomi bilan tanilgan bu tarixchi milodiy **66-73** yillarda Yahudiyada bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonda qatnashgan. U o‘zining *“Yahudiy urushi to‘g‘risida”* va *“Yahudiyaning qadimgi yodgorliklari”* nomli asarlarida vatanining tarixiga doir muhim ma‘lumotlar bilan birga ellin davlatlari va Rim imperiyasining birinchi asr tarixi to‘g‘risida ham g‘oyat qimmatli ma‘lumotlar beradi. Rimning eng yirik tarixchisi, jahonning mashhur tarixchilaridan biri - **Korneliy Tatsit** (taxminan milodiy **54-120** yillar) o‘zining ikki asosiy asarida milodiy birinchi asrdagi Rim imperiyasi tarixini bayon etgan. **Tatsit** Respublika tuzumini ideallashtirib, zamonasining siyosiy tartibini qattiq tanqid ostiga oladi¹. Tatsitning *“Tarix”* nomli ilk asari milodiy **68 - 69** yillardagi fuqarolar urushi va Flaviylar zamonini mufassal bayon qiladi. *“Annallar”* (Yilnomalar) nomli ikkinchi asari Avgustning o‘limidan to Neronning vafotigacha bo‘lgan vaqt maboynidagi voqyealar tasviriga bag‘ishlangan. **Plutarxning** (taxminan milodiy **46 - 126** yillari) adabiy faoliyati ham o‘sha vaqtlarga to‘g‘ri keladi. U xilma-xil mavzularda asarlar yozgan (*“Axloq to‘g‘risida mulohazalar”*, *“Musiqqa haqida traktat”*) hamda Gretsiya va Rimdagi bir qancha tarixiy shaxslarning tarjimai hollarini keltirgan. Uning *“Qiyosiy hayotnomalar”* asarining bir qismi bugungi kungacha yetib kelgan. Mashhur Rim ma‘muri **Appian** (**170** yillarda vafot etgan) yunon tilida *“Rim tarixi”*ni yozgan. Unda Appian Rimda

¹ World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011

Respublika davridagi fuqarolar urushini batafsil bayon qiladi. Milodiy III asrda tarixchilar orasida imperiya boshqarmasida rahbarlik qilgan yunon zodagoni **Dion Kassiy (155-235)** alohida o‘rin tutadi. U o‘z davri voqyealari borishini “Rim tarixi” asarida mufassal bayon etgan.

Din va xristianlik. 68 - 69 yillarda Rim imperiyasi og‘ir siyosiy inqirozga duch kelgan davrda, ayniqsa, Yahudiya va boshqa Sharqiy viloyatlar qattiq jafo chekdi. Rimliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan yahudiy xalqi xudo Yaxvo ularga “Messiya” (xaloskor) yubordi va “yovuzlar” hukmronligini yemirib, “ming yillik” xudo hokimiyatini o‘rnatdi, deb ishonganlar. Bu g‘oya yahudiylar orasida “payg‘ambarona” asarlar ko‘rinishida tarqalib, ulardan biri (milodiy **69** yillar yozilgan) *Apokalipsis* nomi bilan xristian diniy adabiyotiga kirgan. Rimliklar yahudiylar qo‘zg‘olonini bostirdilar. Minglarcha yahudiylar qirib tashlanib, qul qilib sotildi, boshqalari Kichik Osiyo, Gretsiya, Makedoniya va hatto Italiyaga qochib ketdilar.

I asrning so‘nggi choragida Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘oqlaridagi shaharlar va Rim imperiyasining boshqa Sharqiy viloyatlarida *xudo Yaxvo* va‘da qilgan Messiya, xudoning maxsus vakili (yunoncha xristos) Yerga tushdi deb ishongan shaxslar guruhi paydo bo‘ldi. Milodiy I asr oxiri va II asrda xristian diniy birlashmalarning rahbarlari - **Matfey, Mark, Luka va Ioann** tomonidan yozilgan to‘rtta Injil *“haqiqiy” deb e‘lon qilindi*¹. Isoning hayoti va faoliyati to‘g‘risida bayon etilgan boshqa ko‘p asarlar qalbaki (apokrifik) deb e‘lon qilingan. *Messiya* - Isoga eng qadimgi jamoalar, avval, shahar aholisining quyi qatlamlari - qullar, qullikdan ozod etilganlar, mayda hunarmand va mayda savdogarlar e‘tiqod qilganlar. **II asr oxiri - III asr** boshlarida Rim imperiyasida siyosiy vaziyatning keskinlashuvi ruhan taskin topish va najotga intilish kayfiyatini kuchaytirgan. Dastlab, hukmron tabaqalarning ayrim namoyandalari, keyinchalik, ko‘pincha zodagon quldorlar, harbiylar va imperiya ma‘muriyatlarining xizmatchilari xristian dinini qabul qildilar. Ular Iso Sharafiga madhiyalar o‘qishgan, o‘zini *“xudo ruhining quroli”* (xarizm) deb bilgan shaxslar va‘z-nasihatlarini tinglashgan. Iso to‘g‘risida qissalarni o‘qiganlar. II asr oxiri - III asr boshida xristian dini birlashmalari kichik mazhablardan qudratli

¹ Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева. М., 2000 г стр:88-90.

ijtimoiy kuchga aylangan va Rim imperiyasi hokimlarining jiddiy e'tiborini jalb qilgan. Har bir xristian jamoasida a'zolar soni ko'payib, bunday jamoalar Rim imperiyasining g'arbiy viloyatlari (Galliya, Ispaniya, Afrika)da ham paydo bo'la borgan sari xristianlarni jazolash hollari ko'paygan. Ayniqsa, Yahudiylarning ikkinchi (115 - 117) va uchinchi (132 - 135) qo'zg'olonlaridan keyin turli maxfiy va yarim maxfiy jamoalar va majlislardan imperator ma'muriyati vakillarining shubha va noroziligi kuchaydi¹. Milodiy II asrda xristian jamoalarining zakovatli a'zolari publitsistik "*Apologiya*" larida xristian dinining mohiyatini tushuntirib berishga va o'zlarining yahudiy qo'zg'olonchilari bilan hech qanday aloqalari yo'qligini isbotlashga urinishgan².

Bunday asarlar keyingi vaqtlarda ham paydo bo'lgan. Milodiy II asr oxirida Karfagen jamoasining presviteri Gertullian, milodiy III asr boshlarida Karfagen jamoasining episkori Kiprian munozarali asarlar yozgan. Gertullian va Kiprian asarlarida xristian dini qoidalaridagi asosiy e'tiqodlarni himoya qilish bilan birga, xristianlarning o'zlarini qiziqtirgan bahsli masalalar to'g'risida ham fikr yuritilgan. Xristian cherkovining keyingi rivoyatlariga ko'ra, imperiya hokimligi tomonidan xristianlarni ta'qib qilish **Neron** davrida boshlangan. Bunda ko'p xristianlar Rimga o't qo'yishda ayblanib, qatl qilingan (milodiy 64 yili). So'nggi rivoyatda imperator Domitsianning ta'qiblari haqida aytiladi. Milodiy III asr o'rtalarigacha Rim imperiyasi ma'muriyati xristianlarga qarshi diniy qarashlari uchun ongli ravishda quvg'in uyushtirmagan. Ungacha xristian dinidagi ayrim shaxslar yoki butun bir guruhni jazoga tortish hollari yuz bergan, ammo bu ayrim shaxslarning yomon axloqi tufayli yuz bergan. Rim imperiyasi ijtimoiy-siyosiy tuzumining inqirozi keskinlashib borayotgan, uzluksiz o'zaro kurash va urushlar bo'lib turgan bir vaqtda xristianlik tobora keng ijtimoiy tabaqalarning ma'naviy panohiga aylana bordi.

¹ History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006 page:155-156/

² Martinez-Gros G., La division du monde selon Idrīsī, in Balard M., Ducellier A. (eds.), Le partage du monde. Échanges et colonisation dans la Méditerranée médiévale, Paris 1998, pp. 315-334.

Reichert F., Geographie und Weltbild am Hofe Friedrichs II, in "Deutsches Archiv", 1995, pp. 433-491.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nima uchun milodiy III asr oxirlarida Rimdagi siyosiy vaziyat keskinlashib ketdi?
2. Rim imperiyasining feodallasish jarayoniga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
3. Qadimgi Rim madaniyati qaysi sohada yunon madaniyatidan o'tib ketdi?
4. Qadimgi Rimga nasroniylik (xristianlik) dinining kirib kelishi va davlat diniga aylanishining sabablarini ayting.
5. Qadimgi Rimda diniy qarashlar qanday bo'lgan?
6. Qadimgi Rimda adabiyot va san'at.
7. Hunarmandchilik va arxitektura.

GLOSSARIY

Atamalarnin g o'zbek tilidagi nomlanishi	Atamalar ning ingliz tilida nomlanishi	Atamalarning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Ajam	Ajam	He араб	(arab. – “arab emas”) - arablardan boshqa Sharq xalqlarining umumiy nomi. Shuningdek, arablar yashaydigan Sharq mamlakatlari, xususan, Turon, Eron ham “Mulki ajam” deb yuritilgan. Bu yerlardan yetishib chiqqan olimlar “ajamiy” deb atalgan. Keyinchalik A. nomi faqat eronliklarga nisbatan qo'llanilgan, Eronni esa, A. yoxud Ajamiston deb ataganlar.
Antik tarix	Antic history	Античная история	Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim davri tarixi.
Ariylar (oriylar)	Ariys	Арийцы	Qadimgi qabilalar; tarjimasida «sodiqlar», «erkinlar» ma'nosini anglatadi.
Amulet -	Amulet	Амулет	Misrliklar fikricha, mabodo inson o'zi bilan birga olib yursa, yovuz ruhlar va balo-ofatlardan himoya qiluvchi kichik buyumlar; tumor.
Animizm	Animism	анимизм	Insonni qurshab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga e'tiqod.
Arxeologiya	Archeology	Археология	Ashyoviy manbalarni o'rganuvchi va ular bo'yicha tarixiy o'tmishni qayta tiklovchi fan; qadimshunoslik.
Arxitektura	Architecture	Архитектура	Binolar va boshqa inshootlarni barpo etish san'ati.
Arxiv	Archive	Архив	Davlatga oid hujjatlar saqlanadigan joy.

Buddaviylik	Buddhism	Буддизм	Miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda Siddhartha Gautama tomonidan asos solingan diniy talimot.
But	-	Будпамятник	Forscha, sanam (arab.), butparastlik - xudoni tasvirlaydigan va uning timsoli deb sig'iniladigan moddiy buyum (ko'pincha xudolarning tosh, yog'och, sopol va b. narsalardan yasalgan haykalchalari, rasmlari, tasvirlari va b.).
Degradatsiya	Degradatsion	Деградация	Tanazzul, zavol topish, inqiroz
Delta	Delta	Дельта	Nil daryosi o'rtayer dengiziga quyilayotganda uchburchakshimon yalpi manzarani yuzaga keltiruvchi makon.
DINASTIYA	Dynasty	Династия	Sulola - birin-ketin hukmronlik qiluvchi podshohlar urug'i; sulola vakillari ko'pincha bitta nom bilan aytilgan, masalan, Ahamoniylar.
Demokratiya	Democracy	Демократия	Har bir fuqaro o'z mamlakatini boshqarish masalasi bo'yicha o'z fikrini bayon etadigan, shuningdek, davlat boshqaruvida ishtirok etadigan ijtimoiy tuzum.
Diskreditatsiya	Discrediting	Дискредитация	Obro'sizlanish, obro'-e'tiborni yo'qotish, badnom bo'lish.
Diktator	Dictator	Диктатор	Cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan hukmdor, «diktatura» - lotincha «cheklanmagan hokimiyat» tushunchasini anqlatadi.
ELLINLAR Goplit	Ellins Goplit	Эллины ГОПЛИТ	Qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan. Qadimgi Yunoniston va Yunoniston-Makedoniya

			armiyala- rining og'ir qurollangan piyoda jangchisi.
FIR'AVN	Pharaoh	Фараон	Qadimgi Misr podsholarining nomi. F.larning 31 sulolasi ma'lum. Oxirgi F. makedoniyalik Iskandar (mil. av. 356-323) Misrni bosib olgan paytda hukm surgan. Qur'onda tilga olingan F. o'zini xudo deb e'lon qilgan zolim podshohni ifodalovchi umumlashma nom. Alloh uning huzuriga Muso (a.s.)ni yuboradi. Ammo F. unga imon keltirmaydi; aksincha, o'z qudratini namoyish qilish uchun amaldori Homonga "osmono'par" minora qurishni buyuradi. Dindorlarni, ayniqsa, yahudiylarni ta'qib qiladi. Muso (a.s.) o'z qavmi bilan Misrdan chiqib ketishga ahd qilganda, askari bilan uning ketidan quvadi, lekin dengiz suvlari uni o'z domiga tortadi. Oxirgi pallada tavba qilgach, Alloh irodasi bilan to'lqinlar F.ni qirg'oqqa olib chiqadi. Musulmon diniy va badiiy adabiyotida F. eng qabih imonsizlik (o'zini xudo deb e'lon qilishi) va zolimlik timsoli sifatida gavdalanadi.
Falanga	Falanga	Фаланга	Og'ir qurollangan askarlarning bir necha, odatda 9 yoki 16 qator saf tortishi.
Falsafa	Philosophy	Философия	(filosofiya) - yunoncha «filo» - sevish, «sofiya» - donishmandlik tushunchalarini anglatadi.
Forum	Forum	Форум	Rimda yig'ilish joyi va savdosotiq maydoni bo'lib xizmat qilgan shahar markazi.
Freska	Fresco	Фреска	Selgimagan suvoqqa chizilgan

			rasm.
GILGAMISH	Gilgamesh	Гилгамеш	Mesopotamiyaning afsonaviy qahramoni, tarixiy shaxs, Uruk shahri podshosi.
Ibodatxona	Temple	Храм	Muqaddas deb e'lon qilingan, odamlar xudolarga sig'ingan bino yoki joy.
Iltizom	Discipline	Дисциплина	Aholidan biror turdagi yig'im yoki soliq undirish huquqini hukumatdan sotib olish va sotib olingan shunday huquq.
Imperiya	Empire	империя	Hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan davlat.
Imperator	Emperor	Император	Lotincha «hukmdor», Qadimgi Rimda dastlab - faxriy harbiy unvon, keyinchalik mutlaq hukmdorga tegishli unvon.
Inkvizitsiya	The Inquisition	ИНКВИЗИЦИЯ	Katolik cherkovining asoratiga qarshi kishilarni ta'qib va sud qilish uchun 13-19 asrlarda ta'sis etilgan sud-politsiya tashkiloti.
Iyerogliflar	hieroglyph	Иероглифы	Qadimgi yunonlar misrliklar yozuvini shunday atashgan; "muqaddas bitiklar" ma'nosini anglatadi.
Jizya	Jizya	Дзизья	Arab. – "jon solig'i" - dastlab arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlari (jumladan, O'rta Osiyo)da musulmon bo'lmagan fuqarolardan olingan jon soligi. J. balogatga yetganlarga solingan (qariyalar, ayollar, bolalar, qul va ishga yaroqsizlar esa J.dan ozod qilingan). J., asosan, pul va natura tarzida undirilgan.
Kohinlar	soothsayers	жрецы	Ibodatxona ruhoniylari.
Koloniya	soothsayers	Колони	Qadimgi davrlarda o'z yurtini tark etgan odamlar tomonidan

			yangi yerlarda asos solingan manzilgoh va shaharlar.
Ko`chmanchilar	-	Кочевники	Doimiy istiqomat joyiga ega bo`lmagan kishilar.
Koloniya	colonies	КОЛОНИ	O`z yurtini tark etgan odamlar tomonidan yangi yerlarda asos solingan manzilgoh va shaharlar.
Konsul	Council	Консул	Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.
Legion	Legion	Легион	Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik.
Mahdiy	Mahdiy		Arab. – “Alloh tomonidan to`g`ri yo`lga yetaklanuvchi” islomda zamona oxir bo`lganda yerga qaytib kelib adolat o`rnatadi, deb tasavvur etiladigan payg`ambar. Shialikda M.ga e`tiqod qilish katta o`rin egallagan.
Majusiylik	Paganism	Магия	1) Majusiy - quyosh yoki olovga sig`inuvchi odam. Islom dini kelmasdan burun ajam xalqdari M. e`tiqodiga mansub edilar. M. kalimasi quyosh yoki olovga sig`ingan kishilarda hozirga qadar atama sifatida qo`llaniladi. 2) yakkaxudolik (monoteizm) paydo bo`lgunga qadar vujudga kelgan diniy e`tiqodlar, marosim va bayramlarni ifodalash uchun ishlatilgan
Mamluk	Slave	Мамлюк	“Egalik qilinadigan kishi” - qul, sinonimi abd, lekin undan farqli o`laroq hech qachon ko`chma ma`noda qo`llanilmaydi (mas., “Allohning quli” kabi). Dastlab M. - tug`ma quldan farqli

			<p>ravishda faqat qo‘lga kiritilgan qul. Qur’onda bir marta abd mamluk (16:75/77) shaklida uchraydi. M.lar deb harbiy qo‘shinda xizmat qiluvchi qul-jangchilar atalgan. Ular ko‘pincha yuqori harbiy lavozimlarni egallab, bu bilan hatto ozodlikka ham erishganlar.</p>
Maqbara	Mausoleum	Склеб	<p>Arab. “marqad”, “turbat” - biror mayitning jasi joylashgan me’moriy inshoot yoki tosh tobut (dahma, sag‘ana). M.lar hashamatli murakkab imoratlar taqlidida taraqqiy topdi. Bunday hashamatli M.lar yaratilishi qad. Misr exromlarida Fir’avni ilohiylashtirish bilan buyuk va o‘lmas degan g‘oya olib borilgan. O‘rta Osiyoda dastlab qabr ustiga biror tosh qo‘yish, imorat qurish man etilgan bo‘lsa-da 9-a.dan xalifalar Sharafiga M.lar qurila boshlangan. Movarounnahrda ham 9-a.dan maxsus M.lar qurish odat tusiga kirgan. Keyinchalik, asosan, mashhur kishilar (podshohlar, ruhoniylar, olimlar) qabri ustiga turli M.lar qurilgan. Oddiy M. gumbazli chorsi xonadan iborat bo‘lgan, unga peshtoqli eshik orqali kirilgan. Ba’zan xonaning 4 tomoni ravoqli-chordara shaklida bo‘ladi, keyinchalik M. qurilishi tobora murakkablasha borib, unda ziyoratxona, go‘rxona, tagxona-sardoba kabi maxsus xonalar paydo bo‘lgan.</p>
Mixxat	Cuneiform shriting	Глинопись	<p>Shumerlar va forslarning qadimgi yozuvi.</p>

Mozaika	The mosaic	Мозаика	Rangli sopol yoki shisha parchalaridan devorda yoki polda ishlangan suvoqqa qadalgan manzarali rasm.
Moxenjodaro	Moxenjodaro	Мохенджедаро	Hindistondagi eng qadimgi sivilizatsiya.
Mumiyolangan jasad	Mummy carcase	Мумификация	Dafn etishga tayyorlangan, maxsus uzoq saqlanuvchi moddalar qo`shilmalari bilan ishlov berilgan jasad.
Murobitlar	Murobits	Мурабитуны	Arab. – “rabotda yashovchilar” Shim. Afrikadagi zohid, darvishlarning harbiylashgan diniy jamoasi a’zolari. 11-12-a.larda M. Marokashni zabt etgan va Al-Murobit sulolasi va davlatiga asos solgan. Keyinroq musulmon avliyo, yo‘lboshchilarini yoxud darvish jamoalarining tashkilotchilarini ham M. deb atashgan.
Nekropol	Necropolis	Некрополь	Qabrison; maqbara.
Nomlar	Names	Номы	Misrdagi ilk davlatlar.
Olimpiya o‘yinlari	Olympic games	Олимпийские игры	Peloponnes yarimorolidagi Olimpiya shahrida to‘rt yilda bir marta Olimpiyalik Zevs Sharafiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan yunon sport musobaqalari
Oykumena	Oykumena	Айкумена	Yeryuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.
Papirus	papyrus	Папирус	Poyasining mag‘izi yozuv yozishga material tayyorlash uchun ishlatiladigan qamish.
Patritsiylar	Patritsiys	Патрицы	Rimning qadimgi tub aholisi.
Plebeylar	Plebays	плебеи	Rimga ko‘chib kelgan odamlar va ularning avlodlari.
Payg‘ambar	Prophet	пророк	Fors. – “xabar keltiruvchi” - islom aqidasi ko‘ra, Alloh bilan uning bandalari o‘rtasidagi elchi; Allohning buyruq va

			<p>ko'rsatmalarini vahiy orqali qabul etib, ularni o'z ummatiga to'la-to'kis yetkazuvchi vakil. P. bilan Alloh o'rtasida elchilik qiluvchi farishta ham borki, uning nomi Jabroildir. Ba'zida Alloh taolo P.ga bevosita vahiy yuborishi va bevosita gaplashishi ham mumkin. Qur'oni karimda quyidagi P.lar nomi zikr etilgan: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Is'hoq, Ya'qub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zul-Kifl, Yunus, Muso, Horun, Shuayb, Ilyos, Alyasa, Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Yahyo, Iso va Muhammad alayhissalom. Ana shu va b. o'tgan P. larning barchasini tasdiq etib, ularning barhaq P. bo'lib o'tganliklariga ikkilanmay imon keltirish har bir musulmon zimmasidagi imon Shartlaridandir. Demak, P.larning birinchisi - Odam (a.s.) oxirgisi - Muhammad (s.a.v.)dir. Ulardan keyin to qiyomat kunigacha boshqa P. kelmaydi. Lekin Muhammad (s.a.v.)dan keyingi o'tgan davrda ham bir necha soxta P.lar paydo bo'lgani ma'lum. P.lar katta-kichik gunohlardan pokdirlar. Illo, ba'zi kichik yanglish, sahu xatolar sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. Aziz-avliyolarning hech biri P. darajasiga yeta olmaydi.</p>
Piktografik yozuv	Pictogram hic shriting	Пиктографическое письмо	Lotincha ("pictus" – "rasmli" va yunoncha "grapho" – "yozaman", "rasmli yozuv") - ma'lumotning umumiy

			mazmunini rasm orqali yoki rasmlarni ketma-ketligi orqali eslab qolish maqsadida tasvirlash. Bu yozuv neolit davridan beri ma'lum bo'lib, biron-bir tilning yozuv vositasi hisoblanmaydi.
Piramida	Pyramid	Пирамиды	Mahobatli tosh inshoot, fir'avnlr maqbarasi.
Qarzdorlik qulligi	Slavery of debt	Долг раба	Qarzni vaqtida qaytarmagan erkin fuqarolarning qullarga aylantirilishi jarayoni.
Qora tosh	Black stone	Черный камень	Arab. "al-Hajar al-asvad" - musulmonlar ziyorat qiladigan tosh. Kumushchambar bilan birlashtirilgan bir necha bo'lakdan iborat. U Ka'ba devorlaridan biriga tashqaridan joylashtirilgan. Makkaga hajga borgan musulmonlar Q.t.ni o'pib yoki qo'l tekkizib ziyorat qiladi. Q.t. islomda mo'tabar hisoblangan narsalardan biri. Shariatga ko'ra, umra yoki haj ziyoratiga borgan odam Q.t.ni o'pishi yoki qo'lining ichki tarafi bilan unga ishorot qilib, so'ng qo'lini o'pishi (istilom) sunnat amallardan hisoblanadi.
Qul	Slave	Раб	O'zga bir kishining mulki bo'lgan va ishchi kuchi sifatida ishlatiladigan erksiz odam ("so'zlovchi mehnat quroli"); qulni sotib olish va sotib yuborish mumkin bo'lgan.
Qurbonlik bag'ishlash	Devoting to sacrifice	Жертва приношение	Mehr-shafqatini qozonish maqsadida xudolarga tortiq etiladigan hadyalar.
Rabot	Rabat	Рабат	1) 7-10-a.larda Kichik va O'rta Osiyo hamda Shimoliy Afrikaning musulmonlar va xristianlar (yoki butparastlar)

			<p>yonma-yon yashagan hududlarida vujudga kelgan harbiy istehkomlar yoki qal'alar. R.larda istiqomat qilgan musulmonlar odatda ko'ngillilar sifatida g'ayridinlarga qarshi urushlarda qatnashganlar. 11-12-a.larda Marokashda paydo bo'lgan al-Murobit harakati va davlati o'z nomini R. atamasidan olgan. Ayni vaqtda Eronda R. o'zining harbiy ahamiyatini yo'qotdi va darvish-qalandarlarning qarorgohi - xonaqohlarga aylandi. Keyinchalik R.ning aynan shu ma'nosi butun musulmon dunyosiga yoyildi. 2) O'rta asrda musulmon shaharlari ichkarisidagi omborxonalar, karvonsaroylar yoki shahar tashqarisidagi bozorlar.</p>
Ramazon		Рамадан	<p>Hijriy yil hisobining to'qqizinchi oyi. Islom dinida R. oyida Alloh Muhammad (s.a.v.)ga Qur'onni vahiy qilgan deb talqin etiladi. Shu sababli, R. muqaddas oy hisoblanadi, bu oy davomida dindorlarga ro'za tutish buyuriladi. R. - arablarda islomdan avvalgi to'rt muqaddas oydan biri; dastlab yoz fasliga to'g'ri kelgan. Islom dini joriy etilishi arafasida Makkada R. oyida yaxshi amallar qilish (tahannus) an'ana bo'lgan. R. oyining 27-kuniga o'tar kechasi Muhammad (s.a.v.)ga birinchi vahiy kelgan. R.da ro'za tutish hijratdan 17-18 oy keyin, ya'ni qibla tomon o'zgartirilgandan bir oydan so'ng joriy etilgan. R.</p>

			<p>bilan bog‘liq ko‘p sanalar ichida Rasululloh (a.s.)ning nabiralari Husayn tavallud topgan kun (6-kun), Muhammad (s.a.v.)ning zavjalari Xadicha vafot etgan kun (10-kun), Badr jangi kuni (17-kuni), Muhammad (s.a.v.)ning Makkaga kirib kelishlari kuni (19-kun), Ali va imom Ali ar-Rizo vafot etgan kun (21-kun), Ali tavallud topgan kun (22-kun) kabilar e‘zozlanadi. Ro‘zaning tugashi iyd al-fitr bayrami bilan nishonlanadi. Turli musulmon mamlakatlarida qadimgi dinlarga oid marosim, bayramlarni R.oyiga to‘g‘ri kelib qolishi natijasida R.ga oid marosim va an‘analar ham har bir mamlakatda o‘ziga xos o‘tkaziladi.</p>
Rasul	Rasul	Пророк	<p>Arab. – “elchi” - islom an‘anasida Alloh tomonidan tanlab olinib, vakil qilingan va targ‘ibot yuritish, da‘vat qilish vazifasi topshirilgan, ilohiy kitob nozil qilingan payg‘ambar. Muhammad (s.a.v.)ga nisbatan doimo R. nomi qo‘llanib kelinadi, bu hatto tashahhud (kalimai shahodat)da ham ifodalangan. Nabiy - kitob nozil qilinmagan payg‘ambar. Shu boisdan ham har bir rasulni nabiy deb atash mumkinligi, ammo nabiy larni R. deb bo‘lmasligi qayd qilingan.</p>
Rekonkista	Reconquista	Реконкиста	<p>Ispancha “Reconquista”, “reconquistar” – “jang bilan qaytarib olmoq” - arablar (aniqrog‘i mavrlar) bosib olgan</p>

			hududlarni Pireney yarim oroli tub aholisi tomonidan 8-15 asrlarda jang bilan qaytarib olinishi.
Senat	Senate	Сенат	«Oqsoqollar kengashi» ma'nosini anglatadi
Strateg	Strateg	Стратег	Afinaning harbiy boshlig'i.
Sivilizatsiya	Civilization	Цивилизация	Qadimdagi jamiyat taraqqiyotining ancha yuksak darajasi (shaharlar, yozuv va davlatlarning rivojlanishi).
Sfinks	Spinks	Сфинкс	Jasadi sherniki va kallasi insonniki bo'lgan, piramidalarni qo'riqlovchi afsonaviy mavjudot
Shahar-davlat	City-government	Города-государства	Polis - tevaragidagi hududlarni tasarrufiga olgan o'zini o'zi boshqaruvchi shahar; Qadimgi Yunoniston va Rimdagi kichik mustaqil davlat; polisda hokimiyat teng huquqli fuqarolar qo'lida bo'lgan
Sudxo'rlik	usurers	Раставшичества	Foiz evaziga qarz berish orqali olinadigan foyda hisobiga boylik orttirish.
Termalar	Term	Римские Бани	Qadimgi Rim shahridagi jamoat hammomlari.
Tiran	Tiran	Тиран	Mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan hukmdor.
Vaqf	SHAqfa	Вакуфные земле	Arab - musulmon mamlakatlarida davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk. Vaqfnoma orqali rasmiylashtiriladi. Yer-suv, uy-joy, maktab, masjid, shifoxona va b. V. mulki bo'lishi mumkin. O'z mulkini V.ga topshirgan shaxslar mazkur mulkka nisbatan egalik huquqini yo'qotadi. Lekin uning o'zi yoki oila a'zolari yoxud uchinchi bir

			shaxs V. mulkidan vaqfnomada qayd etilgan maqsadlarda foydalanilayotganligini aniqlash uchun V. mulkini boshqarish huquqini saqlab qolishi mumkin. O'z mulkini V. mulki sifatida topshirgan shaxsning farzandlari yoki boshqa avlodlari mazkur V. mulkidan keladigan daromadlardan nafaqa olib turishi mumkin. V. mulkini Shariat qonuni bo'yicha davlat boshlig'i yoki qozi nazorat qiladi. Bu tartib Sharqning ba'zi mamlakatlarida hozir ham amalda.
Varvar	Varvar	Варвары	Dastlab: yunon tilida so'zlashmaydigan har qanday chet mamlakatlik kishi; keyinchalik bu so'z madaniylashmagan odamlarga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi.
Xiroj	Xiraj	Хараж	Xaraj (arab. – “soliq”) - 1) o'rta asr musulmon davlatlarida yer solig'i. Dastlab X.ni Arab xalifaligida faqat g'ayridinlar to'lashgan. Musulmonlar ushr solig'i to'laganlar. Keyinchalik yer egalari, asosan, musulmonlar bo'lgach, X. umumiy yer solig'iga aylangan. X. alohida shaxsdan yoki jamoadan (butun qishloq ahlidan) olinishi mumkin bo'lgan. So'nggi o'rta asrlarda u turli nomlarda atalgan. Usmonli turk imperiyasida X. deb musulmon bo'lmaganlardan olinadigan jon va yer soliqlari aytilgan (yana q. Jizya); 2) O'rta Osiyoda o'rta asrlarda davlat

			yerlaridan to'plangan soliq. O'rta Osiyoda 8-a.da islom dinining tarqalishi jarayonida joriy etilgan, Shariatda qonunlashtirilgan edi. Zamonaviy soliq tizimining amalga kiritilishi bilan X. yig'ish yo'qolib ketdi.
Xronologiya	Chronology	Хронология	Asrlar, davrlar, vaqt o'lchovi haqidagi fan; turli-tuman voqealar sanasi xronologiya yordamida aniqlanadi va aniqlashtiriladi.
Xums	Khoms	Хумс	Arab. – "beshdan bir" - islom an'anasida musulmon qo'shinlari qo'lga tushirgan o'ljalarning beshdan bir qismi. Uni avval Muhammad (s.a.v.) ixtiyoriga, keyinchalik xalifalar xazinasiga (q. Bayt ul-mol) ajratilgan, qolgan qismini harbiy boshliqlar o'zlari va lashkarlarga taqsimlaganlar. Bu qoida ilk islom davridayoq Qur'on oyatlarida (8: 42) bayon etilgan va shu asosida amalga kiritilgan, u o'rta asrlarda barcha musulmon mamlakatlarida qo'llanilgan. X. sifatida to'plangan mablag'larning beshdan bir qismi avval Muhammad (s.a.v.) va uning avlodlarini ta'minlashga, shuningdek, qo'shinlar xarajatlariga sarflangan. Xalifalar va keyingi hukmronlar davrida X. xazinaga tushgan.
Xun	Revenge	Мечь	O'ldirilgan urug' a'zosi uchun olinadigan qonli o'ch, qasos.
Zikkurat	Ziggurat	Зиккурат	Tepasida ibodatxonasi bolgan zinapoyali yirik minora.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. World and Global History : Research and Teaching / edited by Seija Jalagin, Susanna Tavera, Andrew Dilley- Pisa: Plus-Pisa University Press, 2011
2. History of ancient civilization. Charlez Seignobos 2006
3. История Востока. Восток в древности. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2002
4. Василев Л.С. История Востока. М., 2004.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Monmonier M., Rhumb Lines and Map Wars. A Social History of the Mercator Projection, Chicago 2004.
2. Taylor A., The World of Gerard Mercator, London 2005. Thower N.J.W., Maps and Civilization, Cartography in Culture and Society, 3rd edn., e-book, Chicago 2008.
3. Вигасин А.А. История Древнего Востока. М., 2001.
4. Всемирная история. Энциклопедия. Том 1. Под ред. Ю.Н.Франсева.
5. М., 2000 г
6. История Востока. Том 1. Восток в древности. М. 2004 г.
7. Бонгард – Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация. История. Религия. Философия. М., 2000г.
8. Umumiy tarix. Qadimgi davr. T., 2010.
9. Воynazarov F. Qadimgi Dunyo tarixi. Darslik. 2004.
10. Немировский А.И. История Древнего мира. В 2-х частях. Античность. М., «Владос», 2000.

MUNDARIJA

1-mavzu: Jahon tarixi faniga kirish: yangi yondashuvlar	3
2-mavzu: Jahon tarixi xaritalarda	39
3-mavzu: Qadimgi Misrdagi ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. Podsholiklar davri tarixi	61
4-mavzu: Qadimgi Misr manbalari va tarixnavisligi. Qadimgi misr madaniyati	82
5-mavzu: Qadimgi Mesopotamiyada davlatchilikning shakllanishi. Shumer, Akkad va Qadimgi Babil podsholigi.....	93
6-mavzu: Ossuriya davlatining tashkil topishi. Yangi Babil podsholigi.....	110
7-mavzu: Mesopotamiya davri bo‘yicha manbalar va tarixnavislik. Ossuriya va yangi babil podsholigi davrida madaniyat	121
8-mavzu: Yaqin Sharqda Qadimgi davlatlar: Xetlar davlati, Falastin, Frigiya va Lidiya, Finikiya davlatlarining vujudga kelishi	136
9-mavzu: O‘rta Sharqda Qadimgi davlatlarining vujudga kelishi: Qadimgi Midiya va Qadimgi Elam davlatlari.....	166
10-mavzu: Yaqin va O‘rta Sharq qadimgi davlatlari madaniyati	172
11-mavzu: Qadimgi Hindindistonda sivilizatsiyaning paydo bo‘lishi. Xarappa madaniyati.....	179
12-mavzu: Qadimgi Hindiston tarixnavisligi. Qadimgi Hindiston madaniyati va tashqi aloqalari	229
13-mavzu: Eronda ilk yirik davlatlarning vujudga kelishi: Ahamoniylar davlati. Yirik istilochilik urushlari	244
14-mavzu: Qadimgi Xitoyda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. Shan-in davlati. Chjou qabilalari bosqini	261
15-mavzu: Qadimgi Xitoy manbashunosligi va tarixnavisligi. Van Man islohotlari. Qadimgi Xitoy madaniyati	275
16-mavzu: Qadimgi Yunonistonda ilk davlatchilikning vujudga kelishi. Afina va Sparta. Forslar bilan urushlar	283

17-mavzu: Qadimgi Yunoniston tarixi manbalari va tarixnavisligi. Yunonistonda madaniyat	301
18-mavzu: Qadimgi Rimda davlatchilik asoslari. Rim Respublikasi va uning imperiyaga aylanishi jarayoni	319
19-mavzu: Qadimgi Rim madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari	352
Glossary	368
Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati	382

Qaydlar uchun:

Qaydlar uchun:

Qaydlar uchun:

Abdullayev U.A.

JAHON TARIXI

Bosishga ruxsat etildi 10.11.17.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Shartli 24,25 b.t. nusxada bosildi.
Buyurtma №

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017.